

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

R.E.XOLIQOVA, M.N.INATOV

**O‘ZBEKISTONNING
ENG YANGI TARIXI**

Darslik

**(Toshkent davlat texnika universiteti
Kengashi tomonidan
darslik sifatida tavsiya etilgan)**

**TOSHKENT
«TURON-IQBOL»
2023**

**UDK. 9(575. 1)(075)
X72**

Xoliqova R.E., Inatov M.N.

O'zbekistonning eng yangi tarixi. Darslik. –T.: «TURON-IQBOL», 2023. – 376 bet.

Darslikda mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar, mustaqil O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi, o'ziga xos istiqloq va taraqqiyot yo'lini tanlashi, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi, O'zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi, iqtisodiy islohotlar, ma'naviy va madaniy taraqqiyot, O'zbekiston va jahon hamjamiyati, yangilanayotgan O'zbekiston: Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari kabi masalalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Mazkur darslik bakalavr o'quv rejasida asosida yozilgan bo'lib, har bir mavzu bayoni bilan birgalikda tayanch so'z va iboralar, mustaqil ishlash uchun savollar, zamonaviy pedtsexnologiyalar, glossariy hamda test savollari ishlab chiqilgan.

Darslikdan O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganish, ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini o'tish jarayonida foydalanish mumkin. Darslik texnik ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, professor–o'qituvchilar, tadqiqotchi–izlanuvchilar uchun mo'ljallangan.

В учебнике освещаются научно-практические особенности общественно-политических процессов в Узбекистане накануне независимости, становление независимой Республики, выбор собственного пути независимости и развития, построение демократического государства и гражданского общества., а также такие вопросы как, экономические реформы, развитие рыночных отношений в Узбекистане, социальные изменения, духовное и культурное развитие, Узбекистан и мировое сообщество, обновленный Узбекистан: от национального возрождения к национальному прогрессу.

Учебник включает ключевые слова и фразы, вопросы для самостоятельной работы, современные педагогические технологии, глоссарий и контрольные вопросы, а также описание каждой темы. Учебник может быть использовано для изучения и организации лекционных и семинарных занятий по новейшей истории Узбекистана. Учебное пособие предназначена для профессорov, преподавателей, научных сотрудников и студентов.

The textbook highlights the scientific and practical features of socio-political processes in Uzbekistan on the eve of independence, the formation of an independent Republic, the choice of their own path of independence and development, the construction of a democratic state and civil society., as well as issues such as economic reforms, the development of market relations in Uzbekistan, social changes, spiritual and cultural development, Uzbekistan and the world community, the renewed Uzbekistan: from national revival to national progress.

The textbook includes keywords and phrases, questions for independent work, modern pedagogical technologies, a glossary and control questions, as well as a description of each topic. The textbook can be used to study and organize lectures and seminars on the modern history of Uzbekistan. The textbook is intended for professors, teachers, researchers and students.

Mas'ul muharrir: R.H. Murtazayeva – O'zMU professori, t.f.d.;

Taqrizchilar: D.B. Bobojonova – O'zDJTU professori, t.f.d.;

L.S. Xolnazarova – ToshDTU dotsenti, t.f.n.

ISBN 978-9943-14-728-7

©Toshkent davlat texnika universiteti, 2023

© «TURON-IQBOL», 2023

KIRISH

Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur.

Sh.M.MIRZIYOYEV

O'zbekiston 1991-yilda o'zining davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi mamlakatimiz taraqqiyotining yangi davrini boshlab berdi. Xalqimiz 130 yillik mustamlaka zulmidan qutuldi. Mamlakatimizda yangi davlatchilik asoslari, demokratiyaga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etish, bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratildi. Mustaqillik yillari mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida keng qamrovli islohotlar amalga oshirila boshlandi. Yangi jamiyat barpo etish birinchi navbatda o'z sohasini mukammal egallagan, har tomonlama rivojlangan va davr talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga ko'p jihatdan bog'liq ekanligi sir emas. Ana shunday kadrlarni tayyorlamasdan, ularning raqobatbardoshligini ta'minlamasdan turib islohotlardan ulkan natijalar kutish mushkul. Shu tufayli mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlaboq ta'lim masalalariga katta e'tibor qaratilganligi bejizga emas. O'tgan yillar davomida mamlakatimizda davlat boshqaruv tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarda islohotlar amalga oshirildi. Ta'lim sohasini yangilash, uning sifatini oshirish, har tomonlama yetuk barkamol avlodni shakllantirish ta'lim sohasidagi islohotlarning bosh mezoni bo'lib qoldi. Bugungi globallashuv davrida dunyoda kechayotgan o'zgarishlar, mafkuraviy qarama-qarshiliklar, ularning mazmun-mohiyatini tahlil etish, turli xil yot g'oyalardan yoshlarni himoya

qilish uchun ularda tarixiy tafakkurni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan O'zbekistonning eng yangi tarixi markazini tashkil etish to'g'risidagi qarori Oliy o'quv yurtlarida O'zbekistonning eng yangi davri tarixini chuqur o'rganish, bo'lajak mutaxassislarining bugungi kunda mamlakatimiz tomonidan yuritilayotgan ichki va tashqi siyosat, uning mazmun-mohiyatini to'g'ri va to'la anglash, O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi o'rni, mamlakatimizda kechayotgan islohotlar, uning mazmunini anglab yetish va ushbu jarayonlarda faol ishtirokchi sifatidagi faoliyatlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillari mamlakatimiz ta'lim sohasida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi, amaldagi Prezidentimiz tomonidan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi hamda O'zbekistonda Oliy ta'limni rivojlantirishning 2030-yilgacha bo'lgan konsepsiyasining qabul qilinishi, malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bundan tashqari, qo'shma dasturlar doirasida dunyodagi nufuzli oliy o'quv yurtlari bilan o'zaro hamkorliklarning yo'lga qo'yilishi, O'zbekistonda dunyoning yetakchi oliy o'quv yurtlari filiallarining ochilishi, xalqaro reyting va indekslarda respublika oliy o'quv yurtlarining nufuzini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni oliy ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tiborning hosilasi sifatida baholash mumkin.

Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda 2021–2030-yillarda tarix fanini rivojlantirish konsepsiyasi" e'lon qilindi. Konsepsiya bugungi kunda jahonda tarix fanining rivojlanishi, tarix borasida yangicha qarashlarning shakllanishi, tarixiy bilimlarni egallashning zaruratidan kelib chiqqan holda ilgari surildi. Tarixiy ilmlar va ularga suyangan holda ta'lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqot ishlarining ta'sirchanligini oshirish, jamiyatda milliy o'zlikni anglash hissini mustahkamlash, yoshlarda tarixiy tafakkurni tarbiyalash zarurligi yanada dolzarb bo'lib bormoqda.

Shundan kelib chiqib, O'zbekiston tarixini 2021–2030-yillargacha bo'lgan davrda rivojlantirish konsepsiyasining qabul qilinishi Vatan tarixini o'rganishga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligidan dalolat sanaladi.

Malakali kadrlarga bo'lgan talabdan kelib chiqib, bugungi kunda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri qabul qilinishi, mamlakatimizda mustaqillik yillari ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar va undagi ayrim kamchilik va nuqsonlarni tanqidiy tahlil etilgan holda bu tizimda o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Fanlarni optimallashtirish yo'lidan borilmoqda.

2020–2021-o'quv yilidan boshlab respublikamiz oliy o'quv yurtlarida «O'zbekistonning eng yangi tarixi» fani joriy etildi. Ushbu fan mamlakatimizning mustaqillik arafasi va mustaqillik yillari tarixini o'rganishga mo'ljallangan bo'lib, uning xronologik chegarasi 1989-yildan to bugungi kunlargacha bo'lgan davrni qamrab oladi.

Ushbu darslik texnika oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan bakalavriat yo'nalishidagi talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, 15 ta mavzudan iborat. Unda O'zbekistonning eng yangi tarixi davri, ya'ni mamlakatimizning davlat mustaqilligini qo'lga kiritish arafasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, yuzaga kelgan murakkab vaziyat, respublika mustaqilligining e'lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati, O'zbekistonning o'ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo'li, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi, iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi, O'zbekistonda bozor munosabatlari-ning rivojlanishi, ijtimoiy o'zgarishlar, ma'naviy va madaniy taraqqiyot, respublikada ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar, mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, O'zbekiston va jahon hamjamiyati, yangilanayotgan O'zbekiston: milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari kabi masalalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan.

Mazkur darslik mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlarning umume'tirof etilgan natijalari bilan boyitilganligi, fan bo'yicha innovatsiyalarning o'quv jarayoniga joriy etilganligi bilan ilgari o'quv adabiyotlaridan farq qiladi.

Mavzular Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan nomutaxassis fakultetlar talabalari uchun mo'ljallangan hamda shu yo'nalishda tasdiqlangan «O'zbekistonning eng yangi tarixi» fani namunaviy dasturi

asosida tayyorlangan. Mavzu so'ngida dars o'tishning texnologik usullari, nazorat savollari va topshiriqlar, tayanch tushunchalar, glossariy va testlar berilgan.

Umuman, ushbu darslik nafaqat oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari va talabalariga, balki O'zbekistonning eng yangi tarixi davriga qiziquvchi va uni o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganlar uchun ham mo'ljallangan.

1. FANNING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

1. 1. O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanining fan sifatida tutgan o‘rni, predmeti, maqsadi va vazifalari, fanning metodologik, ilmiy-nazariy asoslari, usullari va tamoyillari

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining e‘lon qilinishi mamlakatimiz tarixining yangi davrini boshlab berdi. O‘tgan yillar mamlakatimiz uchun mustaqilligimizni mustahkamlash davri bo‘ldi. Barcha sohalarida keng ko‘lamdagi islohotlar amalga oshirildi. Vatan tarixini o‘rganish, haqqoniy tarixni tiklash borasida ishlar amalga oshirildi. Tarixiy haqiqat ro‘yobga chiqarildi. Yangi o‘zbek davlatchiligi asoslari yaratildi. Vatanimiz tarixining yangi davri boshlandi. Bugungi kunda “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fan sifatida shakllandi.

Tarixiy haqiqatni ro‘yobga chiqarish, haqqoniy tarixning yozilishida tarix fani predmetining to‘g‘ri belgilanishi muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanining predmeti va uning to‘g‘ri tanlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

«O‘zbekistonning eng yangi tarixi» fanining **predmeti** mintaqada, qolaversa mamlakatimizda sodir bo‘layotgan jamiki voqea va hodisalar, ulardagi umumiylik va aloqadorlik qonuniyatlari, tarixiy hodisa va jarayonlar, umuman insoniyatning bugungi tarixiy jarayonlardagi faol ishtiroki kabi masalalarni o‘rganishdir.

Fanning **obyekti** aniq tarixiy davr, makon, zamon va geografik hamda umumiy mintaqaviy chegaralar, ma‘lum xalqlar, mamlakatlar tarixi bilan bog‘liq jarayonlar bo‘lib, ular voqea va hodisalarni bir butun va yaxlitlikda qamrab oladi.

Fanning **maqsadi** mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida yuz bergan muhim o‘zgarishlar, tub islohotlarning mazmun-mohiyatini ko‘rsatish va jamiyat hayotida aholining, jumladan, talaba-yoshlarning o‘rnini, o‘zligini anglatishdan iborat.

Fanni o‘qitishning vazifalari – mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistonda yuzaga kelgan murakkab vaziyatni hamda mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hamda boshqa sohalaridagi islohotlar mazmun-mohiyatini talabalarga tushuntirib berish, ularni Vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalash hamda milliy g‘ururni shakllantirishdan iborat.

Fanning **metodologik, ilmiy-nazariy asoslariga** «O‘zbekistonning eng yangi tarixi»ni rivojlantirishga doir davlatimiz rahbarining qarori, tarixiy-ma’naviy merosimizga tayangan holda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ko‘plab dolzarb mavzulardagi ilmiy tadqiqot ishlari, darslik va qo‘llanmalar, monografiyalar, ilmiy asarlar asos bo‘ladi.

Fanni o‘rganishda ma’lum **ilmiy, nazariy-metodologik tamoyillarga** tayanish ham muhimdir. Bunda ilmiylik, tarixiylik, xolislik (obyektivlik), tarixiy tahlil va qiyosiy taqqoslash, mantiqiy davomiylik va uzviylik, vorislik va izchillik metodlariga tayaniladi.

«O‘zbekistonning eng yangi tarixi» fanini o‘rganishda esa mamlakatimizni rivojlantirishga doir davlatimiz rahbarining farmon va qarorlari, tarixiy-ma’naviy merosimizga tayangan holda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ko‘plab dolzarb mavzulardagi ilmiy tadqiqot ishlari, darslik va qo‘llanmalar, monografiyalar, ilmiy asarlar manba sifatida xizmat qiladi, boshqa ijtimoiy fanlarga nisbatan aniq fan hisoblanadi.

Unda mamlakatimiz hududlarida mustaqillik arafasi va mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar, mustaqillikni mustahkamlash jarayonlari, ularning kechishi, xalqimiz turmush tarzida yuz bergan va berayotgan o‘zgarishlar, mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatida erishilayotgan yutuq va kamchiliklar, ularni bartaraf etish kabi masalalar o‘rganiladi. Aniq fan sifatida unda matematika usulidan keng foydalaniladi. Tarixiy voqea va hodisalar qat’iy aniqlikda, davriy ketma-ketlik-xronologik asosda o‘rganiladi. Shu bilan birga tarixiy voqelikning sabab va oqibatlari aniqlanib, shakl-shamoyillari va holati belgilanadi. «O‘zbekistonning eng yangi tarixi» fani yaqin o‘tmish tariximiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotining rivojlanishi va tanazzulining sabab va oqibatlarini o‘rganib, ulardan kelajak uchun zarur saboq va xulosalar chiqaradi. O‘zbekistonning eng yangi tarixi fani kishilik jamiyatining faqat bir

qirrasini emas, balki hamma tomonlarini uzviy bog‘liqlikda, bir butunlikda o‘rganadi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruv tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma‘naviy sohalarda katta o‘zgarishlar amalga oshirildi. Shuningdek, ta‘lim sohasida ham bir qator islohotlar o‘tkazilib, barkamol avlodni shakllantirishga yo‘naltirilgan islohotlar rivojlantirilib borilmoqda. Bugun jahonda yuz berayotgan voqea va hodisalar, mafkuraviy qarama-qarshiliklarning mazmun-mohiyatini tahlil etish, turli xil yot g‘oyalardan yoshlarni himoya qilish uchun tarixiy tafakkurni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda ta‘kidlash kerakki, Oliy o‘quv yurtlarida O‘zbekistonning eng yangi davri tarixini chuqur o‘rganish yosh mutaxassislarning bugungi davr siyosatini, jahon hamjamiyatidagi o‘rnini, davr qahramonlarini, ayniqsa o‘zining ham shu jarayon ishtirokchisi ekanligini to‘g‘ri va to‘liq anglashi jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan va bugungi kunda millat g‘oyasiga aylanib borayotgan “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasining tub mohiyatini anglab yetish va unga amal qilish, uni tom ma‘noda hayotga tatbiq etishda Vatanimizning mustaqillik tarixi, ayniqsa keyingi yillarda mamlakatimizda kechayotgan ulkan o‘zgarishlarning mohiyatini chuqur anglashlari uchun ham ushbu fanni o‘rganishni davr talab etmoqda.

Ushbu fan haqida so‘z yuritilganda, biz uchun, avvalo, mamlakatimizning 1991-yildan keyin bosib o‘tgan tarixiy yo‘li mohiyati va mazmunini anglab yetish muhimdir. Bu jarayon qanday borganligini, mamlakatimiz mustaqillik arafasida va uning dastlabki yillarida duch kelgan muammolarni tushunib yetish muhim. O‘zbek jamiyatida qadimgi davrlardan beri ayrim demokratiya unsurlari: o‘zini o‘zi boshqarishning jamoa shakli, mahalla yig‘inlari, oqsoqollar kengashlari va xalq diplomatiyasi mavjud edi. Biroq hozirgi kunda ushbu institutlar tomonidan an’anaviy funksiyalar bajarilishining o‘zi bilan qanoatlanib bo‘lmaydi. Biz ularning faoliyatini hozirgi davr talablariga mos yangi mazmun bilan to‘ldirishimiz maqsadga muvofiqdir.

Rivojlangan demokratik davlatlarda siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan birini tashkil etadi. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov fuqarolarning davlat va jamiyatni

boshqarishda keng ishtirok etishini ta'minlovchi siyosiy institutlarning xilma-xilligiga asoslangan yangi demokratik tizim negizlarini shakllantirish zarurligiga alohida e'tibor qaratgan.

Sobiq tuzum davrida byurokratik davlat va yakkapartiyaviylik tizimi shaxs ustidan yalpi hukmronligini o'rnatgan edi. Fuqaroning huquqiy himoyalanganligi, boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik usullari, har qanday muqobil fikrlashning tazyiq ostiga olinishi ko'p odamlarda chorasizlik tuyg'usini uyg'otib, real hayotdan uzoqlashish istagini oshirdi. «Siyosiy autsayderlar» deb ataluvchi kishilar sonining o'sishi, jamiyatda ijtimoiy pessimizm va boqimandalikning kuchayishiga sabab bo'ldi.

Fanni o'rganishda yuqorida ta'kidlab o'tilgan vazifalar qatorida jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy isloh qilishdagi o'zbek modelining konseptual asoslarini idrok etish, davlatimizning global va mintaqaviy integratsiya jarayonlarida ishtiroki bilan bog'liq masalalarning to'g'ri va haqqoniy tahlilini xalqimiz va kelajak avlodga yetkazish burchimizdir. Mamlakatimiz bugungi kunda o'z taraqqiyotining yangi pallasiga qadam qo'ydi. O'tgan besh yil davomida O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi hayotga keng joriy etildi. Bugungi kunda mamlakatimizda taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq qilish bo'yicha ishlar boshlab yuborildi.

O'zbekiston tarixi ko'hna bo'lib, olamshumul voqealarga juda boy. Mamlakatimiz jahon sivilizatsiyasining beshiklaridan biri hisoblanib, O'zbekiston tarixi qadim va yaqin ajdodlarimizning hayotiy kechmishlari qanday bo'lganligi, jahon tarixi taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini xolisona va haqqoniy o'rganadi. Umuman, Vatan tarixi ajdodlarimiz hayotida sodir bo'lgan tarixiy voqealarni tahlil qilishni, ularning sabablari va mohiyatini, ichki va tashqi omillarini, umumiy va o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berishni ko'zda tutadi.

1. 2. O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalalari

O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi o'ta muhim masala bo'lib, u fanning tub ilmiy-nazariy asoslarini tashkil etadi. Ma'lumki, tarixni davrlashtirish masalalariga sovet davrida sinfiylik nuqtayi nazaridan yondashilib, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarga bo'lib o'rganilar edi,

ya'ni eng qadimgi davrdan boshlab 5 ta taraqqiyot bosqichiga: ibtidoiy, quldorlik, feodalizm, kapitalistik, kommunistik jamiyatlarga bo'lingandi.

Mustaqillik yillarida tarixchi olimlar «Yangi tarix» ta'limoti va tarix fanini o'rganishning yangicha nazariy-uslubiy asoslariga suyangan holda tariximizni ilmiy asosda davrlashtirish sohasida ma'lum yutuqlarni qo'lga kiritdilar va tarixni sinflar kurashidan iborat, deb tushunish, uni 5 ta formatsiyaga bo'lishdan batamom voz kechdilar. O'zbekiston tarixiga oid dastur, darslik va o'quv qo'llanmalar sovet tuzumi davrining soxta, to'qima materiallaridan butunlay xoli qilindi.

Avvalo tarix fanini o'rganishda sivilizatsion yondashuv tamoyilidan kelib chiqib masala yechimini topishga harakat qilindi. Xususan, davrlashtirish masalasida tarix fanida amal qiladigan tamoyillarga asoslangan holda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy munosabatlar va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini hisobga olish kerak bo'ladi.

O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston tarixini zamon talablariga asoslanib davrlashtirish masalasida olimlar orasida hamon bahslar davom etmoqda. Bu masala yuzasidan, xususan, eng qadimgi davrlardan bugungi kunga qadar bo'lgan tariximizni davrlashtirishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan tarixiy-madaniy jarayonlar, masalaga sivilizatsion yondashuv, davrlashtirishning metodologik asoslari kabilarga akademik olimlar A.Asqarov, E.Rtveladze, A.Sagdullayev va boshqalar e'tibor qaratgan bo'lishlariga qaramay, davrlashtirish masalalari to'la yechimini topmagan. So'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlardan kelib chiqib, O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalalariga ham qisqacha to'xtalib o'tishni lozim topdik. Chunki, tarixni o'rganishda avvalo, xronologik izchillik asosida davrlarga bo'lib, har bir davrning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'ruzalarni belgilash hamda dars soatlarini taqsimlash maqsadga muvofiqdir. Qanchalik sodda ko'rinmasin, ushbu jihat ham murakkab masala hisoblangan tarixni to'g'ri davrlashtirishni talab etadi. Masalaning eng muhim tomoni esa, yoshlarimizga ilmiy asoslangan davrlashtirish asosida tarix fanidan ta'lim berishdir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mustaqillik davriga kelib, haqqoniy tariximizni yaratish borasida olib borilgan tadqiqotlar tufayli sovet davri mafkurasiga asoslangan besh bosqichli formatsion davrlashtirish inkor etildi. Qadimgi tarixni davrlashtirish masalasida tarixiy-madaniy taraqqi-

yotning ijtimoiy-iqtisodiy omillariga asosiy e'tiborni qaratish g'oyalari paydo bo'ldi. Xususan, A.Sagdullayevning fikricha, O'rta Osiyo tarixining eng qadimgi davri bir necha yuz ming yillarni o'z ichiga oladi. Yevropa va Osiyo hududlarida tarixiy va madaniy jarayonlar rivojlanishining notekisligi, ayniqsa, turli davrlarda moddiy madaniyatdagi o'zgarishlarning bir-biriga mos kelmasligi tufayli, ayrim hududlarga tegishli tarixiy sana va davrlashtirish bir-biridan farqlanadi.

A.Asqarovning fikricha esa, O'zbekiston tarixi jahon tarixining tarkibiy qismidir. Bu zaminda yuz bergan tarixiy jarayonlarni jahon tarixidan ajratib o'rganish mumkin emas. Ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarining mahsulidir. Har bir xalq yer kurrasining qaysi mintaqasida yashamasin, taraqqiyotning barcha bosqichlarini u yoki bu darajada bosib o'tishi shart. Ammo, jamiyat rivojlanishi hamma yerda birday kechmaydi. Jamiyatning notekis rivojlanish qonuniyati esa, qadimgi zamonlarda ko'proq mintaqalarning tabiiy-geografik va ekologik imkoniyatlariga bog'liq bo'lgan. Jamiyat hayotida yuz beradigan tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, O'rta Osiyo tarixining rivojlanish darajasi va ana shu mintaqa tarixi taqozo etgan holatdan kelib chiqib, O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston tarixini davrlashtirish mumkin. Tadqiqotchi qiyosiy tahlillar hamda tarixiy jarayonlarni obyektiv aks ettiruvchi omillarga asoslanib O'zbekiston tarixining eng qadimgi davrdan bugungacha bo'lgan davrini yettita katta xronologik davrga bo'ladi. Ammo, olimning bu davrlashtirishi biroz ixchamlashtirishni talab etadi. Bizga qadar olib borilgan tadqiqotlarning qiyosiy tahlillari hamda mavjud adabiyotlarni o'rganish asosida O'zbekiston tarixini davrlashtirish quyidagi ko'rinishda taklif etiladi:

1) Eng qadimgi davr. Bu davrni o'z navbatida quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin: a) O'rta Osiyoda ibtidoiy to'da davri – bu davr moddiy madaniyat taraqqiyotiga qarab xronologik jihatdan 1 mln. – 40 ming yil avval, ya'ni ilk va o'rta paleolit davrlarini o'z ichiga oladi; b) urug'chilik jamoasi davri – so'nggi paleolitdan boshlab urug'chilik, jamoalarining shakllanishi va mezolit, neolit, eneolit davrlarida ularning taraqqiy etishi (12–4 ming yil.). Bu davr ijtimoiy boshqaruvning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan izohlanadi;

2) Ilk davlatchilikka o'tish va davlatchilikning rivojlanishi davri. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot nuqtayi nazaridan bu davr quyidagi

bosqichlarga bo‘linadi: a) O‘rta Osiyoda ilk shahar madaniyatining paydo bo‘lishi hamda dastlabki davlatchilik tizimiga o‘tish davri (mil. avv. III–II ming yillikning birinchi yarmi); b) ilk davlatlarning paydo bo‘lishi hamda ma‘muriy-hududiy boshqaruvining rivojlanish bosqichlari (mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi – antik davri). Bu davr dastavval bronza, keyinroq esa temirning xo‘jalik sohasiga jadallik bilan kirib kelishi natijasida mehnatning dastlabki ijtimoiy taqsimoti, ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyoti, siyosiy birlashmalar, Qadimgi Baqtriya va Xorazm kabilarning paydo bo‘lishi, O‘rta Osiyoning Ahamoniylar, Makedoniyalik Aleksandr, Salavkiylar kabi polietnik davlatlar tarkibida rivojlanishi, xalqaro va o‘zaro madaniy-iqtisodiy aloqalarning taraqqiy etishi bilan izohlanadi;

3) O‘rta asrlar davri. Bu davr o‘z navbatida quyidagi bosqichlarga bo‘linadi: a) ilk o‘rta asrlar; b) rivojlangan o‘rta asrlar; d) so‘nggi o‘rta asrlar bosqichi. Xronologik jihatdan V asrdan XVIII–XIX asrning o‘rtalarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan bu davrning birinchi bosqichida O‘rta Osiyoda yer egaligi munosabatlari o‘zgarib, mulkchilikning turli shakllari (xususiy mulk, jamoa mulki, vag‘nze) paydo bo‘ldi, etnomadaniy jarayonlar jadallanib, mahalliy hokimiyatchilik davlat tizimining asosiga aylanadi. Ikkinchi bosqichda markazlashgan davlatchilik an‘analari kuchayib, O‘rta Osiyoda islom dini keng yoyiladi, ilm-fan va madaniyat yuqori darajada rivojlanib bu sohada uyg‘onish davri yuz berdi, etnik jihatdan xalqlarning shakllanishi nihoyasiga yetdi, yer egaligi va mulkchilikning turli ko‘rinishlari vujudga keldi. Uchinchi bosqichda (XVII asrdan boshlab) hokimiyat uchun o‘zaro kurashlar avj olib O‘rta Osiyo hududlari xonliklarga bo‘linib ketdi;

4) Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi va sovetlar hukmronligi davri. Xronologik jihatdan XIX asrning o‘rtalaridan 1991-yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan bu davr chor Rossiyasi va sovet mustamlakachiligi davrlariga bo‘linadi. Birinchi bosqichda chorizm bosqinchiligi tufayli O‘rta Osiyo Rossiyaning xomashyo bazasiga aylanib, bu hududlarga rus kapitali jadallik bilan kirib keldi, mahalliy ishlab chiqarish va hunarmandchilikka putur yetdi, milliy-madaniy qadriyatlarga e‘tibor berilmadi, natijada milliy ozodlik harakatlari avj olib, jadid namoyandalari rahnamoligida milliy ma‘rifatparvarlik g‘oyalari yoyildi.

Ikkinchi bosqichda, dastavval milliy mustaqillik uchun qurolli va g'oyaviy kurashlar avj olgan bo'lsa-da, ular beayov bostirilib, jamiyat taraqqiyoti kommunistik mafkuraga bo'ysundirildi, mulkchilikda davlat monopoliyasi ustunlik qildi, «o'z taqdirini o'zi belgilaydigan xalqlar» va sovet respublikalari amalda “markaz” manfaatlariga xizmat qildi;

5) Mustaqillik va milliy istiqloq davri. Mamlakatimiz tarixining mustaqillik davrini o'tgan yillar davomida amalga oshirilgan o'zgarishlar va islohotlar, ularning samaradorligiga qarab belgilash maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shu nuqtayi nazardan milliy mustaqillik davrini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin bo'ladi.

Birinchi bosqich 1991–2000-yillarni o'z ichiga olib, bu davrda mustaqillikning mustahkam poydevori bunyod etilib, «O'zbek modeli» asosida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sari yo'l tutildi, O'zbekiston jahon hamjamiyati tomonidan tan olindi, milliy istiqloq mafkurasi jamiyat hayotida keng kirib bordi.

Ikkinchi davri 2001–2010-yillarni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqich, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ta'бири bilan aytganda, «fan, demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri esa iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy gumanitar sohalarni izchil isloh qilishni ta'minlashda g'oyat muhim rol o'ynagan davr bo'ldi».

2010–2016-yillarni o'z ichiga olgan uchinchi bosqichida davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud huquqi va axborot sohalarni isloh qilish, saylov huquqi erkinligini ta'minlash, fuqarolik institutlarini rivojlantirish, bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish davri bo'lib qoldi.

2016-yildan to bugungi kungacha davrni o'z ichiga olgan navbatdagi bosqich mamlakatimizda hamma sohalarda yangilanishlar davri bo'lib, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab qo'yilgan Harakatlar strategiyasida berilgan vazifalarni hayotga tatbiq etish, jamiyatimizni barcha sohalarda isloh etish, uning reyting salohiyatini ko'tarish jarayonlari bilan bog'liqdir. Bu bosqich tariximizda «Yangilanayotgan O'zbekiston – yangicha dunyoqarash» davri deb baholanmoqda.

Ta'kidlash lozimki, taklif etilayotgan ushbu davrlashtirish bu mavzuni yakunlamaydi. Tarix fanini o'qitish borasida dolzarb bo'lib turgan davrlashtirish masalalari hali jiddiy bahs-munozaralarga sabab bo'lishi tabiiydir. Ammo, bu yo'nalishda aniq konsepsiya ishlab chiqilib, o'quv jarayoniga joriy etilishi davr talabidir.

Fan uchun tarixiy manbalarning o'rni va ahamiyati nihoyatda katta. Zotan, manbalar tarixni tilga kiritadi. Manbalar o'z holatiga ko'ra, yozma va moddiy ko'rinishlarga ega bo'ladi, tarixning eng qadimgi, ya'ni yozuvsiz zamonlarga oid davrini o'rganishda arxeologik, antropologik va etnogafik manbalar yordamga keladi.

Moddiy ashyoviy manbalarga qadimda inson qo'li bilan yaratilgan hamma narsalar kiradi. Yozma manbalarga esa qoyatoshlarga, sopol, yog'och, teri va hokazolarga bitilgan qadimgi yozuvlar hamda kitoblar kiradi.

1. 3. Intellektual salohiyatli, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazishda fanning tutgan o'rni

Mustaqillik tufayli O'zbekistonda milliy, demakki, ma'naviy-ruhiy erkinliklarga keng yo'l ochildi, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy, madaniy hayotining muhim tarmog'i hisoblangan ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan hayotiy muhim omillardan bo'lgan yuksak ma'naviyatli, dunyoqarashi keng intellektual salohiyatli, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish, umuman ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib kelinmoqda hamda bu borada beqiyos ishlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqil O'zbekiston davlati hamisha demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini o'zining asosiy ustuvor yo'nalishlari qatoriga qo'yib kelmoqda. Ayni paytda, O'zbekiston tarixi fani, uning mantiqiy davomi bo'lgan «O'zbekistonning eng yangi tarixi»ni o'qitish, uning mazmun-mohiyatini ularga tushuntirish orqali, yuksak ma'naviyatli, dunyoqarashi keng, intellektual salohiyatli, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil inson-

ni voyaga yetkazishdek mas'uliyatli vazifa turibdi. Buyuk shaxslar ta'kidlaganidek, yoshlar bilan ishlashda ham yangi yondashuvlar kerak... Zero, bugungi yoshlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratish hukumatimiz oldiga qo'yilgan eng oliy maqsadlardandir. Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda yoshlar ijtimoiy-siyosiy kuch sifatidagi faoliyatining muhimligi va amaliy ahamiyati, O'zbekistonda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar, jamiyat hayotining barcha jabhalarini modernizatsiyalash va yangilash masalasi bilan chambarchas bog'liqligida hisoblanadi. Chunki, mamlakat aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil qiladi. Yuqoridagi mulohaza O'zbekiston yoshlar davlati ekanligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Yoshlarning bilim olishi, ta'lim-tarbiyasi, kasbiy tayyorgarligi masalalari O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, O'zbekiston yoshlari ijtimoiy-siyosiy faolligi masalalariga zamon talablari asosida e'tibor qaratishi lozim.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab shaxsni har tomonlama kamolga yetkazish va rivojlantirish masalasiga alohida g'amxo'rlik ko'rsatilib, yoshlarga oid qonun, qaror va davlat dasturlari qabul qilindi hamda izchil ravishda hayotga tatbiq etilmoqda. Bu siyosatning mazmun-mohiyati, asosiy yo'nalishlari, yoshlarga beriladigan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy kafolatlar O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 20-noyabrdagi «O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi Qonunida belgilab qo'yilgan.

Qonunga ko'ra, yoshlar masalasi O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, uning maqsadi yoshlarning bilim olishi, ta'lim-tarbiyasi, kasbiy tayyorgarligi, ijtimoiy-siyosiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidorining to'liq ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iborat. Bu qonunning qabul qilinishi o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash yuzasidan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», «Maktab ta'limini rivojlantirishning umummilliy dasturi» kabi qator hujjatlar ishlab chiqilishiga mustahkam zamin yaratdi.

Respublika yoshlarini birlashtirib, keng qamrovli faoliyat olib borayotgan yangi shakllangan yoshlar tashkiloti barkamol avlodni tarbiyalashda ulkan ishlarni amalga oshirmoqda. Shuningdek, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning iste'dodini ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratib berayotgan turli jamg'armalar faoliyatini ham yuksak baholash mumkin. O'zbekiston yoshlari mamlakatdagi o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni shakllantirishda asosiy yetakchi kuch bo'lib, ularning intilishlari, muammolari hamda O'zbekistonda islohotlarni amalga oshirishdagi ishtirokini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Darhaqiqat, mustaqillik yillari O'zbekiston yoshlari hayotida tub burilish yasadi. Bu davrda yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga bag'ishlangan qonun, davlat dasturlarining qabul qilinishi hamda ularga alohida e'tibor berib kelinayotganligi yutuq va muvaffaqiyatlar garovi bo'ldi.

Ilm-u ma'rifatli, tarbiyali, yuksak ma'naviyatli, dunyoqarashi keng barkamol avlodni komil inson qilib tarbiyalash bugungi kundagi dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Komil inson masalasi ajdodlarimiz tarixiy taraqqiyoti davomida barcha allomalarni o'ylantirib kelgan masalalardan biridir. U juda ko'hna va qadimiy tarixga ega bo'lgan, shu bilan birga yangi hamda o'ta dolzarb tushunchadir. Shu sababdan ham komil inson azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, millat ma'naviyatining uzviy tarkibiy qismi bo'lib kelgan. Dunyoviy va diniy bilimlarning ilg'or namoyandalarining qarashlariga ko'ra insondagi komillik aqliy, ma'naviy, ruhiy, axloqiy yetuklik bo'lib, komillikka erishishning yo'li ilm-u ma'rifatga, fazl-u kamol kasb etishga, salbiy xislatlar, nuqsonlardan xalos bo'lishga va o'zgalarga yordam berishga intilishdir.

Hozirgi bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barqarorligi sharoitida komil inson deganda, chuqur bilim, yaxshi axloq, ma'naviy yetuklik bilan bir qatorda, fuqarolik jamiyatida yashash talablari, mustaqillikni anglash va uni himoya qilish qobiliyati ham tushuniladi.

Komil insonlarni, ya'ni har tomonlama kamol topgan, aql-idrokli, mustaqil fikrlaydigan, irodali va o'zini o'zi anglagan shaxslarni tarbiyalashda «O'zbekistonning eng yangi tarixi» fani katta ahamiyatga ega. Chunki, yoshlarning dunyoqarashini shakllantiradigan, ularni milliy o'zligini tanishga, Vatanni sevishga bevosita o'rgatadigan, sodiq fuqarolarni tarbiyalaydigan fan tarix fanidir.

«Aynan ana shunday o‘z kuchiga va irodasiga ishongan, keng fikrlaydigan bilimli va madaniyatli yoshlarimiz har qanday buzg‘unchi oqimlarga berilmasdan, hayotda o‘z yo‘lini topib olishi muqarrar», – deb yozgan edi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov.

Har tomonlama kamol topgan yoshlar O‘zbekiston kelajagini, uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti taqdirini hal etadigan kuch ekanligini hisobga olgan mamlakat rahbari yosh avlodni «Mana shu muqaddas tuproq – meniki, bu yerda ota-bobolarimizning hoki poklari yotibdi, agar shu musaffo osmon, mana shu yorug‘ hayot uchun, ona Vatanim uchun men kurashmasam, men jonimni fido qilmasam, kim kurashadi», – degan e‘tiqod ruhida tarbiyalashga alohida e‘tibor qaratib: «...kundalik hayotimizdan saboq chiqarib, ertangi kunimizning, kelajagimizning mustahkam poydevorini bugun yaratib, bu Vatan meniki, uni har qanday balo-qazolardan asrash, himoyalash uchun men kurashmasam, kim kurashadi, degan da‘vat bilan yashash barchamizning, avvalambor, yoshlarimizning – mening farzandlarimning burchiga aylanishini istardim», – deb ta‘kidlaydi Birinchi Prezidentimiz.

Dunyo va jamiyat haqida axborotlar ko‘lami nihoyatda kengayib borayotgan hozirgi davrda bu vazifani muvaffaqiyatli hal etishda «O‘zbekistonning eng yangi tarixi» fanining o‘rni beqiyos.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida shaxsni har tomonlama kamolga yetkazish va rivojlantirish eng muhim vazifalardan biri bo‘lganligi boisdan ham, talabalarga «O‘zbekistonning eng yangi tarixi» fani o‘qitilishi bugungi kunning eng muhim dolzarb masalasiga asosiy e‘tibor qaratilmoqda.

Shundan kelib chiqib, bugun yuksak ma‘naviy va axloqiy fazilatlariga ega, bilimli, samarali mehnat qilishga qodir fuqarolar jamiyatning eng muhim boyligi va asosiy kapitali, uni harakatga keltiruvchi kuch ekanligini teran anglash asnosida milliy qadriyatlar, qadimiy an‘analарimizni, jahon sivilizatsiyasi tarixida o‘chmas iz qoldirgan ajdodlarimizni yangi sharoitda yana bir bor kashf etamiz, qaytadan dunyoga tanitish imkoniyatiga ega bo‘lamiz hamda yoshlarga ibrat sifatida ko‘rsatamiz, buyuk zotlarga munosib bo‘lishga undaymiz.

Mamlakatning intellektual va ma‘naviy salohiyatini yuksaltirishdan manfaatdor ekanligi, globallashuv sharoitida bilimlilik mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish va uning milliy boyligini ko‘paytirishning muhim tarkibiy qismiga

aylanib borayotganligi, aholining yuksak ma'naviy darajasi esa odamlarda huquqiy madaniyatni, erkin va demokratik huquqiy davlatda yashash hamda mehnat qilish qobiliyatini shakllantirish, o'z huquq va erkinliklarini anglash, ulardan shaxs, davlat hamda jamiyat manfaatlari yo'lida foydalanish imkonini beradi.

Ta'lim tuzilishini modernizatsiyalash, uni demokratlashtirish, kompyuterlashtirish va insonparvarlashtirish, ta'lim dasturini erkin tanlash, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish tobora kuchayib bormoqda. Ta'limni fundamentalashtirish, ma'naviy mas'ul shaxsni shakllantirish, bilishni emas, balki fikrlashni o'rgatish zarurligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Zero, yosh avlodning har tomonlama kamol topishi uchun zamon ruhiga mos yangidan yangi qonun loyihalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha innovatsion loyihalar ishlab chiqish, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida sifat o'zgarishlariga erishish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish zarur.

Binobarin, hukumatimiz yoshlar bilan ishlashda asosiy e'tiborni, avvalo, ularni tabiatimizga begona bo'lgan g'arazli oqimlardan asrab, zamonaviy bilim va tajribaga, intellektual salohiyat va ilg'or texnologiyalarga ega, ma'naviy yuksak, komil insonlar etib voyaga yetkazish, jamiyatda o'z oldiga qo'ygan strategik maqsadlarga erisha olishiga va munosib o'rin egallashiga qaratadi.

Mustaqillik yillarida ma'naviyat va tarixiy xotira masalalari davlat siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etib kelmoqda. Chunki «millatning o'zligini anglash tarixni bilishdan boshlanadi». Ushbu haqiqatni anglash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi zarurligi ta'kidlangan edi. Saboq beradigan, ogohlikka undaydigan va donolik bag'ishlaydigan tarix bizlarni o'sha dahshatli yillardan qanchalik uzoqlashtirgan sayin, urush haqidagi muqaddas tarixiy xotira shunchalik buyuk ma'naviy kuchga aylana boradi. Zero, o'tmish xotirasiga ega bo'lmagan, o'z xalqining tarixiy tajribasidan mahrum kishi butunlay tarixiy istiqbolni his qilishdan ayrilib qoladi. Teran va dono bir hikmat bor, o'z qahramonlarining xotirasini muqaddas bilib e'zozlovchi xalqgina buyuk bo'lishga, buyukman deb da'vo qilishga munosibdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish ma-

salalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida yoshlarni vatanparvarlik, milliy iftixor ruhida tarbiyalash, buning uchun tarixni yaxshi o'rgatish, bu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish muhimligi ta'kidlandi.

Ushbu yig'ilishda – Shavkat Mirziyoyev: «Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur», – dedi.

Mutasaddilarga O'zbekistonda tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Zero, «tarix xalq ma'naviyatining asosidir». Binobarin, mustaqillik sharo-fati bilan falsafa, tarix, ayniqsa, Vatan tarixini o'rganish, uning uslubiyatiga, «oq dog'lari»ga doir masalalar faol muhokama etila boshlandi. Ijtimoiy-gu-manitar fanlarda jamiyat va shaxs masalalari, madaniy meros, til muammolari kabi masalalarni hal etishga intilish yuzaga keldi. Bu masalalarga bag'ishlangan ilmiy, ayniqsa, publitsistik maqolalar gazeta va jurnallar sahifalarida muntazam bosilib turdi.

Tariximiz, eng avvalo o'tgan buyuk siymolar xalq orasidan chiqqan shu omma taqdiri bilan hamnafas ajdodlarimiz hayot yo'lida, ularning Vatan oldidagi benazir xizmatlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Ana shu buyuk zotlarimizning bebaho merosi hamisha boshimizni baland, qaddimizni tik qiladi, o'zbek millatining kelajagi buyuk davlat qurishda jahon ayvonida turib, o'z iymoni, e'tiqodlari, ma'naviy ruhlari bilan qo'llab-quvvatlab, olg'a yetaklaydi. Mustaqillik bergan buyuk ne'matlardan biri ham shundaki, millatimiz o'tmishi kamida uch ming yilga borib taqaladigan haqqoniy tarix bilan qurollantirish hamda uzoq va yaqin o'tmishda yashab o'tgan buyuk zotlarimizni xotirlab, ularning hurmatini bajo keltirish imkoniyatini berdi. Bu esa, yoshlarni ajdodlarga munosib avlodlar ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Millat o'zligini qanchalik chuqur anglasa, o'zining izzatini, qadr-qimmatini joyiga qo'ysa, uni boshqalar ham ulug'laydi, hurmat qiladi. Azaliy qadriyatlarimiz, islom diniga xos qoidalar, qadimiy an'ana va qadriyatlarga sodiq o'zbek millati o'zining insonparvarlik g'oyalari bilan asrlar osha nom qozonib kelmoqda. O'zbek millatining bugungi kunida yaqqol namoyon bo'layotgan insonparvarligi keksa yoshdagi kishilarga hurmat, kichiklarga mehr-shafqat, izzat, muhtojlarga xayr-saxovat qilish, ota-ona izmida turish,

qarindosh-urug'ning, qo'ni-qo'shnining og'irini yengil qilib, tashvish-u quvonchlariga sherik bo'lish kabi insoniylik fazilatlarini behisobdir. Ana shu ezgu xislatlarga zid qarashlarni o'zida shakllantirgan xudbinlar, millatfurushlar, xoinlar, qora niyatli kishilar oz bo'lsa-da, uchraydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, millati uchun qayg'urgan, uni turli xil g'arazli xuruj va hamlalardan, tuhmat va bo'htonlardan himoya qilgan, o'zbek xalqi boy madaniyatining ezgu g'oyalarini keng targ'ib qilishda jonbozlik qilgan insonlarni, millat g'ururiga aylangan insonlarni ulug'lash, ularning nomlarini abadiylashtirish bugungi kundagi eng dolzarb masaladir.

Respublikani juda murakkab va og'ir yillarda boshqarib, mamlakat taraqqiyoti yo'lida fidokorona xizmat qilgan, ijtimoiy va ijodiy faoliyati bilan milliy adabiyot va madaniyat rivojiga katta hissa qo'shgan atoqli davlat arbobi, taniqli yozuvchi Sharof Rashidovdek insonga nisbatan adolatsizlik qilindi. Inson tirik paytida uni ko'klarga ko'tarib, vafotidan keyin yer bilan yakson etsa, qadrini bebro' qilsa, bu o'zi qanday davlat, qanday jamiyat bo'ldi, deya hayqirasan kishi. Biroq, afsuski yaqin o'tmishimizda ana shunday achchiq va achinarli adolatsizlik sodir etildi. Bu borada Prezident Sh.Mirziyoyev shunday xulosa yasaydi: «Lekin, tarix guvoh, hayotda shunday adolatsizliklar ham bo'lar ekan. Agar har bir xalq, har bir davlat mustaqil bo'lmasa, boshqalar uning nafaqat dehqonini, nafaqat ishchisini, hattoki shoir-u olimini ham, davlat arbobini ham istaganicha tahqirlashi, insoniy sha'nini tuproqqa qorishi mumkin ekan». Darhaqiqat, biz yaqin o'tmishimizda kechgan ana shunday ayanchli voqealar misolida qo'lga kiritgan mustaqilligimizning naqadar buyuk ne'mat ekanligini, uning ahamiyati va mohiyatini, qadr-qimmatini yanada teran anglab yetishimiz, uni har qanday yovuz kuchlardan himoya qilishga doimo tayyor turishimiz shartligini, sobiq sovetlar hududining ba'zi o'lkalarida eski tuzumni yana qaytarishga urinishlar bo'layotgan hozirgi paytda bu achchiq haqiqatni hech qachon unutmashligimiz, mustaqillikning qadriga yetishimiz zarurligini unutmashligimiz lozim.

Hozirgi kunda ana shu noyob va mo'tabar inson qoldirgan boy merosning qay darajada saqlanib, avaylanib kelinayotgani, uni har tomonlama o'rganish, keng omma, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirish, jahon jamoatchiligiga targ'ib etish borasida amaliy ishlar faol olib borilmoqda. Vatanimiz kelajagi bo'lgan barkamol avlodni yetishtirish uchun millatimizning har bir vakili o'z farzandini milliy g'oyamiz, qadriyatlarimiz, tilimiz, qadimiy tariximiz, madaniy

boy o‘tmishimizda chuqur iz qoldirgan buyuk siymolarimizga muhabbat va hurmat ruhida tarbiyalash bilan birga jahoniy o‘zigagina xos bo‘lgan insonparvarlik, baynalmilallik, samimiyluk va bag‘rikenglik ruhida ham ta‘lim va tarbiya berishimiz, bugungi kunda har qachongidan ham zarurroqdir.

Dunyodagi har qanday millatning o‘zigagina xos milliy qiyofasini namoyish etadigan, belgilab turadigan xususiyatlari bo‘ladi: davlati, tili, dini, urf-odatlari, qadriyatlari, madaniyati, musiqasi, san‘ati, mashhur shaxslari, ruhiyati, iftixor tuyg‘usi... Nazarimizda milliy g‘oya tushunchasi millatga xos bo‘lgan, hozir sanab o‘tilgan xususiyatlar zaminida shakllanadi, muayyan bir qolipga tushadi, uning tarixini shakllantiradi.

Bugunga kelib dunyoda o‘ziga yarasha yuksak salohiyati, benazir nufuziga mos ravishda o‘rin egallayotgan mustaqil O‘zbekiston atalmish davlat bor ekan, bu yurtda ana shu nomga munosib millat yashamoqda. Bu yurtda uning ota-bobolari, avlod-ajdodlari, buyuk zotlari yashab o‘tgan. Dunyoda millatlar ko‘p, ular ichida buyuk tarixiy o‘tmishga ega bo‘lgan o‘zbek millati ham bor. Jahon ahli O‘zbekistonga qarab, bizning millat sifatidagi qiyofamizni, millatimizga xos bo‘lgan bag‘rikengligimizni ko‘radi.

Xalqimizning otashqalb farzandi, mamlakat taraqqiyoti yo‘lida fidokorona xizmat qilgan, ijtimoiy va ijodiy faoliyati bilan milliy adabiyot va madaniyat rivojiga katta hissa qo‘shgan atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidovning yorqin xotirasini ulug‘lash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 27-mart kuni «Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini nishonlash to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi. Hamda mazkur yubiley tantanalari yuqori saviyada nishonlandi. Bu bilan el-yurtimiz taqdiriga daxldor tarixiy adolatni tiklash, ajdodlarimizning ezgu ishlari, jasoratini ulug‘lash va abadiylashtirish, mamlakatimizda inson manfaatlarini ta‘minlashga qaratilayotgan e‘tibor xalqimizning inson xotirasi va uning qadr-qimmatiga ehtirom ko‘rsatishdek o‘lmas qadriyatlari, bebaho ma‘naviy fazilatlarini namoyon etib kelmoqda.

Shu munosabat bilan tarixni dohiylar emas, balki ongli va bunyodkor inson, xalq yaratishi haqidagi fikrlar yangicha mazmun va falsafiy ruh bilan bayon qilindi. Haqiqatan ham, tarixni xalq yaratadi, uni yaratishda faol qatnashgan, xalq ruhida, ongida va qalbida o‘zlaridan chuqur va o‘chmas iz qoldirgan tarixiy shaxslar ham xalq farzandlaridir. Shu sababli tarixchi

mutaxassislar ramziy ma'noda tarixni uni yaratgan va yaratayotgan xalqning tarjimaiy holiga qiyoslashadi. Shuning uchun ham qadimgi tarix, o'rta asrlar tarixi, zamona tarixi kabi iboralar ishlatiladi. Bular yaxlit holatda Vatanimiz tarixini anglatadi.

Ma'lumki, xalqimiz o'zining ming yilliklar mobaynida shakllangan adolatparvar siyosati, ma'naviy barkamol milliy davlatchilik an'analari bilan jahon davlatchiligi va siyosati taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Xalq o'z tarixini asosan o'z davlatini qurishdan boshlab yaratishga kirishadi. Ma'lumki, turkiy tilli xalqlar o'z tarixida ko'plab buyuk va shavkatli saltanat qurgan xalqdir. O'lis o'tmishimizga nazar tashlab, uning butun borlig'ini jamlab baholar ekanmiz xalqimizning voqealarga boy ko'p ming yillik tarixi davomida ko'p sinovlarni boshidan kechirganligi, madaniyat, ilm-fan, o'z davlatchiligi yutuqlaridan bahra olganligiga amin bo'lamiz. Shu bilan birga, tarixning o'yini ham, omonsiz jang-u jadallar ham, tabiiy ofatlar va ochlik ham xalqimizning insoniylik tabiatiga dog' tushira olmaganligini teran anglaymiz.

Mustaqillik tufayli milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, Vatan uchun iftixor, g'ururlanish va shu singari boshqa tuyg'ular yana bir bor cho'qqiga ko'tarildi, xalqimizning mustaqil fikrlashi, ma'naviy dunyosi, ijtimoiy-siyosiy faolligi o'sib bordi, bu esa yangidan yangi yutuqlar garoviga, kuch-qudrat manbayiga aylandi, intellektual salohiyatni yuksaltirdi. Shuningdek, o'tmishdagi buyuk zotlarimiz, Vatanni bosqinchilardan himoya qilgan Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, buyuk Sohibqiron bobomiz Amir Temur vasiyatlarini va o'gitlarini hamda qoldirgan ulkan ma'naviy merosidan o'rnatilgan va ibrat olishga hamda tariximizni haqqoniy o'rganishga, unga munosib baho berishga imkon yaratildi.

Buyuk ajdodlarimizni teran anglash, chuqur o'rganish asnosida milliy qadriyatlarimizni, qadimiy an'analalarimizni, jahon sivilizatsiyasi tarixida o'chmas iz qoldirgan ajdodlarimizni yangi sharoitda yana bir bor yangidan kashf etamiz, qaytadan dunyoga tanitish imkoniyatiga ega bo'lamiz hamda kelajagi porloq bo'lgan yoshlarga ibrat va namuna sifatida ko'rsatamiz, buyuk zotlarga munosib bo'lishga astoydil undaymiz.

Asrlar osha kelayotgan bu ma'naviy boylikning umri boqiydir. Bag'rikeng xalqimizning qadriyatlarini – tinchlik, ma'rifat, yuksak axloq-odob ifodasi

sifatida vaqtlar o'tgan sayin, zamonlar kechgan sayin yulduzdek yarqirab, chiroy ochaveradi, kelajagi buyuk bo'lgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim omil sifatida xizmat qilaveradi. Bu haqiqatni chuqur anglagan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: «...har bir suveren davlat o'zining betakror tarixi va madaniyatiga egadir. Bu tarix, bu madaniyatning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi esa, haqli ravishda shu mamlakat xalqi hisoblanadi. O'zbek xalqining necha ming yillik tarixida qanday murakkab davrlar, og'ir sinovlar bo'lganini barchamiz yaxshi bilamiz. O'zbekistonning eng yangi tarixi va biz erishgan olamshumul yutuqlar mard va matonatli xalqimiz har qanday qiyinchilik, to'siq va sinovlarni o'z kuchi va irodasi bilan yengib o'tishga qodir». Zero, ajdodlarimizning bebaho tarixiy merosi – abadiyatga daxldor ma'naviy xazina ekanligi chuqur anglansa, tarixiy xotiramiz qanchalik boy, mazmunli bo'lsa, xalq shunchalik uyushgan, hamjihatlikda yurt taraqqiyoti yo'lida beqiyos o'rni va ulug'vor ishlarni bajarishga qodir bo'ladi. Shu bois, ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda tarixiy xotiraning o'rni va saboqlari to'g'risidagi fikrlari «O'zbekistonning eng yangi tarixi» fanining mazmun-mohiyatini talabalarga yetkazishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Nazorat savollari:

1. Tarix fanini o'rganishda qanday metod va usullardan foydalaniladi?
2. Manbalar nechta turga bo'linadi?
3. Tarixiy manbalarni o'rganishning ahamiyati qanday?
4. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» nomli asari yozilgan sanani aniqlang.
5. Vatan tarixining komil insonni tarbiyalashdagi roli va ahamiyatini ko'rsating.
6. O'zbekiston tarixining jahon xalqlari tarixi va boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqasini ko'rsating.

2. MUSTAQILLIK ARAFASIDA O‘ZBEKISTONDAGI IJTIMOYIY-SIYOSIY, IQTISODIY JARAYONLAR

2. 1. XX asr 80-yillari o‘rtalarida respublika ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy hayotidagi inqirozli holatlarning kuchayib borishi. “Paxta ishi”, “O‘zbeklar ishi”

XX asrning 80-yillari sobiq sovet davlatida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy jihatdan yaqqol tanazzul holati yuzaga kelib qolgan davr edi. «Qayta qurish» siyosati barbod bo‘lishi, ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan, mulkchilikning turli shakllari raqobat asosida saqlanishni inkor etgan mavhum siyosiy, sinfiy, umumiy manfaatlarni milliy manfaatlardan ustun qo‘ygan, yagona partiyaning hukmronligiga tayangan mustabid tuzum butunlay istiqbolsiz ekanini amalda yana bir bor ko‘rsatgan edi. Bu vaqtda O‘zbekiston iqtisodiy hayoti juda og‘ir ahvolda, xususan, sanoatning biryuqlama rivojlanib, «paxta» sanoat kompleksiga moslashishi, ekologik ahvolning og‘irlashib, onalar va bolalar o‘limining oshib ketishi, millatlararo munosabatlarda ziddiyatli holatlar yuzaga kelib, milliy mojarolar yanada kuchayib, milliy urf-odatlar, qadriyatlar ta’qib ostida qolishi respublikani tang ahvolga solib qo‘ygan edi.

XX asrda 70 yildan ko‘proq hukm surgan sovet davlati tomonidan yuritilgan noto‘g‘ri, samarasiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosat 80-yillarning oxiriga kelib O‘zbekiston aholisining yashash sharoitlari yanada og‘irlashuviga hamda ko‘plab muammolar girdobiga tortdi. O‘sha davrda sobiq Ittifoqda yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar 80–90-yillarning boshlariga kelib ijtimoiy keskinlikning kuchayishiga sabab bo‘ldi. Xo‘sh, bu muammolar nimalardan iborat edi?

Avvalo, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash darajasining pasayib borishi, ko‘plab iste’mol mollari taqchilligining sezilarli oshib borishi, transport, savdo, sog‘liqni saqlash, uy-joy qurilishi sohalaridagi xizmat ko‘rsatish sifatining pasayishi, mehnat rejimi va unga haq to‘lash,

dam olish sharoitlarining yomonlashib borishi, pulning qadrsizlanib borishi, davlat budjetining kamomadi o'sishi, ishlab chiqarish va mehnat intizomining keskin pasayib ketishi va hokazo.

Sobiq Ittifoq davrida respublika iqtisodiyoti bir tomonlama, faqat xom ashyo yetishtiradigan holga tushib, kompleks rivojlanish yo'liga, aholi ehtiyojlarini qondirishga o'tkazilmagani ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilishidagi nomutanosibliklarda namoyon bo'ldi. Masalan, sanoatda tayyor mahsulotning ulushi 50%, qayta ishlanmasdan, respublika tashqarisiga chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotining ulushi 80% dan ko'proqni, respublikadan olib ketilayotgan mahsulot tarkibida xomashyo, materiallar va chala tayyor mahsulotlar ulushi 65% dan ko'proqni, respublikaga keltirilayotgan tovarlar tarkibida sanoat mahsulotlari (mashinalar, asbob-uskunalar, yengil sanoat va oziq-ovqat mahsulotlari) ulushi 60% ni tashkil etgan. Ko'rinib turibdiki, respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli ancha ayanchli holatda bo'lgan. Bu esa O'zbekistonning mustaqillik arafasida katta qiyinchiliklar girdobiga tortilish xavfini yanada kuchaytirmoqda edi. Muammolarning oldini olish, zarur choralarni ishlab chiqish va joriy etish talab etilmoqda edi.

Ana shunday o'ta murakkab bir vaziyatda SSSR Bosh prokuraturasi o'ta muhim ishlar bo'yicha tergovchisi T.Gdlyan boshchiligidagi guruh O'zbekistonga yuborildi. Ularga respublikadagi "nosog'lom" muhitni o'rganish, "aybdorlarni" jazolash yuklandi.

O'sha davrlarda o'zbeklar hayotida «Paxta ishi» va «O'zbeklar ishi» deb yuzsizlarcha nomlangan tergovlar boshlanib ketdi. Gdlyan guruhi o'zbekistonliklarga nisbatan qonunsiz, beshafqat ishlarni boshlab yubordi. Ularning zo'ravonligi oqibatida sudlar adolatsiz hukmlar chiqara boshladi.

1989-yilgacha bu ishlar bo'yicha 4,5 mingdan ko'proq kishi sudlandi. O'sha paytda respublikadagi qamoqxonalarda joy qolmagani uchun sudlanganlarning mingdan ortig'i jazoni o'tash uchun Sibir qamoqxonalari jo'natildi.

Gdlyan guruhi O'zbekiston hududida cheklanmagan vakolatlarga ega bo'ldi. Aybsiz odamlarni, ularning oila a'zolarini qamoqqa olish, jismoniy va ruhiy qiynoqqa solish avj oldi. Hibsga olinganlar tergov usullariga dosh berolmay o'z jonlariga qasd qilishgacha borib yetdilar.

O‘zbekistonda inson huquqlari behad toptalayotganligi haqida Moskva minglab xatlar jo‘natildi. Afsuski, bu xatlar tekshirilmasdan, hatto javob yozishga ep ko‘rilmadi. Aksincha Gdlyan va uning gumashtalariga ketma-ket unvonlar berildi.

1989-yil 23-iyun kuni respublika rahbarligiga Islom Karimov saylandi. Yangi rahbarning faoliyati O‘zbekiston fuqarolarining huquqlarini himoya qilish, toptalgan huquqlarini tiklash kabi oliyjanob va xayrli ishdan boshlandi.

«**Paxta ishi**»ni ko‘rib chiqish uchun maxsus komissiya tuzildi. Komissiya ish faoliyatiga 40 ming tomndan iborat ishni ko‘rib chiqish topshirildi. 1990-yilning iyun oyiga kelib, komissiya eng muhim bir xulosaga keldi. 1990-yil 13-iyun kuni Moskva shahriga SSSR Bosh prokurori, SSSR Oliy sudining raisi va SSSR Adliya vaziri nomiga yozilgan xatda komissiya xulosalari batafsil ko‘rsatildi. Bu xatda «**Paxta ishi**» chuqur tahlil qilinib, sudlanganlarni oqlash masalasi qo‘yilgan edi. Biroq yuqoridagi tashkilotlar ko‘mak o‘rniga **tazyiqni** kuchaytirdilar.

Respublika Birinchi Prezidentining qat‘iyatli harakati bilan nohaqlik barham topdi. Komissiya ikki yildan ko‘proq vaqt orasida **40 ming tomlik ishni ko‘rib** chiqdi. **3,5 mingdan ko‘proq kishi oqlandi.** Qolganlarning jazo muddatlari kamaytirilib, bir qismi afv etildi.

2. 2. Aholi turmush darajasining og‘irlashuvi. Orol voqeasi, Farg‘ona fojiasi. Respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘zgarishlar. Milliy manfaatlar ustuvorligining o‘sib borishi

XX asrning 80-yillari o‘rtalariga kelib mamlakatdagi iqtisodiy taraqqiyotni chuqur tahlil qilmasdan 90-yillarning oxiriga borib, sobiq ittifoqda milliy daromadni 2–2. 5 barobar o‘stirish, aniqrog‘i avvalgi 70 yil ichida amalga oshirilgan ishlarni keyingi 15 yil ichida bajarish vazifalari qo‘yildiki, bular mutlaqo haqiqatdan uzoq edi. Bu hol tabiiy ravishda 70–80-yillar boshlarida jamiyat oldidagi muhim xalq xo‘jaligi vazifalarini ishlab chiqarishni jadallashtirish bilan emas, balki qo‘shib yozish, pora berish, oshna-og‘aynigarchilik bilan osongina hal qilishga olib keldi.

Davlat rejalashtirish tizimi murakkab ijtimoiy va xo‘jalik vazifalarini ma‘muriy-buyruqbozlik yo‘li bilan hal qilishga qodir bo‘lmay qol-

di. Natijada iqtisodiy o'sish har yiliga kamayib bordi. Respublika xalq xo'jaligida umumiy ijtimoiy **mehnat unumdorligini pasayishi hisobga mo'ljaldagidan 4,3 foiz yoki 850,4 million so'mga kam milliy daromad** olindi. 1989-yilda O'zbekistondagi har bir kishiga sobiq Ittifoqdagi o'rtacha darajadan bir yarim baravardan kam kapital mablag' to'g'ri keldi.

Shu davrga kelib respublika qishloq xo'jaligida ko'plab muammolar to'planib qoldi. Sovet tuzumining navbatdagi islohoti ham yo'l qo'yilgan xatolar tufayli barbod bo'ldi.

Sovet hukumati xalqning real daromadlarini oshirish, yashash sharoitlarini yaxshilash, tibbiy xizmat va sog'liqni saqlash sohasidagi imkoniyatlarini yarata olmadi. Holbuki bu davrda AQSHda bir yilda bitta maktab o'quvchisiga 3386 dollar, Angliyada 2285 dollar sarflangani holda sobiq Ittifoqda 257 rubl sarflangan, bog'cha tarbiyalanuvchisiga AQSHda 3000 dollar, Yaponiyada 11 000 dollar sarflangani holda SSSRda 533 rubl mablag' ajratilgan. Bular ittifoq bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar bo'lib, O'zbekistondagi ahvol o'rtacha ko'rsatkichdan ham past edi.

O'zbekistonda oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi texnikasi va hatto to'qimachilik mahsulotlari import qilina boshladi. Respublika aholisi ehtiyojlari uchun 8–9 mlrd. so'mlikka yaqin tayyor mahsulotlar chetdan olib kelingan. Natijada, import eksportdan ikki barobarga oshib, sut, go'sht, tuxum, baliq va boshqa iste'mol mahsulotlari aholi jon boshiga ittifoqdagi o'rtacha me'yorning yarmini tashkil qildi. Markaz tomonidan aholining asosiy iste'mol mollariga bo'lgan ehtiyojini qondirolmaganligi oqibatida qora bozor O'zbekiston umumiy savdo aylanmasining 20 foizini tashkil qildi. Vaholanki, qora bozorda mahsulotlar ancha baland narxda sotilgan, ushbu hol aholi turmush darajasining pasayishiga olib kelgan omillardan biri edi. O'zbekistonda 1975-yilda kishi boshiga go'sht va go'sht mahsulotlari iste'moli 31 kg, sut va sut mahsulotlari 165 kg, tuxum iste'moli 93 dona, baliq iste'moli 4,0 kg ni tashkil qilgan bo'lsa, 1990-yilga kelib bu ko'rsatkich mos ravishda go'sht va go'sht mahsulotlari bo'yicha 32 kg, sut va sut mahsulotlari bo'yicha 210 kg, tuxum 120 dona, baliq 4,9 kg ni tashkil etdi.

Sobiq Ittifoq davrida O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan eng kam rivojlangan mintaqalaridan biriga aylanib qolgan

edi. Aholi farovonligi va sanoat rivojlanishining ko'pgina ko'rsatgichlari bo'yicha respublika Ittifoqdagi o'rtacha statistik darajadan ancha orqada edi. Bu haqda "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnalining 2016-yilda chop etilgan maqolasida ta'kidlanishicha, sobiq Ittifoqdagi o'rtacha hayot darajasiga nisbatan O'zbekistondagi og'ir va ayanchli ijtimoiy-iqtisodiy manzarani quyidagicha kuza-tish mumkin bo'ladi: aholi jon boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha O'zbekiston 12-o'rinda, milliy daromad hosil qilish bo'yicha 2 hissa past, xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish bo'yicha o'rtacha ko'rsatgichning 40%i, qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligi bo'yicha 50 %, go'sht, sut va sut mahsulotlari, tuxum iste'moli 50%, oyiga 75 so'mdan kam yalpi daromad oladiganlar ulushi (45 % aholi) 2 hissa past ko'rsatgichga ega bo'lgan. Bu shundan dalolat beradiki, respublika aholisining turmush darajasi Ittifoq o'rtacha ko'rsatgichlaridan orqada qolib kelgan, aholining ko'pchilik qismi qo'l uchida kun ko'rgan.

Respublika sanoati bir tomonlama rivojlanib, asosan paxtachilikka ixtisoslashdi. Ko'pgina sanoat korxonalari Ittifoq vazirliklarga bo'ysunib, ularning daromadlari asosan Ittifoq xazinasini to'ldirgan. Respublika Ittifoqda paxta yetkazish bo'yicha yetakchi bo'lsa-da, paxtaning bor-yo'g'i 8%i respublikada qayta ishlangan, qolgan qismi esa respublikadan tashqariga olib chiqilgan va qayta ishlanib tayyor mahsulot sifatida qaytarilgan. Daromadlarning asosiy qismi tashqarida qolgan.

Yana bir muammoli masala aholi bandligi bilan bog'liq masala sanaladi. Respublikada aholining o'sishi nisbatan yuqori bo'lgan. Shundan kelib chiqqan holda demografik vaziyatni ilmiy o'rganish, sanoat korxonalarini joylashtirish bilan bog'liq masalalarni ilmiy asoslangan holda hal etishga yetarli darajada e'tibor qaratilmadi. Sanoat korxonalarini aksariyat hollarda yirik sanoat markazlarida joylashtirish davom etdi. Sanoatni qishloqqa yaqinlashtirish, qishloq aholisi, ayniqsa yoshlar bandligi masalasi har doim ham yechim topavermadi. Mahalliy aholining milliy an'analari, uning mentaliteti hisobga olinmadi. Natijada aholi orasida ishsizlar soni yuqoriligi saqlanib turgan bir sharoitda respublikaga chetdan ish kuchini safarbar etishga kuchli e'tibor qaratildi. Ularga imtiyozlar yaratildi. Bu ayrim holatlarda mahalliy aholi orasida noroziliklarga ham sabab bo'ldi.

Respublikadagi ijtimoiy ahvol, odamlarning ijtimoiy ta'minoti va ularni ijtimoiy himoya qilish mutlaqo qoniqarsiz holatda edi. Ayniqsa, qishloq aholisining kanalizatsiya va vodoprovod bilan ta'minlanishi atigi 5%, ichimlik suvi bilan ta'minlanishi salkam 50%, tabiiy gaz bilan ta'minlanishi 17% ni tashkil etar edi. Ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari: sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, maktabgacha ta'lim muassasalari juda og'ir ahvolda bo'lgan, maktab va kasalxonalarining 60% i nobop binolarda joylashtirilgan, bu esa o'sha davrda insonning har tomonlama uyg'un kamol topishi, uning shaxs sifatida ma'naviy rivojlanishi uyoqda tursin, ko'pincha yashash uchun kerak bo'ladigan eng oddiy narsalar ham yetishmasligini ko'rsatar edi.

Sovet imperiyasining mustamlakachilik siyosati tufayli yillar osha mustahkamlanib borgan paxta yakkahokimligi Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda ham tabiat muvozanatining buzilishiga, suv manbalari – daryolar o'zanlarining kamayib ketishiga sabab bo'ldi. Tabiat muvozanati buzilib, yer, suv, havoning zaharlanishi inson nasl-u nasabiga, ruhiyatiga salbiy ta'sir etib, jismoniy va hatto ma'naviy barkamol kishilar paydo bo'lishiga to'siq bo'ldi. Bu sohadagi salbiy illatlar, turg'unlik hodisalari va buzilishlar 70–80-yillarning o'rtalarigacha bo'lgan davrda yanada kuchaydi.

Ittifoqning bir guruh taniqli olimlari L.I. Brejnevga yo'llagan xatida O'rta Osiyoda yangi o'zlashtirilayotgan yerlarni sug'orishda suv taqchiligidan oldini olish uchun Sibir daryolarini O'rta Osiyoga burish taklifini bildirganlar. Xatda keltirilishicha, agar mintaqadagi suv resurslaridan foydalanish shu darajada davom ettirilsa, 1980-yilda Sirdaryoning, 1985-yilga borib Amudaryoning suvlari to'la sug'orish uchun olinishi haqida ogohlantirilgan. Lekin, bu o'rinli taklif ham Ittifoq rahbarlari tomonidan e'tiborga olinmagan.

XX asr oxiriga kelib Quyi Amudaryo hududidagi ekologik fojيانing salbiy oqibatlari ma'muriy-buyruqbozlik tizimining nuqsonlari bilan uyg'unlashgan holda yuzaga keltirgan “nosog'lom muhit” katta ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar tug'dirdi:

Birinchidan, dengiz sathining pasayishi va u bilan bog'liq holda 3 mln. gektardan ortiq yerlarning sahroga aylanishi bu hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy, sanitariya-gigiyena va tibbiy-biologik holatlarning yo-

monlashuvi bilan birga, ekologik nuqtayi nazardan atrof-muhitning ifloslanishi va iqlimning o'zgarishiga ham sabab bo'ldi. Jumladan, hudud iqlimining kontinentalligi yanada keskinlashdi. Yoz faslida issiqlik 2 darajaga ko'tarilgan bo'lsa, qishdagi harorat 2 darajaga pasaydi. Chunki shimoldan va boshqa tomonlardan keladigan har xil oqimlarni to'sib turish uchun dengiz suvi endi ma'lum ma'noda yo'qolgan edi. Natijada, sovuq kunlar erta tushib, kuzdagi hosillar, xususan paxta va boshqa ekinlar ayrim hollarda pishmay qoladigan bo'ldi. Buning natijasida Qoraqalpog'iston va xorazmlik dehqonlar kuzni bexavotir kuta olmaydigan bo'lishdi. Hatto, ayrim sho'ro olimlari bu hududning ob-havosi kelajakda Chelyabinskdagidek bo'ladi, deb ta'kidlay boshlashdi. Lekin, bu holat markazdagi rahbariyatni qiziqitirmadi. Paxta yetishtirish muttasil oshib bordi.

Ikkinchidan, suvning ko'p miqdorda sarflanishi, suvdan foydalanishning va yerlarni o'zlashtirishning ilmiy jihatdan asoslanmaganligi, qishloq xo'jaligining ekstensiv rivojlanishi kabi omillar uyg'unlashgan holda ekin maydonlarining sho'rlanishiga, juda katta ekin maydonlarining yaroqsiz holga kelishiga olib keldi va xalq xo'jaligiga katta iqtisodiy talafot yetkazdi.

Uchinchidan, Orol dengizining 3 mln. gektardan ortiq qurigan o'zani tuz ko'tarilishining o'chog'iga aylandi. Tuz changlarini 15 km balandlikka ko'taruvchi va 200 km kenglikda harakatlantiruvchi kuchli bo'ronlar vujudga kela boshladi. Har yili atmosferaga 150 mln. tonna tuz changi ko'tarilib, 800 km uzoqlikka yetib boradigan bo'ldi. Havodagi tuz miqdori 5–12 % ga yetdi. Bu holat qumlik maydonining kengayishiga, to'qayzorlar, turli o'simliklar, qushlar va hayvonlar turlarining yo'qolishiga olib keldi. Uning ta'sirida yaylovlarning tabiiy potentsiali keskin pasayib, taxminan 5 mln. tonnaga yaqin qimmatli ozuqabop o'simliklar yo'qotildi.

80-yillar oxirida respublika ijtimoiy hayotida jonlanish boshlandi. Odamlar xilma-xil fikrlar bildirish, dillaridagini oshkora ayta olish imkoniyatiga ega bo'la boshladilar. Mustaqillik uchun harakatda yangi to'lqin boshlandi. Ammo yurtimizda hukmron bo'lgan Markazdan yuborilgan "kadrlar to'dasi" ularning qosh-qovog'iga qarab ish yuritadigan ayrim mahalliy o'jiz rahbarlar bu g'oyaga, uni amalga oshirishga to'sqinlik qildilar. Milliy qadriyatlarimizga nisbatan yana qatag'onlik uyushtiril-

di, to‘qib chiqarilgan “paxta ishi” bahonasi bilan minglab kishilar jinoiy javobgarlikka tortildi va ularning aksariyati qamaldi. Tarix taqozosi bilan elim deb, yurtim deb, yonib yashayotgan Islom Karimovdek fidoyi inson O‘zbekistonning birinchi rahbari lavozimiga saylanishi bu sohadagi adolatsizliklarga barham berilishiga olib keldi, adolat tiklandi.

Kommunistik mafkura o‘z hukmronligini saqlab qolish uchun hatto ayrim respublikalarda millatlararo nizolarni uyushtira boshladi. 1989-yilda **Toshkent, Farg‘ona, Andijonda** ro‘y bergan millatlararo mojarolar, **Kavkazdagi** qurolli to‘qnashuvlar, quvg‘in qilingan xalqlarning noroziliklaridan razilona manfaat yo‘lida, respublikalarda, shu jumladan O‘zbekistonda paydo bo‘layotgan hurlik ovozi bo‘g‘ish uchun foydalandilar.

Ikkinchi jahon urushi yillarida mustabid tuzum tomonidan **deportatsiya** qilingan bir qator xalqlar qatorida **mesxeti turklari** ham bo‘lib, ular asosan aholi zich yashaydigan Farg‘ona viloyatiga, bir qismi Andijon, Namangan va Toshkent viloyatlariga joylashtirilgan bo‘lib, buning oqibatida ijtimoiy-iqtisodiy va millatlararo munosabatlarda qo‘shimcha muammolarni yuzaga keltirgan edi. Bu muammoga sovet davlati o‘z vaqtida e‘tibor bermadi. 1989- yil 24-mayda Quvasoy shahrida yoshlar o‘rtasida (R. Nishonov ta’rificha, «bir banka qulpunoy uchun») bo‘lgan bezorilik millatlararo (mahalliy yoshlar bilan mesxeti turklar o‘rtasida) to‘qnashuvni keltirib chiqardi va bu mojaro Farg‘ona vodiysida ommaviy tus oldi. Respublikaning siyosiy rahbariyati yuzaga kelgan bu murakkab vaziyatni to‘g‘ri baholay olmagan uchun, yoshlarning ommaviy chiqishlari, millatlararo to‘qnashuvlar sodir bo‘ldi.

Bunday ommaviy chiqishlarga, kommunistik mafkura tartibiga qarshi borishlariga «ko‘nikmagan» mustabid tuzum siyosiy rahbariyati namoyishchilarga qarshi harbiy qism tashladi. 1989-yil **8-iyunda Qo‘qonda** tinch namoyishchilar ana shu harbiy qism askarlari tomonidan o‘qqa tutildi. Natijada, **50 dan ziyod namoyishda qatnashgan aholi halok** bo‘ldi (ularning ko‘pchiligi yoshlar edi), **200 dan ortig‘i esa yarador** qilindi. Umuman **3–12-iyun kunlari Farg‘ona** viloyatida bo‘lgan millatlararo to‘qnashuvlar va ularning harbiylar tomonidan o‘qqa tutilishi oqibatida **103 kishi halok bo‘lgan. 1009 kishi yarador bo‘lgan va 650 xonadonga o‘t** qo‘yilib, vayron qilingan.

Mudhish voqealardan keyin berilgan rasmiy bayonotlarga ko'ra, respublikada vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy keskinlikdan ommaviy tarbihsizliklarni, millatlar o'rtasida nifoq va to'qnashuvlarni keltirib chiqarishga uringan ekstremistik kuchlar turgan. **Bu ataylab uyushtirilgan siyosiy ig'vogarlik edi.** Farg'onadagi mudhish voqea Sumgayit, Boku, Tog'li Qorabog', O'sh-O'zgan va boshqa mintaqalarda xuddi shunday tarzda uyushtirilgan ig'vogarlik bilan bir qatorda turar edi. Farg'ona voqealaridan keyin O'zbekistonning I.Karimov boshliq siyosiy rahbariyati bu masalada fojining asl sabablarini ochib tashlash, o'z xalqining sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish yo'lidagi o'zlarining urinishlarida respublikaning eng keskin muammolarini birinchi bor oshkora ravishda muhokamaga qo'ya boshladilar.

Islom Karimovning mustaqillik arafasida markazga har doim ham xush kelmaydigan, ammo respublika va uning aholisi manfaatlariga javob beradigan ichki hamda tashqi siyosati, amalga oshirgan choratadbirlari, rahbarlik irodasi va siyosatchi sifatidagi aql-idroki tarixiy burilish pallasida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. I.A.Karimov respublikamizdagi o'sha davrdagi og'ir ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni chuqur tahlil qilib, aholining, ayniqsa, qishloq aholisining moddiy va ijtimoiy ahvolini birmuncha bo'lsa-da yaxshilash uchun paxta ekin maydonlarini qisqartirish, uni ishlab chiqarish hajmlarini kamaytirishni maqsad qilib qo'ydi. Shuning uchun 1989-yil 17-avgustda I.Karimov boshchiligida respublika hukumatining yig'ilishida «qishloqda yashovchi har bir oilani tomorqa bilan ta'minlash, ularga yakka tartibda uy-joy qurish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish haqida»gi qaror qabul qilinadi. Qishloqda yashovchi har bir kishiga o'rtacha 25 sotixdan yer ajratib berish va tomorqa maydonlarini qariyb 4,5 barobar ko'paytirish ko'zda tutilgan edi. Buning natijasida 1989–1990-yillarda 1,5 mln.dan ko'proq oilaga qo'shimcha yer ajratildi. 700 ming oilaga yangi tomorqa yerlari berildi. Paxta yetishtirish plani 700 ming tonnaga kamaytirildi. Bu paxta yakkahokimligini bartaraf etish yo'lidagi dastlabki, ammo o'ta muhim amaliy qadam edi. Respublikada kuchayib ketgan bu jarayonlar o'z navbatida iqtisodiy tanglik bilan bog'liq ekanligi ma'lum edi. Avval milliy manfaatlari toptalgan xalqlarga o'zligini anglashga yo'l ochgan O'zbekiston endi butun respublikada iqtisodiy tanglikni oldini olish cho-

ra-tadbirlarni ko‘rishi kerak, ularni izga solish uchun chora-tadbirlarni belgilab, amalga oshirish yo‘llarini ishlab chiqish ham muhim edi.

1990-yil 1-noyabrga kelib qishloqda yashovchi 2. 220.129 oiladan 1. 327. 149 oila yangi tomorqa uchastkalari olish va mavjudlarni kengaytirishga muhtoj bo‘lgan holda ularning 394. 098 nafari yangi yer uchastkalari olishdi. Ularga foydalanishlari uchun 55. 036 gektar yer ajratib berildi. O‘z uchastkalarini kengaytirishga muhtoj bo‘lgan 933 164 oiladan hammasining talabi qondirildi. Ularga qo‘shimcha ravishda 101. 117 gektar yer ajratildi. Natijada, qishloq mehnatkashlarining davlat tomonidan olgan yerlari 156. 153 gektarga yetdi. Bundan tashqari bu qaror bajarib bo‘lingandan so‘ng yangi tashkil topgan oilalarga ham maydoni 11. 009 gektar bo‘lgan 87. 515 ta tomorqa uchastkasi ajratib berildi. Mazkur tashkil topgan xo‘jaliklarda yetishtirilgan mahsulotlarni sotib olish maqsadida davlat 1990-yilda 765. 862 ta shartnoma tuzdi.

Yer uchastkalari yiriklashtirilgan holda dehqon shaxsiy yordamchi xo‘jalikda yetishtirilgan mahsulotning oilasidan ortgan qismini bozorga chiqarish imkoniga ham ega bo‘ldi. Natijada, mayda tovar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yila boshladi. Bunday yordamchi xo‘jaliklar bozor munosabatlarini rivojlantirish, oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishga muayyan hissa qo‘sha boshladilar. 1990-yil 28-iyulda Islom Karimovning «Qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta‘minlashni yaxshilash to‘g‘risida»gi Farmoni e‘lon qilindi. Mazkur Farmonning qabul qilinishi qishloq qiyofasini tubdan o‘zgartirish, u yerda yashovchi fuqarolarning turmush tarzini yaxshilash borasida tashlangan yana bir muhim qadam edi.

Shunday murakkab ijtimoiy, siyosiy vaziyatda respublikada keng munozaraga sabab bo‘lgan muammolardan biri o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasi bo‘ldi. Ma‘lumki, turg‘unlik yillarida o‘zbek tiliga munosabat o‘zgacha edi. O‘zbek tili davlat idoralarida ham, yig‘ilishlarda ham iste‘molda emas edi. 80-yillarning oxiriga kelib xalq milliy ongining o‘sishi, jamiyatning ijtimoiy qonuniyatlari va talabi o‘zbek tili masalasini ko‘rib chiqishni kun tartibiga qo‘yilishiga turtki bo‘ldi. Shu tarzda hukumat va mamlakatimiz ilmiy jamoatchiligi sa‘y-harakatlari tufayli yangi loyiha tayyorlanib, u 1989-yil 11-oktabr kuni matbuotda e‘lon qilindi. Loyiha umumxalq muhokamasidan so‘ng O‘zbekiston SSR

Oliy Sovetining 1989-yil 21-oktabrda bo‘lgan XI sessiyasida «O‘zbekiston SSRning Davlat tili haqida» Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonun xalq madaniy merosi, milliy qadriyatlarini o‘rganish, tarixiy xotirani tiklash, shu asosda milliy ong, ruhiyat mustahkamligi, ijtimoiy faollik kuchayishiga ham yo‘l ochib berdi. Shu ma’noda milliy tillarga davlat maqomi berilishi sotsialistik tuzumga qarshi olib borilayotgan mustaqillik yo‘lidagi harakatlarning kuchayishiga ham ijobiy ta’sir etdi. Davlat tili haqidagi qonun milliy o‘zlikni anglash, milliy davlatchilikni tiklash yo‘lida respublikadagi yana bir tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim siyosiy qadam bo‘ldi va milliy mustaqillikning ma’naviy poydevoriga asos bo‘ldi. O‘z-o‘zidan, ushbu Qonun o‘zbek xalqining mavqeyini tiklashga, uning ijtimoiy hayotning barcha sohalarida to‘la amal qilishiga katta imkon yaratdi.

2019-yil o‘zbek tiliga «Davlat tili» maqomi berilganiga 30 yil to‘ldi. Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yil 21-oktabr kuni «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Farmoni qabul qilindi. Unga binoan 21-oktabr sanasi yur-timizda «O‘zbek tili bayrami kuni» deb belgilandi. Ona tilimiz fidoyilari, butun xalqimiz bu xushxabarni katta xursandchilik bilan qarshi oldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi nutqida shunday degan edi: «Bugun jonajon O‘zbekistonimiz «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» degan ustuvor g‘oya asosida o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga dadil qadam qo‘ymoqda. Barcha sohalar bilan birga davlat tilining jamiyatdagi o‘rni va nufuzini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda.

Hozirgi kunda o‘zbek tili sifatida siyosiy-huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotimizda faol qo‘llanmoqda, xalqaro minbarlardan baralla yangramoqda.

Davlatimiz tomonidan ma’naviy hayotimizni yanada rivojlantirish, jumladan, ta’lim-tarbiya ishlarini zamon talablari asosida tashkil etish, madaniyat, san’at va adabiyot sohalarini takomillashtirish, kitobxonlik madaniyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan o‘nlab farmon va qarorlar o‘zbek tili ravnaqiga bevosita xizmat qilmoqda.

Bu haqda gapirganda, keyingi yillarda ona tilimizda faoliyat yuritayotgan yuzlab bog'chalar, maktablar, oliy o'quv yurtlari, yangi gazeta va jurnallar, tele-radio kanallar, nashriyotlar, madaniy-ma'rifiy muassasalar, kutubxonalar tashkil etilayotganini qayd etish lozim.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu yerda folklorshunoslik, dialektologiya, turkologiya, matnshunoslik kabi yo'nalishlar ochildi.

Bu borada yangi o'quv dasturlari yaratilayotgani, darslik va qo'llanmalar, risola va monografiyalar nashr etilayotgani, ilmiy anjumanlar, ommaviy axborot vositalari o'zbek tilining buguni va istiqboli haqida amaliy taklif va tashabbuslar bildirayotgani g'oyat muhim ahamiyatga ega".

Shuningdek, ushbu ma'ruzada O'zbekistonning turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga a'zo bo'lganligi, bu o'z navbatida o'zaro iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirishga, o'zbek tilini esa xalqaro maqomining yuksalishiga olib kelishi haqida ham to'xtab o'tildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish to'g'risida»gi Farmonning imzolinishi va unga binoan «Davlat tili haqida»gi Qonunning qabul qilinishi xalqimiz hayotida ulkan voqea bo'ldi. 2019-yil 21-oktabrdan e'tiboran yurtimizda «O'zbek tili bayrami kuni»ni nishonlash an'anaga kiritildi. Bu esa xalqimizning milliy ruhini va g'ururini yuksaltirishga xizmat qiladi.

2. 3. Sovet davlatining tanazzulga yuz tutishi. Prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi va Mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilinishining tarixiy ahamiyati

I.A.Karimov o'z faoliyatining dastlabki kunlaridan yirik davlat arbobi va mohir siyosatchi, bunyodkor va tashkilotchi, katta tajribaga ega bo'lgan amaliyotchi va teran nazariyotchi sifatida serqirra va samarali faoliyat bilan respublikada millatidan va dinidan qat'i nazar, odamlar O'zbekistonni o'z Vatani deb hisoblashlariga nafaqat da'vat etdi, balki ular uchun shart-sharoit yaratish qayg'usi bilan yashadi. 1989-yil sentabrda KPSS MQning navbatdagi plenumida ham I.A.Karimov O'zbekis-

tonning yangi rahbari sifatida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol tang vaziyatga tushib qolganligini alohida ta'kidlab o'tadi. Biroq, markaz respublikalar milliy manfaatlarini o'ylashdan yiroq edi. Respublikada sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar avvallari markazning qanchalik e'tiboridan chetda qolgan bo'lsa, endilikda uni mamlakatda iqtisodiy inqirozlar kuchayib turgan vaqtda bu hol umuman qiziqtirmas edi. Mana shu vaqtda respublika rahbarining haqiqiy milliy rahbar sifatidagi o'rni yaqqol namoyon bo'lgan edi.

Uzoq tarix dunyoning ko'plab davlatlarida xalqlarning ozodlik kurashlari tarixida milliy ozodlik kurashiga boshchilik qilgan ko'plab yo'l boshchilar ma'lum. O'zbekiston tarixida ham XX asr 90-yillariga kelib Islom Karimov ham millatning lideri, ulug' yo'l boshchi sifatida maydonga chiqdi. U avvalo respublikadagi tang ahvolni qalban sezgan holda markazdan holi xalq manfaatlarini ko'zlab ish olib borish lozimligini anglab, og'ir va mas'uliyatli vazifalarni hal etishni boshladi. Farg'ona vodiysida kuchayib ketgan mesxeti-turklari va o'zbeklar o'rtasida turli ig'volar va bo'htonlar natijasida boshlangan mojarolarga ehtiyotkorona va bosiqlik bilan, mojarolar ildizini bilib, mojarolar yana kuchayib ketishining oldini olish choralari belgilagan holda siyosat yuritdi. Uning siyosiy yetakchilikka xos fazilatlarini, masalaga yondashish usuli, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borishini o'ta nozik va chuqur ang'ay olish salohiyatiga ega ekanligi mana shu yerda yaqqol ko'zga tashlandi. 25-iyun kuni Farg'ona vodiysiga borgan I.A.Karimov sarosimaga tushgan odamlar bilan chin dildan suhbatlashdi. Xavfsizlik xizmatining qattiq qarshiligiga qaramay Qo'qon shahriga bordi, yo'l-yo'lakay bir-ikki joyda to'xtab, odamlarning ro'y berayotgan voqealar haqidagi fikrini bilib oldi. Mojarolar tufayli zarar ko'rganlar savdoga chiqariladigan zaxira hisobidan oziq-ovqat bilan ta'minlandi.

Farg'ona vodiysida tinchlik o'rnatilgach, sovet davlati milliy siyosati o'zini oqlay olmaydigan darajada sayoz ekanligini anglagan O'zbekiston rahbari mamlakatda istiqomat qilayotgan turli millat vakillarining milliy manfaatlarini himoya qilish, xususan ona Vatanlaridan majburan ko'chirilgan xalqlarni 74 yil davomida ta'qib ostida ushlagan siyosatdan himoya qilish, ularga milliylik hissini berish, g'ururni shakllantirish maqsadida respublikada milliy-madaniy markazlar tuzish uchun harakatlarni

boshladi. Bu markazlarning faoliyatini muvofiqlashtirib turish maqsadida O'zbekiston SSR Madaniyat ishlari vazirligi huzurida Respublika millatlararo madaniyat markazi tashkil etildi va ularning soni 1989-yilda 12 ta edi. Ushbu markazga milliy-madaniy markazlar faoliyatiga rahbarlik qilishi, turli millatlarning urf-odat, diniy qadriyatlarini tiklash va rivojlantirishda ko'mak berishi asosiy vazifa qilib belgilandi. O'sha yillari butun mamlakatda bo'lganidek, milliy-madaniy markazlar faoliyatida ko'p narsalar birinchi marotaba sodir bo'ldi.

Bunday markazlar, xususan, polyak milliy-madaniy markazi «Svetlitsa Polska», koreys milliy-madaniy markazi «Vozrojenie» (Tiklanish), ozarbayjon milliy-madaniy markazi «Gardashlo'k» (Do'stlik), nemis milliy-madaniy markazi «Vidergeburt» (Tiklanish, Wiedergeburt) kabilar respublika ijtimoiy-iqtisodiy hayotida, xalqlar o'rtasida do'stlik, qar-doshlikni mustahkamlashda sharafli xizmatni o'tadi. Masalan, O'zbekis-tonda «Wiedergeburt» nemis milliy-madaniy markazi 1989-yildan boshlab O'zbekistonda istiqomat qiladigan nemis xalqi manfaatlarini himoya qilib, o'sib kelayotgan nemis yoshlariga nemis tili, xalq bayramlari, xalq qo'shiq va raqslarini o'rgatishni yo'lga qo'ydi. Ushbu milliy-madaniy markaz tashabbusi bilan birinchilardan bo'lib Rojdestvo – «Weihnachten» bayrami qayta tiklandi, 1990-yilda Toshkentda nemis Yevangelist-Lyuteran cherkovi qayta ta'mirlandi. Respublikaning umumta'lim o'rta maktablarida tojik, qozoq, turkman va qirg'iz tilida o'qitish darajasini kengaytirish, respublika oliy o'quv yurtlarida qozoq, tojik, qirg'iz tillarida o'qitish bo'limlari va ularni darslik hamda o'quv ko'rgazmalari bilan qurollantirish vazifasi ham belgilandi.

Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining jabhalarida O'zbekistonda istiqomat qilayotgan xalqlar va ularning manfaatlari bilan bog'liq masalalar birinchi navbatda turar edi. Shunday vaziyatda tinch hayotni ta'minlash uchun davlatni boshqara oladigan, bo'lib o'tgan va o'tayotgan iqtisodiy, siyosiy jarayonlardan to'g'ri xulosa millat ravnaqi yo'li asoslarini boshlab bera oladigan rahbar respublika uchun zarur edi. 1989-yil 24-iyunda I.A.Karimov O'zbekiston rahbari etib saylanishi bilan O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti Farg'ona vodiysi oblastlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish masalalariga bag'ishlangan Kengashda so'zlagan nutqida: «Hozirgi kunda ko'pgina odamlar

Fargʻona voqealarining sabablarini turlicha izohlashmoqda. Men ham bugun barcha sabablarni sanab ularning eng asosiylarini qayd etmoqchi emasman. Lekin, barcha voqealarning ildizi Fargʻona vodiysida yashayotgan aholining ogʻir ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bilan bogʻliq, desam, oʻylaymanki, koʻpchilik bu fikrga qoʻshiladi», deb alohida taʼkidlab oʻtadi. Oʻzbekistonning rahbari sifatida ish boshlagan I.A.Karimov «Oʻzbekiston yetakchisi sifatida uzoq vaqtlar davomida yechilmasdan, gazak oldirilgan kamchilik va nuqsonlar, oʻtkir ijtimoiy muammolarning ildizini ochib tashlaydi, mavjud ayanchli ahvolni tuzatish boʻyicha Markaz rahbariyati oldiga qatʼiy talablarni prinsipial tarzda qayta-qayta qoʻyishdan choʻchimaydi».

Oʻzbekistonning mustaqillikka erishuvi uzoq davom etgan tarixiy jarayonning natijasi boʻldi. Oʻzbek xalqi qariyb 3000 yillik tarixida qisqa vaqtgina mustaqil yashagan xolos. Ayniqsa, keyingi oq va qizil saltanatning 130 yil davom etgan hukmronligi oʻz tarixiy davlatchiligiga ega boʻlgan Turkistonni mustamlaka va qaramga aylantirgandi. Bu zulmatga qarshi kurash goh pinhona, goh oshkora boʻlsin xalqimiz azal-azaldan oʻz fikri-zikri bilan mustaqil, ozod, erkin yashash uchun tinimsiz intildi.

XX asr 90-yillariga kelib jahon va sobiq Ittifoqdagi oʻzgarishlar hamda yuzaga kelgan vaziyat oʻzbek xalqining mustaqillik uchun boʻlgan kurashini tezlashtirib yubordi.

Voqealar jarayoni shu darajada tezlashdiki, I.A. Karimovning siyosati bevosita oʻzbek xalqi xohish-irodasi, saʼy-harakati bilan qoʻshilib ketib, ittifoq rahbariyatini xiyla talvasaga solib qoʻydi. Oʻzbekiston SSR Oliy Kengashning **1990-yil 24-martida** boʻlib oʻtgan sessiyasida boshqaruv tizimini tubdan isloh qilish, prezidentlik lavozimini joriy etish toʻgʻrisida qaror qabul qilindi va Oʻzbekistonda ittifoqdosh respublikalar orasida birinchi boʻlib **prezidentlik lavozimi** joriy etildi. Mustaqillikning tayanch nuqtalaridan biri prezidentlik boshqaruvining joriy qilinishi bilan davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimi shakllana boshladiki, Prezidentlik boshqaruvi shu tizimning oʻzagidir.

Oʻzbekiston mustaqillik tomon yoʻl tutar ekan, birinchi kunlaridan boshlab, uning boshida Islom Abdugʻaniyevich Karimov turdi. Asrlarga teng shu qisqa vaqtda erishilgan yutuqlar: mamlakatda oʻrnatilgan ijti-

moyi-siyosiy, iqtisodiy barqarorlik, tarixiy, milliy va diniy qadriyatlarimizning tiklanishi jamiyatda o'rnatilgan osoyishtalikni, mustaqil O'zbekiston Respublikasining xalqaro hamjamiyatda tutgan o'rningining ortib borishini butun xalqimiz, jahonning yirik davlat arboblari Islom Karimov nomi bilan bog'laydilar.

Demokratik jarayonlarni yanada chuqurlashtirish, siyosiy o'zgarishlarni takomillashtirish va konstitutsion tizimni mustahkamlash mantiqan tom ma'nodagi mustaqillikni talab etadi va uning zamirida markazga bo'ysunmaslik, o'z taqdirini o'zi belgilash tamoyili yotadi. Shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy organlarining o'zaro aloqasini takomillashtirish bu bevosita partiya yakka-hokimligini bartaraf etish, fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarni yaqinlashtirish demakdir. Bu esa oxir-oqibatda respublikaning o'z taraqqiyot yo'lini ishlab chiqadigan va uni amalga oshiradigan Prezident lavozimini joriy qilishni taqozo etdi. Bu tabiiyki, Gorbachev boshliq ittifoq rahbariyatini qattiq tashvishga sola boshlagan edi. Aslini olganda, boshqa ittifoqchi respublikalarda kundan kunga tazyiq va zo'ravonlik oshirayotgan, kam sonli xalqlarga zug'um o'tkazilayotgan bir paytda O'zbekiston ana shunday dadil siyosat yurita boshlagan edi.

O'zbekistonning mustaqillik yo'lidagi yana bir muhim qadam O'zbekiston SSR Oliy Kengashining XII chaqiriq ikkinchi sessiyasida (1990-y. 20-iyun) qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi «Mustaqillik Deklaratsiyasi»dir. Ushbu Deklaratsiyani qabul qilishda respublika Oliy Soveti deputatlari jonbozlik ko'rsatdilar. «Mustaqillik Deklaratsiyasi»da har bir millat o'z taqdirini o'zi belgilashi, Deklaratsiya qoidasi bilan kafolatlanishi ta'kidlandi. Unda o'zbek xalqining asrlar davomida qo'lga kiritgan davlat qurilishi va madaniy taraqqiyot borasidagi boy tarixiy tajribasi va an'analari hisobga olindi. **Deklaratsiya 12 moddadan iborat bo'lib, uning 1-moddasida «O'zbekiston SSRning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o'z hududida barcha tarkibiy qismlarini belgilashda tashqi munosabatlardagi tanho hokimligidir», deb yozib qo'yilgan.** Sessiya qabul qilgan «Mustaqillik Deklaratsiyasi» xalqimiz tomonidan katta mamnuniyat bilan kutib olindi. Shu kundan boshlab respublikada O'zbekistonning

iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilina bordi. Bunga misol tariqasida 1991-yil 22-iyulda O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumi qarorida Prezident huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga Ittifoqqa bo‘ysunuvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning O‘zbekiston SSR huquqiy tobeligiga o‘tishi tartibini belgilash vazifasi topshirildi. O‘sha vaqtda Markaz rahbarlari Ittifoqni qanchalik saqlab qolishga urinmasinlar, buning iloji yo‘q edi. Chunki endi eskicha tartib bilan mamlakatni idora etib bo‘lmas, o‘z navbatida ittifoqdosh respublikalarning mustaqillikka bo‘lgan intilishi tobora kuchayib borardi. Biroq Markazni kuchaytirish tarafdorlari boshqa usullardan: namoyishlar o‘tkazish, mitinglar tashkil qilish, hatto g‘ayri konstitutsion yo‘llar bilan davlat to‘ntarishi o‘tkazish bilan bo‘lsa-da, oldingi buyruqbozlik tizimini mustahkamlashga harakat qildilar.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi arafasida hukm surgan chuqur inqiroz holati, o‘sha davrning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy-madaniy hayoti istiqloqlarning dastlabki oylari tarixini o‘rganishda ham O‘zbekistonning yangi tarixini yaratishda 1989–1991-yillar davomida respublikada kechgan tarixiy jarayonlarning bevosita guvohi bo‘lgan, ularning markazida turgan inson O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov «O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobi muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

1991-yil 11-yanvarda mamlakat Prezidenti qishloq aholisiga bevosita amaliy yordam berish uchun navbatdagi Farmonga imzo chekdi. Mazkur Farmon 1989-yilda boshlangan haqiqiy yangilanishlarning mantiqiy davomi edi. **Prezident imzolagan hujjatda 1991-yilda paxta ekin maydoni qisqartirilishini nazarda tutib, tomorqa maydonlariga 108,5 ming gektar yer ajratish ko‘rsatilgan.** 1991-yil 14-fevralda O‘zbekiston Oliy Kengashining navbatdan tashqari to‘rtinchi sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Sessiyada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov nutq so‘zladi. Mazkur nutq matbuotda «Murakkab vaziyatda oqilona siyosat yuritaylik» degan sarlavhada chop etildi. Ushbu nutqida O‘zbekiston rahbari Ittifoq shartnomasiga o‘z munosabatini bildirib, O‘zbekistonning bu shartnomaga kirmasligini qayd etib o‘tdi. **1991-yil Navro‘z bayrami**

arafasida Prezident afv etish to'g'risidagi Farmonga imzo chekdi. Ushbu Farmon ham xalq tomonidan zo'r quvonch bilan kutib olindi. Qolaversa, amnistiyaning o'sha davrda faqat Ittifoq Prezidenti e'lon qilari edi.

1991-yil 18–20-avgust voqealari, «Favqulodda holat davlat komiteti – GKChP», markaziy hokimiyat tangligi, KPSS faoliyatining to'xtatilishi, SSSRning tanazzulga yuz tutishi, unda bir guruh avantyuristlar tomonidan mustaqillik sari intilayotgan milliy respublikalarga nisbatan tazyiq va ta'qiblarni kuchaytirish, tobora zaiflashib borayotgan sovet imperiyasini saqlab qolish maqsadida amaldagi prezident M.S. Gorbachyovni rahbarlikdan chetlashtirib, 1991-yil 18-avgust kuni Moskva shahrida tuzilgan Favqulodda holat davlat komiteti – GKChP va bu noqonuniy tuzilmaga O'zbekiston rahbariyatining munosabati hech bir insonni befarq qoldirmadi.

O'zbekiston SSR Prezidentining respublika aholisiga murojaatida, jumladan, shunday so'zlar alohida ta'kidlanadi: «...har birimiz og'ir va vazmin bo'lishimiz kerak. Boshimizga tushgan bu sinovlar, noaniq davr va sharoitdan avvalambor aql va idrokimizni bir joyga yig'ib, insof va vijdonni yo'qotmasdan, sarosimaga tushmasdan chiqishimiz kerak... O'zbekiston jumhuriyati, uning rahbariyati qayta qurish davrida ham hech qachon bironing gapiga kirib ish tutgan emas. Markazdan, boshqa ba'zi bir jumhuriyatlardan qanday qarorlar chiqmasin, va'dalar berilmasin, har qanday chaqiriqlar, da'vatlar, yo'l-yo'riq ko'rsatishga harakatlar bo'lmasin, biz o'zimiz tanlagan yo'limizdan va belgilab olgan maqsadimizdan qaytganimiz yo'q». GKChP masalasida Islom Karimov rahbarligidagi O'zbekistonning o'z qat'iy fikrida turgani mamlakat va o'zbek xalqining mustaqillikka erishishida hal qiluvchi o'rin tutdi. **Respublika rahbariyati: «Bu yo'l – bizning xalqimiz tarixiga, urf-odatlariga, tabiatimiz shart-sharoitlariga, xullas, xalqimiz manfaatlariga mos yo'ldir», – deb hisobladi.**

1991-yil 21-avgustda O'zbekiston Prezidentining Farmoni bilan GKChPning O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlariga zid keladigan qarorlari noqonuniy deb e'lon qilindi.

1991-yil 25-avgustda Prezident Farmoni bilan respublika IIV va DXQ qonuniy ravishda O'zbekiston tasarrufiga olinishi, 26-avgustda O'zbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan O'zbekistonning Davlat

mustaqilligi to'g'risida qonun loyihasining tayyorlanishi va 31-avgustda O'zbekiston SSR Oliy Soveti sessiyasining chaqirilishi o'zbek xalqi tarixiga oltin sahifalar bo'lib kirdi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekistonning mustaqillik tomon yo'l tutishi sovetlar imperiyasida boshlangan inqiroz va qarama-qarshiliklarning avj olishi vaqtidan boshlangan edi.

Nazorat savollari:

1. I.Karimovning qaysi asarlarida Vatanimiz tarixini o'rganish alohida qayd etilgan?
2. Farg'ona fojiasi kelib chiqishining asosiy sabablari nimada?
3. Turg'unlik yillarida o'zbek tiliga munosabat qanaqa edi?
4. Qachondan boshlab O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilina bordi?

3. MUSTAQIL O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHKIL TOPISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI

3. 1. Mustaqillik arafasida O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy holati

O‘zbekiston o‘zining davlat mustaqilligini e’lon qilgan vaqtda mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol o‘ta murakkab edi. Quyidagilar uning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida namoyon bo‘lar edi: aholining turmush darajasi bo‘yicha O‘zbekiston sobiq SSSR tarkibida oxirgi o‘rinlardan birida turar edi; aholining 60%dan ko‘proq qismi yashaydigan qishloq joylarida industrial rivojlanishning ahamiyatli darajada ortda qolishi sharoitida iqtisodiyotda yirik sanoat shaharlaridagi gigant korxonamo-nopolistlarning haddan tashqari konsentratsiyasi va ixtisoslashuvi hukm surardi; iqtisodiyotda ma‘muriy tarzda narxni tashkil etish va resurslarni taqsimlash bilan bog‘liq kuchli nomutanosibliklar kuzatilar edi; mamlakat o‘z davlatchiligining asoslarini yaratish zarurati oldida turardi; og‘ir ekologik ahvol mavjud edi.

Ko‘plab tarmoqlarda ataylab xomashyoni qazib olish va dastlabki qayta ishlash, yarim fabrikalarni tayyorlash bosqichida uzilib qoluvchi tugallanmagan texnologik siklga ega ishlab chiqarishlar ustunlik qilardi.

Respublikaning asosiy tarmoqlari kompleks tarzda emas, balki Rossiya hamda boshqa respublikalardagi ishlab chiqarishga resurslar va tayyor mahsulotlarni ko‘p minglab kilometrlarga (ko‘pincha noratsional, qarama-qarshi tarzda) yetkazib berish orqali “bog‘lab qo‘yish” maqsadida rivojlantirilgan edi.

70 yildan ko‘proq vaqt hukm surgan ma‘muriy-buyruqbozlik tizimiga asoslangan sobiq Ittifoqdagi noto‘g‘ri, samarasiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosat 80-yillarning oxiriga kelib barcha ittifoqdosh respublikalar qatorida O‘zbekiston aholisining ham yashash sharoitlarini og‘irlashtirib, uni ko‘plab muammolar iskanjasiga solib qo‘ygan edi. Jumladan:

1) respublikada demografik vaziyatning murakkabligi. O‘zbekistonda aholining o‘shish sur‘atlari Ittifoq sur‘atlariga qaraganda uch barobardan ziyod yuqori bo‘lganiga qaramay, uzoq yillar davomida sanoat va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ish joylarini ko‘paytirish hamda aholining hayot ta‘minoti uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bilan mustahkamlab borilmadi. Bu esa odamlar turmush sharoitining yomonlashuvi, ishsizlar sonining ko‘payishi, ijtimoiy mehnat unumdorligi va aholi daromadlarining kamayishi, pirovard natijada xalq farovonligining pasayishiga olib keldi;

2) respublika iqtisodiyotining biryoqlama, haddan tashqari nomaqbul ixtisoslashtirilishi natijasida qishloq xo‘jaligi bilan bir qatorda, sanoatda ham, asosan, xomashyoni birlamchi qayta ishlash tarmoqlari ustunlik qilib, tayyor mahsulot, avvalo xalq iste‘moli mollari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning ulushi juda past edi;

3) ishlab chiqaruvchi kuchlar va, avvalo, sanoat obyektlari asosan stixiyali ravishda, aniqrog‘i, har xil o‘zboshimchalik, buyruqbozlik bilan qabul qilingan qarorlar asosida, ko‘pincha ilm-fan vakillari, bilimli va obro‘li mutaxassislarining tavsiyalari mutlaqo e‘tiborga olinmay joylashtirildi;

4) respublikadagi ijtimoiy ahvolning, odamlarning ijtimoiy ta‘minoti va ularni ijtimoiy himoya qilishning mutlaqo qoniqarsizligi. Ayniqsa, qishloq aholisining kanalizatsiya va vodoprovod bilan ta‘minlanishi atigi 5 foizni, ichimlik suvi bilan ta‘minlanishi salkam 50 foizni, tabiiy gaz bilan ta‘minlanishi 17 foizni tashkil etar edi. Aholini uy-joy, sog‘liqni saqlash, madaniyat, maishiy xizmat obyektlari, maktablar, bolalar bog‘chalari va hokazolar bilan ta‘minlash ishlarida siljishlar sezilmadi. Vaholanki, aholining ko‘pchilik qismi qishloq joylarida istiqomat qilar edi.

O‘zbekiston sobiq Ittifoq tarkibida uzoq yillar davomida hukm surgan ma‘muriy-buyruqbozlik tizimi ta‘sirida faqat xomashyo yetkazib berishga asoslangan, qoloq va mo‘rt iqtisodiyotga ega bo‘lib, bu holat respublika aholisi daromadlari va turmush darajasiga ancha keskin ta‘sir ko‘rsatdi.

1990-yillarning boshidagi inqirozning kuchayish sabablari. O‘zbekistonning sobiq Ittifoq tarkibida uzoq yillar davomida ma‘muriy-buyruqbozlik tizimi ostida bo‘lganligi, shuningdek, shundoq ham susayib borayotgan xo‘jalik aloqalarining 1990-yillarning boshida Itti-

foqning parchalanishi oqibatida batamom uzilib qolishi kuchli inqiroz holatlarini keltirib chiqardi. O‘zbekiston iqtisodiyotining bir yoqlama tarzda, faqat xomashyo yetishtiradigan holga tushib, kompleks rivojlantirish yo‘liga, aholi ehtiyojlarini qondirishga o‘tkazilmagani ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilishidagi chuqur nomutanosibliklarda namoyon bo‘ladi.

Sovet davrining keyingi o‘n yilliklari mobaynida iqtisodiyotni rivojlantirishda xomashyo va chala tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradigan va chetga yuboriladigan, mehnatni nisbatan kamroq talab qiladigan xomashyo tarmoqlarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilishi ushbu nomutanosibliklarni yanada kuchaytirdi. Jumladan, ishlab chiqarishning umumiy hajmida yengil sanoatning ulushi keyingi 50 yil ichida 54 foizdan 37 foizga, oziq-ovqat sanoatining ulushi 30 foizdan 14 foizga tushib qolgan, mashinasozlikning ulushi atigi 7 foizga o‘sib, 16 foizni tashkil etgan.

Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarini tarkib toptirish va rivojlantirishda qator nuqson va kamchiliklarga yo‘l qo‘yildi. Jumladan:

- respublika mashinasozlik kompleksi faoliyati paxtachilik, paxtachilik uchun mashinalar ishlab chiqarish bilan cheklanib, murakkab uy-ro‘zg‘or texnikasi, yo‘l qurish mashinalari, plastmassa buyumlari, oziq-ovqat sanoati jihozlari, savdo-sotiq va maishiy xizmat sohasi uchun kerakli asbob-uskunalar deyarli ishlab chiqarilmadi;

- kimyo sohasining rivojlanishida yirik korxonalariga afzallik berilishi respublikadagi ekologik vaziyatni juda yomonlashtirib yubordi;

- yirik kimyo korxonalari nitron, atsetat, kaprolaktam singari dastlabki qayta ishlangan mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashib, ularning mahsulotlari ham asosan respublikadan tashqariga chiqarishga mo‘ljallandi.

Mamlakatimiz rahbari tomonidan O‘zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilib, bu boradagi strategiyaga quyidagi yondashuvlar asos qilib olinishini belgilab berdi:

- mintaqamiz taraqqiyotining tarixiy asoslari, oqilona mantiq e‘tiborga olinmay, ma‘muriy-buyruqbozlik usullari tazyiqi ostida shakllangan qarashlarning hammasiga barham berilishi kerak;

- mintaqamiz taraqqiyotining istiqbollariga avvalo respublika aholisining manfaati nuqtayi nazaridan qaramoq kerak.

Respublikani iqtisodiy mustaqillik yo'liga olib chiqish, uni inqiroz girdobidan chiqarish vazifalarini hal etishda O'zbekiston resurslari va imkoniyatlariga baho berishga mutlaqo yangicha yondashish zarur edi.

Bunday og'ir ahvolning vujudga kelish sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

– 30-yillarning boshlarida iqtisodiyotga rahbarlik qilishning ma'muriy-buyruqbozlik usullariga zo'r berilib, O'zbekistonni, uning ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirishga yaroqsiz yondashuvlarning tobora kuchayib borishi;

– respublikaga asosan xomashyo bazasi, sobiq Markazdagi sanoat vazirliklari va idoralarning mo'may xomashyo manbayi sifatida qarab kelinishi;

– o'lkaning mahalliy, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga ba'zan yetarlicha, ba'zan mutlaqo baho berilmagani, ba'zan esa bu xususiyatlarning pisand ham qilinmagani;

– iqtisodiy va ijtimoiy sohani kompleks, jadal rivojlantirishning, umumittifoq mehnat taqsimotida O'zbekistonning mavqeyi va o'rini o'zgartirishning muqobil yo'llari e'tiborga olinmagani.

Ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan hozirgi zamon bozor iqtisodiyotiga o'tishning zarurligi iqtisodiy o'sish ekstensiv omillaridan foydalanish imkoniyatlarining tugab borishi bilan notovar iqtisodiyotning amal qilish layoqatining pasayishi orqali ifodalanadi.

Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi ikkita ahamiyatli kamchilikka ega:

1) uning moslashuvchan emasligi, ro'y berayotgan o'zgarishlarga juda sekinlik bilan moslashib borishi;

2) xo'jalik yuritish tashabbuskorligini «yo'qotib yuborish» oqibatida samaradorlikning o'ta darajada pasayib ketganligi.

Ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o'tish ko'plab mamlakatlarda umumiy tendensiyaga ega. Bu jarayon iqtisodiyotni erkinlashtirish, chuqur institutsional (eng avvalo, mulkchilik munosabatlarida) o'zgarishlarni o'z ichiga oladi, biroq, bir vaqtning o'zida moliyaviy barqarorlashtirish chora-tadbirlari amalga oshirilishini taqozo etadi.

Ma'muriy-buyruqbozlik tizimini o'zgartirish mazkur tizim asosining o'zgarishini hamda uni sifat jihatidan farq qiluvchi bozor tizimiga almashtirilishini anglatar ekan, bunday turdagi o'zgarishlarni tizimiy islohotlar deb atash maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. 2. Mustaqillikning qo'lg'a kiritilishi va uning huquqiy asoslarining yaratilishi

XX asr 90-yillariga kelib jahon va sobiq Ittifoqda yuz bergan o'zgarishlar hamda yuzaga kelgan vaziyat o'zbek xalqining mustaqillik uchun bo'lgan kurash jarayonini tezlashtirib yubordi.

1991-yilning 31-avgustida, o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida Islom Karimov tan-tanali ravishda O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini e'lon qildi. U o'zining tarixiy nutqida quyidagilarni alohida ta'kidladi: «Mamlakat katta falokat yoqasiga, jar yoqasiga kelib qolganini ko'rib turibmiz. Xalq o'zining ertangi kuniga ishonchini kundan kunga yo'qotayapti. Odamlar o'zining, oilasining, bola-chaqasining tinchligiga kafolat istaydi. To'kis, xotirjam hayot talab qilyapti. Bu istaklar, bu talablar safсатаbozlik va va'dabozliklar ostida ko'milib ketyapti. Bizning xalqimiz sabr-bardosh, yaxshilik, osoyishtalik, boshqa xalqlarga nisbatan xayrixohlik ruhida tarbiyalangan. Bu xalq bugun bizdan himoya talab qilyapti, tinch-totuv hayot, og'ir mehnatiga yarasha turmush sharoitlari talab qilyapti. Bu – haqqoniy talabdir.

O'zbekiston rahbariyati hech qachon, qanday Ittifoq bo'lmasin, kim bilan Ittifoq bo'lmasin, qanday sharoit bo'lmasin, ikkinchi darajali rolga rozi bo'lmaydi, bunga yo'l ham qo'ymaydi. Tenglar ichida teng bo'lish – xalqimizning asriy orzusidir».

Sessiyada «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida» hamda «O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida»gi masalalari ham kun tartibiga qo'yilib, qizg'in muhokama qilindi.

Oliy Kengash O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi qonunni qabul qildi. So'ngra Respublika Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Bayonot qabul qilindi. O'zbekiston SSRning nomi O'zbekiston Respublikasi deb o'zgartirildi. Mustaqillik belgilangan **kun 1-sentabr 1991-yildan boshlab milliy bayram va dam olish kuni deb e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi haqidagi bu hujjatlar o'zbek xalqining asriy orzusi ro'yobga chiqqanligining huquqiy ifodasi bo'ldi.**

«O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida»gi qonun 17 moddadan iborat bo'lib, mustaqil respublika uchun vaqtincha Konstitutsiya rolini o'ynaydigan bo'ldi. Ushbu qonunda O'zbekiston

mustaqil demokratik davlat deb eʼlon qilindi, maʼmuriy-hududiy tuzilishi, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilash qonunlashtirildi. Respublikaning davlat boʻlinishi hamda iqtisodiy asoslari ham qonunda oʻz aksini topdi. Shuningdek, ushbu hujjatda Oʻzbekistonning Qoraqalpogʻiston bilan munosabatlari xususida soʻz borib, Oʻzbekiston Qoraqalpogʻistonning hududiy yaxlitligini tan olishi haqida fikr yuritiladi, u Oʻzbekiston tarkibida ekanligi eʼtirof etiladi. Bunday qonunning qabul qilinishi oʻsha davrda erishilgan yutuqlarning yuqori choʻqqisi boʻldi. Shunday qilib, oʻzbek xalqi asrlar davomida orzu qilgan mustaqillikka tinch yoʻl bilan, Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov boshchiligida respublika rahbariyatining oqilona yoʻl tutishi orqali erishildi.

Oʻzbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi eʼlon qilinishi bilan birga Davlat mustaqilligi bilan bogʻliq qonunlar tizimini yaratish zarur edi. Oʻzbekiston erishgan istiqlolni mustahkamlash uchun mamlakatda referendum oʻtkazishga qaror qilindi. 1991-yil 18-noyabrda Oliy Kengash VIII sessiyasi Oʻzbekiston Respublikasi referendumini oʻtkazish toʻgʻrisida qaror qabul qildi. Shunga muvofiq 29-dekabrda «Siz Oliy Kengash tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb eʼlon qilinishini maʼqullaysizmi?» mavzuida referendum oʻtkazishga katta tayyorgarlik koʻrildi. **Referendum yakuniga koʻra unda qatnashgan aholining 98,2 foizi Oʻzbekiston mustaqilligini yoqlab ovoz berdi.** Oʻzbekiston mustaqil respublika deb eʼlon qilinishi jahon jamoatchiligi tomonidan ham zoʻr qoniqish bilan kutib olindi. Fikrimiz isboti sifatida Amerika Qoʻshma Shtatlarining oʻsha paytdagi Prezidenti Jorj Bushning I. Karimov nomiga yuborgan telegrammasi hamda Shvetsiya bosh vaziri K. Bilodtning telegrammalarida koʻrish mumkin. 24-sentabrda Toshkentda xalqaro anjuman oʻtkazildi. Oʻzbeklar (turkistonliklar)ning birinchi xalqaro uchrashuvida Oʻzbekiston Prezidenti nutq soʻzladi. **1991-yil 14-sentabrda Oʻzbekiston Kompartiyasining Favqulodda XXIII syezdida I.A.Karimov taklifi bilan Oʻzbekiston Kompartiyasi KPSS tarkibidan chiqqanligi eʼlon qilindi.** Partiyaning bundan buyon faoliyat koʻrsatmasligi eʼtiborga olinib, **ushbu partiya oʻrnida Xalq demokratik partiyasi tuzilgani eʼlon qilindi.** Oʻzbekiston mustaqil davlat deb eʼlon qilingan kunning oʻzidayoq mustaqil davlat ramzlarini joriy qilish yuzasidan amaliy choralar koʻrildi. Oʻzbekiston Respublikasining Davlat bayrogʻi toʻgʻrisida, respublika gerbining nusxasi va Davlat madhiyasin-

ing musiqiy bayoni haqida maxsus qaror qabul qilindi. Unda Konstitutsiya komissiyasining ekspert guruhiga Davlat bayrog‘ining variantlari ustida ishlashni davom ettirish, Oliy Kengashning tegishli qo‘mtalariga Konstitutsiya komissiyasi ijodiy guruhi bilan hamkorlikda Davlat bayrog‘i, madhiyasi haqida qonun loyihalarini ishlab chiqib, navbatdagi sessiyaga taqdim etish topshirildi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlarida davlat boshqaruvida yangi tizim Prezidentlik respublika boshqaruvi shakli joriy etildi. **1991-yil 29-dekabrda o‘zbek xalqi xohish-irodasi bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini sayladi.** Saylovga jiddiy tayyorgarlik ko‘rib, O‘zbekiston Respublikasi saylovlari muqobillik asosida o‘tdi. Oliy lavozimga ikki nomzod – O‘zbekiston XDP va O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi nomzodi I.A. Karimov va «Erk» demokratik partiyasi vakili Saloy Madaminov (Muhammad Solih) nomzodi qo‘yildi.

Saylovlar yakuniga ko‘ra 8 million 514 ming 136 ovoz yoki ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi Islom Karimov nomzodini, 1 million 220 ming 474 saylovchi (12,3 %) Saloy Madaminov nomzodini yoqlab ovoz berdi. Markaziy saylov komissiyasi okrug komissiyalari majlis bayonlarini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risidagi qonunning 35-moddasiga asosan Islom Abdug‘aniyevich Karimovni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb hisoblashga qaror qildi.

Xalqimizning ko‘p yillar davomida olib borgan matonatli kurashi natijasida qaror topgan mustaqil O‘zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan odil, haqqoniy demokratik jamiyat qurish stixiyali (ko‘r-ko‘rona) ravishda emas, balki jahon taraqqiyotining, chunonchi, buyuk zaminimizda yaratilgan tarixiy tajribalarga, g‘oyalarga, ma‘rifiy-ilmiiy taraqqiyotga amal qilgan holda ro‘yobga chiqdi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng kun tartibida jahon andazalariga mos keladigan davlat qurish, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohada tub islohotlarni amalga oshirish, ulami qonun bilan mustahkamlaydigan huquqiy tizimni vujudga keltirish vazifasi turar edi. Chunki sobiq sotsialistik tuzumga xos ijtimoiy munosabatlar va jarayonlar endilikda respublikada barpo qilinaajak yangi jamiyat manfaatlariga mos kelmas edi.

Shuni ham aytish kerakki, jahonda hamma mamlakatbop ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning tamoyillari, barcha uchun tavsiya etish lozim bo‘lgan

tayyor andazalari hech qachon bo'lmagan va bo'lmaydi ham. Shu bilan birga rivojlanishning madaniy, ma'rifiy, tarixiy jihatdan asrlar mobaynida shakllangan an'analari mavjud bo'lgan O'zbekistondagi qadimiy makonda o'ziga xos yo'l tanlash uchun ancha-muncha izlanish lozim edi. Biroq, vaqtni boy bermay, tezkorlik bilan ish tutish lozim edi. Shuning uchun ham «Mustaqil O'zbekiston tug'ilgan kuniyoq oyoqqa turishga, o'zi yurishga majbur edi».

Yana shuni ta'kidlash darkorki, O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan paytda mamlakat ichkarisida bo'lgani kabi uning tashqarisida ham unga ishonmaydigan, shubha bilan qaraydiganlar bor edi. Hatto sobiq markazdagi ayrim «bashorat»chilar O'zbekistonga nisbatan «O'zlaringni Mustaqil boshqarishga, Mustaqil davlat qurishga qodir emassizlar», «Sizlar mute, qaram xalqsizlar», «Sizlar uchun biz fikrlaymiz, nazariya yarata-miz, sizlar esa bajarasizlar, xolos» deb shovinistlaracha g'arazgo'ylik qilsa, mamlakat ichkarisidagi ayrim toifalar o'rtasida «endi O'zbekiston qanday yo'ldan boradi? Qanday jamiyat quradi? Markazsiz yashay oladimi? Respublikada ijtimoiy-siyosiy barqarorlik ta'minlanadimi?» qabilidagi savollar paydo bo'lgan edi. Unga har kim o'zicha javob qidirar edi.

Tabiiyki, ana shunday ziddiyatli va murakkab bir paytda O'zbekiston uchun o'ziga xos istiqloq va taraqqiyot yo'lini tanlash, yangi jamiyat barpo qilish uchun o'z andazasini ishlab chiqish g'oyat dolzarb va ahamiyatli edi. O'z navbatida bunday vazifani uddalash O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat, odamlar o'rtasida tarkib topgan munosabatlar, ularning dunyoqarashi, jumladan, diniy e'tiqodi, ruhiyati va xulq-atvor normalari shuni taqozo etardi. Ayni chog'da, O'zbekistonning o'z ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish andazasini ishlab chiqishda rivojlangan mamlakatlarning ko'p asrlik tajribasini o'rganish, ularning foydali tomonlarini o'zlashtirish bilan birga O'zbekiston xalqining turmush tarzi va an'alariga ham tayanish lozim edi.

Shuning uchun ham O'zbekiston mustaqilligining dastlabki kunidanoq, «jahon va o'zimizning amaliyotimizdan olingan barcha unumli tajribani rad etmagan holda o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot yo'lini tanlab olishga kirishdi».

Albatta, mamlakat hayot-mamot bosqichida turgan bir paytda uning yangi jamiyatga o'tishi bilan bog'liq vazifalarni bajarish davlat rahbaridan yangi sharoitga mos boshqaruv tizimini ishlab chiqishni, jamiyatning iqtisodiy

asosini vujudga keltirishni taqozo qiladi. Aholining barcha toifalarini yagona maqsad atrofida birlashtiruvchi g'oyalari tizimini yaratishni talab etardi. O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li ana shu tarzda shakllandi. Mamlakat mustaqilligining tashabbuskori va rahnamosi sifatida Prezident xuddi ana shunday paytda o'zining qat'iy, ilmiy jihatdan asosli, hayotiy jihatdan yashovchan xulosalarini o'rta tashladi.

Hali sobiq Ittifoq mavjud bo'lgan davrda I. Karimov respublika rahbarligiga (1989-yil, iyun) kelgan vaqtdan boshlab respublikaning ijtimoiy-siyosiy hayotida jiddiy ravishda yangilanishni, tub o'zgarishlarni boshlab yuborgan edi.

1990-yil mart oyidayoq sobiq Ittifoq respublikalari ichida birinchilardan bo'lib, O'zbekistonda prezidentlik boshqaruvining tashkil etilishi, g'oyaviy qarashlari, siyosati yangilanayotgan jamiyatga mos bo'lmayotgan O'zbekiston Kompartiyasining Xalq demokratik partiyasiga aylantirilishi, hokimiyatning asta-sekin va izchillik bilan partiya idoralaridan Prezident, hukumat, mahalliy idoralar qo'lga o'tishi, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilib, milliy qadriyatlarining tiklanishi boshlagani O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li shakllanayotganini ko'rsatardi.

O'zbekiston mustaqil bo'lgach, I. Karimovning respublika rahbari sifatida xalq oldidagi mas'uliyati yana ham oshdi. U endi markazga bog'liq bo'lmagan holda, butun muammolarni o'zi hal qilishga, har qanday ziddiyatlarga yuzma-yuz turib, faoliyat ko'rsatishga majbur edi. Ana shunday qarama-qarshiliklar qurshovida uning katta siyosatchi sifatidagi rahbarlik mahorati kun sayin shakllanib, yangi mazmun kasb etardi.

Islom Abdug'aniyevich Karimov umumxalq ovozi berish yo'li bilan mamlakat Prezidenti etib saylanganidan o'zining butun amaliy faoliyatida xalq va vatan manfaatini nazarda tutib faoliyat ko'rsatdi. U Oliy Kengashning 1992-yil 4-yanvarda bo'lib o'tgan navbatdan tashqari 1X sessiyasida shunday degan edi: «Menga qanday yuksak mas'uliyat yuklanganini his qilgan holda xalqning munosib turmush kechirishi uchun qanday yo'llar tanlaganimiz haqida ba'zi fikrlar bilan o'rtoqlashmoqchiman.

Xalq iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun qat'iy harakatlar qilishni kutaypti. O'tmish qoldiqlari xalq yelkasiga og'ir yuk bo'lib qolgan. Eng muhim vazifalardan biri xalqning baxtli hayotini ta'minlashdir. Prezident shiddat bilan kirib kelayotgan bozor zarbalariga bardosh beruvchi, yordam-

ga muhtoj kishilarni o'z homiyligiga olishi kerak. Bular – ko'p bolali, kam ta'minlangan oilalar, nogironlar...

Bundan keyin ham biz uchun shu tamoyil qat'iy bo'lib qolaveradi».

3. 3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, uning tarixiy ahamiyati. Davlat ramzlari

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach, tabiiy ravishda davlat mustaqilligi va suverenitetini Konstitutsiya asosida mustahkamlash zarurati yuzaga keldi. O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasini tayyorlash g'oyasi dastlab Islom Karimov tomonidan 1990-yilning mart oyida ilgari surildi. 1990-yil 20- iyun kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Oliy Kengashining II sessiyasida yangi Konstitutsiya ishlab chiqish lozim, degan xulosaga kelindi. Sessiya O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov boshchiligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida qaror qabul qiladi. Komissiya tarkibiga Oliy Kengash deputatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar vakillari, davlat, jamoat tashkilotlari va xo'jaliklarning rahbarlari, olimlar, mutaxassislar kiritildi.

Konstitutsiyaviy komissiya O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini ishlab chiqish ustida 2,5 yil ishladi. Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishda konstitutsiyaviy rivojlanishning jahon tajribasi o'rganildi, inson huquqlari, demokratiya va qonunchilik sohasida jahonda qo'lga kiritilgan yutuqlar hisobiga olindi. Milliy davlatchiligimizning tajribasi, Amir Temur va boshqa davlat arboblari hamda allomalarimizning davlatni idora qilish sohasidagi g'oyalari yangi Konstitutsiyaga asos qilib olindi.

Loyihaning dastlabki varianti 1991-yil oktabr-noyabrgacha tayyorlab bo'lindi. U muqaddima, olti bo'limga bo'lingan 158 moddadan iborat edi. Bu loyiha hali mukammallik darajasidan ancha yiroq edi. Uning ustida yanada jiddiroq va talabchanlik bilan ishlash zarur edi. 1992-yil bahorida esa loyihaning 149 moddadan iborat ikkinchi varianti ishlab chiqildi. 1992-yil 26-sentabrda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi loyihasi umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Muhokama 2 oycha davom etdi. Muhokama jarayonida bildirilgan takliflar asosida tuzatishlar kiritilgan loyiha 1992-yil 26-noyabrda matbuotda ikkinchi marta e'lon qilindi. Umumxalq muhokamasi davrida 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar

bildirildi, ular inobatga olindi. Birinchi Prezident Islom Karimov O‘zbekiston Konstitutsiyasini ishlab chiqishga rahbarlik qildi va o‘zining katta hissasini qo‘shdi. 1992-yil 8-dekabrda O‘zR Oliy Kengashining sessiyasi chaqirildi.

Unda mamlakatning Asosiy Qonunini qabul qilish masalasini muhokama qildi. Sessiyada deputatlar loyihaga 80 ga yaqin o‘zgartirish, qo‘shimcha va aniqliklar kiritdilar. Shunday qilib, shu kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi «O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish to‘g‘risida», «O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kuni umumxalq bayrami deb e‘lon qilish to‘g‘risida» va «O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini amalga kiritish tartibi to‘g‘risida»gi qonunlarni qabul qildi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 6 bo‘lim, 26 bob, 128 moddadan iborat. U «Mustaqillik Deklaratsiyasi», «O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida»gi Qonunda mustahkamlangan tamoyillar va g‘oyalarni o‘zida to‘la mujassamlashtirdi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o‘rganish jarayonida uning mohiyatini ochib beruvchi quyidagi asosiy tamoyillarini bilib olishga ahamiyat berish zarur:

O‘zbekiston Konstitutsiyasining birinchi tamoyili – davlat suverenitetidir. 1–6-moddalarda O‘zbekiston–suveren demokratik respublika, davlat xalq manfaatlariga xizmat qiladi, mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritadi, o‘zbek tili davlat tilidir, deb belgilab qo‘yilgan. Konstitutsiyada davlatning «O‘zbekiston Respublikasi» va «O‘zbekiston» degan nomlari bir ma‘noni anglatadi, deb belgilab qo‘yilgan.

Ikkinchi tamoyil – xalq hokimiyatchiligidir. 7–14-moddalarda xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbayidir, O‘zbekiston xalqini millatidan qat‘i nazar uning fuqarolari tashkil etadi, davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab amalga oshiradi, deb ko‘rsatilgan.

Uchinchi tamoyil–davlat hokimiyatining uch tarmoqqa bo‘linishidir. O‘zbekiston davlat hokimiyati tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo‘linishi qonunlashtirildi.

To‘rtinchi tamoyil bu demokratiyaga sodiqlikdir. Konstitutsiyada demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqat e‘lon qilinadi hamda insonparvar demokratik-huquqiy davlat barpo etish nazarda tutiladi.

Beshinchi tamoyil Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligidir. Konstitutsiyaning 15-moddasida «O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar», deb belgilab qo‘yilgan.

Oltinchi tamoyil xalqaro andozalar darajasida ifodalangan fuqarolar huquqlari, erkinliklari va majburiyatlarining tengligi va daxlsizligidir. O‘zbekiston fuqarolarining huquqlari muhim xalqaro hujjatlar – «Inson huquqlari butun jahon Deklaratsiyasi», «Iqtisodiy, sotsial va madaniy huquqlar to‘g‘risida xalqaro akt», «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida xalqaro akt» va boshqalar asosida bayon etilgan.

Konstitutsiyaning 18–52-moddalari inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag‘ishlangan. O‘zbekiston davlati tomonidan fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida tan olingan va ular himoya qilinadi. Konstitutsiya bo‘yicha har bir shaxsning o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilishi kafolatlanadi.

Yettinchi tamoyil qonuniylikdir. Qonuniylik jamiyatning bir maromda hayot kechirishini, davlat organlarining maromli faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlaydi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘rgandagina jamiyatda barqarorlik va taraqqiyot bo‘ladi.

Sakkizinchi tamoyil O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy qoidalari aniq belgilab qo‘yilganligidadir. Asosiy Qonunning 17-moddasida O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati aks etgan.

Konstitutsiyada davlat xalqning manfaatlari va xavfsizligini ta‘minlash maqsadida boshqa davlatlar bilan ittifoq va do‘stona aloqalar o‘rtanishi hamda davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkinligi qonunlashtirilgan.

To‘qqizinchi tamoyil mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishdir. O‘zbekistonda o‘zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayangan holda mahalliy hokimiyat boshlig‘i bo‘lgan hokim instituti joriy etildi. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimiyatning vakillik organlari xalq deputatlari kengashlari bo‘lib, ularga viloyat, tuman va shahar hokimlari boshchilik qiladilar. Konstitutsiyaning 99–104-moddalarida mahalliy davlat hokimiyati asoslari, hokimlarni tayinlash va tasdiqlash tartiblari, ularning vazifalari belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan bu o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining, hukumatning mas‘uliyatini kuchaytirishga, jamiyat siyosiy hayotining faollashuviga, saylov tizimining yanada takomillashuviga xizmat qilmoqda.

Konstitutsiya kuchga kirgandan buyon O‘zbekiston Oliy Majlisi tomonidan 800 ga yaqin qonun, 17 ta kodeks qabul qilindi, 250 dan ortiq ko‘p tomonlama xalqaro shartnomalar ratifikatsiya qilindi. Ya‘ni Asosiy qonunimiz davlat va jamiyatning barcha jabhalarini huquqiy tartibga solishning yaxlit mexanizmini yaratish imkonini berdi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy islohotlar tahlili O‘zbekiston tanlagan taraqqiyotning Konstitutsiyaviy modeli to‘g‘riligidan dalolat beradi.

Davlat ramzlarining qabul qilinishi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabr VIII sessiyasida 13 moddadan iborat bo‘lgan «O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilindi. Davlat bayrog‘i mamlakatimiz hududida ilgari mavjud bo‘lgan g‘oyat qudratli saltanatlar bayrog‘iga xos bo‘lgan eng yaxshi an‘analarni davom ettirgan holda respublikaning tabiatiga xos bo‘lgan xususiyatlarni, xalqimizning milliy va madaniy sohalaridagi o‘zligini ham aks ettiradi. O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i yurtimizning o‘tmishi, bugungi kuni va kelajagining yorqin ramzi bo‘lib qoldi.

1992-yil 2-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 8 moddadan iborat bo‘lgan «O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilindi. Davlat gerbidagi har bir belgi chuqur ma‘noga ega. Gerb rangli tasvirda bo‘lib, Xumo qushi kumush rangda, quyosh, boshloqlar, paxta chanog‘i va «O‘zbekiston» degan yozuvlar tilla rangda, g‘o‘za shoxlari, barglari va vodiylar yashil rangda, tog‘lar havo rangda, chanoqdagi paxta, daryolar, yarim oy va yulduz oq rangda. O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i tasvirlangan lenta to‘rt xil rangda berilgan.

1992-yil 10-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida 12 moddadan iborat «O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilindi.

Har bir mustaqil davlatning asosiy belgilaridan biri milliy valutasidir. O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritib o‘zining milliy valutasini muomalaga kiritishga kirishdi. Biroq bu jarayon uchun ma‘lum vaqt, tajriba

kerak edi. Shu boisdan O‘zbekiston 1991–1993-yillarda sobiq Ittifoqdan meros qolgan rubl zonasida bo‘lib turdi. Ammo sovetlardan keyingi makedonda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning keskin pasayishi natijasida rublning qadri ham shunga mos ravishda tushib bordi.

O‘zbekiston muomalaga yangi milliy valuta kiritish ishiga jiddiy kirishdi. 1992-yildayoq muomalaga chiqarishga mo‘ljallangan so‘m-kupon nusxalari tayyorlanadi. Nihoyat, 1993-yil 1-noyabrda O‘zbekistonda so‘m-kupon muomalaga kiritildi, uning kursi oldin muomalada bo‘lib kelgan rublga tenglashtirilgan edi. O‘zbekiston rahbariyati so‘m-kuponlar asosida zarur tajriba orttirdi, haqiqiy milliy valutani joriy qilish tadbirlarini ko‘rdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 16-iyunda e‘lon qilingan «O‘zbekiston Respublikasining milliy valutasini muomalaga kiritish to‘g‘risida»gi Farmoniga muvofiq 1994-yil 1-iyuldan boshlab respublika hududida yagona, cheklanmagan va qonuniy to‘lov vositasi sifatida milliy valutasini – so‘m muomalaga chiqarilgan.

Muomalaga 1994-yilda 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100 so‘mlik, 1997-yil 1-martdan 200 so‘mlik, 2000-yil 1-iyuldan 500 so‘mlik, 2001-yil 1-sentabrdan 1000 so‘mlik banknotlar chiqarilgan. Keyinchalik, 1, 5, 10, 25, 50, 100 so‘m qiymatidagi tangalar muomalaga kiritilgan.

Nazorat savollari:

1. Nechanchi yilda O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi e‘lon qilingan?
2. Mustaqillik arafasida O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy holati qanday edi?
3. 1990-yillarning boshidagi inqirozning kuchayishiga nimalar sabab bo‘ldi?
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va uning tarixiy ahamiyatini aytib bering.
5. O‘zbekiston Respublikasining Davlat ramzlari haqida nimalar bilasiz?

4. O‘ZBEKISTONNING O‘ZIGA XOS ISTIQLOL VA TARAQQIYOT YO‘LI

4. 1. Mustaqil taraqqiyotning dastlabki bosqichidagi muammolar. O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini tanlashi

Davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tish uchun qulay sharoit va keng imkoniyatlar yaratdi. Bizning diyorimizda bozor munosabatlari yangilik emas. Ming yillar davomida ajdodlarimiz hunarmandlar ishlab chiqargan ajoyib mahsulotlarini, tabiiy boyliklarini dunyoning to‘rt tomoniga chiqarib savdogarlik qilgan, mol almashgan.

O‘zbekistonning boy imkoniyatlari, geopolitik sharoitidan foydalanib o‘zimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo‘limizni belgilash dastlabki kunlarning eng muhim vazifasi bo‘lib qoldi. O‘zbekiston tanlagan islohot yo‘li ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodini shakllantirishga qaratildi.

Bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurishning asosiy tamoyillari I.Karimov tomonidan ishlab chiqilib dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning yirik mutaxassislari, davlat arboblari tomonidan tan olindi va o‘zining hayotiyiligini namoyish etmoqda. Bu tamoyillarning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

iqtisod siyosatdan ustun turib, mafkuraviy tazyiqlarsiz, o‘ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanmog‘i kerak;

davlat bosh islohotchi o‘rnida bo‘lib, u islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berishi va ularni izchillik bilan amalga oshirishi lozim;

bozor munosabatlariga o‘tish qonun ustuvorligini talab qiladi. Butun xalq tomonidan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarga amal qilinishi shart;

bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini himoya qilishning kuchli ijtimoiy siyosatini o‘tkazish;

ijtimoiy islohotlarning rivojlanib borishi va yo‘nalishini belgilab be-

ruvchi tamoyillardan biri bozor iqtisodiyotiga o'tish evolutsiya yo'li bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarur.

Yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish tamoyillari asosida g'oyat mas'uliyatli va murakkab vazifa-iqtisodiy islohotlar strategiyasi ishlab chiqildi. Iqtisodiy strategiyaning boshlang'ich nuqtasi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning pirovard maqsadini belgilab olishdan iboratdir. Bu vazifa markazlashtirilgan, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tishdan iboratdir.

4. 2. Taraqqiyotning o'zbek modeli va uning o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy rivojlanish strategiyasi: yangilanish va taraqqiyot yo'li

Jamiyat rivojlanishining zamonaviy milliy modellari. Bunday ulkan vazifani bajarishdan oldin jahonda mavjud bo'lgan iqtisodiy rivojlanish modellarini o'rganish zarur edi. Ma'lumki, jahonda milliy taraqqiyot modellari ko'p bo'lib, ularni asosan Yevropa va Osiyo taraqqiyot modellariga ajratish mumkin. Bu modellar shu mintaqada yashayotgan tub aholining nomi bilan ataladi. Bunda Yevropa mamlakatlari iqtisodiy taraqqiyot modellari turkumiga: nemis, britan, fransuz, shved; Osiyo mamlakatlari iqtisodiy taraqqiyot modellari guruhiga: yapon, koreys, hind, xitoy modellari kiradi.

Bunda, nemis modeli ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiga, britan modeli iqtisodiyoti davlat tomonidan tartibga solishga, fransuz modeli davlat tadbirkorligiga, shved modeli ijtimoiy tenglik va adolatni ta'minlash ustuvorligiga asoslangan holda iqtisodiy faoliyat olib borishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Osiyo mamlakatlaridagi yapon modeli iqtisodiyotni yaponcha hayot tarzi an'analariga muvofiq "oila+ jamoa"ni uyg'unlashtirish asosida jamiyatni ijtimoiy tashkil etish, koreys modeli investitsiyalarni jalb etish; hind modeli korxonalarining innovatsion faolligi; xitoy modeli industrilashtirish, shaharlashtirish, marketinglash va baynalmilallashuv, shuningdek, iqtisodiyot, siyosat, madaniyat, jamiyat va ekologiya sinteziga asoslanadi. Ushbu modellarning ishlash mexanizmlari, ular keltirib chiqaradigan natijalar to'liq o'rganib chiqilgandan

so'ng, ulardan nusxa ko'chirilmasdan, o'zbek xalqining manfaatlariga mos keladigan va ularni porloq kelajak uchun boshlab boradigan taraqqiyotning yangi "o'zbek modeli" buyuk davlat va jamoat arbobi I.A.Karimov tomonidan 1992-yilda yozilgan "O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li" nomli kitobi va keyingi asarlarida ilmiy jihatdan asoslangan holda ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etildi.

Taraqqiyotning o'zbek modeli va uning asosiy tamoyillari

O'zbek modelining asosiy maqsadi bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyatni barpo etishdan iborat bo'lsa, asosiy vazifalari esa iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy va boshqa sohalarida tub o'zgarishlar va islohotlarni amalga oshirish, xalqning turmush farovonligini yuksaltirish, komil insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

O'zbek modelining mohiyat-mazmunining millati, tili va dinidan qat'i nazar, davlatimizda yashovchi barcha kishilar uchun munosib hayot sharoitini yaratib berish, har bir inson uchun ijtimoiy kafolatlangan turmush darajasini va erkinliklarini ta'minlash, xalqimizning qadriyatlarini va mentalitetiga, milliy davlatchilik an'analariga tayanish, dunyo tajribasining ilg'or yutuqlariga asoslanish, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini ta'minlash masalalari tashkil etadi.

O'zbek modelining asosiy tamoyillarini quyidagilar tashkil qiladi:

Tamoyil rus tilidan olingan bo'lib, prinsip – biron-bir ta'limot, dunyoqarashning asosiy, birlamchi qoidasi, boshqaruvchi g'oya, faoliyatining asosiy yo'nalishi. Shuningdek, insonning borliqqa munosabatini, uning xatti-harakati va faoliyati me'yorlarini belgilovchi ichki omil ham tamoyil hisoblanadi.

Birinchi tamoyil iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi. Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u biror mafkuraga bo'ysundirilishi mumkin emas. Ichki va tashqi iqtisodiy munosabatlardan xoli bo'lish lozim.

Iqtisodning siyosatdan ustunligi va mafkuradan xoliligi. O'zbek modelining tamoyili sifatida nafaqat mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning mazmun-mohiyatini aks ettiradi, balki yurtimiz iqtisodiy hayotining yangiliklar, ilg'or tajribalar va oqilona tashkil qilishning omilidir. U obyektiv iqtisodiy qonunlarni tan olishga, mulkchilik shakllariga, taqsimotga nisbatan subyektiv munosabatdan qutulish-

ga ma'naviy shart-sharoit yaratadi. Birinchi Prezident Islom Karimov ta'kidlagani kabi: "Mafkuraviy aqidalarni bartaraf etish xo'jalik yuritishning turli ijtimoiy fikrning, bozor munosabatlariga mos bo'lgan psixologiyaning va shunga xos iqtisodiy tafakkurning idrok etilishicha ko'maklashadi".

Mazkur tamoyil iqtisodiy rivojlanishda ma'naviyatning ahamiyati nechog'lik muhim ekanini, uning nozik qirralarini ochib beradi.

Ikkinchi tamoyil – Davlat – bosh islohotchi. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, yangilanish va o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan amalga oshirish lozim. Mustabid tuzum asoratlaridan xolos bo'lish jarayonida o'zini o'zi tartibga soladigan yetuk rivojlangan iqtisodiy mexanizm birdaniga vujudga kelib qolmaydi. Shu boisdan ma'muriy buyruqbozlikka, markazlashgan iqtisodiyotga asoslangan tuzum qoldiqlarini bosqichma-bosqich bartaraf etish, bu yo'ldagi turli ziddiyat va qarshiliklarni yengib o'tish yangi munosabatlarni qaror toptirish uchun o'tish davri kerak. Ziddiyatlarga boy bo'lgan o'tish davri sharoitida iqtisodiyotni, islohotlarni o'z holiga tashlab qo'yib bo'lmaydi.

Islom Karimov o'zbek modeli mazkur tamoyilini ilmiy asoslar ekan, quyidagilarni ta'kidlaydi: "O'tish davrida davlat xalq xo'jaligining, ayniqsa uning asosini, tizimini, narx-navolarni tartibga solib turishi, shuningdek, bevosita yordam berishda imtiyozlar yaratishi, bevosita yordam ko'rsatishi yo'li bilan ana shu tarmoqlarga madad berishi lozim". Bu so'zlar davlatning bosh islohotchi sifatidagi vazifasi nimadan iborat ekanini asoslab beradi va ayni paytda turli ijtimoiy guruhlarining, nodavlat va jamoatchilik tashabbuslari va faoliyatlari cheklanmasligini, aksincha, davlat ularga yordam berishini bildiradi.

Uchinchi tamoyil – jamiyat hayotining barcha sohalarida qonunning ustuvorligi. Demokratik yo'l bilan qabul qilingan konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etish lozim.

Birinchidan, mazkur tamoyil turli mulk shakllarining teng huquqiy asosda rivojlanishini ta'minlaydi. Mulkchilik shakllari va xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlar, raqobat qat'iy huquqiy me'yorlar yordamida tartibga solinadi.

Iqtisodiyotni boshqarishda o'zboshimchalik va subyektivizmga, turli iqtisodiy zo'ravonliklarga yo'l qo'ymaslik uchun zarur huquqiy shart-sharoit vujudga keladi. Ikkinchidan, demokratiya rivojlanadi, aholining siyosiy madaniyati va faolligi oshadi. Fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang-barangligi rivoji uchun huquqiy kafolat paydo bo'ladi. Inson huquqlari ta'minlanadi. Noqonuniy imtiyozlarga chek qo'yiladi. Uchinchidan, alohida shaxsning, barcha ijtimoiy guruh va qatlamlarning manfaatlari, ijodiy salohiyati samaraliroq ro'yobga chiqadi. Jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyati yil sayin ortib boradi, fuqarolik ahamiyati shakllanadi.

Demak, qonunning ustuvorligi tamoyili keng ma'noda, O'zbekistonda ijtimoiy taraqqiyotga, jamiyat yangilanishiga, inson shaxsining yuksalishiga xizmat qiladi.

O'zbek modelining mazkur tamoyili o'zidan avvalgi tamoyil bilan chambarchas bog'liq. Zero, davlat bosh islohotchi sifatida ijtimoiy barqarorlik, qonuniylik va huquq-targ'ibotning asosiy kafili bo'ladi.

Ushbu tamoyil jamiyat hayotida birdaniga to'liq qaror topib qolmaydi. U nisbatan uzoq muddat talab qiladigan, bosqichma-bosqich va doimiy rivojlanib boradigan jarayondir. Uning to'liq qaror topishi uchun o'zaro mushtarak bo'lgan quyidagi uch omil muhim ahamiyat kasb etadi:

– jamiyatning, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab oladigan puxta va zaruratga qarab o'zgaruvchi qonunlar majmuasining vujudga kelishi va doimiy takomillashib borishi;

– jamiyat a'zolarining huquqiy savodxonligi darajasi va qonunga itoat g'oyasining yuksak bo'lishi;

– mavjud qonunlarni hayotga tatbiq etishning zarur iqtisodiy shart-sharoiti, siyosiy-ma'muriy va ijtimoiy mexanizmini yaratish.

To'rtinchi tamoyil – aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda, aholini, ayniqsa kam ta'minlangan oilalarni, bolalar va keksalarni ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rish lozim.

Kuchli ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismlari va yo'nalishlari ko'p. Ular ijtimoiy ta'minot, yangi ish o'rinlari yaratish, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, madaniyat, sport va jismoniy tarbiya sohalari faoliyatini mablag'

bilan ta'minlash va isloh qilishdan tortib jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquq-tartibotni ta'minlashgacha bo'lgan masalalarni qamrab oladi.

Kuchli ijtimoiy siyosat olib borish va aholining turli qatlamlarini ijtimoiy muhofaza qilish o'zbek modelining insonparvarlik mohiyatini belgilab beruvchi tamoyillardan biridir.

Beshinchi tamoyil – bozor iqtisodiyotiga obyektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, tadrijiy asosda puxta o'ylab, bosqichma-bosqich o'tish. Bu ish islohotlarning huquqiy asoslari va kafolatlarini vujudga keltirish, aholini ijtimoiy himoyalash va uning yangicha iqtisodiy tafakkurini shakllantirish bilan birga olib borilishi lozim. "Faqat farmonlar, farmoyishlar chiqarish bilan bozor iqtisodiyotini barpo etib bo'lmaydi. Uzoq tarixiy taraqqiyotning natijasi bo'lib, tegishli infraquraturani va huquqiy asosni yaratishgina emas, shu bilan birga, qadriyatlar tizimida chuqur o'zgarishlari, xo'jalik faoliyati va amaliy munosabatlarni asoslashni ham ko'zda tutadi. O'zbekistonda aynan shunday yo'l tutildi. Bunday siyosat yuritish nafaqat mablag'lardan samarali foydalanish imkonini bermoqda, shuningdek, odamlarning safarbarligini oshirmoqda, ijtimoiy larzalarning oldini olmoqda, mulkchilik ishlarini bosqichma-bosqich rivojlantirmoqda. Ushbu tamoyillar O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'lining asosini, o'tish davri dasturining negizini tashkil etadi.

O'zbek modelining kishilar tafakkurini yangilashda tutgan o'rni va roli. Jamiyatni rivojlantirish borasida har bir yangidan yaratilgan model o'zining amal qilish tamoyillariga ko'ra kishilarning ongi va tafakkuriga o'zining ta'sirini o'tkazadi. Xuddi shu ma'noda O'zbek modelining kishilar tafakkurini yangilashda tutgan o'rni va roli quyidagilar:

birinchidan, odamlarning dunyoqarashini tubdan o'zgartirib, mustaqillikning ulug' saodat ekanligiga ishonchini mustahkamlaganligi;

ikkinchidan, iqtisodiy erkinlik shaxs, oila, mehnat jamoasi, ijodiy guruhlarining tashabbuskorligi va tadbirkorligini kuchaytirib xalq farovonligini oshirayotganligi;

uchinchidan, xususiy mulkning daxlsizligini ta'minlab, uning mavqeyini kuchaytirayotganligi;

to'rtinchidan, aholining nochor qatlamlari, bolalar, talabalarning ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlanayotganligi;

beshinchidan, ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirib, komil insonlarni voyaga yetkazishga xizmat qilayotganligi;

oltinchidan, jahonda o'zbek degan xalqning borligini har tomonlama namoyon qilayotganligi va boshqalar bilan ifodalanadi.

Shuning uchun ham bu modelning o'zbek xalqi hayotda tutgan orni va roli haqida Birinchi Prezident I.A.Karimov: "Biz tanlagan taraqqiyot strategiyasining naqadar to'g'ri bo'lganini hayotning o'zi yana va yana bir bor tasdiqlab bermoqda", – degan edi. Bu xususda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: «Davlatimiz rahbari asoslab bergan, dunyoda taraqqiyotning «O'zbek modeli», «Birinchi Prezident Islom Karimov modeli» deb tan olingan strategiya yo'lining mohiyati va ahamiyati, uning vaqt o'tgan sari yuzaga chiqayotgan potensial imkoniyatlarini har qachongidan ham chuqurroq anglaymiz», – **deganda, haq gapni gapirgan edi.**

«O'zbek modeli»ning mantiqiy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan 2017-yil 7-fevralda «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida» Farmon qabul qilindi.

Harakatlar strategiyasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan keng jamoatchilik, ishbilarmon doiralar vakillari hamda davlat organlari bilan uchrashuvlar chog'ida bildirilgan mamlakatni ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy-gumanitar rivojlantirishning konseptual masalalari kiritildi.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatimizni rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi belgilab berilgan bo'lib, ular:

Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;

Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish.

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;

Ijtimoiy sohani rivojlantirish;

Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishdan iborat.

4. 3. O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan strategiya asoslari

Mustaqillikning dastlabki yillarida Birinchi Prezident Islom Karimov rahbarligida islohotlar strategiyasi ishlab chiqildi. Bunda taraqqiy etgan mamlakatlarning bozor munosabatlarga o'tish tajribasi, mamlakatimiz boshdan kechirgan tarixiy sinovlar va ularning saboqlari, xalqimizning turmush va tafakkur tarzi asos qilib olindi. Shu tariqa jamiyatni isloh etishning chuqur ilmiy asoslangan quyidagi besh tamoyili vujudga keldi.

Bozor islohotlarini amalga oshirish dasturiga ko'ra ustuvor vazifalar bosqichma-bosqich hal qilinadi.

Birinchi bosqichda totalitar tizimdan hozirgi zamon bozor munosabatlariga o'tish davridagi bir-biriga bog'liq, ikki vazifani bir vaqtda hal qilishga to'g'ri keldi: ma'muriy buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini tugatib, iqtisodni barqarorlashtirish va bozor munosabatlarining negizini shakllantirish. Bu bosqich jarayonida iqtisodiy islohotning g'oyat muhim yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti tomonidan belgilab berildi:

o'tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy bazasini mustahkamlash va rivojlantirish;

qishloq xo'jaligida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish; ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish.

Iqtisodiy islohotlarni huquqiy asoslovchi qonun-qoidalar yuridik tashkilotlar va yetuk olimlar tomonidan tayyorlandi va jahonning yirik mutaxassislari tomonidan quvvatlanib tan olindi.

Dastlabki vaqtning o'zida iqtisodiy munosabatlarning huquqiy negizini barpo etadigan 100 ga yaqin asosiy qonun hujjatlari qabul qilingan. Iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va chet el investitsiyalari bo'yicha Prezident huzurida maxsus Idoralararo kengash tuzildi.

Bozor munosabatlariga o'tishning asosiy shartlaridan biri mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish amalga oshirildi. Bu bilan davlat monopoliyasi tugatilib, ma'muriy buyruqbozlik tizimi buzildi va bozor iqtisodiyotiga asos solindi, xususiylashtirishning keng qatlami shakllantirildi va xorijiy sarmoyadan foydalanib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali aholining turmush darajasi yaxshilana boshladi.

Mulkni xususiylashtirish va ko'p ukladli iqtisodni shakllantirish O'zbekistonda o'ziga xos yo'l bilan amalga oshirildi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishdagi maqsad: 1. Davlat monopoliyasini tugatib ma'muriy buyruqbozlik tizimiga barham berish va bozor iqtisodiyotiga asos solish. 2. Xususiylashtirishning keng qatlamini shakllantirish. 3. Xorijiy sarmoyadorlarga keng yo'l ochish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va aholining turmush tarzini yuksaltirishdan iborat.

1992–1993-yillar xususiylashtirishning birinchi bosqichida “Kichik xususiylashtirish” amalga oshirildi. Buning oqibatida asosan maishiy xizmat va savdo korxonalari, transport va qurilishning kichik korxonalari, davlat sanoat va mahsulot qayta ishlash korxonalari mulk shaklini o'zgartirdi. Bular mulkning ijara, jamoa va aksiyadorlik shakliga aylantirildi. Uy-joylar keng miqyosda xususiylashtirilib, aholining ayrim qismiga tekis, boshqa qismiga esa arzon narxda xususiylashtirish berildi.

Dastlabki davrda agrar sohada ham islohotlar amalga oshirildi. Natijada qishloq xo'jaligida 770 kolxoz va davlat xo'jaliklari xususiylashtirildi, jamoa va ijara xo'jaliklariga aylantirildi. Lekin qishloqda bu jarayon sekin va qiyinchiliklarni bartaraf etishga to'g'ri keldi. I.A.Karimov ta'kidlaganidek, agrar sohadagi byurokratik boshqaruv tizimining har xil to'siqlari qishloqda islohotning borishiga xalaqit berardi. Mulkning davlat tasarrufidan chiqarish jarayonining birinchi bosqichidagi eng muhim xulosa mulkdorlar sinfining shakllana boshlagani, xususiylashtirish mexanizmining ishlab chiqilishi, iqtisodiy islohotlarga nisbatan kishilar psixologiyasi va munosabatining o'zgarishi bo'ldi. Mustaqillik yillari yuz bergan tub o'zgarishlardan biri mamlakatda ikki yo'l bilan mulkdorlar sinfi shakllana boshladi. Birinchidan, kichik korxonalar va xususiylashtirish tadbirkorlikni keng rivojlantirish, ikkinchidan, pul mablag'larini omonat kassalari yoki banklariga qo'yish, qimmatbaho qog'ozlarga aylantirish

yo‘li bilan. Iqtisodiy jihatdan erkin bo‘lgan mulkdor “o‘z boyligini ko‘paytirishdan manfaatdor bo‘libgina qolmay, balki butun mamlakatni boyitishga ham qodir bo‘ladi”, – deydi Birinchi Prezident Islom Karimov.

Davlat mulkini xususiylashtirishning ikkinchi bosqichi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 21-yanvardagi “Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirishning chora-tadbirlari to‘g‘risida”-gi qarori asosida olib borildi. Bu davrda ochiq shakldagi aksiyadorlik jamiyatini qurish, korxonalar aksiyasini chiqarish, auksion (kim oshdi) savdosi orqali davlat mulkini shaxslarga sotish, qimmatbaho qog‘ozlarni chiqarish va xususiylashtirishni yoppasiga olib borish uchun sharoit yaratish ishlari amalga oshirildi.

Aloqa, transport, geologiya qidiruv yoqilg‘i-energetika komplekslari xususiylashtirilmadi. Ayrim sohalarda – kimyo, oltin qazish, paxta tozalash, tog‘-kon sanoatida 51% aksiya davlat ixtiyorida qoladigan bo‘ldi.

1994-yil oxirigacha 54. 000 korxonalar mulk shaklini o‘zgartirdi. Xususan, 34% xususiy, 48% aksiyadorlik, 16% jamoa, 1% ijara xo‘jaligiga aylandi. Iqtisodiy islohotlarning borishi, uning to‘rt yil davomidagi muvaffaqiyatlari va muammolariga respublika Oliy Majlisining IV sessiyasi (1995-yil dekabrda) va Vazirlar Mahkamasining majlisida (1996-yil fevral), Prezident I.A. Karimovning nutqlarida keng yoritildi.

1995-yil mamlakatning barcha sohalarini isloh qilishda tub burilish yili bo‘ldi. Eng muhimi islohiy jarayonlarga kishilarimizning ishonchi ortdi. Ishlab chiqarishning pasayishi keskin to‘xtadi, jamiyatimizda iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy barqarorlik yuz berdi. Moliyaviy vaziyat o‘nglanib, inflatsiyani 1994-yilga nisbatan uch barobar kamaytirishga erishildi. Narxning o‘shishi yil boshida 16,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, yil oxirida 2,2 foizni tashkil qildi. Valuta bozorida joriy yilda o‘tgan yilga nisbatan 11 marta ko‘p, ya‘ni 1,3 mlrd. dollar sotildi.

Ichki yalpi mahsulot 1995-yilda 1994-yilning darajasiga nisbatan 96 foiz o‘rniga 98,8 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan milliy daromad 98,5 foizga yetdi. Sanoat ishlab chiqarish hajmi shu yili o‘tgan yilga nisbatan 100,2 foizga teng bo‘ldi.

Respublikada kichik va xususiy tadbirkorlikni shakllantirish va rivojlantirishni ta‘minlovchi zaruriy huquqiy asos yaratilgan. Amalda-

gi qonunchilik hujjatlarida, Respublika Prezidentining farmonlarida, xususiy tadbirkorlikdan soliq olish, unga moliyaviy yordam ko'rsatish borasida imtiyozlar berish, imtiyozli kreditlar ajratish, moddiy-texnika va xomashyo resurslari bilan ta'minlash borasida ko'maklashish nazarda tutilgan.

Ana shu sa'y-harakatlar natijasida 1995-yil o'rtasida Respublika xalq xo'jaligida 30770 kichik korxonalar va kooperativlar, 20115 xususiy korxonalar ishlab turdi. 15600 fermer xo'jaligi tashkil etildi, ularga 200 ming gektarga yaqin yer birlashtirib berilgan bo'lib, 67,5 ming kishi mehnat qilmoqda edi. Fermer xo'jaliklarining tasarrufida 190 mingga yaqin qoramol va boshqa hayvonlar mavjud. 1995-yilning faqat birinchi choragidagina fermer xo'jaliklari tomonidan o'tgan yilning tegishli davridagiga nisbatan ikki barobar ko'p go'sht va sut mahsulotlari tayyorlandi.

Kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashuvchi jamg'arma tomonidan respublikaning 187 tuman va shaharida bank bo'limlari ochildi. 1994-yil va 1995-yilning olti oyida kichik va ijara korxonalariga, shuningdek shirkatlarga va tadbirkorlarga jami 1.222.3 million so'm miqdorda kredit berildi.

Ikkinchi bosqichda Prezident I.A. Karimovning "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" (1995-yil) asarida qo'yilgan choralarni, xususan, xususiylashtirish va raqobatchilik muhitini shakllantirish jarayonlarini chuqurlashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, milliy valutani mustahkamlash, iqtisodiy-tarkibiy strukturasi tubdan o'zgartirish chora-tadbirlari amalga oshirildi. 2000-yilda xususiylashtirish davlat dasturi bo'yicha ko'zda tutilgan 167 obyekt o'rniga 374 obyekt xususiylashtirildi. Ularning negizida 152 ta hissadorlik jamiyati, 103 xususiy korxonalar tashkil etildi. Shu yili davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishdan 14,3 milliard so'm mablag' tushdi. Bu 1999-yilgi ko'rsatishdan 1,6 barobar ko'pdir.

Umuman olganda o'tgan o'n yil davomida bozor munosabatlarini shakllantirishda tub o'zgarishlar yuz berdi. Hozirgi paytda 87,4 foiz mulk nodavlat, 12,6 foizi davlat mulki ko'rinishida ish yuritilmoqda. Respublikada jami 60 mingga yaqin korxonadan 50,5 mingga yaqini xususiylashtirilgan korxonalar. Mulkning tarkibi jihatdan 19,5 mingga yaqini davlat, 105 mingta xususiy, 3,4 mingdan ortiq chet el investorlari

ishtirokida, shundan 442 qo'shma korxonalar, 3,5 mingga yaqin aksionerlik jamiyati, 1,2 mingga yaqin jamoa va 34 mingdan ortiq boshqa korxonalaridir.

Iqtisodiy islohotlarning borishida o'rta va kichik biznesni rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda 180 mingdan ortiq kichik va o'rta biznes subyektlari va 200 mingga yaqin yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Yangi parlamentning qo'shma Majlisida (2005-yil 28. 01.) Prezident I.Karimov 2005-yilning iqtisodiy islohotlarning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri kichik biznes va fermerlikni rivojlantirishni chuqurlashtirish va kengaytirishdan iborat. 2007-yil yarmida kichik biznesni 45%ga yetkazish, hozir 36%ni tashkil qiladi, bu ko'rsatkich ilg'or mamlakatlarda 60–65% ni tashkil etadi. Fermer xo'jalikni rivojlantirish uchun shirkat xo'jalikning 2005–2007-yillarda 1100 tasini, 2005-yilda esa 406 tasini qayta tashkil etish kerak. Fermerlarga yer ajratishda mahalliychilik, urug'-aymoqchilikka, poraxo'rlikka yo'l qo'ymaslik vazifasini qo'ydi.

2004-yilda qishloq xo'jaligida yalpi o'sish 10%ni tashkil qildi. Shu jumladan boshqoli don ekinlari besh million tonnaga yaqin, paxta 3,5 mln. tonnani tashkil qildi.

Kichik va o'rta biznes iste'mol mollari manbasi daromad va foyda manbasi bo'lib, yangi ish o'rmini yaratadi. Kichik va o'rta biznes Yaponiyada 80%, Yevropa Ittifoqida 67%, Germaniyada 65%, AQSHda 52% ni tashkil qiladi.

1995-yil 5-yanvarda xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko'rsatish va uni rag'batlantirish to'g'risida Prezident farmoni, 1995-yil 21-fevralda «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'risida» qonunlar qabul qilindi. 1995-yil Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tuzilib, bu tadbirkorlarga 10 mlrd. so'm yordam ko'rsatdi. Kichik va o'rta biznesga chet ellik investitsiyalar jalb etildi. 2003-yili 450 mln. dollar xorijiy investitsiya sarf qilindi. 1992–1996-yil 85 mln. dollarga yaqin, 2001-yil boshlarida 190 mln. dollardan oshdi. 2003-yil 1-iyulga kichik va o'rta biznes korxonalari 200 mingdan oshdi. Sobiq Ittifoqning tarqatib yuborilishi bilan respublikalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar uzildi, oqibatda O'zbekistonning bir qancha sanoat korxonalari to'xtab qoldi va mahsulot ishlab chiqarish kamaydi. Endilikda

iqtisodning tarkibiy tuzilishini yangidan qurish kerak edi. Jahon bozorida raqobatga bardosh bera oladigan va aholining iste'mol talablarini qondiradigan mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilish zarur bo'ldi.

Prezident Islom Karimov iqtisodiyotdagi tarkibiy tuzilishni tubdan o'zgartirish to'g'risida: "Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichida iqtisodiyotimizning tarkibiy tuzilishida tub o'zgarishlarga asos solishdan iborat g'oyat muhim vazifani hal etish kerak bo'ladi. Bu respublika uchun strategik ahamiyatga egadir. Tarkibiy tuzilishda chuqur o'zgarishlarni amalga oshirish makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning, istiqbolda O'zbekistonning barqaror iqtisodiy o'sishini va aholi farovonligini ta'minlashning, jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishning eng asosiy shartlaridan biridir", – deb yozadi. Birinchi Prezidentning ko'rsatmalaridan kelib chiqib, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarning oldiga qo'yilgan aniq vazifalar quyidagilardan iborat bo'ldi: iqtisodiyotning bir tomonlama rivojlanishiga chek qo'yish; importga qaramlikni tugatish; mamlakatning eksport salohiyatini oshirish; xalq iste'moli mollariga aholining talabini qondirish va boshqalar.

Nazorat savollari:

1. Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li nimalardan iborat edi?
2. Taraqqiyotning o'zbek modeli nima?
3. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida qanday muhim islohotlar o'tkazildi?
4. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy omillari nimaga tayanadi?

5. 1. HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING BARPO ETILISHI

5. 1. 1. Mustaqil O‘zbekistonda amalga oshirilgan institutsional o‘zgarishlar

O‘zbekiston o‘z tarixida birinchi bor taraqqiyotning yangi pallasiga qadam qo‘ydi. Mamlakatda keng qamrovli islohotlarni amalga oshirish, yangi davlatchilik asoslarini barpo etish imkoniyatiga ega bo‘ldi. SSSR parchalanishi natijasida paydo bo‘lgan yosh mustaqil davlat oldida taraqqiyotning ikki yo‘li turgan edi. Birinchisi, mamlakat xalq xo‘jaligini eski, sotsialistik yo‘nalishda rivojlanishini davom ettirish, ikkinchisi, jahon mamlakatlari amaliyoti sinovidan o‘tgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan, demokratik tamoyillarni o‘zida mujassam etgan yangi jamiyatni barpo etish yo‘lidan borish. Bunday sharoitda mamlakatimizda uzoq yillar davomida amal qilib kelingan, ammo o‘zini oqlamagan birinchi yo‘ldan voz kechildi. O‘zbekiston ikkinchi yo‘lni tanladi. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti rahbarligida yangi davlatchilik asoslarini barpo etishga kirishildi.

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik orzu-umidlari ifodasi bo‘lgan mustaqillikning asosiy xususiyati milliy, umuminsoniy qadriyatlarni ta‘minlaydigan huquqiy-demokratik davlat qurish edi.

Mustaqillik yillari milliy davlatchilik asoslarini qurish yillari bo‘ldi. O‘tgan yillar ko‘hna tariximizni teran his qilish, hozirgi jahon jarayonida o‘z o‘rnimizni egallash davri bo‘ldi. Bu davrda biz o‘zligimizni anglab, tarixiy yo‘limizni uzil-kesil tanlab oldik.

Mustaqil O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov tarixiy an‘analarga, dunyo tajribalariga, o‘lkaning o‘ziga xos tomonlariga tayangan holda jamiyatni siyosiy jihatdan tubdan isloh qilish yo‘llarini ishlab chiqdi. Bu jarayonda ikkita bosh vazifa:

1. Eski ma'muriy tizimni tugatish va hokimiyat boshqaruv organlarini qayta qurish.

2. Yangi davlatchilikning huquqiy va siyosiy asoslarini yaratish, davlatchilikda yangi markaziy va mahalliy boshqaruv tizimini shakllantirish masalalarini hal qilishdan iboratdir.

I.Karimov mamlakatda yangi davlatchilik asoslarini shakllantirish jarayonlarida avvalo hokimiyatning bo'linish tamoyillariga asoslangan jamiyatni barpo etishni bosh vazifa sifatida belgiladi.

Huquqiy davlatning muhim tamoyillaridan bo'lgan hokimiyatlar bo'linishi nazariyasi O'zbekiston Konstitutsiyasining 11-moddasida "O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish prinsiplariga asoslanadi", deb mustahkamlab qo'yilgan. Hokimiyatlarga bo'linish prinsipining amalga oshirilishida "bir-birini tiyib turish va o'zaro muvozanatda ushlash" tizimining samarali ishlashi juda muhim bo'lib, bu tizimning huquqiy asoslari Asosiy Qonunda mustahkamlangan. Unda hokimiyatning har bir tarmog'i vakolatiga kiruvchi masalalar doirasi aniq chegaralanib, ko'rsatib berilgan. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni – Oliy Majlis, ijro etuvchi hokimiyatni – Vazirlar Mahkamasi, sud hokimiyatini – sudlar (Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy xo'jalik sudi va h.k.) amalga oshiradi.

Mamlakatimizda shu asnodda davlat hokimiyatining bo'linish tamoyiliga asoslangan yangi tizimi shakllantirila boshlandi.

Qonun chiqaruvchi hokimiyat organi sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi XVIII bobi 76-moddasida "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi", – deb belgilab qo'yildi. Bundan tashqari, 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida»gi Qonunda ham Oliy Majlisning huquqiy asoslari belgilab berildi.

Sobiq Ittifoqdan qolgan qonunlarni o'zgartirish, mamlakat hayoti uchun zarur o'zgartirishlarni amalga oshirish, demokratik tamoyillar asosida Oliy Majlisni shakllantirish uchun 1994-yil 25-dekabrda saylovlar belgilandi. 1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan «**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida**»gi qonunga ko'ra respublika

parlamentiga saylovlar umumiy, teng, to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi I chaqiriq Oliy Majlisiga saylov respublikamiz siyosiy hayotida ulkan yutuq bo'lib, bunda 250 deputatdan iborat Oliy Majlis – Yangi Parlament demokratik va ko'ppartiyaviylik asosida tuzildi.

1995-yil 23–24-fevralda chaqirilgan Birinchi sessiyada O'zbekiston parlamenti hokimiyat vakillik organlaridan saylangan 120 kishidan iborat deputatlar blokini, 69 deputatdan tarkib topgan Xalq Demokratik partiyasi fraksiyasini, 47 deputatni uyushtirgan «Adolat» sotsial-demokratik fraksiyasini, 14 deputat ishtirokida «Vatan taraqqiyoti» partiyasi fraksiyasini ro'yxatga oldi. Oliy Majlis sessiyalarida va uning qo'mitalarida olib borilayotgan ishlar asosan mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotini yuqori bosqichga ko'tarish, qonunchilikning sifat darajasini yuksaltirishga qaratilgan. Qonunlar qabul qilinmasdan oldin umumxalq muhokamasiga taqdim qilinishi islohotlarni amalga oshirishga ijobiy ta'sir qildi.

1997-yil 24-aprelda Oliy Majlis tarkibida Inson huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsman) tashkil qilinganligi haqida qaror qabul qilindi. Ombudsman jahondagi 85 dan ortiq mamlakatda bo'lib, uning huquqiy holatini aniq ravshan belgilab beruvchi Konstitutsiyaviy qonun Markaziy Osiyo davlatlarida birinchi huquqiy hujjatdir.

Ushbu qonunda:

«Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) mansabdor shaxslar, tashkilotlar va davlat organlarining inson huquqi, erki va qonuniy manfaatlarini davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlashga ko'maklashish maqsadida faoliyat ko'rsatadi», – deb ta'kidlangan.

Vakil Oliy Majlisning yordamchi instituti bo'lib, u ijtimoiy manfaatlarining muvozanatiga, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha eng maqbul davlat tizimi yaratilishiga ko'maklashadi. Qonun ombudsman institutining umumiy konsepsiyasi va jahon amaliyotining uyg'unlashgan shakli sifatida inson huquqlari vakili faoliyatining asosiy qoida-qonuniylik, oshkoralik, adolatparvarlik, insonparvarlik har bir kishi uchun ochiq ekanligini tasdiqlaydi.

Inson huquqlari bo'yicha vakil faoliyatining tahlili shuni ko'rsatadiki,

O‘zbekistonda huquqiy, insonparvarlik, demokratik va fuqarolik jamiyati qurilishi uchun mustahkam po‘ydevor qo‘yildi.

Oliy Majlis «**O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida**», «**O‘zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi to‘g‘risida**», «**O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida**», «**Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida**», «**Siyosiy partiyalar to‘g‘risida**» qonunlarni, **Mehnat kodeksi** (1995), «**Fuqarolik Kodeksi**»ning (1996) (birinchi va ikkinchi qismlari) kabi ko‘plab qonunlar va qarorlar qabul qildi.

1999-yil 5- va 19-dekabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisiga saylovlar bo‘lib, saylangan deputatlardan O‘zbekiston Parlamentining yangi tarkibi shakllandi.

Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikkinchi sessiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis birinchi sessiyasidagi ma‘ruzasidan kelib chiqadigan «**2000–2002-yillarga mo‘ljallangan qonunchilik va nazorat faoliyatining ustuvorlik jihatlari to‘g‘risida**»gi hujjatni tasdiqladi.

Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IV sessiyasida (2000-yil 14-dekabr) Oliy Majlisning O‘zbekiston xalqiga Murojaatida: «**Yangi asr mamlakat uchun yangilanish va taraqqiyot davriga aylanishiga ishonamiz. Shu boisdan ham mustaqil yurtimizning yorug‘ istiqboli uchun barchamiz hamjihat bo‘lib kurashaylik. Maqsadimiz Vatan taraqqiyoti, yurt tinchligi, xalq farovonligi va kelajak avlodning baxt-saodatidir**» deyilgan.

Mamlakatimizda barcha sohani qamrab olgan keng miqyosli islohotlarni uzluksiz davom ettirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-yil 26-martda Birinchi Prezident I. Karimovning vakolatini 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirish yuzasidan umumxalq referendumini o‘tkazishga qaror qildi. 2000-yil 11-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi majlisi 2000-yil 9-yanvar kuni bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi natijalari tasdiqlandi. Shu kuni Fidokorlar milliy demokratik partiyasidan nomzodi ko‘rsatilgan Islom Karimov uchun 11 million 147 ming 621 saylovchi yoki saylovchilarning 91,90 foizi ovoz berdi. O‘zbekiston

Xalq demokratik partiyasidan nomzodi ko'rsatilgan Abdulhafiz Jalolov uchun 505 ming 161 saylovchi 4,17 foiz saylovchi ovoz berdi.

«O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonunning 35-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Islom Abdug'aniyevich Karimov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanganligi to'g'risida qaror qabul qildi.

Amaldagi Konstitutsiyada Prezident davlat va ijro etuvchi hokimiyatning boshlig'i qilib belgilanishi ijro etuvchi hokimiyatni kuchaytirishga qaratilgan tadbir deb aytish mumkin. Mamlakatimizning ijro etuvchi hokimiyatining tarkibi Prezident tomonidan tayinlanib, Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekistonda prezidentlik instituti o'rnatilgan dastlabki davrda Vazirlar kengashi hukumat sifatidagi huquqiy maqomini va vakolatlarini saqlab qolgan edi. Uning 1990-yil 30-martda Oliy Kengash tasdiqlagan yangi tarkibi 41 kishi, ya'ni Rais, Bosh Vazir, uning ikki birinchi o'rinbosari, to'rt o'rinbosar, 19 vazir, 14 davlat qo'mitasi raisidan iborat edi. Respublikada demokratik jamiyat qurish borasida boshqaruv idoralari faoliyati takomillashtirilib borildi. 1995-yil 5-mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning II sessiyasi bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibi to'g'risidagi Prezidentning Farmonini tasdiqlash masalasi ko'rildi va sessiyada Vazirlar Mahkamasining 35 kishidan iborat yangi tarkibi tasdiqlandi.

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi sessiyasi ikkinchi yig'ilishida (2000-y. 11-fevral) mamlakatimiz Prezidenti tomonidan Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi tasdiqlandi.

Boshqaruv tizimining boshqa bo'g'inlari ham bozor iqtisodining O'zbekistonga xos yo'liga moslashtirildi.

2007-yil 23-dekabrda muqobillik asosida o'tgan saylov natijalariga ko'ra, I.A.Karimov 7 yil muddatga O'zbekiston Prezidenti etib saylandi. 2015-yil 29-mart kuni bo'lib o'tgan navbatdagi Prezident saylovida ham I.A.Karimov 5 yil muddatga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

I.A.Karimov 1991-yil dekabrda to 2016-yilning sentabriga qadar respublikamizda prezidentlik vazifasi va vakolatlarini sidqidildan, o'z

kuchi va g'ayratini ayamadan bajarib keldi. 2016-yil 8-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisi parlament palatalarining qo'shma qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazifa va vakolatlarini bajarish vaqtincha O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Sh.M.Mirziyoyev zimmasiga yuklandi.

Shavkat Mirziyoyev – O'zbekiston Prezidenti

2016-yil 4-dekabrda mamlakatimiz hayotida muhim siyosiy voqea O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. Saylovda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan ko'rsatilgan nomzod Shavkat Miramonovich Mirziyoyev 88,61 foiz ovoz olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

Davlat hokimiyatining ikkinchi muhim tarmog'i – ijro etuvchi hokimiyat bo'lib, O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini ushbu vakolatli organ sifatida belgilandi. Dastlabki davrda Vazirlar Kengashi ijroiya hokimiyat sifatidagi huquqiy maqomini saqlab qoldi. Mamlakatimizda yangi jamiyat asoslarini barpo etish yo'lida amalga oshirilgan ishlar fonida orttirilgan tajriba Prezidentlik boshqaruvining ham rivojiga olib keldi. 1990–1992-yillarda amalga oshirilgan o'zgarishlar asosida Prezidentlik hokimiyati va Vazirlar Kengashining ijroiya boshqaruv hokimiyati qo'shib yuborilib, Prezident huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga aylantirildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra Prezident ayni paytda davlat boshlig'i bo'lish bilan birga ijroiya hokimiyat rahbariga ham aylandi, ya'ni Vazirlar Mahkamasining raisi ham hisoblanadigan bo'ldi.

Davlat hokimiyatining uchinchi tarmog'i sifatida Sud hokimiyati shakllantirildi. Sud hokimiyati tarkibi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sud, Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasining Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasining xo'jalik sudi, viloyatlar sudlari va Toshkent shahar sudi, tuman, shahar xo'jalik sudlaridan iborat. Sud hokimiyati besh yilga saylanishi belgilab qo'yilgan edi. Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etish jarayonida sud hokimiyatida yangi tizim – huquq tarmoqlarini birlashtirishni va ular o'rtasidagi munosabatni uyg'unlashtirishni ta'minlovchi Konstitutsiyaviy sud vujudga keldi. Konstitutsi-

yaviy sud qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatning hujjatlari, davlat hokimiyati mahalliy organlari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomalari va boshqa hujjatlarining O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko‘radi va aniqlaydi.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda sud hokimiyati islohoti, qonun ustuvorligini ta‘minlash masalalari hamon bosh vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasi amaldagi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Parlamenti va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida (2020-yil dekabr) belgilangan vazifalardan kelib chiqib, mamlakatimizda sud hokimiyati tizimida o‘zgarishlar amalga oshirildi. Oliy sud va Oliy xo‘jalik sudlari birlashtirildi. Jinoiy, fuqarolik, ma‘muriy sudlar birlashtirildi, sudyalarni lavozimlarga tayinlash tartiblarida o‘zgarishlar qilindi va h.k.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi e‘lon qilinganidan so‘ng mamlakatimizda bir qator institutsional o‘zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, **1991-yil 6-sentabrda Respublika mustaqilligi hamda hududiy yaxlitligini himoya qilish maqsadida Mudofaa ishlari vazirligi tuzildi. Shu maqsadlarni ko‘zlab uning tarkibida 1992-yil yanvar oyida O‘zbekiston Respublikasi milliy gvardiya brigadasi barpo etish lozim deb topildi. 1992-yil iyulda u Mudofaa Vazirligiga bo‘ysundirildi.**

Mustaqil O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan shug‘ullanuvchi davlat idoralari tizimida tubdan o‘zgarishlar amalga oshirildi. Mamlakatda 1990-yil dekabrda Davlat reja qo‘mitasi Iqtisod komissiyasiga aylantirildi. 1992-yil 5-avgustda esa ushbu qo‘mita va statistika davlat qo‘mitasi negizida Vazirlar Mahkamasining Istiqbolni belgilash va statistika davlat qo‘mitasi hamda joylarda uning tegishli idoralari barpo etildi. 1997-yildan ushbu Qo‘mita Makroiqtisodiyot vazirligiga aylantirildi.

Xalq xo‘jaligini boshqarishning yangi usuli sifatida konsernlar vujudga keltirildi. Bu avvalo iqtisodiy mustaqillik va bozor iqtisodiga o‘tish zaruriyati bilan bog‘liq bo‘ldi. «O‘zdonmahsulot», «O‘zbekneftgaz» va boshqa ko‘plab konsernlar shular jumlasidandir. 1991-yil 7-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil qilindi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, sobiq Ittifoq manfaatlarini birinchi galda qondiruvchi idoralar tugatilib, yangi shakldagi qo'mitalar, konsernlar va vazirliklar tashkil etildi. Bu bilan yangicha iqtisodiy munosabatlar sharoitida o'z milliy taraqqiyotiga mos, vatan mustaqilligini mustahkamlovchi boshqaruv tizimi vujudga keltirildi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat soliq qo'mitasi va b.

5. 1. 2. O'zbekistonda ko'p partiyaviylik tizimining shakllanishi, davlat hokimiyatining huquqiy demokratik asoslarining barpo etilishi

O'zbekistonda davlatning boshqaruvni to'liq monopoliya qilishdan cheklanish va fuqarolik jamiyatini vujudga keltirish, aholi turli tabaqalarining hokimiyat tizimida ishtirok etishini ta'minlashning yana bir yo'li mahalliy davlat hokimiyatlarini shakllantirish ekanligi e'tirof etildi.

O'zbekiston o'zining davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, eski sovet tuzumi davridagi davlat hokimiyati tizimlaridan voz kechdi. O'tish davri-ning muhim jihatlaridan biri ham aynan ana shunda edi. Eski ma'muriy buyruqbozlik tizimi asoslarini tugatish va yangi davlatchilik asoslarini barpo etish bosh vazifa qilib belgilandi. Maqsadimiz demokratik davlat barpo etishdan iborat qilib belgilandi.

Demokratiya xalq hokimiyatchiligi bo'lib, davlat boshqaruvida keng xalq ommasining ham bevosita, ham bilvosita ishtirok etishidir. Bunday jamiyatda albatta qonun ustuvorligi ta'minlanishi muqarrardir. Qonunlar ishlamas ekan, bunday jamiyatda demokratiya ham bo'lmaydi. Qonunlarning to'laqonli ishlashi – bu avvalo fuqarolarning qonun oldida tengligi, qonunlarning hurmat qilinishi, qonunlarga so'zsiz bo'ysunishni bildiradi. Dunyoda aynan bir xildagi demokratik davlat bo'lmaydi. Ammo, demokratik jamiyat uchun umumiy bo'lgan tamoyillar borki, bu barcha mamlakatlar uchun umume'tirof etilgan tamoyillar sanaladi. Har bir davlatning xususiyatidan kelib chiqqan holda demokratiyaning ayrim o'ziga xos jihatlari namoyon bo'ladi. Bunda u yoki bu davlatning milliy, tarixiy taraqqiyot jihatlari, o'ziga xos bo'lgan qarashlar, mentalitet va boshqalar. Bu jihatlar demokratik davlat asoslarini barpo etish jara-

yonlarida albatta hisobga olinadi. Demokratiyaning umume'tirof etilgan tamoyillaridan biri – jamiyatda ko'ppartiyali tizimning shakllanishidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bu tamoyil qonun tartibida belgilab berildi.

Bugungi kunda O'zbekistonda 5 ta siyosiy partiya faoliyat yuritadi. Siyosiy partiyalar tuzilishi, ularning faoliyati bilan bog'liq umumiy tartiblar ishlab chiqilgan va partiyalar tuzilishi, ularning faoliyati ushbu tartiblarga amal qilgan holda yo'lga qo'yiladi.

Siyosiy partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko'rsatish prinsiplari:

- ixtiyoriylik
- a'zolarining teng huquqliligi
- o'zini o'zi boshqarish
- qonuniylik
- oshkorlik

Quyidagilar taqiqlanadi: irqiy, milliy, ijtimoiy, diniy adovat va nafratni targ'ib etuvchi, zo'rlikka va konstitutsiyaviy tuzumni ag'darib tashlashga chaqiruvchi siyosiy partiyalar.

O'zbekistonda 5 ta siyosiy partiya faoliyat yuritmoqda:

1. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi 1991-yil 1-noyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida tashkil topgan. Ushbu qurultoyda uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. O'zbekiston XDPning "O'zbekiston ovozi", "Golos Uzbekistana" gazetalari va "Muloqot" jurnali nashr etilmoqda.

2. 1995-yil 18-fevralda O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi (SDP) tuzildi. Partiyaning Toshkentda bo'lgan I ta'sis qurultoyida uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. "Adolat" sotsial-demokratik partiyasining "Adolat" nomli ijtimoiy-siyosiy haftalik gazetasi nashr etilmoqda.

3. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan partiyalardan yana biri Milliy tiklanish demokratik partiyasidir (MTDP). U 1995-yil 3-iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida tuzildi va partiyaning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. O'zbekiston MTDPning "Milliy tiklanish" haftalik gazetasi nashr etilmoqda.

4. 2003-yil oxirida O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi tashkil topdi. Uning maqsadi tadbirkorlar va ishbiarmonlar manfaatini himoya

qilishdan iborat. O‘zLDPning «XXI asr» haftalik gazetasi nashr etilmoqda.

5. O‘zbekiston ekologik partiyasi 2019-yil 8-yanvarda tashkil etildi. Partiyaning maqsadi – atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslarni tejash biznesi davlat, jamiyat va mamlakatning har bir fuqarosining biznesiga aylanishiga yordam berish.

O‘zbekistonda demokratiyaning o‘ziga xos belgilaridan yana biri sifatida respublikada mahalliy hokimiyat tizimining shakllantirilishi bo‘ldi.

1990–1992-yillari O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasi qabul qilingunicha bo‘lgan davrda mahalliy hokimiyat organlari tizimini shakllantirish va ish faoliyatini takomillashtirish maqsadida bir necha huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Bular orasida 1992-yil 4-yanvarda qabul qilingan **«O‘zbekiston Respublikasida mahalliy hokimiyat organlarini qayta tuzish to‘g‘risida»**gi Qonun alohida ahamiyat kasb etdi. Bu qonun asosida mahalliy hokimiyat organlari tizimida butunlay yangi organ – hokimlik va hokim lavozimi ta‘sis etildi va uning vakillik organlariga boshchilik qilishi tamoyillari belgilab qo‘yildi.

Ijro etuvchi hokimiyat organlarida bog‘liqlikni kuchaytirish maqsadida, viloyatlar hokimlari O‘zbekiston Prezidenti tomonidan, tuman va shahar hokimlari viloyat hokimi tomonidan lavozimiga tayinlanishi va lavozimidan ozod qilinishi hamda bu masalalar tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanishi tartiblari belgilandi. Partiya organlarining qaramligiga tushib qolgan ijro organlari – ijroiya komitetlari tugatildi

Hokimlarning huquqiy vakolatining asosi, avvalo, Konstitutsiyaning 99 va 102-moddalari va yuqorida tilga olingan qonunning 1- moddasida belgilangan.

Konstitutsiya va qonun normalarini umumlashirsak, hokim tegishli hududda vakillik hokimiyatiga ham, ijro hokimiyatiga ham boshchilik qiladi va ayni paytda shu yerdagi mansabdor shaxs hisoblanadi.

Hokimlar mahalliy hokimiyatni boshqarar ekanlar, ular O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti boshqaradigan yaxlit ijro hokimiyat organlari tizimi tarkibiga kiradi.

Shuningdek, «**Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida**»gi Qonun (1993-yil, sentabr), «**Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylovlar to'g'risida**»gi Qonun (1994-yil, may) kabi hujjatlar muhim o'rin egallaydiki, ular kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

Oliy Majlis palatalarining (2005-yil 28-yanvar) majlisida demokratik o'zgarishlar mahalliy axborot vositalarining mustaqilligi va erkinligini ta'minlamasdan turib mumkin emas deb qayd etdi.

2004-yilning 1-yanvar oyiga ko'ra mamlakatimizda 571 gazeta, 140 jurnal, 4 axborot agentligi, 85 teleradio va kabel studiyasi, 298 elektron axborot vositalari ishlarida.

So'nggi yillarda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish borasida muhim tadbirlar amalga oshirildi.

2002-yilning 27-yanvarida umumxalq referendumini o'tkazilib, bunda O'zbekistonda ikki palatali parlamentga o'tish, Prezident vakolatini besh yildan yetti yilga uzaytirish masalalari hal qilindi. II chaqiriq Oliy Majlisning X sessiyasi (2002-yil dekabr) «**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senat to'g'risida**», «**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida**» qonunlar qabul qildi.

2003-yilning 24–25-aprel II chaqiriq Oliy Majlisning XI sessiyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga tegishli o'zgarishlar kiritadi. Xususan, Prezident vakolatining bir qismi yuqori palata deb nomlanuvchi Senatga o'tadi.

Prezident Vazirlar Mahkamasi raisi lavozimidan voz kechadi; Quyi palata deb nomlanuvchi Qonunchilik palatasida deputatlar doimiy ravishda ish olib boradi.

2004-yilning 26-dekabr va 2005-yilning 9-yanvarida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikki palatasi saylovlar bo'lib o'tdi. O'zbekiston fuqarolarining faol ishtiroki va mahalliy hamda xalqaro tashkilotlar, xorijiy mamlakatlar vakillarining nazoratidan o'tgan saylov natijasida qonunchilik palatasiga 120 deputat saylandi. Bular Xalq demokratik partiyasidan 28 nafar, Liberal-demokratik partiyasidan 41, Fidokorlar milliy demokratik partiyasidan 18, Milliy tiklanish demokratik partiyasidan 11, Adolat sotsial demokratik partiyasidan 10 nafar deputatlar

saylandi. 12 deputat tashabbuskor guruhlardandir. Mahalliy hokimiyat organlaridan yuqori palata Senatga har viloyatdan 6 nafardan jami 84 senator va 16 senator Prezident tomonidan ko'rsatilishi belgilab qo'yildi.

O'zbekistonda davlat hokimiyatining huquqiy demokratik tizimi yildan yilga takomillashib bormoqda, oxirgi yillardagi o'zgarishlar haqida keyingi mavzuda alohida o'rganiladi.

5. 1. 3. O'zbekistondagi parlament tizimi va undagi islohotlar. Huquq tartibot organlari va sud tizimidagi o'zgarishlar

O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilingan paytda 1990-yil fevralda saylangan qonun chiqaruvchi hokimiyat organi – Oliy Kengash faoliyat ko'rsatmoqda edi. O'zbekistonda demokratik islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lidan borilib, birdaniga Oliy Kengash tarqatib yuborilmadi. U 1990–1994-yillarda qonun chiqaruvchi hokimiyat organi sifatida faoliyat yuritdi va o'z vakolat muddati davrida 200 ga yaqin qonun va 500 dan ortiq qarorlar tayyorladi hamda qabul qildi.

Oliy Majlis 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq Respublika parlamentining nomi Oliy Majlis deb ataladigan bo'ldi. Konstitutsiyaning 76-moddasida "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi", deb belgilab qo'yildi. Konstitutsiyaga muvofiq bir palatali parlament – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini shakllantirish tadbirlari ko'rildi. 1993-yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida", 1994-yil 22-sentabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida" qonunlar qabul qilindi. Oliy Majlis hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'p partiyaviylik asosida besh yil muddatga saylanadigan 250 nafar deputatdan iborat bo'lishi belgilandi.

1994-yil 25-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga birinchi marta erkin, demokratik va ko'p partiyaviylik hamda muqobilik asosida saylovlar o'tkazildi. Har bir saylov okrugida ikki-uch nomzod, jami 700 nafar nomzod deputatlik uchun kurashdi. Saylovchilar birinchi marta nomzodlarni tanlab olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Nomzodlarning

birontasi ham yetarli ovoz ololmagan saylov okruglarida 1995-yil 8- va 25-yanvar kunlari takroriy saylovlar bo'ldi. Oliy Majlisga 250 deputat saylandi. Oliy Majlis 1995–1999-yillarda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat qurishdan iborat yo'lni huquqiy jihatdan ta'minlashga qaratilgan 10 kodeks, 2 milliy dastur, 145 qonun, 452 qaror qabul qildi. Shuningdek, u 70 ta xalqaro shartnomani ratifikatsiya qildi, xalqaro konvensiyalarga qo'shilish to'g'risida 58 ta qaror qabul qildi.

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga 1999-yil dekabrda saylovlar bo'lib o'tdi. Saylovlarda 7 ta subyekt – beshta siyosiy partiya, hokimiyat vakillik organlari va saylovchilarning tashabbuskor guruhlaridan jami 1010 nafar nomzod qatnashdi. Oliy Majlisga O'zbekiston xalq demokratik partiyasidan 48, “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasidan 34, «Vatan taraqqiyoti» partiyasidan 20, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan 11, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasidan 10, hokimiyat vakillik organlaridan 111 va saylovchilar tashabbus guruhlaridan 16 nafar vakil deputat etib saylandi. O'zbekiston Respublikasi bir palatali parlamentining 2000–2004-yillarda bo'lib o'tgan 16 sessiyasida 101 ta qonun, 300 dan ortiq qaror qabul qilindi, 55 ta xalqaro shartnoma va bitimlar ratifikatsiya qilindi. O'zbekiston Respublikasining 329 ta qonun hujjatiga 1357 ta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Bir palatali O'zbekiston Respublikasi parlamenti – Oliy Majlisi 1995–2004-yillarda o'z faoliyatini quyidagi yo'nalishlarda samarali olib bordi:

- O'zbekistonda o'tkazilayotgan islohotlarning huquqiy bazasini mustahkamlovchi qonunlar yaratish;
- qabul qilingan qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish;
- parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash;
- shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini himoya qilish;
- amaldagi qonun hujjatlarimiz monitoringini xalqaro huquq normalarini o'rgangan holda olib borish;
- joylardagi hokimiyat vakillik organlariga amaliy yordam ko'rsatish.

Muxtasar qilib aytganda, 1995–2004-yillarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi bir palatali parlament sifatida xalq fikrini e'tiborga olish, ochiqlik va oshkoralik tamoyillari asosida faoliyat yuritdi.

Parlamentchilikda demokratik asoslar yaratildi. Bir palatali Oliy Majlis milliy parlamentarizm rivojlanish tarixida munosib o'rinni egaladi. Prezident Islom Karimov 2000-yil 25-may kuni ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida doimiy asosda ishlaydigan ikki palatali parlament tizimiga o'tishni taklif qildi. Darhaqiqat, mustaqillikning o'tgan 10 yili davomida parlamentchilikda demokratik asoslar shakllantirildi, parlamentlararo munosabatlar natijasida ma'lum tajriba orttirildi, endilikda bir palatali parlamentdan ikki palatali parlamentga o'tish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan edi. 2001-yil 6–7-dekabr kunlari bo'lib o'tgan Oliy Majlisning yettinchi sessiyasida ikki palatali parlament tuzish masalasi muhokama qilindi va parlamentni ikki palatali qilib tuzish zarur, degan xulosaga kelindi. 2002-yil 27-yanvar kuni «Siz kelgusi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi parlamentini ikki palatali qilib saylanishiga rozimisiz?» degan masalada referendum bo'lib o'tdi. Referendumda qatnashganlarning 93,65 foizi rozi ekanligini bildirib ovoz berdilar. 2002-yil 4–5-aprel kunlari bo'lib o'tgan Oliy Majlisning sakkizinchi sessiyasida «Referendum yakunlari va davlat hokimiyati tashkil etishning asosiy prinsiplari to'g'risida» Konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Mazkur qonunda respublika parlamentining nomi Oliy Majlis deyiladi, u ikki palatali – quyi va yuqori palatalardan iborat etib tashkil etiladi, deb belgilab qo'yildi. Quyi palata – Qonunchilik palatasi, yuqori palata – Senat deb ataladi, ularning vakolat muddati 5 yil deb belgilangan. Ikki palatali parlament tuzishning huquqiy asoslarini belgilab beruvchi yangi qonun loyihalarini tayyorlash ishiga kirishildi. 2002-yil dekabrda bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'ninchi sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasining Senati to'g'risida» Konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilindi. Qonunchilik palatasi 120 nafar deputatdan, Senat 100 nafar senatoridan iborat etib shakllantirilishi belgilandi. Bu o'zgarishlar 2003-yil aprelda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgartirishlarda ham o'z ifodasini topdi. 2003-yil 29-avgustda «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida»gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib, mazkur qonun yangi tahrirda qabul qilindi.

Shu tariqa ikki palatali professional parlamentni shakllantirishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari yaratildi. 2004-yil dekabr – 2005-yil yanvar oyida mamlakatimizda ilk bor ikki palatali parlamentga saylovlar bo‘lib o‘tdi. Qonunchilik palatasiga 120 nafar deputat saylandi. Senatga respublikamizning har bir hududidan 6 nafardan, jami 84 senator saylandi. Konstitutsiyamizning 77-moddasiga muvofiq, 16 nafar senator O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlandi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2005-yil 27-yanvar kuni bo‘lib o‘tgan birinchi majlisida deputatlar Oqsoqollar Kengashi tavsiyasiga ko‘ra yashirin ovoz berish yo‘li bilan Qonunchilik palatasi Spikeri lavozimiga Erkin Halilovni sayladilar. Shuningdek, 2 nafar deputat Spiker o‘rinbosari etib saylandi, qo‘mita rahbarlari tasdiqlandi, siyosiy partiyalar fraksiyalari tashkil etildi va ro‘yxatga olindi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2005-yil 27-yanvar kuni bo‘lib o‘tgan birinchi majlisida Prezident taqdimiga muvofiq Senat a‘zolari tomonidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan Murod Sharifxo‘jayev Senat raisi etib saylandi. Shuningdek, 2 nafar senator Rais o‘rinbosarlari etib saylandi, Senat qo‘mitalari tashkil etilib, ularning raislari ham saylandilar. Muxtasar qilib aytganda, 2005-yil 27-yanvar kuni ikki palatali parlamentni shakllantirish ishlariga yakun yasaldi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati tashkil etildi va o‘z faoliyatini boshladi.

Davlat hokimiyati tizimiga kiruvchi hokimiyatlardan biri sud hokimiyatidir. Sud hokimiyati boshqa hokimiyatlar kabi xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda qabul qilingan qonunlar asosida o‘z vakolatlarini amalga oshiradi.

Respublikamizda davlat hokimiyati tizimidagi islohotlarning yanada samaraliroq kechishi – Sud hokimiyatidagi islohotlari bilan bog‘liq sanaladi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan “Sudlar to‘g‘risida”gi qonun asosida sud islohotlari o‘tkazildi. Sudlarning mustaqilligi qonunlashtirildi, ularning odil sudlovni amalga oshirish faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi. Ayblanuvchining himoyalanih huquqi, advokatura tizimining mustaqilligi huquqiy jihatdan ta‘minlandi. O‘zbekistonda sud hokimiyati qonunning ustunligi, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini ta‘minlash yo‘lida faoliyat ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiyaga ko‘ra sud tizimi quyidagicha: besh yil muddatga saylanadigan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasining Oliy sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqtisodiy sudi, shu muddatga tayinlanadigan viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, tuman, shahar sudlari, viloyat iqtisodiy sudlari, harbiy sudlar.

Mazkur sudlarning huquqiy holati O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunida bayon etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy va ma‘muriy sudlov sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. Shu bilan birga og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etgan bir guruh shaxslarga; oldin sudlanmaganlarga, biron-bir joyda ishlamasdan, mo‘may pul topish yo‘liga o‘tib ketganlarga nisbatan belgilangan jazolarni qonun kuchidan to‘la foydalanilmagan ishlarning jazo qismini yengil deb bekor qilib, og‘irroq jazolashga o‘z ko‘rsatmasini beradi.

O‘zbekistonda sud tizimini isloh qilish, sud hokimiyatini shakllantirishda ham birmuncha ishlar qilindi. Sud tuzilishi va sudlov ishlarini yurgizishga oid barcha demokratik konstitutsiyaviy tamoyillar yanada rivojlantirildi. 1995-yil 30-avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida”gi qonun fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini sud orqali himoya qilishning huquqiy asoslarini yaratdi.

Insoniyat tarixida yangi davr – Inson huquqlari davri boshlandi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1995–2005-yillarni yer kurramizda “Inson huquqlari o‘n yilligi” deb e‘lon qildi. I.A.Karimovning ma‘ruzalarida inson huquqlari sohasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan quyidagi besh strategik yo‘nalish belgilab berilgan:

- 1) inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmini ta‘minlash;
- 2) inson huquqlari bo‘yicha Xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillari va normalari asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish;
- 3) qabul qilingan qonunlarga og‘ishmay amal qilish mexanizmini ish-

lab chiqish va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida qonun ustuvorligini ta'minlash;

4) sudlov islohotini amalga oshirish yo'li bilan sud tizimini demokratlashtirish;

5) aholi, ayniqsa yoshlar va mansabdor shaxslar, huquq-tartibot idoralari xodimlari o'rtasida huquqiy tarbiya ishlarini tubdan yaxshilash, ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida qonun ustuvorligi va sud-huquq sohasidagi islohotlarni davom ettirish va bunda adolat mezonlariga amal qilish bosh vazifa qilib belgilab berildi. Shundan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda o'tgan besh yilda Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan vazifalar hayotga joriy etila borib, sud-huquq sohasida ham islohotlar amalga oshirildi. 2017–2018-yillarda sud-huquq tizimiga bir qator o'zgartirishlar kiritildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiy sudlari etib o'zgartirildi, ishlarni birinchi instansiyada ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan 71 ta tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudlari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Harbiy hay'ati tugatilib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati tashkil etildi.

Yangidan tashkil etilgan sudlarni to'ldirish uchun qo'shimcha 560 ta shtat birligi, shu jumladan 318 ta sudyalik shtat birligi ajratildi. Amaldagi sud majlisi kotibi lavozimi tugatilib, sudlarning tuzilmalariga sudya katta yordamchisi, yordamchisi lavozimlari kiritildi.

Prezidentimizning 2020-yil dekabr oyida Parlament va O'zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasida bu boradagi vazifalar belgilab berildi. Jumladan, Oliy Sud va Oliy xo'jalik sudlari birlashtirildi, jinoiy, ma'muriy va fuqarolik ishlari bo'yicha viloyat sudlari birlashtirildi va "bir sud–bir instansiya" tamoyili qaror toptirildi. Sudyalarni tayinlash muddatlari belgilandi. Yaxshi, halol mehnat qilgan va obro' orttirgan sudyalarni lavozimlarga umrbod saylash tartibi belgilandi. Sudyalar Oliy Kengashi va uning huzurida Sudyalar Oliy maktabi tashkil etildi. 2021-yilda mam-

lakatimizda 25 ta jazoni o'tash manzilgohlarini bosqichma-bosqich tugatish, birinchi marotaba yoki tasodif tufayli jinoyat sodir etganlar, xavfliligi yuqori bo'lmagan jinoyat uchun jazo olganlarni probatsiya tartibi orqali jamoatchilik, mahalla nazoratiga o'tkazgan holda jazo muddatlarini uyida o'tkazish tartibini joriy etish kabi o'zgarishlar belgilandi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, mamlakatimizda o'tgan yillar davomida sud-huquq sohasidagi islohotlar samarali kechayotganligi, xalqimizda odil sudlovga nisbatan ishonch mustahkamlanib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Ayni damda qonunchilik amaliyotida ham islohotlar o'z samarasini berayotganligini kuzatish mumkin.

Nazorat savollari:

1. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan siyosiy islohotlar zaminida nima yotadi?
2. Demokratik huquqiy davlatning asoslari nimada?
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asosiy vazifasi nimalardan iborat?
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi necha marta xalq muhokamasiga qo'yilganligi va qachon qabul qilinganligini aytib bering.
4. Mustaqillik yillarida qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ahamiyati nimada ko'rinadi?
6. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasida qanday qonunlar qabul qilindi, aytib bering.

5. 2. HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING BARPO ETILISHI

5. 2. 1. Fuqarolik jamiyati tushunchasi va uning shakllanish tarixi

FUQAROLIK JAMIYATI – konstitutsiyaviy huquq nazariyasida huquq va demokratiyaga asoslangan ijtimoiy hayotning zarur oqilona usuli; insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadigan, qonun ustuvorligi va inson huquqlari hamda erkinliklari qaror topadigan, ko'p partiyaviylik, siyosiy institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta'minlanadigan hamda o'zini

o'zi boshqarish organlarining mavqeyi baland bo'lgan ijtimoiy tuzumdur. Bunda mamlakatning har bir fuqarosi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va huquqiy jihatdan o'z ehtiyojlarini jamoat birlashmalari va fondlari, o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va nodavlat notijorat tashkilotlar ishida faol ishtirok etib, ular orqali qondiriladi. Fuqarolik jamiyatida fuqarolar davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatadilar, davlatning ko'pgina vakolatlari jamoat tashkilotlari zimmasiga yuklanadi. Davlat hokimiyati esa mamlakatning umumiy taraqqiyot rejalarini tuzadi, uning strategiyasini ishlab chiqadi, mudofaa, milliy xavfsizlik, davlat mustaqilligi va chegaralari daxlsizligini, uning suverenitetini ta'minlash, pul-moliya, soliq, bank siyosati, tashqi siyosat va jahon hamjamiyati bilan aloqalar tizimini yaratadi, uni boshqaradi. Fuqarolik jamiyatini qurish kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari bosqichma-bosqich o'tish orqali ro'y beradi.

Fuqarolik jamiyati haqida ilk tasavvurlar Aristotelning «Siyosat» asarida bayon etilgan. Unga ko'ra, insonning erkin yashash huquqi kishilik jamiyatining adolat va qonun ustuvorligi asosida tashkil etilishi orqali ta'minlanishi lozim. Jamiyatni boshqarishda qonunlarning to'g'ri va adolatli bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. Bu g'oyalar 17-asrga kelib keng rivojlandi. Jumladan, T. Gobbs asarlarida takomillashtirildi. 18-asr Buyuk fransuz inqilobi davrida Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi e'lon qilinishi bilan esa Fuqarolik jamiyati tushunchasi keng tarqala boshladi. Chunki jamiyatning teng huquqli a'zolari – «fuqarolar» tushunchasi paydo bo'ldi, ular jamiyat va davlat manfaatlari bilan bog'langan shaxsiy manfaatlarini anglay boshladilar. Kant, Russo, Gegel, Popper ilgari surgan fikrlar Fuqarolik jamiyatining yangidan yangi qirralarini, umuminsoniy qadriyat sifatidagi mohiyatini ochib berdi.

Sharqda fuqarolik jamiyatining o'ziga xos talqini mavjud. Bu, bevosita, axloq, madaniyat va ma'naviyatning huquq bilan uyg'unlashgan, fe'l-atvor, xatti-harakatlar va qoida-me'yorlarning uzviy uyg'unlashgan shakli bilan bog'liq. Jumladan, eng qadimiy madaniy tarixiy huquqiy yodgorlik – Avestoda kishilarning uyushib yashashi, o'zaro munosabatlar va aloqalarning axloq va me'yorlarga tayanishi kabi g'oyalar ilgari surilgan. Bunda o'z-o'zidan jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish, jamiyatni shaxs tomonidan emas, qonun boshqarishi kabi Fuqarolik jamiyati-

ning ilk belgilari namoyon bo'lgan. Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida mamlakatni boshqarishda adolatli qonun zarurligi, faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish mohiyati chuqur tahlil etilgan. Qonunlari mukammal bo'lgan mamlakatda adolat, inson huquqlari ustuvor bo'lishi muqarrar ekanligi bayon qilib berilgan. Forobiyga ko'ra, «Shahar (mamlakat) aholisi xushxulqqa ega bo'lmagan taqdirda hokimiyatga ehtiyoj tug'iladi», jinoyatchilik, bezorilik, qonunbuzarlik qonunlar zaif, aholi axloqiy-ma'naviy jihatdan barkamol bo'lmagan sharoitda avj oladi. Bunday xalqni tartibga chaqirish uchun kuchli ta'sir o'tkazuvchi hokimiyat kerak bo'ladi. Bu kabi g'oyalar Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va b. tomonidan ham ilgari surilgan va amaliyotda keng qo'llanilgan.

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi to'g'risidagi umume'tirof etilgan qonuniyatlarni 2 guruhga ajratish mumkin. 1-guruh – Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi to'g'risidagi umume'tirof etilgan qonuniyatlari. 2-guruh – har bir mamlakatlarning milliy va tarixiy rivojlanishidagi o'ziga xos jihatlarini hisobga oladigan qonuniyatlari. **Fuqarolik jamiyati to'g'risidagi asosiy tushunchalar quyidagilar:** fuqaro, jamiyat, fuqarolik jamiyati, davlat, huquqiy davlat, siyosiy institutlar, fuqarolik jamiyati institutlari, fuqarolarning huquq va erkinligi, inson huquqlari, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, jamiyatning iqtisodiy asoslari, demokratik institutlar, qonun ustuvorligi, saylov, saylov huquqi, fuqaroviylik, fuqaro faolligi, yurt tinchligi, vatan ravnaqi, xalq farovonligi, yuksak ma'naviyat, daxldorlik hissi, ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirish, o'zini o'zi boshqarish, Millatlar va konfessiyalararo totuvlik, jamoatchilik nazorati, davlat organlari faoliyatining ochiqligi, ijtimoiy sheriklik kabilardir.

Shuni ta'kidlash lozimki, insoniyat taraqqiyotining Aristotel, Platon, Sitseron va boshqa mutafakkirlar yashagan tarixiy bosqichida fuqarolik jamiyati deganda davlatni tushungan. Bu hol ancha uzoq vaqt mavjud bo'lgan va iqtisodiy hamda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning rivojlanish darajasi (mehnat taqsimotining primitiv shakllari, tovar-pul munosabatlari rivojlanishining dastlabki bosqichi, jamiyat hayotini davlat tasarruf etishi, ijtimoiy tuzilmaning tabaqaviyligi) bilan bog'liqdir. Fuqarolik jamiyatining ba'zi bir unsurlari antik dunyoning ayrim mamlakat-

larida mavjud bo‘lib (Yunoniston, Rim), bu yerda hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi xususiy huquqning ayrim institutlari (ayniqsa, Rim xususiy huquqi)da mustahkamlangan tovar-pul ishlab chiqarishini vujudga keltirdi. Biroq, holat faqat fuqarolik jamiyatining ayrim mintaqalarda vujudga kelgan va tabaqalashgan vertikal tuzilmalari va ular bilan uyg‘unlashgan unsurlaridan iborat edi, xolos. Ijtimoiy-siyosiy fanlarda fuqarolik jamiyati va «davlat» tushunchalari uzoq vaqt unchalik farqlanmay keldi, ular aynan tushunchalar sifatida qabul qilindi. Biroq, XVII asr o‘rtalaridan boshlab, jamiyatning turli jabhalarini tabaqalashish, ularni davlat hokimiyati boshqaruvidan chiqarish, uzviy huquq va erkinliklarga ega bo‘lgan erkin va mustaqil individni kamol toptirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyotning ikki tamoyilini yuzaga keltirdi va ularni ijtimoiy ong va fanda aks ettirish zarurati paydo bo‘ldi. Davlatda hokimiyatning uchga bo‘linishi, siyosiy partiyalar, manfaatlar guruhleri (kasaba uyushmalari, ommaviy axborot vositalari va h.k.) paydo bo‘lishi bilan jamiyat hayoti mazmuni endi faqat davlat hokimiyati bilan cheklanib qolmaslikni taqozo etdi.

Fuqarolik jamiyati davlatning ijtimoiy tuzilmalaridan ajralishi, u ijtimoiy munosabatlarning nisbatan mustaqil jabhasiga aylanish natijasi o‘laroq paydo bo‘ldi. Fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishi jarayonida hozirgi davr huquqi va davlati vujudga keldi.

Olimlar va mutaxassislar fikriga ko‘ra, fuqarolik jamiyatining rivojlanishini uch bosqichga ajratish mumkin. Bunda bir bosqichdan keyingi bosqichga o‘tishda jamiyat va davlat tuzumida katta o‘zgarishlar, ijtimoiy va siyosiy tangliklar, ommaviy harakatlar, sinflarning to‘qnashuvlari, jamiyat mafkurasida tub o‘zgarishlar yuz bergan. Birinchi bosqich shartli ravishda XVI–XVII asr. Bu davrda fuqarolik jamiyatining iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy asoslari yaratildi. Ular jumlasiga sanoat va savdoning rivojlanishi, ishlab chiqarish turlarining ixtisoslashuvi, mehnat taqsimotining teranlashuvi, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishini kiritish mumkin. Shuningdek, yagona markazlashgan davlatlarning tashkil topishi bilan feodal tarqoqlik davrida mavjud bo‘lgan tengsizlik, huquqsizliklarga barham berishga e‘tibor berila boshlandi.

Ikkinchi bosqichi XVIII asr oxiridan XIX asr oxirigacha davom etdi. Bu davrda eng rivojlangan mamlakatlarda umumiy yuridik tenglik va

erkinlikka, tadbirkorlik erkinligi va shaxsiy tashabbusga asoslangan dastlabki kapitalizm ko‘rinishidagi fuqarolik jamiyati shakllandi.

Uchinchi bosqich (XIX asr oxiri va keyingi davr) vertikal feodal tuzilmalar o‘rnini erkin odamlarning huquqiy tengligi va o‘zaro bitimlariga asoslangan gorizontaal munosabatlar egallagani bilan tavsiflanadi.

Fuqarolik jamiyatining amalda yuzaga kelishiga Huquqlar haqidagi bill (Angliya, 1689-y.; AQSH, 1791-y.) yoki Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi (Fransiya, 1789-y.)ning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi.

5. 2. 2. Fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi

Uzoq tarixiy rivojlanish natijasida Fuqarolik jamiyatini hozirgi zamonaviy tushunish shakllandi. Unga ko‘ra, Fuqarolik jamiyatida mulkchilik shakllarining xilma-xil va teng bo‘lishi, mehnat va tadbirkorlikning erkinligiga yo‘l qo‘yilishi, mafkuraviy xilma-xillik va axborot erkinligi, inson huquq va erkinliklarining daxlsizligi, rivojlangan o‘zini o‘zi boshqarish, madaniylashgan huquqiy hokimiyat bo‘lishi hamda jamiyat hayotining barcha sohalarida qonun ustuvorligi ta‘minlanishi muhim hisoblanadi. O‘zbekistonda Fuqarolik jamiyatini qurish tarixiy an‘ana bo‘lsa-da, u butunlay yangi tarixiy sharoitlarda jahon davlatchiligi ilg‘or tajribalari va ko‘p ming yillik milliy an‘analarning sintezi sifatida dunyoga kelmoqda. Ya‘ni erkinlik va axloq, ozodlik va tarbiya, qonunga itoatkorlik va siyosiy huquqiy faollik, hurriyat va qat‘iy tartib-intizom uyg‘unligida Fuqarolik jamiyati shakllantirilmogda.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yurtimizda yangi hayot, yangi jamiyat barpo etishning huquqiy poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda. Shunisi diqqatga sazovorki, oldimizga qo‘yilgan asosiy maqsad va ustuvor vazifalar mamlakatimizni erkinlashtirish va modernizatsiya qilish borasida uzoqni ko‘zlaydigan “Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyiliga asoslangan. Bu demokratik islohotlarimiz izchil va tadrjijiy, bosqichma-bosqich va uzluksiz tizimli jarayon ekanining yana bir isbotidir.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi: fuqarolik jamiyati institutlari nima va ular jumlasiga qanday tashkilotlar kiradi?

Birinchidan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mahallalar, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, jamoat birlashmalari va jamoat fondlari, nodavlat notijorat tashkilotlari fuqarolik jamiyatining nafaqat asosini tashkil etadigan, balki mazmun-mohiyatini ham belgilab beradigan fuqarolik institutlari sirasiga kiradi.

Ikkinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari maqsad va vazifalarining asosiy yo'nalishi mamlakatimizda demokratik qadriyatlar va tamoyillar, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Fuqarolik institutlari, birinchi navbatda, aholining ijtimoiy faolligini oshirishda, milliy o'zlikni anglashda, jamiyat a'zolarining siyosiy madaniyati va ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishda ko'maklashmog'i zarur.

Uchinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida demokratik qadriyatlar, inson huquqlari va erkinliklari, kishilarning qonuniy manfaatlarini himoyasi alohida ustuvor ahamiyat kasb etishi shart. Bizning fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishdan maqsadimiz, avvalo, kishilarimiz ongiga demokratik qadriyatlarni va ko'nikmalarni izchillik bilan singdirib borishdir.

Buning zahirida o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va qobiliyatiga tayanib yashaydigan, atrofida ro'y berayotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabatda bo'ladigan, shu bilan birga, o'z shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlarini bilan uyg'un holda ko'radigan yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan sa'y-harakatlar mujassamdir.

To'rtinchidan, Asosiy Qonunimizda alohida, XIII bob va 7 ta modda bevosita jamoat birlashmalarining huquq va majburiyatlariga bag'ishlanganini ta'kidlash joiz. Xususan, "Davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek, jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi" (Konstitutsiya, 58-modda).

Beshinchidan, fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari fuqa-

rolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nodavlat va notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomi mustahkamlangan bo'lib, 56-moddasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlardan va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasida «O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar» kabi fuqarolarning jamiyat institutlarida ishtirok etishini kafolatlaydigan huquqiy asoslar e'tirof etilgan.

Shu tariqa Konstitutsiyamizda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga doir asosiy prinsiplarning mustahkamlab qo'yilgani barcha aholi qatlamlari manfaatlarini aks ettiradigan bunday tashkilotlar keng tarmoqlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi.

Qayd etish lozimki, mazkur qonuniy mustahkamlanish va NNTlarning mustaqilligi MDH davlatlarining hech birida norma kiritilmagan.

Mamlakatimizda bunday tashkilotlarning obro'si oshib, mustahkamlanib borgani sari fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi roli jamiyatimizda tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda jamoatchilik va fuqarolik nazorati instituti jamiyatning davlat bilan o'zaro samarali aloqasini ta'minlash, odamlarning kayfiyatini, mamlakatda kechayotgan o'zgarishlarga munosabatini aniqlashning muhim vositalaridan biriga aylanmoqda.

Shu ma'noda, fuqarolik institutlarining roli va ahamiyatini kuchaytirishga, fuqarolarning eng muhim sotsial-iqtisodiy muammolarini hal etishga qaratilgan 250dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingani diqqatga sazovordir.

Xususan, mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlarini fuqarolik jamiyati institutlari sifatida tobora rivojlantirish, ularning mustaqil faoli-

yat yuritishi, ularni fuqarolar huquq va erkinliklari, shuningdek manfaatlarini himoya qilish, huquqiy ongi va madaniyatini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Jamoat fondlari to‘g‘risida”gi, **“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi**, **“O‘zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi**, **“Homiylilik to‘g‘risida”gi** qonunlari va boshqa huquqiy asoslarning shakllantirilganligi natijasida nodavlat notijorat tashkilotlar o‘zlarida fuqarolik jamiyati institutlariga xos belgilarni ifoda eta boshladilar. Bugungi kunda davlatimizda o‘n ikki mingga (12000) yaqin NNTlar faoliyat yuritadi, bularga mintaqaviy va mahalliy tashkilotlarni misol qilish mumkin. Eng yirik fuqarolik jamiyati institutlaridan biri siyosiy partiyalardir, 5 ta yetakchi siyosiy partiyalar bugungi kunda Oliy Majlis va mahalliy kengash deputatlari orqali davlatimizdagi siyosiy-ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishda ishtirok etishmoqda.

Fuqarolik jamiyati bu shunday ijtimoiy tuzumki, unda qonunlar ustuvorligi ta‘minlanadi, inson huquq va erkinliklari qaror topadi, siyosiy partiyalar va institutlar, fikrlar xilma-xilligi ta‘minlanadi, insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot shakllarini erkin tanlashi kafolatlanadi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarning mavqeyi yuksak bo‘ladi.

Bugun mamlakatimizda keng ko‘lamli demokratik islohotlar amalga oshirilmoqda. Puxta o‘ylangan va har tomonlama asoslangan bunday o‘zgarishlar, islohotlar pirovardida aholining siyosiy va ijtimoiy faolligini yuksaltirish, fuqarolik jamiyatining tarkibini tashkil etuvchi yangi demokratik institutlar – ko‘p partiyaviylik tizimi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalarining rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shubhasiz, “uchinchi sektor” deb nom olgan fuqarolik jamiyati institutlari jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

“O‘zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”-gi qonunning qabul qilinishi fuqarolarning fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatlarida bevosita ishtirok etishini ta‘minlab, ularning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatini nazorat qilib borishdagi imkoniyatini kengaytiradi. Qolaversa, shu asosda jamoatchilik nazorati-

ning vazifalari aniq belgilab beriladi. Binobarin, qonun loyihasida fuqarolik jamiyati institutlari inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga doir qonunchilik hujjatlarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mansabdor shaxslar tomonidan ijrosini nazorat qilishi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mansabdor shaxslar tomonidan amaldagi qonunchilik normalariga rioya etilmaganligi hollarini aniqlashi, bundan keng jamoatchilikni xabardor qilishi, sabablarini bartaraf etishi, jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillarining qaror topishini rag'batlantirishi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining yanada ochiqligini ta'minlashi kabi muhim masalalar qamrab olingan.

Fuqarolik jamiyati – ochiq ijtimoiy tuzilma. Unda so'z erkinligi, shu jumladan, tanqid qilish erkinligi, oshkoralik, har xil axborotlar olish erkinligi, erkin kirish va chiqish huquqi, boshqa mamlakatlar bilan keng miqyosda, doimiy asosda axborot, ta'lim texnologiyalari almashinuvi, chet davlatlar va jamoat tashkilotlari bilan madaniy va ilmiy hamkorlik, xalqaro huquq prinsiplari va normalariga muvofiq xalqaro xorijiy birlashmalar faoliyatiga ko'maklashish ta'minlanadi

Fuqarolik jamiyati – murakkab tarkibli va plyuralistik tizim.

Fuqarolik jamiyati – o'zini o'zi rivojlantiruvchi va o'zini o'zi boshqaruvchi tizim. Individlar har xil tashkilotlarga birlashib, bir-biri bilan rang-barang munosabatlar o'rnatib, o'zlarining ba'zan qarama-qarshi manfaatlarini ro'yobga chiqarib, jamiyat siyosiy hokimiyat kuchiga ega bo'lgan davlatning aralashuvisiz uyg'un va izchil rivojlanishini ta'minlaydilar.

Fuqarolik jamiyatining eng muhim omillari: 1) iqtisodiy erkinlik, mulk shakllarining rang-barangligi, bozor munosabatlari; 2) inson va fuqaroning tabiiy huquqlarini so'zsiz e'tirof etish va himoya qilish; 3) hokimiyatning qonuniyligi va demokratik xususiyati; 4) qonun va odil sud oldida hammaning tengligi, har bir shaxsning yuridik jihatdan ishonchli himoyalanganligi; 5) hokimiyatning uchga bo'linishi va hokimiyatlarning o'zaro aloqasi prinsipiga asoslangan huquqiy davlat; 6) siyosiy va mafkuraviy plyuralizm, konstruktiv muxolifatning mavjudligi; 7) so'z va matbuot erkinligi, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi; 8) fuqarolarning shaxsiy hayotiga davlatning aralashmasligi, ularning o'zaro majburiyatlari va burchlari; 9) sinfiy va milliy totu-

vlik, ijtimoiy sherikchilik; 10) odamlarning munosib turmush darajasini ta'minlovchi samarali ijtimoiy siyosat. Fuqarolik jamiyati qator tamoyillarga tayanib faoliyat ko'rsatadi. Jumladan: siyosiy sohada hamma odamlarning huquq va erkinliklarining tengligi; butun jahon hamjamiyatida yuridik kuchga ega bo'lgan qonunlar asosida fuqarolar huquq va erkinliklarini kafolatlangan huquqiy himoyasi; individlarni mulkka ega bo'lish va halol mehnati uchun adolatli haq olish huquqiga asoslangan iqtisodiy mustaqilligi; qonun bilan kafolatlangan fuqarolarni manfaatlari, kasbiy belgilari bo'yicha davlatdan va partiyadan mustaqil ijtimoiy birlashmalarga birlashish imkoniyatlari; partiya va fuqarolik harakatlarini tashkil etishda fuqarolarning erkinligi; fuqarolarni erkin, madaniyatli, ma'naviy va ijtimoiy faol, jamiyat a'zolarini qonun oldida mas'uliyatli qilib shakllantiradigan fan, madaniyat, ta'lim va tarbiya uchun zaruriy moddiy va boshqa sharoitlarni yaratish; faqat qonun bilan cheklangan davlat senzurasidan tashqari OAV yaratish va faoliyat yurgizish erkinligi; 20 - davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatni barqarorlashtiradigan mexanizmning (konsensus mexanizmi) mavjudligi hamda fuqarolik jamiyatini ishlashini davlat organlari tomonidan xavfsizligi ta'minlanishi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining asosiy qoida va talablarini aks ettiruvchi prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan normalar sifatida davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlari xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'ul ekanligi (2-modda), xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaya hisoblanishi (7-modda), O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanishi (11-modda), O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi, hech qaysi mafkura davlat mafkurasini sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi (12-modda) kabilarda fuqarolik jamiyatining asosiy prinsipial masalalari yuridik jihatdan mustahkamlanganligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarini yaratish va rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil institut tomonidan uch bosqichga bo'lib tahlil qilish tavsifiya etiladi. **Birinchi bosqich** o'z ichiga 1991–2000-yillarni

qamrab oladi. Bu davrda, birinchi navbatda fuqarolik jamiyati shakllanishining asoslari yaratildi. **Ikkinchi bosqich** (2000–2010-yillar) mamlakatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash bo'yicha faol jaryonlar davom ettirildi. 2010-yil 12-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish" Konsepsiyasi e'lon qilindi. Bu Konsepsiya mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarning ikkinchi bosqichiga yakun yasadi va **uchinchi bosqichni** boshlab berdi.

Shu bilan bir qatorda, hozirgi davrda fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari shakllandi. Bular asosan quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiy sohada: a) nodavlat tashkilotlar; b) kooperativ shirkatlar; d) ijara jamoalari; e) aksiyadorlik jamiyatlari; f) turli uyushmalar; g) korporatsiyalarning mavjudligi.

2. Ijtimoiy sohada: a) oila; b) partiyalar, jamoat tashkilotlari va harakatlar; d) ish va yashash joylaridagi o'z-o'zini boshqarish organlari; e) nodavlat ommaviy axborot vositalari; f) jamoatchilik fikrini aniqlash, shakllantirish va ifoda etishning madaniylashgan tartibotlari; g) ijtimoiy ixtiloflarni kuch ishlatmasdan, tazyiqsiz, qonunlar doirasida hal qilish amaliyotining mavjudligidir.

3. Ma'naviy sohada: a) so'z, vijdon va fikrlar erkinligi; b) o'z fikrini ochiq bildira olishining real imkoniyatlari; d) ijodiy, ilmiy va boshqa uyushmalar mustaqilligining ham qonuniy, ham amaliy jihatlardan ta'minlanganligi.

5. 2. 3. Nodavlat notijorat tashkilotlari va o'zini o'zi boshqaruv organlarining faoliyati, ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o'rni

O'zbekistonda hozirgi kunda 9200 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat olib bormoqda. Agar 1991-yilda ular soni 95 tani tashkil etganini nazarda tutsak, bu ko'rsatkich bugungi kunga qadar qariyb yuz barobar ortganini kuzatish mumkin. Nodavlat notijorat tashkilotlar dastlab o'zini o'zi boshqarilishi asosida, ya'ni fuqarolik jamiyatini mustaqil ijtimoiy birlik sifatida yashashni ta'minlash ehtiyojlari va manfaatlari

asosida paydo bo'ldi. XX asrga kelib, nodavlat va notijorat tashkilotlari fuqarolik jamiyatining muhim hamda asosiy institutlaridan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar to'plamida ta'kidlanishicha, "Nodavlat notijorat tashkiloti – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir" Darhaqiqat, nodavlat tashkilotida mulk davlatga mansub emas. Davlatga mulk mansub bo'lmaganligi uchun nodavlat tashkiloti deb yuritiladi.

Bu tashkilotlar o'zini o'zi boshqaradi, lekin o'z faoliyatini qonun doirasida amalga oshiradi. O'zini o'zi boshqarishda o'zlari ishlab chiqargan nizom va qonunga asoslanib o'z faoliyatini amalga oshiradi.

Masalan, mas'uliyati cheklangan jamiyatda foyda ishtirokchilari (ta'sischi) o'rtasida bo'linadi, notijorat tashkilotlarida esa olingan foyda ta'sischi o'rtasida bo'linmaydi. Ular faqat maosh olib ishlaydilar, yuzaga kelgan foydani o'zlarining funksiyasini bajarishga ishlatadi. Masalan, salomatlik markazi o'zining olib borgan faoliyatida yuzaga kelgan foydani ta'sischi o'rtasida bo'lmasdan, aholi salomatligini mustahkamlashga mo'ljallangan o'z funksiyasini bajarishga ishlatadi.

Darhaqiqat, nodavlat notijorat tashkilotlari jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilishi, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish. Ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi. Chunonchi, fuqarolik jamiyatining asosi jamoat tashkilotlari hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatining rivojlanishida nodavlat notijorat tashkilotlarning o'rni beqiyos hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda fuqarolik jamiyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – bu nodavlat tizimdagi barcha jamoat tashkilotlariga a'zolikning ixtiyoriy shaklda bo'lishidir. Bu qoida, birinchidan, shu jamiyatdagi demokratiyaning yuqori darajasini namoyon qilsa, ikkinchidan,

jamiyat a'zolarining ijtimoiy ongi va faolliklari yuksakligini bildiradi. Eng muhimi, har bir fuqaro o'zi kirmoqchi bo'lgan tashkilot faoliyatida o'zining manfaatlari va ehtiyojlariga mos maqsadlarga erishishga ishonch hosil qilgandan so'nggina shu tashkilotga ixtiyoriy ravishda a'zo bo'la oladi. Shu bilan bir qatorda, har bir inson jamiyatdagi o'z o'rnini bilishi, o'zini jamiyatning ajralmas qismi deb bilishi lozim.

Nodavlat tashkilotlari ko'ngilli asosda tuzilganligi, mavjud qonunlar va o'z nizom qoidalariga ko'ra mustaqil faoliyat ko'rsatishi va o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlashi bilan ajralib turadi.

Fuqarolik jamiyati har doim u yoki bu maqsad va g'oyalar uchun aholini jipslashtirib, birlashtirib kelgan. Fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida nodavlat va jamoat tashkilotlarini rivojlantirishdan maqsad ham jamiyat a'zolari manfaatlarining muvozanatini ta'minlash va himoya qilishdan iborat. Shuning uchun ham nodavlat, notijorat tashkilotlari Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Faqat xayriya va muruvvat masalalariga aylanib qolmay, yana bosh vazifa – eng avvalo demokratik qadriyatlarni, kishilarning qonuniy haq-huquqlari va erkinliklarini himoya qilishdan" iboratdir deb uqtirdi.

Nodavlat va notijorat tashkilotlarining rivojlangan tizimi jamiyatda manfaatlar uyg'unligini qaror toptirish va mustahkamlashga xizmat qilishi lozim. Bu o'z yo'li bilan davlat tuzilmalari faoliyatini ham muayyan ma'noda to'ldirib butun jamiyatda ma'lum bir muvozanatni ta'minlovchi vosita sifatida ham bajarishga olib keladi.

Nodavlat tashkilotlari davlatga qarashli bo'lmagan, ammo ma'lum qonunlar yoki me'yoriy hujjatlarga bo'ysungan holda faoliyat ko'rsatadigan tuzilma hisoblanadi. Hozirgi kunda ular quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Aholining ayrim yoki muayyan yirik toifalarning ijtimoiy manfaatlarini ko'zlab ishlashga ixtisoslashgan, hukumatga qarashli bo'lmagan umummilliy tashkilotlar. Bunday tashkilotlar jumlasiga "Mahalla", "Nuroniylar" jamg'armalari, xotin-qizlar qo'mitasi, nogironlar uyushmasi va boshqalar kiradi.

2. Ixtisoslashgan milliy va xalqaro jamg'armalar. Ularga "Ekosan", "Sog'lom avlod uchun", "Amir Temur", "Matbuotni demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash", "Orolni qutqarish" jamg'armalari, "Markaziy

Osiyo mamlakatlari madaniyat va fan arboblari anjumani” kabi tashkilotlar kiradi. 3. Hukumatga qarashli bo‘lmagan huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar. Shaxs huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi, inson huquqlari va gumanitar huquqni o‘rganish markazi, huquqiy yordam ko‘rsatish jamiyati kabilar ushbu guruhni tashkil etadi.

4. Ijodkor ziyolilarning milliy jamoat tashkilotlari, masalan, yozuvchilar, rassomlar, bastakorlar, arxitektorlar, kinomatografchilar, shuningdek, sudyalalar va advokatlarning jamoat tashkilotlari.

5. Milliy madaniyat markazlari. Ular O‘zbekistonda yashovchi milliy jamoalar vakillarining madaniyati, ma’naviyati, urf-odatlarini saqlab qolish maqsadida tuzilgan tashkilotlar hisoblanadi.

6. Umummilliy jamiyatlar va jamg‘armalar. Bolalar, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy himoya qilish, talabalar jamg‘armalari shular jumlasidandir.

7. Ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan va ijodiy qiziqishlar bilan bog‘liq, asosan, ekologiya masalalari bo‘yicha mahalliy birlashmalar, ularga sayyohlik va badiiy havaskorlik klublari, nogiron bolalar ota-onalarining birlashmalari kiradi.

8. Jamoat muassasalari. Bu guruhga “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik markazi, jurnalistlarni tayyorlash xalqaro jamoatchilik markazi kabi tashkilotlar kiradi.

Uning alohida xususiyatlari:

- xuddi davlat tashkilotlari kabi, nodavlat tashkilotlari ham muayyan tashkiliy maqsadlarga erishish niyatida shakllantiriladi;

- yirik tashkilotlarning tarkibida bir necha nodavlat tashkilotlar mavjud bo‘lib, ularning barchasi yagona tarmoqqa birlashtiriladi;

- nodavlat tashkilotlarida insoniy munosabatlar maxsus qayd qilingan qonun-qoidalarga asoslanadi;

- odamlarni nodavlat tashkilotlariga kirishga undovchi asosiy sabablar: bironta ijtimoiy guruhga mansub bo‘lish ehtiyoji, o‘zaro yordam berish ijtimoiy (kasbiy) jihatdan muhofazalanish, yaqinroq aloqalar o‘rnatish, kishilarning bir-birini xush ko‘rishi.

Nodavlat tashkilotlarining asosiy belgilari:

- Ijtimoiy nazorat. Ushbu maqsad yo‘lidagi dastlabki qadam turli xil me‘yorlarning belgilanishida o‘z ifodasini topadi. Aniq ijtimoiy guruhga

mansub bo'lishlikni istagan kimsa belgilab qo'yilgan ijtimoiy me'yorlarga amal qilishi lozim. Belgilangan me'yorlarni mensimaslik salbiy oqibatlariga olib keladi.

- Har qanday o'zgartirishlarga qarshilik ko'rsatish. Ushbu holatda kuzatiladi: ijtimoiy guruhning mavjudligiga, ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilishiga, umumiy manfaatlarga, ijobiy his-tuyg'ularning ifodalanishiga tahdid tug'dirsa.

- Tashkilotlardagi nodavlat yetakchi (lider)lar. Ikki xil funksiyalarni bajaradi: tashkiliy masalalarga erishishga yordam beradi, ijtimoiy aloqalarni ta'minlab turadi.

Jamiyat taraqqiyotida nodavlat tashkilotlarining salbiy va ijobiy ta'siri mavjud.

Salbiy ta'siri:

- Nodavlat aloqa kanallari bo'ylab soxta ma'lumot (mish-mish)larning tarqatilishi tufayli personalning tashkilot rahbariyatiga munosabati keskin tarzda salbiy tomonga o'zgarishi mumkin.

- Ijtimoiy guruh doirasida qabul qilingan normalar ish unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

- Tashkiliy o'zgartirishlarga nisbatan qarshilik ko'rsatish tamoyili oxir oqibatda innovatsion jarayonlarga jiddiy to'sqinlik qilishi hech gap emas.

Ijobiy ta'siri

- Ijtimoiy guruhga mansublikning shaxs uchun ahamiyatliligi bo-ra-bora tashkilotga nisbatan sadoqat tuyg'usiga aylanishi mumkin.

- Nodavlat guruhlarning faoliyat maqsadlari tashkilotning maqsadlari bilan mos kelishi, iqtisodiy samaradorlik me'yorlari esa tashkiliy samaradorlik me'yorlaridan yuqori bo'lishi mumkin. Natijada ish unumdorligi yuksaladi.

- Nodavlat va davlat aloqa uzatish kanallarining o'zaro birlashtirilishi kommunikatsiya tizimining faoliyatini yuksaltirishi mumkin.

Mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlari mustaqilligini ta'minlash, shuningdek, ularni fuqarolik jamiyatining muhim institutiga aylanishini ta'minlash maqsadida davlatning "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" konseptual siyosiy dasturi qabul qilindi va u mamlakatda jamiyatni rivojlantirishning asosiy tamoyiliga aylandi. Jamiyat siyosiy

tizimini yanada erkinlashtirish masalalari mazkur dastur qabul qilingandan keyin yanada dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi.

O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng o‘z istiqloq va taraqqiyot yo‘li – fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lidan borishni bosh vazifa qilib qo‘ydi.

Chunki fuqarolik jamiyatini barpo etish, birinchi navbatda, keng xalq ommasida o‘z haq-huquqlarini taniydigan, o‘z kuch va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondasha oladigan intellektual qobiliyat, fazilatlarini shakllantirishni taqozo etadi. Shuning uchun ham I.A.Karimov ta‘kidlaganidek, “Islohotlarning muvaffaqiyati, avvalambor, mamlakatimizni yanada demokratlashtirish va liberallashtirish yo‘lidagi sa‘y-harakatlarimiz sur‘atiga, fuqarolarimizning ijtimoiy-siyosiy faolligiga, ularning siyosiy va huquqiy madaniyatining yuksakligiga ... birinchi navbatda yetuklik darajasiga, ularning O‘zbekistonimiz taqdiri va kelajagiga daxldor bunday ulkan mas‘uliyatli vakolatlarni o‘z zimmasiga olishga qay darajada tayyor ekaniga bevosita bog‘liqdir.

Mustaqillikka erishilganidan keyin xalqning o‘zini o‘zi boshqarish huquqlarini kafolatlash borasida bir necha qonunlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yilda qabul qilingan yangi tahrirda “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qarori bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Shu qarorda belgilanganidek, mahallalarda o‘tkazilayotgan fuqarolar yig‘ilishlari asosida kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish, ko‘p bolali oilalarga nafaqa tayinlash masalalarini ijobiy hal etishda ko‘maklashish, oilalarini davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadlari uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ajratilgan mablag‘lar o‘z o‘rnida foydalanilib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining «Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida»gi Qonuni mamlakatimizdagi barcha gazeta va jurnallar, radio va televideniya vositalarini dunyo miqyosiga olib chiqish uchun xizmat qiluvchi asosiy dasturga ega bo‘ldi.

O‘zbekistonda 2001-yil 1-yanvargacha 390 ta gazeta; 110 ta jurnal; 2 ta axborot agentligi; 52 ta telestudiya; 5 ta radiostudiya; 3 ta teleradiostansiyalar kabi ommaviy axborot vositalari mavjud bo‘lib, ular erkin faoliyat ko‘rsatmoqda.

2004-yilning 1-yanvar oyiga ko'ra mamlakatimizda 571 ta gazeta, 140 ta jurnal, 4 ta axborot agentligi, 85 ta teleradio va kabel studiyasi, 298 ta elektron axborot vositalari ishlamoqda. 2017-yilda yurtimizda 1 ming 500 dan ziyod ommaviy axborot vositasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Nazorat savollari:

1. Mahalla va o'z-o'zini boshqarish organlarining faoliyati haqida ma'lumot bering.

2. O'zbekistonda davlat mustaqilligi qo'lga kiritilishining tarixiy ahamiyati nimada?

3. O'zbekistonda qachon va qanday siyosiy partiyalar tuzilgan, ularning maqsadi nima?

4. O'zbekiston «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati qachon tuzilgan?

5. Nima sababdan ommaviy axborot vositalarini «to'rtinchi hokimiyat» deyiladi?

6. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan qanday jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlarini bilasiz?

6. IQTISODIY ISLOHOTLAR, XUSUSIY MULKCHILIKNING SHAKLLANISHI. O‘ZBEKISTONDA BOZOR MUNOSABATLARINING RIVOJLANISHI

6. 1. O‘zbekistonda bozor islohotlarini amalga oshirish va uning asosiy yo‘nalishlari

Iqtisodiy munosabatlar va tashkiliy-boshqaruv tuzilmalarining bir turidan butunlay boshqa yangi turiga o‘tish, iqtisodiy islohotlar strategiyasini ishlab chiqish va uning asosiy yo‘nalishlarini aniqlab olishni taqozo qiladi. Iqtisodiy islohotlar iqtisodiyotda tub o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan iqtisodiy chora-tadbirlar majmuyidir.

Iqtisodiy islohotlardan ko‘zda tutilgan maqsad mamlakat aholisi uchun yashash va faoliyat yuritishning eng yaxshi sharoitlarini yaratish, ularning ma’naviy-axloqiy yetukligiga erishish, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlashdan iborat.

Islohotlarni amalga oshirishdan oldin bozor iqtisodiyotiga o‘tishning nazariy modeli yaratildi.

Bu modelda yangi iqtisodiyotga o‘tishning umumiy tomonlari va milliy xususiyatlari nazarda tutiladi, islohotlarning asosiy yo‘nalishlari belgilanadi.

Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- mulkiy munosabatlarni isloh qilish;
- agrar islohotlar;
- moliya-kredit va narx-navo islohoti;
- boshqarish tizimini isloh qilish va bozor infratuzilmasini yaratish;
- tashqi iqtisodiy aloqalar islohoti;
- ijtimoiy islohotlar.

Iqtisodiy islohotlarning bosh bo‘g‘ini mulkchilik munosabatlarini

tubdan o'zgartirishdir, chunki shu orqali ko'p ukladli iqtisodiyot va raqobatlashish muhiti shakllantiriladi hamda bozor iqtisodiyotiga o'tishning shart-sharoitlari vujudga keltiriladi. Shu sababli respublikada mulkiy munosabatlarni isloh qilishdan ko'zda tutilgan maqsad davlat mulki monopozimini tugatish va bu mulkni xususiyashtirish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyotni real shakllantirishdan iborat.

Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning dastlabki bosqichidayoq qishloq xo'jaligini isloh qilishga ustunlik berildi. Bunga quyidagilar sabab bo'ldi:

- respublikamiz iqtisodiyotida agrar soha ustunlikka egaligi, aholining ko'pchiligi qishloq xo'jaligida bandligi, iqtisodiy o'sishning ko'p jihatdan shu tarmoq ahvoliga bog'liqligi;

- respublika butun sanoat potensialining yarmiga yaqinini tashkil qiladigan sanoatning ko'pgina tarmoqlarini (paxta tozalash, to'qimachilik, yengil, oziq-ovqat, kimyo sanoati, qishloq xo'jalik mashinasozligi va boshqalar) rivojlantirish istiqbollari bevosita qishloq xo'jaligiga bog'liqligi;

- qishloq xo'jalik mahsulotlari (asosan paxta) hozirgi vaqtda valuta resurslari, respublika uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar, texnika va texnologiya uskunalarini chetdan sotib olishni ta'minlayotgan asosiy manba ekanligi;

- mustaqillik sharoitida qishloq xo'jaligining oziq-ovqat muammosini hal etishdagi rolining ortib borishi.

Mavjud iqtisodiy tizimning izchillik bilan bozor munosabatlariga o'sib o'tishida moliya-kredit sohasini isloh qilish alohida o'rin tutadi. Moliyaviy munosabatlarda davlat budjeti taqchilligini kamaytirib borish, budjetdan beriladigan dotatsiyalar va subsidiyalarni bosqichma-bosqich qisqartirish, birinchi darajali, eng zarur umumdavlat ehtiyojlari uchun-gina budjetdan mablag' ajratish, iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya kreditlaridan keng foydalanish islohotlarning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Iqtisodiyotni isloh qilishning eng asosiy muammolaridan biri narxlarni erkinlashtirishdir. Narxlarning erkin shakllanishi uchun narxlar tizimini isloh qilish ham zarurdir. Dastlab davlat xarid narxlarining amal qilish doirasi qisqartiriladi va keyin ichki narxlar jahon narxlariga

muvofiglashtirib boriladi. Shuningdek, narxlarni erkinlashtirishda ayrim turdagi xomashyo va mahsulot narxlari bilan aholi va korxonalar daromadlari o'rtasidagi tenglikka erishishga harakat qilinadi.

Narxlar islohoti boshlangandan 1994-yilgacha hamma turdagi xomashyo va mahsulotlar bo'yicha erkin narxlarga o'tildi, barcha iste'mol mollari narxi ustidan davlat nazorati bekor qilindi.

Isloh qilishning dastlabki bosqichida (1992-yil) keng doiradagi ishlab chiqarish-texnik vositasi bo'lgan mahsulotlar, ayrim turdagi xalq iste'mol mollari, bajarilgan ishlar va xizmatlarning kelishilgan narxlari va tariflarga o'tildi. Aholini himoyalash maqsadida cheklangan doiradagi oziq-ovqat va sanoat tovarlari narxlarining chegarasi belgilab qo'yildi.

Narxlar islohotining ikkinchi bosqichida (1993-yil) kelishilgan ulgurji narxlarni davlat tomonidan tartibga solish umuman to'xtatildi. Narxlarini erkinlashtirishning uchinchi bosqichida (1994-yil oktabr-noyabr) xalq iste'mol mollari asosiy turlarining narxi erkin qo'yib yuborildi. Shunday qilib, iqtisodiyotni isloh qilishning birinchi bosqichi narxlarni to'liq erkinlashtirish bilan tugadi.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish boshqarishning tegishli tizimini yaratishni talab qiladi. Shunga asosan respublikada butun iqtisodiyotni, tarmoqlar va hududlarni boshqarishning eng maqbul va hozirgi davrga mos bo'lgan tuzilmalari ishlab chiqildi.

Ko'plab markaziy iqtisodiy organlar va vazirliklar tugatildi (Davlat reja qo'mitasi, Davlat ta'minot qo'mitasi, Davlat narxlar qo'mitasi, Davlat agrosanoat qo'mitasi va boshqa qo'mita hamda vazirliklar) yoki ularning faoliyati tubdan qayta qurildi. Faoliyati tugatilgan ma'muriy apparatlar o'rniga bozor iqtisodiyotiga xos yangi boshqarish bo'g'inlari tuzildi.

Boshqarishning mahalliy darajasida (viloyat, tuman, shahar) ijroiya-boshqaruv vazifalarini bajarish uchun hokimliklar joriy qilindi. Quyi bo'g'in boshqaruvida korxonalar va tashkilotlarga iqtisodiy erkinlik berilib, ular yangicha ish uslubiga o'tdi.

Isloh qilish natijasida tarkib topgan boshqaruv tizimi bozor iqtisodiyotiga o'tib borish bilan yanada takomillashib va rivojlanib boradi.

Bozor islohotlari **bozor infratuzilmasini** yaratish chora-tadbirlarini ham qamrab oladi. Bunda moliya, bank-kredit tizimi muassasalari,

sug'urta, auditorlik, yuridik va konsalting firmalari hamda kompaniyalarini, birja tizimini yaratish taqozo qilinadi.

Respublikada bozor infratuzilmasini yaratish bir qator yo'nalishlar bo'yicha bordi. Birinchi yo'nalish bo'yicha tovar-xomashyo birjasi tizimi rivojlandi. Bu, o'z navbatida, brokerlik va dilerlik idoralari, savdo uylari, vositachi firmalar paydo bo'lishiga olib keldi.

Ikkinchi yo'nalishda kapital bozorining ishini ta'minlaydigan tuzilmalar vujudga keltirildi. Kredit resurslari bozori va valuta bozori vujudga keltirildi hamda davlatga qarashli bo'lmagan sug'urta kompaniyalari tuzildi.

Uchinchi yo'nalish ishchi kuchi bozorini shakllantirishdan iborat bo'lib, bu sohada 240 dan ortiq mehnat birjasini o'z ichiga oluvchi katta tarmoq tuzildi.

Bozor islohotlari tashqi iqtisodiy aloqalarga ham tegishlidir. Bu sohada islohotlarni amalga oshirish borasida respublikaning zamonaviy tashqi iqtisodiy kompleksi mutlaqo yangidan shakllantirildi, tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishning mohiyat e'tibori bilan yangi mexanizmi vujudga keltirildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishi zarur bo'lgan muassasalar (Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, bojxonalar xizmati) barpo etildi. Respublikaning barcha vazirliklari va idoralari, korxonalarida tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi maxsus bo'limlar, tashkilotlar va firmalar tuzildi.

Shunday qilib, islohotlarning barcha yo'nalishlari mavjud iqtisodiy tizimning izchillik bilan bozor iqtisodiyotiga o'sib o'tishiga qaratildi. Bu islohotlar O'zbekistonning mustaqilligini iqtisodiy jihatdan ta'minlash, uni iqtisodiy jihatdan rivojlangan va xalqaro miqyosda obro'-e'tiborli mamlakatga aylantirishga xizmat qildi. «Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlari ko'plab nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan munosib baholanmoqda. Misol uchun, har yili dunyoning 162 ta mamlakati bo'yicha iqtisodiy erkinlik indeksini e'lon qiladigan «Nasledie» fondi xalqaro reyting agentligining bu boradagi xulosasi e'tiborga sazovor. Bu tashkilot 2000–2007-yillarda O'zbekistonda erkinlashtirish indeksi 18 punktga yaxshilanib, 53 foizni tashkil qilganini e'tirof etadi. Hech shubhasiz, bu ko'rsatkich milliy iqtisodiyotimizni erkinlashtirish sohasida sezilarli darajada rivojlanishga erishganimizdan dalolat beradi».

6. 2. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning tamoyillari va xususiyatlari

Markazlashgan ma‘muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tishda maqsad bir xil bo‘lsa-da, turli mamlakatlarda turli yo‘llarni tanlashlari mumkin. Yuqorida ta’kidlanganidek, bir tizimdan ikkinchi tizimga o‘tishning revolyutsion va evolyutsion yo‘llari mavjud. Polsha, Chexoslovakiya, Rossiya va boshqa ayrim mamlakatlarda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning revolyutsion yo‘lini, birdaniga katta to‘ntarishlar qilish yo‘lini tanladilar.

O‘zbekistonda esa o‘ziga xos madaniy, tarixiy, iqtisodiy va tabiiy xususiyatlarini hamda bu yo‘ldagi jahon tajribasini hisobga olgan holda revolyutsion to‘ntarishlarsiz, ijtimoiy to‘qnashuvlarsiz, ijtimoiy himoyani kuchaytirgan holda asta-sekinlik, lekin qat’iyatlilik bilan bosqichma-bosqich rivojlangan bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘li tanlandi.

«Bizning bozor munosabatlariga o‘tish modelimiz respublikaning o‘ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini, an’analar, urf-odatlar va turmush tarzini har tomonlama hisobga olishga, o‘tmishdagi iqtisodiyotni bir yoqlama, beso‘naqay rivojlantirishning mudhish merosiga barham berishga asoslanadi».

O‘zbekistonda qabul qilingan o‘ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali biz o‘z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarimizni amalga oshirish vazifasini qo‘yar ekanmiz, eng avvalo, «shok terapiyasi» deb atalgan usullarni bizga chetdan turib joriy etishga qaratilgan urinishlardan, bozor iqtisodiyoti o‘zini o‘zi tartibga soladi, degan o‘ta jo‘n va aldamchi tasavvurlardan voz kechdik», deb yozadi mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov.

O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tish yo‘li ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan. Bu yo‘lni amalga oshirishga, iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga Birinchi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi beshta muhim tamoyil asos qilib olingan:

- iqtisodiyotni mafkuradan xoli qilish, uning ustunligini ta‘minlash;
- o‘tish davrida davlatning bosh islohotchi bo‘lishi;

– butun yangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunlarga asoslanishi, qonunlar ustuvorligining ta'minlanishi;

– bozor munosabatlariga o'tish bilan bir qatorda aholini ijtimoiy hi-moyalash sohasida kuchli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror toptirish.

Bozor munosabatlariga o'tishda bu tamoyillarning hammasi ham muhim ahamiyatga egadir, lekin ularning ichida bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish tamoyili alohida e'tiborga loyiq. Chunki tegishli huquqiy negizni, bozor infratuzilmalarini yaratish, odamlarda bozor ko'nikmalarini hosil qilish, yangi sharoitlarda ishlay oladigan kadrlarni tayyorlash uchun vaqt kerak bo'ladi.

Ushbu holatni yana bir bor e'tirof etgan holda, I.A.Karimov shunday yozadi: «Ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan boshqaruvning bozor tizimiga o'tish jarayonida tadrjijiy yondashuvni, «Yangi uy qurmasdan turib, eskisini buzhang» degan hayotiy tamoyilga tayangan holda, islohotlarni izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lini tanladik. Eng muhimi, parokandalik va boshboshdoqlik ta'siriga tushib qolmaslik uchun o'tish davrida aynan davlat bosh islohotchi sifatida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi zarurligini biz o'zimizga aniq belgilab oldik».

Bundan tashqari, bozor munosabatlariga o'tish faqatgina iqtisodiyot sohalari o'zgartirish bilan cheklanmaydi. U ijtimoiy hayotning bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan barcha sohalari, shu jumladan siyosiy, ma'naviy-axloqiy, maishiy va boshqa sohalarni ham tubdan o'zgartirishni taqozo qiladi. Bularning hammasi bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich, evolutsiyon yo'l bilan o'tish haqidagi g'oya juda muhim va afzal ekanligini ko'rsatadi.

Bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish tamoyilini amalga oshirish iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy bosqichlarini aniq farqlash, bu bosqichlarning har biri uchun aniq maqsadlarni, ularga erishish vositalarini belgilab olishni talab qiladi.

I.A.Karimovning asarlarida bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida quyidagi ikkita vazifani birdaniga hal qilish maqsad qilib qo'yilganligi ta'kidlanadi:

– totalitar tizimning og'ir oqibatlarini yengish, tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish;

– respublikaning o‘ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirish.

Shu vazifalarni hal qilish uchun birinchi bosqichda isloh qilishning quyidagi muhim yo‘nalishlari aniqlab olindi va amalga oshirildi:

– o‘tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy negizini mustahkamlash;

– mahalliy sanoat, savdo, maishiy xizmat korxonalarini, uy-joy fondini xususiylashtirish, qishloq xo‘jaligida va xalq xo‘jaligining boshqa sohalarida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish;

– ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish, moliyaviy ahvolning barqarorlashuvini ta‘minlash.

Respublikada bozor munosabatlariga o‘tishning birinchi bosqichida iqtisodiyotda va ijtimoiy sohada yuz bergan tub o‘zgarishlar uning o‘z taraqqiyotida keyingi sifat jihatdan yangi bosqichga o‘ta boshlash uchun mustahkam shart-sharoit yaratdi. Shu bilan birga isloh qilishning birinchi bosqichi natijalari keyingi bosqichning strategik maqsadlari va ustun yo‘nalishlarini aniq belgilab olish imkonini berdi.

Ikkinchi bosqichda investitsiya faoliyatini kuchaytirish, chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va shuning negizida iqtisodiy o‘sishni ta‘minlab, bozor munosabatlarini to‘liq joriy qilish maqsad qilib qo‘yiladi. Shu maqsaddan kelib chiqib I.A.Karimov mazkur bosqichda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan quyidagi bir qator vazifalarni ko‘rsatib berdi:

– davlat mulklarini xususiylashtirish sohasida boshlangan ishni oxiriga yetkazish;

– ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash;

– milliy valuta – so‘mni yanada mustahkamlash;

– iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini tubdan o‘zgartirish, xomashyo yetkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o‘tish.

O‘tish davrining ikkinchi bosqichida aholining kam ta‘minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish, ularga tegishli yordam ko‘rsatish borasida birinchi bosqichda tutilgan yo‘l davom ettirildi.

I.Karimov ta‘kidlab o‘tganlaridek, hozirgi bosqichda «erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish nafaqat iqtisodiy, balki ham ijtimoiy, ham

siyosiy vazifalarni hal qilishning asosiy shartidir». Bu esa iqtisodiyot sohasida quyidagi aniq vazifalarni amalga oshirishni koʻzda tutadi:

- iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan oʻtkazish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish;
- xususiyashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish va shu asosida amalda mulkdorlar sinfini shakllantirish;
- mamlakat iqtisodiyotiga xorij sarmoyasini, avvalo, bevosita yoʻnaldirilgan sarmoyalarni keng jalb etish uchun qulay huquqiy shart-sharoit, kafolat va iqtisodiy omillarni yanada kuchaytirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy taraqqiyotda ustuvor oʻrin egallashiga erishish;
- mamlakatning eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash, iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiy tizimiga keng koʻlamda integratsiyalashuvini taʼminlash;
- iqtisodiyotda mamlakatimiz iqtisodiy mustaqilligini yanada mustahkamlashga qaratilgan tarkibiy oʻzgarishlarni izchil davom ettirish.

6. 3. Oʻzbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish: maqsad, yoʻllari va usullari

Bozor munosabatlariga oʻtishning asosiy sharti koʻp ukladli iqtisodiyotni va raqobat muhitini shakllantirish uchun shart-sharoitni vujudga keltirishdan iborat. Bunda asosiysi mulkchilik masalasini hal qilishdir. Shu sababli respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov mulkchilik masalasini hal qilishni «...bozorni vujudga keltirishga qaratilgan butun tadbirlar tizimining tamal toshi boʻlib xizmat qiladi» deb alohida taʼkidlab koʻrsatadi. Uzoq yillar mobaynida respublikamiz iqtisodiyotida umumxalq mulki deb atalgan, aslida esa davlatlashtirilgan mulk toʻliq hukmronlik qilib keldi. Nazariya va amaliyotda umumxalq mulki deb hisoblangan mulk subyekti sifatida davlatning chiqishi jamiyat aʼzolari oʻrtasida bu mulkka «hech kimniki», «davlatniki», «birovning mulki» deb qarashlarining shakllanishiga olib keldi.

Bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish vazifasi oʻtish davrida mulkchilikda davlat sektorining salmogʻi ancha yuqori boʻlgan mamlakatlarda bu mulkning maʼlum qismini davlat tasarrufidan chiqarish va xususi-

lashtirishni taqozo qiladi. Shunga ko'ra, O'zbekistonda ham mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga muhim ahamiyat kasb etuvchi jarayon sifatida qaralib, «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi Qonunda (1991-yil 19-noyabr) quyidagicha ta'rif beriladi:

Davlat tasarrufidan chiqarish – davlat korxonalarini va tashkilotlarini jamoa, ijara korxonalariga, aksiyali jamiyatlarga, mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga, davlatga qarashli mulk bo'lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirishdir.

Xususiylashtirish – fuqarolarning va davlatga taalluqli bo'lmagan yuridik shaxslarning davlat mulki obyektlarini yoki davlat aksiyali jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishidir.

Bundan ko'rinadiki, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish xususiylashtirishga qaraganda ancha keng tushuncha. Xususiylashtirish davlat mulkiga egalik huquqining davlatdan xususiylashtirishdan tashqari, bu mulk hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarini vujudga keltirishni ham ko'zda tutadi. U bir qator yo'llar bilan amalga oshiriladi: davlat korxonalarini aksiyadorlik jamiyatiga aylantirish, davlat korxonasini sotib, uni jamoa mulkiga aylantirish; mulkni qiymatga qarab chiqarilgan cheklar (vaucher) bo'yicha fuqarolarga bepul berish; mulkni ayrim tadbirkor va ish boshqaruvchilarga sotish; ayrim davlat korxonalarini chet el firma va fuqarolariga sotish yoki qarz hisobiga berish; davlat mol-mulki ni auksionlarda kim oshdi savdosi orqali sotish va h.k.

Xususiylashtirishning usullari ham turli-tuman bo'lib, ularni 3 guruhga ajratish mumkin: 1) davlat mulkini bepul bo'lib berish orqali xususiylashtirish; 2) davlat mulkini sotish orqali xususiylashtirish; 3) davlat mulkini bepul bo'lib berish hamda sotishni uyg'unlashtirish orqali xususiylashtirish.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning dastlabki pallasidayoq mulkchilikning hamma shakllari teng huquqli ekanligi konstitutsion tarzda e'tirof etildi va davlat mulki monopolizmini tugatish hamda bu mulkni xususiylashtirish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyotni real shakllantirish vazifasi qo'yildi. Avvalo, mulkchilikning turli xil shakllari qaror topishi uchun teng huquqiy me'yorlar va amal qilish mexanizmlari yaratildi.

O‘zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga yondashuvning muhim xususiyati – uni maxsus dasturlar asosida bosqichma-bosqich amalga oshirishdan iborat. 1992–1993-yillar xususiylashtirishning birinchi bosqichini o‘z ichiga olib, bu bosqichda xususiylashtirish jarayoni umumiy uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko‘rsatish korxonalarini hamda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash tizimini qamrab oldi.

Davlat mulkini xususiylashtirishning usullari

Yengil, mahalliy sanoatga, transport va qurilishga, boshqa tarmoqlarga qarashli ayrim o‘rta va yirik korxonalar keyinchalik sotib olinish huquqi bilan ko‘proq ijara korxonalariga, jamoa korxonalariga, yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi. Aksiyalarning nazorat paketi davlat ixtiyorida saqlab qolindi.

Xususiylashtirishning birinchi bosqichida davlat iqtisodiy jihatdan samarasiz bo‘lgan, biroq butun mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydigan ayrim sektorlarni, ayrim korxonalarni saqlab turishni va mablag‘ bilan ta‘minlash vazifalarini o‘z zimmasiga oldi.

O‘zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini amalga oshirish bosqichlari

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichi natijasida kichik xususiylashtirish amalda tugallandi, davlat mulkini boshqarish va uni mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirish uchun kerak bo‘lgan muassasalar tizimi vujudga keltirildi.

Savdo, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish, mahalliy sanoat korxonalari xususiylashtirish va jamoa mulki qilib berildi. Natijada 1997-yilda savdo-sotiq hajmi va umumiy ovqatlanish yalpi mahsulotining 95 foizdan ortiqrog‘i davlatga qarashli bo‘lmagan sektorga to‘g‘ri keldi. Uy-joylarni xususiylashtirish jarayonida ilgari davlat ixtiyorida bo‘lgan bir milliondan ortiq kvartira yoki davlat uy-joy fondining 95 foizdan ortiqrog‘i fuqarolarning xususiylashtirish mulki bo‘lib qoldi.

Davlat ijtimoiy dasturida belgilab berilgan ikkinchi bosqich 1994–1995-yillarga to‘g‘ri keldi. Bu bosqichda ko‘plab o‘rta va yirik

korxonalar aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi hamda ularning aksiyalari respublika qimmatli qog'ozlar bozorining asosini tashkil etdi. Davlat mulki aksiyadorlikka aylantirilishi bilan bir qatorda kichik xususiy biznes korxonalarini tashkil qilish jadallashtirildi.

Mulknii davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning bu bosqichida ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlarini vujudga keltirish, davlat mulkini tanlov asosida hamda kim oshdi savdosida sotish amaliyotga joriy qilindi. Ko'chmas mulk va qimmatli qog'ozlar bozorining yangi muassasalari barpo etildi.

Mulknii davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishdan keladigan samara ikki yoqlama tavsifga ega. Bir tomondan, u aholining bo'sh turgan mablag'larini o'ziga jalb qilib, ularning bozorga tazyiqini pasaytiradi. Ikkinchi tomondan, yangi mablag'larni ishlab chiqarishga jalb etish va tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobatni yuzaga keltirish uchun sharoit yaratadi. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, xususiylashtirish iqtisodiyotning davlatga qarashli bo'lmagan sektorini shakllantirishning yagona yo'li emas. Tashabbuskorlik asosida yakka tartibdagi xususiy mulkchilikka asoslangan, shuningdek, turli xil kooperativlar, shirkatlar, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ko'rinishidagi kichik va o'rta korxonalarini tashkil qilish – ikkinchi qudratli jarayon hisoblanadi.

Respublika iqtisodiyoti 1996-yildan boshlab mulknii davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning **uchinchi bosqichiga** kirdi. Bu bosqich davrida (1996–1998-yillar) xususiylashtirilmaydigan obyektlar ro'yxatiga kirmagan barcha obyekt va korxonalar (jami 3146 ta) davlat tasarrufidan chiqarildi.

Xususiylashtirish jarayonlarining **to'rtinchi bosqichi** (1998–2003-yillar)ning asosiy vazifalari sifatida davlat budjetiga xususiylashtirishdan tushgan mablag'larni yo'naltirish, xususiylashtirilgan korxonalariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, boshqaruv samaradorligini oshirish va mulkchilik yangi munosabatlarini to'laqonli amal qilishi uchun sharoitlar yaratish tadbirlarini amalga oshirish belgilandi. Mamlakatimizdagi davlat korxonalarini xususiylashtirishning 1995–2003-yillardagi asosiy natijalarini quyidagi jadval orqali kuzatish mumkin.

**O'zbekistonda 1995–2003-yillarda davlat korxonalarini
xususiylashtirishning asosiy ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkichlar	1995	1996	1997	1998	1999	2000	2001	2002	2003
Xususiylashtirilgan korxonalar soni, birlik	8537	1915	1231	451	448	374	1449	1912	1519
Xususiylashtirish natijasida tashkil etilgan nodavlat mulkidagi korxonalar soni	8537	1915	899	266	373	372	1238	1800	1452
Aksiyadorlik jamiyatlari	1026	1257	456	110	141	152	227	223	75
Xususiylashtirilgan korxonalar	6036	420	260	103	156	103	827	1252	981
Boshqa shakldagi korxonalar	1475	238	183	53	76	117	184	325	396
Xususiylashtirishdan tushgan mablag', mlrd. so'm	2,4	5,3	4,4	8,9	9,1	14,3	23,2	43,6	56,1

Jadvaldan ko'rinadiki, tahlil qilinayotgan davr mobaynida 17836 ta davlat obyekti xususiylashtirilib, ular asosida 16852 ta nodavlat mulkidagi korxonalar tashkil etilgan. Jumladan, ushbu korxonalarining 3667 tasi (21,8%) aksiyadorlik jamiyatlari, 10138 tasi (60,2%) xususiylashtirilgan korxonalar, 3047 tasi (18,1%) boshqa shakldagi korxonalardan iborat. Bu davrda xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar hajmi 167,3 mlrd. so'mni tashkil etgan.

O‘zbekistonda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarining hozirgi – **beshinchi bosqichi** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-yanvardagi «O‘zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni bilan bog‘liq. Mazkur Farmon asosida iqtisodiy nochor korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini jadallashtirish, shuningdek, mazkur korxonalarni modernizatsiyalash va barqaror rivojlantirish uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish maqsadida xususiylashtirilgan obyektlarga narx belgilashning samarali mexanizmi joriy etildi. Xususan, xususiylashtirilgan korxonalar davlat aktivlarining boshlang‘ich narxlarini sekin-asta pasaytirib borish hamda davlat, iqtisodiy nochor korxonalarni va past likvidli obyektlarni nol darajadagi xarid qiymati bo‘yicha tanlov asosida investitsiya majburiyatlarini qabul qilish sharti bilan investorlarga sotish tartiblari tasdiqlandi.

Mamlakatimizda hozirda ham xususiylashtirish jarayonlari bosqichma-bosqich davom ettirilmoqda. Quyidagi jadvalda 2004–2008-yillar davomida 3904 ta davlat obyekti xususiylashtirilib, buning natijasida tushgan mablag‘larning jami hajmi 471,1 mlrd. so‘mni tashkil etganligi yillar bo‘yicha keltirilgan.

O‘zbekistonda 2004–2008-yillarda davlat obyektlarining xususiylashtirilishi

Yillar	Xususiylashtirilgan obyektlar soni	Xususiylashtirishdan tushgan pul mablag‘lari, mlrd. so‘m
2004	1228	78,4
2005	980	80,5
2006	673	70,5
2007	631	111,1
2008	392	130,6

Respublikada xususiylashtirishning manzilli yo‘naltirilganligi uning navbatdagi xususiyatidir. Bu aholining barcha qatlamlariga mazkur jarayonda aniqroq va natijaliroq qatnashish imkonini beradi. Xususiylashtirishning adresli yo‘naltirilganligi uy-joylarning o‘z egalariga imtiyozli

yoki bepul berilishida, aholining ko‘proq muhtoj va zaif qatamlarini qo‘llab-quvvatlashning turli xil dasturlari budjet mablag‘lari hisobiga qoplanishida, qishloq aholisi o‘z yordamchi xo‘jaligi uchun chek yerlar olishi kabilarda ifodalanadi.

O‘zbekistonda xususiylashtirishning to‘lovliligi uning navbatdagi muhim xususiyatidir. Pulni to‘lash orqali davlat tasarrufidagi korxonalar va obyektlarni xususiylashtirishda mulkni bepul taqsimlash bilan bog‘liq salbiy holatlar bartaraf etilishi bilan birga qator muammolarni hal qilish imkoniyati yaratiladi. Bulardan asosiysi avvalo tadbirkorlikni, xususiylashtirilgan korxonalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy manbalari paydo bo‘ladi, bozor infratuzilmasini barpo etish uchun resurslar vujudga keladi va aholini ijtimoiy muhofazalash dasturini ro‘yobga chiqarish uchun mablag‘lar jamlanadi.

Davlat mol-mulkini yangi mulkdorlarga sotish yo‘li orqali ularni mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirilishi bilan birga xususiylashtirishdan olinadigan mablag‘lar shu korxonaning o‘zini qo‘llab-quvvatlashga, yangi raqobatlashuvchi korxonalar barpo etishga ham sarflanadi.

Navbatdagi muhim xususiyat – respublikada mulkni davlat tasarrufidan chiqarish chog‘ida aholi uchun kuchli ijtimoiy kafolatlar yaratildi va ta‘minlandi. Ijtimoiy kafolatlar bir butun imtiyozlar tizimi orqali yaratildi. Bular xususiylashtirilayotgan korxonalar mehnat jamoasiga aksiyalarni imtiyozli shartlar bilan sotish, yangi mulkdorga eskirgan asosiy fondlar hamda ijtimoiy infratuzilma obyektlarini bepul topshirish, davlat korxonalarining mol-mulki, fermalar, bog‘lar va shu kabilarni imtiyozli shartlar asosida xususiylashtirish hamda soliq to‘lashda ayrim imtiyozlar berish kabilardir.

Respublikada davlat mulkini xususiylashtirishning o‘ziga xos boshqa jihatlari I.A.Karimov tomonidan bayon qilingan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy qoidalaridan kelib chiqadi. Bular quyidagilar:

- a) davlat mulkini xususiylashtirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning ichki mantiqiga bo‘ysundiriladi va ularning asosini tashkil qiladi;
- b) mulkni xususiylashtirish jarayoni davlat tomonidan boshqariladi;
- d) xususiylashtirishni huquqiy-me‘yoriy jihatdan ta‘minlashda qonunlarga rioya etiladi.

Shuningdek, I.A.Karimov o'zining 2007-yil yakunlariga bag'ishlangan ma'ruzasida o'tgan yilda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish sohasidagi yondashuvlar tubdan qayta ko'rib chiqilgani, korxonalar kapitalida davlat ishtirokini keskin kamaytirish bo'yicha qarorlar qabul qilinganini alohida ta'kidlab o'tdi.

Ayni vaqtda davlat mulkini baholash va keyinchalik xususiy mulk sifatida sotishni tartibga soladigan me'yoriy bazani erkinlashtirish yuzasidan ishlar olib borilayotgani, davlat mulkini investitsiya kiritish va boshqa majburiyatlar asosida sotish uchun xorijiy va mamlakatimiz investorlari bilan tuzilgan shartnomalarning umumiy qiymati 3–4 barobar ko'payib, 310 million dollar hamda 57 milliard so'mni tashkil etgani, jami tushumlarning 65 foizdan ortig'i xususiylashtirilayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashga yo'naltirilganligi qayd etildi.

Respublikamizda xususiylashtirish bo'yicha qo'yilgan vazifa, davlat sektori bozor sharoitida ham sezilarli rol o'ynashini inkor qilmaydi. Chunki iqtisodiyotning davlat korxonalari saqlanib qolishi kerak bo'lgan sohalar ham mavjud. Bunday korxonalar uchun ularning bozor sharoitlariga tarkiban moslashuviga imkon beradigan xo'jalik yuritish mexanizmini ishlab chiqish talab qilinadi.

Mulkchilik munosabatlari – shaxsiy, jamoa va davlat manfaatlarini o'zida ifoda etib, ishlab chiqarish omillari va natijalaridan foydalanish borasida kishilar, jamoalar, tarmoqlar, hududlar va davlat o'rtasidagi munosabatlar majmuasidir.

Mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmuni moddiy va ma'naviy ne'matlarni o'zlashtirish borasidagi iqtisodiy munosabatlarni o'zida aks ettiradi. Agar mulkchilikning iqtisodiy mazmuni u yoki bu obyektning o'zlashtirish va foydalanish borasida subyektlar o'rtasidagi munosabatlarni bildirsa, mulkchilikning huquqiy mazmuni subyektning obyektga nisbatan bo'lgan munosabatini aks ettiradi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish – korxonalar ustav fondida davlat ulushining qisqarishi, ularning investitsion jozibadorligini oshirish va xorijiy investorlarni xususiylashtirish jarayoniga jalb etishni kengaytirishga qaratilgan kompleks dasturdan iborat jarayondir.

6. 4. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilgan tarkibiy o‘zgarishlar, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish. Soliq tizimidagi islohotlar

Istiqlol yillarida iqtisodiyotda amalga oshirilgan tarkibiy o‘zgarishlar quyidagi jahonshumul ahamiyatga ega bo‘lgan natijalarga olib keldi:

- yonilg‘i-energetika resurslariga bo‘lgan ehtiyojini O‘zbekiston o‘zi ni o‘zi ta‘minlaydigan bo‘ldi;
- g‘alla mustaqilligiga erishildi;
- ishlab chiqarishda sanoat mahsulotlari hissasi oshdi;
- sanoatda yuqori texnologiyaga asoslangan istiqbolli tarmoqlarning hissasi oshdi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarning amalga oshirilishi natijasida respublikaning yoqilg‘i-energetika resurslariga bo‘lgan ehtiyoji o‘zi hisobidan to‘la ta‘minlandi. 1996-yildan boshlab chetdan neft mahsulotlari sotib olish to‘xtadi. 1997-yilda O‘zbekistonning o‘zi neft mahsulotlarini eksport qiluvchi mamlakatga aylandi. Agar 1990-yilda mamlakatimizda 2810 ming tonna neft va gaz kondensati ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 1998-yilda bu ko‘rsatkich 8104 ming tonnani tashkil etdi. Tabiiy gaz ishlab chiqarish hajmi ham tez sur‘atlarda o‘sib, 1990-yildagi 40761 million kub metrdan 2010-yilda 60111,5 million kub metr hajmiga yetdi.

Energetika mustaqilligini ta‘minlash hamda neft va gazni qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish dasturi doirasida, istiqloq yillarida eng zamonaviy texnologiyalarga ega bo‘lgan chet el kompaniyalari bilan hamkorlikda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi («Teknip», Fransiya) va Sho‘rtangazkimyo majmuasi («ABB») barpo etildi, Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi to‘liq rekonstruksiya qilindi. Gaz-kimyo tarmog‘ining tashkil etilishi tabiiy gazni qayta ishlashni chuqurlashtirish va turdosh tarmoqlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish imkonini yaratdi.

Erishilgan bunday ijobiy natijalar muqarrar ravishda mazkur mahsulotlarni chetga eksport qilish hamda tushgan valuta mablag‘lariga xalqimiz ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan mahsulotlarni olib kelish imkonini berdi.

Tarkibiy islohotlar mamlakatimiz aholisining farovonligi, eng avvalo, uning oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish masalasiga qaratildi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 1990-yili O‘zbekistonga 454,8 ming tonna un, 183,9 ming tonna kartoshka, 1401 ming tonna sut mahsulotlari va shu kabilarni qo‘shni respublikalardan olib kelishga majbur bo‘lingan. Bunday holat sobiq tuzum davrida yuritilgan biryoqlama iqtisodiy siyosatning natijasi edi. Buning evaziga O‘zbekistondan asosan paxta xomashyosini yetkazib berish talab qilinardi. Biroq, bunday siyosat mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligi, uning mustaqilligiga juda katta tahdid solar edi.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan qaltis vaziyatni bartaraf etish maqsadida mamlakatimiz rahbari tomonidan aholini eng avvalo, oziq-ovqat, xususan, un mahsulotlari bilan ta’minlash vazifasi qo‘yildi. Chunki, mustabid tuzum davrida O‘zbekiston iqtisodiyotini paxta xomashyosini yetishtirishga ixtisoslashtirish shu darajaga yetgan ediki, buning oqibatida 5–6 millionlab gektar dehqonchilik uchun mo‘ljallangan yeri bor mamlakat aholining donga bo‘lgan ehtiyojining atigi 18 foizini qondira olar, qolgan 82 foizini qo‘shni respublikalardan sotib olishga majbur edi. Bu esa nafaqat iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash, balki oddiy oqilona xo‘jalik yuritish nuqtayi nazaridan ham mantiqqa zid kelardi.

Shunga ko‘ra, qishloq xo‘jaligida paxta yakkahokimligiga barham berilib, ekin maydonlarining katta qismi don mahsulotlariga ajratildi. Agar mustaqillikka erishilgan yillarda paxta maydonlari respublika umumiy ekin maydonlarining 75 foizdan ko‘proq qismini tashkil etgan bo‘lsa, keyingi davrda paxta yakkahokimligini tugatish va qishloq xo‘jalik ekinlari tarkibini optimallashtirish chora-tadbirlari olib borilishi natijasida paxta maydonlari deyarli 41 foizga qadar qisqartirildi.

Natijada ozuqabop g‘alla importiga qaramlik barham topib, tez orada yurtimizda g‘alla mustaqilligi qaror topdi. Agar 1991-yilda 4003 ming tonna miqdordagi don mahsulotini import qilishga majbur bo‘lgan bo‘lsak, mustaqillikning dastlabki olti yili ichida bu ehtiyojni keskin ravishda 5,4 barobar qisqartirishga, keyinchalik esa milliy ishlab chiqarish hisobidan qondirishga erishildi. G‘alla ishlab chiqarish hajmi 1990-yildagi 1899 ming tonnadan 2010-yilda 6952 ming tonnaga, 2014-yilda esa 8050 ming tonnaga yetdi, ya’ni 4,2 barobar o‘sdi.

2015-yilda ham g'alla yetishtirishda katta natijalarga erishilganligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida: «Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida ham chuqur tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Murakkab ob-havo sharoitiga qaramasdan, fermer va dehqonlarimizning fidokorona mehnati va omilkorligi tufayli o'tgan yili mo'l hosil yetishtirildi – 7 million 500 ming tonnadan ziyod g'alla, 3 million 350 ming tonnadan ortiq paxta xirmoni barpo etildi.

O'zbekiston ulkan qishloq xo'jalik resurslariga ega mamlakat. Uning asosiy qishloq xo'jalik ekinlaridan yana biri paxta hisoblanadi. 2011-yillarda butun Markaziy Osiyo mamlakatlari 2 million tonna paxta tolasi yetishtirgan bo'lsa, birgina O'zbekiston 1 million 400 ming tonna paxta tolasi yetishtirgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-dekabrda PQ-4087-son «Paxta xomashyosini yetishtirishda tomchilatib sug'orish texnologiyalaridan keng foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ingichka tolali paxta yetishtirishni samarali tashkil qilish, yangi navlarni ko'paytirish va rag'batlantirish mexanizmini joriy etish to'g'risida»gi qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Fanlar akademiyasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat ta'minoti ilmiy-ishlab chiqarish markazi ingichka tolali g'o'za navlari genetikasi, seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalarini va ingichka tolali paxta xomashyosini tozalash uskunalari takomillashtirish bo'yicha davlat ilmiy dasturlari grant loyihalarini ishlab chiqishga hamda paxtachilikni rivojlantirishning yangi innovatsion ilmiy yechimini topishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Respublika sabzavot, meva, uzum yetishtirish bo'yicha ham salmoqli o'ringa ega. 2012-yilda O'zbekistonda yiliga 5 million tonnaga yaqin meva-sabzavot yetishtirilgan bo'lsa, 2019-yilga kelib 1,5–2 milliard dollar miqdorida meva-sabzavot mahsulotlari eksport qilinmoqda. Lekin ushbu sohada yiliga 10–15 milliard dollar mahsulot eksport qilish imkoniyati

mavjud. Mahsulot tayyorlash va eksport qilishda «O‘zagroeksport» aksiyadorlik jamiyati, birjalar, agrofimlar va ulgurji kompaniyalar katta rol o‘ynamoqda.

2005-yilda respublikada pilla yetishtirish hajmi 60 ming tonnani, 2010-yilda 70 ming tonnani tashkil qilgan. 2019-yil 31-iyul kuni pillachilik tarmog‘ida chuqur qayta ishlashni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi Prezident qarori qabul qilinishi pillachilikni rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab berdi.

Ushbu qarorga ko‘ra, 2022-yil 1-avgustgacha pillachilik korxonalariga 8 turdagi mahsulotlarni AQSH, Yevropa Ittifoqi davlatlari va Turkiyaga eksport qilishda havo va temiryo‘llari transportida tashish xarajatlarining 50 foizgacha miqdorini davlat budjetidan kompensatsiya qilish uchun subsidiya berish, lizing asosida qishloq xo‘jaligi texnikasini xarid qilish, mineral o‘g‘itlar va boshqa material resurslarini yetkazib berish bo‘yicha fermer xo‘jaliklari uchun nazarda tutilgan shartlar va tartibni pillachilik korxonalariga ham tatbiq etish, 2020-yil 1-yanvardan tut daraxtlarini g‘ayriqonuniy kesganlik, shikastlaganlik yoki yo‘q qilganlik uchun undirilgan jarimaning 50 foizi huquqbuzarlik sodir bo‘lgan hududda yangi tut ko‘chatlari ekish uchun yo‘naltirish masalalari nazarda tutilgan.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020–2030-yillarda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishda qishloq xo‘jaligi yerlarining aniq hisobini yuritish, ulardan foydalanishni takomillashtirish muhimligi qayd etdi. Shundan kelib chiqib, «Davyergeodezkadastr» qo‘mitasiga 2021-yil oxiriga qadar respublikaning barcha hududlarida yerni hisobga olish ishlarini yakunlash, yer hisobini yuritish bo‘yicha yagona elektron bazani yaratish, sohaning eksport salohiyatini oshirish va qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish masalalariga alohida ahamiyat qaratilib, bu boradagi jahon tajribasi tahlil qilindi.

Istiqbol davrida iqtisodiyotda yangi tarmoqlar – avtomobilsozlik, seluloza-qog‘oz, qand-shakar, farmatsevtika va boshqa tarmoqlar vujudga keldi. Respublika sanoatida yuksak texnologiyaga asoslangan va istiqbolli tarmoqlarning, ya‘ni mashinasozlik, yoqilg‘i-energetika, kimyo va yengil sanoat kabi tarmoqlarning hissasi ortib bordi. Natijada, 1995-yilga qadar

sanoat ishlab chiqarish hajmi pasayib borgan bo'lsa, 1996-yildan boshlab sanoat ishlab chiqarish hajmi izchil o'sib bormoqda.

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yillik hajmi 2000-yilda 1990-yildagiga nisbatan 1,2 barobar, 2010-yilda 3 barobar, 2015-yilda esa 4.4 barobar o'sdi.

O'zbekiston iqtisodiyotining tarmoq tuzilishini o'zgartirishda yangi neft konlari, Mingbuloq va Ko'kdumaloq konlarining ishga tushirilishi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodining qurilishi, Yangi Angren va Tolimarjon GRESlari qurilishining jadallashtirilishi, metall ishlab chiqarilishining ko'paytirilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin asosiy e'tibor barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashga qaratildi. Bu borada dastlabki palladanoq mamlakatimiz o'z taraqqiyot yo'lini izchil amalga oshirishi natijasida, MDHning boshqa ko'plab mamlakatlaridan farqli ravishda, ishlab chiqarish va aholi turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslikka erishdi.

O'zbekistonda qabul qilingan, «o'zbek modeli» deb nom olgan, ijtimoiy yo'naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishning iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, uning siyosatdan ustunligini ta'minlash, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, qonun ustuvorligiga erishish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirish kabi mashhur besh tamoyilga asoslangan o'ziga xos yo'li – bularning barchasi, ayniqsa 2008-yilda boshlangan va hanuz davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida o'zining nechog'liq to'g'ri va hayotiy ekanini isbotladi. O'zbekistonda 2008–2015-yillar davomida 8 foizdan kam bo'lmagan o'sish sur'atlariga erishib keldi.

Iqtisodiyotimiz va jamiyatimiz hayotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining alohida va muhim o'rin tutishini hisobga olib, 2013-yilda 2013–2020-yillarda O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi qabul qilindi. Ushbu dastur doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar 2014-yilda mamlakatimizda barcha avtomat telefon stansiyalarini raqamli tizimga o'tkazishni yakunlash uchun zamin yaratdi. Bu esa xalqaro axborot tarmoqlaridan foydalanish tezligini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi.

Mamlakatimizda internetdan foydalanuvchilar soni yil sayin ko'payib bormoqda. Bugungi kunda ular 10 million 200 ming kishidan oshdi yoki mamlakatimiz aholisining uchdan bir qismini tashkil etmoqda. Respublikamizda internetning o'tkazuvchanlik darajasi 4 barobar oshirildi, internetga ulanish tezligi esa 1,5 marta ortdi. Shu bilan birga, undan foydalanish narxi 2013-yilga nisbatan 11,6 foizga kamaydi.

Yangi bazaviy mobil aloqa stansiyalari o'rnatilishi hisobidan aloqaning ushbu zamonaviy, yuqori texnologiyalarga asoslangan tizimi abonentlari soni qariyb 20 million kishini tashkil etdi, ularga ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi qariyb 26 foizga ko'paydi.

Bundan ko'rinadiki, O'zbekistonda mustaqil taraqqiyot davrida ko'p bo'g'inli infratuzilmaning yaratilishi va yangi xizmat turlarining rivojlantirilishi zamonaviy iqtisodiyotni shakllantirishning muhim omili bo'lib xizmat qildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2006-yil 16-maydagi PQ-350-sonli qaroriga binoan ustuvor investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirishni ta'minlash maqsadida tashkil qilingan O'zbekiston Respublikasining «Tiklanish va taraqqiyot» jamg'armasi mablag'lari hisobiga markazlashtirilgan investitsiyalarning moliyalashtirish ko'lami yildan yilga oshib bordi.

Jamg'arma o'z faoliyati mobaynida Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi qurilishi, Xonjiza polimetall konini o'zlashtirish loyihasi, Qamchiq dovoni orqali «Ohangaron-Pungan» magistral gaz tarmog'ining qurilishi, «Farg'ona azot» va «Maksam-Chirchiq» ochiq aksiyadorlik jamiyatlarida yirik ammiak agregatlarining rekonstruksiya va modernizatsiya qilinishi, 500 kVli «G'uzor» kichik stansiyasi va «Surxon» kichik stansiyasi yuqori voltli liniyasi qurilishi, Pomuq va Dengizko'l konlarida siqish kompressor stansiyalarining barpo etilishi, Qo'ng'iro't kompressor stansiyasidagi gaz namini qochirish qurilmasi, Qarshi kaskadi nasos stansiyalarining rekonstruksiya qilinishi, «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasining havo flotini yangilash loyihalari, 400 ta «Mercedes-Bens» rusumli yo'lovchi tashish avtobuslarini xarid qilish loyihalari, Sho'rtan gaz-kimyó majmuasida tozalangan metanni qayta ishlash bazasida suyultirilgan sintetik yoqilg'i ishlab chiqarish zavodini barpo etish, Yangi «Angren» ko'mir konini modernizatsiya qilish

orqali Angren issiqlik elektr stansiyasining 1-5-sonli energiya bloklarini yil bo'yi ko'mir asosida ishlash tizimiga o'tkazish, Navoiy va Toshkent issiqlik elektr stansiyalarida bug'-gaz moslamalarini qurish, Toshkent - Samarqand temiryo'l yo'nalishida foydalanish uchun «Talgo - 250» yuqori tezyurar elektropoyezdlarini xarid qilish, Olmaliq tog'-metallurgiya kombinatini kompleks modernizatsiya qilish kabi ayrim loyihalarni amalga oshirgan bo'lsa, hozirda bu loyihalarning ayrimlarini amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda.

«Tiklanish va taraqqiyot» jamg'armasi hal etadigan yana bir muhim vazifa xorijiy investorlar, moliya institutlari va sheriklarni investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish va amalga oshirish maqsadida mamlakatimizga keng jalb etish hisoblanadi. Jamg'armaning qo'shma loyihalarda ishtirok etishi Osiyo taraqqiyot banki, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi, Islom taraqqiyot banki, Xitoy eksport-import banki, Xitoy Davlat taraqqiyot banki, Koreya taraqqiyot banki, boshqa xorijiy moliya institutlari, bank va kompaniyalarning mablag'lari hisobidan chet el investitsiyasi va kreditlarini jalb etish imkonini berdi.

So'nggi yillarda qariyb 2 ming kilometr avtomobil yo'llari, xususan, O'zbekiston milliy avtomagistrali tarkibiga kiradigan 1,5 ming kilometr uzunlikdagi yo'l tarmoqlari qurildi va rekonstruksiya qilindi.

Temiryo'l sohasida 342 kilometr uzunlikdagi yangi «Navoiy-Uchquduq-Nukus-Sultonuvaystog'» va 223 kilometrlik «Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on» tarmoqlari barpo etildi. 550 kilometrdan ziyod temiryo'l liniyalari elektrlashtirildi. Bugungi kunda 27 rusumdagi yuk va yengil avtomobillar, avtobuslar, minivenlar hamda 15 turdagi zamonaviy qishloq xo'jalik texnikalari ishlab chiqarilmoqda. Mustaqillik yillarida aholining yengil avtomobillar bilan ta'minlanishi 3,5 marta oshgan. O'zbekistonda har ikkinchi oila yurtimizda ishlab chiqarilgan shaxsiy avtomobilga ega.

Avtomobilsozlik sanoati.

Respublikamiz uchun tamomila yangi bo'lgan avtomobilsozlik sanoatining tashkil etilishi bilan O'zbekiston Avtotransport ishlab chiqaruvchilar xalqaro tashkilotining 33-to'laqonli a'zosi sifatida qabul qilindi. Bugungi kunda avtomobilsozlik sanoati Asaka shahrida AQSHning «General Motors» kompaniyasi bilan hamkorlikda yengil avtomobillar

ishlab chiqaradigan, Toshkent shahrida Germaniyaning «Daymler Bens» va Samarqand shahrida Yaponiyaning «Isuzu» kompaniyalari bilan hamkorlikda avtobuslar ishlab chiqaradigan hamda Samarqand shahrida Germaniyaning «MAN» kompaniyasi bilan tashkil etilgan yuk avtomobillari ishlab chiqaradigan yangi zavodlarni o'z ichiga oladi.

Bugun birgina avtomobilsozlik sohasi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, mamlakatimiz istiqbolga erishgandan so'ng o'z faoliyatini boshlagan Asaka avtomobil zavodida yengil avtomobillarning uchta rusumi ishlab chiqarilgan bo'lib, o'sha paytda transport vositalari haqida gap ketganda birgina vodiyning Asaka shahri tilga olinar edi. Hozirda esa Toshkent, Samarqand va Xorazm viloyatlari ham O'zbekiston avtomobil sanoatining markazlari sifatida tilga olinmoqda. Mazkur zavodlar yengil va yuk avtomobillari, maxsus transport vositalarining 100 dan ortiq turlarini ishlab chiqarmoqda. Bu esa o'tgan davr mobaynida yurtimiz avtomobil sanoati qanday shiddat bilan rivojlanganini ko'rsatadi.

2008-yilning mart oyida O'zbekiston avtomobil sanoati hayotida muhim voqea ro'y berdi. Zavod negizida «O'zavtosanoat» aksiyadorlik kompaniyasi va «General Motors» kompaniyasi ta'sis chiligida, yangi «GM Uzbekistan» korxonasi tashkil etildi. Buning natijasida o'zbek avtomobillari yanada zamonaviy va ko'rkam avtomobil rusumlari hisobiga kengaya boshladi. «Chevrolet» brendi ostida «Captiva» rusumli avtomobil ishlab chiqarilishi boshlandi. Shu yilning noyabr oyida esa Asaka avtomobil zavodi konveyeridan o'zida ko'rkam va keng interyerni mujassamlashtirgan millioninchi avtomobil – «Lacetti» avtomobili chiqdi.

Qisqa davr ichida zavodda «General Motors» kompaniyasining yana ikki yangi global rusumi – «Spark» va «Cobalt» avtomobillarini ishlab chiqarish o'zlashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 22-noyabr-dagi «2013–2015-yillarda Xorazm viloyatining sanoat salohiyatini rivojlantirish dasturi to'g'risida»gi 1856-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 21-fevral «Xorazm viloyatida «Damas» rusumli yengil avtomobillarni ishlab chiqarishni tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 51-sonli qaroriga muvofiq viloyatda «GM Uzbekistan» aksiyadorlik jamiyatining Xorazm viloyat filiali – «Xorazm avto» zavodi ishga tushirildi.

Avtomobilsozlikni rivojlantirish va uning ishlab chiqarish salohiyatini yuksaltirishda mahalliyashtirish muhim o‘rin tutishi hech kimga sir emas. Bu iqtisodiyotni barqaror taraqqiy ettirish, yangi ish o‘rinlari tashkil etish, ishlab chiqarishga yangi va samarali texnologiyalarni tatbiq qilishni jadallashtirish imkonini beradi.

Agar zavod tashkil topgan 1995–1996-yillarda «O‘z-DongJu», «O‘z-Dong Von», «O‘z-TongXong», «O‘z-SeMyung» kabi 10 ga yaqin qo‘shma korxonalar faoliyat yuritgan bo‘lsa, hozirgi kunda «O‘zavtosanoat» aksiyadorlik kompaniyasi tarkibidagi 35 dan ortiq yirik qo‘shma va mahalliy ishlab chiqarish korxonalari ishlab turibdi. Bundan tashqari, 300 dan ortiq xususiy korxonalar «O‘zavtosanoat» AK tizimidagi yirik korxonalar uchun zaruriy materiallarni yetkazib bermoqda.

2011-yili O‘zbekistonda «General Motors» korporatsiyasi bilan hamkorlikda dvigatellar ishlab chiqaradigan yangi qo‘shma korxonasi faoliyati yo‘lga qo‘yilganini ham alohida ta’kidlash joiz. Mahalliyashtirish Dasturi asosida tashkil etilgan «General Motors Powertrain Uzbekistan» qo‘shma korxonasi yiliga 132 mingdan ortiq dvigatel ishlab chiqarish quvvatiga ega. Muhimi shundaki, «evro-5» Xalqaro ekologik standartlariga to‘la javob beruvchi o‘zimizda ishlab chiqarilayotgan ushbu dvigatellar Asaka avtomobil zavodiga yetkazib berilishi bilan birga, qator xorijiy mamlakatlarga ham eksport qilinmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «Avtomobil sanoatini 2017–2021-yillarda yanada rivojlantirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi» qarorni imzoladi. Qisqa davr ichida amalga oshirilgan ishlardan yana biri «O‘zavtosanoat» aksiyadorlik kompaniyasi «O‘zavtosanoat» aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi. Shuningdek, Prezident O‘zbekiston Respublikasi avtomobil sanoatini 2017–2021-yillarda rivojlantirish dasturini tasdiqladi. Dasturga ko‘ra, «O‘zavtosanoat» AJ 2021-yilga qadar tovar mahsuloti ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga oshiradi. Ushbu dastur doirasida 800 mln. dollarlik sarmoyalar o‘zlashtiriladi. Shu bilan birga, importning ishlab chiqarish hajmiga nisbatan solishtirma nisbati 12,5 foizga qisqaradi, sanoat korxonalarida mehnat qiluvchilar miqdori esa 1,2 barobarga oshadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston elektrotexnika sanoati ham rivoj topib bormoqda. Ushbu soha ishlab chiqarayotgan maishiy texnikaning 30%

dan ortig'i Rossiyaga eksport qilinmoqda. «O'zeltexsanoat» ma'lumotiga ko'ra, o'zbekistonlik ishlab chiqaruvchilar Rossiyaga asosan xolodilnik, televizor, turli kabellar va yuqori voltli mahsulotlar eksport qilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston mahsulotlari bugungi kunda O'rta Osiyo, Yevropa va Yaqin Sharq mamlakatlariga ham yetkazib berilmoqda. Ushbu yilning birinchi choragida soha korxonalari qiymati salkam 26 mln. dollar bo'lgan mahsulot eksport qilishdi. Bu o'tgan yilga qaraganda 54% ga ko'p. E'tibor bering: sobiq tuzumda yuqoridagi mahsulotlarning barchasi bizga chetdan olib kelingan bo'lsa, bugun esa bu mahsulotlar bizdan chetga eksport qilinmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning bosh maqsadlaridan biri – bu makroiqtisodiy barqarorlikka erishish edi. Bu nimalar bilan izohlanadi?

Makroiqtisodiy barqarorlik, bu milliy valuta almashuv kursining, soliq stavkalari va bojxona bojlarining, xo'jalik sohalarining barqarorligidir. Barqarorlik ishsizlikning past darajasini va iqtisodiy o'sishning ta'minlanishi hisoblanadi. Bu hokimiyatning kuchayishi, jamiyat hayotining har jabhasida qonunlarning so'zsiz amal qilishi va mamlakat oltin-valuta zaxirasining o'sishi orqali ta'minlanadi. «Barqaror iqtisodiy o'sish» makroiqtisodiy barqarorlik tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Barqarorlik – ma'lum bir tizimning tashqi ta'sirlar ostida joriy holatini saqlash qobiliyati hisoblanadi. Makroiqtisodiy barqarorlik esa bu resurslardan foydalanish va aholi turmush darajasi o'rtasidagi uzoq muddatli muvozanatining saqlanishidir.

Xalqaro ekspertlar tomonidan mamlakat miqyosida makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanganlik darajasi quyidagi omillar yordamida baholanadi:

- iqtisodiy o'sish;
- to'la bandlik;
- ichki narxlarning barqarorligi (past darajada inflatsiya);
- milliy valutaning barqarorligi;
- barqaror to'lov balansi;
- davlat budjeti defitsiti YaIMga nisbatan 3 foizdan oshmaganligi;
- mamlakat aholisi orasida daromadlarning odil taqsimlanish darajasi va boshqalar.

Respublikamizda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, valuta bozorini erkinlashtirish, yuqori likvidli tovarlarni sotishning bozor usullarini joriy etish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar aholining keng qatlamlarini tadbirkorlik faoliyatiga faol jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar hamda iqtisodiy islohotlarni izchil davom ettirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqarorlashtirishda soliq siyosatini takomillashtirishga qaratilgan choralar ham muhim rol o'ynaydi. Chunki soliqlar xazinani to'ldiruvchi asosiy manbadir. Shuning uchun ham mustaqillik yillarida mamlakatda mavjud soliq tizimini takomillashtirishga katta e'tibor berildi.

Mustaqillik davrida soliq tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 12-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida Soliq organlari haqida»gi qarori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 18-yanvar "O'zbekiston Respublikasining Davlat Soliq Bosh Boshqarmasini O'zbekiston Respublikasining Soliq Qo'mitasiga aylantirish to'g'risida"gi Farmoni imzolanishi soliq tizimidagi tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda turtki bo'ldi.

1997-yilga kelib faoliyati kengaygan O'zbekiston Respublikasi Soliq Qo'mitasi Davlat Soliq qo'mitasi deb o'zgartirildi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitlarida barcha sohalar qatori soliq tizimiga bo'lgan munosabatlar ham tubdan o'zgardi. U ikkinchi darajali tizimdan bozor iqtisodiyotini amalda tartibga soluvchi muhim vosita va davlat daromadlarini vujudga keltiruvchi bosh manba darajasiga ko'tarildi.

O'zbekiston Respublikasining hozirgi soliq siyosatining muhim xususiyati shundaki, unda strategiyaning aniq belgilanishi, unga erishishning taktik yo'nalishlarining ifodasi sifatida ilmiy asoslangan konsepsiya ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilib borilayotganligidir. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida O'zbekistonning soliq siyosatining strategiyasi sifatida soliq yukini kamaytirish, soliqla tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish kabi muhim masalalar belgilab olingan

bo‘lib, bular iqtisodiyotni tezkor rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning muhim shartlari sifatida belgilab olindi.

Muhtaram Yurtboshimiz ta’kidlab o‘tganidek, soliq siyosatining avvalgi yillaridagi holatining tanqidiy tahlili mazkur sohada bir maromda iqtisodiy o‘sishga, ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirishga, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligi zaruriy darajasini ta’minlashga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolarning mavjudligini ko‘rsatdi. Mavjud tizimli muammolarni bartaraf etish, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida keng jamoatchilik muhokamasi natijalari hamda Xalqaro valuta jamg‘armasi, Jahon banki va xalqaro ekspertlarning tavsiyalariga asoslanib ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi. Ushbu konsepsiyada belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida mahalliy budjetlarning daromadlari bazasini tubdan mustahkamlash, yuqori turuvchi budjetlar ajratmalariga qaramligini qisqartirish, uy-joy-kommunal, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiyalash va texnik yangilash bo‘yicha strategik muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirishni so‘zsiz ta’minlash yuzasidan mahalliy davlat hokimiyati organlarining mustaqil ish olib borishi va mas’uliyatini oshirish maqsadida mahalliy budjetlar darajasida soliq-budjet siyosatining ustuvor vazifalari etib belgilandi. Ta’kidlash joizki, bu jarayonda mustaqil budjet tizimimizga ega bo‘lgan davrdan buyon eng yuqori ko‘rsatkich 2018-yilga tegishli bo‘lmoqda, ya’ni davlat budjetiga soliq tushumlarining prognozi 2018-yilda 62229,5 mlrd. so‘m qilib belgilangan bo‘lsa, dastlabki rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra davlat budjetining ijrosi 74500 mlrd. so‘mdan ortiq bo‘lgan, bu esa qariyb 20 % ga ortig‘i bilan bajarildi. Oxirgi ikki yildagi prognoz ko‘rsatkichlarining yuqori bo‘lishining asosiy sabablari sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyun «Mahalliy budjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlari vako-

latlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, 2017-yil 18-iyul «Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, 2018-yil 29-iyun «O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida»gi Harakatlar strategiyasining soliq tizimini isloh qilish borasidagi vazifalarning amalga oshirilishi natijalari va keng qamrovli iqtisodiy islohotlardan ko'zlangan maqsadlarga erishish yo'lidagi Farmoni, 2018-yil 26-iyun PQ-3802-son «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlarida belgilab berilgan vazifalarning izchillik bilan amalga oshirilishi bo'yicha soliq ma'murchiligining yanada takomillashtirilishi va soliqlarni undirish mexanizmlarining soddalashganligini keltirish mumkin.

Xususan, mahalliy budjetlar ixtiyorida 5,5 trillion so'm yoki o'tgan yilga nisbatan 6 barobar ko'p mablag' qoldi, holbuki, 2017-yilda 960,2 mlrd. so'm, 2016-yilda esa, atigi 176,8 mlrd. so'm hududlar ixtiyorida qolgan bo'lsa, agar buni viloyatlar kesimida ko'radigan bo'lsak, Andijon viloyatida 2017-yilda 61,2 mlrd. so'm viloyat mahalliy budjetida qoldirilgan bo'lsa, 2018-yil yakunlariga binoan bu ko'rsatkich 2796 mlrd. so'mga yetdi. Sirdaryo viloyatida 30,0 mlrd. so'mdan 171,0 mlrd. so'mgacha, Xorazm viloyatida 41,3 mlrd. so'mdan 195,4 mlrd. so'mga oshdi, 2017-yilda tadbirkorlardan undiriladigan qat'iy belgilangan soliq tushumlari respublika bo'yicha 1 042,9 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilda soliq stavkalari o'rtacha 30 foizga kamayganligiga qaramasdan, 1 127,6 mlrd. so'mga va o'sish 108,1 foizga teng bo'ldi. Bu konsepsiya doirasida 2019-yil 1-yanvardan boshlab soliq siyosatida mutlaqo yangi tizim joriy etildi.

2019-yil 1-yanvardan soliq tizimida amalga oshirilgan o'zgarishlarga kelsak, soliq islohotlari konsepsiyasiga muvofiq jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishni takomillashtirish maqsadida barcha fuqarolar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining yagona stavkasi 12 foiz miqdorida joriy etildi.

Mehnatga haq to'lash jamg'armasiga soliq yukini kamaytirishning yana bir tadbirlaridan biri, bu – yagona ijtimoiy to'lov stavkalarining 25 foizdan 12 foizgacha kamaytirilishi bo'ldi, bunda budjet tashkilotlari

va davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar uchun tatbiq qilinmaydi. Natijada soliq to'lovchilar ixtiyorida qoladigan mablag'lar 2,9 trillion so'mni tashkil qiladi.

Fuqarolarning mehnatga haq to'lash turidagi daromadlaridan fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari (stavkasi 8 foiz) bekor qilindi.

Foyda solig'i to'lovchilarga soliq yukini kamaytirish, investitsiyalar miqdorini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

- tijorat banklari uchun foyda solig'i stavkasi 22 foizdan 20 foizgacha;
- korxonalar va tashkilotlar uchun 14 foizdan 12 foizgacha;
- dividend va foiz ko'rinishidagi daromadlar uchun 10 foizdan 5 foizgacha kamaytirildi.

Yuridik shaxslarning aylanmasidan (tushumi) undiriladigan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar bekor qilindi. Bu ajratma 15 foiz rentabellik bilan ishlaydigan korxonalar uchun 21,3 foizlik foyda solig'i bilan tengdir. Demak, foyda solig'i stavkasi bilan birga umumiy soliq yukining kamayishi qariyb 23,5 foizni tashkil qiladi. Buning hisobiga respublika bo'yicha soliq to'lovchilarning ko'radigan foydasi 5 trillion so'mdan ortiqni tashkil qiladi.

Soliq solishning soddalashtirilgan rejimidagi soliq to'lovchilarga soliq siyosatini takomillashtirishning salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 5 foizdan 2 foizgacha pasaytirildi. Yillik aylanmasi 1 milliard so'mgacha bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 5 foizdan 4 foizgacha kamaytirildi.

Yillik aylanmasi 100 million so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari 13–40 foizga kamaytirildi. Yillik aylanmasi 100 million so'mdan yuqori va 1 milliard so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlarga aylanmadan 4 foizlik stavkada soliq to'lashga o'tkazish yo'li bilan qat'iy belgilangan soliq bekor qilindi.

2019-yil 1-yanvardan boshlab, o'tgan yil yakunlari bo'yicha yillik aylanmasi (tushumi) 1 milliard so'mdan oshgan yoki yil davomida belgilangan chegaraviy miqdorga yetgan korxonalar umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tkazildi.

Sirasini aytganda, soliq tizimidagi bu kabi o'zgarishlar aholi daromadlarini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Soliq siyosatidagi bu o'zgarishlar tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shu yil 26-sentabr «O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq, soliq siyosatida ayrim o'zgarishlar amalga oshirildi.

– Prezidentimiz Farmoniga binoan, 1-oktabrdan qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi amaldagi 20 foizdan 15 foizgacha kamaytirildi.

– O'zbekiston Respublikasi davlat budjetiga tushumning uchdan birini qo'shilgan qiymat solig'i tashkil etadi. Bu mamlakat oldida turgan ko'plab xarajatlar uchun muhim manba hisoblanadi.

Bugun budjet tashkilotlarida 1,7 million aholi doimiy ish bilan band, 3 milliondan ortiq pensiya yoshidagi fuqarolar bor. Davlat tomonidan ularga har oy maosh va nafaqalar beriladi. Davlat o'z oldida turgan ana shunday majburiyatlarni to'la bajarishi uchun o'tgan vaqt davomida qo'shilgan qiymat solig'ini 20 foizda ushlab turishga to'g'ri keldi.

Ammo Prezident Shavkat Mirziyoyevning uzoqni ko'zlab ish tutishi natijasida tadbirkorlar yaratilgan soliq imtiyozlaridan oqilona foydalanib, o'z faoliyatini yanada jonlantirishdi. Buning natijasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining davlat budjetiga tushumi ikki baravarga ortishi kuzatildi. Yilning birinchi yarmida qo'shimcha 571 ming soliq to'lovchi aniqlandi. Daromad solig'i davlat budjetini shakllantiruvchi uchinchi soliq turi ekani qayd etildi.

Ayni shu natijalar qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini pasaytirish qarorini qabul qilishga turtki bo'ldi. 15 foizlik stavkani 2020-yil 1-yanvardan joriy etish taklifi ilgari surilgan edi. Ammo davlatimiz rahbari bu amaliyotni 1-oktabrdan joriy qilish va iqtisodiyotda biznes uchun yangiliklar yaratish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasining tushirilishi natijasida respublika miqyosida xo'jalik yurituvchi subyektlar ixtiyorida 10 trillion so'mdan ortiq aylanma mablag' tejab qolinadi.

2020-yildan boshlab yagona ijtimoiy to'lov O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi

daromadini shakllantiruvchi asosiy to'lov manbayi hisoblanadi. Shu bois yil boshidan mehnat haqiga soliq yukini kamaytirish jarayonida yagona ijtimoiy to'lovni saqlab qolish va ulardan tushadigan tushumlarni keskin xavf ostiga qoldirmaslik maqsadida ustav kapitalida davlat ulushi bo'lgan korxonalar uchun avvalgi 25 foizlik stavka saqlab qolingani edi. Qolgan xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun ushbu raqamlar 12 foizgacha kamaytirildi. Hozirgi kunda mamlakatimizda davlat ulushi bo'lgan 4 ming 609 korxonalar mavjud. Ularda qariyb 665 mingga yaqin kishi ish bilan band. Yangi amaliyot sabab ular hisobida 2,7 trillion so'm mablag' jamg'arib qolinadi. Shu tariqa korxonalar o'z faoliyatini rivojlantirish, xodimlarga qo'shimcha maosh to'lash imkoniga ega bo'ladi.

Yangi Soliq kodeksi qabul qilindi.

2020-yil 7-yanvar kuni «O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi» qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimcha kiritish, shuningdek, ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi Qonun imzolandi (O'RQ-601-son Qonun).

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi quyidagilarni nazarda tutadi:

- kodeksdan muayyan to'lovlar va yig'implarni chiqarib tashlash va ularni alohida qonunlarga o'tkazish (davlat boji, bonuslar, yig'implar);
- ayrim soliqlarning (ijtimoiy soliq, aylanmadan olinadigan soliq) nomi va tuzilmasini o'zgartirish;
- ayrim soliq to'lovchilar (qishloq xo'jaligi korxonalari, oilaviy korxonalar) uchun soliq imtiyozlarini bekor qilish.

Shundan kelib chiqib qator qonunlarga tegishli o'zgartirishlar kiritildi:

1) yangi tahrirdagi Soliq kodeksida yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun bonuslar kabi to'lovlar mavjud emas. Bonuslar «Yer osti boyliklari to'g'risida»gi Qonunga o'tkazildi (2018–XII-son Qonun). Bonuslarga soliq solish tartibi saqlab qolingani holda (ham imzoli bonus, ham tijoratbop topilma bonusi) imzoli bonusning eng kam miqdorining miqdorlari o'zgardi. Endi foydali qazilmalarni qidirish va razvedka qilish huquqi uchun ular: uglevodorodlar – 5 000 BHM; oltin – 1 000 BHM; qimmatbaho (oltindan tashqari), noyob va asl metallar – 500 BHM; rudali foydali qazilmalar (bundan oltin, qimmatbaho, noyob va asl metal-

lar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi mustasno) – 250 BHM; noruda foydali qazilmalar – 50 BHMni tashkil etadi;

2) yangi tahrirdagi Soliq kodeksida ekinzorlarning maydoniga bog‘liq holda aylanmadan olinadigan soliq yoki umumbelgilangan tartibda soliqlar to‘lashi kerakligi nazarda tutilgan. Shu bilan birga umumbelgilangan tartibda soliqlar (QQS va boshqalar) to‘lovchi korxonalar uchun foyda solig‘i bo‘yicha nol darajali stavka belgilanadi. Shu munosabat bilan «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi Qonunga (602–I-son Qonun) o‘zgartirishlar kiritildi;

3) amaldagi «Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida»gi Qonunga muvofiq (O‘RQ–327-son Qonun) oilaviy korxonalar YaST to‘laydi. Bunda uy sharoitida ishlab chiqarilgan xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san‘ati buyumlarini realizatsiya qilishdan olingan tushum bo‘yicha ham ular YaST to‘lashdan ozod qilingan. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga muvofiq «Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida»gi Qonunga oilaviy korxonalar barcha boshqa korxonalar kabi tushum hajmiga bog‘liq holda: aylanmadan olinadigan soliq yoki umumbelgilangan tartibda soliqlar to‘lashni nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar kiritildi;

4) «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunga (69–II-son Qonun) tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash sohasida mahalliy davlat hokimiyati organlari vakolatlari qismida o‘zgartirishlar kiritildi. Xususan, kodeksning yangi tahririga muvofiq mahalliy davlat hokimiyati organlarining mahalliy soliqlar bo‘yicha imtiyoz belgilash huquqi bekor qilinadi;

5) yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qabul qilinishi munosabati bilan boshqa qonunlarga ham (O‘RQ-313, O‘RQ-379, O‘RQ-417, O‘RQ-436, O‘RQ-454, O‘RQ-456, O‘RQ-476, O‘RQ-497, O‘RQ-508-son) o‘zgartirishlar kiritildi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida iqtisodiyotning boshqaruv tizimi tubdan o‘zgartirildi, xo‘jalik yuritishning bozor iqtisodiyotiga mos yangi tizimi yaratildi. Bozor infratuzilmasi asoslari barpo qilindi. Mamlakatimiz iqtisodiy tanazzul davridan o‘tib oldi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishildi, iqtisodiy o‘sishni ta‘minlovchi zarur shart-sharoitlar vujudga keldi. Xususiy mulkchilikning huquqiy asoslari yaratildi. Davlat mulkini xususiy lashtirish natijasida ko‘p ukladli ikti-

sodiyot shakllandi. Eng muhimi, odamlarimizning tafakkuri, hayotga bo‘lgan munosabati tubdan o‘zgarmoqda. Turmush darajasi, oilasining farovonligi o‘ziga bog‘liq ekanligini tushunib yetayotgan odamlar tobora ko‘payib bormoqda

Nazorat savollari:

1. Mustaqillik yillarida bozor munosabatlariga o‘tishda iqtisodiyotda qanday o‘zgarishlar ro‘y berdi?
2. Mustaqillik yillarida milliy-ma’naviy qadriyatlarni tiklashga qanday e’tibor berildi?
3. Soliq sohasida o‘tkazilgan islohotlar haqida gapirib bering.
4. Milliy istiqloq g‘oyasini shakllantirishda nimalarga e’tibor berildi?
5. Mamlakat strategik taraqqiyotining yangi bosqichga ko‘tarilishini nima bilan izohlaysiz?
6. Davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sohasidagi yangicha islohotlar va yangilanishlarga baho bering.

7. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI IJTIMOIY O‘ZGARISHLAR

7. 1. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat tizimini yaratishning zarurati, ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari

Respublika uchun ijtimoiy himoyalash tizimini tanlab olishda xalqning uzoq yillar davomida qaror topgan ma’naviy, axloqiy qadriyatlarini, turmush tarzi va dunyoqarash xususiyatlari hisobga olinadi.

Faol ijtimoiy siyosat yurguzish – O‘zbekiston konsepsiyasida aholining keng qatlamlari, eng avval uning nochor guruhlarining ijtimoiy himoyasini ta’minlash chora-tadbirlarini ko‘rish zarur, deb qaraladi. Himoyalash dasturlari aholining ruhiyati va ko‘nikmalarini e’tiborga olishi zarurligidan kelib chiqadi. Shuningdek, ushbu tamoyil bozor islohotlarining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan kuchli ijtimoiy siyosatga yetarli baho berilmagan joyda ijtimoiy keskinlik va qarama-qarshilik vujudga kelishini, bu esa, o‘z navbatida, islohotlarni obro‘sizlantirib qo‘yishi mumkinligini nazardan chetda qoldirmadi. Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekiston SSSRning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan eng rivoj topmagan mintaqasi edi. Farovonlik va sanoat rivojlanishining ko‘pgina ko‘rsatkichlarga ko‘ra u Ittifoqdagi o‘rtacha statistik darajadan ancha orqada edi.

Shu o‘rinda quyidagi ma’lumotlarni ham keltirishni lozim topdik.

1989-yilda O‘zbekiston aholisi jon boshiga iste’mol qilingan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari miqdori (1 kishiga kilogramm hisobida)

3-jadval

	Mahsulot turi	SSSR	O‘zSSR
1	Go’sht va go’sht mahsulotlari	67	31
2	Sut va sut mahsulotlari	363	201
3	Tuxum	268	119
4	Kartoshka	98	25
5	Sabzavot va poliz	95	95
6	Meva va rezavor	41	27
7	Non va non mahsulotlari	129	167

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston iqtisodiyoti asosan xomashyo ishlab chiqarishga ixtisoslashganligi bois qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish ulushi juda kam edi. Masalan, mamlakatda paxta yetishtiradigan yetakchi respublika O'zbekiston o'z hududida yetishtirilgan xomashyoning 8 foizinigina qayta ishlardi. Tabiiyki, bu aholining turmush darajasida, ayniqsa iste'molida aks etar edi. 2-jadvalda aks etgan ma'lumotlar tahliliga ko'ra O'zbekistonda aholi jon boshiga Ittifoq ko'rsatkichiga nisbatan 46,3 foiz, qariyb 2 baravar, ilmiy asoslangan me'yorlardan esa 2,5 baravar kam edi. Past kaloriyalı non mahsulotlarini iste'mol qilish esa Ittifoq darajasidan 33 foiz yuqori edi. BMT taraqqiyot dasturi ma'lumotlariga ko'ra, 90-yillarning o'rtalariga kelib Markaziy Osiyo jahonning eng qashshoq mintaqalari qatoridan o'rin oldi. Ayrim hisob-kitoblarga ko'ra, qashshoqlik darajasi Qozog'iston va O'zbekistonda taxminan 30–35 foiz, Turkmanistonda 50 foiz, Qirg'izistonda 60 foiz, Tojikistonda 70 foizni tashkil etgan. Islohotlarimizning me'mori Islom Karimov 1991-yil 7-martda «Комсомольская правда» gazetasining muxbiri savollariga javoblarida: «Men birinchi marotaba yuksak minbardan turib O'zbekistonda 9 milliondan ziyod kishi bechorahol kun ko'rayotganini, aholining 47 foizga yaqinini alohida shart-sharoitga muhtoj bolalar tashkil etishini, bizda o'lim ko'rsatkichi mamlakat bo'yicha juda yuqori darajada bo'lib qolayotganini aytganman. Biz haqiqatni gapirganimizdan keyin odamlar orqamizdan ergasha boshladi», deb ta'kidlagan edilar. Iqtisodiyot ilmidagi iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillar aholi turmush darajasi va sharoitlari bilan bog'liq muammolar va ziddiyatlar hisoblanadi. «Milliy davlatchilikni shakllantirish, demokratik islohotlarni amalga oshirish, iqtisodiyotni bir holatdan ikkinchi holatga o'tkazish hamda bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy muammolarga alohida e'tibor berish zarur»ligi taraqqiyotning «o'zbek modeli»da inobatga olingan. Chunki, «Tarix sabog'i shundaki, uning aynan keskin burilishlarida, ijtimoiy formatsiyalar almashinayotganda ijtimoiy muammolar va ziddiyatlar g'oyat keskinlashadi, milliy xavfsizlikka, fuqarolar tinchligiga va barqarorlikka tahdid soluvchi omilga aylanadi». Keng ko'lamdagi uzoq muddatli isloh qilish jarayonining dastlabki bosqichini Islom Karimov eng qiyin, ijtimoiy portlash xavfi

bo'lgan bosqich, deb atagan edilar. Chunki, o'tish davrining o'zi ko'p hollarda bir qancha hal qilinmagan ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi va ular zamiridagi larzaga soladigan kuchni o'zida saqlab turadi. Ushbu fikrlarga tayangan holda ayrim iqtisodchi olimlar iqtisodiy xavfsizlikka rahna soluvchi omillar qatoriga aholining turli qatlamlari daromadlarida tabaqalashuv darajasining yuqoriligini kiritadi. O'zbekistonda 1991-yili, xorijiy ekspertlarning bergan baholariga ko'ra, aholining 57 foizi kambag'allik chegarasida turgan. Kambag'allikning asosiy sababi o'sha davrda iqtisodiyotning yetarlicha rivojlanmaganligi, xususiyl mulkning taqib qilinganligi bo'lgan. 1990-yilda O'zbekistonning respublikalararo savdo oborotida salbiyl saldo 3,7 milliard rubl yoki yalpi milliy mahsulotning 11 foizga yaqinini tashkil etgan. Shu bois ham Islom Karimov «iqtisodiyotni rivojlantirmasdan turib, aslo ozod va farovon jamiyat qurib bo'lmasligi aniq. Shuning uchun ham biz davlat tizimini o'zgartirishga kirishdik» deb bejizga aytmagan. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda asossiz oligarxlarning bo'lishiga yo'l qo'yilmadi. Mamlakatimizda mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab jamiyatning ijtimoiyl tabaqalashuv darajasini kamaytirishga alohida e'tibor berilmoqda, sodda qilib aytganda o'ta boylar ham, o'ta kambag'allar ham bo'lmasin, degan prinsipga amal qilinmoqda. Bu haqda so'z yuritganda, sobiq Ittifoq hududidagi boshqa mamlakatlardan farqli ravishda, O'zbekistonda daromadlar darajasi bo'yicha aholining keskin tabaqalanishi mavjud emasligini ta'kidlash lozim. Yurtimizdagi aholining ta'minlangan 10 foizi va yetarlicha ta'minlanmagan 10 foizining daromadlari o'rtasidagi farq barqaror pasayib bormoqda. Bu raqam 2010-yildagi 8,5 foiz o'rniga 2015-yilda 7,7 foizni tashkil etdi. Jahon tajribasida jamiyatda ijtimoiyl tabaqalanish va xavfsizlik darajasini baholashning yana bir mezoniy – daromadlar o'rtasidagi farqni ifoda etadigan Jini indeksidan keng foydalaniladi. Jini indeksi – aholi daromadlarining amalda taqsimlanishi faraz qilingan ideal teng taqsimlanish darajasidan og'ish ko'rsatkichi. Lourens egri chizig'i shunday bir chiziqki, uning koordinatalari (X) taqsimlangan daromadlarning o'sib boruvchi foizini va (Y) daromaddan tegishli foiz olgan aholi sonini ko'rsatadi. Jini indeksi Lourens egri chizig'i bilan daromadlarni taqsimlashdagi mutlaq tenglik chizig'i o'rtasidagi maydondir. Masalan, Jini indeksi 0

ga teng bo'lsa, bu mamlakatda daromadlar ideal darajada teng, 100 ga teng bo'lsa – mutlaqo notekis taqsimlanishini anglatadi. Misol uchun, O'zbekistonda Jini indeksi mamlakatimizda 2010-yildagi 0,390 o'rniga 2015-yilda 0,280 ni tashkil etdi». Bu natija, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tavsiyalariga binoan 0,35–0,37 miqdorida belgilangan xalqaro standartlar nuqtayi nazaridan qaraganda, aholimizning ijtimoiy farovonligi muttasil o'sib borayotganidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqida: «Biz jamiyatning ijtimoiy tabaqalanish darajasini pasaytirish, mamlakatimizda o'ta boylar ham, o'ta kambag'allar ham bo'lmasligi bo'yicha Islom Abdug'aniyevich tomonidan belgilab berilgan siyosatni qat'iy davom ettiramiz» deganlarida iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlikni mustahkamlash va ijtimoiy keskinlikni oldini olish va barqarorlikni ta'minlash maqsadini ko'zlagan edi. Boshqacha aytganda, mamlakatimiz aholisi daromadlarida o'ta keskin farq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik borasida izchil ish olib borilmoqda. Mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj toifalarga kam ta'minlanganlar, ko'p bolali onalar, nogironlar, yolg'iz qariyalar va boshqalar kiradi. Har qanday tuzum va jamiyatda aholining bunday toifalari u yoki bu darajada uchraydi. Adolatli jamiyat hamisha ularni himoya qilishni o'z zimmasiga oladi. Shuning uchun ham O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishganidan keyin kuchli ijtimoiy siyosat yuritdi. Ijtimoiy sohaga muhim e'tibor hozirgi paytda ham davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar mohiyati xalqaro ekspertlar tarafidan aynan “ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish” deb ham nomlandi. Bu bejiz emas edi.

Chunki bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan boshqasiga, ayniqsa, unga mohiyatan tamoman zid bo'lgan ijtimoiy-siyosiy tuzumga o'tish hamisha murakkab kechadi. Bu aholining muayyan qismi hayotida keskin tarzda aks etadi. Bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tayotganda, xususan, eski ishlab chiqarish tizimi, mavjud iqtisodiy integratsiya tabiiy ravishda izdan chiqadi, ularning barini yangidan shakllantirishga to'g'ri keladi. Shuningdek, mulkka egalik qilishning shakli o'zgaradi, davlat korxo-

nalari, hatto, ekin yerlari egalari o'zgaradi, ishchi kuchi ham bevosita bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari asosida qayta taqsimlanadi. Demak, ijtimoiy himoyaga muhtojlar safining o'zgarib, ya'ni kamayib-ko'payib turishi ham tabiiy holdir.

Shuning uchun bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida aholining himoyaga muhtoj qismini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning kafolatli tizimi yaratilmas ekan, bu og'ir ijtimoiy mushkulotlarga olib kelishi mumkin. Mustaqil O'zbekistonda avval-boshdan bu borada oqilona yo'l tutildi.

O'zbekiston xalqining o'ziga xos xususiyatlari hamda ilg'or jahon tajribalarini mujassamlashtirgan bu taraqqiyot modeli negizida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish maqsadi ham yotadi.

Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asl maqsadi insonga munosib yashash va faoliyat ko'rsatish sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat. Shu sababli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning butun davri davomida aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish obyektiv zaruratdir.

Respublikada aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi:

birinchi yo'nalish – narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rta darajasini muntazam oshirib borish;

ikkinchi yo'nalish – respublikaning ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish;

uchinchi yo'nalish – islohotlarning dastlabki bosqichida aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash.

Davlatning ijtimoiy siyosati tabaqalashgan soliq solish yo'li bilan muayyan markazlashgan daromadlarni shakllantirish va ularni aholi turli guruhlari o'rtasida budjet orqali qayta taqsimlashdan iborat. Davlat daromadlarni qayta taqsimlashda ijtimoiy to'lovlar bilan birga bozor narxlarini o'zgartirish (masalan, fermerlarga narxlarni kafolatlash) va ish haqining eng kam darajasini belgilash usullaridan foydalanadi.

Ijtimoiy to'lovlar – kam ta'minlanganlarga pul yoki natural yordam ko'rsatishga qaratilgan tadbirlar tizimi bo'lib, bu ularning iqtisodiy faoliyatda qatnashishi bilan bog'liq bo'lmaydi. Ijtimoiy to'lovlarning maqsadi jamiyatdagi munosabatlarni insonparvarlashtirish hamda ichki talabni ushlab turish hisoblanadi.

Aholi real daromadlari darajasiga inflatsiya sezilarli ta'sir ko'rsatishi sababli daromadlarni davlat tomonidan tartibga solishning muhim vazifasi iste'mol tovarlari narxlarining o'sishini hisobga olish va daromadlarni indeksatsiyalash, ya'ni nominal daromadlarni narxlar o'sishiga bog'liqlikda oshirib borish hisoblanadi.

Shaxsiy daromadni himoya qilishda ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishi aholi kambag'al qatlamini qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

Amaliy hayotda qashshoqlikning o'zi hayot kechirish minimumi yordamida aniqlanadi. Bu ijtimoiy va fiziologik (jismoniy) minimumda ifodalanadi. Ijtimoiy minimum jismoniy ehtiyojlarni qondirishning minimal me'yori bilan birga ijtimoiy talablarning minimal xarajatlarini ham o'z ichiga oladi. Fiziologik minimum esa faqat asosiy jismoniy ehtiyojlarni qondirishni ko'zda tutadi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda aholining ijtimoiy yordamga muhtoj qismini aniqlashda turli xil mezonlar asos qilib olinadi. Ular jumlasiga daromad darajasi, shaxsiy mol-mulki miqdori, oilaviy ahvoli va shu kabilar kiritiladi.

Ijtimoiy siyosat – bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni yumshatishga va bozor iqtisodiyoti qatnashchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan siyosatdir.

Respublikada bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy siyosat aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va himoya qilishga qaratiladi hamda alohida yirik yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Bu yo'nalishlar I.A.Karimovning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» kitobida to'liq bayon qilib berilgan.

Aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng asosiy yo'nalish – bu narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish hisoblanadi. Bunda respublikaning o'zi-

ga xos yondashuvi ishlab chiqilib, daromadlar nisbatini o'zgartirish, ish haqi, pensiyalar, stipendiyalarning, jamg'arma banklardagi aholi omonatlari stavkalarining eng oz miqdorini bir vaqtning o'zida qayta ko'rib chiqish yo'li bilan amalga oshiriladi. Daromadlar nisbatini o'zgartirishda 1993-yil joriy etilgan yangi yagona tarif setkasi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu barcha toifadagi xodimlarning mehnat haqi miqdorlarini tarif koeffitsiyentlari orqali, eng kam ish haqi vositasi bilan bevosita o'zaro bog'lash imkonini berdi.

Aholini ijtimoiy himoyalashning ikkinchi yo'nalishi – ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish bo'ldi. Bunga erishishda muhimi mahsulotlar eksportini bojxona tizimi orqali nazorat qilish va ularga yuqori boj to'lovlari joriy etish, kundalik zarur tovarlarni me'yorlangan tarzda sotishni tashkil qilish kabi tadbirlar katta ahamiyatga ega bo'ldi. Milliy valuta joriy etilishi bilan oziq-ovqat mahsulotlarini me'yorlangan tarzda sotishdan voz kechish erkin narxlarga o'tish imkoniyatini yaratadi.

Iqtisodiy islohotlarning ilk bosqichida ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning uchinchi yo'nalishi – aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash borasida kuchli chora-tadbirlar o'tkazilganligi bo'ldi. Bu yo'nalishda aholining ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlari – pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o'quvchi yoshlar hamda qayd etilgan miqdorda daromad oluvchi kishilar turli xil yo'llar bilan himoya qilib borildi.

«Ma'lumki, mamlakatimizda qishloqdagi kam ta'minlangan oilalarni bepul sigir ajratish yo'li bilan qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2006-yildan hozirga qadar ana shunday oilalar uchun 103 mingdan ziyod qoramol berildi. Natijada 2009-yilning 1-yanvarigacha shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida qoramol boquvchi sifatida ro'yxatga olingan fuqarolarning umumiy soni 1 million 100 mingdan ko'proqni tashkil etdi. Shulardan 54 ming kishiga yangi mehnat daftar-chasi berildi, 111 ming fuqaroning esa mavjud mehnat daftar-chasiga ish staji tegishli tartibda qayd etildi».

Yalpi ijtimoiy himoyalash tizimidan ishonchli ijtimoiy kafolatlar va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimiga izchillik bilan o‘tish – ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga, ijtimoiy himoya vositasini kuchaytirishda sifat jihatdan yangi bosqich boshlashini bildiradi.

Yangilangan ijtimoiy siyosat adolat tamoyillariga izchillik bilan rioya qilishga asoslanib, ijtimoiy ko‘maklashishning mavjud usullarini va pul bilan ta‘minlash manbalarini tubdan o‘zgartirishni taqozo qiladi. Bu siyosat ijtimoiy himoyaning aniq maqsadi va aholining aniq tabaqalarini qamrab olishni ko‘zda tutadi. Yordam tizimi faqat kam ta‘minlangan va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nisbatan qo‘llanilib, shu maqsad uchun davlat manbalari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, turli tashkilot hamda jamg‘armalarning mablag‘laridan ham foydalaniladi.

Ijtimoiy ko‘maklashishning yangi tizimida bolalar va kam daromadli oilalar yordamdan bahramand bo‘luvchi asosiy kishilar hisoblanib, ular uchun hamma nafaqa va moddiy yordamlar faqat mahalla orqali yetkazib beriladi. Shu maqsadda mahallalarda budjet mablag‘lari, korxonalar va tashkilotlar, tadbirkorlik tuzilmalari va ayrim fuqarolarning ixtiyoriy o‘tkazgan mablag‘lari hisobidan maxsus jamg‘armalar hosil qilindi.

Ijtimoiy ko‘maklashishning yangi tizimi mehnatga rag‘batlantiradigan omillar va vositalar yangi tuzilmasi paydo bo‘lishini ham taqozo qiladi. Shunday qilib, islohotlar davrida davlat aholining muhtoj tabaqalarini qo‘llab-quvvatlash bilan birga, o‘z mehnat faoliyati orqali oilasining farovonligini ta‘minlashga intiluvchi kishilar uchun teng sharoit va qulay imkoniyat yaratishga harakat qiladi. O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar buning yaqqol dalilidir.

Jumladan, yaqin uch yil ichida ish haqini 2–2,5 barobar oshirish bo‘yicha qo‘yilgan strategik vazifaga muvofiq, 2007- yilda ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdori 1,5 barobar ko‘paytirildi. 2007-yilning dekabrda o‘rtacha oylik ish haqi, xo‘jalik subyektlari va budjet sohalarini hisobga olganda, 210 AQSH dollari miqdoriga teng, 2008-yilda esa 300 AQSH dollaridan ortiq bo‘ldi. 2006-yildan boshlab umumta‘lim maktablari o‘qituvchilari va shifokorlar mehnatiga haq to‘lashning yanada takomillashtirilgan tizimi joriy etildi. Natijada keyingi ikki yilda ularning ish haqi miqdori tegishli ravishda 2,8 va 2,7 barobar oshirildi.

Mamlakatimiz aholisi pul daromadlarining oshib borishi o'z navbatida ular turmush sharoiti va sifatining bosqichma-bosqich yaxshilanib borishiga zamin yaratmoqda. Bu esa, o'tgan davrda qator ijobiy o'zgarishlarni qo'lga kiritish imkonini berdi. Jumladan:

– Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm viloyati, Samarqand va Buxoro, Guliston, Jizzax va Qarshi shaharlarida aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlashni yaxshilash bo'yicha yirik investitsion loyihalar amalga oshirildi;

– qishloq joylarda 1,6 ming kilometrdan ortiq suv quvurlari va 710 kilometr gaz tarmoqlari foydalanishga topshirildi;

– aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash 84 foizga, shu jumladan, qishloq joylarda 77 foizga yetdi;

– tabiiy gaz bilan ta'minlash 82 foiz, qishloqlarda esa 77 foizgacha o'sdi.

Ta'lim sohasida ham aniq maqsadli umummilliy ijtimoiy dasturlar amalga oshirilib, o'tgan yil davomida quyidagi salmoqli natijalar qo'lga kiritildi:

– yangi qurilish va kapital rekonstruksiya qilish hisobidan eng zamonaviy o'quv-laboratoriya va ishlab chiqarish asbob-uskunalari jihozlangan 169 ta kasb-hunar kolleji, 18 ta akademik litsey hamda 336 ming nafar o'quvchiga mo'ljallangan 558 ta umumta'lim maktabi ishga tushirildi;

– 170 ta bolalar sporti obyekti, jumladan, 27 ta sport inshooti, 143 ta maktab sport zali barpo etildi.

Prezidentimiz o'tgan yil davomida yurtimizda aholi salomatligini mustahkamlash yo'lidagi ishlarni sarhisob qilib, bu borada quyidagi erishilgan natijalar hamda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni alohida ta'kidlab o'tdi:

– mamlakatimizda umumiy o'lim ko'rsatkichi keyingi 10 yilda qariyb 20 foizga kamaydi;

– go'daklar o'limi ko'rsatkichi yangi tug'ilgan har 1000 nafar chaqaloqqa nisbatan 23 tadan 13 taga tushdi va birgina 2007-yilning o'zida 11 foizga kamaydi;

– 2007-yilda sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilishning ikkinchi bosqichini amalga oshirish bo'yicha maxsus dastur qabul qilinib, u hozirda amalga oshirilmoqda;

- tibbiyot sohasi boshqaruv tizimining barcha bo‘g‘inlari qayta ko‘rib chiqilmoqda;
- davolash-profilaktika muassasalari tarmog‘i qayta tashkil etilmoqda;
- viloyatlarda kattalar va bolalar uchun ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlari barpo etilmoqda;
- qishloq vrachlik punktlari mustahkamlanib, ularning, avvalo, qishloq joylarda kasalliklarning oldini olishga qaratilgan faoliyati kuchaytirilmoqda;
- aholiga yuksak texnologik, noyob tibbiy xizmatlar ko‘rsatadigan respublika ixtisoslashgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari tarmog‘i kengaytirilmoqda.

Shuni e‘tiborda tutish lozimki, respublikamizda keyingi yillarda aholining kam ta‘minlangan va muhtoj qatlamlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ularga moddiy yordam ko‘rsatish borasida aniq yo‘naltirilgan samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish, ta‘lim, kadrlar tayyorlash, sog‘liqni saqlash va aholini ijtimoiy himoya qilish sohalarida maqsadli umummilliy dasturlarni hayotga tatbiq etish yanada faollashtirildi.

«Ijtimoiy himoya yili» davlat dasturi doirasida amalga oshirilgan quyidagi ishlar hamda qo‘lga kiritilgan natijalar quyidagicha bo‘ldi:

- aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadida barcha manbalar hisobidan jami 483600 mln. so‘m, jumladan, 213200 mln. so‘m budget mablag‘i, 270400 mln. so‘m miqdorida grantlar, ijrochilar hamda homiylar mablag‘i sarflandi;

- 15 ta maxsus maktab-internat va «Mehribonlik» uylarida jami 4800 mln. so‘mlik qurilish-ta‘mirlash va jihozlash ishlari bajarildi;

- davlat budjetidan 4600 mln. so‘mga yaqin mablag‘ sarflanib, 28 ta «Mehribonlik» uyi hamda 86 ta ixtisoslashtirilgan maktab-internatga 114 ta zamonaviy avtobus, 4 ta oilaviy bolalar uyiga «Damas» mikroavtobusi berildi;

- yosh oilalarning muammolarini yechish, avvalo, uy-joy sotib olish va imorat qurish, ro‘zg‘orni butlashga ko‘maklashish maqsadida tijorat banklari tomonidan 57500 mln. so‘mlik ipoteka va iste‘mol kreditlari ajratildi va h.k.

Shuningdek, aholini ijtimoiy himoyalash borasidagi ishlar 2008 hamda kelgusi yillarda ham davom ettirilishi belgilandi, bu yo‘nalish-

da bajarilishi zarur bo'lgan vazifalar aniqlandi. Jumladan, agar ijtimoiy sohaga yo'naltirilayotgan mablag'lar davlat budjetining umumiy xarajatlariga nisbatan 2006-yilda 51,9 foizni, 2007-yilda 53,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2008-yilda 54,6 foiz darajasida bo'lishi ta'kidlandi.

2008-yilda «ijtimoiy soha obyektlarini qurish va foydalanishga topshirish masalalariga ustuvor ahamiyat berilishi natijasida 113 ming 200 o'quvchiga mo'ljallangan 169 ta kasb-hunar kolleji va 14 ming 700 o'rinli 23 ta akademik litsey qurildi va rekonstruksiya qilindi. Shu bilan birga, 69 ta yangi maktab barpo etildi va 582 ta maktab kapital rekonstruksiya qilindi. Shular qatorida 184 ta bolalar sporti inshooti, 26 ta qishloq vrachlik punkti va 7 million 240 ming kvadrat metr turar-joy binolari va boshqa obyektlar qurildi». Bularning barchasi mamlakat aholisini ijtimoiy jihatdan har tomonlama qo'llab-quvvatlash va himoya qilish, uning turmush farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa:

1. Aholi pul daromadlari ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlarini, mulkdan foiz, dividend, renta shaklda olinadigan daromadlarni, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, qishloq xo'jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko'rsatishidan kelib tushadigan daromadlarni o'z ichiga oladi. Natural daromad mehnat haqi hisobiga olinadigan va uy xo'jaliklarining o'z iste'mollari uchun ishlab chiqargan mahsulotlaridan iborat bo'ladi.

2. Aholi turmush darajasi tushunchasini ularning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi hamda kishilar ehtiyojining bu ne'matlar bilan qondirilishi darajasi sifatida aniqlash mumkin.

3. Farovonlikning eng quyi chegarasini oila daromadining shunday chegarasi bilan belgilash mumkinki, daromadning bundan past darajasida ishchi kuchini takror hosil qilishni ta'minlab bo'lmaydi. Bu daraja moddiy ta'minlanganlik minimumi yoki kun kechirish darajasi (qashshoqlikning boshlanishi) sifatida chiqadi.

4. Dunyodagi barcha mamlakatlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadlar darajasi bilan bir-biridan keskin farqlanadi. Bu turli

mamlakatlar aholisining daromadlari darajasi oʻrtasida tengsizlik mavjudligini bildiradi.

5. Davlatning ijtimoiy siyosati tegishli markazlashgan daromadlarni tabaqalashgan soliq solish yoʻli bilan shakllantirish va uni budjet orqali aholi turli guruhlari oʻrtasida qayta taqsimlashdan iborat.

6. Aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng asosiy yoʻnalish – bu narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va oʻrtacha darajasini muntazam oshirib borish hisoblanadi.

7. 2. Aholining real daromadlari va ularning koʻrsatgichlari

«Daromad» iqtisodiy faoliyat natijalarini ifodalovchi koʻrsatkich boʻlib, u serqirra va murakkab mazmunga ega hisoblanadi. Chunki, daromad bir vaqtning oʻzida biron-bir faoliyat natijasida olingan tushumni, pul mablagʻlarini, natural koʻrinishda olingan mahsulotlarni, iqtisodiy resurslar keltiruvchi nafni va boshqa tushunchalarni ifodalashi mumkin. Shuningdek, daromad umumiy tushuncha boʻlib, uning tarkibida aholi daromadlari muhim oʻrin tutadi.

Aholining daromadlari maʼlum vaqt oraligʻida (masalan, bir yilda) ular tomonidan olingan pul va natural shakldagi tushumlar miqdorini anglatadi.

Aholining pul daromadlari ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlarini, mulkdan foiz, dividend, renta shaklda olinadigan daromadlarni, qimmatli qogʻozlar, koʻchmas mulk, qishloq xoʻjalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar koʻrsatishidan kelib tushadigan daromadlarni oʻz ichiga oladi.

Aholi shaxsiy daromadining tarkibiy tuzilishi:

- 1) pul va natural shakldagi ish haqi va maosh;
- 2) Qurolli kuchlar xizmatchilarining pul va natural koʻrinishdagi taʼminotlari;
- 3) tadbirkorlarning ajratmalari:
 - a) ijtimoiy sugʻurta va shu kabilarga,
 - b) boshqa maqsadlarga. Ijtimoiy bandlikdan olinadigan daromadlar;

- 4) erkin kasblardagi shaxslar;
- 5) fermerlar;
- 6) boshqa yakka tartibdagi tadbirkorlar va savdogarlar, o'zini o'zi band qilishdan daromadlar;
- 7) renta, sof foiz, dividendlar mulkdan olinadigan daromadlar;
- 8) joriy transfertlar, kompaniyalarning xayriyalari;
- 9) davlat nafaqalari va boshqa to'lovlar transfert daromadlari.

Natural daromad mehnat haqi hisobiga olinadigan va uy xo'jaliklarining o'z iste'mollari uchun ishlab chiqargan mahsulotlaridan iborat bo'ladi.

Jamiyat a'zolari daromadlarining darajasi ular turmush farovonligining muhim ko'rsatkichi hisoblanib, shu bilan birga alohida shaxslarning dam olishi, bilim olishi, sog'lig'ini saqlashi, eng zarur ehtiyojlarini qondirishi imkoniyatlarini belgilab beradi. Aholi daromadlarining darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar orasida ish haqidan tashqari chakana narx dinamikasi, iste'mol bozorining tovarlar bilan to'yinganlik darajasi kabilar muhim o'rin tutadi.

I.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek: «Mustaqillik yillarida odamlarimizning tafakkuri, dunyoqarashi, hayotga bo'lgan munosabati ham tubdan o'zgardi. Turmush darajasi, oilasining farovonligi, eng avvalo, o'ziga bog'liq ekanligini tushunib yetayotgan odamlar tobora ko'payib bormoqda».

Aholi daromadlari darajasiga baho berish uchun nominal, ixtiyorida bo'lgan va real daromad tushunchalaridan foydalaniladi. Nominal daromad – aholi tomonidan ma'lum vaqt oralig'ida olingan daromadlarining pul ko'rinishidagi miqdori.

Ixtiyorida bo'lgan daromad – shaxsiy iste'mol va jamg'arma maqsadlarida foydalanish mumkin bo'lgan daromad. Bu daromad nominal daromadlardan soliq va majburiy to'lovlar summasiga kam bo'ladi.

Real daromad – narx darajasi o'zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori. Ya'ni, real daromad aholining ixtiyorida bo'lgan daromadning xarid quvvatini bildiradi.

Aholining nominal pul daromadlari turli manbalar hisobiga shakllanib, ulardan asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

- a) ishlab chiqarish omillari hisobiga olinadigan daromad;
- b) davlat yordam dasturlari bo'yicha to'lov va imtiyozlar shaklidagi pul tushumlari;
- d) moliya-kredit tizimi orqali olinadigan pud daromadlari.

Respublikamizda 2008-yilda aholining nominal pul daromadlari 2007-yilga nisbatan 34,1 foizga o'sib, 22626,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Aholining pul xarajatlari va jamg'armalari esa tegishli ravishda 34,2 foizga o'sib, 22240,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Mamlakatimizdagi aholi pul daromadlari, xarajatlari va jamg'armalari-rining keyingi yillardagi dinamikasi quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

O'zbekistonda aholi pul daromadlari, xarajatlari va jamg'armalarining dinamikasi (mlrd. so'm)

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2004	2005	2006	2007	2008
Aholi pul daromadlari	7634,4	9728,6	12954,9	16872,7	22626,3
Aholi pul xarajatlari va jamg'armalari	7561,1	9533,0	12680,7	16572,8	22240,7
Pul daromadlarining xarajatlardan farqi	73,3	195,6	274,2	299,9	385,6

Jadvaldan ko'rinadiki, mamlakatimizda aholining pul daromadlari sezilarli darajada oshib bormoqda. Muvofiq ravishda aholining pul xarajatlari va jamg'armalari ham o'smoqda, biroq, bu o'sish daromadlar o'sishi darajasidan ortda qolishi sababli, aholi ixtiyoridagi pul qoldiqlari miqdori oshib bormoqda. Xususan, bu ko'rsatkich 2008-yilda 2004-yildagiga nisbatan 5,3 barobardan oshgan.

O'zbekistonda aholi pul daromadlari va xarajatlari tarkibining tahlili shuni ko'rsatadiki, daromadlarning ahamiyatli qismi mol-mulk, tadbirkorlik faoliyati va qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan olinmoqda (2008-yilda jami pul daromadlarining 49,9 foizini tashkil etgan). Jami daromadlarning 33,3 foizi mehnatga haq to'lash va korxonalaridan olingan boshqa daromadlar hissasiga, 16,8 foiz ijtimoiy transfertlar hissasiga to'g'ri kelgan.

2008-yilda aholining iste'mol sarflari 2007-yilga nisbatan 36,1 foizga o'sib, 16613,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Iste'mol sarflarining pul daromadlari umumiy hajmidagi ulushi 74,7 foizni tashkil qildi.

Aholi pul daromadlari qo'shimcha o'sishining omillari tahlili shuni ko'rsatadiki, agar 2000-yilda bu o'sishning 20,8 foizi tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan va boshqa daromadlar hisobiga ta'minlangan bo'lsa, 2007-yilga kelib bu manzara butunlay o'zgaradi: pul daromadlari qo'shimcha O'zbekistonda aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi tarkibi o'sishining 13,4 foizi mehnatga haq to'lash, 9,9 foizi tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan va boshqa daromadlar, 4 foizi ijtimoiy transfertlar hisobiga ro'y berdi.

Ko'rsatkichlar	2004		2005		2006		2007		2008	
	mlrd. so'm	foiz	mlrd. so'm	foiz	mlrd. so'm	foiz	mlrd. so'm	foiz	mlrd. so'm	foiz
Jami daromadlar	7634,4	100,0	9728,6	100,0	12954,9	100,0	16872,7	100,0	22626,3	100,0
shu jumladan:										
-mehnatga haq to'lash va korxonalaridan olingan boshqa daromadlar	2057,0	26,9	2860,2	29,4	3857,1	29,7	5417,5	32,1	7534,6	33,3
-mol-mulk, tadbirkorlik, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan olingan daromadlar	4593,7	60,2	5448,0	56,0	7135,8	55,1	8786,9	52,1	11290,5	49,9
-ijtimoiy transfertlar	983,7	12,9	1420,4	14,6	1962,0	15,2	2668,3	15,8	3801,2	16,8
Jami xarajatlar va jamg'armalar	7561,1	100,0	9533,0	100,0	12680,7	100,0	16572,8	100,0	22240,7	100,0
shu jumladan:										
-iste'mol sarflari	5871,8	77,7	6911,4	72,5	9538,9	73,6	12409,8	73,5	16613,8	74,7
-majburiy to'lov va badallar	598,7	7,9	667,3	7,0	895,8	6,9	1123,1	6,7	1445,6	6,5
-jamg'armalarining o'sishi	1090,6	14,4	1954,3	20,5	2246,0	17,4	3039,9	18,0	3803,2	17,1

Aholining yollanib ishlovchi qismi oladigan daromadlarining asosiy ulushini ish haqi tashkil etadi. Daromadning bu turi istiqbolida ham pul daromadlari umumiy hajmining shakllanishida o'zining yetakchi rolini saqlab qoladi. Jumladan, O'zbekistonda 2001-yilda mehnatga layoqatli aholining o'rtacha ish haqi kun kechirish uchun minimum darajada

zarur bo'lgan mablag'ning 99 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2007-yilda bu ko'rsatkich 3 barobardan ko'proq oshdi. Ta'kidlash joizki, bu ko'rsatkich MDH mamlakatlari o'rtasida yuqori ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Aholi pul daromadlari qo'shimcha o'sishining omillari

Aholi pul daromadlari darajasiga davlat yordam dasturlari bo'yicha to'lovlar sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu manbalar hisobiga pensiya ta'minoti amalga oshiriladi va turli xil nafaqalar to'lanadi.

Aholining moliya-kredit tizimi orqali olinadigan pul daromadlari quyidagilardan iborat:

- davlat sug'urtasi bo'yicha to'lovlar;
- shaxsiy uy qurilishiga va matlubot jamiyati a'zolariga bank ssudalari;
- jamg'arma bankidagi omonatlar bo'yicha foizlar;
- aksiya, obligatsiya qiymatining o'sishidan olinadigan daromad va zayom bo'yicha to'lovlar;
- lotereya bo'yicha yutuqlar;
- tovarlarni kreditga sotib olish natijasida paydo bo'ladigan vaqtincha bo'sh mablag'lar;
- har xil turdagi kompensatsiya to'lovlar va h.k.

O'zbekistonda aholi jon boshiga real pul daromadlari 2008-yilda 23 foizga o'sdi. Aholi daromadlari ularning turmush darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Aholi turmush darajasi – aholining hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi hamda ular ehtiyojining bu ne'matlar bilan qondirilishi darajasi.

Aholi turmush darajasining BMT tomonidan tavsiya etilgan ko'rsatkichlari tizimi o'z ichiga quyidagi guruhlarini oladi:

- 1) tug'ilish va o'lish darajasi hamda boshqa demografik ko'rsatkichlar;
- 2) hayot kechirishning sanitar-gigiyena jihatidan sharoitlari;
- 3) oziq-ovqat tovarlarini iste'mol qilish;
- 4) turar joy sharoitlari;
- 5) ma'lumot va madaniyat;
- 6) mehnat qilish va bandlik sharoitlari;
- 7) aholining daromadlari va xarajatlari;
- 8) hayot kechirish qiymati va iste'mol narxlarini;

- 9) transport vositalari;
- 10) dam olishni tashkil etish;
- 11) ijtimoiy ta'minot;
- 12) inson erkinligi.

Bu asosiy ko'rsatkichlardan tashqari yana ba'zi bir axborotga oid ko'rsatkichlar ham ajratib ko'rsatiladi: aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi milliy daromad, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi iste'mol hajmi va boshqalar.

Kishilar hayot faoliyati uchun zarur ne'matlar to'plami mehnat sharoiti, ta'lim, sog'liqni saqlash, oziq-ovqat va uy-joy sifati kabi xilma-xil ehtiyojlarni o'z ichiga oladi. Kishilar ehtiyojlarini qondirish darajasi jamiyat a'zolarining alohida olgan va oilaviy daromadlari darajasiga bog'liq. Turmush darajasini mamlakat darajasida (butun aholi uchun) va tabaqalashgan mikrodarajada (aholining alohida guruhi uchun) qarab chiqish mumkin. Birinchi yondashuv turli mamlakatlarda aholining turmush darajasini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichi bo'yicha aniqlab, qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Aholi guruhlari bo'yicha daromadlar taqsimlanishi dinamikasini taqqoslash iste'molchi budjeti asosida amalga oshiriladi. Iste'molchi budjetlarining bir qator turlari mavjud bo'ladi: o'rtacha oila budjeti, yuqori darajada ta'minlangan budjet, minimal darajada moddiy ta'minlanganlar budjeti, nafaqaxo'rlar va aholi boshqa ijtimoiy guruhlari budjeti shular jumlasidandir.

Farovonlikning eng quyi chegarasini oila daromadining shunday chegarasi bilan belgilash mumkinki, daromadning bundan past darajasida ishchi kuchini takror hosil qilishni ta'minlab bo'lmaydi. Bu daraja moddiy ta'minlanganlik minimumi yoki kun kechirish darajasi (qashshoqlikning boshlanishi) sifatida chiqadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'rtacha daromad «o'rtacha sinf» deb ataladigan tabaqalar daromadlari bo'yicha aniqlanadi. Bunday guruh iste'mol savati to'plamiga uy, avtomashina, dala hovli, zamonaviy uy jihozlari, sayr qilish va bolalarini o'qitish imkoniyati, qimmatli qog'ozlar va zeb-u ziynat buyumlari kiradi.

Bozor iqtisodiyoti aholining yuqori ta'minlangan yoki «boy» qatlamining mavjud bo'lishini taqozo qilib, ularga aholining yuqori si-

fatli tovar va xizmatlar xarid qilishga layoqatli bo'lgan juda oz miqdori kiradi. AQSHda aholi bu qismining shaxsiy imkoniyati 8–10 mln. dollar miqdorida baholanadi.

Turmush darajasi kishilarning turmush tarzi bilan uzviy bog'liq. Turmush tarzi – bu kishilar (jamiyat, ijtimoiy qatlam, shaxs)ning milliy va jahon hamjamiyatidagi hayot faoliyati turi hamda usullarini aks ettiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya. Turmush tarzi inson hayot faoliyatining turli jihatlarini qamrab oladi, ya'ni:

- mehnat, uni tashkil etishning ijtimoiy shakllari;
- turmush va bo'sh vaqtdan foydalanish shakllari;
- siyosiy va ijtimoiy hayotda ishtirok etish;
- moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish shakllari;
- kishilarning kundalik hayotdagi xulq-atvori me'yorlari va qoidalari.

7. 3. 2017–2021-yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida aholini ijtimoiy himoya qilish masalalarining asosiy yo'nalishlari belgilanishi

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi e'lon qilinishi hamda bozor munosabatlarining shakllantirila borishi jarayonlarida aholining kam ta'minlangan qatlamlari va himoyaga muhtoj qatlamlarini davlat tomonidan himoya qilish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolaverdi.

O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining yangi bosqichida ham bu masala bosh vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. O'tgan yillar mobaynida mamlakatimiz aholisining moddiy va moliyaviy ahvolidagi bir qator o'zgarishlar kuzatilganligi ma'lum. Mamlakatimiz o'z rivojining yangi davriga qadam qo'ydi. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish pallasiga kirdi. Bu bosqich mamlakatimiz taraqqiyotining muhim davri sifatida tarixda qolishi muqarrar.

2017-yil 7-fevralda imzolangan O'zbekistonni yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan beshta ustuvor yo'nalishdan to'rtinchisida aynan ijtimoiy sohani rivojlantirish ko'zda tutilgan. U quyidagicha bayon etilgan:

“Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real

daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sogʻligʻini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yoʻl-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish boʻyicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, taʼlim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, sanʼat va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish”.

2017-yilning aynan “Xalq bilan muloqot va inson manfaatleri yili” deb nomlanishi amalda davlat siyosatining izchilligidan dalolat beradi.

Bugunga kelib mamlakatimiz oʻz taraqqiyotining muhim bosqichiga kirdi. Ijtimoiy siyosat borasida istiqlol yillaridagi katta tajribalarga suyanan, mavjud anʼanalarni izchil davom ettirgan holda yangi-yangi qadamlar tashlanyapti.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 22-fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish toʻgʻrisida”gi Farmoni bilan 94 nafar shaxs davlatimiz fuqarosi boʻldi. Undan keyin qabul qilingan bir necha farmonlar asosida yana qanchadan qancha kishilar fuqarolikka oʻtdi. Bu ham mamlakat tarixida muhim ijtimoiy voqeelik sifatida baholanadi albatta. 2021-yilga kelib Prezident farmoni asosida uzoq yillar davomida mamlakatimizda yashab, mehnat qilib kelgan 50000 dan ziyod vatandoshlarimiz fuqarolik olishga musharraf boʻlishdi. Bu boradagi ishlar yana davom ettirilishi taʼkidlanib, 15 yildan ortiq Oʻzbekistonda yashagan va Oʻzbekiston fuqaroligini olish istagida boʻlgan vatandoshlarimizga fuqarolik berilishi belgilandi.

Harakatlar strategiyasi asosida ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan ishlar koʻlami esa har qanday kishini mamnun etadi. “2017–2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Prezident Farmoyishida muayyan maʼnoda hozirgacha amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilindi.

Jumladan, ijtimoiy sohadagi eng muhim ishlar ham oʻz aksini topgan. Unda qayd etilishicha, “faqatgina dastlabki yilning birinchi yarmida 2,7 ming kilometr avtomobil yoʻllari qurildi va taʼmirlandi, 84 ming 300 ta ish oʻrni yaratildi. 2017–2020-yillarda shaharlarda energiya jihatdan samarador arzon koʻp kvartirali uylarni qurish va rekonstruksiya qilish das-

turi amalga oshirilmoqda, uning doirasida 50 ming 286 ta xonadondan iborat 1 ming 136 ta ko‘p qavatli uylarni, bundan tashqari, namunaviy loyiha asosida qishloq joylarida 75 ming turar joylarni qurish mo‘ljallangan”.

Ijtimoiy sohaga e‘tiborning ko‘lamini tasavvur qilish uchun, loqaqal, shu yilning o‘zida bu borada qabul qilingan qonunosti hujjatlarning muhimlarini sanash kerak.

Agar Harakatlar strategiyasi qabul qilingandan buyon o‘tgan davrga nazar tashlasak, bu borada ana shu qisqa fursat ichida mamlakatimizda qanchalar katta ishlar hayotga tatbiq etilganining guvohi bo‘lamiz. Buning uchun ana shu to‘rtinchi ustuvor yo‘nalish hisoblanmish ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘yicha belgilangan yetti vazifaning ijrosi yuzasidan qilingan ishlarga yana bir karra nazar tashlashga to‘g‘ri keladi.

Aholi bandligi va real daromadlarni izchil oshirib borishni olib ko‘raylik.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublika Prezidentining “Aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi va samaradorligini oshirishda mahalliy ijro hokimiyati va iqtisodiy kompleksni hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy mas‘uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, “Kasanachilikni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, “Madaniyat san‘at tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, soha xodimlari mehnatini rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”, “2018–2019-yillar, turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” va boshqa qarorlari chiqdi.

Ayniqsa, aholi ijtimoiy himoyasi va sog‘lig‘ini saqlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha ham ko‘p ish qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Shoshilinch tibbiy yordamni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, “Uy-joy komunal xizmat ko‘rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish

chora-tadbirlari to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida huzurida Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiyasini tashkil etish to‘g‘risida”, “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”, “Davlat veterinariya xizmati boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” va boshqa farmonlari qabul qilindi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, “Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag‘batlantirish to‘g‘risida”, “Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasida onkologiya xizmatini yanada rivojlantirish va aholiga onkologik yordam ko‘rsatishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, “2017–2021-yillarda ichimlik suvi ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturi to‘g‘risida”, “2018–2022-yillarda issiqlik ta‘minoti tizimini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”, “2017–2021-yillarda ko‘p xonadonli uy-joy fondini saqlash va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, “2017–2021-yillarda yer osti suvlari zaxiralaridan oqilona foydalanishni nazorat qilish va hisobga olishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, “Toshkent shahri aholisiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatishni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish hamda uning samaradorligi uchun rahbarlar va mutaxassislarining kasbiy mas‘uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga 2017–2021-yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, “Aholini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta‘minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” boshqa qarorlari hamda “Nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoyishi chiqdi.

Arzon uy-joylar barpo etish mamlakatimizda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan ishlarning insonparvarligini ko‘rsatib turibdi. Uy-joylar arzon narxlarda qurilsa, uni sotib oluvchilar soni ko‘payadi. Eng muhimi, bu birinchi galda aholining uy-joyga o‘ta muhtoj qatlamining manfaatlarini o‘ylagan holda yo‘lga qo‘yildi.

Hozirgi paytda mamlakatimiz barcha mintaqalarida ikki sotixli namunali qishloq uylarini, shuningdek, ikki-uch xonali ko'p qavatli uylarni qurish jadal davom ettirilyapti. Bu borada, ayniqsa, imtiyozli kreditlar joriy etilganidan aholi bag'oyat minnatdor.

Bugungi kunda poytaxtimiz katta uy-joy qurilishi maydoniga aylandi. Xususan, Sergeli tumani hududida jadal sur'atlar bilan bunyod etilayotgan har taraflama shinam, zamonaviy qulayliklarga ega arzon ko'p qavatli uylar peshma-pesh bitkazilyapti.

Yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish yo'nalishiga ham jiddiy e'tibor berilayapti.

Sergeli tumanini shaharning asosiy qismi bilan bog'lashga xizmat qilishi mo'ljallangan yer usti metrosining qurilayotganiga hammamiz guvohmiz. Metroga parallel ravishda Sergelini metroning Olmazor bekati bog'laydigan avtomobil yo'li ham quriladi. Shuningdek, Sergelining bir tomoni shahar katta Halqa yo'liga bog'laydigan, ikkinchi tomoni esa Bektemir tarafga yo'nalgan yangi magistral yo'lga ulaydigan yo'l qurilishi ham jadallik bilan davom ettirilayapti. Shahrimizning yo'l va ko'chalariga yangidan asfalt yotqizilyapti.

Ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish ijtimoiy sohaning muhim yo'nalishini tashkil etadi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", "2017–2018-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish to'g'risida", "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", "Madaniyat va san'at tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, soha xodimlari mehnatini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" va boshqa qarorlari chiqarilganini alohida qayd etish lozim. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish borasida tub burilish yuz berdi.

Ma'lumki, 2017-yilning 30-iyun kuni "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qatnashib, nutq so'zlad. Davlatimiz rahbari yoshlar siyosatini chuqur tahlil etib, bu borada yangicha ish-

lash prinsiplarini bayon qilib berdi. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Yoshlar ittifoqiga aylantirildi. Bundan buyon 30-iyun Yoshlar kuni sifatida bayram qilinadigan bo‘ldi.

Ko‘p o‘tmay O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Boshqa ko‘p qonunosti hujjatlarida ham yoshlarni ijtimoiy faollikka undaydigan, ular hayotini yaxshilashga qaratilgan tartib-qoidalar belgilandi.

Siyosatdagi barqarorlik va izchillik har qanday davlatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi.

Hozir poytaxtimizning qaysi mahallasiga kirmang, aholining baxtli yashashi uchun qulay sharoitlar yaratishga kirishilganiga guvoh bo‘lasiz. Ko‘p qavatli uylarning fasadlari ta‘mirlanayapti. Bu uylar orasidagi yo‘l va yo‘laklarga sement yotqizilayapti. Bolalar uchun o‘yingohlar yangidan jihozlanayapti. Shaharning bo‘sh turgan inshootlarida yangi-yangi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish shoxobchalari bunyod etilyapti. Bu ko‘plab yangi ish o‘rinlarini tashkil etish imkonini berayapti.

O‘zbekistonda koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olish bo‘yicha amalga oshirilgan samarali chora-tadbirlar hisobiga joriy yilning I yarim yilligida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan yalpi ichki mahsulotning o‘sishi **100,2 foizni**, uning tarkibida sanoat **98,1 foizni**, xizmatlar **99,3 foizni**, qishloq xo‘jaligi **102,8 foizni** tashkil qilgan.

Pandemiya sharoitida joylarda aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatish va ularni moddiy qo‘llab-quvvatlash uchun **569 mingta** muhtoj oila ro‘yxatga olingan va ularga **366,7 mlrd.** so‘mlik yordam ko‘rsatilgan. Jumladan, **117,9 mlrd.** so‘mlik oziq-ovqatlar, **55,9 mlrd.** so‘m naqd pul ko‘rinishida, **21,9 mlrd.** so‘mlik issiqxona hamda **679,5 mln.** so‘mlik dori-darmon mahsulotlari, **15,9 mlrd.** so‘mlik qoramol, **7,8 mlrd.** so‘mlik qo‘y-echki hamda **4,1 mlrd.** so‘mlik parranda yetkazib berildi. **50,9 ming** nafar ishsiz fuqaroning doimiy, **105,8 ming** fuqaroning esa – mavsumiy ish o‘rinlarida bandligi ta‘minlangan.

Fan va uzluksiz ta‘limni rivojlantirish, tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash va ular bilan aholini qamrab olishni kengaytirish, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, ishsizlikni kamaytirish, aholining daromadlarini oshirish va turmush sharoitlarini

yaxshilash, jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish va turizm sohalarini takomillashtirishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Maktabgacha ta'lim sohasida 2020-yilga mo'ljallangan Investitsiya dasturi doirasida jami **426 ta** maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish (19 ta) va rekonstruksiya qilish (407 ta) belgilangan. 2019-yilgi Investitsiya dasturidan yildan yilga o'tuvchi **13 ta** loyiha, **413 ta** yangidan boshlanadigan loyihalar shular jumlasidandir.

Bugungi kunda **400 ta** yangidan boshlanadigan loyihalarning loyihasmeta hujjatlari ishlab chiqilib ekspertizadan o'tkazilgan. **127 ta** obyekt-da tender savdolari yakuniga yetkazilgan, **286 ta** obyektida qurilish ishlari boshlangan.

“Eksimbank” (Koreya Respublikasi) ishtirokidagi “Maktab ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish” loyihasi doirasida 850 ta umumta'lim maktablarida o'quv kompyuter sinflari tashkil etildi. Ayni vaqtda mazkur loyiha doirasida yana 1 800 dan ortiq umumta'lim maktablarini o'quv kompyuter sinflari bilan ta'minlash bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Farg'ona viloyatining So'x tumani uchun bakalavriatning kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumiy belgilangan parametrlarga nisbatan qo'shimcha davlat granti asosidagi **500 ta maqsadli** o'rin ajratilganligi, shu hudud yoshlarining cheksiz quvonchiga sabab bo'ldi.

Yana bir muhim yangilik, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining tavsiyanomasiga ega bo'lgan xotin-qizlar uchun bakalavriatning kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha qo'shimcha **4 foizli davlat granti** ajratildi.

Tibbiyot sohasida 17 ta ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot muassasalariga xorijiy investorlarni jalb qilish, ularni boshqarishda zamonaviy menejmentni joriy etish ishlari amalga oshirilgan.

Davlat tibbiyot muassasalarida 200 ta outsorsing xizmatlarini tashkil qilish rejalashtirilgan va 2020-yil 1-iyun holatiga ko'ra 173 xil outsorsing xizmatlari bo'yicha faoliyat joriy qilingan (rejaga nisbatan 86,5 %) bo'lib, ularning 126 tasini taom tayyorlash, 47 tasini kir yuvish xizmatlari tashkil etadi.

Davlat tibbiyot tashkilotlari va aholini dori vositalari, tibbiyot buyum-

lari bilan ta'minlashga o'tgan yilga nisbatan 1,3 barobar ko'p yoki qariyb 1,5 trln. so'm ajratilgan hamda ajratilgan mablag'lar bo'yicha tibbiyot muassasalarining 2020-yil uchun xarajatlar smetalari tuzilib, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan.

Aholi bandligini oshirish sohasida koronavirus pandemiyasi ta'sirida yuzaga kelgan aholi bandligi bilan bog'liq real holatni inobatga olgan holda, **2020-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash parametrlari ishlab chiqilgan.**

Mazkur parametrlarga muvofiq 2020-yilda jami **302,8** mingta ish o'rinlarini tashkil etish, shundan **142,7 mingta** tarmoq va hududiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish hisobiga, **6,8 mingta** ijtimoiy infrazuzilmani rivojlantirish hisobiga, **93,2 mingta** yangi kichik korxonalar va mikrofirmalarni tashkil etish hisobiga va **60,1 mingta** oilaviy va yakka tartibdagi tadbirkorlikni hamda hunarmandchilikni rivojlantirish hisobiga yangi ish o'rinlarini tashkil etish nazarda tutilgan.

Shuningdek, ishlab chiqilgan parametrlarda ishsiz fuqarolarni bo'sh ish o'rinlariga joylashtirish, mehnat bozorining real ehtiyojidan kelib chiqib qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, o'zini o'zi band qilgan shaxslarni vaqtincha mehnat guvohnomasi bilan ta'minlash hamda ishsiz aholining bandligini ta'minlash uchun Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hisobidan subsidiya va grantlar ajratish nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 8-iyundagi PQ-4742-son qarori bilan o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyatini rasmiylashtirish bo'yicha imtiyoz berilgan kasblar soni **24 tadan 67 taga** oshirildi.

O'zini o'zi band qilgan shaxslar 2020-yil uchun ijtimoiy soliqni bazaviy hisoblash miqdorining kamida **50 foizi** hajmida (eski tartib bo'yicha 12 oy uchun uchun BHMning 4,5 barobari) to'lashi belgilanganini ko'plab fuqarolarimiz xursandchilik bilan qabul qildilar. Aynan mazkur masalada deputatlarga ham murojaatlar bo'lgan edi.

Mazkur imkoniyatlarning yaratilishi natijasida aholini tadbirkorlik faoliyatiga yanada keng jalb qilish va qonuniy mehnat faoliyatini (aholining rasmiy sektorda bandligi) amalga oshirishni rag'batlantiradi.

Yurtimizda ijtimoiy muammolarni hal etishning o'ziga xos yangi tizimi yaratilganidan barchangiz yaxshi xabardorsiz. "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari", "Mehr daftari", "Mahallabay" ishlash usullari aynan shu maqsadda joriy etilmoqda.

Islohotlar doirasida qabul qilingan yirik dasturlar jamiyatimizda ijtimoiy muhitni yaxshilash va aholi farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Birgina "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarini oladigan bo'lsak, joriy yilning o'zida jami 8 mingga yaqin qishloq va mahallada umumiy qiymati 20 trillion so'mlik qurilish, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari olib borilayotgani, o'ylaymanki, ko'p narsadan dalolat beradi.

Bu ishlarning barchasi **"Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik"** degan ezgu da'vat asosida amalga oshirilmoqda.

2016-yilda mavjud bo'lgan 800 ta "Tez yordam" shoxobchasining soni bugunga kelib 1 ming 666 taga yetkazildi. Tez tibbiy yordam brigadalari soni esa 1 ming 648 tadan 2 ming 685 taga ko'paytirildi.

Ma'lumki, ilgari ko'plab yurtdoshlarimiz murakkab tibbiy operatsiyalarni o'tkazish uchun chet ellarga borishga majbur edi. Keyingi yillarda tibbiyot sohasini rivojlantirishga oid islohotlar natijasida bunday amaliyotlar endi o'zimizda ham muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Respublikamiz aholisiga ixtisoslashgan tibbiy yordam ko'rsatayotgan markazlar soni 2016-yilda 10 tani, ularning hududiy filiallari esa atigi 2 tani tashkil etardi. Bugungi kunda bunday markazlarning soni 20 taga yetkazildi, joylarda esa 124 ta filial faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu ishni davom ettirib, joriy yilda yana qo'shimcha 48 ta hududiy filial tashkil etiladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlarni o'z vaqtida boshlab, to'g'ri yo'l tanlaganimiz uchun kutilmagan pandemiya qarshisida sarosimaga tushib qolmadik. Xalqimizning sog'lig'i va hayotini asrash maqsadida zudlik bilan barcha tadbirlarni ishlab chiqdik. Jumladan, koronavirusga qarshi kurashish uchun maxsus tibbiy markazlar tashkil etildi. Dori-darmon va himoya vositalarining zaxirasi shakllantirildi.

Hududlarda ishga tushirilgan 60 ta kislorod stansiyasi tegishli shifoxonalarni kislorod bilan uzluksiz ta'minlashga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda vaksina ishlab chiqarish bo'yicha amaliy ishlar boshlandi.

2021-yil uchun davlat budjetida 3 trillion so'm zaxira shakllantirilib,

aholi sog'lig'ini saqlash va koronavirusga qarshi emlash choralari ko'ryapmiz.

Xalqimizni tezkor va samarador, sifatli tibbiy yordam bilan ta'minlashga qaratilgan islohotlar izchil davom ettiriladi.

7. 4. O'zbekiston Respublikasi «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi Qonunning mazmun-mohiyati va uning hayotga tatbiq etilishi

Korrupsiya iqtisodiyot rivoji, chinakam qulay tadbirkorlik va investitsiya muhiti uchun eng asosiy to'siqlardan biridir. Tahlillarga ko'ra bu illat jahon iqtisodiyotiga har yili o'rtacha 2,6 trillion dollar zarar keltiradi.

Dunyoda korrupsiya darajasini o'rganuvchi Transprensy international xalqaro tashkiloti indeksida O'zbekiston oxirgi uch yilda 12 pog'onaga ko'tarilgan bo'lsa-da, hali bu illat barham topmagan.

Yurtdoshlarimizning fikricha, sog'liqni saqlash, ta'lim, bank, bojxona, sud, prokuratura, ichki ishlar, kommunal xizmat sohalarida, shuningdek, fuqarolarni ishga qabul qilishda korrupsiya keng tarqalgan.

Tahlillarga ko'ra, sog'liqni saqlash tizimidagi xarajatlarning 25–30 foizi samarasiz sarflanmoqda, ko'plab sohalarda davlat xaridlarni amalga oshirish tizimi ochiq oshkora emas.

Davlatimiz rahbari yaqinda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomada korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan ko'ra barvaqt oldini olishga o'tish kerakligini ta'kidlab, unga qarshi kurashishga mas'ul bo'ladigan alohida organ tuzishni taklif qilgan edi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning eng asosiy yo'li davlat organlari faoliyati va ish jarayonlarini shaffof qilishdir.

Prezident tashabbusi bilan 2017-yilda «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi Qonun va mazkur qonunning qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident qarori hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturi qabul qilindi.

Jahon tajribasiga e'tibor beradigan bo'lsak, «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonunlar Markaziy Osiyo davlatlaridan Qozog'istonda 1998-yil 2-iyulda, Qirg'izistonda 2012-yil 8-avgustda, Turkmanistonda 2014-yil 1-martda, MHD davlatlaridan Ukrainada 2014-yilda,

Moldovada 2002-yil 6-iyunda, xorijiy davlatlardan XXRda 2007-yil 1-yanvarda, Buyuk Britaniyada 2010-yilda qabul qilingan.

Respublikamizda qabul qilingan qonun asosida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida aniq maqsadlarga qaratilgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan davlat siyosati izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bu borada amalga oshirgan ishlarimiz natijasida korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar o‘tgan yilga nisbatan 43 foizga kamaydi.

Biz bunday natijalarni korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi uzoq va davomli faoliyatimizning dastlabki samarasi deb qabul qilishimiz, bu yo‘lda yanada qat‘iy ish olib borishimizni talab etadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘llaridan biri bu davlat xizmatlari sifatini tubdan yaxshilash, ularning ko‘lamini kengaytirish orqali aholi uchun qulay muhit yaratish va korrupsiyani keltirib chiqaradigan holatlarni kamaytirishdan iborat.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni munosabati bilan «Biz korrupsiyaga qarshimiz» mavzusida tanlov e‘lon qilindi va ushbu tanlov 2018-yilning 1-oktabridan 1-dekabrigacha o‘tkazildi. Tanlov to‘rt yo‘nalish – eng yaxshi jurnalistik material (teleko‘rsatuv, radioeshittirish, maqola), eng yaxshi blogpost, eng yaxshi ijtimoiy rolik, eng yaxshi insho («korrupsiya – taraqqiyot kushandasi») insholar tanlovi) yo‘nalishlarida g‘olib va sovrindorlar aniqlandi. Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida aholi va tadbirkorlarni o‘ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o‘rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo‘llash amaliyoti va ilg‘or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek, keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan hamda quyidagilarni nazarda tutadigan 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralda «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlandi.

Harakatlar strategiyasining 2. 4-bandi bevosita Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish masalalariga qaratilgan. Ushbu bandga asosan:

jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish;

korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-may «O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF–5729-son Farmoni bilan 2019–2020-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi va Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasining yangilangan tarkibi tasdiqlandi.

Farmon bilan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari o‘rta muddatli istiqbolda quyidagilardan iboratligi belgilab qo‘yildi:

davlat xizmatchilarini tanlov asosida saralab olish, lavozimga tayinlash va yuqori lavozimlarga ko‘tarishning shaffof tartibiga asoslangan davlat xizmati tizimini shakllantirish, ular uchun cheklovlar, taqiqlashlar, rag‘batlantirish choralari hamda korrupsiyaning oldini olish boshqa mexanizmlarining aniq ro‘yxatini belgilash;

davlat xizmatchilari daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish va ularning ish haqi yetarli darajada bo‘lishini ta‘minlash, shuningdek, davlat xizmatini o‘tashda manfaatlar to‘qnashuvini hal etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar bergan shaxslarni himoya qilishning samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni kuchaytirish;

davlat organlari va tashkilotlarining hisobdorligi va faoliyatining shaffofligini oshirish va boshqalar.

2019-yil 1-iyuldan boshlab davlat organlari zimmaga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan korrupsiya

xavf-xatarlarini vaqti-vaqti bilan majburiy baholab borishi, uning yakunlari bo'yicha:

korrupsiya xavf-xatariga eng ko'p duch keladigan davlat xizmatchilarining faoliyat sohalari va lavozimlari, shuningdek, ularning funksiyalari (vakolatlari)ning ro'yxatini shakllantirishi;

idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlari ijrosining har choraklik monitoringini amalga oshirishi va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimum darajaga tushirish choralarini ko'rishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Adliya vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi Bosh prokuratura bilan birgalikda **yoshlarga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ta'lim berish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish** va 2019-yil 1-sentabrdan boshlab tatbiq etish va umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarida korrupsiyaga qarshi mavzular yanada kuchaytirilishini ta'minlashi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-may PF-5729-son Farmonining 8-bandi ijrosi yuzasidan Oliy ta'lim sohasida «Korrupsiyasiz soha» loyahasini amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» tasdiqlangan.

«Yo'l xaritasi»da 7 yo'nalishda (OTM sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha umumiy tashkiliy-amaliy chora-tadbirlar, OTM qabul jarayoni, ta'lim berish va talabalar bilimni baholash jarayonini takomillashtirish, talabalar o'qishini ko'chirish, o'qishga tiklash, xorijiy davlatlarda berilgan ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni nostrifikatsiya qilish hamda ta'lim tashkilotlarini attestatsiya va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish, OTM faoliyatini takomillashtirish, professor-o'qituvchilarning ijtimoiy himoyasi, hamda ularga qo'yiladigan talablarni takomillashtirish, hamda ta'lim tizimida budget mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlash) 46 banddan iborat korrupsiyaviy holatlarni bartaraf etish nazarda tutilgan:

Tadbirlarni Davlat budjeti, oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari, BMT taraqqiyot dasturi, YUNESKO, Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti mablag'lari hisobidan moliyalashtirish belgilangan. Chora-tadbirlarda jami 31 ta normativ-huquqiy hujjat (2 ta

qonun – Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va Oliy ta’lim to’g’risida, 1 ta Prezident qarori, 23 ta Vazirlar Mahkamasi qarori, 5 ta idoraviy normativ-huquqiy hujjat loyihalari) ishlab chiqish, 15 ta amaliy-tashkiliy chora-tadbirlar (1 ta ilmiy tadqiqot, 2 ta tahliliy ma’lumot va 12 ta boshqa tadbirlar) belgilangan.

2019-yil 23-sentabrda Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»gi 797-son qarori qabul qilinib, oliy ta’lim muassasasi rahbar kadrlarining o’quv-metodik va ilmiy-pedagogik faoliyati natijalari inobatga olinadigan, ularga muntazam ravishda kasbiy o’zini o’zi rivojlantirib borish imkoniyatini beruvchi uzluksiz malaka oshirish tizimi amaliyotga joriy etildi. O’qitishning zamonaviy usullarini qo’llash bilan bog’liq fan va kurslarni kengaytirish maqsadida qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o’quv rejalariga 13 ta yangi modul kiritildi.

Respublikada malakali yetuk kadrlarni tayyorlash maqsadida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, kadrlar salohiyatini mustahkamlash, shuningdek, ta’lim xodimlarini moddiy rag’batlantirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yuqorida ta’kidlanganidek, aynan muhtaram Prezidentimiz tashabbuslari asosida oliy ta’limda amalga oshirilayotgan o’zgarishlardan, jumladan sohada korrupsiyaga to’liq barham berish bo’yicha ko’rilayotgan amaliy choralar ham mavjud.

Xususan, keyingi yillarda oliy ta’lim muassasalari soni ortdi.

«2019-yilda mutlaqo yangicha mazmun va shakldagi 4 ta Prezident maktabi, 3 ta ijod maktabi ish boshladi. Oliy ta’limni rivojlantirish uchun o’tgan yili 19 ta yangi oliy o’quv yurti, jumladan, 9 ta nufuzli xorijiy universitetning filiali ochildi. Yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda 141 ta qo’shma ta’lim dasturi bo’yicha kadrlar tayyorlash yo’lga qo’yildi. Oliy ta’lim muassasalariga jami 146 ming 500 nafar yoki 2016-yilga nisbatan 2 barobar ko’p talaba o’qishga qabul qilindi».

Qabul kvotalari 2016-yilga nisbatan oshdi va natijada yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrovi 9 foizdan 25 foizga yetdi.

2018–2019-o’quv yilidan boshlab 52 ta oliy ta’lim muassasasida sirtqi, 9 ta oliy ta’lim muassasasida kechki ta’lim, 43 ta oliy ta’lim muassasasida ikkinchi oliy ta’lim sirtqi shaklda joriy etildi.

Yangi 66 ta ta'lim yo'nalishi va 48 ta mutaxassislik bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

16 ta oliy ta'lim muassasasida 10 ta xorijiy davlatning yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda 33 ta ta'lim yo'nalishi va 14 ta mutaxassislik bo'yicha qo'shma ta'lim dasturi asosida kadrlar tayyorlanmoqda.

2019-yilda oliy ta'limni moliyalashtirishga budgetdan 1 trln. 289 mlrd. so'm hamda 3 trln. 417 mlrd. so'm kontrakt tushumlarini yo'naltirish rejalashtirilgan.

Soha xodimlarini moddiy rag'batlantirish, jumladan ularning uy-joy sharoitlarini yaxshilash, ayniqsa, yosh tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha misli ko'rilmagan aniq choralar amalga oshirilmoqda.

Ammo ta'kidlash kerakki, tahlillar ko'rsatganidek, korrupsiyaga qarshi kurash borasida bir qator masalalar ham mavjud. 2018-yildan o'tkazilgan «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan o'tkazilgan so'rovlarga ko'ra, korrupsiyaga moyil bo'lgan sohalar sifatida ta'lim 21,2 foiz ekanligi aniqlangan.

Tahlillar ko'rsatganidek tizimda korrupsion jinoyatlarning quyidagi ko'rinishlari uchraydi:

1. Ta'lim muassasalari mansabdorlarining o'z shaxsiy manfaatlarini ustun qo'yib, mansab soxtakorligini sodir etib, soha uchun ajratilgan, tizimning bir maromda faoliyat olib borishi uchun yo'naltirilishi lozim bo'lgan budget mablag'larini talon-toroj qilish.

2. Ta'lim tizimidagi korxonalar, muassasa va tashkilotlarning xodimlarini ishga qabul qilish, boshqa lavozimga o'tkazish va shu kabi masalalarni pora evaziga hal qilish.

3. Ta'lim muassasalari mansabdorlari tomonidan asoslantirilmagan xarajatlar uchun pul yig'ish kabi suiiste'molchiliklar sodir etilishi.

Mablag'larni asosan muassasani ta'mirlash va boshqa xarajatlar niqobi ostida, ba'zi holatlarda esa sodir etilgan jinoyatlarni pora berish yo'li bilan tekshiruvdan yashirish maqsadida yig'ish holatlari kuzatilmoqda.

4. Ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilinishi yuzasidan tuzilgan statistik ma'lumotlarni soxtalashtirish, ta'lim muassasasida tahsil olmagan o'quvchilarga soxta attestatlarni berish evaziga pora olish, haqiqatda

ishlamagan yoki ta'lim muassasasiga umuman aloqasi bo'lmagan shaxslarni muassasa xodimlari sifatida rasmiylashtirish va boshqa turdagi jinoyatlar sodir etish.

6. Ta'lim tizimidagi mansabdor shaxslar tomonidan o'qishga qabul qilish, boshqa o'quv muassasalariga o'tkazish evaziga pora olish.

Oliy ta'lim tizimida korrupsiya holatlarining uchrashi, bepul umumiy ta'lim olish borasidagi Konstitutsiyaviy huquqlarning buzilishi, ta'lim oluvchilar bilim darajasining tushib ketishi, jamiyatdagi inson salohiyatining kamayishiga olib kelishi mumkinligi, ko'rsatib o'tilgan holatlarga alohida e'tibor qaratishni talab etadi.

Ta'kidlab o'tilganidek, to'plangan statistik ma'lumotlarning tahlili, sohadagi jinoyatchilik darajasi yuqori ekanligini ko'rsatmoqda, bu esa o'z navbatida, sohada korrupsiyaga qarshi kurashish, uni oldini olishga yo'naltirilgan aniq va qat'iy chora-tadbirlar ishlab chiqilmaganligi, jinoyatlarni sodir etishga imkon berayotgan shart-sharoitlar atroflicha tahlil qilinmaganligi, soha xodimlari o'rtasida korrupsiya va uning ijtimoiy hayotning barcha sohalariga bo'lgan salbiy ta'sirini tushuntirishga yo'naltirilgan targ'ibot va tashviqot ishlari yetarli darajada o'tkazilmaganligi, tizim xodimlari tomonidan qonunbuzish sodir etilishini oldini oluvchi va bunga doimiy hamda tizimli ravishda qarshi kurashuvchi samarali mexanizm yaratilmaganligining natijasidir.

«Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, «halollik vaksinasi» bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlarini bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak».

Ushbu illatga qarshi kurashishdagi yana bir muhim vositalardan biri—jamoatchilik nazorati. Bugungi kunda yurtimizda 10 mingdan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. Lekin ularning o'rni va faoliyati sezilmayapti. Chunki bu tashkilotlar manfaatlarini ifoda etuvchi, davlat bilan ko'priq vazifasini bajaruvchi yaxlit tizim yo'q.

Shu bois Prezidentimiz Oliy Majlisga Murojaatnomasida jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish, davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro yaqin hamkorlik o'rnatish maqsadida Jamoatchilik palatasi tashkil etish taklifini ham bildirgan edi. Jamoatchilik palatasi aholi fikrini muntazam

ravishda o'rganib borishi, ularning yechimini topish bo'yicha davlat idoralari oldiga aniq vazifalarni qo'yishi zarurligi ta'kidlandi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tizimdagi korrupsion jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklar ahvolini atroficha tahlil qilib, ularning sabablari va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o'rganib, tizimning har bir sohasini qamrab oluvchi, mavjud yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqbuzarlikka qarshi kurashish va uni oldini olishga yo'naltirilgan aniq muddatlari va ijrochilari belgilangan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish hamda kelgusida ushbu turdagi davriy rejalarning ishlab chiqilishi va ijrosini ta'minlash lozim.

Nazorat savollari:

1. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish borasidagi islohotlar qanday amalga oshirilmoqda?

2. Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish borasida qanday ishlar amalga oshirildi?

3. Aholini arzon uy-joylar, yo'l transport, muhandislik kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma sohalarining isloh qilinishi xususida nimalar bilasiz?

4. Yangilanayotgan O'zbekistonda «Obod qishloq», «Obod mahalla» davlat dasturlarining bajarilishi nimalarda ko'rinyapti?

8. 1. MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDAGI MA’NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOT

8. 1. 1. Ma’naviyat tushunchasi. Mustaqillik yillarida ma’naviy hayot, ma’naviy merosning tiklanishi

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan bir vaqtda ma’naviy merosimizni, madaniy qadriyatlarimizni tiklash va ularni xalqimizga yetkazish borasida keng ko‘lamda faoliyat olib borildi. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi dolzarb muammolardan biri yangi tarixiy sharoitda jamiyat uchun munosib bo‘lgan kishilarni tarbiyalashdan iborat bo‘ldi. Mustaqil taraqqiyotimiz muvaffaqiyatining bosh omillaridan biri aynan xalqimizning boy ma’naviy merosga ega ekanligidaligini unutmasligimiz kerak.

Tarixdan ma’lumki, mamlakatimiz hududlari bir necha bor tashqi bosqinlarga duchor bo‘lgan. Qaramlik va zulm ham xalqimizning irodasini buka olmadi, xalqimiz o‘zligini yo‘qotmadi. O‘zining boy tarixi, urf-odatlari, qadriyatlarini saqlab qola oldi. Chor Rossiyasi va sovet mustamlakasi davri xalqimiz ma’naviy merosiga, uning tarixiga nisbatan yuritilgan siyosat, madaniy va ma’naviy boyliklarimizning talon-toroj qilinishi ham madaniyatimizni, urf-odatlarimizni yo‘qota olmadi. Madaniyatimizga nisbatan yuritilgan bunday siyosat va yondashuv ko‘plab tarixiy yodgorliklarimiz qarovsiz qolishiga, ularning buzilishiga, qo‘lyozma kitoblarimizning nashr etilmay yoki tarjima qilinmay qolishiga sabab bo‘ldi. Xalqimizni boy madaniyati, tarixidan mahrum qilishga harakat qilindi. Mustaqillik tufayli xalqimizning boy tarixi, madaniyati va ma’naviyati o‘ziga qaytdi.

Ma’naviy meros tiklandi. Ma’naviy meros qadim ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan ma’naviy boyliklar – siyosiy, falsafiy, huquqiy diniy qarashlar, qadriyatlar, urf-odatlar, odob-axloq me’yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san’at asarlari majmuyidir. Madaniy meros

asrlar davomida ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan, sayqallangan madaniy-ma'naviy boyliklarimizdir. U jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyat ehtiyojlari tufayli yuzaga keladi, o'z davri hayotini aks ettiradi va keyingi avlodlar uchun ma'naviy meros bo'lib qoladi.

Respublika Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek, ma'naviyatning mohiyati shunchalik kengki, uni o'lchab ham, poyoniga yetkazib ham bo'lmaydi. U inson uchun butun bir olamdир.

Bozor munosabatlari sharoitida ma'naviyat va ma'rifat ishlariga g'oyat katta e'tibor berilishi mustaqil O'zbekistonda yangi jamiyat qurishning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Bugungi kunda ma'naviy merosimizni, qadriyatlarimizni tiklash, xalqimiz, jumladan, yoshlarimiz ma'naviyatini boyitish, o'zligini anglash, xususan kelajagimiz bo'lgan, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlarni tayyorlash ularning ma'naviyatini yuksaltirishga erishish g'oyat muhimdir.

O'zbek xalqining boy ma'naviy qadriyatlarini qaytadan tiklash, ularni xalqimizga qaytarish mustaqillik davri tariximizning ajralmas qismidir. Shu ma'noda bu tarixni yoritmay turib, umuman mustaqillik davrining to'la tarixini yaratib bo'lmaydi.

Shu borada «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazini tashkil qilish va ularning ish samaradorligini oshirishga qaratilgan 1994-yil 23-apreldagi va keyingi Prezident farmonlari respublikada ma'naviy va mafkuraviy ishlarni yuksaltirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 2-iyundagi «Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi yangi Farmoni mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni izchil amalga oshirish, milliy istiqloq g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini xalqimiz ongi va qalbiga singdirish borasida ulkan ishlarni amalga oshirishga qaratilgan muhim dastur bo'lgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 28-iyulda qabul qilingan (PQ-3160) «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi qarori bilan Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi hamda Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi birlashtirilib, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi qayta tashkil etildi, uning dol-

zarb vazifalari belgilandi. Bu esa jamiyat hayotining ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlash, Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun dahldorlik va mas'uliyat hissini oshirish, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo'naltirilgan targ'ibot tizimini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ajdodlarimizning bizgacha yetib kelgan boy madaniy meroslarini o'rganish ham katta o'rin egallaydi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qadriyatlar, urf-odatlar, buyuk ota-bobolarimizning bizga qoldirgan meroslarini o'rganish va targ'ib etish uchun keng yo'llar ochildi. Bu boradagi tadbirlar mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq amalga oshirila boshlandi. Xususan, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning rivojlanishi uchun davlat tomonidan katta mablag'lar ajratildi. O'zbekistondagi barcha davlat teatrlari, madaniyat uylari, san'at oliy o'quv yurtlari, folklor-etnografik guruhlar madaniyat o'choqlariga aylanib qoldi. Teatr sahnalarida yangi zamonaviy spektakllar qo'yila boshladi.

Mustaqillik bizning milliy-madaniy qadriyatlarimizning naqadar boy va teran tafakkur uslubini shakllantirishga imkoniyat ochib berdi. Oqibatda milliy qadriyatlarimiz jamiyatimiz taraqqiyotini tezlashtirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda hamda ularni milliy iftixor ruhida tarbiyalashda qudratli tarbiyaviy negiz bo'lib xizmat qilmoqda.

Inson kamoloti va tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan jamiyat va shaxs ma'naviyatini yuksaltiruvchi tafakkur rivojida beqiyos ahamiyat kasb etadigan milliy qadriyat shakllarining inson faoliyatiga singib borishi jamiyatning yuksalib borishiga sabab bo'ladi. Demak, ma'naviyat jamiyatning yuksalishi yoki inqirozga yuz tutishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviyat boyib borsa, jamiyat ravnaq topadi va aksincha, ma'naviyat qashshoqlashsa, jamiyat bora-bora tanazzulga yuz tutadi.

Fan-texnika taraqqiyoti, zamonaviy kashfiyotlar insoniyatning qudratini oshiradi va yangi imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Bunday holat insondan yanada yuksak ma'naviyat darajasiga ko'tarilishni talab etadi. O'z navbatida, shaxsning ma'naviy yuksalishi uning ijtimoiy faolligini oshiradi va jamiyatning taraqqiyotini tezlashtiradi. Darhaqiqat, ma'naviyatni yuksaltirish shu kunning dolzarb vazifalaridan biri, kelajak poydevori bo'lmish yoshlar qalbi va ongiga boy ma'naviy merosni

singdirish, mustaqillik g'oyalari singdirish asosida o'zida xulq-odob madaniyatini mujassamlashtirgan barkamol avlodni shakllantirish kunning asosiy vazifasidir. Zero, Vatan kelajagi, xalqimiz oldida turgan ulkan maqsadlarga erishish avvalo yoshlariga, ularning har tomonlama barkamol inson bo'lib voyaga yetishiga bog'liqdir.

Istiqlof arafasida ma'naviyat sohasiga beqiyos e'tibor qaratilib, yurtboshimiz sa'y-harakatlari bilan tilimizda, demakki, ongu tafakkurimiz – dunyoqarashimizda ma'naviy boylar, ma'naviy tarbiya, xalq ma'naviy boyligi, xalq ma'naviyati, ma'naviy burch kabi tushunchalar yangidan shakllandi. Birgina misol: agar o'tgan asrning 70–80-yillarida chop etilgan ikki jildli “O'zbek tilining izohli lug'ati”ga ham, o'n to'rt jildlik “O'zbek sovet ensiklopediyasi”ga ham “ma'naviyat” so'zi kiritilmagan, demakki, bu tushunchaga ta'rif berilmagan bo'lsa, 2009-yilda nashr etilgan “Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati” nomli alohida kitobda odamzod uchun bebaho boylar bo'lmish ma'naviyatning ma'no-mazmuni, uning inson va jamiyat hayotidagi tutgan o'rni, ahamiyati bilan bog'liq eng asosiy tushuncha va atamalarning keng izohi berilgan.

Sobiq tuzum davrida inson ma'naviyati, xalq ma'naviyati, millatimizning ma'naviy merosiga nisbatan bir tomonlama yondashildi, ularga sinfiy va partiyaviy nuqtayi nazardan baho berilgan. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, yaqin o'tmishda ma'naviy merosning minglab durdonalari haqida so'zlash, yozish, targ'ib-tashviq qilish taqiqlangan edi. Yuzlab ma'naviyat darg'alari millatchilik, milliy biqlikda, dindorlikda ayblanib, qatag'on qilingan. Hatto, yaqin qarindoshining janozasida bo'lgani, ta'ziasiga borgani uchun yurtdoshlarimizga nisbatan jazo chorlari ko'rilishi eski tuzumning oxirgi yillarida odatiy holga aylangandi. Yurtboshimiz iborasi bilan aytganda, “bu tuzum o'z xalqining tarixini, uning ruhi va odatlarini, o'z avlod-ajdodini bilmaydigan manqurtlarga tayanar edi”.

Tarix sinovidan o'tgan haqiqat shuki, ezgu g'oyalarga, ma'naviy merosga, an'analar va zamonaviy talablarga asoslanmagan har qanday davlat tizimi uzoqqa borolmaydi. Bu haqiqatni yetmish yil umr ko'rib barham topgan sobiq Ittifoqning qismati yaqqol isbotladi. Ayni vaqtda mustabid tuzum davrida xalqimizning qadr-qimmatini, sha'ni va g'ururi poymol etilgani, ko'hna tariximiz va muqaddas qadriyatlarimiz toptal-

gani, ma'naviy qaramlik ostida taqdirimiz jar yoqasiga kelib qolganini aslo unutib bo'lmaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, istiqlol yillarida amalga oshirilayotgan ma'naviy targ'ibot faoliyati o'zining mazmun-mohiyat va ahamiyati jihatidan eski davrdagi "propaganda-agitatsiya ishlari"dan farq qiladi. Shunday qilib, madaniyat, ma'naviy meros, sivilizatsiyalar yutug'i jamiyat va inson ma'naviyatining rivojlanishida, ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazishda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq o'tmishda toptalgan ma'naviy merosimizni tiklashga qat'iyon kirishildi.

8. 1. 2. O'zbekistonning milliy istiqlol g'oyasi, uning mohiyati va ahamiyati

Mustaqil mamlakatimizning Asosiy qonuni – Konstitutsiyaning 12-moddasida: "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas", deb belgilab qo'yilganini eslash maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda olib borilayotgan ma'naviy targ'ibot-tashviqot jarayoni zamirida yurtimizdagi turli millat, ijtimoiy toifa, kasb-u korga mansub bo'lgan kishilarni ma'naviy tajovuzlardan asrash, ularni ogohlikka chorlash, mavjud xavf va tahdidlarning oqibatlarini anglab yetish, ular haqida jamoatchilik fikrini shakllantirish, eng muhimi, milliy g'oya asosida xalqni birlashtirish, jipslashtirish, yosh avlod ongi va qalbida ezgu g'oyalarga sadoqat tuyg'ularini tarbiyalashga qaratilgan tizimli va aniq maqsadli amaliy harakatlar mujassamdir.

Jamiyat taraqqiyotida ro'y berayotgan o'zgarishlarni tushunish, hur fikrlilikka intilish kishilarni istiqlol yo'lidan olib boruvchi g'oyaviy qarashlar hozirgi kunning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Jamiyatimizda siyosiy mustaqillikka erishib iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy ishlar amalga oshirilayotgan bir vaqtda milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi Birinchi Prezidentimiz aytganidek, «suv bilan havodek zarurdir». Busiz, ya'ni fikrlash, e'tiqod o'zgarmasdan bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorlikka erishish

murakkab vazifadir. I.A.Karimov milliy mustaqillik g'oyasining zarurligi to'g'risida gapirar ekan «O'zining kelajagini qurmoqchi bo'lgan har qanday davlat yoxud jamiyat, albatta o'z milliy g'oyasiga suyanishi va tayanishi kerak», – deb ta'kidlaydi va milliy istiqloq mafkurasining vazifasini ko'rsatib uning: «...asl ma'nosi eskicha aqidalardan xoli bo'lgan, mustaqil va yangicha fikrlovchi kishilarni tarbiyalashdan iborat», – deydi.

Mustaqillik g'oyasi va mafkurasining xalqimizga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi, uni birlashtiruvchi, buyuk maqsadlar uchun butun kuchlarimizni uyg'unlashtiruvchi ahamiyatini nazarda tutib I.A. Karimov mustaqillikning dastlabki davrida, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq, XII sessiyasida «Oldimizda turgan eng muhim masala, bu milliy istiqloq mafkurasini yaratish va hayotimizga tatbiq etishdir», – degan edi. Kishilarimizni qaysi toifa va guruhda bo'lishidan qat'i nazar ma'naviy inqirozdan chiqaradigan yagona milliy g'oya atrofida birlashtirilgan birdan bir qudratli kuch ana shu milliy mustaqillik mafkurasidir.

Yagona maqsad, yagona g'oya bo'lmasa jamiyat inqirozga uchraydi, halok bo'ladi. Buni biz yaqin va olis o'tmishdagi tariximizdan bilamiz. Milliy istiqloq g'oyasi kelajak maqsadni ifodalaydigan xalqimizning ming yillik tarixini buyuk kelajak bilan bog'laydigan, ana shu yuksak maqsad yo'lida 130 dan ortiq millat va elatlarni, barcha kishilarimizni birlashtiruvchi bayroq vazifasini bajaradi.

Milliy istiqloq g'oyasi O'zbekiston Respublikasining ko'p millatli omilini saqlab qolishi va uni rivojlantirishdek buyuk maqsadni o'zining adolatli, insonparvar huquqiy jamiyat qurish yo'lidagi ustuvor yo'nalish deb qaraydi. «O'zbekiston Vatanim manim» g'oyasi barcha o'zbekistonliklarning dilidan o'rin olgan. Bu fikrlarning tasdig'ini «Ijtimoiy fikr» markazi tomonidan 1999-yilning iyun oyida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlarning natijasida ko'rish mumkin. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Toshkent, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahrida 1350 respondentlar ishtirokida o'tkazilgan tadqiqotda o'zbeklardan tashqari tojik, qozoq, tatar, qirg'iz, rus, ukrain, belorus millatlari vakillari O'zbekistonda millatlararo va fuqarolik barqarorlikning sabablari nimada? – degan savolga yakkilik bilan quyidagicha javob berdilar: 59,5% – Respublika Birinchi Prezidenti I.Karimovning oqilona siyosati, 31,3% – davlatning

oddiy xalq to'g'risidagi g'amxo'rliqi, 22% – o'zbek xalqining bag'rikengligi, 15,3% – iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotdagi barqarorlik.

O'zbekistonning bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurish yo'lida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy ishlari-mizdagi barqarorlik mafkuraviy tahdidlarni oldini olishni muhim vazifa qilib qo'yadi. Shu maqsadda xalqimizning an'alariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini kishilar ongiga singdirish lozimdir.

Milliy mustaqillik g'oyasining eng muhim vazifalaridan biri mustaqilligimiz tayanchi va kelajagi Yosh avlodni milliy g'urur, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat. Mustaqillik g'oyalariga e'tiborsizlik og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. 1999-yil 16-fevral «qonli seshanba» kungi voqealar milliy mustaqillik g'oyasini, mafkurasini yoshlarimiz diliga yetkazish zarurligini, buning uchun g'oyaviy, mafkuraviy ishlari-mizni kuchaytirish lozimgini ko'rsatdi.

Milliy istiqloq g'oyasini, uning tushuncha va tamoyillarini xalqimiz, birinchi navbatda yoshlarimiz o'rtasida targ'ib va tashviq etishning usul-uslublarini shakllantirish yo'lida dastlabki qadamlar qo'yilmoqda. «Ma'naviyat va ma'rifat» markazi qoshidagi targ'ibot-tashviqot markazining tuzilgani, jamoatchi ma'ruzachilar ishining yo'lga qo'yilayotgani, ular uchun "Voizga yordam" ruknida risolalar chop etilayotgani shular jumlasidandir. Birinchi Prezidentimiz Farmoni bilan «Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» maxsus fan sifatida ta'lim tizimining barcha bosqichlariga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2001-yil 4-yanvardagi «**Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar**» haqidagi farmoyishi asosida mamlakatimiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida mazkur o'quv kursi joriy qilindi. «Milliy istiqloq mafkurasining bosh g'oyasi – «**Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot!**»dir.

Milliy istiqloq mafkurasining asosiy g'oyalari: vatan ravnaqi; yurt tinchligi; xalq farovonligi; ijtimoiy hamkorlik; millatlararo totuvlik; dinlararo bag'rikenglik; komil inson.

Mamlakatimiz taraqqiy ettirish bo'yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda

milliy g‘oyani rivojlantirish dolzarb masalaga aylandi. Zero, Harakatlar strategiyasini Milliy strategiyamiz desak ham adashmaymiz.

Davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-apreldagi «O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmoyishi asosida taniqli olimlar, ekspertlar, ijodkor ziyolilardan iborat ishchi guruh tomonidan Milliy g‘oya konsepsiyasi ishlab chiqildi. Mazkur konsepsiyada mamlakatimizda milliy yuksalish g‘oyasi asosida amalga oshiriladigan eng muhim vazifalar aks etgan. Yurtimizda tinchlik, fuqarolar va millatlararo hamjihatlik va bag‘rikenglikni mustahkamlash, demokratik tamoyillarni to‘liq qaror toptirish, inson huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi va adolat, moddiy hamda ma’naviy hayotning barobar rivojlanishi o‘z ifodasini topgan. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida «Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari» degan ulug‘ maqsad bosh g‘oya sifatida maydonga chiqmoqda.

Milliy yuksalish g‘oyasining asosiy tushunchalari orasiga kiritilgan «Yagona Vatan tuyg‘usi», «Adolat – qonun ustuvorligida», «Xalq roziligi», «Jaholatga qarshi – ma’rifat», «Innovatsion taraqqiyot» tushunchalari milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari degan ulug‘ maqsad davlat va jamiyat hayotining barcha sohasini kompleks rivojlantirishni, xalqimizga bunyodkorlik va yaratuvchanlik ruhini baxsh etishni nazarda tutadi.

Jahon tarixiga nazar solsak, har bir xalq avvalo ma’naviy birlashuvi, milliy g‘oyasi bilan yuksalgan. Bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo‘lidan borayotgan mamlakatimizda ham milliy g‘oya masalasi juda muhim ahamiyatga ega.

Milliy g‘oya mohiyatini to‘liq anglab yetmagan, eski mafkurani tasavvur qilib, bunga yuzaki qaraydiganlar ham yo‘q emas. Shu bois Prezident mamlakatimiz mafkurasining asosiy g‘oyasini ta’kidlab o‘tdi:

«Biz yaratayotgan Yangi O‘zbekiston mafkurasida ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan».

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi ishini tanqidiy o‘rganib chiqib, faoliyatini tubdan takomillashtirishga qaror qilindi. Markazning

«Ma'naviyat targ'ibotchisi» o'quv muassasasi negizida Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tashkil etildi.

Milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, jamiyatda adabiyot va kitobxonlikni yanada rivojlantirish maqsadida «Ijod» jamoat fondi negizida Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash fondi tashkil etildi.

8. 1. 3. Mustaqillik yillarida adabiyot, san'at, kino va sport sohasidagi yutuqlar

Mustaqillik yillarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qayta qurishlar qatorida madaniyat sohasida ham tub o'zgarishlar ro'y berdi. Bu avvalo teatr san'ati, milliy musiqa, me'morchilik, adabiyot sohalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Madaniyat mutaxassislarining ijodiy faoliyati, ularning moddiy va texnikaviy uskunalari, zamonaviy binolar bilan ta'minlanishi I.A.Karimovning bevosita g'amxo'rligida bo'ldi. 2001-yilning davlat budjetidan madaniyat va san'at muassasalarini rivojlantirish uchun 12 milliard 703 million so'm (bu ko'rsatkich 2000-yili 9 mlrd. 463 mln. so'mni tashkil qilgan edi) ajratilishi fikrimizning guvohidir. Mustaqillikning dastlabki yillarida respublikada yangi teatr jamoalari tashkil etildi. 1991–1994-yillarda bir qator viloyat markazlarida yangi teatrlar ishga tushirildi. 1993-yil avgust oyida Toshkent shahrida ish boshlagan «Turkiston» saroyi nafaqat me'morchilikning yorqin namunasi, balki sahna guruhlari va atoqli artistlarning chiqishlari bo'ladigan dargohga aylandi.

1998-yil 26-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Bu Farmonga muvofiq O'zbekiston tomosha san'atining ko'p asrlik an'analarini o'rganish, boyitish va targ'ib qilish, teatr san'atini har tomonlama rivojlantirish, uning moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash, mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni amalga oshirishda teatr arboblarning faol qatnashishini ta'minlash maqsadida «O'zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. Teatrlarning 90-yillar ikkinchi yarmidagi repertuarlarida tarixiy pyesalar keng o'rin oldi. 1996-yili Amir Temurning 660 yillik yubileyi munosabati bilan 10 ta yangi spektakllar sahnalashtirildi. «Navro'z-97» teatr

festivali munosabati bilan Sohibqiron obrazini ifodalovchi 14 spektakl namoyish etildi. 1998-yili al-Fargʻoniy, al-Buxoriylarning yubileylariga bagʻishlangan pyesalar yaratildi. Mamlakatimizning boy tarixini namoyish etuvchi spektakllar Toshkentning yetakchi teatrlaridagina emas, barcha viloyatlarning teatr sahnalarida qoʻyildi. 1995–1997-yillari respublika teatrlari tomonidan 313 ta yangi spektakllar qoʻyildi.

Oʻzbekistonda musiqa va raqs sanʼatini rivojlantirish maqsadida «Oʻzbeknavo» gastrol-konsert birlashmasi tashkil etildi. Unda musiqa-raqs sanʼatini rivojlantirishni davlat yoʻli bilan qoʻllab-quvvatlash masalalari koʻzda tutildi. Sanʼatning barcha sohalari, madaniy-maʼrifiy muassasalari uchun malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash Respublika Prezidentining doimo eʼtibor markazida boʻlib keldi.

Mustaqillik yillarida oʻzbek adabiyoti, adabiyotshunoslik fani taraqqiyotida ham yangi sahifalar ochildi. Asarlari zararli, oʻzlari millatchi deb nohaq baholangan Choʻlpon, Otajon Hoshim, Vadud Mahmud, Munavvar qori singari millatparvar yozuvchi, maʼrifatparvarlar ijodi xolisona oʻrganilib, ularning asarlari chop etildi, teatr sahnalarida oʻz oʻrnini egaladilar.

Mustaqillik sharofati bois moʻtabar Qurʼoni Karim va hadislar chop etildi. Bunday asarlarning xalqimiz qoʻliga yetib borishi butunlay yangi, sogʻlom, sof milliy gʻoyalimiz, maqsad va intilishlarimizning sifat darajasini belgilaydi. Adabiyot sohasidagi va koʻplab nashr etilgan boshqa asarlar milliy istiqloq gʻoyasi va mafkurasining buyuk hayotbaxsh kuchini koʻrsatadi.

Mustaqillik davri adabiyotining bayroqdorlari Oʻzbekiston qahramonlari Said Ahmad, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Oʻzbekiston xalq shoirlari Muhammad Yusuf, Habib Saʼdullayevlar ijodiy faoliyati bilan butun xalqimiz faxrlanadi.

Milliy istiqloq davridagi oʻzbek adabiyotshunosligi oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda Ozod Sharofiddinov, Begali Qosimov, Naim Karimov, Erkin Karimov, Ahmad Aliyev, Najmiddin Komilovlarning asarlari alohida oʻrin egallaydi. T.Malikning romanlari, O.Matjon, O.Hojiyeva, X.Sultonov, A.Suyun, Y.Eshbek, H.Doʻstmuhammad, Sh.Salimova singari shoir va adiblarning badiiy barkamol, gʻoyaviy yetuk asarlari oʻzbek milliy istiqloq adabiyotiga katta hissa boʻlib qoʻshildi.

Aholi o'rtasida madaniy-ma'rifiy ishlarni tashkil qiluvchi muassasalardan biri kutubxonalar bo'lib, ularning soni 1996-yili 6723 ta edi. Kutubxonalarda jami kitobxonlar 6 mln. 211 kishini tashkil qilsa, shundan 4 mln. 425 mingi qishloq rayonlarida edi. Kutubxona xodimlaridan 65 foizi oliy va o'rta ma'lumotli mutaxassislardir.

Mustaqillik yillari respublikamizda muzeylarga bo'lgan e'tibor oshib bormoqda. «Temuriylar tarixi davlat muzeyi»ning qurilishi, «O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi», «Xalq amaliy san'ati muzeyi»ning qayta jihozlanishi buning dalolatidir. Hozirgi kunda davlat qaramog'idagi muzeylar 81 tani tashkil qilib, shulardan 15 tasi tarix muzeylari, 23-o'lkashunoslik, 10-badiiy san'at koshonasi, 20-memorial muassasa, 8-adabiyot, 4-tibbiyot muzeylaridir.

Shuningdek, mamlakatning shaharlari va tumanlarida 510 muzey xalqimizning boy tarixiy-madaniy xazinalari namoyish etilmoqda va kishilarimizni, yosh avlodni ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalashga o'zlarining hissalarini qo'shmoqda.

O'zbekiston Respublikasi madaniyat ishlari vazirligi tasarrufidagi jami muzeylarda 2000-yil boshlarida 1. 350 ming eksponatlar saqlanmoqda va bularni o'tgan davrda 1. 655. 400 kishi tomosha qilgan.

Sharq va G'arb me'morchiligi uyg'unlashgan binolar yurtimiz poytaxti va viloyat markazlarida qad ko'tarib, shaharlarimiz husniga husn qo'shmoqda.

Milliy bank, mehmonxona binolari hamda madaniyat va istirohat bog'larining bunyod etilishi buning yorqin misolidir. Haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, tasviriy san'at, raqs, kino san'atlarida ham an'anaviy va zamonaviy usullar uyg'unlashib yetuk asarlar yaratildi va yaratilmoqda.

Badiiy adabiyotda partiyaviylik, sinfiylik nuqtayi nazaridan yondashishga chek qo'yildi. Bahouddin Naqshband, Feruz, Xo'ja Ahror, Cho'lpon, Fitrat kabilarning xizmatlari taqdirlandi. Zamovaviy adabiyotning ilg'or namoyandalari Abdulla Oripov, Said Ahmad, Erkin Vohidov, Qayibergen To'lepbegenov, Ibrohim Yusupovlar O'zbekiston Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldilar.

1991-yili buyuk alloma, g'azal mulkning sultoni Alisher Navoiy yubileyini o'tkazish katta ahamiyatga molik voqea bo'ldi. Bu tantanaga

bag'ishlanib respublikamizda shoirning asarlari nashrdan chiqarildi.

O'zbek milliy maqom san'atining noyob namunalarini keng targ'ib qilish, uni asrab-avaylash va rivojlantirish, yosh avlod qalbida milliy mumtoz san'atimizga hurmat va ehtirom tuyg'ularini kamol toptirish, turli xalqlar o'rtasidagi do'stlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma'rifiy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda kengaytirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2018-yil 6-aprelda «Xalqaro maqom san'ati anjumanini o'tkazish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2018-yil 6–10-sentabr kunlari Shahrisabzda 73 davlat vakillari ishtirokida birinchi Maqom san'ati xalqaro forumi bo'lib o'tdi. Tadbir ishtirokchilari va mehmonlarning fikriga ko'ra, ushbu anjuman jahon madaniyatining mulkiga aylangan noyob o'zbek milliy maqomini saqlash va rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Bugungi kunda O'zbek milliy baxshichilik va dostonchilik san'atining noyob namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, uni keng targ'ib qilish, yosh avlod qalbida ushbu san'at turiga hurmat va e'tibor tuyg'ularini kuchaytirish, turli xalqlar o'rtasidagi do'stlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma'naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda yanada kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-noyabrda «Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Qaror asosida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi hamda Surxondaryo viloyati hokimligining Termiz shahrida har ikki yilda bir marta xalqaro baxshichilik san'ati festivalini tashkil etish hamda ushbu festivalni birinchi marta 2019-yil 5–10-aprel kunlari o'tkazish haqidagi taklifi ma'qullandi.

Shuningdek, o'zbek milliy maqom san'ati markazi va muzeyi tashkil etildi, ushbu san'at yo'nalishini rivojlantirish tizimi yaratildi.

2018-yil 24-iyulda O'zbekiston Prezidentining «Milliy kinoindustriyani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» qarori mamlakatimizda kino san'atini yanada rivojlantirish, sohada malakali mutaxassislar tayyorlash, zamonaviy texnologiyalardan foydalanган holda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini oshirish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha muhim tadbirlarga asos bo'lmoqda. Muhtaram Prezidentimizning tashabbuslari bilan 2021-yilning ok-

tabr oyida mamlakatimizda bir paytlar mashhur bo'lgan Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlari kino ijodkorlari ishtirokida har ikki yilda o'tkazilib kelingan xalqaro kinofestivalning qayta tiklanish va o'tkazilishi o'zbek kino san'atining yana bir yutug'i, davlatimiz rahbarining O'zbekistonda kino san'atini yanada rivojlantirishga qaratayotgan muhim e'tibori sifatida e'tirof etish kerak bo'ladi.

Mustaqillik yillarida o'z faoliyatini boshlagan «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining asosiy maqsad va vazifalari kelajak avlodimiz diliga va ongiga milliy istiqlol g'oyalari va mafkurasini singdirish, aholining aksariyatini tashkil qilgan yigit-qizlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashga qaratilgandir.

O'zbekiston hukumati yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan keng shug'ullanishi uchun barcha sharoitlarni yaratib qo'ydi.

Hozirgi kunda respublikada jismoniy tarbiyaning 15085 boshlang'ich tashkiloti shug'ullangan bo'lib, ulardan 9501 maktablarda, 710 tasi litsey va kollejlarda, 63 tasi oliygozlarda tashkil etilgan.

Respublikada sport inshootlarini qurishga ulkan e'tibor qaratilgan. Jumladan, hozirgi kunga kelib 500 dan ortiq sport klublari, 536 sport maskanlari, 5 ta olimpiya klublari, 8 ta Respublika oliy sport maktablari va jismoniy tarbiya instituti ishlab turibdi. Sport bilan shug'ullanuvchilarga 233 ta stadion, 135 ta suzish havzasi, 32. 865 ta sport maydonchalari xizmat ko'rsatmoqda. 4841 ta futbol maydoni, 168 ta tennis, voleybol, basketbol maydonlari mavjuddir.

Mamlakatda sport va jismoniy tarbiya sohasida erishilgan yutuqlarni yanada rivojlantirish yuzasidan Respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 1999-yil 27-may 271-sonli qarori va shu qaror asosida qabul qilingan Davlat Dasturi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Dasturga ko'ra, ayniqsa qishloq yoshlari o'rtasida jismoniy tarbiya va sport shoxobchalarini kengaytirib, ularning moddiy texnika bazalarini kuchaytirish tadbirlari belgilandi. Bunga javoban o'tgan bir yildan ko'proq vaqt ichida qishloq tumanlarida 184 ta sport-sog'lomlashtirish klublari tashkil qilindi. 2000-yil O'zbekiston Respublikasi sporti tarixida, umuman olganda, muvaffaqiyatli yil bo'ldi. Saralash musobaqalarida g'olib chiqqan 77 nafar sportchimiz 13 sport turi bo'yicha Avstraliyaning Sidney shahrida bo'lib o'tgan XXVII Olimpiada o'yinlarida qatnashishga muayassar

bo'ldilar. Olimpiadachilarimiz 1 ta oltin, 1 ta kumush va 2 ta bronza medallarini qo'lga kiritib, 200 mamlakat o'rtasida 41-o'rinni egalladilar. Respublika kurashchilari, bokschilari, tennischilari, dzyudochi va karatechilari mustaqil O'zbekistonimizni butun jahonga tanitdi. Mustaqillik yillarida eng tez rivojlanib borayotgan sport turlaridan biri shaxmatdir. Sobiq sovetlar davrida shaxmat bo'yicha bitta grossmeyster tayyorlangan bo'lsa, endilikda ularning soni 11 nafar bo'ldi. Turkiyada bo'lib o'tgan jahon shaxmat olimpiadasida hamyurtlarimiz 120 dan ortiq mamlakatlar ichida faxrli 11-o'rinni egalladilar. Respublika chempioni Rustam Qosimjonov o'z taxtasida bronza medaliga ega bo'ldi. 2004-yili dunyoning eng kuchli shaxmatchilari ishtirokida o'tgan jahon chempionatida R.Qosimjonov jahon chempioni unvonini qo'lga kiritdi. Mamlakatimizda olib borilayotgan xalqchil, adolatli, inson manfaatlariga qaratilgan siyosat ko'plab sohalarda o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Birgina sport misolida aytsak, o'zbek futbolida yangi davr boshlandi. Buni hayotga katta kuch bo'lib kirib kelayotgan yoshlarimiz 2018-yilning 9–27-yanvar kunlari Xitoyda 23 yoshgacha bo'lgan futbolchilar o'rtasida o'tkazilgan Osiyo chempionatida O'zbekiston yoshlar terma jamoasi safida eng yuksak natijani qayd etib, oltin medalni qo'lga kiritgani ham tasdiqlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-yanvarda qabul qilgan «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Milliy antidoping agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori sport sohasida sog'lom muhitni yaratish, sportchilarimiz orasida halollik va haqqoniy fazilatlarni yanada kuchaytirishga qaratilgan muhim hujjat bo'ldi. 2018-yil 5-martda esa «Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident Farmoni asosida respublikamizning 5 ta hududida barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan zamonaviy o'quv-mashg'ulot bazasi tashkil etilib, Milliy olimpiya qo'mitasi ixtiyoriga berildi. 2018-yil 22-fevral – 5-mart kunlari Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida qilichbozlik bo'yicha kadetlar va o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan Osiyo chempionatida mamlakatimiz sportchilari muvaffaqiyatli qatnashib, bunday nufuzli musobaqada ilk bor sovrindor bo'lishdi. Yuqori malakali murabbiy kadrlarni jalb qilgan holda iqtidorli yosh shaxmatchilarni tayyorlash, shaxmat bo'yicha milliy terma jamoaning amaldagi a'zolari

bilan doimiy aloqani ta'minlash, shuningdek, shaxmatni insonning aql va tafakkur jarayonini rivojlantiruvchi sport turi sifatida yanada omalastirish maqsadida 2018-yil 9-avgustda O'zbekiston Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida shaxmatni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. 2018-yilning avgust-sentabr oylarida Indoneziyaning Jakarta va Palembang shaharlarida 45 ta mamlakat vakillari o'rtasida o'tkazilgan XVIII Osiyo o'yinlarida 234 nafar sportchimiz sportning 30 turi bo'yicha O'zbekiston nomidan ishtirok etishdi. Mamlakatimiz sportchilari 21 ta oltin, 24 ta kumush va 25 ta bronza – jami 70 ta medalni qo'lga kiritdi. O'zbekiston delegatsiyasi oltin medallar soni bo'yicha 5-o'rinni egallagan sportimiz tarixida eng yaxshi natija bo'ldi. Yurtimizda sportni rivojlantirishga qaratilayotgan yuksak e'tibor tufayli jismoniy imkoniyati cheklangan yoshlarning ham sport bilan muntazam shug'ullanishi, o'z iqtidor va salohiyatini namoyon etish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Natijada vakillarimiz Paraolimpiya hamda Paraosiy o'yinlari, nufuzli xalqaro turnirlarda katta muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Yangi nomlar, chempionlar kashf etilmoqda. Indoneziyaning Jakarta shahrida o'tkazilgan III yozgi Paraosiy o'yinlarida sportchilarimiz 35 ta oltin, 24 ta kumush va 18 ta bronza – 77 ta medalni qo'lga kiritdi. 2018-yil 6–18-oktabr kunlari Argentina poytaxti Buenos-Ayres shahrida III yozgi o'smirlar olimpiadasi bo'lib o'tdi. Mazkur nufuzli musobaqada O'zbekiston sport delegatsiyasi ham ishtirok etdi. Xususan, 37 nafar yosh atletimiz sportning 16 turi bo'yicha sovrinli o'rinlarni egallashdi. Bugungi kunda yuqori malakali sportchilarni tayyorlashda mashaqqatli mehnat va katta kuch talab etilishini inobatga olgan holda, sportchilarning o'z mahoratlarini muntazam oshirib borishlari, ularning jismonan va ma'nan yetukligini ta'minlash bilan birga, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda moddiy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirib borish ham talab etilmoqda. Mazkur sohadagi mavjud muammolarni hal etish maqsadida 2017-yil 10-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan O'zbekiston sportchilarini jamoat va sport ishlariga keng jalb etish, hamda sportchilarni va ularning murabbiylarini rag'batlantirish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

Yaponiyada taekvondoning WTF yoʻnalishi boʻyicha «Chiba-2019» Gran-pri turniri oʻtkazildi. Unda yurtimizning uch nafar taekvondochisi, jumladan ikki nafar MASK aʼzosi qatnashdi. Nufuzli musobaqada ikki taekvondochimiz sovrindor boʻldi. Va “Tokio-2020” yozgi Olimpiada oʻyinlariga borish yoʻlida qimmatli reyting ochkolarini qoʻlga kiritdi. Svetlana Osipova 67 kg vaznda bronza medalini qoʻlga kiritdi. Nigora Tursunqulova bronza medali va qimmatli reyting ochkolarini qoʻlga kiritdi.

2021-yil 3–23-aprel kunlari Polshaning Kels shahrida yoshlar oʻrtasida boks boʻyicha jahon chempionati boʻlib oʻtdi. Ushbu chempionatda 66 davlatdan yoshlar bellashishdi. Oʻzbekistonlik Nigina Oʻktamova ukrainalik Kristina Lakichuk bilan sportning boks turi boʻyicha bellashib 4:1 hisobda gʻalabani qoʻlga kiritdi. Nigina Oʻktamova boks boʻyicha jahon chempionatida oltin medalni qoʻlga kiritdi va Oʻzbekiston tarixida birinchi bokschi qiz boʻlib tarixga kirdi.

2022-yil 20-dekabrda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida sport sohasidagi yutuqlarimiz haqida davlat rahbari toʻxtalib: “Bu yil 381 nafar sportchimiz jahon va Osiyo musobaqalarida, 43 nafar iqtidorli va bilimdon yoshlarimiz nufuzli xalqaro fan olimpiadalari hamda tanlovlarida sovrinli oʻrinlarni qoʻlga kiritgani barchamizni albatta quvontiradi».

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, ilm-fan, madaniyat va sport sohasidagi yutuqlar davlatimiz tomonidan shu sohaga qaratilayotgan eʼtibor tufaylidir. Shijoatli yoshlarimizning jahondagi sport shohsupalarida bayrogʻimizni baland koʻtarib, Oʻzbekiston sporti dovrugʻini keng yoyishi xalqimiz yutugʻidir.

Nazorat savollari:

1. Mustaqillik yillarida maʼnaviy hayot, maʼnaviy merosning tiklanishida nimalarga eʼtibor berildi?
2. Oʻzbekistonning milliy istiqlol gʻoyasi, uning mohiyati va ahamiyati haqida aytib bering.
3. Mustaqillik yillarida adabiyot, sanʼat, kino va sport sohasida qanday yutuqlarga erishildi?

8. 2. MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDAGI MA’NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOT

8. 2. 1. Tarixiy haqiqat, tarixiy xotiraning tiklanishi

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda barcha sohalarda yangilanish, o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Mamlakatimiz taraqqiyotining bu bosqichida xalqimiz ma’naviy taraqqiyotining ajralmas qismi bo‘lgan tariximiz, tarixiy qadriyatlarimizni qayta tiklash ishlari amalga oshirildi. Bu borada I.Karimovning 1998-yil O‘zFAning bir guruh tarixchi olimlari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuv va unda bildirilgan fikrlar, Vazirlar Mahkamasining O‘zRFA Tarix Instituti faoliyatini qayta tashkil etish to‘g‘risidagi qarorlari asosida mamlakatimiz yaqin o‘tmish tarixidagi «oq dog‘lar»ga barham berilishi, tarixiy haqiqatni tiklash yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi dolzarb muammolardan biri – yangi tarixiy sharoitda jamiyatga munosib kishilarni tarbiyalash edi. O‘zbekiston suveren davlat sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotida ma’naviy yangilanish jarayonini amalga oshirmasdan, sivilizatsiyaga erishmasdan mustaqillikni har tomonlama mustahkamlab bo‘lmasligini hayotning o‘zi ko‘rsatdi. Bugungi kunda davlatimiz taraqqiyoti yo‘lida yangi renessansga qadam qo‘yish ustida keng ko‘lamdagi ishlar olib borilmoqda.

O‘zbek xalqi o‘z taraqqiyoti davomida ikkita renessansni (ya’ni buyuk rivojlanishni) o‘z tarixiga muhrlab qo‘ydi. Birinchi uyg‘onish davrida (IX–XII asrlar) ilmiy va diniy bilimlarning uyg‘unligi asnosida dunyoni larzaga keltiradigan buyuk kashfiyotlar qilindi. Yurtimiz ilm-fan o‘chog‘iga aylandi. Ibn Sino, Forobiy, Al-Xorazmiy, Beruniy kabi mutafakkirlar tabiiy-ilmiy bilimlarni yangi sifat bosqichiga ko‘targan bo‘lsalar, At-Termiziy, Moturidiy, Imom Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi ulamolar islom dinini milliy g‘oya va qadriyatlarimizga uyg‘un holda rivojlantirdilar. Imom Buxoriy musulmon dunyosida «hadis ilmining sultoni» sifatida e’tirof etildi.

Mamlakatimiz Islom ilmining markaziga aylandi. Islom dinidagi hanafiy mazhabi, yassaviya, kubroviya, naqshbandiya tariqatlari o‘zbek xalqining milliy g‘oyasiga mos holda rivoj topdi.

Ikkinchi uygʻonish XIV–XV asrlarda oʻzbek davlati dunyoda eng rivojlangan, kuchli va adolatli davlatga, Amir Temurning «Kuch adolatdadir» gʻoyasi esa mamlakatning harakat dasturi va amaliyotiga aylandi. Alisher Navoiy kabi buyuk allomalar komil inson gʻoyasini fan darajasiga koʻtardi. Bugun gʻarb olimlari 500 yil oldin oʻrganilgan mavzuni inson omili, inson huquqi masalasini antropologiya fani tarkibida katta qiziqish bilan oʻrganishmoqda. Bugun uchinchi uygʻonish – Mustaqil Oʻzbekiston davri boshlandi. U 1989-yildan Oʻzbekistonning eng yangi tarixi davrini boshlab berdi. Bugun oʻzbek xalqining milliy gʻoyasi huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining rivojlanish gʻoyasiga aylanib, Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Qonunlariga singdirilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Tarixiy tafakkurning rivojlanishi maʼrifat asosida, maʼrifatli boʻlish negizida sodir boʻladi. 1991-yili Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi keng nishonlandi. Bu toʻyga respublikada katta tayyorgarlik koʻrildi va u xalqning katta madaniyat bayramiga aylandi. Uning yigirma jildlik mukammal asarlar toʻplami nashr etila boshlandi. Yubiley oldidan Alisher Navoiyning buyuk siymosi ifoda etilgan sahna asarlari, kino-filmlar yaratildi. Alisher Navoiy nomida Davlat mukofoti taʼsis etildi. Adabiyot institutiga Alisher Navoiy nomi berildi. Mamlakat poytaxti Toshkentda ulugʻ bobomizning muhtasham haykali qoʻyildiki, bu joy xalqning muqaddas ziyoratgohiga aylandi. Navoiy haykali Komsomol koʻli deb nomlangan istirohat bogʻiga oʻrnatildi va bogʻ Alisher Navoiy nomidagi milliy bogʻ deb ataladigan boʻldi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizning YUNESKO bilan hamkorliklari yanada kengaydi. 1994-yilning hukumat qarori bilan Ulugʻbek yili deb eʼlon qilinishi, uning 600 yilligini Oʻzbekistonda va jahon miqyosida, xususan, YUNESKO qarorgohi Parijda keng nishonlanishi ham buyuk allomalar qoldirgan meros umuminsoniy qadriyatga aylanganligi nishonasidir. 1996-yil Amir Temur tavalludining 660 yilligi ham keng miqyosda nishonlandi. Islom Karimov «1996-yilni Amir Temur yili» deb atash toʻgʻrisida farmon qabul qildi. «Temur tuzuklari» bir necha tilda chop etildi. Oʻsha davr tarixiy-madaniy yodgorliklarini tiklab, yozma adabiyotlar ilmiy muomalaga kiritildi. Juda qisqa fursatda, Toshkentda bobokalonimizning dunyoviy shaʼni va shavkatiga mos keladigan Amir Temur va temuriylar davri tarixi muzeyi qurildi.

Hukumatning maxsus qaroriga binoan, 1999-yil dekabrda Xorazmda Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy tavalludining 190 yilligi, Nukusda Ajiniyoz Qosiboy o'g'li tavalludining 175 yilligi, 1998-yil oktabrda esa Farg'onada Ahmad al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi keng nishonlandi. Islom olamining zabardast allomalari Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Muin Nasafiy, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Imom Moturidiy va boshqalarning ilmiy merosi o'rganilib, ko'plab nusxalarda chop etilmoqda. Imom Ismoil Buxoriy, Imom Abu Iso Termiziyning 1200 yilligi, Mahmud Zamaxshariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Bahouddin Naqshbandiyning 675 yilligi, Xoja Ahror Valiyning 600 yilligi va boshqa allomalarning yubileylari keng nishonlandi.

1999-yil vatanparvar siymo, xalq qahramoni Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi, xalq dahosi yaratgan Alpomish dostonining 1000 yilligining nishonlanishi, Urganch va Termizda ular xotirasiga barpo etilgan yodgorlik majmuasi jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga, milliy ong va milliy g'ururni ko'tarishga xizmat qilmoqda. Vatanimiz ozodligi yo'lida shahid ketgan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir va boshqa xalq jigarbandlarining nomi, izzat-ikromi, hurmati o'z joyiga qo'yildi, asarlari chop etildi. Islom Karimov tashabbusi bilan Toshkentda mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmui, «Qatag'on qurbonlari xotirasi» muzeyi, fashizmga qarshi janglarda jon fido etgan xalqimizning farzandlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida «Xotira maydoni» majmuasi, poytaxtimizning Olmazor tumani hududida "G'alaba bog'i" majmuasi barpo etildi. Bu tadbirlar xalqimiz milliy ongini yuksaltirishga, tarixiy xotira tiklanishiga, yoshlarni milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

O'zbek xalqining ma'naviy merosida insonparvarlik g'oyalari singdirilgan. Ajdodlarimiz insonparvarlikni fan darajasiga ko'tarishgan. Forobiy – «fozil inson», Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband – «Orif inson», Alisher Navoiy – «komil inson» ta'limotlariga asos solishgan. Bugun ham, o'tmishda bo'lganidek, insonparvarlik borasida xalqimiz boshqa xalqlarga saboq berishi mumkin. Ommaviy madaniyat, axborot xurujlari kuchayayotgan sharoitda asosiy muammo

yot, buzg‘unchi g‘oyalar ta’siriga tushmasdan, g‘oyaviy bo‘shliqqa yo‘l qo‘ymasdan, ma’naviy merosimizga, milliy g‘oyamizga sodiq qolishdir.

Shuningdek, Yurtboshimizning O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrashga g‘amxo‘rligining yaqqol namunasi sifatida 2017-yil 15-fevral «Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4956-sonli Farmoni, 2017-yil 24-may «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2995-sonli qarori, 2017-yil 20-iyun «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazini tashkil etish to‘g‘risida»gi PQ-3074-sonli qarori, 2017-yil 30-iyun «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi PQ-3105-sonli qarorlari xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatini tiklash, buyuk allomalarimiz, aziz avliyolarimizning ilmiy, diniy va ma’naviy merosini har tomonlama chuqur o‘rganish va targ‘ib etish, chet ellarda saqlanayotgan, mamlakatimiz tarixi va madaniyatiga oid madaniy boyliklarni aniqlash, shu tarixiy eksponatlarning asl yoki ko‘chirma nusxalarini yurtimizga olib kelish kabi ishlarni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va topshirig‘i asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan «Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanida atoqli ma’rifatparvar Is’hoqxon Ibrat nomidagi yodgorlik majmuasini tashkil etish to‘g‘risida»gi, 2017-yil 14-aprel “Xorazm Ma’mun akademiyasining faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 211-sonli, 2017-yil 15-iyundagi «Alohida muhim ijtimoiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mir olib borish sohasidagi ishlarni tashkil etishni tartibga solish va nazorat qilishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 376-sonli qarorlari madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanishni tashkil etishda alohida ahamiyatga ega me’yoriy hujjatlar hisoblanadi. Demak, bugungi kunda O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini as-

rab-avaylash, saqlash hamda kelajak avlodga bus-butunligicha yetkazish davlatimiz taraqqiyotida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning e'tibori bilan el-u yurtga mehnati singgan insonlarning hurmatini joyiga qo'yish an'anasi davom ettirilmoqda. 2017-yilning o'zida bu borada ulkan ishlar amalga oshirildi. Toshkent va Samarqandda Islom Karimov (2018-yil Qarshida), Namangan viloyatida Is'hoqxon Ibrat, Xorazm viloyatida Komiljon Otaniyozov, Qoraqalpog'istonda Ibroyim Yusupov, Farg'onada Erkin Vohidov, Qashqadaryoda Abdulla Oripov, Andijonda Muhammad Yusuf xotiralari abadiylashtirish bo'yicha yirik tadbirlar o'tkazildi. Ularning nomi bilan ataladigan markazlar, ijodiy maktablar tashkil etildi. Jizzax shahrida Hamid Olimjon va Zulfiya xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan yodgorlik majmuasi ochildi.

Yurtimiz taraqqiyoti yo'lida fidokorona xizmat qilgan, milliy adabiyotimiz va madaniyatimiz rivojiga ulkan hissa qo'shgan atoqli davlat arbobi, taniqli yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligi nishonlanishi xalqimizni quvontirdi. O'zbekiston Prezidentining 2017-yil 27-martdagi «Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini nishonlash to'g'risida»gi qarori asosida 2017-yil 6-noyabr – Sharof Rashidovning tug'ilgan kuni Jizzaxda tantanali tadbirlar bo'lib o'tdi. Jizzax shahridagi tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, nutq so'zladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-yanvarda «O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning xotirasini abadiylashtirish to'g'risida»gi qaroriga ko'ra, Islom Karimov haykallari O'zbekiston poytaxti Toshkent shahriga, Islom Karimov tug'ilib o'sgan Samarqand shahriga va Islom Karimov birinchi rahbar bo'lib ishlagan Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahriga o'rnatildi. Bundan tashqari, 2018-yilda Shavkat Mirziyoyev tashabbusi va rahnamoligida Samarqand shahrida, Islom Karimov dafn etilgan hududda yodgorlik majmuasi barpo etildi. Islom Karimov ko'p yillar davomida faoliyat olib borgan Toshkent shahridagi Oqsaroy qarorgohida Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasi tashkil etildi. Shuningdek, bir qator ko'chalar va yirik obyektlarga Islom Karimov nomi berildi. Prezident Farmoni bilan 2018-yil 30-yanvarda

Islom Karimov tavalludining 80 yilligi keng nishonlandi, 24-martda esa Samarqandda xalqaro konferensiya o‘tkazildi.

Mustaqillik yillarida qator shaharlarning yubileyi nishonlandi

- 1997-yil Xiva va Byxoro shaharlarining 2500 yillik yubileyi nishonlandi.
- 2002-yil – Termiz shahrining 2500 yillik yubileyi nishonlandi.
- 2002-yil – Shahrisabz shahrining 2700 yilligi nishonlandi.
- 2003-yil – Nukus shahrining 70 yilligi nishonlandi va shahar «Do‘stlik» ordeni bilan mukofotlandi.
- 2006-yil – Qarshi shahrining 2700 yilligi nishonlandi.
- 2006-yil – Xorazm Ma‘mun akademiasining 1000 yilligi nishonlandi.
- 2007-yil – Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyi o‘tkazildi.
- 2007-yil – Marg‘ilon shahrining 2000 yillik yubileyi o‘tkazildi.
- 2009-yil – O‘zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent shahrining 2200 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosim o‘tkazildi.

8. 2. 2. Milliy va diniy urf-odatlar, qadriyatlarning tiklanishi. Diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikning qaror topishi

O‘zbekistonda millatlararo totuvlik Konstitutsiya va qonunlariga singdirilgan. Jumladan, bosh qomusimizda «O‘zbekiston xalqini, millatidan qat’i nazar O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi», degan muhim qoida belgilab qo‘yilgan (8-modda). 145 dan ziyod milliy-madaniy markazlar (Chingiz Aytmatov iborasi bilan aytganda kichik BMTlar) millatlararo totuvlik g‘oyasini hayotga tatbiq etmoqda.

«Yagona oilada» («В единой семье») jurnali nashr etilmoqda. Ruslarning «Maslennitsa», tatar boshqirdlarining «Sabanto‘y», uyg‘urlarning «Sayil» bayramlari, xitoylarning «Chunuze» yangi yili, koreyslarning «Soller» va «Ovoli – tano» bayramlari nishonlanmoqda. Har yili respublikamiz miqyosida «Biz yagona oila farzandlarimiz», «Vatan yagonadir, Vatan bittadir», «O‘zbekiston umumiy uyimiz» shiori ostidagi festivallar o‘tkazilmoqda. O‘zbekistonda yetti tilda: o‘zbek, qoraqalpoq, rus, tojik, turkman, qirg‘iz va qozoq tillarida ta‘lim olib borilmoqda. Gazetalar sakkiz tilda (o‘zbek, qoraqalpoq, rus, tojik, turkman, qozoq, ingliz, ko-

reys tillarida) nashr etilmoqda. Radio eshittirishlar o'n bitta tilda olib borilayapti. Islom Karimov iborasi bilan aytganda millatlararo totuvlik O'zbekistonning dushmanlari ko'ra olmaydigan eng katta boyligidir.

Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarning tiklanishi. Xalq turmush tarzi va ma'naviyatining tarkibiy qismini uning azaliy udumlari, odat, marosim va bayramlari tashkil qiladi. Shu bois mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ma'naviy tiklanish haqida gapirganda xalqning azaliy qadriyatlarini tiklash borasida olib borilgan ishlarni ham alohida ta'kidlash lozim. Istiqloq sharofati bilan xalqimizning milliy-ma'naviy merosini tiklash va yangilash, hamda ular ongiga yetkazish va turmushiga singdirish muhim vazifalardan biri sifatida kun tartibiga ko'ndalang qo'yildi. Islom olami allomalarining diniy qarashlari, ijodiy faoliyatlari o'rganilib, tavallud topgan kunlari bayram qilindi. Ularga yodgorlik maydonlari yaratilib haykallar o'rnatildi.

Xalqimizning azaliy qadriyati, sevimli bayrami hisoblanmish «Navro'z» bayramining xalqimizga qaytib berilishi mamlakat tarixida katta voqea bo'ldi. 1991-yildan boshlab mamlakatda Prezident Farmoniga ko'ra, 21-mart – Navro'z umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo'ldi. Qadimiy xalq bayrami – Navro'zning tiklanishini respublikamizning butun aholisi mamnuniyat bilan ma'qullab, ko'tarinki ruhda kutib oldi va hozir ham ardoqli bayram sifatida nishonlamoqda.

Mustaqillik sharofati bilan diniy qadriyatlar, diniy e'tiqod qayta tiklandi. Ramazon hayiti, Qurbon hayiti qayta tiklandi va bu kunlar dam olish, bayram kuni bo'lib qoldi. Musulmonlar O'zbekiston xalqi tarixida birinchi marta bevosita hukumat homiyligida har yili Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatlariga ega bo'ldilar. Prezident Farmoni bilan tuzilgan «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi, «Oltin meros» xalqaro xayriya jamg'armasi jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy ravnaqi yo'lida xizmat qilmoqda.

Sobiq SSSR davrida O'zbekistonda 89 ta masjid, 2 ta madrasa bo'lgan bo'lsa, 2017-yilga qadar esa 2033 ta masjid, Islom universiteti, Islom instituti, 16 ta diniy konfessiyalar faoliyat yuritib kelmoqda. Mamlakat aholisining 88 foizi islom diniga, 10 foizidan ziyodi boshqa dinlarga e'tiqod qiladi, 1,8 foizi hech qaysi dinga e'tiqod qilmaydi. Aholisi ko'p millatli bo'lgan O'zbekistonda islomdan tashqari xristianlik, yahudiylik, buddaviylik va boshqa konfessiyalarga e'tiqod qiluvchi kishilar ham bor.

Ko'p millatli va ko'p konfessiyali mamlakatda millatlararo hamjihatlik va diniy bag'rikenglik sohasida olib borilayotgan izchil davlat siyosati turli millat hamda barcha diniy konfessiya vakillarining erkin va ozod yashashlari uchun mustahkam asos yaratdi.

Davlatimiz siyosatiga ko'ra, din davlatdan, siyosatdan ajratilgan, ammo xalqdan ajratilgan emas. 1991-yil davlatning vijdon erkinligi va dinga oid siyosatini belgilab beruvchi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Uning qabul qilinishi islom diniga va boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchi fuqarolarning hayotida muhim o'rin egalladi. 1998-yil O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Mazkur qonunda fuqarolarning vijdon va e'tiqod erkinligi bilan bog'liq huquq hamda burchlari aniq-ravshan belgilab qo'yildi. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, «Davlat diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo'llab-quvvatlaydi. Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek, boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi. Ushbu qoidaning buzilishiga aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar». O'zbekiston kabi ko'p konfessiyali davlatda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Zero, diniy bag'rikenglik mamlakatda qurilayotgan demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biridir.

O'zbekistonda qaror topgan diniy bag'rikenglik quyidagi omillar bilan belgilanadi:

Birinchidan, respublikada istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillari, hamda turli diniy konfessiyalar faoliyatida o'zaro hurmat, sabr-toqat, bag'rikenglik tamoyillarini qaror toptirishda amaliy ishlar olib borilmoqda.

Ikkinchidan, milliy va diniy bag'rikenglik o'zbek madaniyati, hamda mentalitetining ajralmas qismidir. O'zbekistonda diniy bag'rikenglik borasida olib borilayotgan siyosat demokratik o'zgarishlarni va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirishga, boshqa millatlar, dinlar va madaniyatlarga hurmatsizlik hollaridan, ekstremizm shakllaridan xoli

haqiqiy demokratik jamiyatni qurish omiliga aylanishiga, jamiyatda millatlararo va dinlararo ahillikning saqlanishiga imkon tug'dirmoqda.

Uchinchidan, millatlararo va konfessiyalararo munosabatlardagi uyg'unlik xalqlarning ma'naviy boyligi manbaya hisoblanadi va davlatlarning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Turli madaniyat va din vakillari o'rtasidagi muloqotlar kelishuv va o'zaro ishonchga erishish yo'llaridan biri sanaladi.

To'rtinchidan, mutaxassislar fikricha, bir-biridan farq qiladigan 2 xil bag'rikenglik tushunchasi mavjud: formal – tashqi ko'rinishdagi bag'rikenglik va ichki – pozitiv bag'rikenglik. Formal ravishdagisi boshqa kishining diniy e'tiqodiga nisbatan toqatlilikni, unga qarshi kurashmaslikni anglatasa, ichki – ijobiyi esa boshqa dinlarni yaxshi bilishni ham taqozo etadi. Bugungi O'zbekistonda har ikkala ko'rinishdagi bag'rikenglik amalda o'zining to'liq ifodasini topgan.

Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasi huzurida ham «Din ishlari bo'yicha qo'mita» tashkil etilgan bo'lib, bu boradagi ishlarni amalga oshirishga ko'maklashib kelmoqda. 2007-yilda Islom Hamkorligi tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masalalar bo'yicha tuzilmasi – AYSESKO tomonidan «Toshkent – Islom madaniyati poytaxti» deb e'lon qilindi. Bu O'zbekiston davlatining dinga bo'lgan munosabati natijasidir.

Respublikada 17 diniy konfessiya ro'yxatga olingan va rasman faoliyat ko'rsatmoqda. 170 dan ortiq diniy tashkilotlar ishlab turibdi va ularda O'zbekistonda yashovchi 130 millat va elat vakillari o'zlarining diniy ehtiyojlarini qondirmoqdalar. 1,7 mingdan ortiq masjidlar, xristian ibodatxonalar, sinagogalar va boshqa diniy markazlar ta'mirlandi va yangidan qurildi. 10 ta diniy ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatmoqda. 1999-yilda Toshkentda Islom Universiteti ochildi. O'zbekiston hududida xalqning ulug'vor va shonli tarixiga oid 2000 dan ortiq yodgorliklar ta'mirlandi.

O'zbekiston hali sovetlar qaramog'ida turgan og'ir kunlarda Islom Karimov xalq xohish-irodasiga quloq tutib, unutilmas tarixiy hujjatga imzo chekdi. 1990-yil 2-iyun kuni «Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga haj qilishi to'g'risida»gi Farmonini e'lon qildi. Mamlakatda Islom dini omilidan unumli foydalanish, uning boy ma'naviy va madaniy qadriyat sifatidagi imkoniyatlarini kengaytirish choralari ko'rildi. Jumladan, 1992-yilda O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi huzurida

din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil etildi. 1992-yil 27-martda O'zbekiston Prezidentining «Ro'za hayitini dam olish kuni, deb e'lon qilish to'g'risida» Farmoniga ko'ra, musulmonlar hayotidagi qutlug' sanalar – Qurbon va Ramazon hayit kunlarini doimiy ravishda bayram qilish va ularni dam olish kunlari, deb e'lon qilinishi ham aynan xalqimiz ko'nglidagi ish bo'ldi. Amaldagi Prezidentimiz tomonidan Hayit bayramlarini 3 kun nishonlash haqidagi ko'rsatmasi bu borada muhim ahamiyat kasb etdi. Mustaqillik sharofati bilan «Islom nuri» haftanomasi, «Hidayat» jurnali dunyoga keldi, ko'plab diniy-axloqiy adabiyotlar chop etila boshlandi. Jumladan, Imom Buxoriyning to'rt jilddan iborat, Imom Termiziyning bir jildli hadis kitoblari, boshqa allomalarning qator asarlari yuz minglab nusxalarda chop etildi. Qur'oni Karim sakkiz marta, jami bir million nusxada nashr etildi. Bu muqaddas kitob yurtimizda ilk bor 1992-yil Alouddin Mansur tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilindi va uch marta, jami 300 ming nusxada bosmadan chiqarildi.

2004-yili esa Toshkent Islom universitetida Qur'oni Karimning shayx Abdulaziz Mansur tarjimasida izohli nashri tayyorlandi hamda chop etildi.

O'zbekiston musulmonlari erkinlik va imkoniyatlarga ega bo'lmoqdalar. Ular bevosita hukumat yordamida har yili muqaddas haj va umra amallarini ado etish imkoniyatiga erishdilar. Agar sovet davrida mamalakatimiz fuqarolaridan 3–4 kishigina haj safarini ado etgan bo'lsa, 2016-yilga qadar har yili 5000 dan ortiq fuqarolarimiz hoji bo'lib qaytishdi. Tabiiyki, ma'naviy-ruhiy poklanish, qadriyatlarning tiklanishi bir kunda bo'ladigan jarayon emas, balki u bizdan muntazam ravishda izchillik bilan ish olib borishimizni talab etadi. «Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligini nishonlash to'g'risida»gi, «Burhoniddin al-Marg'iloniy tavalludining hijriy sana bo'yicha 910 yilligini nishonlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari fikrimizning yaqqol isbotidir. 2003-yili esa naqshbandiya tariqatining asoschisi Abduxoliq G'ijduvoni tavalludining 900 yilligi keng nishonlandi.

“Movarounnahr” diniy boshqarmasi faoliyati respublikamiz hayotida o'z o'rnini egalladi. Diniy boshqarma qoshida Islom Universiteti va viloyatlarda madrasalar tashkil etildi. «Islom nuri» gazetasi chop

etilmoqda. Mustaqillik arafasida O‘zbekiston bo‘yicha 87 masjid bo‘lsa, 1998-yilda ularning soni 3000 ga, hozir esa 5000 ga yetdi. Din inson ruhini poklashi, odamlar o‘rtasida mehr-oqibat tuyg‘ularini mustahkamlashi, milliy qadriyat va an‘analarni asrashga xizmat qilishi bilan jamiyat hayotida muhim o‘rin tutib kelgan. O‘zbek yurti azaldan qadimiy dinlar rivoj topgan makondir. Hozirgi kunda ko‘p millatli O‘zbekiston Respublikasida islom dini bilan bir qatorda boshqa diniy konfessiyalar yonma-yon yashab kelmoqda.

Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi nafaqat mamlakatimizda, balki Markaziy Osiyo va butun dunyoda hamjihatlikka erishish, dinlararo totuvlik, tinchlikni saqlash yo‘lida muhim dasturilamal bo‘layotganini, bu jihatlar O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ham o‘z aksini topganini e‘tirof etganligini ham qayd etish o‘rinlidir.

Prezidentning 2017-yil 27-martdagi «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq Samarqandda ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi.

1995-yili rus pravoslav cherkovi Toshkent va O‘rta Osiyo yeparxiyasi tashkil etilganligining 125 yilligi yubileyi, O‘zbekiston yevangel-lyuteran jamoasi tashkil etilganining 100 yilligiga bag‘ishlangan «Bir osmon ostida» shiori bilan musulmon va xristian dinlari vakillari o‘rtasida o‘tkazilgan muloqot katta ahamiyat kasb etdi. Toshkentda 2000-yilning sentabrida YUNESKO rahnamoligida «Jahon dinlari tinchlik madaniyati yo‘lida» mavzuida dinlararo muloqot xalqaro anjuman bo‘lib o‘tdi. Unda AQSH, Fransiya, Rossiya, Eron, Isroil, Hindiston, Xitoy, Vatikan kabi o‘ttizga yaqin mamlakat, shuningdek, xalqaro diniy muassasalar vakillari qatnashdilar. Hozirgi kunda mustaqil O‘zbekistonda din va vijdon erkinligi mustahkam qaror topgan va barcha diniy konfessiyalar birgalikda mustahkam tinchlikni saqlash, diniy ekstremizm va xalqaro terrorchilikka qarshi dadil kurash olib bormoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar negizida xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda istiqomat qilayotgan

130 dan ortiq millat va elat vakillari 138 ta milliy-madaniy markazlarga birlashib O‘zbekiston umumiy uyimiz shiori ostida katta bir oilaning farzandlaridek yashamoqdalar. 2017-yil 19-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi tashkil etildi. Bu esa jamiyatimizda millatlararo hamjihatlik va bag‘rikenglikni ta‘minlashga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirishda yana bir qadam bo‘ldi.

8. 2. 3. O‘zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqishga ko‘tarish masalalari

O‘zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasining beshinchi yo‘nalishi ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish deb nomlanib, unda yettita maqsad belgilab berilgan. Bular quyidagilar:

Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan «Harakatlar strategiyasidan Taraqqiyot strategiyasi sari» g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish.

«Yangi O‘zbekiston – ma‘rifatli jamiyat» konsepsiyasini amalga oshirish.

Aholi o‘rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo‘yicha huquqiy-ma‘rifiy tadbirlarni xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o‘rgatish bilan uyg‘un holda tashkil qilish.

Targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning ta‘sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish hamda ularni o‘z vaqtida amalga oshirish choralari ko‘rish.

O‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma‘naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash.

Oila, ta‘lim tashkilotlari va mahallalarda ma‘naviy tarbiyaning uzviylikini ta‘minlash.

Ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda xolis axborotlar-

ni o‘z vaqtida berib borish orqali yolg‘on ma‘lumotlar tarqalishining oldini olish.

«Mahalla-tuman- viloyat-respublika» prinsipi asosida hududlar kesimida ijtimoiy-ma‘naviy muhitni optimallashtirish xaritasini shakllantirish, bu jarayonga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish.

Ma‘naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish.

Maktablarni chinakam ma‘naviyat va ma‘rifat, madaniyat o‘chog‘iga aylantirish uchun ta‘lim-tarbiyaning interaktiv usullarini qo‘llash.

Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma‘naviy tarbiyaning uzviyligini ta‘minlash ko‘nikmasini shakllantirish.

«Yoshlar – Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari» shiori ostida «Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans» g‘oyasining ro‘yobga chiqarilishini ta‘minlash.

Aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda «Kitobsevar millat» umummilliy g‘oyasini ro‘yobga chiqarish.

Aholiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda sohada yagona boshqaruv tizimini joriy etish.

Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish.

IHT, IRSIKA, AYSESKO, YUNESKO kabi dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot markazlari va universitetlari bilan hamkorlikda «Yangi O‘zbekiston — Uchinchi Renessans» shiori ostida xalqaro konferensiya, simpozium va anjumanlar tashkil etish.

Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma‘naviy merosini keng targ‘ib qilish maqsadida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar qalamiga mansub 100 ta asarning xalqchil tarjimasini amalga oshirish, ular asosida ilmiy va ommabop risolalar yaratish.

Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish maqsadida O‘zbekiston Xalqaro islom akademiyasi, Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy

xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.

Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash.

Milliy-madaniy markazlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish.

Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasining izchil amalga oshirilishini ta‘minlash.

Turli millat yoshlari uchun qo‘shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, ularda fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik, bag‘rikenglikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatini yuksaltirish.

Xorijiy tillarda faoliyat yuritayotgan hamda millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosatini yoritayotgan ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rish.

Xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida do‘stlik jamiyatlari faoliyatini takomillashtirish.

Tasviriy va amaliy san‘at hamda dizayn yo‘nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish.

Atoqli O‘zbekiston xalq rassomlari va amaliy san‘ati ustalarining namunali hayoti va ijodini keng targ‘ib qilish hamda ular xotirasini abadiylashtirish.

O‘zbekiston tasviriy va amaliy san‘atini xalqaro darajada ommalash-tirish.

Tasviriy va amaliy san‘at hamda dizayn yo‘nalishlarida yetuk muta-xassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Madaniyat va san‘at sohalarini yanada rivojlantirish, madaniyat muassasalari va obyektlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash.

Madaniyat va san‘at sohasi vakillari, ijodkorlar, shuningdek, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchi va xodimlarni moddiy qo‘llab-quvvatlash hamda ularning yashash sharoitlarini yaxshilash.

Teatr san‘atini rivojlantirish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash. Madaniyat markazlari faoliyatini takomillashtirish va ular tomonidan aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, shuningdek, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash. Hududlarda yangi madaniyat obyektlarini barpo etish va ularning samarali faoliyat olib borishini ta‘minlash.

O'zbek sirk san'atini yanada rivojlantirish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

Milliy madaniyatni xalqaro darajada ommalashtirishga qaratilgan tadbirlarni hududlarda o'tkazishni joriy etish.

O'zbek xalqi madaniyati va san'atini rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan atoqli ijodkor ziyolilar yubileylarini munosib nishonlash, hayoti va faoliyatini keng targ'ib qilish, xotirasini abadiylashtirish.

Respublika hududida joylashgan madaniy meros obyektlarini saqlash, restavratsiya va konservatsiya qilish bilan bog'liq kompleks tadbirlarni amalga oshirish.

O'zbekiston tarixini o'rganish va targ'ib qilishni yanada rivojlantirish.

Tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish.

Milliy kino san'atini rivojlantirish.

Kino san'atini jamiyatning ma'naviy, madaniy-ma'rifiy hayotida, jumladan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda strategik manba sifatida shakllantirish.

Kino sanoatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini bozor tamoyillari asosida takomillashtirish, shuningdek, xorijiy kinokompaniyalarni mamlakatga jalb qilish va hamkorlikda filmlar ishlab chiqarishni rivojlantirish.

Milliy multiplikatsiya industriyasini shakllantirish.

Kino sanoatini iqtisodiyotning alohida tarmog'i sifatida rivojlantirish, zamonaviy va yuqori texnologik moddiy-texnika bazasiga ega infratu-zilmani yaratish.

Kinematografiya sohasida kadrlar tayyorlash, kino ijodkorlari va texnik xodimlari malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish.

Milliy seriallar ishlab chiqarishni davlat tomonidan rag'batlantirish, animatsion filmlar ishlab chiqarishga yosh multiplikator va animatorlarni keng jalb qilish.

Sohada mualliflik huquqining kafolatli himoya qilinishini ta'minlash, kinoprokat tizimini rivojlantirish va milliy filmlarni jahon kino bozorlariga olib chiqish.

Nazorat savollari

1. Mustaqillik yillarida ma'naviy va madaniy hayot sohasidagi islohotlar to'g'risida nimalar bilasiz?
2. Mustaqillik yillarida buyuk ajdodlarimiz va tarixiy shaxslarning faoliyatini o'rganish maqsadida qanday chora-tadbirlar amalga oshirildi?
3. Tarixiy haqiqat va tarixiy xotiraning tiklanishi deganda nimani tushunasiz?
4. Bugungi kunda O'zbekistonda yuritilayotgan diniy bag'rikenglik tushunchasining mohiyatini aytib bering.
5. Mustaqillik yillarida tarixiy yodgorliklar va muqaddas qadamjolar-ni obod qilish bo'yicha qanday ishlar amalga oshirildi?

9. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA’LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

9. 1. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining mazmun-mohiyati

Madaniy-ma’naviy rivojlanishning eng muhim poydevori ta’lim tizimidir. Chunki zamon talablariga javob beradigan, ilg‘or fan-texnika, texnologiya yutuqlarini egallab olgan kadrlarni yetishtirmasdan jamiyatni yuksaltirib bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har kim bilim olish huquqiga ega ekanligi, shu asnoda davlat bepul umumiy ta’limni kafolatlashi belgilab qo‘yilgan. O‘zbekistonning ta’lim sohasidagi siyosati 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida»gi yangi tahrirdagi qonun hamda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida o‘z aksini topdi.

O‘zbekistonda shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnik va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi rivojlanishning ustuvor sohasi deb qonunan e’tirof etildi. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining eng muhim tomoni shundaki, unda yaxlitlik va tizimli yondashuv mavjud bo‘lib, shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan va ishlab chiqarish jarayoni bir-biri bilan yagona tizimga bog‘langan. Dastur mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalari va hayoti jabhalari uchun yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida ta’lim, fan va ishlab chiqarish, yoshlarning ma’naviy, axloqiy tarbiyasini samarali birlashtirishni ta’minlash, shuningdek, kadrlar tayyorlash sohasida o‘zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan yagona o‘quv-ilmiy ishlab chiqarish majmuyi sifatidagi ta’lim tizimini bosqichma-bosqich takomillashtirish vazifalarini hal qilishga xizmat qiladi.

Ta’lim O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e’lon qilingan.

Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta’limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o’rta, shuningdek, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining majburiylikligi;
- o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo’nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o’qishni tanlashning ixtiyoriylikligi;
- ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta’lim standartlari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqlikligi;
- ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo’lishni va iste’dodni rag’batlantirish;
- ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg’unlashtirish.

Jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e’tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqeyi, turar joyi, O‘zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganidan qat’i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi.

Bilim olish huquqi:

- davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini rivojlantirish orqali;
- ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta’lim olishni tashkil etish;
- ta’lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o’qitish, shuningdek, ta’lim muassasalarida shartnoma asosida to’lov evaziga kasb-hunar o’rgatish;
- barcha turdagi ta’lim muassasalarining bitiruvchilari keyingi bosqichdagi o’quv yurtlariga kirishda teng huquqlarga ega bo’lishi;
- oilada yoki o’zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga akkreditatsiyadan o’tgan ta’lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o’tish huquqini berish orqali ta’minlanadi.

Boshqa davlatlarning fuqarolari O‘zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga ega.

Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo’lmagan shaxslar bilim olishda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

Uzluksiz ta’lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta’lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta’lim dasturlarining izchilligi asosida ta’minlanadi va quyidagi ta’lim turlarini o’z ichiga oladi:

- maktabgacha ta’lim;
- umumiy o’rta ta’lim;
- o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi;
- oliy ta’lim;
- oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta’lim.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil dekabr qarori bilan 1-oktabr – «O‘qituvchilar va murabbiylar kuni» deb belgilandi, hamda bu kun bayram sifatida dam olish kuni deb e’lon qilindi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi 3 bosqichdagi islohotlar asosida amalga oshirildi.

I bosqich – 1997–2001-yillarda dasturni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy-me’yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratildi. Buning uchun davlat tomonidan qo‘shimcha ravishda 65 milliard so‘m mablag‘ sarf qilindi.

II bosqich – 2001–2005-yillarni o‘z ichiga olib, milliy dastur keng miqyosda joriy etildi.

III bosqich – 2005-yildan 2017-yilgacha. Bu bosqichda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi natijasida erishilgan natijalar, to‘plangan tajribalar umumlashtirilib, shu asosda yurtimizda ta’lim tizimi takomillashtirilib borildi.

9. 2. Maktabgacha ta’lim va umumiy ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlab o‘tilganidek, «...yangi ta’lim muassasalarini qurish, mavjudlarini ta’irlashga alohida e’tibor qaratildi. 12 ta umumta’lim maktabi yangitdan barpo etildi, 320 tasi rekonstruksiya qilindi, 152 ta maktab kapital ta’mirlandi. Shuningdek, 107 ta maktabgacha ta’lim muassasasi rekonstruksiya qilindi va qurildi, 195 ta bog‘cha kapital ta’mirlandi. Farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi katta o‘rni va ahamiyatini e’tiborga olib, Maktabgacha ta’lim vazirligini tashkil etdik.

Biz ushbu sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashimiz, jumladan, yaqin 3–4 yilda barcha hududlarda minglab yangi bog‘chalar qurishimiz, ta‘lim-tarbiya sifati va darajasini yangi bosqichga ko‘tarishimiz lozim.

Davlatimiz rahbari tomonidan keyingi davrda ta‘lim-tarbiya tizimini mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladigan bir necha muhim farmon va qarorlar qabul qilindi. Prezidentimizning 2017-yil 30-sentabrda qabul qilingan qaroriga muvofiq, yurtimizda birinchi marta Maktabgacha ta‘lim vazirligi tashkil etildi. Qisqa davr ichida ushbu tizimda tub o‘zgarishlar amalga oshirildi, 980 dan ortiq bog‘cha qurilib, ishga tushirildi. Davlatimiz rahbarining 2018-yil 30-sentabrda qabul qilingan «Maktabgacha ta‘lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori maktabgacha ta‘lim tizimini yagona uzluksiz ta‘lim tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta‘lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta‘minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma‘naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy dastur va texnologiyalarning ta‘lim-tarbiya jarayoniga joriy etilishi ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirishga xizmat qilmoqda. Qarorga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi qoshida Axborot va pedagogika texnologiyalarining innovatsion markazi, Ixtisoslashtirilgan loyiha-izlanish instituti, Infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha injenering kompaniyasi, Maktabgacha ta‘limni rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etildi. Bugungi kunda mamlakatimizda 9,7 mingta maktabda 5,2 million o‘quvchi ta‘lim oladi, o‘quv-tarbiya va boshqaruv jarayonida 450 mingdan ziyod xodim mehnat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 17-iyul kuni umumiy o‘rta ta‘lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishida o‘qituvchining ijtimoiy mavqeyini oshirish zarurligini alohida ta‘kidladi. Dunyo tajribasi ham buni tasdiqlaydi. Misol uchun, Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya, Kanada kabi davlatlarda o‘qituvchining maoshi mamlakatdagi o‘rtacha oylikdan 1,5 barobar ko‘p. Mamlakatimizda esa o‘qituvchining maoshi umumiy o‘rtacha oylikning atigi 79 foizini tashkil etadi.

Ta'lim sohasida so'nggi 2017–2020-yillar ichida amalga oshirilgan muhim islohotlardan yana biri, bu umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sohalaridagi tub o'zgarishlardir. Bu borada 12 yillik majburiy ta'limga o'tish natijalarini har tomonlama tahlil qilish hozirgi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi bugungi kun talablariga javob bermasligini va tubdan isloh qilishga muhtoj ekanligini ko'rsatdi. Ushbu sohadagi mavjud muammolarni tizimli hal etish, ilg'or xorijiy mamlakatlarning tajribasi asosida kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida 2018-yil 25-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi.

Agar raqamlarga murojaat qilinsa, 2019-yilda mutlaqo yangicha mazmun va shakldagi 4 ta Prezident maktabi, 3 ta ijod maktablari ish boshladi. 2019-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakatimizda 9,7 mingta maktabda 5,2 milliondan ortiq o'quvchi ta'lim oldi, o'quv-tarbiya va boshqaruv jarayonida 450 mingdan ziyod xodim mehnat qilmoqda. Ularning moddiy hayoti va jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyini oshirish masalalariga ham alohida urg'u berilgan. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 17-iyul kuni umumiy o'rta ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishida o'qituvchining ijtimoiy mavqeyini oshirish zarurligini alohida ta'kidladi.

Ammo mamlakatimizda sohada amalga oshirilgan tub islohotlar natijasida so'nggi ikki yarim yil ichida bu boradagi muhim islohotlar quyidagilarda o'z aksini topdi:

Boshlang'ich va yuqori sinf o'qituvchilarining maoshlari tenglashtirildi. Shu ma'noda, bugun o'qituvchilar uchun barcha qulayliklar yaratish, o'qituvchini uy-joy bilan ta'minlash, ularga avtokreditlar ajratilishi juda katta e'tibor mahsuli bo'ldi. Qarorga binoan, har yili qishloq va shaharlarda namunaviy loyihalar bo'yicha qurilayotgan arzon uy-joylarning bir qismini xalq ta'limi tizimida mehnat qilayotgan pedagog xodimlarga 20 yil muddatga, 3 yillik imtiyozli davr hamda birinchi 5 yil mobaynida yillik 7 foiz stavkasi bilan va keyingi davrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasi miqdorida dastlabki baholash darajasi 10 foiz bo'lgan ipoteka krediti sifatida berilishi alohida g'amxo'rlikdir.

2018-yil 1-sentabrdan boshlab maktablarda faoliyat olib borayotgan 450 mingdan ziyod pedagog va rahbar xodimlarning maoshi oshirildi. Ular uchun maxsus davlat mukofoti ta'sis qilindi. O'qituvchilarni turli boshqa xo'jalik va majburiy ishlarga jalb etish, maktablarda asossiz tekshiruvlar o'tkazish amaliyotiga chek qo'yildi. So'nggi 2 yil ichida qariyb 13 ming nafar erkak o'qituvchilar maktablarga qaytdi, ishlab turgan pensioner o'qituvchilarga pensiyalarni to'liq miqdorda to'lash yo'lga qo'yildi.

2020- yil 24 -yanvarda Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida qayd qilinganidek, oliy ta'limni rivojlantirish uchun o'tgan 2019-yilda 19 ta yangi oliy o'quv yurti, jumladan 9 ta nufuzli xorijiy universitetning filiallari ochildi. Yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda 141 qo'shma ta'lim dasturi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Oliy ta'lim muassasalariga jami 146 ming 500 nafar yoki 2016-yilga nisbatan 2 barobar ko'p talaba o'qishga qabul qilindi.

Mamlakat uchun ilm-fan sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni aniq belgilab olish, har yili ilm-fanning bir nechta ustuvor yo'nalishini rivojlantirishdir. Ayniqsa, joriy yilda *matematika, kimyo-biologiya, geologiya* kabi yo'nalishlarda fundamental va amaliy tadqiqotlarni faollashtirib, olimlarga barcha shart-sharoitlar yaratib berilishi, ilm-fan sohasida fundamental va innovatsion tadqiqotlar uchun maqsadli grant mablag'larini ajratish mexanizmini, tubdan qayta ko'rib chiqish kerakligi qayd qilindi. Har bir oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot dargohi nufuzli chet el universitetlari va ilmiy markazlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi.

Ko'plab ota-onalar, o'qituvchi va o'quvchilar hamda keng jamoatchilik tomonidan bildirilgan takliflar asosida yurtimizda 11 yillik ta'lim qayta tiklandi. Respublikamizda 11 yillik o'rta ta'limning joriy etilishi hamda oliy ta'lim qamrovining kengayishi, yoshlarni bo'sh yurishlariga o'rin qoldirmadi. Bu o'quvchiga ota-ona bag'rida bo'lib ham o'qib ham o'zi xohlagan hunarni egallashiga imkon beradi.

9. 3. Oliy ta'lim tizimi va xalqaro hamkorlik

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq

fan olimpiadalari g'oliblarini rag'batlantirishning yangi tizimi joriy etildi. Olimpiadada g'oliblikni qo'lga kiritgan o'quvchilar va ularning o'qituvchilari bir martalik pul mukofotlari bilan taqdirlanadi. Shuningdek, quyidagi fanlar bo'yicha olimpiada g'oliblari davlat OTMLariga test sinovsiz va qo'shimcha imtihonsiz imtiyozli qabul qilinishi ham belgilab qo'yildi:

1. Xalqaro matematika olimpiadasi – International Mathematical Olympiad (IMO)

2. Xalqaro fizika olimpiadasi – International Physics Olympiad (IPhO)

3. Xalqaro kimyo olimpiadasi – International Chemistry Olympiad (IChO)

4. Xalqaro biologiya olimpiadasi – International Biology Olympiad (IBO)

5. Xalqaro informatika olimpiadasi – International Olympiad in Informatics (IOI).

2019-yilda O'zbekiston terma jamoasi Xalqaro olimpiadalarda jami 8 ta medalni qo'lga kiritdi. Jumladan, 11–22-iyul kunlari Buyuk Britaniyaning Bat shahrida bo'lib o'tgan 60-Xalqaro matematika olimpiadasida (IMO) O'zbekiston jamoasi 1 ta bronza medali (2018-yilda medal olinmagan) va 3 ta diplom, 14–21-iyul kunlari Vengriyaning Seged shahrida bo'lib o'tgan 30-Xalqaro biologiya olimpiadasida (IBO) O'zbekiston jamoasi 3 ta bronza medali (2018-yilda medal olinmagan), 21–30-iyul kunlari Fransiyaning Parij shahrida bo'lib o'tgan 51-Xalqaro kimyo olimpiadasida (IChO) O'zbekiston jamoasi 2 ta kumush va 2 ta bronza medali (2018-yilda 2 ta bronza medali) sohibi bo'ldi.

2020-yilgi natijalarga ko'ra, Yaponiya tomonidan tashkil qilingan IBO 2020 Challenge Xalqaro biologiya olimpiadasida 52 ta davlatdan 262 nafar ishtirokchi qatnashdi. Masofaviy tarzda o'tkazilgan ushbu olimpiada natijalariga ko'ra, O'zbekiston terma jamoasi a'zosi mamlakat tarixida ilk bor biologiya yo'nalishida oltin medalni qo'lga kiritdi. Shu bilan bir qatorda, olimpiadada 2 ta kumush medali ham o'zbekistonlik akademik litsey o'quvchilari tomonidan egallandi.

Prezident maktablarining 9–11-sinflarida ta'lim olish o'quvchilarning qiziqishlariga ko'ra ayrim fanni tanlash va ularni o'rganish dara-

jasini inobatga olgan holda individual o'quv jarayoni asosida amalga oshiriladi. Prezident maktablari bitiruvchilari belgilangan tartibda davlat tomonidan tasdiqlangan shahodatnoma, attestat bilan bir qatorda, xalqaro darajadagi tegishli dastur diplomi (International Baccalaureate, Advanced Placement yoki International Advanced Levels)ga ega bo'ladi. Bu esa o'z navbatida xorijiy oliy o'quv yurtlariga kirish imkonini beradi. Kembrij Universitetining Cambridge Assessment International education brendi ostida faoliyat yurituvchi Imtihan Kengashi Prezident maktablariga qabul imtihonlarini tashkil etishi kutilmoqda.

Oliy ta'lim tizimi. O'zbekistondagi ta'limning barcha bosqichlari uchun zamon talablariga javob beradigan yangi davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, shu jumladan, multimediali o'quv dasturlari hamda millionlab nusxada nashr qilinayotgan darsliklar va o'quv qo'llanmalari ishlab chiqilgan va joriy etilgan. Ilg'or pedagogik texnologiyalar va o'qitishning interfaol usullaridan keng foydalanilmoqda. Har bir o'quv muassasasida o'quv adabiyotlarning, shu jumladan, elektron o'quv adabiyotlarining katta zaxiralari ega, o'z axborot-resurs markazlari mavjud.

1992-yil martda viloyatlardagi pedagogika institutlari negizida Andijon davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti, Termiz davlat universiteti, Urganch davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti tashkil qilindi. Prezidentning 1992-yil fevraldagi Farmoni bilan yana sakkizta viloyat pedagogika institutlariga universitet maqomi berildi.

Respublikamizda 2020–2021-o'quv yilidan boshlab 725 ta mutlaqo yangi professional ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yildi. So'nggi yillarda respublikamizda 52 ta yangi oliy ta'lim muassasalari, jumladan, 18 ta xorijiy oliy ta'lim muassasalarining filiallari, 9 ta nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilib, oliy ta'lim muassasalari soni 129 taga yetdi.

Iqtisodiyot tarmoqlari uchun kadrlar tayyorlash sohasini yanada kengaytirish maqsadida yangi 117 ta ta'lim yo'nalishlari hamda 133 ta mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi, sirtqi va kechki ta'lim shakllari joriy etildi.

2020-yilda qabul parametrlari 2017-yilga nisbatan 2,5 barobarga oshdi, jumladan, ishlab chiqarish-texnik sohasida 73%, sog'liqni saqlash sohasida 77%, pedagogika sohasida 89%, qishloq va suv xo'jaligi sohasida 52%ga oshirildi. Natijada, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab

olish darajasi 2017-yildagi 9 foizdan 25 foizga yetkazildi. Oliy ta'lim muassasalariga talabalarni qabul qilishda shaffof, ochiq tizim joriy etildi.

Magistraturada qabul ko'rsatkichlari tabiiy va muhandis-texnik, shuningdek, matematika sohalari mutaxassisliklari bo'yicha to'liq davlat granti asosida belgilandi hamda qabul parametrlari 2 barobarga oshirildi.

Respublika oliy ta'lim muassasalarida 22 ta xorijiy davlatlar (AQSH, Germaniya, Rossiya, Belarus, Gollandiya, Isroil, Italiya, Finlyandiya, Fransiya, Chexiya, Xitoy, Hindiston, Koreya Respublikasi va b.)ning yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari doirasida 83 ta ta'lim yo'nalishlari va 64 ta mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Joylardagi o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojni qoplash uchun Toshkent viloyatida Chirchiq davlat pedagogika instituti tashkil etildi. Bundan tashqari, 15 ta oliy ta'lim muassasasida tashkil etilgan maxsus sirtqi bo'limlarda o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan 5 mingdan ortiq pedagoglar uchun oliy ma'lumot olish imkoniyati yaratildi.

Ta'lim tizimidagi innovatsiya va kreativ yondashuvlar asosida Muhammad Xorazmiy va Mirzo Ulug'bek nomlari bilan ataladigan, aniq fanlar chuqur o'qitiladigan maxsus maktablar tashkil etildi.

Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish borasida ham ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2017–2021-yillarda oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi qabul qilindi. 2018-yilda yurtimizda xalqaro talablarga javob beradigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng qamrovli ishlar qilindi. 2018-yilda mamlakatimizda jami 13 ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, Samarqandda «Ipak yo'li» turizm xalqaro universiteti, Rossiya Federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasi «Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti»ning Olmaliq shahridagi filiali, Toshkent shahrida Janubiy Koreyaning Puchon universiteti filiali, Hindistonning «Amith» universiteti filiali va bir qancha xususiy oliy ta'lim muassasalari faoliyat boshladi. Davlatimiz rahbarining 2018-yil 25-sentabrdagi Farmoni bilan Vazirlar Mahkamasi huzurida «El-yurt umidi» jamg'armasi tashkil etildi. Ushbu jamg'arma chet ellarda faoliyat ko'rsatayotgan salohiyatli vatandosh olimlar, mutaxassislar va ekspertlarni O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarga faol jalb etishga, shuningdek, iqtidorli yoshlarning rivojlangan

mamlakatlarda ta'lim olishi, yetakchi xalqaro institutlar hamda xorijiy tashkilotlarda malaka oshirishiga ko'maklashadi.

2018-yilda "El-yurt umidi" jamg'armasi tomonidan 700 dan ziyod olimlar, professor-o'qituvchilar chet elga ilmiy izlanish va malaka oshirish uchun yuborildi.

2018-yilda ilk bor xalqaro tajribalar asosida oliy ta'lim muassasalarining milliy reytingi yaratildi, ta'lim va ilmiy tadqiqot jarayonlari tahlil qilindi.

2018-yil 18–19-oktabr kunlari birinchi marotaba «Yangi iqtisodiyot uchun yangi kadrlar» mavzusida O'zbekiston–Rossiya ta'lim forumi o'tkazildi. Unda Rossiyaning yetakchi oliy ta'lim muassasalarining 80 dan ortiq rektori ishtirok etishdi. Ushbu forum yakunida rossiyalik hamkorlar bilan ta'lim va ilmiy faoliyatga oid 114 ta shartnoma hamda bitimlar imzolandi. Jumladan, O'zbekistonda Rossiyaning 6 ta nufuzli oliy ta'lim muassasasi filiali va 2 ta fakultet ochilishi, 52 ta qo'shma ta'lim dasturi joriy etilishi nazarda tutildi. Har bir kelishuv bo'yicha yo'l xaritalari ishlab chiqilgan. O'zMU, BDU, FarDU, O'z FA va boshqa O'zbekiston oliy o'quv yurtlari va ilmiy muassasalari Rossiya oliy ta'lim muassasalari bilan bitimlar imzoladi. «Vernadskiy – Ulug'bek» loyihasi bo'yicha qo'shma ilmiy maktablar yaratildi. Vernadskiy universiteti ilmiy-ma'rifiy konsorsiumlari bilan 2019–2021-yillarda madaniy-gumanitar sohada hamkorlik dasturi imzolandi. Prezidentimizning 2018-yil 5-iyundagi «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori oliy ta'lim tizimidagi mavjud muammolarni bartaraf etish, ta'lim sifatini yanada yuksaltirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Yangi tashkil etilgan institut va filiallar hisobidan yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalari soni 81 taga, hududlardagi filiallar 15 taga, xorijiy universitetlar filiallari 7 taga yetdi. Shular qatorida Olmaliq shahrida Moskva po'lat va qotishmalar institutining, Toshkent shahrida esa AQSHning Webster universitetining filiallarini tashkil etish bo'yicha kelishuvlarga erishilganini ta'kidlash lozim. Hozirgi kunga kelib, O'zbekistonda 95 ta mahalliy va 21 ta xorijiy – jami 116 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatmoqda.

2022-yil 20-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “So‘nggi yillarda oliygohlarimiz 2,5 barobar ko‘payib, 198 taga yetdi, qamrov darajasi 9 foizdan 38 foizga oshdi.

Biz bu raqamlarni yanada ko‘paytirishni maqsad qilganmiz. Lekin, ta‘lim sifati nima bo‘ladi, degan savol hammamizni o‘ylantirishi kerak.

Avvalambor, bunga har bir oliygoh o‘zi harakat qilishi lozim, o‘shanda natija bo‘ladi.

Bu borada 41 ta oliygohga akademik va moliyaviy mustaqillik berildi, ularda transformatsiya ofislari ochildi» deb aytib o‘tildi.

Oliy ta‘lim muassasalarida iqtisodiyotning real sektoridagi talab va ehtiyojdan kelib chiqib, sirtqi va kechki bo‘limlar tashkil qilindi. Qolaversa, Samarqand veterinariya meditsinasi instituti, O‘zbekiston jurnalistikasi va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tashkil etildi. Ushbu sa‘y-harakatlar oliy ta‘lim qamrovini kengaytirishda, oliy ma‘lumotlilar sonini oshirishda katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Ushbu yo‘nalishda shuningdek, 2019-yildan boshlab ilk bor abituriyentlarning bir yo‘la 3 ta OTM ga, 2020-yildan boshlab 5 ta OTMga hujjat topshirish tizimi joriy qilindi, 2018 hamda 2019-yillarda o‘tkazilgan qabul jarayonlari shaffof, adolatli tarzda tashkil qilindi, natijada haqiqiy bilimi bo‘la turib, bir necha yillar o‘qishga kira olmagan abituriyentlarga keng imkoniyatlar yaratdi. Sohada mavjud bo‘lgan korrupsiya tizimiga barham berildi.

Ammo bu borada oldimizda ulkan vazifalar turganligini barchamiz chin yurakdan his qilmog‘imiz lozim. Davlatimiz rahbarining 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida qayd etilganidek, oliy ta‘lim muassasalari qabul kvotasi qamrovini umumta‘lim maktablari bitiruvchilariga nisbatan 25 foizga va 2021-yilda 50, 60 % ga yetkazildi. Vaholanki, ushbu ko‘rsatkich Rossiyada 74 foiz, Koreya Respublikasida 96 foizdir.

Kelgusida qizlar uchun alohida grantlar ham ajratiladi. Xotin-qizlar Qo‘mitasiga ushbu grantlar asosida o‘qitishga nomzodlarni tanlash va saralash mezonlari ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan edi, bu bajarildi. Prezident alohida urg‘u bergan masala bu, oliy ta‘lim muassasalariga

kirish imtihonlarini optimallashtirish, o'qishga kirish jarayonlarini sod-dalash-tirish-ga, oliy o'quv yurtlarida chinakam bilim va tarbiya olish-ga qaratish-dir. Shuning-dek, "...ona tili bo'yicha bilimni baholashning milliy test tizimini yaratish lozim. Yoshlar istalgan vaqtda imtihon topshirib, tegishli guvohnoma olsa, o'qish-ga kirayotgan paytda ona tili bo'yicha qayta sinovdan o'tish-ga hech qanday ehtiyoj qolmaydi. Oliy ta'lim stan-dartlari xorijiy tajriba asosida takomillashtiriladi, ta'lim yo'nalishlari va o'qitiladigan fanlar qayta ko'rib chiqiladi. Mutaxassislikka aloqasi bo'lmagan fanlar soni 2 barobar qisqartiriladi", – dedi Prezident o'z Murojaatnomasida.

Sohaning strategik yo'nalishi sifatida 2020-yildan boshlab pedagogik ta'limning 6 ta yo'nalishi bo'yicha o'qish muddati 3 yil qilib belgilana-di, 10 ta oliy ta'lim muassasasi o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlash-ga o'tdi. Ilm fan grantlari kelgusida 2 barobar ko'paytirilib, poytaxt Tosh-kent shahrida va viloyat markazlarida zamonaviy infratuzilmaga ega "IT Park"lar barpo etilayotgani ijobiy holatdir. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun "Raqamli O'zbekiston -30" dasturi ishlab chiqilishi bel-gilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmonida mamlakatimizdagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga, shu jumladan O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish vazifasi belgilab berildi.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Quacquarelli Symonds (QS) hamda Times Higher Education (THE) reyting agentliklari bilan respublika oliy ta'lim muassasalarini xalqaro reytinglarga kirish-ga tayyorlash bo'yicha hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yib, ular bilan doimiy maslahatlar, tahliliy seminarlar, har bir oliy ta'lim muassasasiga metodik yordam, ilmiy faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilmoqda.

Bugungi kunda Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi Niderlandiya-ning «Elsevier» kompaniyasi bilan hamkorlikda «Ilm-fan – 2020» milliy rivojlanish dasturini amalga oshirmoqda. Dasturning maqsadi professor-oʻqituvchilarning ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish, jahon taʼlim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va maʼlumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini yanada kengaytirishdan iborat.

Yuqoridagi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik natijasida Toshkent irrigatsiya va qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Quacquarelli Symonds (QS) agentligining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo universitetlari 2019-yilgi reytingida qayd etilgan ilk Oʻzbekiston oliy taʼlim muassasasi sifatida eʼtirof etildi.

Shuningdek, jahon universitetlarining Times Higher Education -Impact Rankings – 2020 reytingida respublika oliy taʼlim muassasalaridan uchtasi: Toshkent irrigatsiya va qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, Toshkent tibbiyot akademiyasi, Oʻzbekiston Milliy universiteti ilk marotaba qayd etildi.

2020-yil 16-dekabr kuni dunyo universitetlari reytingini belgilovchi Quacquarelli Symonds (QS) reyting agentligi 2021- yil uchun Rivojlanuvchi Yevropa va Markaziy Osiyo universitetlari reytingini eʼlon qildi. Unda Oʻzbekistonning bir yoʻla 4 ta oliy taʼlim muassasasi: Toshkent irrigatsiya va qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, Oʻzbekiston Milliy universiteti, Samarqand davlat universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti qayd etildi.

2021-yil Toshkent davlat yuridik universiteti TOP-500 ta universitetlari roʻyxatiga kirdi. Ushbu reytingda TDYUU dunyoning 94 mintaqa va davlatlaridan qatnashgan minglab universitetlar orasida 401-oʻrinni egalladi.

Bunday natijalar har yili eʼlon qilinib boriladi. 2023-yil uchun QS Osiyo Universitetlar reytingi (QS Asia University Rankings 2023)da ilk bor respublikamizning 8 ta oliy taʼlim muassasasi TOP 1 000 talikdagi Osiyoning eng kuchli universitetlari qatoridan joy oldi.

№	Oliy ta'lim muassasasi	Osiyodagi o'ri	Markaziy Osiyodagi o'ri
1.	“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti	301-350	14
2.	O‘zbekiston milliy universiteti	351-400	18
3.	Toshkent moliya instituti	551-600	29
4.	Toshkent davlat texnika universiteti	551-600	29
5.	Samarqand davlat universiteti	601-650	38
6.	Toshkent davlat agrar universiteti	601-650	38
7.	Qoraqalpoq davlat universiteti	701-750	41
8.	Toshkent davlat pedagogika universiteti	701-750	41

Xalqaro reyting tuzuvchi tashkilot Quacquarelli Symondsning bu yilgi reytingi bugungi kunga qadar eng kattasi hisoblanib, o‘z ichiga **760 ta** eng kuchli Osiyo universitetlarini qamrab olgan. Shuningdek, reytingni shakllantirishdagi asosiy ko‘rsatkichlar sifatida **akademik va ish beruvchining obro‘si, PhD darajasiga ega bo‘lgan xodimlar soni hamda xalqaro talabalar ulushi** kabi mezonlar birinchi marotaba kiritildi.

Qolaversa, QS Asia University 2023 reytingida Osiyo qit‘asidagi universitetlar joylashuviga qarab mintaqaviy o‘rinlari ham belgilangan bo‘lib, mamlakatimizning yuqoridagi 8 ta oliy ta’lim muassasasi QS Markaziy Osiyo Universitetlar Reytingida ham munosib o‘rinlarni egalladi.

Oliy ta’limda xalqaro hamkorlik. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining amalga oshirilishi natijasida O‘zbekistonda nisbatan qisqa muddatlarda dunyoning yetakchi davlatlarida ta’lim sohasida erishilgan ilg‘or yutuqlarni, milliy an‘analarni o‘z ichiga olgan prinsip jihatdan yangi modeli tashkil qilindi. Mustaqillik yillarida oliy ta’lim tizimida olib borilgan izchil islohotlar natijasida mamlakatimizda bir qator chet el universitetlarining filiallari ochildi. Jumladan, Buyuk Britaniyaning Xalqaro Vestminster universiteti, Toshkent shahrida M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, I.M. Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz davlat universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Italiyaning Turin politexnika universiteti filiallari ish boshladi. Shuningdek, Toshkentda G.V.Plexanov nomidagi Ros-

siya iqtisodiyot akademiyasi va Janubiy Koreyaning Inha universiteti filiallari ham o'zbek yoshlariga o'z ta'lim sirlarini o'rgatmoqdalar.

Yurtimiz va xorijdagi o'quv maskanlarida yuzlab iqtidorli yoshlar ta'lim olmoqda va o'z masalakasini oshirmoqda. Bunda xorijiy ta'lim muassasalari bilan ikki tomonlama tajriba almashish yo'lga qo'yilgani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim darajasi bo'yicha dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatoriga chiqdi. Yoshlarni jahon fani va bilimlari xazinasidan bahramand qilishga katta e'tibor berilmoqda. Respublika o'quv yurtlarining chet ellardagi o'quv markazlari bilan aloqalari ancha mustahkamlandi. Chet ellik o'qituvchilar va mutaxassislarni xorijiy tilda mashg'ulot olib borish uchun taklif qilish, shuningdek, chet el o'quv va ilmiy markazlarida xodimlarning malaka oshirishi va talabalarning o'qishi kengayib bormoqda. Ayni vaqtda jahonning ko'plab mamlakatidan kelgan xorijiy fuqarolar O'zbekistonda ta'lim olmoqda.

2017-yil 10 yildan ortiq vaqt mobaynidagi tanaffusdan keyin, davlat va jamiyatdagi malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlar inobatga olinib, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan sirtqi ta'lim tizimi tiklandi, maxsus sirtqi ta'lim takomillashtirildi.

2017-yil 16-noyabrda O'zbekiston Prezidentining «Respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, 2018/2019-o'quv yilidan boshlab alohida iqtidor talab etiladigan madaniyat, san'at, dizayn, tasviriy va amaliy san'at, musiqiy ta'lim, san'atshunoslik, sport va jismoniy tarbiya sohasidagi ta'lim yo'nalishlarida test sinovlari bo'lmaydi. Masalan, O'zbekiston davlat konservatoriyasi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti va alohida iqtidor talab etadigan ta'lim yo'nalishlariga faqat ijodiy imtihonlar orqali qabul qilish yo'lga qo'yiladi.

Tibbiyotga oid oliy ta'lim tizimida ham bir qator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, tibbiyot sohasida bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida o'qish muddati 7 yildan 6 yil va tibbiy profilaktika yo'nalishida 6 yildan 5 yil etib belgilandi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tuzilmasi faol rivojlantirilmoqda. Oliy

o'quv yurtlarida yo'nalish bo'yicha nomzodlik doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilish bo'yicha ixtisoslashgan kengashlar faoliyat ko'rsatmoqda. 2012-yilga qadar aspirantura (3 yil) va doktorantura (3 yil)dan iborat bo'lib, 2012–2017-yillarda bir bosqichli doktorantura faoliyat olib bordi. 2013–2017-yillar oralig'ida faqat 360 ga yaqin tadqiqotchi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Bu esa respublikadagi oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari uchun oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondira olmadi. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqot faoliyatida yoshlarning intellektual salohiyatini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida hamda bir qator ilg'or xorijiy mamlakatlarning xalqaro amaliyotini o'rgangan holda 2017-yilning 1-iyulidan boshlab oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali tizimi joriy etildi. Birinchisi – dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog'i bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi tayanch doktorantura va ikkinchisi – dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog'i bo'yicha fan doktori (Dr of Seins) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi doktorantura tizimidir.

9. 4. Mustaqillik yillarida ilm-fan sohasida erishilgan yutuqlar

Mustaqillikning dastlabki yillarida ilm-fan. Yuzaga kelgan yangi tarixiy shart-sharoit ilm-fan sohasini tub islohot qilishni taqozo etdi. Zero, dolzarb ilmiy-texnik muammolar hal qilinishi respublikaning rivojlanishini ta'minlar edi.

Avvalo, 1992-yil martdagi Prezident Farmoni bilan ilmiy kadrlar tayyorlanishini tashkil etuvchi vakolatli organ – Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) tashkil etildi. Prezidentning 1992-yil iyuldagi «Ilm-fanni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash va innovatsiya faoliyatini rivojlantirish to'g'risida»gi Farmoni asosida respublika olimlari xorijiy mamlakatlarga tajriba oshirishga yuborilishi yo'lga qo'yildi. Ilmiy natijalarni ichki va tashqi bozorga olib chiqish bilan shug'ullanuvchi Respublika ilmiy ishlanmalarni innovatsiya tijorat markazi Fanlar akademiyasi tarkibida tashkil etildi.

1997-yil Xorazm Ma'mun akademiyasi qayta tiklanib, Fanlar akademiyasining mintaqaviy bo'linmasi sifatida tashkil etildi.

2000-yili Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondi dunyoning eng boy qo‘lyozmalar xazinasidan biri sifatida YUNESKO madaniy merosi ro‘yxatiga kiritildi.

Prezidentning 2006-yil avgustdagi «Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi huzurida Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi tashkil etildi (bugungi kunda vazirlik). Qo‘mitaga fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqish, akademik va oliy ta‘lim muassasalari fani integratsiyalashuviga, ilmiy sohadagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashish kabi vazifalar belgilab qo‘yildi.

2008-yildan buyon Toshkentda innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalar yarmarkasi o‘tkazib kelinmoqda. 2008–2015-yillar davomida o‘tkazilgan I – VIII yarmarkalar doirasida jami 4000 dan ortiq ishlanmalar taqdim etildi. 2008-yildan buyon umumiy qiymati 113 mlrd. so‘mdan ortiq bo‘lgan 3000 dan ziyod shartnomalar tuzildi.

O‘zbekiston olimlari demokratik va huquqiy jamiyatning ma‘naviy-ma‘rifiy va madaniy rivojlanishini tadqiq qilish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, energetika va energiya xomashyoni tejash, axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya, kimyo, bio va nanotexnologiyalarni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, tibbiyot, farmakologiya, geologiya, geofizika, seysmologiya bo‘yicha ma‘lum yutuqlarga erishib kelmoqda.

Arxeologiya fani sohasida ham ma‘lum siljishlar bo‘ldi. Jumladan, 2002-yildan «O‘zbekistonda arxeologik tadqiqotlar» yillik to‘plamlari nashr etilib, ularda respublikamiz hududida olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlarning umumlashma ilmiy xulosalari berib boriladi. 2010-yildan esa «O‘zbekiston Arxeologiyasi» ilmiy jurnali chop etila boshlandi. Fanning boshqa yo‘nalishlaridagi olimlar ham yirik natijalarni qo‘lga kiritishmoqda. Fanlar akademiyasi O‘simlik moddalari kimyosi instituti tomonidan tayyorlangan 10 jildlik «Tabiiy birikmalar (O‘simlik zaxiralari, tuzilishi va xossalari)» nomli noyob ma‘lumotnoma ingliz tilida Londonda chop etildi. Bu ilm-fan sohasida xalqaro hamkorlik rivojlanayotganidan ham dalolat beradi.

Mustaqillikning dastlabki yillari birgina Fanlar akademiyasining ilmiy mahsulot eksporti 8,2 martaga ko‘paydi.

Ilm-fan va ta'lim integratsiyasi. O'zbekiston fani va ta'limi integratsiyasini ta'minlash borasida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon 2012-yilga qadar Fanlar akademiyasi tizimida ilmiy-o'quv markazlari tashkil etilishi orqali amalga oshirildi. Jumladan, 2011-yili Fanlar akademiyasining Fizika-texnika institutida «Qayta tiklanadigan energiya manbalari» ilmiy-o'quv markazi, 2012-yili Immunologiya institutida «Biotibbiyot» ilmiy-ta'lim innovatsion markazi ish boshladi.

2012-yildan esa, oliy ta'lim tizimida ilmiy sektor rivojini ta'minlash maqsadida Fanlar akademiyasining 5 ta ilmiy tadqiqot instituti, 4 ta mintaqaviy ilmiy markazlar ilmiy bo'linma tarzida qayta tashkil etilib, yo'nalishi va ixtisosliklariga ko'ra ular tegishli oliy ta'lim muassasalariga o'tkazildi. Fanlar akademiyasi tuzilmalarini qisqartirish va akademik fan va ta'lim integratsiyasini kuchaytirish maqsadida 2014-yilda 2 ta institut va 1 ta bo'linma oliy ta'lim muassasalari qoshidagi ilmiy-tadqiqot markazlari sifatida tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yildagi «Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq 2013-yilning 1-yanvaridan boshlab dissertatsiya himoya qilish va fan doktori ilmiy darajasini berish bo'yicha oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning bir bosqichli tizimi joriy qilindi. Lekin bu tizim mavjud xalqaro ilm-fan standartlariga to'la mos kelmaganligi, respublikadagi mavjud ilmiy salohiyatning tushib ketganligi sababli, 2017-yil fevraldan Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan xalqaro standartlariga mos keluvchi, falsafa doktori va fan doktori darajalarini beruvchi ikki bosqichli tizimga o'tildi.

Ilm-fandagi tub islohotlar. 2016–2017-yillar O'zbekiston ilm-fanida tom ma'noda tub islohotlar davri bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 30-dekabr kuni ilk bor mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashdi. Uchrashuv natijalariga ko'ra, O'zbekistonda ilm-fanga e'tibor yanada kuchayishi belgilandi. Prezidentning 2017-yil 17-fevraldagi «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida 9 ta ilmiy-tadqiqot muassasasi Fanlar akademiyasi tarkibiga qaytarildi, qator ilmiy tashkilotlar qayta tashkil etildi, Fanlar akademiyasining fan yo'nalishlari bo'yicha Jamoatchilik kengashi faoliyati yo'lga qo'yildi.

O‘zbekiston Prezidentining 2017-yilda imzolangan «Innovatsion rivojlantirish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida» qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi. Mazkur vazirlikning davlat va jamiyat qurilishiga, iqtisodiyot tarmoqlariga, qishloq xo‘jaligiga, ijtimoiy rivojlanishga, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish tizimiga innovatsiyalarni joriy etish hamda ilg‘or texnologiyalar joriy etilishini tashabbus qilish, muvofiqlashtirish va rag‘batlantirish sohasidagi asosiy vazifalari belgilab berildi.

Fanlar akademiyasi haqiqiy a‘zolariga oxirgi saylovlar 1995-yilda o‘tkazilgan edi. O‘tgan yillar mobaynida akademiklarning soni ikki martadan ko‘proqqa qisqardi va 2017-yilga kelib akademiyaning atigi 63 nafar haqiqiy a‘zosi qolgan edi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrda «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a‘zolarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi tarixiy Farmoni bilan 22 yillik uzoq tanaffusdan so‘ng Fanlar akademiyasining 32 nafar yangi haqiqiy a‘zolari tasdiqlandi. Bugungi kunda ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanuvchi 400 ta muassasa ro‘yxatga olingan bo‘lib, fan sohasida 36 ming mutaxassis, jumladan, 2 mingdan ortiq fan doktori va 9 mingdan ortiq fan nomzodi faoliyat olib bormoqda.

So‘nggi yillarda ta‘limning nodavlat shakli rivojlanish yo‘liga kirdi. Maktabgacha ta‘lim tizimi bo‘yicha alohida vazirlik tashkil etildi. Davlat-xususiy sherikchilik asosida maktabgacha ta‘lim muassasalari barpo etilishi bo‘yicha keng imkoniyatlar yaratildi. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida 6 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun ta‘limning majburiy etib belgilanishi, 11 yillik majburiy umumiy o‘rta ta‘limning joriy etilishi va ular bitiruvchilarga murakkab bo‘lmagan kasblar o‘qitilishi qonunni yangi tahrirda qabul qilishga ehtiyoj yuzaga kelganini bildiradi. Shuningdek, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlarida ta‘lim berish muddati va mazmunining o‘zgarishi, mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat‘i nazar, yuridik shaxslarga barcha ta‘lim turlari bo‘yicha nodavlat ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatishga ruxsat berilishi ham qonun loyihasini yaratishga asos bo‘ldi.

Pedagoglar, ta‘lim muassasasi xodimlari, ta‘lim oluvchilarning huquq va erkinliklari kengaytirilib, mas‘uliyati kuchaytirilishi, rag‘batlantirilishi ishga bo‘lgan munosabatni yanada oshirdi. Mulchilik shaklidan qat‘i nazar, yuridik shaxslarga ta‘lim xizmatini ko‘rsatishga ruxsat berilgani, rivojlan-

gan xorijiy davlatlarning ta'lim sohasidagi ilg'or tajribalari yurtimizda joriy etilayotgani va bir qator xalqaro konvensiyalar ratifikatsiya qilingani ham «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning yangi tahririga zaruratni kuchaytirdi.

Qonunning yangi tahrirdagi loyihasi 12 bob, 70 dan ortiq moddadan iborat bo'lishi mumkin (amaldagi qonun 5 bob, 34 moddadan iborat). Qonun loyihasiga asosiy yangi yo'nalishlar kiritilmoqda. Xususan, katta yoshdagilar ta'limi, maxsus ta'lim, inklyuziv ta'lim, yakka tartibda pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish, davlat-xususiy sherikchiligi, ta'lim sohasiga investitsiyalarni kiritish, ta'lim muassasalarining o'zini o'zi baholashi, ta'lim ishtirokchilarining huquqlari, majburiyatlari, ta'lim sohasida eksperimental va innovatsion faoliyat kabi muhim masalalar qamrab olinmoqda.

Shuningdek, qonun loyihasida pedagog kadrlarning faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan boshqa ishlarga jalb etilishi taqiqlanishi, bu masalada ta'lim muassasalari rahbarlari javobgar bo'lishi belgilanmoqda. Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlarining vakolatlari va ta'lim muassasalari faoliyati erkinligi kengaytirilishi taklif etilmoqda.

Bakalavriat yo'nalishida ta'lim olish davomiyligi kamida 3 yil, magistraturada esa kamida 1 yil etib belgilanmoqda. Shuningdek, yana bir qancha o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Qonunga ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi prinsipi kiritilmoqda.

11 yillik ta'limning hamda 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi o'rnatilmoqda.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning amalga oshirilishi mumkinligi mustahkamlanmoqda.

Ta'lim olishning quyidagi shakllari belgilanmoqda:

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi);
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy, dual);
- oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;
- katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish;
- mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash;
- inklyuziv (uyg'unlashgan) ta'lim;

· eksternat tartibida ta'lim olish.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarining sinflarida ta'lim oluvchilar soni 35 nafardan oshmasligi belgilanmoqda.

Oilada ta'lim olgan va mustaqil ta'lim olgan shaxslarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjat berilishi mumkinligi belgilanmoqda.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta'lim sifati va darajasiga, shuningdek, pedagog xodimlarning kasb faoliyatiga bo'lgan davlat talablariga rioya etilishiga doir vakolatlari bekor qilinmoqda.

Ta'lim tashkilotlarida siyosiy partiyalarning tashkiliy tuzilmalarini tashkil etish taqiqlanmoqda.

Chet davlatlari va O'zbekiston oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida ularning bitiruvchilariga ikki tomonlama diplom (Double Diploma) berilishi mumkinligi belgilanmoqda.

Shuningdek, qonun bilan ta'lim tashkilotlarida ta'lim oluvchilarning kiyinishiga doir talablar qo'yilishi mumkinligi belgilanmoqda.

Ta'limga e'tibor davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi, buni biz 2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham ko'rishimiz mumkin. Murojaatnomada: **“Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir.**

Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek:

“Zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi,

Bilim bor joyda buyuklik bo'ladi”.

Shuning uchun ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta'lim dargohlariga borib, o'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, o'quv-tarbiya ishlari sifatini oshirish bo'yicha ular qo'ygan masalalarni birgalikda hal etishimiz kerak.

Shu bois, birinchi navbatda, e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratamiz.

“Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezuq maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”.

Ma'rifatparvar jadid bobolarimizning bu so'zlari deputat va senatorlarimiz, siyosiy partiyalar, mahalliy kengashlar, butun davlat apparati, keng jamoatchilikning amaliy harakatiga aylanishi kerak. Shu bois, maktablar-

da ta'lim sifati hamda jamiyatda o'qituvchi kasbining nufuzini oshirish, muallimlarning sharoitlarini yaxshilash 2023-yildagi eng asosiy vazifalarimizdan biri bo'ladi deya ta'kidladilar respublika rahbari.

Shu bois, kirib kelayotgan yangi, 2023-yilga yurtimizda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nom berish taklif qilindi.

O'zbekiston zamini azaldan bashariyat sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan, jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyoti yo'nalishini ma'lum darajada belgilab bergan ulug' allomalari, buyuk mutafakkirlari bilan shuhrat qozongan. O'zbek zaminidan Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek kabi va jahon ilm-fani xazinasiga ulkan hissa qo'shgan boshqa ko'plab buyuk olimlar, mutafakkirlar yetishib chiqqan. Bugun O'zbekiston olimlari mamlakatimiz ilm-fanini yanada rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratmoqda va fan-texnika taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shishga xizmat qiladi.

Nazorat savollari:

1. Ta'lim, ilm-fan sohalaridagi izchil islohotlar nimalarda o'z aksini topmoqda?

2. So'nggi yillarda respublikamizda nechta yangi oliy ta'lim muassasalari, nechta xorijiy oliy ta'lim muassasalarining filiallari, nechta nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yildi?

3. Jahon universitetlarining Times Higher Education-Impact Rankings - 2020 reytingida respublika oliy ta'lim muassasalaridan nechtasi qayd etildi?

4. Akademiyaning Hay'ati va faoliyat ko'rsatayotgan haqiqiy a'zolari tavsiyasiga ko'ra, Fanlar akademiyasining necha nafar yangi haqiqiy a'zosi tasdiqlandi?

5. Qizlar uchun alohida grantlar ajratildi. Qaysi qo'mitaga ushbu grantlar asosida o'qitishga nomzodlarni tanlash va saralash mezonlari ishlab chiqish vazifasi yuklatildi?

10. MUSTAQILLIK YILLARIDA QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI

10.1. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida amalga oshirilgan islohotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekistonning shimoli-g‘arbiy qismida, Amudaryoning quyi qismi, Orol dengizining janubiy sohilida joylashgan. Respublika janubi-g‘arb tomondan Qoraqum sahrosiga tutashgan. Uning shimoli-g‘arbida Ustyurt pasttekisligi, shimoli-sharqiy tomonida esa Qizilqum sahrosi yastanib yotibdi. Orol dengizining janubiy hududi qoraqalpoq zaminida joylashgan.

Qoraqalpog‘iston umumiy yer maydoni 166,6 ming kvadrat kilometr dan iborat bo‘lib, u hududining kattaligi jihatdan O‘zbekiston Respublikasi viloyatlari o‘rtasida birinchi o‘rinda turadi. Respublikaning aholisi 1 881,9 ming kishidan ziyoddir.

Respublikaning ma‘muriy-hududiy tuzilmasi 16 ta tuman va 1 ta shahardan iborat: Amudaryo, Beruniy, Bozatov, Ellikqal’a, To‘rtko‘l, Kegeyli, Chimboy, Qorao‘zak, Taxtako‘pir, Qolliko‘l, Sho‘manoy, Qo‘ng‘irot, Mo‘ynoq, Xo‘jayli, Taxiatosh, Nukus tumanlari va poytaxt – Nukus shahridir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi parlament boshqaruv shakliga ega bo‘lgan suveren respublikadir. Qoraqalpog‘iston o‘z Konstitutsiyasi, bayrog‘i, gerbi va madhiyasiga ega. Qoraqalpog‘istonning Konstitutsiyasi va qonunlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiq ishlab chiqilgan va ular shu asosda amal qiladi.

Respublikada umumiy rahbarlik Jo‘qorg‘i Kenges Raisi – Qoraqalpog‘iston Respublikasi parlamenti tomonidan amalga oshiriladi. Respublikaning oliy ijroiya hokimiyati Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi tomonidan tasdiqlangan Vazirlar Kengashi hisoblanadi. Respub-

lika Vazirlar Kengashi tarkibiga Kengash Raisi, Raisning o‘rinbosarlari, vazirlar, davlat qo‘mitalari raislari, yirik konsern va birlashmalar rahbarlari kiradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, o‘z vazifasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tarkibiga kiradi. O‘zbekiston Respublikasi poytaxti – Toshkent shahrida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining doimiy vakolatxonasi faoliyat yuritadi.

1990-yili 14-dekabrda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy Kengashi o‘zining IV sessiyasida «O‘zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat suvereniteti to‘g‘risida»gi Deklaratsiyani qabul qildi.

Mazkur Deklaratsiya 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida»gi Qonunda o‘zining huquqiy asosini topib, 1–17-moddalarida Qoraqalpog‘istonning hududiy yaxlitligi va mustaqilligi e‘tirof etildi. Har ikki respublika o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasida (70–75 moddalar) o‘z aksini topdi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy Kengashi o‘zining XII sessiyasida (1993-yil 9-aprel) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi milliy davlatchiligi o‘z taraqqiyoti tarixida birinchi marta insonparvar, adolatli, demokratik imtiyozlarga ega bo‘ldi. Ayni paytda u suveren respublikaning barcha atributlariga ega. «Qoraqalpog‘iston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida» Qonun 1992-yil 14-dekabrda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Yo‘qorgi Sovetining XI sessiyasida qabul qilingan. Qoraqalpog‘iston Respublikasining Davlat bayrog‘i Qoraqalpog‘iston Respublikasining suveren davlat ekanligini bildiradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining Davlat bayrog‘i moviy rang, sariq va yashil ranglardan iborat bo‘lib, markazida sariq rangni oq va qizil rangli yo‘laklar ajratib turadi. Bayroqning moviy rangi bahor yoshligi – suvning mangu timsoli hisoblanadi. Sariq rang esa, Qoraqalpog‘iston aymog‘ining ulkan qismi sahrolardan iborat ekanligini bildiradi. Yashil rang esa tabiatning yangilanishining, ma’naviy yasharish, ishonchining

va quyoshning belgisi. Bayroqdagi endi tugʻilgan oy musulmonlarning muqaddas timsoli boʻlsa, besh yulduzning rasmi Qoraqalpogʻistonning qadimiy va navquron besh shahrining – qoraqalpogʻistonliklarning turmush va ishonch qoʻrgʻonlarining timsoli hisoblanadi. Qoraqalpogʻiston Respublikasining Davlat bayrogʻi Qoraqalpogʻiston Respublikasining rasmiy vakillarining chet el safarlariga, xalqaro anjumanlarda, koʻrgazmalarda va sport oʻyinlarida Qoraqalpogʻiston Respublikasini jahonga tanitadi. Qoraqalpogʻiston Respublikasining Davlat bayrogʻi xalqaro maydonda boshqa davlatlarning bayroqlari bilan teng turadi.

Qoraqalpogʻiston Respublikasining fuqarolari va bu yerda yashaydigan boshqa insonlar Qoraqalpogʻiston Respublikasining Davlat bayrogʻini hurmat qilishi shart.

Qoraqalpogʻiston Respublikasining Oʻzbekiston Respublikasi tarkibiga kirganligi sababli 1992-yil 2-iyul 616-XII-sonli «Oʻzbekiston Respublikasi Davlat gerbi toʻgʻrisida»gi Qonuni bilan tasdiqlangan davlatimiz gerbini tan oladi. Ayni vaqtda Oʻzbekiston Respublikasining davlat madhiyasi ham Qoraqalpogʻiston Respublikasi uchun ham amal qiladi. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining matni va musiqasi Oʻzbekiston Respublikasining 1992-yil 10-dekabr 768-XII-sonli «Oʻzbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi toʻgʻrisida»gi Qonuni bilan tasdiqlangan.

10.2. Qoraqalpogʻiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishi, sanoat va qishloq xoʻjaligi sohasidagi oʻzgarishlar

Mustaqillik yillarida boshqa mintaqalarimiz qatori Qoraqalpogʻistonning rivojlanishiga ham ulkan eʼtibor qaratildi. Aynan ana shunday eʼtibor tufayli bugungi kunda respublika poytaxti – Nukus shahridan boshlab, tumanlar va qishloqlar, hatto, eng chekka ovullar ham har tomonlama oʻzgarib, rivojlanib bormoqda.

Bugungi kunda Oʻzbekiston markaziy budjetidan Qoraqalpogʻistonga berilayotgan subvensiya, yaʼni moliyaviy yordam miqdori butun Qoraqalpogʻiston budjeti xarajatlarining 75 foizini tashkil etmoqda.

Oʻzbekiston hukumatining amaliy yordami qoraqalpoq xalqining fidoyi mehnati tufayli keyingi yillarda Qoraqalpogʻistonda aholi turmush

sharoitini yaxshilash, tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish borasida qator ijobiy natijalarga erishildi. Eng avvalo, elda tinchlik va barqarorlik mustahkamlandi. Hamjihatlik bilan yurt istiqboli yo'lida mehnat qilishga sharoit yaratildi.

Respublikada mulkchilikning yangi shakllari paydo bo'la boshladi. Ishlab chiqarish va xizmat sohasida nodavlat sektorning hissasi oshib bordi. Sanoat, qishloq xo'jaligi va savdoda nodavlat sektori hissasi 80–90 foizni tashkil etmoqda.

Respublika iqtisodiyotining boshqa yo'nalishlarida ham islohotlar izchil amalga oshirila boshlandi.

Jumladan, bank tizimida ham jiddiy islohotlar amalga oshirildi. Bu yerda davlat banklar bilan birga tijorat va xususiy banklari ham faoliyat ko'rsatmoqda.

1999-yilning birinchi yanvarigacha bo'lgan ma'lumotlarga qaraganda xususiylashtirishdan tushgan mablag'larning umumiy hajmi 650 million so'mni tashkil etdi.

Uning 20 foizi respublika ijtimoiy taraqqiyotiga ajratildi. 50 foizi esa tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kreditlar ajratishga sarflandi. Shu bilan birga Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat mulkini xususiylashtirish qo'mitasi xususiylashtirilgan korxonalar va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 13,8 million so'm kredit ajratdi.

2000-yilga kelib 2932 korxonalar xususiylashtirildi. Bozor fondining faoliyati sezilarli ravishda faollashdi. 2000-yilga kelib respublika fond birjalari filiallarida 958 million so'mlik aksiyalar sotildi. Respublikada 7807 kichik va o'rta korxonalar, 8977 yakka tartibdagi tadbirkorlar ro'yxatga olindi. Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida nodavlat korxonalarining ulushi 90 foizga o'sdi.

Paxtadan ip ishlab chiqarish, ip gazlamalari, tayyor trikotaj buyumlar, iste'mol mahsulotlaridan un, makaron, mineral suvlar ishlab chiqarish ko'paydi. Yig'ma temir-beton konstruksiyalari va detallari, toshdan bezakli materiallar tayyorlash, qandolatchilik mahsulotlari, o'simlik yog'i, uzum vinosi, salqin ichimliklar, osh tuzi ishlab chiqarish o'sdi.

Sanoatda bir qator ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, 1995-yilda Xo'jayli shahrida shisha idishlar zavodi qurilib foydalanishga topshirildi. 1996-yilda Qo'ng'irotda «Urga» gaz sanoati korxonasida gaz

kondensati va tabiiy gaz qazib chiqarilishi boshlab yuborildi. Aholini gaz bilan ta'minlash darajasi 83 foizga yetdi.

«Qoraqalpoqqurilish» aksionerlik jamiyatida Italiya firmalarining yuqori sifatli uskunalari bilan jihozlangan, yiliga 60 ming kv.m. marmar bloklari va plitalari ishlab chiqaradigan yangi marmar sexi ochildi. «Nukusun» zavodida esa spirt ishlab chiqaradigan yangi sexi qurildi. Yengil sanoat ishlab chiqarishning bazasi kengaya bordi. 1993-yili Nukusda «Kateks» to'qimachilik majmuasi, 1995-yili Ellikqal'a tumanida «Elteks» to'qimachilik majmuasi foydalanishga topshirildi.

Nukus va Qo'ng'iro't un kombinatlari, To'rtko'lda 3 mln. shartli banka konserva mahsulotlari ishlab chiqaradigan zavod, Ellikqal'a tumanida esa shunday quvvatga ega konserva sexi foydalanishga topshirildi.

Qo'ng'iro't tumanida Markaziy Osiyoda yagona hisoblangan yiliga 190 ming tonna kalsiyli soda ishlab chiqaradigan zavod qurilishi boshlandi. Zavod tarkibida kimyoviy yo'l bilan ekologik toza va energiya sarflanmaydigan kaustik soda ishlab chiqarish ham ko'zda tutilgan. Qo'ng'iro't-Beynou avtomobil trassasi, Navoi-Uchquduk-Nukus temir yo'li qurildi. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasida institutsional va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda ma'lum ijobiy siljishlarga erishildi. Noqulay ekologik sharoitga qaramasdan mintaqada makroiqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida islohotlarni amalga oshirish o'zining ijobiy samalarini ko'rsatmoqda.

Amaliyotda asosan mintaqaning rivojlanish strategiyasi davlat tomonidan ishlab chiqilgan maqsadli dasturlar orqali amalga oshiriladi. Misol uchun mintaqani kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ustuvor vazifalar qatoriga kiritilganligi sababli, Qoraqalpog'iston Respublikasini 2017–2018-yillarda kompleks rivojlantirish dasturlari ishlab chiqildi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mintaqada iqtisodiy o'sish sur'atlari 2005–2017-yillarda umummamlakat ko'rsatkichlariga nisbatan yuqori bo'lgan. Tahlillarning ko'rsatishicha, ushbu yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari avvalambor mintaqada qurilish, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalari hisobiga erishildi. Ayniqsa, 2016-yilda yuqori iqtisodiy o'sish (18,7 foiz) yangi qurilgan Qo'ng'iro't soda zavodi va Ustyurt gazkimyo majmuasi hisobiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida o'sish sur'atlari turlicha bo'lib, ularning kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ta'siri turlicha bo'lgan. Qishloq xo'jaligi, investitsiyalar va iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oxirgi yillarda ma'lum darajada nomutanosiblik kuzatilmoqda. Ichki iste'molni shakllantiruvchi tovar ayirboshlash va xizmatlarning o'sish sur'atlarining keskin kamayishi aholi turmush sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi umumdavlat mehnat taqsimotida tabiiy gaz (2017-yildagi ulushi 3,0 foiz), paxta tolasi (4,0 foiz), osh tuzi (32,0 foiz), soda (100 foiz), guruch (31,0 foiz) ishlab chiqarish bo'yicha yuqori salohiyatga ega. Erishilgan natijalarga qaramasdan mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi mavjud tabiiy salohiyatga mos kelmaydi. 2017-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 3,3 foizni, mos ravishda sanoat ishlab chiqarishi 4,6 foizni, qishloq xo'jaligi 2,8 foizni, eksport 2,0 foizni, xizmatlar 3,0 foizni tashkil qilgan. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqa mintaqalarga nisbatan, qishloq xo'jaligi va chakana tovar ayirboshlash bo'yicha pastroq natijalarga ega.

Qoraqalpog'iston Respublikasi yalpi hududiy mahsulot, iste'mol tovarlari, pullik xizmatlar indeksi bo'yicha ham mamlakat mintaqalari orasida oxirgi o'rinlardan birini egallagan. 2005–2017-yillar davomida asosiy ijobiy siljish sanoat sohasiga to'g'ri keladi. Ushbu holat mintaqada oxirgi yillarda ishga tushirilgan yirik kimyo korxonalari hisobiga erishilgan.

Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish natijalari iqtisodiyot tarkibining shakllanishi bilan ham to'g'ridan to'g'ri bog'liq. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, yalpi hududiy mahsulotning tarkibida, ya'ni diversifikatsiya jarayonida ma'lum o'zgarishlar kuzatilgan.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining tarmoqlararo tarkibida 2005–2017-yillarda bir qator ijobiy siljishlar yuz berdi. Jumladan, yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushi 14,2 foizdan 26,7 foizga oshgan bo'lsa, qishloq xo'jaligining ulushi 30,1 foizdan 19,2 foizga kamaygan. Qoraqalpog'iston Respublikasida ishlab chiqarilgan ichki hududiy mahsulotning tarkibiy o'zgarishida ushbu tendensiyani kuzatish mumkin. Bunda sanoatning ulushi keskin oshgan (9,5 foizdan 32,7 foizga), qishloq xo'jaligining

ulushi esa kamaygan (21,3 foizdan 15,2 foizga). Ushbu vaziyatni mintaqa iqtisodiyoti tarkibini shakllantirishda yuz bergan ma'lum sifat o'zgarishlar bilan izohlash mumkin. Agarda Qo'ng'irotda soda zavodi va Ustyurt gazkimyo majmuasi hisobga olinmasa, sanoatning ulushi kamaygan va xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi talablarga javob bermasligi, ekologik vaziyatning (Orol dengizi inqirozi, suv va yerning sifat ko'rsatkichlari tushib ketganligi) salbiy natijalar ekanligini qayd etish lozim.

Shuningdek, mintaqa iqtisodiyoti tarkibini shakllantirishda olib borilayotgan tarkibiy va investitsion siyosatda mavjud tabiiy, ekologik, demografik omillarga tizimli e'tiborning yo'qligi, yo'naltirilayotgan moliyaviy mablag'larning bir qator xorij davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan grantlarning samaradorligi pastligi bilan bog'liq.

O'rta va uzoq muddatli mintaqa strategiyasini ishlab chiqishda demografik kuzatuv natijalari orqali aniqlangan reyting, ya'ni eng asosiy tizimli muammolarni hal qilish, aholi turmush sifatini tubdan yaxshilashga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Davlatimiz rahbari 2017-yil 20–21-yanvar kunlari Qoraqalpog'istonda bo'lib, hudud iqtisodiyotini rivojlantirish, ijtimoiy sharoitlarni yaxshilash bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni belgilab bergan edi. O'tgan vaqt mobaynida ular to'la amalga oshirildi.

Tashrif yakunlariga ko'ra ishlab chiqilgan dasturga muvofiq, sanoatni rivojlantirish borasida umumiy qiymati 160 milliard so'mga yaqin 242 loyiha bajarildi. Bu qariyb 4 ming ish o'rni yaratish imkonini berdi. Masalan, Qoraoltoy tumanidagi «Qoraqalpoq sement» korxonasi birinchi bosqichda yiliga 200 ming tonna sement, Nukus shahridagi «Texnik global» korxonasi «Samsung» brendi ostida yiliga 150 ming televizor, «Nukus polimer» korxonasi yiliga 8 ming tonna polietilen quvurlar va xo'jalik buyumlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. To'rtko'l tumanidagi «Vegateks global» korxonasi yiliga 5 ming tonna ip-kalava ishlab chiqarilmoqda. Bugungi kunda Qoraqalpog'istonda o'tgan qisqa vaqt mobaynida bir qator yirik bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi.

Shuningdek, Nukus shahrida «Nukus polimer» MChJ, «Nukuselektroapparat» MChJ faoliyat olib bormoqda. «Samsung» brendi ostida televizor, changyutkich ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirildi.

Mo'ynoq tumani aholisini markazlashgan toza ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha 101 kilometrlik "Qo'ng'iroq-Mo'ynoq" suv quvuri va «Qo'ng'iroq» suv taqsimlash inshooti qurib bitkazildi. Nukus shahri markazidan o'tuvchi «Do'stlik» kanalining ikki qirg'og'i obodonlashtirilib, bugungi kunda bu sohil atroflari xalqimizning eng sevimli oromgohiga aylangan.

Qorao'zak tumanidagi «Qoraqalpoq sement», «Titan sement», Taxiastosh tumanidagi metall-konstruksiya ishlab chiqarish zavodi, Ellikqal'a tumanidagi «Bo'ston mega-tekstil», To'rtko'l tumanidagi «Vegateks global», Chimboy tumanidagi «Lanextrakt» korxonalarida ham ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Nukus shahrida «Nukus Med Tex» MChJ, Kegeyli tumanida «Kegeyli qog'oz» MChJ, «Lanko-miya» korxonasi, Amudaryo tumanida «Amu Shoxjaxon» MChJ, Chimboy tumanida «Pintok» korxonasi tomonidan tibbiyot klinikasi ishga tushirildi.

Mo'ynoq tumanida Amfiteatr, «Mo'ynoq porloq tekstil» tikuvchilik korxonasi, davlat xizmatlari markazi yangidan qurildi hamda futbol o'yingohi va Madaniyat markazi rekonstruksiyasi to'liq yakunlandi. Hududda farmatsevtika sanoatini rivojlantirish yo'nalishida 2018–2019-yillarda qiymati 27 million dollarga teng 17 loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Mazkur loyihalar doirasida 37 turdagi farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqariladi va ularning bir qismi eksport qilinadi.

Nukus shahridagi «Nukus Med Tex» MChJ tomonidan tibbiy buyumlar, «Berlin farm» MChJ tomonidan onkologik dori vositalari ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. To'rtko'l tumanidagi «To'rtko'l shisha idishlari» MChJda farmatsevtika shisha idishlari tayyorlash Qoraqalpog'istonda farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, dori-darmon vositalari hamda tibbiyot buyumlari ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, ichki bozorni mamlakatimizda ishlab chiqarilgan yuqori sifatli preparatlar bilan to'ldirish maqsadida bu borada mutaxassislar tayyorlash tizimi takomillashtirilmoqda.

Shu maqsadda qizilmiya bu hudud iqlimi va sharoitiga mos kelganligi uchun Chimboy tumanidagi «Lanextrakt» qo'shma korxonasida ushbu o'simlik ildizidan ekstrakt ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Korxonada yiliga 30 ming tonna qizilmiya ildizi qayta ishlanib, 1,3 ming tonna eks-

trakt tayyorlanadi. Xitoylik investorlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan korxonada 200 ish o‘rni yaratilgan.

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 3-maydagi «Nukus-farm», «Zomin-farm», «Kosonsoy-farm», «Sirdaryo-farm», «Boysun-farm», «Bo‘stonliq-farm» va «Parkent-farm» erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosi yuzasidan hududda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib, mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlari va resurslar salohiyatidan samarali foydalanish orqali yangi ish o‘rinlari yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Hududda farmatsevtika sanoatini rivojlantirish yo‘nalishida 2018–2019-yillarda qiymati 27 million dollarga teng 17 loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Mazkur loyihalar doirasida 37 turdagi farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqariladi va ularning bir qismi eksport qilinadi.

Qoraqalpog‘istonda ikki bosqichda selluloza ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, amalga oshiriladigan mazkur loyiha qog‘oz ishlab chiqarishdan tayyor mahsulotgacha bo‘lgan jarayonni o‘z ichiga oladi.

Taxiatosh tumanida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi, 11 mingga yaqin ish o‘rni yaratildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasini 2018–2019-yillarda kompleks rivojlantirish dasturi doirasida yana 1 ming 309 loyiha rejalashtirilgan. Ularni amalga oshirishga tashabbuskor korxonalar va tijorat banklari mablag‘lari, xorijiy investitsiyalar yo‘naltiriladi. Buning natijasida yangi mahsulotlar ishlab chiqarish o‘zlashtiriladi, mahalliyashtirish va qayta ishlash darajasi oshadi, 10 mingga yaqin ish o‘rni tashkil etiladi.

Hudud sanoatini yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida mamlakatimizdagi yirik korxonalar ham jalb etilgan. Xususan, Navoiy kon-metallurgiya kombinati Taxiatosh tumanida metall konstruksiyalar va nostandart jihozlar, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati Qora‘zak tumanida temir-beton mahsulotlar va qum-shag‘al ishlab chiqarishi rejalashtirilgan.

Tebinbuloq konini o‘zlashtirish istiqbollariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda metall mahsulotlar mavjud shunday buyumlarni eritish orqali ishlab chiqarilmoqda. Tebinbuloq koni temir rudasining ulkan zaxirasiga ega. Ushbu konni o‘zlashtirish ikki

bosqichda amalga oshiriladi. Natijada 2021-yildan boshlab yiliga 1 million tonna po‘lat ishlab chiqarish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu boradagi ishlarni tashkil etish maqsadida «O‘zbekiston temiryo‘llari» aksiyadorlik jamiyati tarkibida direksiya tashkil etildi.

Samarasiz foydalanilayotgan obyektlar negizida yangi korxonalar tashkil etish loyihalari ishlab chiqildi. Qoraqalpog‘istonda 6 ta kichik sanoat zonasi tashkil etish rejalashtirilgan. Ulardagi obyektlar 5 yil mudatga keyinchalik mulk huquqini rasmiylashtirish sharti bilan bepul beriladi. Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish va tiklash ishlari davlat budjeti hisobidan amalga oshiriladi. Shu tariqa ushbu zonalarda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur sharoit yaratiladi.

Qoraqalpoq aholisi uchun nihoyatda muhim va dolzarb masala bo‘lgan ichimlik suvi muammosi yillar davomida hal etilmay kelayotgan edi. Shuni inobatga olib, qisqa vaqtda 101 kilometrlik «Qo‘ng‘iroq – Mo‘ynoq» suv quvuri va «Qo‘ng‘iroq» suv taqsimlash inshooti qurib bitkazildi. Buning natijasida Mo‘ynoq tumanidagi 25 ming aholi toza ichimlik suvi bilan ta‘minlandi.

Shuningdek, investitsiya dasturiga muvofiq budjet mablag‘lari va Orolbo‘yi hududini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan mavjud suv tarmoqlari rekonstruksiya qilindi va yangilandi. Shu tariqa 35 aholi punktida 50 mingdan ziyod odam ichimlik suvi bilan ta‘minlangani bu boradagi ishlarning izchil davomi bo‘ldi.

Prezidentimizning 2020-yil 11-noyabr «2020–2023-yillardagi Qoraqalpog‘iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori ushbu yo‘nalishdagi ishlarni yanada rivojlantirishda muhim dasturilamal bo‘lmoqda. Qarorga muvofiq, har bir shahar va tumanning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda «o‘shish nuqtalari» belgilangan. Qurilish materiallari ishlab chiqarish, oziq-ovqat, to‘qimachilik, neft-kimyó sanoati, bog‘dorchilik, issiqxonalar tashkil qilish, ipakchilik, turizm sohasi shular jumlasidan. Belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar va loyihalarni amalga oshirishga qulay shart-sharoitlar yaratish uchun qaror bilan tadbirkorlik subyektlariga yer solig‘i, mol-mulk solig‘idan ozod qilish kabi va boshqa qator imtiyoz hamda yangiliklar taqdim etilishi ko‘zda tutilgan.

Qaror asosida 2788 ta loyiha va obyektida 21 trillion 209 milliard soʻmlik keng koʻlamli ishlar bajarilishi rejalashtirilgan boʻlib, bugungi kunda uning ijrosini taʼminlash yuzasidan ishlar olib borilmoqda. Natijada hozirda dasturga kiritilgan jami 754 ta loyiha ishga tushirilib, 4 ming 75 ta yangi ish oʻrni yaratilishga erishildi.

Mintaqada yangilanishlar haqida gap ketganda, Prezidentimizning 2020-yil 5-dekabr «Qoraqalpogʻiston Respublikasida suv resurslaridan samarali foydalanish va yerlarining meliorativ holatini yaxshilash boʻyicha kechiktirib boʻlmaydigan chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi qarori haqida ham alohida toʻxtalish joiz.

Bu borada Qoraqalpogʻiston Respublikasida suv xoʻjaligi obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish, suvni tejaydigan sugʻorish texnologiyalarini joriy etish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv resurslari va elektr energiyasidan foydalanishning avtomatlashgan nazoratini yoʻlga qoʻyish bilan bogʻliq muhim vazifalar belgilangan.

Qoraqalpogʻistonda mehnatga layoqatli aholining asosiy qismi qishloqda istiqomat qiladi. Agrar sektorda ham iqtisodiy qayta qurish, bozor munosabatlariga oʻtish roʻy berdi.

1997-yil 1-yanvar holatiga respublikada 263 qishloq xoʻjalik korxonasi faoliyat koʻrsatdi. Nodavlat sektorning jami ishlab chiqarilgan mahsulotdagi ulushi 98,3 foizni tashkil etdi.

Paxta yetishtirishda nodavlat korxonalarining hissasi 97,8 foizni, donchilikda 98,1 foizni, kartoshkachilikda 99,7 foizni, sabzavotchilikda 98,8 foizni, polizchilikda 95,1 foizni, bogʻdorchilikda 98,5 foizni, pillachilikda 100 foizni, goʻsht yetishtirishda 98,9 foizni, sut va tuxum ishlab chiqarishda 99,4 foizni, qorakoʻl teri va jun yetishtirishda 100 foizni tashkil etdi.

Dehqonchilikda ekin maydonlarining tarkibi oʻzgardi. Gʻalla maydonlari ekin maydonlarining 35,8 foizini tashkil etdi. Bugʻdoy va kartoshka yetishtirish 3 marta, uzum yetishtirish 4 martaga koʻpaydi.

Qoraqalpogʻistonda dehqon fermer xoʻjaliklari tashkil etish boʻyicha yetarli tajriba toʻplandi. 1998-yilga kelib 1686 fermer shirkatlar uyushmalari tashkil etildi. Ellikqalʼa tumanida mavjud 14 ta jamoa xoʻjaliklari dehqon-fermer xoʻjaliklari uyushmasiga aylantirildi. Dehqonlarga meros qilib qoldirish huquqi bilan yerlar uzoq muddatga ijaraga berildi. Lekin Qoraqalpogʻistonda ana shu tajribani ommalashtirishga mutlaqo eʼtibor berilmadi.

1992-yili Qoraqalpog‘iston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tashkil etildi. 1992–2000-yillarda Jahon banki, Yevropa rivojlan-tirish banki va boshqa firmalar bilan 100 dan ortiq shartnomalar tuzildi.

Respublikada 303 dan ortiq qo‘shma korxonalar faoliyat ko‘rsatmoq-da. Qoraqalpog‘iston Respublikasining tashqi savdodagi asosiy sheriklari Rossiya, AQSH, Janubiy Koreya, Shveysariya, Niderlandiya hisoblanadi.

Asosan paxta tolasi, toladan olingan mahsulotlar, qayta ishlangan neft mahsulotlari, buyan tomirlari sotiladi. Eksport qilingan tovarlar-ning hajmi 1996-yilda 122,9 mln. dollarga teng bo‘ldi. G‘arb mamlakat-lariga eksport qilingan xomashyo 113,6 mln. dollarni tashkil etdi. Paxta tolasi jami eksport mahsulotlarining 95 foizini tashkil etdi.

Tashqi savdo oborotida importning salmog‘i 1996-yilda 46,2 foizni tashkil qildi. Import mahsulotlari tarkibiga asosan xalq iste‘mol mollari, qora va rangli metallar, oziq-ovqat mahsulotlari kiradi.

Yaqin xorijiy mamlakatlardan asosan shakar, bug‘doy, mashina va ji-hozlar, agregatlar va ularning ehtiyot qismlari, quvurlar, avtomashinalar, ishlab chiqarishni komplektlovchi materiallar keltirildi. Lekin respub-likaning imkoniyatlaridan to‘la foydalanilmayapti. Masalan, 1999-yili respublika hududida 70 ga yaqin foydali qazilma konlari aniqlandi.

Mustaqillik yillarida respublikada ijtimoiy sohalar rivojlanishiga e‘ti-bor kuchaydi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholi punktlarini elektr-lashtirish to‘la hal qilindi. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash darajasi 59,5 foizga yetdi. 1992–1996-yillarda Tuyamo‘yin suv ombori-dan respublika aholi punktlariga 2 ming 885 km vodoprovod tarmog‘i olib kelindi. 4057,5 km gaz tarmoqlari o‘tkazildi va tabiiy gaz bilan ta‘minlash 85,4 foizni, shu jumladan shaharda 99,4 foizni, qishloqda 72,4 foizni tashkil etdi. Ko‘plab sog‘liqni saqlash obyektlari, kasalxo-nalar, poliklinikalar, tug‘ruqxonalalar va turar-joy binolari qurildi.

Mustaqillikning ilk yillaridanoq hukumatimizning fermer xo‘jaliklari-ni tashkillashtirishga e‘tibor qaratgani tufayli boshqa sohalar qatori qish-loq xo‘jaligi sohasida ko‘plab ijobiy yutuqlarga erishildi.

Qishloq xo‘jaligi yerlarining uzoq muddatli ijara mulki qilib berilishi va qishloqda bozor munosabatlarining joriy qilinishi fermer xo‘jaliklarini shakllantirish hamda rivojlantirishning eng muhim omil va asosi bo‘ldi.

Ushbu fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishdagi ulushi 99,5 foizni tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, fermer xo'jaliklarining moliya-xo'jalik faoliyatini rejali tekshirishlar ko'pi bilan 4 yilda bir marotaba amalga oshirilishi, yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklarining moliya-xo'jalik faoliyatini ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil mobaynida rejali tekshirishlardan o'tkazilishi mumkin emasligi belgilab berildi.

Bundan tashqari, fermer xo'jaliklariga soliq va boshqa imtiyozlarni berish bo'yicha amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Bunda paxta xomashyosini yig'ib olish bo'yicha mavsumiy qishloq xo'jaligi ishchilarini daromad solig'idan ozod etilishi;

– to'pchilatib sug'orish tizimini joriy qilgan yuridik shaxslar tegishli yer uchastkasiga nisbatan 5 yil muddatga yagona yer solig'ini to'lashdan ozod etilishi;

– fermer xo'jaliklari manfaatlarini ko'zlab da'vo arizalarini taqdim etish, sudga davlat boji to'lamasdan shikoyat qilish huquqi berildi.

Bugungi kunda respublikada 5430 ta fermer xo'jaliklari mavjud bo'lib, shundan paxta-g'allachilikda 3682 ta fermer, sabzavot va polizchilikda 321 ta fermer, chorvachilikda 377 ta fermer, bog' va uzumchilikda 514 ta fermer, g'alla va sabzavotchilikda 326 ta fermer va 210 ta fermer xo'jaliklari boshqa yo'nalishlarda ish bilan band.

2016-yil Qoraqalpog'iston Respublikasida ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish bo'yicha manzilli Dasturi qabul qilindi.

Dasturga asosan respublika bo'yicha jami 748 ta fermer xo'jaliklarini ko'p tarmoqli fermer xo'jaligiga aylantirish nazarda tutilib, amalda joriy yilning iyul oyiga qadar tashkil etilgan ko'p sohali fermer xo'jaliklari soni 433 ta hamda ko'p sohali faoliyat uchun ajratilgan imtiyozli kreditlar soni 429 ta fermer xo'jaliklariga 248 gektar yer maydoniga 2535,0 mln. so'm amalda ajratildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi mutaxassislari va Adliya vazirligi xodimlari ta'kidlaganidek, barcha kategoriyadagi xo'jaliklarida 11 ming 111 gektarga sabzavot, 9508 gektarga poliz, 5325 gektarga kartoshka ekilib, to'liq navlar olindi.

Bundan tashqari, 247 gektar maydonda yangi intensiv bog'lar, 247 gektarda tokzorlar yaratildi. Ushbu maydonlarga 123,5 ming dona meva, 296,4 ming dona tok navlari ekildi. Shu bilan birga 118 gektar maydondagi eski bog'da, 65 gektar tokzorlarning rekonstruksiya ishlari olib borildi. Bugungi kunga qadar 6778 gektar bog'ning, 1268 gektar tokning qator oralariga sabzavot ekinlari ekilib, oziqlantirish ishlari olib borilmoqda.

Fermer xo'jaliklari ishlarining samaradorligini oshirish va ularga shart-sharoitlar yaratish, ekin maydonlardan maqsadli foydalanish bo'yicha barcha tumanlarda yer maydonlarini optimallashtirish ishlari olib borilib, to'liq inventarizatsiyadan o'tkazildi.

Shuning natijasida meva-sabzavot yetishtirishda 321 ta fermer xo'jaligiga 1467 gektar, bog'dorchilik va tokzorchilikka ixtisoslashgan 514 ta fermer xo'jaligiga 1510 gektar, bundan tashqari sabzavot-g'alla yetishtirish bo'yicha yangidan tashkil etilgan 326 ta fermer xo'jaliklariga 4532 gektar yer maydonlari ajratilib berildi.

Bugungi kunda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtiruvchi, tayyorlovchi va eksport qiluvchi korxonalar bilan «O'zagroekspart» ixtisoslashgan tashqi savdo kompaniyasi o'rtasida shartnomalar tuzish ishlari to'liq tamomlandi. Rossiya Federatsiya va Qozog'iston Respublikasiga meva-sabzavot mahsulotlar eksport qilish bo'yicha shartnomalar tuzildi».

Bugungi fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan chegaralanib qolmasdan, uni qayta ishlashni ham yo'lga qo'ymoqda. Natijada qishloq joylariga sanoatni olib kirishga, aholi bandligini ta'minlashga, eng muhimi, ichki iste'mol bozorini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirishga salmoqli hissa qo'shmoqda.

Ayniqsa, keyingi ikki yarim yil ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining barcha yo'nalishlarini belgilaydigan Farmon va qarorlari, ularning faol ijrosi xalqimizning turmush tarzini butunlay o'zgartib yubordi. Avvalambor, inson va uning manfaatlarini ko'zlab olib borilayotgan islohotlarning natijasi yurtimizdagi har bir fuqaroning baxtli va obod turmushi, o'ziga va yurt kelajagiga bo'lgan mustahkam ishonchida ko'rinmoqda.

Barcha eski uyalar oʻrniga yangi, milliy loyihalar asosida qurilayotgan koʻrkam binolar, soʻlim va goʻzal xiyobonlar, hatto, qishloqlarimizning, mahallalarimizning alohida «Obod qishloq», «Obod mahalla» dasturlari asosida yangi qiyofa kasb etayotganligi Prezidentimiz yaratib berayotgan imkoniyatlar samarasidir.

Bulardan tashqari, bugungi kunda Qoraqalpogʻiston Respublikasida keng koʻlamli qurilish-obodonlashtirish ishlari ham amalga oshirilmogʻda.

10.3. Qoraqalpogʻistonda maʼnaviy-madaniy sohadagi yangilanishlar

Qoraqalpoq xalqi qadimiy va boy tarixga ega. Uning milliy madaniyati, jozibali sanʼati, mumtoz adabiyoti, qadriyatlari, udum va anʼanalari olamga mashhurdir.

Mustaqillik tufayli qoraqalpoq xalqi juda koʻp qadriyatlarini qayta tiklash imkoniyatiga ega boʻldi. Adolat va tenglik, ozodlik va erk uchun kurashgan Yernazar Olakoʻz, Ollayor Doʻstnazarov singari xalq qahramonlarining jasoratli, oʻt yurakli qoraqalpoq farzandlarining orzu-armonlari amalga oshdi.

Milliy madaniyat va maʼnaviyatning qaror topishiga, qoraqalpoq xalqining klassik shoirlari Berdaq, Ajiniyoz va boshqalarning ijodiy me-roslari toʻla tiklanishiga, aziz xotiralarining ulugʻlanishiga yoʻl ochib berdi.

Bugungi kunda Ibroyim Yusupov, Tulepbergen Qaipbergenov, Tilovbergen Jumamuratov kabi qoraqalpoq yozuvchi va shoirlarining asarlari xalqlarimiz maʼnaviy xazinasidan munosib joy oldi.

Sobir Kamolov, Charjau Abdirov kabi yirik olimlar Oʻzbekiston fani rivojiga juda katta hissa qoʻshdilar.

Mustaqillik yillarida Qoraqalpogʻiston madaniy hayotidagi jiddiy oʻzgarishlar haqida gap ketganda, avvalo xalq taʼlimi tizimida yuz bergan oʻzgarishlarni taʼkidlash oʻrinli. Bugungi kunda Respublika xalq taʼlimi tizimi milliy uygʻonish, ijtimoiy-iqtisodiy va maʼnaviy rivojiga xizmat qilishda yetakchi rol oʻynamoqda.

Respublikada yangi tipdagi umumtaʼlim muassasalari – litseylar, gimnaziyalar va alohida fanlarni chuqurlashtirilgan holda oʻqitiladigan mak-

tablar tez rivojlanmoqda. 1996-yil oxirida respublikada 743 ta umum-ta'lim maktabi faoliyat ko'rsatdi, shu jumladan, ayrim fanlarni chuqurlashtirilgan holda o'qitiladigan maktablar 1991-yilda 31 ta bo'lgan bo'lsa, 1997-yilda 169 taga yetdi, litsey va gimnaziyalar 19 taga yetdi. O'tgan yilning o'zida o'quvchilar soni 1743 nafarga ko'paydi.

Barcha kasb hunar-texnika bilim yurtlarida traktorchi-mashinistlar tayyorlash chegaralanib, o'rniga turli mintaqalar uchun zarur bo'lgan kadrlar tayyorlashga e'tibor kuchaytirildi. Milliy hunarmandchilikni rivojlantirishga, gilam to'qish, keramik buyumlar tayyorlash, ganchkorlar va boshqa shu kabi hunar egalarini tayyorlashga ahamiyat berila boshlandi.

Respublikadagi 22 ta maxsus o'quv yurtlarida, shu jumladan, kunduzgi bo'limda 11,8 ming o'quvchi ta'lim olmoqda. Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston Davlat Universitetida hamda Ajiniyoz nomli Nukus Davlat pedagogika oliygohlarida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlanmoqda. Bu o'quv yurtlarining kunduzgi bo'limlarida 9 ming nafar talaba o'qimoqda. Universitetda qishloq xo'jaligi va tibbiyot ixtisosligi bo'yicha fakultetlar mavjud.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri qiyinchiliklariga qaramay respublika hukumati xalq ta'limi moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlarini ko'rmoqda. Keyingi 6 yilda 42 ming 778 o'rinli maktab, 6 ming 660 o'rinli bog'cha, 6 ming 840 o'rinli hunar-texnika bilim yurti binolari qurib foydalanishga topshirildi. Birgina 1996-yilning o'zida esa 3126 o'rinli maktab qurib ishga tushirildi.

Prezidentimizning 2016-yil 29-dekabr «2017–2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilinib, maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, jumladan, qishloq aholi punktlarida yangi ana shunday inshootlar qurish, ularni zamonaviy uskunalar, o'quv-metodik qo'llanmalar, multimedia resurslari bilan ta'minlash choralarini ko'rilmogda.

Shavkat Mirziyoyevning joriy yil 30-sentabr «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni bilan Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Yangi vazirlikning asosiy vazifalari bosqichma-bosqich barcha bolalarni maktabgacha ta'lim tizimiga qamrab olish, o'zaro raqobat qiluvchi davlat va

nodavlat MTMLari tarmog'ini yaratish, amaliyotga maktabgacha ta'lim va bolalarni tarbiyalashning muqobil shakllarini joriy etishdan iborat.

Mazkur qaror va farmon ijrosi yuzasidan bugun Qoraqalpog'iston Respublikasida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Hududda 318 ta maktabgacha ta'lim muassasasi bo'lib, ularning 3 tasi xususiy, 7 tasi turli tashkilotlar tasarrufida. Ularda 48 ming 106 nafar, umumiy bolalarning 32 foizi ta'lim-tarbiya olmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, «Yoshlar tarbiyasiga bugun e'tibor bermasak, ertaga kech bo'lishi mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasalarini Qoraqalpog'istonning iqlim sharoitidan kelib chiqib qurish kerak. Har bir xonani isitiladigan pol bilan ta'minlash zarur. Bundan tashqari, bu soha uchun kadrlar tayyorlash tizimini ham qayta ko'rib chiqish, buning uchun oliy ta'lim muassasalari qoshida maxsus kurslar tashkil qilish lozim. Tarbiyachilar saviyasi bolalar kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega».

1991–1996-yillardan fan sohasida ham sezilarli o'zgarishlar bo'ldi. 1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Qoraqalpog' filialiga Qoraqalpog' bo'limi maqomi berildi. Uning tarkibida ilgari 3 ta institut mavjud bo'lgan bo'lsa, yana ikkita institut qo'shildi. Tarix, arxeologiya va etnografiya hamda bioekologiya institutlari ham shu bo'lim tarkibiga kirdi. Botanika bosh bo'linmasiga esa bo'lim maqomi berildi. 1994-yilda Fanlar akademiyasi tarkibiga O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligiga qarashli tajriba instituti va tibbiyot klinikasi ham kiritildi.

Fanlar akademiyasida tashkil etilgan bunday tadbirlar olimlarga tabiiy va ijtimoiy fanlarni yanada rivojlantirish, xalq xo'jaligi va madaniyatni yuksaltirishda muayyan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishga yordam berdi. Qoraqalpog' fanida erishilgan yutuqlar hamda to'rt jildlik «Qoraqalpog' tilining izohli lug'ati»ni yaratishdagi xizmatlari uchun Fanlar akademiyasi bo'limining 4 nafar ilmiy xodimlari (M. Qalandarov, R. Yesemuratova, A. Turaboyev, D. Qozoqboyev) 1996-yilda O'zbekiston Respublikasining Beruniy nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandilar.

1996-yilda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi Fanlari akademiyasining qoraqalpog' bo'limi tashkil etildi. Uning tarkibiga Sh.Musayev nomidagi Chimboy yer ishlari instituti hamda sholichilik va chorvachilik institutlarining filiallari kiritildi. Nukusda SANIIRIning bo'limi

faoliyat ko'rsatmoqda. Respublika oliy o'quv yurtlarida ham ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Keyingi yillarda Toshkent olimlari ko'magida katta miqdordagi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlandi. Respublikadagi 60 nafar fan doktorlari va 600 nafar fan nomzodlaridan deyarli 30 foizi O'zbekiston mustaqilligi yillarida ilmiy daraja oldilar. Ilgari Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zoligiga saylangan Ch.A. Abdirov, S.Q. Kamolov, A.B. Baxiyevlar qatoriga 1994–2000-yillarda T. Eshanov, A. Dauletov, U. Hamidov va J. Bozorboyev ham qabul qilindilar. 1997-yilda esa ikki nafar rassom (J.Izentayev va J.Quttimuratov) O'zbekiston Respublikasi Badiiy akademiyasining akademikligiga saylandilar.

Respublikada yuqori malakali kadrlar o'sishida ayniqsa, ijtimoiy fanlar sohasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan tarix va arxeologiya, etnografiya, til va adabiyot bo'yicha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qiluvchi ixtisoslashgan Kengashlarning tashkil etilayotganligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublika olimlari keyingi yillarda chet el mutaxassislari bilan hamkorlikda ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Respublika Fanlar akademiyasining Qoraqalpoq bo'limi bioekologiya instituti xodimlari Germaniya olimlari bilan birgalikda 1993-yildan beri Orol bo'yi ekologiyasi muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borishmoqda. Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti Avstraliyaning Sidney universiteti olimlari hamda fransuz arxeologlari bilan birgalikda ish olib bormoqdalar. 1995-yilda Muynoqda Germaniya Respublikasi yordamida bioekologiya instituti-ning xalqaro ekologiya stansiyasi ochildi.

Mustaqil O'zbekiston va Qoraqalpog'istonning dolzarb masalalari Respublika shoir va yozuvchilari ijodida katta o'rin egallaydi. O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri Ibroim Yusupov, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi Tulepbergan Qaipberganovlar qatoriga yangi nomlar kelib qo'shildi. Saginbay Ibrohimov, Kenesboy Rahmonov kabi shoirlar, Guloysha Esemuratova, O'zarboy Abdurahmonov, Muratboy Nizanovlar ana shular jumlasidandir.

Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasi madaniy rivojlanishining ham o'ziga xos jihatlari mavjud. Ayniqsa madaniy soha-

dagi rivojlanish Xorazm viloyati bilan mushtarak rivojlandi. 1991-yil Nukus shahrida Qoraqalpog‘iston, Xorazm va Toshhovuz yoshlarining uchrashuvi o‘tkazilgan bo‘lib, unda do‘stona qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, birgalikda bayramlar, tanlovlar va festivallar, sport musobaqalari va turli uchrashuvlarni o‘tkazish muammolari muhokama qilindi. 1992-yil boshida Qoraqalpog‘iston Joqarg‘i Kengesi, Xorazm viloyati va Turkmanistonning Toshhovuz viloyati hokimliklari mintaqa xalqlari orasidagi do‘stlik va madaniy aloqalarni mustahkamlash bo‘yicha kompleks tadbirlarni belgiladilar. 1998-yili qoraqalpoq adabiyoti klassigi Berdaqning 170 yilligini, keyingi yilda Ajiniyozning 175 yilligi nishonlandi. Shu yili O‘zbekiston qahramonlari – I.Yusupov va T.Kaipbergenovlarning 70 yillik yubileylari o‘tkazildi. 1999-yilda O‘zbekiston, Qoraqalpog‘iston va Tatariston xalq artisti, «ikki qirg‘oq bulbuli» nomini olgan O.Xudoyshukurov xotirasiga bag‘ishlangan respublika tanlovi o‘tkazildi. U nafaqat o‘zbekcha qo‘shiqlarni, balki mintaqadagi boshqa xalqlar qoraqalpoq, qozoq, turkman xalqlarining qo‘shiqlarini ham kuylagan. U hamma uchun umumiy o‘rtoq, qadimiy madaniyat va-kili, millatlararo kelishuv va birdamlik siyosi edi.

1996-yil yanvarda Toshkentda Qoraqalpog‘iston madaniyati kunlari, noyabr oyida Qoraqalpog‘istonda Toshkent madaniyati kunlari o‘tkazildi. Bu tadbirlar Nukus va Toshkent madaniyat xodimlari faoliyatini bir-birlariga yaqinlashtirdi.

1996-yilda Qoraqalpoq xoreografiyasi tarixida birinchi marta «Oy-jamol» nomli qoraqalpoq baleti (N. Muhammedinova musiqasi, T. Xodjayev asari) sahnalashtirildi. 1996-yilda O‘zbekiston mustaqilligining 5 yilligi oldidan o‘tkazilgan «O‘zbekiston – Vatanim manim» qo‘shiq-tanlovida yosh qo‘shiqchi Roza Kutekeyeva «Mustaqillik gullari» qo‘shig‘i bilan ishtirok etib, faxrli ikkinchi o‘rinni oldi. Shu yili yana Amir Temur rolining eng yaxshi ijrosi uchun konkursida Berdaq nomidagi drama teatri artisti Bozorboy O‘zoqberganov qatnashib, birinchi o‘rinni oldi. Bu misollar Qoraqalpog‘iston san‘atkorlari mustaqillik yillarida erishgan muvaffaqiyatlardan dalolat beradi.

«Qoraqalpoq diyori o‘zining dunyoda o‘xshashi yo‘q, betakror san‘ati bilan barchamizni hayratga solib keladi. Bu zamandan yetishib chiqqan Oyimxon Shomuratova, Jo‘ldasbek Quttimuratov, Otajon Xudoyshukurov,

Zamira Davletmuratova kabi buyuk san'atkorlarning xotirasini xalqimiz hech qachon unutmaydi». Shuningdek, Qoraqalpoq san'ati rivojiga o'zlarining benazir hissalarini qo'shib kelgan «Mashhur san'at arboblari kompozitor Najmiddin Muhammedinov va artist Najmiddin Ansatboyev, Tamara Doshumova, Muyassar Razzoqova, Gulparshin Sirimbetova, Jalgasbay Sultanboyev, Mirzagul Sapayeva, Maxset Xo'janiyazov, Gulxatiysha Ayimbetova, Aygul Nadirova, yorqin iste'dodli opera xonandalari Jenisbek Piyazov va Eliza Aytneyazovani mamlakatimizda tanimaydigan odam topilmaydi, desak mubolag'a bo'lmaydi».

2001-yilning 14–15-iyulida Xorazm viloyatida Qoraqalpog'iston madaniyat arboblari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Gurlan tumanida maydoni 20 ga dan iborat «Xalqlar do'stligi» xiyoboni barpo etildi. Baxshi va jirovlar, «Muxalles» folklor ansambli, «Ayqulash» va «Amu to'liqini» raqs ansambllari chiqishlari bilan birgalikda, K.Serjanov, T.Xo'janazarov, R.Kutekeyevalarning musiqa ijodi namunalari ham yangradi. 2001-yilda qoraqalpog'istonlik olimlardan J.Bozorboyev, V.N.Yagodin, M.Mambettullayev, G.Xojaniyazovlar «Avesto»ning 2700 yilligiga bag'ishlangan yubiley tantanalarida faol ishtirok etdilar. Xorazm viloyati madaniyati va san'at vakillari 2003-yilda Nukus shahrining 70 yilligini nishonlashda faol qatnashdilar. O'zbekiston xalq artisti G.Matyoqubova rahbarligidagi «Xorazm raqs» birlashmasi raqs guruhi «Dutor lazgisi» raqsini ijro qildi. Adabiyot, fan va madaniyat vakillari O.Matchon, A.Sadullayev, M.Qo'shchonov, S.Iskandarova, D.Bobojonov, R.Qurbonov, B.Karimov, E.Madrahimov, M.Abdulhakimov, Q.Iskandarov, G.Matyoqubova, K.Ismoilova, T.Quryozovlar o'zbek va qoraqalpoq xalqlarining hurmatiga sazovor bo'ldilar. Bunday bayramlar va uchrashuvlar an'anaviy bo'lib qoldi. Xorazm va Qoraqalpog'iston madaniyat va san'at vakillari do'stona uchrashuvlar hamda birgalikdagi chiqishlar uchun imkon topardilar. 2004-yil 24-iyulda Urganch shahrida O'zbekiston, Turkmaniston va Qoraqalpog'iston xalq artisti K.Otaniyozov yubileyini nishonlashda ushbu respublikalar delegatsiyalari ishtirok etdilar.

Nafaqat Qoraqalpog'iston, balki butun mamlakatimizning faxri bo'lgan, dunyoda «Sahrodagi Luvr» deb shuhrat qozongan I.Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat san'at muzeyining muhtasham ikkinchi kor-

pusi qurilib, yuksak xalqaro standartlar asosida jihozlandi va foydalalanishga topshirildi.

Qoraqalpog‘iston san‘atida erishilgan muvaffaqiyatlarni keng targ‘ib etishda rassomlar uyushmasi, I.V. Savitskiy nomidagi san‘at muzeyi, tarix-o‘lkashunoslik muzeyi katta ishlarni olib bormoqda. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qoraqalpog‘iston Respublikasi saylovchi vakillari bilan uchrashuvda: «Nukus shahridagi Igor Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat san‘at muzeyi o‘zining bebaho tasviriy san‘at asarlari bilan nafaqat mamlakatimizda, balki jahonda ham katta shuhrat qozongan, bu yerda 90 mingga yaqin nodir eksponatlar jamlangan bo‘lib, ularning orasida o‘zbek va rus rassomlarining asarlari, qoraqalpoq xalq amaliy san‘ati namunalari, qadimiy Xorazm davlatiga mansub yodgorliklarni ko‘rish mumkin» degan edilar. Haqiqatan ushbu muzey qoraqalpoq xalqining faxriga aylangan.

I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat san‘at muzeyi-respublikadagi yirik muzeylardan; Nukus shahrida 1966-yilda tashkil topgan, 1984-yildan N.V.Savitskiy nomi bilan ataladi. Muzeyga I.Savitskiyning sa‘y-harakati va u to‘plagan qoraqalpoq xalq amaliy san‘ati asarlari negizida asos solingan. Muzeyning umumiy maydoni 6,9 ming kv.m.

Muzey xalq amaliy san‘ati, qadimiy va o‘rta asrlar Xorazm san‘ati, 1920–30-yillar o‘zbek va rus tasviriy san‘ati, qoraqalpoq zamonaviy rang-tasviri va haykaltaroshligi, ilmiy-ma‘rifiy bo‘limlar, kutubxona (10 ming dona asar), fond hamda ta‘mirlash ustaxonasiga ega. Fondida 85 mingdan ortiq eksponat mavjud.

Yaqinda muzeyda yangi galereyalar ishga tushirildi va endi 100 000ga yaqin san‘at asarlari va artefaktlardan iborat muzey kolleksiyalarining katta qismi galereyaga tashrif buyuruvchilar uchun namoyish etish imkoniyatiga ega bo‘ldi. 2017-yilda galereya kolleksiyalaridan 223 ta durdona asarlar Moskva shahridagi Pushkin muzeyida «Nukus durdonalari» ko‘rgazmasida namoyish etildi. Ilk bor mazkur asarlar O‘zbekiston hududidan tashqarida 1960-yilda namoyishi etilgan bo‘lsa-da, xalqaro hamkorlikni kengaytirish muzeyni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Prezidentining 2018-yil 28-avgust qarorida nazarda tutilgan tadbirlar, ya‘ni muzeylarni yangilash va amaliyotga joriy etish,

O‘zbekiston muzeilarida xodimlarni rahbarlik lavozimlariga jalb etish maqsadida O‘zbekiston Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san‘atni rivojlantirish jamg‘armasi tomonidan I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat san‘at muzeyi direktori lavozimiga ochiq xalqaro tanlov tashkil etilgan va o‘tkazilgan edi.

Moskvadagi Rerixlar muzeyi (Sharq xalqlari davlat san‘at muzeyining filiali) direktori Tigran Mkrtichev Savitskiy muzeyi direktorligiga o‘tkazilgan ochiq tanlovda g‘olib deb topildi. I.V. Savitskiy nomidagi Nukus muzeyi direktori lavozimiga tanlov g‘olibi Tigran Mkrtichev 2021-yil 2-yanvardan o‘z vazifasiga kirishdi.

Qoraqalpog‘istonning muzeylari va ko‘rgazma pavilonlarining faoliyatidagi eng asosiy maqsad inson ma‘naviy hayotining g‘oyaviy fuqarolik tuyg‘ularini shakllantirish hisoblanadi. Millatlararo munosabatlarning yangi mafkurasi millatlararo muhitning sifat jihatdan o‘zgarish jarayonlariga javob beradigan ancha universal, harakatchan va moslashadigan, dunyoqarashli, axloqiy yetik ustuvorlikka ega bo‘lmoqda. Xalqning jipsligi va hamfikrliligi, millatlararo totuvlik g‘oyasi tobora ommalashib, jamiyat milliy iqtisodiy rivojining muhim omili hisoblanib, milliy-madaniy aloqalar doirasi, milliy va etnik guruhlar hamkorligi kengaymoqda.

Qoraqalpog‘iston davlat o‘lkashunoslik muzeyi binosi, O‘zbekiston Qahramoni Ibroyim Yusupov nomidagi iqtidorli bolalar maktabi, Amir Temur nomidagi istirohat bog‘i, zamonaviy imkoniyatlarga ega yirik sport majmuasi bunyod etildi. Imom eshon Muhammad jome masjidi rekonstruksiya qilinib, foydalanishga topshirildi. Bunday o‘zgarishlar barcha tumanlarda, qishloq va ovullarda ro‘y berdi. Hudud iqtisodiyoti rivojlandi, aholi turmush darajasi oshdi. Eng muhimi, odamlar buni o‘z hayotlarida sezmoqda.

10.4. Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik ahvol. Orol fojiasi. Ekologik holatni yaxshilash borasidagi davlat siyosati

1990-yillardan boshlab Orol fojiasining halokatini boshidan kechirayotgan barcha mamlakatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti, shuningdek, boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilot minbarlaridan jahon hamjami-

yatining diqqat-e'tiborini ushbu muammoga, uni mintaqaviy va global xavfsizlik bilan chambarchas bog'liq ekanligiga jalb etib kelishmoqda.

Orol fojiasi va uni bartaraf etish choralari qidirish O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 1993-yil sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida va 1995-yil oktabr 50-sessiyalarida so'zlagan nutqlarida jahon hamjamiyatini Markaziy Osiyo mintaqasidagi ekologik halokat bo'lgan Orol va Orolbo'yini qutqarishda ko'mak berishga chaqirdi.

Mazkur global muammoni BMT shafeligida xalqaro moliyaviy tuzilmalar, rivojlangan davlatlar ko'magisiz amalga oshirish mumkin emasligiga BMTning e'tiborini qaratdi. 1993-yilda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston ta'sisligida Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi (OQXJ) tashkil etildi.

2010-yil «O'rta Osiyoning transchegaraviy ekologik muammolari: ularni hal etishda xalqaro huquq mexanizmlarini qo'llash» mavzusida o'tkazilgan xalqaro konferensiyada Islom Karimov transchegaraviy daryolar va ulardan foydalanishda adolat tamoyiliga rioya etish zarurligi, aks holda mintaqaning eko olamiga ulkan fojialarni keltirishi mumkinligi haqida yana bir bor ommaga ma'lum qildi.

2013-yilda Orolbo'yi uchun Amudaryo deltasidagi kichik suv havzalarini tashkil etish, sho'rsizlantiradigan qurilmaga ega suv chiqarish inshootlarini qurish, himoya o'rmonini tashkil etish kabi loyiha va tadbirlarni moliyalashtirishga mablag'lar ajratish rejasi tasdiqlangan.

2013-yilda O'zbekiston Respublikasi va OQXJning o'sha paytdagi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi 68-sessiyasining rasmiy hujjati sifatida «Orolning qurishi oqibatlariga barham berish va Orolbo'yi ekotizimi halokatini oldini olish tadbirlari Dasturi» ilgari surildi.

Global miqyosda va mintaqamizda ekologik vaziyatning tobora yomonlashuvi va chuchuk suv taqchilligi sharoitida Markaziy Osiyoda suv resurslaridan oqilona foydalanish dolzarb masalaga aylandi.

Orol dengizi tarixiga e'tibor bersak, u boy tabiiy resursi bilan mashhur bo'lgan. Bu dengiz biologik jihatdan boy ekotizim sifatida e'tirof etilgan. 1964-yilgacha dengiz hududi 68,9 ming kvadrat kilometrni tashkil etgan. Yiliga 30–35 ming tonnagacha baliq yetishtirilgan. Noyob flora va fau-

nasi dunyoga mashhur edi. Afsuski, suvdan noto‘g‘ri va tartibsiz foydalanish natijasida so‘nggi 50–55 yil ichida suv hajmi 15 barobarga tushib, sathi 29 metrga pasaydi. Dengizning qurigan hududini oq tuz konlari egalladi. Hayvonot va o‘simlik dunyosi tobora yo‘qolib bormoqda.

Dengizning qurib qolgan tubida vaqti-vaqti bilan chang va sho‘r bo‘ronlar kuzatiladi. Jumladan, har yili 100 million tonnaga yaqin qumtuz bo‘ronlari bo‘lib, 400 kilometrdan ortiq masofaga tarqaladi. Bu esa insonlarning sog‘lig‘iga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Hududda nafas yo‘llari, onkologik, surunkali bronxit kabi kasalliklar kuzatilmoqda. Atrof-muhitning buzilishi iqtisodiy ko‘rsatkichlar pasayishiga ham sabab bo‘ladi. Hududda chorvachilik va baliqchilik sohasi oqsamoqda. Iqtisodiy zarar ko‘rsatkichi ortib bormoqda.

Orol dengizi fojiasi natijasida yuzaga kelgan suv resurslari tanqisligi, yer degradatsiyasi, cho‘llanishning kuchayishi, bio xilma-xillikning keskin kamayishi va boshqa iqlim o‘zgarishlari jiddiy tashvish uyg‘otmoqda.

Orol halokati oqibatlarini yumshatish bo‘yicha mintaqa hududida 500 dan ortiq keng miqyosli loyihalar amalga oshirildi, qurigan dengizning 350 ming gektar maydoniga saksovul va sho‘rga chidamli o‘simliklar ekilib, butazorlar barpo etildi. Bugun bunday hududlarning umumiy maydoni qariyb 700 ming gektarga yetdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2017–2021-yillarda Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish Davlat dasturi qabul qilindi. Moliya vazirligi huzurida Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish jamg‘ar-masi tuzildi va unga 200 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirildi. Hozirda ushbu mablag‘lar hisobidan amaliy ishlar qilinmoqda. Xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati aholisining suv ta‘minoti, turmush sharoitini yaxshilashga ko‘maklashilmoqda.

Davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Orol dengizining qurishi bilan bog‘liq oqibatlar-ni bartaraf etish xalqaro miqyosdagi sa‘y-harakatlarni faol birlashtirish, BMT tomonidan Orol fojiasidan jabr ko‘rgan aholiga amaliy yordam ko‘rsatish bo‘yicha 2017-yil qabul qilingan maxsus dastur to‘liq amalga oshirilishi masalasiga jahon hamjamiyati e‘tiborini qaratgan edi.

Shuningdek, Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan «Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish bo‘yicha hamkorlikdagi harakatlar: yangi yondashuvlar, innovatsion yechimlar va investitsiyalar» mavzusidagi xalqaro anjuman-da qabul qilingan rezolutsiya bu borada amaliy yechim sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Darhaqiqat, hozirgi kunda Orolbo‘yi hududida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilash, mintaqaning suv va ekologiya bilan bog‘liq muammolariga yechim topish bo‘yicha qo‘shni davlatlarning sa‘y-harakatlarini birlashtirish lozimligi yanada yaqqolroq namoyon bo‘lmoqda.

Yaqinda Turkmanistonning Turkmanboshi shahrida bo‘lib o‘tgan Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi ta‘sischi davlatlari rahbarlari kengashining majlisida Prezidentimiz ushbu masalaga jiddiy e‘tibor qaratdi. O‘z navbatida, Orol fojiasi oqibatlarini yumshatishda mintaqadagi davlatlarning o‘zaro hamkorligi borasida ustuvor ahamiyatga molik konstruktiv yo‘nalishlar Markaziy Osiyo davlat rahbarlari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Prezidentimiz Orol muammosi mintqa hayoti va kelajagiga daxldor dolzarb masala ekani, muzokaralarda anchadan buyon to‘planib qolgan savollar ochiq va konstruktiv muhokama qilinganini, endi qog‘ozdan amaliy ishga o‘tilishini alohida ta‘kidlab o‘tdi. Ayniqsa, mintqa davlatlari umumiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, ushbu fojia oqibatlarini bartaraf etish va Orolbo‘yidagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilash, mintaqaning suv va ekologiya bilan bog‘liq muammolariga yechim topish bo‘yicha barcha sa‘y-harakatlarni birlashtirish lozimligi qayd etildi. Darhaqiqat, mintqa davlatlarining barchasi Jamg‘arma faoliyatida, jumladan, Orol dengizi havzasidagi mamlakatlarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha to‘rtinchi Dasturni ishlab chiqish va o‘zaro kelishish jarayonida to‘laqonli qatnashishi bu boradagi umumiy muammolarni hal etish va tahdidlarni bartaraf qilishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

Davlatimiz rahbari tomonidan Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish yuzasidan taklif etilgan konstruktiv yo‘nalishlar xalqaro jamoatchilik tomonidan ham e‘tirof etilmoqda.

So‘nggi yillarda Prezidentimiz tomonidan Orol dengizining qurishi natijasida mintaqada yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik muammolarni bartaraf etishga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. So‘nggi uch yil

ichida Orolning qurigan tubida o'rmonzorlar barpo etish bo'yicha dunyoda muqobili bo'lmagan ishlar jadallik bilan olib borilmoqda. O'tgan davr mobaynida qariyb, 2 million gektar maydonda o'rmonlashtirish ishlari amalga oshirilib, saksovul va cho'lga chidamli boshqa o'simliklar urug'lari sepildi.

Shuni alohida qayd etish joizki, Orol dengizining qurigan tubini o'rmonlashtirish borasida amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik mintaqa ekotizimini barqarorlashtirida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu chora-tadbirlar tabiiy resurslar degradatsiyaning, shuningdek, dengizning qurigan tubidan qum va chang ko'tarilishining oldini olishni ta'minlaydi.

Bugun Qoraqalpog'istonda hayot butunlay o'zgarimoqda. Barcha shahar va tumanlar, qishloqlar, mahallalar yangicha qiyofa kasb etmoqda. Zamonaviy korxonalar, ta'lim, tibbiyot, madaniyat, sport va ijtimoiy sohaning boshqa obyektlari, kommunikatsiya tarmoqlari qurilmoqda. Bu esa, Qoraqalpog'iston Respublikasining mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi tutgan o'rining tobora oshib borayotganligidan darak beradi.

2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: «Biz uchun **“Qoraqalpog'istonning yutug'i – butun O'zbekistonning yutug'i, Qoraqalpog'istonning tashvishi – butun O'zbekistonning tashvishi”** degan g'oya hamisha amaliy harakat dasturi bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Bizning ezgu maqsadimiz – birgalikdagi mehnatimiz bilan Yangi O'zbekistonda har tomonlama rivojlangan, obod va farovon Yangi Qoraqalpog'istonni bunyod etishdir.

Asrlar davomida et va tirnoq kabi bir bo'lib ketgan xalqlarimiz do'stligiga hech qanday kuch ta'sir ko'rsata olmaydi. Chunki bizning o'tmishimiz bir, bugunimiz ham, kelajagimiz ham bir» deb ta'kidlagan edilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bularning hammasi bizlar uchun cheksiz faxr-iftixor emasmi? Yangilangan, tobora yasharib, ko'rkam bir diyorga aylanayotgan Qoraqalpog'istonimizning o'zni O'zbekistonda yarqirab ko'rinmoqda. Nafaqat O'zbekistonda, balki Markaziy Osiyoda ham, dunyoning boshqa davlatlarida ham bu maskanga bo'lgan qiziqish, e'tibor, hurmat ortayotganini ko'rib quvonamiz.

Nazorat savollari

1. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida amalga oshirilgan islohotlar haqida nimalarni bilasiz?
2. Qoraqalpog‘istonda qishloq xo‘jaligi sohasida qanday o‘zgarishlar bo‘ldi?
3. Ma‘naviy-madaniy sohadagi yangilanishlar haqida aytib bering.
4. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘istonda ta‘lim sohasidagi qanday o‘zgarishlar amalga oshirildi?
5. Savitskiy muzeyi haqida nimalar bilasiz?
6. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Qoraqalpoq filiali qachon o‘z faoliyatini boshlagan?
7. Mo‘ynoq tumanida sanoat, xizmat ko‘rsatish va qishloq xo‘jaligi sohalarida qanday loyihalar amalga oshirildi?

11. O‘ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI

11. 1. O‘zbekiston Respublikasining tinchliksevar tashqi siyosati asoslarining yaratilishi va uning tamoyillari

XX asrning oxirgi o‘n yilligi insoniyat tarixiga buyuk o‘zgarishlar davri bo‘lib kirdi, chunki yer yuzida vaziyat, kuchlar nisbati keskin o‘zgarib, bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan SSSR va AQSH yetakchilik qilgan ikki ijtimoiy-siyosiy tizim, ikki harbiy-siyosiy blok barham topdi. Sotsialistik tuzum yemirilishi bilvosita butun mamlakatlar taqdiriga ta‘sir etdi.

Dunyo yangilanishi jarayonida har bir davlat o‘z taraqqiyot ko‘lami bilan jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin olish uchun harakat boshladi.

Shular qatori O‘zbekiston ham jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin olish maqsadida o‘zining ijtimoiy-siyosiy yangilanish dasturini ishlab chiqdi. O‘zbekistonning o‘z taraqqiyot istiqbollari uchun qulay jo‘g‘rofiy-siyosiy imkoniyatlarga ega ekanligi ham mustaqil tashqi siyosat yuritish, jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin olish uchun imkon berdi. Xususan, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi o‘rni, bu hududda istiqomat qiladigan xalqlarning qadimdan hamfikir bo‘lib kelgani Markaziy Osiyo mintaqasida tashqi siyosat yuritishda ijtimoiy zarurat hisoblanib kelinmoqda. O‘zbekiston tomonidan bu borada amalga oshirilayotgan faol siyosat umumjahon sivilizatsiyasi bilan mushtarak ekanligini alohida qayd etmoq kerak.

Istiqolning dastlabki kunlaridan boshlab O‘zbekistonda xalqaro tashkilotlarning faoliyatini o‘rganish, xorijiy davlatlar bilan diplomatik, savdo-iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish va bu borada faoliyat yuritish uchun yuqori malakali milliy kadrlar yetishtirish ehtiyoji kelib chiqdi. Shuni ta‘kidlash kerakki, O‘zbekiston bu ishlarni rejali tarzda amalga oshirdi.

1991-yil 31-avgustda Oliy Kengash VI sessiyasida qabul qilingan «Mustaqillik haqidagi Bayonot»da O‘zbekiston tashqi siyosatining aso-

siy yo‘nalishlarini belgilab oldi. O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasining 17-moddasida Respublika tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari qonuniy mustahkamlandi. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy ustuvor tamoyillari haqida mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov o‘zining asarlari, ma‘ruzalari va nutqlarida nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdi. Bu tamoyillar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- milliy davlat manfaatlarini ustun qo‘ygan holda tashqi siyosatda davlatlarning suveren tengligini hisobga olish;

- umumbashariy qadriyatlarni ustun qo‘ygan holda nizoli mojarolarni tinch yo‘l bilan hal etish;

- tashqi siyosatdagi teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlikni o‘rnatishda boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, barcha tinchliksevar davlatlar bilan tashqi aloqalarni o‘rnatishga intilish;

- xalqaro huquq normalarini tan olgan holda jahon hamjamiyatida xalqaro talablarga rioya qilish;

- tashqi siyosatda ko‘p tomonlama aloqalarni o‘rnatishda xalqaro tashkilotlar doirasida aloqalarni kengaytirish masalalari kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi butun jahon jamoatchiligi oldida xalqaro huquqning umumjahon e‘tirof etgan normalariga sodiqligini Konstitutsiya darajasida ham mustahkamladi. Xalqaro huquqning tamoyillari va normalarining butun bu majmuyi Konstitutsiyaga BMT Ustavidan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidan va inson huquqlariga oid boshqa xalqaro huquqiy hujjatlar, Xelsinki bitimi, Parij va Madrid xartiyalariga asoslangan holda kiritildi. Shuningdek, asosiy qonunga kiritilgan qoidalarni rivojlantirish maqsadida «Diplomatik munosabatlarni o‘rganish tartibi», «O‘zbekistonda xalqaro shartnomalarni tuzish, ijro etish va bekor qilish» haqida aktlar ham qabul qilindi. Ularda tashqi siyosatning har tomonlama asoslangan tamoyillari o‘z aksini topdi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining tashqi siyosatdagi yo‘nalishlarini demokratik prinsiplarga asoslangan holda olib borar ekan, 1991-yil dekabrda 1992-yil iyul oyigacha bo‘lgan davr ichida respublikani 111 davlat, hozirgi kunga qadar esa O‘zbekiston mustaqilligini 180 dan ortiq davlat tan oldi, ularning 100 dan ortig‘i bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o‘rnatildi. Toshkentda

Rossiy, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, AQSH, Hindiston, Pokiston va boshqa rivojlangan mamlakatlarning elchixonalari ochildi. Shuningdek, O'zbekistonda 88 ta xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. O'z navbatida O'zbekistonning elchilari dunyodagi 20 dan ortiq yirik davlatlarda faoliyat ko'rsatib turibdi.

1992-yil 2-martda O'zbekiston xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lib kirdi va dunyo miqyosida tan olindi. 1993-yil fevral oyiga kelib Toshkentda BMT vakolatxonasi ochildi. Xolid Malik BMTning O'zbekistondagi vakili etib saylandi.

Mustaqil O'zbekiston tashqi siyosatining asosini ochiqlik, teng huquqlilik, demokratiya prinsiplariga sodiqlik, umuminsoniy qadriyatlarini ulug'lash, respublika ijtimoiy hayotidagi demokratik jarayonga ta'sir qilish kabilar tashkil etadi va respublika tashqi siyosati tinchlik va xavfsizlik uchun umum e'tirof etilgan ochiqlik talablariga asoslanadi.

1993-yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi ma'ruzasida I.A.Karimovning ilgari surgan birinchi xalqaro tashabbusi O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi adolatparvar siyosatidan darak berdi. I.A.Karimov bu ma'ruzasida bir qator aniq takliflarni o'rtaga tashladi. Bularga Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalari bo'yicha BMTning doimiy ishlaydigan seminarini chiqirish, BMT xavfsizlik kengashida yuzaga kelayotgan mojarolarni tahlil qilish va istiqbolini belgilash bo'yicha maxsus guruh tuzish, Markaziy Osiyoni yadrosiz zona deb e'lon qilish, bu mintaqada kimyoviy modda hamda bakteriologik qurollarni taqiqlash bo'yicha xalqaro nazorat o'rnatish, Markaziy Osiyoda narkobiznesga qarshi hamkorlikda kurashish uchun BMTning mintaqaviy komissiyasini tuzish, Orol muammosini hal qilish masalasi bo'yicha BMTning maxsus komissiyasini tuzish kabilar kirdi.

I.A.Karimov 1995-yil BMTning ellik yilligi munosabati bilan o'tkazilgan Bosh Assambleyaning maxsus tantanali yig'ilishida so'zlagan nutqida ham asosiy e'tiborni bu tashkilotning faoliyatini yanada kengaytirish bilan bir qatorda yana mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik, ek-

stremizm, terrorism, narkobiznesga qarshi kurash masalalariga qaratdi. Prezidentimiz muayyan «olovli nuqtalar» deb atalayotgan mintaqalarda birgalashib harakat qilib, tinchlik va barqarorlikka erishish lozimligi haqidagi aniq takliflarni kiritdi va O‘zbekiston «ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatmaslikni ta‘minlash bo‘yicha kerakli xalqaro kafolatlarni qabul qilishini, yadro sinovlarini butunlay to‘xtatish haqidagi shartnomaning tezda tuzilishi tarafdori» ekanligini ham ko‘rsatib o‘tdi.

Ushbu yig‘ilishda davlatimiz rahbari tomonidan Orol dengizi qurishi bilan bog‘liq bo‘lgan global muammoni ko‘tarib chiqqani ham muhim ahamiyat kasb etdi. I.A.Karimov «Orol dengizining qurishi bilan bog‘liq ekologik fojia, butun yer yuzini qamrab oladigan biosfera, o‘n millionlab kishilarning hayot sharoitlari, salomatligi, nasliga halokatli ta‘sir ko‘rsatuvchi global muammo» ekanligini ko‘rsatib, bugungi kunda BMTning tashkilotchilik faoliyatisiz bu muammoni hal etish mumkin emasligini ham asoslab berdi. Bunday muammolar Prezidentimizning fundamental asari «O‘zbekiston XX1 asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida batafsil nazariy va amaliy jihatdan asoslab berildi. Asarda dunyoda barqarorlik va jo‘g‘rofiy-siyosiy muvozanat saqlanib qolgan sharoitdagina har qanday mintaqada rivojlanish kuchli bo‘lishi asoslab o‘tildi.

O‘zbekiston rahbarining yuksak minbardan turib kiritgan xalqaro miqyosda manfaatli bo‘lgan takliflari jahon hamjamiyati tomonidan qo‘llab-quvvatlandi va shunga asoslanib 1995-yil 16-sentabrda Toshkentda BMTning Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag‘ishlangan seminar-kengashi ish boshladi. Dunyoning ko‘p davlatlari ishtirok etgan bu seminarida O‘zbekiston rahbarining so‘zlagan nutqi bosh hujjat sifatida qabul qilindi. I.A.Karimov bu uchrashuvning «Tinchlik, Barqarorlik, Hamkorlik» shiori ostida o‘tayotganini mamnuniyat bilan izhor qilib, bu uchrashuv mintaqaviy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatib o‘tdi.

Xalqaro munosabatlar ravnaqi mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikning, aholi turmush darajasini yuksaltirishning o‘ziga xos kafolati ekanligi hech kimga sir emas. Shu bois ham O‘zbekiston rahbariyatining tashqi siyosatda mintaqaviy barqarorlikni saqlab qolish maqsadida ilgari surgan tashabbuslari ko‘pgina davlatlar va BMT tomonidan doimo tas-

diqlanib kelindi. BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti sammitidagi yig'ilishlarda O'zbekiston Prezidentining kiritgan aniq tashabbuslari, mintaqa xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan takliflari BMT boshchiligidagi «6+2» guruhining tuzilishiga asos bo'lgan edi (O'zbekiston, XXR, Rossiya, Eron, Pokiston, Tojikiston, kuzatuvchi sifatida BMT, Birlashgan front va «Tolibon» harakati). Ushbu guruhning 1999-yilning iyul oyida Toshkentda o'tkazgan uchrashuvi muhim xalqaro voqea bo'ldi. Uchrashuvning yakuni sifatida 19-iyul kuni «Afg'onistondagi mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilishning asosiy prinsiplari to'g'risida»gi tarixiy hujjat imzolandi. Ushbu hujjat BMTning rasmiy hujjati sifatida tarqatildi. 2001-yil 28-sentabrda BMT Xavfsizlik Kengashi doirasida terrorchilikka qarshi kurash qo'mitasining tashkil etilisi xalqaro terrorizmga qarshi kurashda barcha davlatlarning birlashishiga olib keldi. I.Karimov Afg'onistondagi voqealar mintaqa va xalqaro xavfsizlikka eng katta xavflardan biri ekanligini ta'kidlab, uzoq yillardan buyon ushbu masala yuzasidan ilgari surilib kelayotgan 6+2 dasturini 6+3 ga aylantirish tashabbusi bilan chiqdi. I.Karimovning ushbu tashabbusi 2008-yil 3–4-aprel kunlari NATOning Buxarestdagi sammitida ilgari surildi. Bularning barchasi dunyo hamjamiyati oldida O'zbekistonning tinchlik yo'lidagi real harakatlarining asosi sifatida yaqqol ko'zga tashlanib qoldi.

Bizga ma'lumki, O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, xavfsizlik, barqarorlikni ta'minlashdir. Ayniqsa, qo'shni Afg'oniston Respublikasida siyosiy barqarorlikka erishish uchun sa'y-harakat olib borish asosiy o'rinda turadi. Biz xalqaro hamjamiyatni Afg'oniston hukumati rahbarligida tinchlik muzokaralarini boshlash zaruratini qo'llab-quvvatlashga da'vat etdik, deb ta'kidladi Prezident Sh.M.Mirziyoyev. Shu munosabat bilan 2018-yilning mart oyida Afg'oniston bo'yicha o'tkazilgan yuqori darajadagi Toshkent konferensiyasi zamonaviy Afg'oniston tarixida xalqaro miqyosdagi keng qamrovli anjuman bo'lganini ta'kidlash lozim, konferensiya yakuni bo'yicha qabul qilingan, uning barcha qatnashchilarining yakdil pozitsiyasi ifoda etilgan «Toshkent deklaratsiyasi» Afg'onistonda tinchlik o'rnatish bo'yicha o'ziga xos dastur bo'ldi. Aynan ushbu konferensiyadan so'ng Afg'onistondagi barcha siyosiy kuchlar, jumladan,

«Tolibon» harakati ishtirokida muzokaralar jarayonini boshlashga qaratilgan xalqaro harakatlar yanada faollashdi. O‘zbekiston Afg‘oniston rahbariyati va mamlakatning yetakchi siyosiy kuchlari, jumladan «Tolibon» harakati vakillari bilan bir qator muhim muzokaralar o‘tkazdi. Ushbu siyosiy kuchlar afg‘on muammosini hal qilishda O‘zbekiston samarali vositachi bo‘la olishi mumkinligini e’tirof etdi. Ma’lumki, Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirishning muhim sharti – mamlakatni iqtisodiy jihatdan tiklashdan iborat. Bu borada mamlakatimiz Afg‘onistonda transport va logistika, energetika, savdo va ta’lim sohalarida yirik qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga kirishdi. O‘zbekiston tomonidan qurilayotgan Surxon – Puli Xumri elektr uzatish tarmog‘i, Termiz shahrida afg‘on fuqarolarini o‘qitish uchun ochilgan Ta’lim markazi, bojxona terminaliga ham ega bo‘lgan «Termiz-kargo» logistika markazi, Mozori sharif – Hirot va Mozori Sharif – Qobul – Peshavor temiryo‘l tarmog‘i loyihalari ishlab chiqilayotgani shundan dalolat beradi. O‘zbekiston afg‘on muammosini yechish uchun bundan buyon ham har tomonlama yordam ko‘rsatadi. Biz uchun eng muhim pirovard natija – Afg‘onistonda tinchlik muzokaralarini boshlash va milliy yarashuvga erishishdan iborat. Bugungi kunda Afg‘onistonda hokimiyatning “Tolibon” harakati qo‘liga o‘tishi bu hududda siyosiy vaziyatga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. O‘zbekiston hukumatining Afg‘oniston masalasidagi pozitsiyasi o‘zgarmaydi. Bosh maqsad Afg‘onistonda, qolaversa butun mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlash, o‘zaro hamkorliklarni davom ettirishdan iborat.

11. 2. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi va xalqaro nufuzining ortib borishi

O‘zbekistonning tashqi siyosatida mintaqalararo xavfsizlikni ta’minlashda xalqaro tashkilotlar faoliyatidan, ularning dasturlaridan ham keng foydalanish istiqbolli natijalarni ko‘rsatdi. Ko‘pgina mintaqaviy tashkilotlar, chunonchi, NATO, EKO, Islom konferensiyasi, Qo‘shilmaslik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorliklar yo‘lga qo‘yildi. 1994-yilning iyul oyida O‘zbekiston NATOning «Tinchlik yo‘lidagi hamkorlik» Dasturiga qo‘shildi. Bu Dasturga ko‘ra, O‘zbekiston harbiy

qismlari Shimoliy Korolina (AQSH)dagi Kemp Lejyup dengiz piyodalari poligonida o'tkazilgan harbiy mashqlarda, O'zbekiston hududida amerikaliklar bilan o'tkazilgan desantchilarning «Ultrabalans-96» harbiy mashqlarida qatnashdilar. Shuningdek, Respublika harbiy bilim yurti talabalari 1997-yil Norvegiyada o'tkazilgan «Kooperativ bankers-97» mashqlarida ham qatnashdilar. Bu kabi hamkorliklar jangchilarimiz uchun o'ziga xos mahorat maktabi, tajriba bo'lib, ularning jangovarlik qobiliyatini oshirishlariga yordam berdi. 1999-yil aprelda I.A.Karimov Shimoliy Atlantika Ittifoqi qoshidagi «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturining a'zosi sifatida NATOning 50 yillik yubiley tantanalarida qatnashdi. O'zbekistonning «Tinchlik yo'lida hamkorlik» Dasturida ishtiroki Markaziy Osiyo mintaqasida kollektiv xavfsizlik va barqarorlikning keng tizimini vujudga keltirishni rejalashtirishda O'zbekistonning ishtirokini kafolatladi. NATOning o'sha davrdagi Bosh kotibi X.Solana va AQSHning NATOdagi doimiy vakili R.Xanarning O'zbekistonga tashriflari O'zbekiston va mazkur tashkilot o'rtasidagi tinchlik yo'lidagi siyosatining hamohang ekanligini ham ko'rsatdi.

O'zbekiston BMTga a'zo bo'lib kirgan yillari EXHTning katta mansabdor xodimlari qo'mitasining Pragadagi yig'ilishida MDH tarkibidagi davlatlarni ushbu tashkilotga a'zo bo'lib kirishi masalasi ko'tarildi. 1992-yil 26-fevralga kelib O'zbekiston ham bu tashkilot kengashining yakunlovchi hujjatiga imzo chekdi. Mazkur hujjat imzolangan vaqtdan beri O'zbekistonning Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti bo'linmalaridagi ishtiroki tobora kengayib bormoqda. EXHTning Markaziy Osiyo bilan aloqalari bo'yicha Byurosi mintaqada barqarorlikni ta'minlash maqsadida mintaqadagi respublikalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yib olgani quvonarli holdir. Ushbu byuroning tashabbusi bilan Toshkentda EXHTning «Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar», «Ommaviy axborot vositalari demokratlashtirish sharoitida» mavzusidagi bir qator anjumanlari o'tkazildi. Seminarlar Markaziy va Sharqiy Yevropada inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini rivojlantirish, xalq ta'limi va ommaviy axborot vositalarining inson huquqlari sohasidagi roli masalasini ko'rib chiqdi. Bunday yig'ilishlarda O'zbekistonning ishtiroki tinchlikparvar tashqi siyosat yuritishida asosiy omil bo'lib qoldi. O'zbekistonning 1996-yil Lissabon Sammitida ishtiroki respublika

rahbariyatining xavfsizlik doirasiga kiruvchi qarashlarini bayon etishga ham imkon berdi. Unda O‘zbekiston rahbariyati tomonidan “xavfsizlikning, shu jumladan, Yevropa xavfsizligining chegarasi yo‘q. Shundan kelib chiqqan holda, bizning fikrimizcha, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining roli, ahamiyati, qolaversa, mas‘uliyati Yevropa bilanlangina chegaralanib qolmasligi, undan tashqaridan kelayotgan xavfni ham hisobga olishi kerak bo‘ladi” deb aytilgan so‘zlari alohida ahamiyat kasb etdi. Mazkur anjumanda O‘zbekiston xavfsizlik muammosiga doir o‘z qarashlarini bayon etish huquqiga ega bo‘ldi. Prezidentimiz yig‘ilish ishtirokchilariga Markaziy Osiyo mintaqasini yadrosiz zona deb yana bir bor e‘lon qildi. O‘zbekiston rahbariyatining mojarolar kuchayib borayotgan yerlarga qurol-yarog‘ yetkazib berishni to‘xtatish haqidagi fikri Lissabon uchrashuvining yakunlovchi hujjatiga kiritildi.

1999-yil 18–19-noyabr kunlari mazkur tashkilotga a‘zo 54 mamlakat rahbarlari uchun Turkiyaning Istanbul shahrida Oliy darajadagi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Mazkur anjumanda ancha dolzarb muammolar, jumladan Yevropada xavfsizlik va hamkorlikni mustahkamlashning asosiy tamo-yillari ishlab chiqilgan edi. Yig‘ilishda O‘zbekiston rahbarining ma‘ru-zasi dunyo mamlakatlari iqtisodiy taraqqiyotini, fuqarolarning ijtimoiy turmush tarzini faqatgina xavfsizlikni ta‘minlagandagina amalga oshirish mumkinligiga qaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yig‘ilishda global ahamiyatga ega bo‘lgan terrorizmga qarshi markaz tuzish haqidagi taklifini kiritdi va turli qabih niyatdagilarga yordam berayotgan tashkilotlarni ildizi bilan yo‘qotish orqaligina mamlakatlar xavfsizligini ta‘minlash mumkinligini alohida ta‘kidladi. XX asr oxiri XXI asr boshlari xalqaro terrorizmga qarshi keskin kurash davri bo‘ldi. Bu kurashga O‘zbekiston o‘zining katta hissasini qo‘shmoqda.

Bu o‘rinda O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan hamkorligi masalasiga ham to‘xtab o‘tmoq joiz. Mazkur ittifoq bilan hamkorlik uchun tuziladigan bitim bo‘yicha ishlar respublikada 1995-yildan boshlangan bo‘lib, bu muzokaralar 1996-yilga qadar davom etdi. Bu muzokaralarning natijasi o‘laroq O‘zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi bitim 1996-yil 21–22-iyun kunlari Italiyaning Florensiya shahrida chet el davlatlari rahbarlarining yig‘ilishida O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov tomonidan imzolandi. Florensiyaning «Fortezza de basso» qal’asida Yev-

ropa Ittifoqiga kiruvchi davlatlar va hukumat boshliqlarining navbatdagi uchrashuv – sammitida imzolangan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bu hujjat O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga dadil kirib borishida o‘z o‘rni va ovozigaga ega bo‘lishida katta ahamiyat kasb etdi. Mazkur bitim O‘zbekistonni Yevropaning rivojlangan davlatlari bilan har tomonlama aloqalari respublika salohiyatini yuzaga chiqarishda, demokratiya va bozor islohotlarini amalga oshirish yo‘lida muvaffaqiyatli harakat qilish uchun katta imkoniyat yaratdi. Xususan, Italiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi ilg‘or davlatlar bilan bo‘layotgan hamkorliklar davlatlarning iqtisodiy, madaniy aloqalarida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ilm-fan, madaniyat, san‘at, ta‘lim sohasidagi o‘zaro hamkorlikning keng ko‘lamda olib borilishi ham respublika taraqqiyoti uchun muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Islom konferensiyasi tashkiloti, Qo‘shilmaslik harakati kabi mintaqaviy tashkilotlar bilan ham samarali aloqalar o‘rnatdi. Bular orasida, ayniqsa, yuzdan ortiq a‘zoga ega. 1985-yilda tuzilgan Qo‘shilmaslik harakati tomonidan olib borilayotgan siyosat O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillariga, xalqaro kelishmovchiliklarni tinch yo‘l bilan hal qilish, turli harbiy-siyosiy bloklar faoliyatida qatnashmaslik, tinchliksevarlik kabi yo‘nalishlarga to‘la mos keladi. O‘zbekiston bu tashkilotga 105-a‘zo bo‘lib kirdi.

O‘zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosatida jahon hamjamiyatiga qo‘shilish, xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o‘rnatish masalalari dolzarb vazifalar qatoriga kirdi.

Shu bois O‘zbekiston jahon iqtisodiyotida integratsiyalashish yo‘lidan borib, Jahon banki, Xalqaro Valuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko‘maklashuv tashkiloti va boshqa moliyaviy iqtisodiy tashkilotlarga a‘zo bo‘lib kirdi va ular bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yib oldi. Shu bilan birga O‘zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar – Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, BMTning bolalar fondi, Xalqaro pochta ittifoqi, elektr aloqasi bo‘yicha xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro olimpiada qo‘mitasi, Xalqaro avtomobilchilar ittifoqi va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro aloqalarni

tiklab oldi. Respublikamizda ularning vakolatxonalari ochildi va faoliyat ko'rsatmoqda. BMT ning ta'lim, ilm-fan va madaniyat masalalariga ixtisoslashgan YUNESKO tashkiloti bilan ham respublikamiz o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari shu kunlarda muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. 1994-yilga kelib esa O'zbekiston Respublikasining YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiyasi tashkil etildi va bu ham o'zaro hamkorligimizning samaradorligini oshirishda muhim qadam bo'ldi. 1996-yilga kelib Toshkentda YUNESKOning vakolatxonasi ochildi. Shu o'tgan vaqtdan beri O'zbekiston va YUNESKO tashkiloti o'rtasidagi aloqalar yildan yilga kengayib bordi.

1996-yil O'zbekiston Prezidenti YUNESKO qarorgohiga rasmiy tashrif bilan bordi. Bu tashrif chog'ida I.A.Karimov YUNESKO ijroiya kengashining 149-sessiyasida nutq so'zladi. YUNESKOning Bosh direktori va Fransiya Prezidenti ishtirokida YUNESKO qarorgohida «Temuriylar davrida fan, madaniyat va ma'rifatning gullab-yashnashi» ko'rgazmasini ochdi.

O'zbekiston bilan YUNESKOning o'zaro hamkorligi kengayishi natijasida YUNESKO ishtirokida Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti ochildi, 2000-yil 28-dekabrda esa Shahrisabz YUNESKO ro'yxatiga kiritildi. Shahrisabz bu ro'yxatga kiritilgan respublikamizdagi uchinchi shahar bo'ldi. Mustaqillik yillari respublikada o'tkazilgan barcha tadbirlarda YUNESKO ishtirok etdi. Amir Temur tavallud topgan kunining 660 yilligi, Ahmad al-Farg'oni, Imom al-Buxoriy, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk shaxslarning yubileyleri nishonlandi. 2017-yilning sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O'zbekiston tashabbusi bilan muhim bir hujjat imzolandi, bu tarixga «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» rezolutsiyasi nomi bilan kirdi. O'zbekistonning bu taklifini BMTga a'zo bo'lgan 193 ta davlat keng qo'llab-quvvatladi. Bu esa O'zbekistonning sa'y-harakatlariga berilgan yuksak e'tirofdir. O'zbekistonning BMT doirasidagi faoliyati davom etmoqda.

Mustaqil O'zbekiston 2001-yilning iyun oyida «Shanxay beshligi» deb yuritilgan xalqaro tashkilotning XXRni Shanxay shahrida chaqirilgan sammitida bu tashkilotning to'la huquqli a'zosi bo'ldi. 1998-yili tashkil etilgan «Shanxay beshligi»ga Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalari a'zo bo'lgan. Bu tashkilot unga O'zbekistonning ham qo'shilishi natijasida «Shanxay hamkorlik tashkiloti» nomi

bilan yuritila boshlandi. Tashkilotning bosh maqsadi a'zo davlatlar o'rtasida har tomonlama hamkorlik o'rnatishdan iborat bo'lib, ayni vaqtda xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash olib borish masalasi ham tashkilotning faoliyat markazida turadigan bo'ldi. Terrorizmga qarshi kurash qarorgohi (shtabi) Bishkekdan Toshkentga ko'chirildi. Tashkilotning aniq vazifalari tashqi ishlar, mudofaa vazirliklarining kengashlarida hal qilinadi.

2005-yilning 2-iyul kuni Qozog'istonning Astana shahrida «Shanxay hamkorlik tashkiloti»ning o'ninchi marta uchrashuvi o'tdi. Sammitda doimiy a'zo davlat rahbarlaridan tashqari Mo'g'uliston Respublikasining vakili kuzatuvchi sifatida qatnashdi. Kengash Hindiston, Pokiston va Eron davlatlarini tashkilotga kuzatuvchi sifatida qabul qildi va ularning vakillari sammitda ishtirok etdi. Astana uchrashuvi qatnashchilari «Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash konsepsiyasi»ni yakdillik bilan qabul qildi. O'zaro iqtisodiy aloqalarni kengaytirish to'g'risida hujjatlarini imzoladi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi dunyo mamlakatlari bilan ko'p tomonlama aloqalar o'rnatish bilan bir vaqtda taraqqiy etgan davlatlar va qo'shni mamlakatlar bilan ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirdi. Bugungi kunda Shanxay hamkorlik tashkiloti bir qator obro'li va nufuzli xalqaro tashkilotlar orasida o'zining munosib o'rniga ega.

2018-yilning iyun oyida Xitoyning Sindao shahrida ShHTning 18-sammiti bo'lib o'tdi. Sindoadagi sammitda davlatlar rahbarlari Xitoyning ShHTga raislik qilgan yil yakunlarini, kelgusidagi hamkorlik rejalarini muhokama qildilar. Shuningdek, tashkilotning rivojlanish yo'nalishlarini belgilab oldilar. Ushbu sammit ShHT faoliyatida yangi davrni boshlab berdi. Sindoadagi uchrashuv tashkilotga yangi a'zolar – Hindiston va Pokiston qo'shilganidan keyingi ilk Sammit sanaladi. ShHT dunyodagi eng katta hududni va sayyora aholisining deyarli yarmisini qamrab olgan, jahon YaIMning uchdan birini ishlab chiqaradigan eng yirik xalqaro tashkilotdir.

ShHTga a'zo mamlakatlarning umumiy aholisi 3,2 milliard kishi, ShXTga kirgan davlatlarning umumiy maydoni 34 million km²dan ziyod. Jahon yalpi ichki mahsulotining ¼ qismi ShHT hissasiga to'g'ri keladi. Sindoadagi Sammitda 12 mamlakatdan davlat va hukumat boshliqlari, shuningdek, 8 ta xalqaro tashkilot va muassasalar rahbarlari yig'ildi.

Sammitda ko'p tomonlama aloqalarning barcha sohasini qamrab olgan 23 ta hujjat qabul qilindi. Sammitda ShXTga a'zo davlatlar o'rtasida uzoq muddatli yaxshi qo'shniçilik, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma qoidalarini amalga oshirish bo'yicha 2018–2022-yillarga mo'ljallangan Harakatlar rejasi qabul qilindi. Qabul qilingan hujjatlar ichida terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha 2019–2021-yillarga mo'ljallangan Hamkorlik dasturi atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlik konsepsiyasi, ShHTga a'zo mamlakatlarning kelgusi besh yilga mo'ljallangan narkotiklarga qarshi kurash strategiyasi, narkotik vositalar va psixotron moddalarni suiiste'mol qilishning oldini olish bo'yicha ShHT Konsepsiyasi o'rin olgan. Shuningdek, ShHTga a'zo davlat yetakchilarining Yoshlarga qo'shma murojaati hamda Davlat rahbarlarining savdo tartib-tamoyillarini soddalashtirish to'g'risidagi bayonoti qabul qilindi. Ana shu Sammitda Prezident huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktori Vladimir Norovni ShHT Bosh Kotibi lavozimiga tasdiqladilar.

11. 3. O'zbekistonning MDH, Markaziy Osiyodagi qardosh davlatlar va jahonning turli mamlakatlari bilan hamkorlik munosabatlari

O'zbekistonning MDH, Markaziy Osiyodagi qardosh davlatlar va jahonning turli mamlakatlari bilan hamkorlik munosabatlari kuchayib bormoqda 1991-yil 8-dekabrda Minsk shahri yaqinida sobiq ittifoqning barham topishi munosabati bilan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga asos solindi. MDHning vujudga kelishi haqidagi hujjatga dastlab Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Belarusiya davlatlari imzo chekdilar. 13-dekabrda Ashxobodda o'tgan O'rta Osiyo va Qozog'iston Respublika rahbarlarining kengashida hamdo'stlikni kengaytirish zarur deb topildi. Natijada shu yili 21-dekabrda Almatida o'tgan uchrashuvda MDH bitimini imzolagan jami 11 davlat MDHga a'zo bo'lib kirdi.

Ular bu bitimda davlatlarning hududiy butunligini tan olish, amaldagi chegaralar, ularning ochiqligi, fuqarolarning harakati erkinligiga, xalqaro tinçlik va xavfsizlikni ta'minlash, harbiy harakat va qurol-yarog' tarqatishning oldini olishda birgalikda harakat qilishga kelishib oldilar.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida hamdo‘stlik mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishga alohida ahamiyat berdi. O‘zbekiston ham davlatlararo bank va boshqa hamdo‘stlik iqtisodiy tuzilmalarining shakllanishida faol ishtirok etdi. «Mustaqil davlatlar hamdo‘stligini tashkil qiluvchi mamlakatlar bilan bevosita va ko‘p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish, – degan edi I.A.Karimov, – tashqi siyosatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir».

1991–2000-yillarda MDH davlatlari boshliqlarining 30 ga yaqin kengashlari bo‘lib o‘tdi va muhim hujjatlar imzolandi. Ular orasida xavfsizlik masalalari, tinchlikni saqlash, iqtisodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yib olish uchun davlatlararo iqtisodiy qo‘mita tuzish, iqtisodiy integratsiyani to‘laqonli amalga oshirish, bojxona va ittifoq to‘lovi masalalarini izga solib olish kabilar muhim o‘rin egalladi. O‘zbekiston MDH doirasida siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalar bo‘yicha shartnoma hamda kelishuvlarni Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya va boshqa mamlakatlari bilan imzolab o‘zaro manfaatli hamdo‘stlik aloqalari uchun mustahkam asos yaratdi.

O‘zbekiston MDH davlatlari bilan hamkorlikda iqtisodiy mintaqalararo munosabatlarni mustahkamlashga kirishar ekan, ularning siyosiy mustaqilligiga daxl qilmaslik nuqtayi nazaridan yondashdi. 1992-yilning may oyida MDH davlat rahbarlarining Toshkent uchrashuvida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan boshlangan kollektiv xavfsizlik to‘g‘risidagi shartnomaning imzolanishi MDH doirasidagi davlatlar o‘rtasidagi aloqalarning yangi bosqichga ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. 1993-yil MDH davlatlari bilan imzolangan «Iqtisodiy ittifoq» haqidagi shartnoma ham bu davlatlarning iqtisodiy taraqqiyoti va o‘zaro hamkorliklarining yanada mustahkamlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatdi.

O‘zbekiston 1996-yil Venada sobiq ittifoqdosh davlatlari Gruziya, Ukraina, Ozarbayjon, Moldova davlatlari asos solgan o‘ziga xos tuzilma-ga ham 1999-yilning aprel oyida a‘zo bo‘ldi. Natijada, bu tuzilma unga uyushgan davlatlarning nomidan olingan bosh harflar asosida GUUAM deb yuritila boshlandi. Mazkur tuzilma mintaqaviy hamkorlik doirasidagi Osiyo-Kavkaz-Yevropa transport yo‘lagini rivojlantirish, iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishni maqsad qilib oldi. 2001-yilning iyun oyida

ana shu tashkilotga a'zo davlatlarning uchrashuvi bo'lib, unda O'zbekiston ham ishtirok etdi. Yaltada bo'lib o'tgan sammitda hamkorlikni mustahkamlashga doir ayrim masalalar ko'rib chiqildi.

So'nggi yillarda GUUAM davlatlarining ko'pchiligida ichki va tashqi siyosatida yuz bergan keskin o'zgarishlar oqibatida O'zbekiston bu tashkilotga a'zolicini bekor qildi.

Rossiya Federatsiyasi bilan mustaqillik yillarida bo'layotgan o'zaro manfaatli va teng huquqli hamkorlik yaxshi samara berayotganini ta'kidlab o'tmoq joizdir. Bu ikki mamlakat o'rtasidagi 1992-yil o'rnatilgan diplomatik aloqalardan so'ng siyosiy, iqtisodiy sohalarda 150 dan ortiq shartnomalar imzolandi. Rossiya Federatsiyasi bosh vaziri V.Chernomirdin, keyinroq E.Primakov, 1998-yil Rossiya Federatsiyasi Prezidenti B.Yelsin, 1999-yil dekabr va 2000-yil may oyida Prezident V.V.Putin ning O'zbekistonga qilgan tashriflari Rossiya va O'zbekistonning o'zaro iqtisodiy hamkorliklarini yo'lga qo'yishda, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi birgalikda kurashishda alohida o'rin tutdi.

2003-yilning avgustida ikki mamlakat prezidentlarining navbatdagi uchrashuvi Samarqand shahrida bo'lib o'tdi. Rossiyaning «Gazprom» va «Lukoil» kompaniyalarining O'zbekistonda neft va gaz manbalarini qidiruv, ishlayotgan korxonalarini texnika jihatidan qayta qurish masalalarini muhokama qildi. Ikki davlat o'rtasidagi tovar almashuv 2002-yili bir milliard AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2003-yili bu ko'rsatkich 25 foizga oshdi.

2004-yili Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar yana ham mustahkamlandi. Shu yili ikki davlat prezidentlari jami yetti marta uchrashdi. O'zbekistonga 32 marotaba Rossiya hukumati delegatsiyalari tashrif buyurdi, shu jumladan, Rossiya davlati xavfsizlik kengashining raisi, Mudofaa, Tashqi ishlar, Transport vazirlari o'zbekistonlik davlat rahbarlari bilan muhim masalalar bo'yicha bitimlar tuzdi. 16-iyun kuni mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov va V.Putin uchrashuvi natijasida strategik hamkorlik to'g'risida bitim tuzildi. Bunda siyosiy, harbiy, harbiy-texnika, iqtisodiy-ijtimoiy va boshqa masalalar bo'yicha alohida bitimlar imzolandi. Yoqilg'i-energetika sohasida neft va gaz qidiruv ishlarini bir milliard dollarga, «Gazprom» va Uzneftgaz birlashmasi o'rtasida mavjud yoqilg'i korxonalarini texnik jihatdan qayta qurish uchun 1 milliard 200 million dollar hajmda bajarishga kelishildi.

O‘zbekistonda 350 korxonalar Rossiya investitsiyasi asosida ishlab, shundan 300 tasi qo‘shma korxonalarda, Rossiyada esa 100 dan ortiq O‘zbekiston-Rossiya qo‘shma korxonalari ishlayapti.

V.V.Putin: «...biz har xil sohalarda munosabatlarni rivojlantirishdan manfaatdormiz» degan edi. O‘zbekistonda bir milliondan ortiq rus millatiga mansub fuqarolar yashaydi. O‘zbekistonda rus tilida 159 ta maktab, rus-o‘zbek tillarida ishlaydigan 603 ta maktab mavjud. O‘zbekiston aholisining 84,9 foizi rus tilida erkin gaplashadi. Rus tilida 85 gazeta va 52 jurnal nashr etiladi. 2002–2004-yillari 500 mingdan ortiq darsliklarni Rossiya hukumati yubordi. Har yili Rossiya oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek yoshlari uchun tekin, barcha sharoitlarga ega o‘quv o‘rinlari ajratildi.

2018-yilda jahonning yetakchi davlatlari bilan ham o‘zaro manfaatli aloqalar sezilarli darajada jadallashdi. Qisqa vaqt ichida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashriflari va xorijiy davlatlar rahbarlari bilan muzokaralari natijasida Rossiya, Belarusiya, AQSH, Xitoy, Fransiya va boshqa Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Turkiya, Misr hamda Osiyo-Tinch okeani mintaqasi va Yaqin sharq davlatlari bilan strategik sheriklik munosabatlari sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi.

2018-yil 20-oktabrda davlat tashrifi bilan Rossiya Prezidenti V.Putin O‘zbekistonga tashrif buyurdi. Uchrashuvda hamkorlikning hozirgi holati va uni har tomonlama rivojlantirish, turli sohalarda yangi qo‘shma loyiha va dasturlarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi, mamlakatimizning dolzarb mintaqaviy va xalqaro masalalarga doir yondashuvlari mos yoki yaqin ekani ta’kidlandi.

Tomonlar BMT, MDH, ShHT, EXHT va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar doirasida o‘zaro hamkorlikni davom ettirishga tayyor ekani tasdiqladilar. Muzokarada tovar ayirboshlash hajmini oshirish va nomenklaturasini, diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi kooperatsiyani rivojlantirish transport va energetika sohalari-da o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Davlat rahbarlari tashrif doirasida umumiy qiymati 25 milliard dollar bo‘lgan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hujjatlar imzolanganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Bugungi kunda Rossiyaning mamlakatimiz iqtisodiyotiga yo‘naltirgan investitsiyalari hajmi 8,5 milliard dollardan oshadi. Tashrif doirasida

Prezidentimiz tashabbusi bilan ilk bor o'tkazilgan "O'zbekiston–Rossiya hududlararo hamkorlik forumi bu borada katta ahamiyat kasb etdi. Uning yakunida qiymati 2 milliard dollarda ziyod loyihalar bo'yicha kelishuvga erishilgani qayd etildi.

Mamlakatimiz o'rtasida madaniy-gumanitar aloqalar kengayib bormoqda. Joriy yilda ilk bor O'zbekiston–Rossiya media-forumi o'tkazildi, Rossiyaning yetakchi oliy ta'lim muassasalarining 80 nafar rahbari ishtirokida Ta'lim forumi bo'lib o'tdi. «Yangi iqtisodiyot uchun yangi kadrlar» mavzuidagi mazkur forumda ta'lim va fan sohalaridagi hamkorlik, jumladan mamlakatimizda Rossiyaning yetakchi oliy o'quv yurtlari filiallarini ochish to'g'risida 100 dan ortiq kelishuv imzolandi.

2019-yildan Olmaliq shahrida Moskva po'lat va qotishmalar instituti filiali ish boshladi. Mamlakatimizda Moskva davlat universiteti, Rossiya iqtisodiyot universiteti, Rossiya davlat neft va gaz universiteti filiallari samarali faoliyat olib borayapti. Tashrif doirasida imzolangan 2019–2024-yillarda iqtisodiy hamkorlik dasturi, 2019–2021-yillarda madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlik dasturi, «Supa» xalqaro radioastronomik observatoriyasini tashkil etish bo'yicha «yo'l xaritasi», O'zbekistonda Rossiyaning yetakchi oliy ta'lim muassasalari filiallarini tashkil etish va faoliyatini ta'minlash to'g'risidagi bitim, To'qimachilik sanoatida hamkorlik to'g'risidagi bitim o'zaro almashildi.

Bunday uchrashuvlar nafaqat Rossiya Federatsiyasi bilan, balki Ukraina bilan ham keng yo'lga qo'yildi. 1994-yilda Ukraina Prezidenti Leonid Kuchma davlat tashrifi bilan Toshkentga keldi. O'zbekiston va Ukraina davlat rahbarlari o'rtasidagi o'zaro muloqotda iqtisodiy hamkorlik, transport, sanoat, qishloq xo'jaligi, mineral xomashyo qazib olish, fan-texnika taraqqiyotidagi yutuqlarda o'zaro hamkorlikni amalga oshirish bo'yicha tuzilgan bitimlarni amalga oshirish bilan aloqador bo'lgan masalalar asosiy o'rin egalladi. Nafaqat iqtisodiy, balki madaniy aloqalar ham yo'lga qo'yildi. Leonid Kuchma o'zining O'zbekistonga tashrifi davomida O'zbekiston baynalmilal madaniy markazida ham bo'ldi. O'z navbatida Prezident I.A.Karimov ham Ukrainaga uch marotaba safar qildi. Bu ikki davlat o'rtasidagi aloqalar hozirgi kunga qadar davom etib, tovar ayirboshlash hajmi 300 million AQSH dollaridan

oshdi. O'zbekiston Ukrainaga rangli metall, gazlama va boshqa turdagi mahsulotlarni yetkazib bergan bo'lsa, Ukrainadan O'zbekistonga texnika asbob-uskunalari keltirildi. Bugungi kunda O'zbekistonda 20 dan ortiq o'zbek-ukraina qo'shma korxonalari ishlab turibdi.

2001-yil MDH tashkil topganligining 10 yilligi munosabati bilan Rossiya davlati poytaxtida MDH davlatlari rahbarlari ishtirokida sammit o'z ishini boshladi. Sammitda o'tgan vaqt mobaynida qilingan ishlar sarhisob qilindi va o'zaro savdodagi cheklashlarni bartaraf etish, tovarlar va xizmatlar oqimini ko'paytirish uchun axborot-marketing markazlarini tuzish, ta'lim, madaniyat, soliq, bojxona sohaslarida faoliyat ko'rsatuvchi muassasalar, xo'jalik sudlari hamkorligini kengaytirish masalalari muhokama etildi. Sammit ishtirokchilari MDH tuzilganligining o'n yilligi munosabati bilan, hamda Afg'onistondagi vaziyatga doir bayonotga imzo chekdilar. O'zaro hamkorlik doirasidagi bunday uchrashuvlar o'z navbatida hamkorlik, davlat chegarasini himoya qilish, MDH doirasidagi davlatlarning fan-texnika taraqqiyotidagi yutuqlaridan o'zaro keng foydalanish, iqtisodiy aloqalarni keng qamrovli olib borish, ekologik muammolarni hal etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. MDH davlatlaridan Belarusiya bilan hamkorlik yaxshi yo'lga qo'yilgan. Belarus Prezidentining 2018-yil 12–14-sentabr kunlari O'zbekistonga rasmiy tashrifi doirasida 19 ta kelishuv va umumiy qiymati 263 million dollarlik 56 ta savdo shartnomasi imzolandi.

1993-yil Markaziy Osiyo rahbarlarining Almatida bo'lib o'tgan uchrashuvidan so'ng Markaziy Osiyo hamdo'stligiga asos solindi. Hamdo'stlikka a'zo bo'lgan davlatlarga milliy mudofaani kafolatlashga, ilmiy texnika taraqqiyoti yutuqlari va aloqa vositalari, yangi texnologiyaga erishish, xorijiy davlatlardan mahsulot tashish, zarur xomashyo va tayyor mahsulotlarni keltirish hamda o'z mahsulotini jahon bozoriga olib chiqish, tabiiy ofatlar oqibatini tugatish, ekologiya sohasida tadbirlarni birgalikda o'tkazish uchun imkoniyatlar yaratildi.

Din, e'tiqod, til birligi, azaliy qardoshlik munosabatlari bu davlatlar iqtisodiy taraqqiyotida shubhasiz katta ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda o'ziga ruhan, urf-odatlar va an'analari bilan yaqin mamlakatlar bilan mustahkam munosabatlar o'rnatish suveren O'zbekistonning tashqi siyosatidagi muhim yo'nalishlardan biridir. Bu ishlar Turkiston xalqlarining

asosiy manfaatlarini ifodalagani uchun, ular orasida qadimiy do'stlik va birodarlikni mustahkamlash, o'zaro iqtisodiy muammolarni yechish, milliy-madaniy aloqalarni tiklash uchun juda qulay sharoit yaratib, kishilar qalbida mehr-oqibat, birodarlik tuyg'ularini, uyg'otib kelmoqda.

1994-yil 10-yanvarda Qozog'iston Prezidenti N.Nazarboyevning O'zbekistonga tashrifi Markaziy Osiyo hamdo'stligiga amaliy poydevorni qo'ydi. Unda ikkala mamlakat rahbarlari «Yagona iqtisodiy hudud» barpo etish to'g'risidagi shartnomani imzoladilar. Bu shartnomada O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasida tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarining erkin o'tib turishini nazarda tutuvchi hamda o'zaro kelishilgan kredit, hisob-kitob, budjet, soliq, narx, boj va valuta siyosatini ta'minlovchi yagona iqtisodiy makonni tashkil etish ko'zda tutildi. Fan, maorif, sog'liqni saqlash bo'yicha imzolangan hujjatlar bo'lsa, o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi omil bo'lib qoldi. Bu shartnomaga Qirg'iziston, keyinchalik Tojikistonning ham kirishi Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodiy integratsiya jarayonining chuqurlashuviga katta imkoniyat yaratdi. O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston prezidentlarining bu oliy darajadagi uchrashuvining yangi nuqtasi 1994-yil Almati shahrida bo'lib o'tdi. Tomonlar Davlatlararo Kengash, hamda uning doimiy ijroiya tashkiloti, Bosh Vazirlar kengashi, Tashqi ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi kengashini ta'sis etdilar. Kelishuvda qatnashgan mamlakat vakillarining davlatlararo ijroya qo'mitasi Almati shahrida joylashdi.

1995-yil 15-dekabr Qozog'iston va O'zbekiston Respublikalari davlatlararo Kengashining Jambul shahrida navbatdagi kengashi bo'ldi. Mazkur kengashda prezidentlar 2000-yilgacha bo'lgan iqtisodiy integratsiya va birinchi navbatda sarmoya sarflanishi lozim bo'lgan loyihalar dasturlarni hayotga joriy etish, kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish masalalarini muhokama etdilar. Integratsiya dasturida 53 ta loyiha ishlab chiqildi.

Iqtisodiy sohadagi uzviy hamkorlikning davomi Markaziy Osiyo respublikalari prezidentlarining 1999-yil aprel oyida Cho'lpon Ota shahridagi uchrashuvi bo'ldi. Uchrashuvda I.A.Karimov barchaning diqqat-e'tiborida turgan Afg'oniston hisoblanmish xalqaro terrorism o'chog'ining xavfi masalasi keskinligini qayd etdi. O'zbekiston Prezidenti yig'ilish

qatnashchilari hamda BMTni butun xalqaro hamjamiyatga tahdid so-
layotgan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashni kuchaytirishga cha-
qirdi. Uchrashuvda Tojikiston Respublikasi rahbariyati va jamoatchiligi
O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov tojik xalqining
og‘ir kunlarda yordam beruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi haqiqiy birodari
va do‘sti sifatida qabul qildi. Prezident I.Rahmonov I.A.Karimovni tojik
xalqining «boshidagi toji, ko‘zidagi nuri» dedi. Kengashda mintaqaning
suv resurslaridan samarali foydalanish, Sarazm ko‘lining toshish xav-
fining oldini olishda Tojikistonga yordam berishga e‘tibor qaratildi. Bu
hamdo‘stlik davlatchiligini qaror toptirish Prezidentimiz ta‘biri bilan ayt-
ganda «bozor munosabatlariga o‘tishning murakkab davrida mintaqada-
gi mamlakatlarning kuch-g‘ayratlari va sa‘y-harakatlarini jiplashtirishga
qaratilgandir».

Ayni paytda O‘zbekiston Markaziy Osiyo respublikalari bilan alo-
qalarni yo‘lga qo‘yib borar ekan, bu mintaqada iqtisodiy, madaniy ham-
korlikni yo‘lga qo‘yishdagi asosiy xavf Afg‘oniston mojarosi ekanligini
doimo diqqat markazida saqlab turdi. Bularga siyosiy jihatdan diniy ruh-
dagi ekstremizm, xalqaro terrorizm, korrupsiya va jinoyatchilik, narko-
tik moddalarni tarqatish, qurol-yarog‘ savdosi kabi muammolarni kiritish
mumkin. «Boshqacha aytganda, – deydi Prezidentimiz, – yuqorida sanab
o‘tilgan tahdidlar, garchi turli mintaqalarda turlicha kuch bilan namoyon
bo‘lsa-da, insoniyatda bir xil tashvish tug‘dirmog‘i darkor».

Markaziy Osiyo respublikalarining diqqat markazida turgan xalqa-
ro terrorizmga qarshi jiplashish masalasi mintaqadagi respublikalar
rahbarlarining 2000-yil 20–21-aprel kunlari Toshkentda Prezidentning
Do‘rmon qarorgohida bo‘lib o‘tgan uchrashuvda yana yuzaga chiqdi.
I.A.Karimovning xalqaro terrorizmga qarshi kurash Xalqaro markazi
tuzish haqidagi tashabbusini qo‘llab-quvvatladilar. To‘rt davlat rahbarlari
mintaqada xalqaro terrorizm, siyosiy va diniy ekstremizm va boshqa tah-
didlarga qarshi birgalikda harakat olib borish haqida hujjatni imzoladi-
lar. Shuningdek, uchrashuvda ikki davlat Qozog‘iston va O‘zbekiston
Respublikasi prezidentlari chegaralar masalasida ikkala davlat orasida
erkin harakatlanish to‘g‘risida, yo‘lovchi va yuk tashish transportlarini
kengaytirish to‘g‘risida kelishib olindi.

Ushbu mamlakatlarni birlashtirib turgan muhim muammolar qatorida Orol dengizi masalasi katta o‘rin tutadi. Shu bois bu masalani to‘laqonli hal etish mintaqadagi davlatlarning global muammolari qatoriga kiradi. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov so‘zi bilan aytganda «Orol bo‘yining barcha ne‘matlarini «yagona sovet xalqi» bilan baham ko‘rilgan» bo‘lsa, «uning achchiq mevasi Orol bo‘yi fojiasidan qutulish Markaziy Osiyo xalqlarining ishi bo‘lib qoldi».

Sobiq Ittifoq parchalanib ketgandan beri bu muammoni hal etish Markaziy Osiyo respublikalarining o‘zaro aloqalarida o‘z aksini topib bormoqda. Orol dengizi muammosi bo‘yicha Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Qizil O‘rda (1993), Nukus (1994), Toshhovuz (1995) uchrashuvlari bo‘lib o‘tdi. Bu uchrashuvlarda asosan Orol dengizi muammosiga bag‘ishlangan chora-tadbirlarni ko‘rish belgilab olindi. O‘zbekistonning tashqi siyosatidagi har tomonlama hamkorliklar qatorida Orol masalasi ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Respublika rahbariyatining Orol bo‘yi masalasini hal etishda nafaqat Markaziy Osiyo, balki Osiyodagi bir qancha tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi. Jumladan, 2001-yil Osiyo taraqqiyot banki prezidenti Tadao Chino O‘zbekistonga tashrif buyurib, Orol bo‘yida yuz bergan holat bilan tanishib chiqdi. Ushbu tashrif natijasida Tadao Chino O‘zbekiston hukumatining Orol bo‘yidagi suv taqchilligini tugatishga qaratilgan sa‘y-harakatlarini qo‘llab-quvvatladi. U Yaponiyaning maxsus jamg‘armasidan beg‘araz grant ajratishni jadallashtirishini ta‘kidlab o‘tdi.

Keyingi yillarda Yosh mustaqil davlatlar ichida Markaziy Osiyo davlatlari uchun dini, urf-odatlari va an‘analari yaqin bo‘lgan Sharq mamlakatlari bilan o‘zaro aloqalar olib borish imkoniyatlari bu mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarni kengaytirdi. Bu o‘rinda birinchi navbatda Saudiya Arabistoni bilan aloqalarni aytib o‘tish o‘rinlidir. Shuningdek, O‘zbekiston 1992-yil 6-fevralda Turkiya, Pokiston, Eron tomonidan tuzilgan iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a‘zo bo‘lib kirdi va 1992-yil Eron, Turkiya, Pokiston, Turkmaniston, Qozog‘iston davlat va hukumat rahbarlari bilan imzolangan «Trans-Osiyo» temiryo‘l aloqasini tiklash maqsadida Tajan-Seraxs-Mashhad temiryo‘li qurilishi haqidagi bitimda faol ishtirok etdi. Bu O‘zbekiston uchun dengiz yo‘llariga, xalqaro transport tarmog‘iga, tovar va kapital xalqaro bozoriga chiqish imkoniyatini berdi. Arab mamlakatlari bilan olib borilgan aloqalar madaniy va diniy

tomondan ham uzviy bog‘liq bo‘ldi. Bu yo‘ldagi harakatlar natijasida savdo-sotiq, turizmni rivojlantirish va kadrlarni o‘qitish imkoniyatlariga yo‘l ochdi.

2002-yil 28-fevral – 1-mart kunlarida Almati shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvida «Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkilotini tuzish to‘g‘risidagi shartnomaga imzo chekildi va mazkur tashkilotning raisi etib I.A.Karimov saylandi.

Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligining tuzilishi ularning boshqa davlatlardan uzoqlashishini ko‘rsatmaydi, balki murakkab o‘tish davrida mintaqa mamlakatlarining o‘zaro yordam va hamkorligini chuqurlashtirishga qaratilgandir. Respublikaning geosiyosiy va geostrategik ahvoli, iqtisodiy salohiyati, ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyoti va boshqa omillardan qat’i nazar davlatning tashqi siyosatidagi ustuvor prinsipi davlatlarning suveren teng huquqlilik prinsipi bo‘lib qoldi.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro huquqiy tashabbuslari jahon hamjamiyati oldida turgan mintaqaviy va global muammolarni hal etishga qaratilgandir. Umuman, O‘zbekiston tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish borasida bir necha yillarga arziydigan ishlarni amalga oshirdi. O‘zbekiston o‘zining tinchliksevar, yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o‘zining munosib o‘rnini egalladi, uning mavqeyi yildan yilga mustahkamlanib bormoqda.

Sovet davlati parchalanib ketgandan so‘ng Markaziy Osiyoga, xususan, O‘zbekistonga xalqaro terroristlar va diniy ekstremistlar qo‘poruvchilik harakatlari bilan tazyiq o‘tkazishga harakat qildilar. I.A.Karimov O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida, xalqaro tashkilotlarning majlislarida Tojikistondagi fuqarolar urushi, Afg‘onistondagi tolibonlar va diniy ekstremistlarning butun jahon xalqlari uchun xavfli ekanini qayta-qayta ta’kidlab aytgan edi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov 1997-yili o‘zining «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli asarida «hududiy mojarolar diniy ekstremistlar O‘zbekiston mustaqilligiga xavfli tahdiddir»

degan edi. Haqiqatan ham, «Afgʻonistonda oʻrnashib koʻp mamlakatlar tomonidan madad olib turgan diniy ekstremistlar 1999-yil 16-fevralda, 1999–2000-yillari davlat chegaralarini buzishlar, 2003–2004-yillarda Toshkent va Buxoroda amalga oshirilgan qoʻporuvchilik harakatlari I.A.Karimov fikrlarini tasdiqladi. 2001-yil 11-sentabrda Nyu-Yorkdagi qoʻporuvchilik harakatlari yirik davlatlar rahbarlarining koʻzini ochdi va Oʻzbekiston rahbarining qanchalik haq ekanligini koʻrsatdi. 2001-yili oxirida Islom Karimovga AQSHda Xalqaro yetakchi (lider) unvoni berildi.

Terrorizm butun dunyoni qamramoqda, uning uchun diniy, milliy ajratuvchilik, davlat chegaralari ham yoʻq. 1995–2003-yillarda faqat MDH davlatlari hududida 4. 500 uyushgan jinoyatchilar guruhi tor-mor qilindi, 300 ming oʻqotar qurollar, 400 tonna portlovchi moddalar yoʻq qilindi.

Xalqaro terroristlar va diniy ekstremistlar oʻzlarining yovuz niyatlarini amalga oshirish, yaʼni Oʻzbekistonda konstitutsion tuzumni agʻdarish, Fargʻona vodiysida xalifalikni oʻrnatish uchun 2005-yil 13-mayga oʻtar kechasi Andijon shahrida amalga oshirishga urindi. Bu kimsalarning buzgʻunchilik harakatlarini Andijon xalqi qoʻllamadi. Shuning uchun ham Afgʻoniston, Qirgʻiziston va boshqa davlatlardan moliyaviy, texnika-viy yordam olib, shundan beri tayyorlangan bir guruh diniy ekstremist, qoʻporuvchilar I.A.Karimovning shaxsiy rahbarligida Respublika qurolli kuchlari tomonidan bostirildi, ularning yovuz niyatlari puchga chiqdi. Dunyoning koʻplab davlat rahbarlari, tinchliksevar xalqlari I.Karimov harakatini, oʻzbek xalqining koʻrsatgan jasoratini qoʻllab-quvvatlashdi, chunki Oʻzbekistonda dunyoviy, demokratik tinchliksevar tuzumning saqlab qolinishi Markaziy Osiyoda, balki MDHning boshqa mamlakatlari ham terroristik, ekstremistik harakatlarining oldi olindi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng koʻlamli islohotlar negizida xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bagʻrikenglik davlatimiz siyosatining ustuvor yoʻnalishi hisoblanadi. 2017-yil 19-may kuni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida «Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan doʻstlik aloqalari qoʻmitasi» tashkil etildi. Bu tashkilotni tuzishdan maqsad mamlakatimizda barcha millatlar hamjihatligini taʼminlash va bagʻrikengligini amalga oshirishga qaratilgan davlat siyosatini davom ettirishdir. Prezidentimiz tashabbusi bilan

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh-ta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Strategiyada beshinchi yo‘nalish sifatida «Xavfsizlik, millatlararo totu-vlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘za-ro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar» belgilandi.

O‘zbekiston Prezidentligiga yangi rahbarning kelishi mamlakatning faol tashqi siyosat borasidagi imkoniyatlarni kengaytirdi. Xususan Marka-ziy Osiyodagi davlatlar birlashdi. Qo‘shni davlatlar bilan barcha sohalar-da hamkorliklar yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Qozog‘iston kabi davlatlar bilan uzoq yillar mobaynida yopil-gan chegaralar ochildi. Bir-biri bilan dini, urf-odatlari, madaniyati yaqin bo‘lgan xalq bu imkoniyatdan cheksiz xursand bo‘ldi, ularga chegaradan bemalol o‘tishi uchun imkoniyat yaratildi.

O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan mintaqaviy sheriklikni mustahkamlash iqtisodiyotning turli tarmoqlarida integratsiyalashuvni chuqurlashtirish va madaniy gumanitar aloqalarni izchil rivojlantirishga alohida e‘tibor bermoqda.

Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasidagi ko‘p asrlik yaxshi qo‘shnichilik bir-birini qo‘llab-qo‘vvatlash va hamkorlik salnomasida yangi sahifa ochildi. 2017-yilning martida O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘is-ton Respublikasi o‘rtasida strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirish va ahil qo‘shnichilikni mustahkamlash to‘g‘risida Qo‘shma deklaratsiya imzolandi. 2017-yilning O‘zbekiston va Qozog‘iston respublikalarining ikki tomonlama tovar ayirboshlash hajmi 2 milliard AQSH dollariga yetkazildi. O‘zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida 260 ta korxo-na barpo etilishida Qozog‘iston tomonidan sarmoya kiritildi. 2017- yil Kustanayda MDH mamlakati bozorlarida katta talabga ega bo‘lgan «Ravon» brendi ostida yengil avtomobillarni ishlab chiqarish boshlandi. Shuningdek, 2018-yil 23-fevraldagi shartnomaga asosan Qozog‘iston-ning «Almor» kompaniyasi tomonidan «GM Uzbekistan» avtomobilla-rini terish ham yo‘lga qo‘yildi.

Bu ikkala hamkor davlatlarning madaniy gumanitar yo‘nalishiga ham alohida o‘rin qaratilgan. O‘zbekistonda qozoq milliy madaniy markazi, qozoq teatri, folklor va estrada ansambllari faoliyat yuritmoqda. Yozuv-

chilar uyushmasi tarkibida qozoq adabiyoti Kengashi tashkil etilgan. «Nurli yo‘l» nomli gazeta chop etilmoqda. O‘zbekistonning 386 ta maktabida boshqa tillar bilan qozoq tili o‘tiladi. 164 ta maktab qozoq tiliga ixtisoslashgan maktabdir. Nukus davlat universitetida boshqa respublikamizdagi OTMda «Qozoq tili va adabiyoti» kafedrası faoliyat olib bormoqda.

Markaziy Osiyodagi yana bir davlat Qirg‘iziston Respublikasi hisoblanadi. 2017-yil O‘zbekiston va Qirg‘iziston munosabatlari rivojida tarixiy davr bo‘ldi. Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sherikchilik munosabatlari mustahkamlandi. Qirg‘iziston Prezidenti Sooranbay Jeenbekov 2017-yil 13-dekabrda tashrifi doirasida ikki mamlakat hukumatlari vakillari moliyaviy hamkorlik to‘g‘risidagi bitim hamda 2018–2021-yillarga mo‘ljallangan savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va gumanitar hamkorlik to‘g‘risidagi dasturni imzoladilar. Shuningdek, jahon bozoriga chiqish imkoniyatini beradigan transport va tranzit yo‘laklarini rivojlantirish sohasida o‘zaro hamkorlik qilishga ham kelishib olindi. 2017-yil 30-oktabr – 3-noyabr kunlari Toshkent-Andijon-O‘sh-Irkishtom, Qashg‘ar yo‘nalishi bo‘yicha birinchi xalqaro avtokarvon yo‘lga tushdi. O‘zbekiston bilan Qirg‘iziston o‘rtasida suv-energetika sohasida ham hamkorlikni rivojlantirishga e‘tibor berildi. Qo‘shma suv xo‘jaligi komissiyasini tuzishga kirishildi. Ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishdagi ulkan xizmatlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qirg‘izistonning «Damaker» ordeni bilan mukofotlandi. Gumanitar hamkorlik doirasida qilinayotgan ishlar muhokama qilindi. Qirg‘iziston teatr namoyandalari Farg‘ona vodiysida o‘zbekistonlik san‘at ustalari O‘sh, O‘zgan Aravon, Novqat, Qorasuv, Jalolobod shaharlarida ijodiy safarlarda bo‘ldilar. Qirg‘izistonda O‘zbekiston madaniyat kunlari bo‘lib o‘tdi. 2018-yilda xalqlarimiz atoqli qirg‘iz adibi Chingiz Aytmatovning yubileyini keng nishonladi. Keyingi paytda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi tovar ayirboshlash jadal rivojlandi. 2017-yilning yanvar–noyabr oylarida o‘zaro savdo ko‘rsatkichlari 56% dan ziyodga o‘sib 235 mln. dollarga yetdi.

So‘nggi paytlarda ikki mamlakat muzey muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik sezilarli darajada faollashdi. Jumladan, 2021-yil 2-mart

kuni qadimiy Xiva shahridagi «Ichanqal'a» ochiq osmon ostidagi muzey-qo'riqxonasida O'sh shahridagi «Sulaymon-too» muzey majmuasining ko'rgazmasi ochildi va Hamkorlik memorandumini imzolandi. Pandemiya sharoitida ham bu ikki mamlakat o'rtasida yuqori darajadagi hamkorlik davom etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan birodar O'zbekiston tomonidan Qirg'izistonning COVID-19ga qarshi kurashdagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash uchun Bishkek shahri va Botken viloyatining Qadamjoy tumanida modulli shifoxonalar qurildi.

O'zbekiston bilan Tojikiston sherikchilik munosabatlarini izchil rivojlantirish va mustahkamlash borasida yangi qadamni qo'ydilar. O'zbekiston Respublikasi bilan Tojikiston Respublikasi o'rtasida 2000-yilda imzolangan. Abadiy do'stlik to'g'risidagi shartnomada ikki tomonlama munosabatlar tamal toshi qo'yilgan edi.

Yurtimizda tojik millatiga mansub 1,5 mln. fuqaro istiqomat qiladi. Mamlakatimizning 10 hududida tojik-milliy madaniy markazlari faoliyat olib bormoqda. 245 umumta'lim maktabida ta'lim tojik tilida olib boriladi. Tojik tilida chop etiladigan 4 ta davriy bosma nashr mavjud, o'nlab teleko'rsatuv va radioeshittirishlar efirga uzatilmoqda. O'zbekistonning Samarqand, Termiz, Farg'ona davlat universitetlarida boshqa tillar bilan birgalikda tojik tilida ham mashg'ulotlar olib boriladi. So'nggi vaqtlarda o'zaro aloqalarning yo'lga qo'yilishi natijasida ulkan o'zgarishlar kuzatildi. Bunga misol o'tgan yil mamlakatimiz poytaxtlari o'rtasidagi ahdlashuvlar, temiryo'l qatnovi tiklandi. Samarqand-Panjikent oralig'ida A-377 xalqaro avtomobil yo'li ochildi. 2018-yil 1-mart kuni O'zbekiston-Tojikiston chegarasi orqali 9 ta o'tish punkti tantanali ravishda ochildi. Bu esa ikki yurt ahliga hech qiyinchiliklarsiz Jartepa-Sarazm, Qo'shkent-O'ratepa, Uchqo'rg'on-Havotog', Havastobod-Zafarobod, Bekobod-Hashtyak, Pop-Navbunyod, Rovot-Ravat, Gulbohor-Ayvaj avtomobil o'tkazish punktlari va Amuzang Xoshadi temiryo'l o'tkazish punkti orqali o'zaro bordi-keldi qilish imkoniyatini beradi.

2018-yil 7-mart kuni Samarqand shahri Alisher Navoiy nomidagi markaziy istirohat bog'ida o'zbek va tojik xalqlarining buyuk mutafakkirlari Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy haykali o'rnatildi. Bu do'stlik munosabatiga javoban Dushanbe shahrida ham bu ikkala muta-

fakkirga haykal o'rnatilganligi xalqlarimiz o'rtasidagi do'stona aloqalar mustahkamlanib borayotganidan dalolatdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 9–10-mart kunlari Tojikistonga davlat tashrifi tarixiy voqea bo'ldi. Bu davlat tashrifi O'zbekiston-Tojikiston nafaqat hamkorligini rivojlantirish, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Davlat rahbarlarining uchrashuvida O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikning bugungi holati, uni yanada rivojlantirish istiqbollari diqqat markazida bo'ldi. Davlat rahbarlari terrorism, ekstremizm, narkotrafik, transmilliy jinoyatlar xalqaro xavfsizlikka tahdid solayotgan boshqa xavf-xatarlarga birgalikda kurashish masalalarini ham o'zaro o'rtoqlashishdi.

Mamlakatimiz hududlaridan Surxondaryo viloyati bilan Tojikistonning Xatlon viloyati va Samarqand viloyati bilan So'g'd viloyati o'rtasida savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar hamkorlik qilishlarida keng imkoniyatlar yaratib berildi.

O'zbekistonning ichki va tashqi siyosatida kechayotgan o'zgarishlar barchada katta qiziqish uyg'otdi. O'zbekiston-Tojikiston davlatlari munosabatlarida yangi burilish, «o'zbek diplomatiyasi»ning yana bir yutug'i, muvaffaqiyati deb baholandi. Emomali Rahmonning «So'nggi 17 yilda ilk bor» deb nomlangan maqolasida O'zbekiston–Tojikiston munosabatlari tarixida katta o'zgarishlar bo'lganligini ta'kidlaydi. 2017-yilning aprel oyidan ikki mamlakat poytaxtlari o'rtasida havo qatnovi tiklandi, 2018-yilning martidan Janubiy viloyatlarni bog'laydigan temiryo'l ishga tushdi. Mart oyi oxiridan esa ikki davlat fuqarolari uchun 30 kungacha vizasiz sayohat qilish imkoni yaratildi.

Ikki davlat O'zbekiston va Tojikiston ishbilarmonlari doirasida o'zaro aloqalarni kengaytirish savdo bitimlari va shartnomalarni tuzishga asos bo'lgan hamkorlikka yangi sur'at baxsh etildi. Savdo-iqtisodiy hamkorlik natijasida 2017-yil o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 240 mln. dollarni tashkil etdi. Bu oxirgi 20 yildagi eng yuqori ko'rsatgich deb baholandi.

Bunda transport vositalari va xizmatlari to'qimachilik va plastmassa mahsulotlari maishiy texnika vositalari asosiy o'rinni egalladi. Bugungi kunda mamlakatimiz hududida Tojikiston kapitali ishtirokida 39 ta korxonalar, Tojikiston hududida esa o'zbekistonlik sarmoyadorlar ishtirokida 8 ta korxonalar faoliyat olib bormoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Tojikistonga davlat tashrifi doirasida o‘zaro hamkorlikni siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, energetika va boshqa yetakchi sohalarda rivojlantirishga doir 27 ta hujjat imzolandi.

2018-yil 17-avgust kuni Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning O‘zbekistonga ilk davlat tashrifi xalqlarimiz hayotida juda katta quvonchli voqea bo‘ldi. Tojikiston davlat rahbarining ochiq o‘zaro ishonch va do‘stona munosabati ikkala davlat O‘zbekiston-Tojikiston hamkorligini rivojlantirish Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqaror taraqqiyotni ta‘minlashda xizmat qiladigan qadam bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning Qo‘shma bayonoti, O‘zbekiston Respublikasi bilan Tojikiston Respublikasi o‘rtasidagi Strategik sheriklik to‘g‘risidagi shartnomaning imzolanishi xalqlarimiz hayotida o‘zaro ishonch va do‘stona munosabatlarimizda yangi davri boshlanganligidan dalolat beradi.

Ishbilarmon doiralar o‘rtasida muloqotni tashkil etish maqsadida ikki mamlakat savdo-sanoat palatalari o‘rtasida «Tojikiston–O‘zbekiston ish-bilarmonlari Kengashi» tuzildi. O‘zbekiston bilan Tojikiston o‘rtasida tovar ayirboshlash hajmini 500 mln. dollarga yetkazish masalasi Kengash yig‘ilishida ko‘rib o‘tildi. Dushanbe shahrida tashkil qilingan O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan ko‘rgazmasi va O‘zbekiston–Tojikiston qo‘shma biznes forumiga yuqori baho berildi. Dushanbe va Toshkentda qo‘shma biznes forumlar o‘tkazish an‘anaga aylandi. Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon tashrifi chog‘ida poytaxtimizda o‘tkazilgan qo‘shma biznes forumda qiymati 103 mln. dollarlik eksport shartnomalari imzolandi.

Mamlakatlarimiz BMT, ShHT, MDH kabi xalqaro tuzilmalar doirasida ham samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Qo‘shni Afg‘oniston davlatida tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashda tomonlar qarashlari, samarali hamkorliklari mushtarakligi sezilmoqda.

Energetika sohasida ham samarali ishlar amalga oshirilmoqda. 2018-yilning aprel oyidan Tojikistonga tabiiy gaz yetkazib berilmoqda. O‘z navbatida Tojikistondan elektr energiyasi sotib olish hajmi ko‘payib

bormoqda. Ikki davlat oʻrtasidagi hamkorlik aloqalari ijobiy tarzda rivojlantirilmoqda. Soʻnggi bir yil ichida bu ikki mamlakat viloyatlari oʻrtasida 9 marotaba biznes forum va koʻrgazmalar koʻrinishidagi delegatsiya tashriflari yoʻlga qoʻyildi.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish butun dunyoning asosiy muammolaridan biridir. Markaziy Osiyo davlatlarida ham bu yoʻnalishga jiddiy eʼtibor berishadi. Ikki davlat rahbarlarining ochiq muloqotlari natijasida Zarafshon daryosining Tojikiston hududidagi qismida Oʻzbekiston va Tojikiston kompaniyalari ishtirokida 320 megavatlik ikkita GES qurishga kelishib olindi.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish, antimonopol siyosat va isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish, geologiya sohasida qoʻshma ilmiy tadqiqotlar oʻtkazish, ilmiy-texnikaviy qishloq xoʻjaligi sohasida hamkorlik, oziq-ovqat xavfsizligi, taʼlim, yoshlar, madaniyat va sanʼat masalalariga doir qator hujjatlar imzolandi. Ikkala davlat prezidentlari uchrashuvi ochiqlik, oʻzaro ishonch va doʻstona ruhda oʻtgan, imzolangan hujjatlar koʻp asrlik doʻstlik, yaxshi qoʻshnichilik, yagona din, urf-odat va anʼanalarga ega boʻlgan Oʻzbekiston va Tojikiston xalqlari oʻrtasidagi doʻstlik rishtalarini mustahkamlab, ular manfaatlariga xizmat qilishiga aminmiz.

Tojikiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 17-avgustdagi tashrifi doirasida bu ikkala davlat Fanlar akademiyalari, oliy taʼlim muassasalari, ijodiy va jamoat tashkilotlari oʻrtasidagi ilmiy va madaniy aloqalarni yanada faollashtirish, mamlakatimiz madaniy gumanitar hamkorligi istiqbollarini kuchaytirish masalalariga ham keng eʼtibor berildi.

Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning davlat tashrifiga bagʻishlangan «Oʻzbekiston» xalqaro anjumanlar saroyida oʻtkazilgan tadbirda – oʻzbek va tojik xalqlari bir daraxtning ikki shoxi, bir daryoning ikki irmogʻiga oʻxshaydi. Bizning muqaddas dinimiz, yerimiz va suvimiz bir. Quvonch-u tashvishlarimiz, taqdirimiz mushtarak. Ajdodlarimizning ezgu-anʼanalarini davom ettirib, xalqlarimiz doʻstligini mustahkamlashimiz va asrab-avaylashimiz kerak», – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonni xalqlarimiz oʻrtasidagi doʻstlikni, oʻzaro hamkorlikni rivojlanti-

rishga qo'shgan ulkan hissasi uchun «el-yurt hurmati» ordeni bilan taqdirladi.

Turkmaniston Prezidentining O'zbekistonga tashrifi (23–24-aprel) chog'ida 2017-yilda imzolangan Ikki davlat o'rtasidagi strategik sherikchilik to'g'risidagi shartnomani amalga oshirishga qaratilgan qator muhim hujjatlar qabul qilindi hamda Yevropa, Yaqin Sharq va Osiyo davlatlariga yuk tashish hajmini ko'paytirish uchun ikki mamlakatning tranzit salohiyatidan to'liq foydalanishga kelishib olindi. Umuman olganda, bugungi kunda Markaziy Osiyoda suv resurslaridan oqilona foydalanish, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish, chegara punktlaridan o'tish va chegara oldi hududlarda savdoni rivojlantirish kabi juda murakkab masalalarga yechim topish uchun mutlaqo yangi, konstruktiv siyosiy muhit va qulay sharoitlar yaratildi, deyiladi xabarda. Ta'kidlanishicha, O'zbekistonning qo'shni mamlakatlar bilan davlat chegarasida 64 ta o'tish punkti faoliyat ko'rsatmoqda. Chegara bilan bog'liq muammolarning hal qilinishi natijasida O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalari sezilarli darajada faollashdi. Ular bilan savdo aylanmasining o'sishi 9 oy davomida o'rtacha 50 foizdan ko'proqni tashkil qildi, deya xabar beradi TIV.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi O'zbekistonning yangilangan tashqi siyosati natijasida:

– Markaziy Osiyo bilan muloqotimiz jadallashdi, munosabatlarimiz sifat nuqtayi nazaridan yangi pog'onaga ko'tarildi, yangi siyosiy muhit yaratildi;

– o'zaro ishonch va hurmat sezilarli kuchaydi;

– iqtisodiy aloqalar misli ko'rilmagan darajada o'sdi;

– mamlakatlar hamkorligi yo'lidagi to'siqlar bartaraf etildi;

– mintaqa sokinlik, barqaror rivojlanish va yaxshi qo'shnichilik hududiga aylandi.

O'zbekistonning jahondagi ko'zga ko'ringan davlatlardan Xitoy Xalq Respublikasi bilan aloqalari kengayib, bu ikki davlat o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik bir-birining ishiga aralashmaslik tamoyiliga asoslandi. Xitoy Xalq Respublikasi O'zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo'lib, 1991-yil 27-dekabrda tan oldi va 1992-yili 2-yanvarda diplomatik aloqalar o'rnatdi. 1992-yilda ikki mamlakat o'rtasida hamkorlik aloqa-

lari oʻrnatilgandan keyin iqtisodiyot, savdo, fan va texnika, madaniyat va sanʼat sohasida oʻzaro manfaatli hamkorlik jadal rivojlanishi uchun koʻpdan koʻp imkoniyatlar vujudga keldi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining XXRga qilgan bir necha bor davlat tashriflari xususan, 1992-yilning may oyida, 1994-yilning oktabridagi, 1999-yilning noyabr oyidagi maxsus tashriflari, XXR Davlat Kengashi rayisi Li Pening 1994-yil apreldagi, XXR hukumati raisining muovini Xu Szin Taoning 1995-yil oktabrdagi XXR raisi Szyan Sze Minning 1996-yilning iyunidagi Toshkentga qilgan maxsus tashriflari natijasida ikki mamlakat oʻrtasida siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy sohadagi hamkorliklar Kengashdan Xitoy investitsiyasi bilan ishlayotgan korxonalar, shu jumladan qoʻshimcha korxonalar koʻpayib bormoqda. Ikki davlat oʻrtasida tashrif, oliy taʼlim sohasidagi hamkorlik kengaymoqda. Xususan, 1977-yili Oʻzbekiston Jahon tillari universitetida xitoy tili boʻlimi ochilgan edi. 2004-yili ikki davlat Toshkentda institut ochishga kelishgan edi. Bu 2005-yili Konfutsiy nomida Xitoy Instituti ochildi. I.A.Karimovning XXRga 2005-yilning iyun oyidagi tashrifi ikki davlat oʻrtasida munosabatlarning yangi, yuqori bosqichini ochdi. I.Karimov va XXR raisi Xu Szin Tao oʻrtasida Oʻzbekiston va Xitoy Xalq Respublikasida strategik sherikchilik toʻgʻrisida bitim imzolandi. Oʻzbekistonda energetika-yoqilgʻi sanoatini rivojlantirish, xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurash toʻgʻrisida tuzilgan bitimlar alohida ahamiyat kasb etadi. I.A.Karimov aytib oʻtganidek, «Oʻzbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan koʻp tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish–davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va gʻoyat muhim vositasidir». Oʻzbekiston rahbariyatining 1995-yil AQSH vitse-prezidenti Albert Gor bilan uchrashuvi davomida Oʻzbekiston va AQSH oʻrtasida teng huquqli va oʻzaro manfaatli aloqalar rivojiga hamda MDHdagi xavfsizlikka daxldor masalalar hal etildi. Ayni paytda AQSH Oʻzbekistonning Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni taʼminlashdagi yetakchilik rolini tan olib, respublikamiz bilan terrorizm, narkobiznesga qarshi kurash, mintaqaviy xavfsizlik va I.Karimovning AQSHga tashrifi chogʻida muhokama etilgan boshqa masalalar sohasida teng huquqli hamkorlikni rivojlantirish niyatida ekanligini maʼlum qildi.

O‘zbekiston rahbarining 1996-yil iyun oyida AQSHga qilgan yetti kunlik tashrifi O‘zbekiston tashqi siyosatida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Mazkur tashrif davomida O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirish, hamkorlikning huquqiy asoslarini kengaytirish, Markaziy Osiyoda barqarorlik va xavfsizlik masalalarida fikr yuritildi.

O‘zbekistonning AQSH bilan munosabatlari yildan yilga mustahkamlanmoqda. Mustaqillik yillarida yurtimizga Vashingtondan bir qancha davlat va jamoat rahbarlari, harbiy mutaxassislar, chunonchi 16 nafar senator va 8 nafar kongressmen kelib ketdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 2002-yil 11–14-mart kunlari rasmiy tashrif bilan Amerika Qo‘shma Shtatlarida bo‘ldi. Tashrif kunlari Yurtboshimiz AQSH Prezidenti Jorj Bush va bir qancha davlat rahbarlari bilan uchrashdi.

Jorj Bush O‘zbekiston qat’iyat bilan aksilterror koalitsiyasini qo‘llab-quvvatlaganini AQSH hukumati va xalqi unutmashligini, bu minnatdorlik va ehtirom kelgusida juda ko‘p bor namoyon bo‘lishini ta’kidladi. U Islom Karimovni, bundan buyon AQSH strategik sherik sifatida doim O‘zbekiston bilan birdam bo‘lishiga ishontirdi.

Vashingtonda AQSH hukumati 2002-yilga O‘zbekistonga yordam tariqasida 160 mln. dollar ajratishini ma’lum qildi. O‘zbekiston qurolli kuchlari islohotga ko‘maklashish uchun 43 mln. dollar ajratilishi ma’lum qilindi.

O‘zbekiston va AQSHdagi Prezident saylovlaridan keyin mamlakatlari-miz munosabatlari yangi bosqichga ko‘tarildi. 2018-yilda O‘zbekiston va Amerika Qo‘shma Shtatlari strategik sheriklik yangi davrining boshlanishi nomli Qo‘shma bayonot qabul qilindi. Bu oliymaqom hujjat ikki davlat rahbari yakdil va qat’iy irodasining ifodasi bo‘ldi. Bugun xalqaro munosabatlarning mutlaqo yangi tenglik o‘zaro hurmatga asoslangan formati amalda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan 2018-yil 15–17-may kunlari rasmiy tashrif bilan AQSH davlatida bo‘lishi buning yaqqol misolidir. Hech bir mamlakat iqtisodiy hamkorliksiz rivojlana olmasligini hozirgi kun voqeligi isbotlab turibdi. O‘zbekiston rahbariyatining bu vaziyatga chuqur yondashishi orqali tashqi iqtisodiy aloqalarda respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarni jalb etishga katta ahamiyat berildi. Iqti-

sodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalb etishda O‘zbekiston quyidagi tamo-yillarga amal qiladi:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish;
- O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyadorlarni keng jalb qilishni ta‘minlaydigan huquqiy ijtimoiy, iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish, tashki-lotlar va muassasalar tuzish;
- ilg‘or texnologiyaning kirib kelishiga, xo‘jalik tarkibi zamonaviylashi-shiga ko‘maklashadigan, xorijiy sarmoyalarga nisbatan «ochiq eshiklar» siyosatini o‘tkazish;
- respublika mustaqilligini ta‘minlaydigan o‘ta muhim sohalarni ishlab chiqarish vositalari bilan ta‘minlash hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qaratish.

O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirishi va bu alo-qalarni erkinlashtirishida huquqiy jihatdan ta‘minlovchi qonunlarning ahamiyati katta bo‘ldi. «Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida», «Chet el investitsiyalari to‘g‘risida»gi va «Xorijiy investorlar va investitsiyalarga kafolat berish to‘g‘risida»gi, «Bankrotlik to‘g‘risida»gi qonunlar va bosh-qa me‘yoriy hujjatlar shular jumlasiga kiradi. Shu qatorda respublika chet el investitsiyalarini ishonchli sug‘urta bilan himoyalashni ham ta‘minladi. Bu huquqiy hujjatlar tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish, xalqaro shart-nomalar tuzish va ularni bajarish uchun shart-sharoitlar yaratdi. Amalda-gi qonunlar chet ellik investorlar uchun kafolatlar bilan bir qatorda soliq sohasida keng imtiyozlar berdi. Birinchi navbatda O‘zbekiston iqtisodiga umumiy hajmi 50 million dollardan ortiq miqdorda qilinadigan investitsi-yalar boj to‘lashdan ozod qilindi. Bu investitsiyalarning davlat investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarda ishtiroki natijasida yetti yil mobaynida foy-dadan soliq to‘lashdan va korxonalar daromadlarining ishlab chiqarishni kengaytirishga va texnologiya bilan qayta jihozlashga sarflanadigan qismi ham soliq to‘lashdan ozod qilindi. Ishlab chiqarilgan tovarlarni import va eksport qilish uchun bojxona to‘lovlari ancha kamaytirildi.

Bu o‘rinda shuni aytib o‘tmoq lozimki, chet ellik investorlarga yor-dam ko‘rsatish maqsadida O‘zbekistonda ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va muassasalar tarmog‘i tashkil etildi. Bular qatorida «O‘zbekinvest» Milliy eksport-import sug‘urta kompaniyasi, chet el investitsiyalari bo‘yicha agentlik, tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi katta ahami-yatga ega bo‘ldi.

Ana shunday yaratilgan qulay shart-sharoitlar imkoniyatlar natijasida O‘zbekiston hukumati jahondagi nufuzli davlatlar Germaniya, XXR, Turkiya, Yaponiya, Italiya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlar bilan o‘zaro manfaatli aloqalar o‘rnatdi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab O‘zbekistonga 12 milliard Amerika dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. O‘zbekistonga kiritilgan chet el kapitali yordamida respublika hududida qayd qilingan qo‘shma korxonalarining soni esa shu kunlargaacha 1810 taga yetdi.

O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarda o‘z mavqeyiga ega bo‘lib borishi quvonarli holdir. AQSH O‘zbekistondagi bepoyon yer osti va yer usti boyliklarini o‘zlashtirish uchun katta sarmoya mablag‘larni ajratishni o‘z zimmasiga oldi, natijada respublikaga Amerikaning zamonaviy texnikasi kirib keldi. O‘zbekistonda Amerikaning «Nyumont-Mayning» kompaniyasi bilan hamkorlikda oltin qazib oladigan «Zarafshon-Nyumont» qo‘shma korxonasi qurib ishga tushirildi.

Shuningdek, xorijiy sarmoyalar natijasida O‘zbekistonda «SamKuchavto», «UzDeUavto», Ko‘kdumaloq kompressor stansiyasi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi va boshqalar qurildi.

Janubiy Koreya sarmoyadorlari bilan «O‘zDeUavto», «O‘zDeU elektroniks» hissadorlik birlashmalari keng faoliyat natijasi o‘laroq O‘zbekiston jahondagi avtomobil ishlab chiqaruvchi 28 mamlakat qatoridan o‘rin egalladi va yuqori baholarga sazovor bo‘ldi. Bu mamlakat bilan hamkorlikda telefon tarmoqlari yangilandi.

O‘zbekistonda yana bir davlat rahbari Misr Arab Respublikasi Prezidenti Abdilfattoh Said Husain Halil as-Sisi 2018-yil 4–5-sentabr kunlari rasmiy tashrif bilan bo‘ldi. Davlatlarimiz o‘rtasida yoshlar sport investitsiyasi qishloq xo‘jaligi sohalarida hamkorlik to‘g‘risida Anglashuv memorandumlari ta‘lim, turizm, arxeologiya, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishga doir bitimlar, 2019–2020-yillarga mo‘ljallangan hamkorlik dasturi va Adliya vazirliklari o‘rtasida hamkorlik memorandumini singari 12 ta hujjat imzolandi.

Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdo‘g‘onning O‘zbekistonga amalga oshirgan davlat tashrifi doirasida (2018-yil 29-aprel – 1-may) oliy darajadagi O‘zbek–Turk strategik hamkorlik kengashi tashkil etildi. Tomonlar

yaqin yillarda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmini 5 milliard dollarga yetkazish bo‘yicha aniq tadbirlar yuzasidan kelishib olishdi. Prezidentimizning AQSHga rasmiy tashrifi (2018-yil 15–16-may) O‘zbekiston-Amerika strategik hamkorligini rivojlantirishga kuchli turtki berdi. Tarixiy tashrif davomida savdo, fan, qishloq xo‘jaligi, energetika va boshqa sohalarda o‘zaro manfaatli aloqalarni har tomonlama mustahkamlashga qaratilgan qator hujjatlar imzolandi. Ikki mamlakat kompaniyalari qiymati 4,8 milliard dollarlik 20 dan ortiq yirik shartnomalarni imzolashdi. Prezidentimizning Hindistonga davlat tashrifi davomida (2018-yil 30-sentabr – 1-oktabr) 20 dan ziyod hukumatlararo hujjatlar va qiymati 3 milliard 200 million dollarlik shartnomalar imzolandi. Prezidentimizning Fransiyaga rasmiy tashrifi (2018-yil 8–9-oktabr) O‘zbekiston rahbari Shavkat Mirziyoyevning Yevropa Ittifoqi davlatlariga qilgan birinchi safari bo‘ldi. Tashrif yakunida 10 ta hukumatlararo shartnoma va umumiy qiymati 5 milliard yevroga teng bo‘lgan investitsiyaviy loyihalar bo‘yicha bitimlar imzolandi. Umuman olganda, 2018-yil mobaynida 30 dan ortiq davlatlararo va xalqaro tuzilmalar rahbarlari bilan oliy darajadagi muzokaralar olib borildi, 180 ta ikki tomonlama shartnoma hamda kelishuvlar tuzildi, shuningdek, hukumat, vazirlik, idoralar va xalqaro tashkilotlar rahbarlari darajasida 360 ta tashrif amalga oshirildi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, xalqlarimizni madaniy va ma‘naviy yaqinlik, o‘zaro manfaatlarni hurmat qilish, tinch-totuv yashashga intilish, ko‘p asrlik do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilikka asoslangan bebaho tajriba bog‘lab turadi. Bu ikkala davlat rahbarlari tomonidan qilinayotgan harakatlar xalqlarimiz va butun mintaqaning manfaatlariga xizmat qilishi shak-shubhasizdir.

11. 4. O‘zbekiston Respublikasining faol tashqi siyosatining yangi bosqichi

Bugungi kunda O‘zbekistonning xalqaro maydonda tutgan keng o‘rni Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi mamlakat tashqi siyosatining o‘ziga xos xususiyati bo‘lib qolmoqda.

Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan tantanali maro-

simda soʻzlagan nutqida mamlakatning tashqi siyosati qay tarzda olib borilishi xususida toʻxtalib, «Biz tashqi siyosat sohasidagi faoliyatimizni avvalo xalqimiz, Vatanimiz manfaatlarini har tomonlama hisobga olgan holda amalga oshiramiz.

Bu siyosatning asosini tinchlikparvarlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, yuzaga keladigan ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqat tinch, siyosiy yoʻl bilan hal etish tashkil etadi.

Biz bundan buyon ham uzoq-yaqindagi barcha xorijiy mamlakatlar, jahon hamjamiyati bilan samarali hamkorligimizni davom ettiramiz. Bu borada ochiq, doʻstona va pragmatik siyosat olib borish tamoyiliga sodiq qolamiz.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar bilan faol munosabatlar va hamkorlik olib borish Oʻzbekistonning milliy manfaatlariga xizmat qiladi.

Biz Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Xalqaro valuta jamgʻarmasi, boshqa xalqaro moliya va iqtisodiy tashkilotlar bilan amaliy hamkorlikni yanada rivojlantiramiz», deb taʼkidlagan.

Oʻzbekiston xalqaro maydonda oʻzining pragmatik siyosatini davom ettirgan holda, oʻz tashabbuslarini bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda. Bu borada xalqaro tashkilotlar bilan samarali hamkorlik yoʻlga qoʻyilib, Oʻzbekiston xalqaro darajada tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etmoqda. Jumladan, «Yoshlar-2020: global hamjihatlik, barqaror taraqqiyot va inson huquqlari» mavzusidagi inson huquqlari boʻyicha Samarqand onlayn forumi oʻtkazildi. Unda taniqli xorijiy olimlar, jamoat arboblari, BMT, YUNESKO, Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro migratsiya tashkiloti, Parlamentlararo ittifoq, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, ShHT, MDH, IHT vakillari va boshqalar ishtirok etdi.

Tashabbuskorligi va pragmatizmi bilan ajralib turadigan Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) faoliyatida ham Oʻzbekiston faol ishtirok etmoqda. Toshkentning tashkilotdagi yangi faol kursi sharofati bilan 2017-yildan buyon Oʻzbekistonning ShHTdagi xavfsizlik, iqtisodiyot, transport, ilm-fan, turizm va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlikni yanada mustahkamlashga yoʻnaltirilgan 10 dan ortiq tashabbusi amalga oshirildi.

O‘zbekiston ShHTda yangi platformalarni yaratish bo‘yicha tashabbuskorga aylandi. ShHTning O‘zbekistondagi Xalq diplomatiyasi markazi, Temiryo‘l ma‘muriyatlari rahbarlarining uchrashuvi, Samarqand shahridagi «Ipak yo‘li» xalqaro turizm universiteti tashkil etildi.

YUNESKO bilan hamkorlik faollashdi, Toshkent «Ta‘limni rag‘batlantiradigan shaharlar» xalqaro tizimiga kiritildi.

O‘zbekiston Xalqaro Islom akademiyasida YUNESKOning «Dinlar tarixini o‘rganish» kafedrasini faoliyati tiklandi.

O‘zbekiston 2019-yil 15-oktabrda Bakuda o‘tgan sammitda O‘zbekiston Turkiy tilli davlatlar hamkorligi kengashining teng huquqli a‘zosiga aylandi.

O‘zbekiston o‘tgan qisqa davrda Turkiy kengashdagi ishtiroki doirasida qator muhim tashabbuslarni amalga oshirishga erishdi. Xiva shahri «Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti» deb e‘lon qilindi, TDHKning COVID-19 pandemiyasiga qarshi kurash bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi guruhi va Transport sohasida hamkorlik bo‘yicha ishchi guruhi tashkil qilindi.

Mamlakatimizning Turkiy kengashda ishtiroki nafaqat Markaziy Osiyo, balki Kavkaz va Yevropa davlatlari bilan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarning rivojlanishi va kengayishiga xizmat qiladi. Bu bilan mazkur mintaqalar transport-logistika yo‘nalishlarini o‘zaro bog‘lash uchun yangi istiqbollarni yaratilmoqda, hududlararo savdoni rivojlantirish bilan birga mamlakatlarga yangi bozorlarga chiqish, transport yo‘laklarini diversifikatsiya qilish imkonini yaratilmoqda.

Turkiy madaniyat xalqaro tashkiloti (TYURKSOY) Xiva shahrini Turkiy dunyoning madaniy poytaxti, Islom hamkorlik tashkiloti esa Buxoro shahrini islom olamining madaniy poytaxti deb e‘lon qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Turkiy Kengashning norasmiy sammitida 2021-yil 31-mart kuni ishtirok etar ekan, davlatimiz rahbari diniy-axloqiy qarashlari bilan mintaqamizda ulkan e‘tibor qozongan hazrat Yassaviyga sohibqiron Amir Temur ixlos qo‘ygani hamda uning xotirasiga atab Turkiston shahrida muhtasham maqbara bunyod etganini qayd etdi. Bugungi kunda Ahmad Yassaviy maqbarasi barcha qardosh xalqlarimiz uchun tabarruk qadamjo hisoblanadi. Prezident ushbu sammitda bir necha takliflarni ilgari surdi:

– Koronavirus pandemiya ta'siri davom etayotgan global inqirozning salbiy oqibatlarini yumshatish va bartaraf etish yo'lida kengashning yaqin va o'rta istiqbolga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik strategiyasini ishlab chiqish;

– Turkiy tilli mamlakatlar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish va yirik sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirish;

– Turkiy kengash doirasida Investitsiya jamg'armasi va Taraqqiyot bankini tashkil etish;

– Markaziy Osiyo hududida transport yo'laklarini rivojlantirish va logistika infratuzilmasini kengaytirish;

– Turkiy kengashga a'zo mamlakatlardagi muqaddas qadamjolar bo'yab «Tabarruk ziyorat» loyahasini amalga oshirish;

– buyuk o'zbek shoiri, mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiyning turkiy dunyo ma'naviy-ma'rifiy hayotiga qo'shgan beqiyos hissasini inobatga olib, fan, ta'lim, adabiyot, san'at, ijtimoiy sohalaridagi yutuqlar hamda turkiy dunyo birligini mustahkamlash yo'lidagi sa'y-harakatlarini rag'batlantirish maqsadida Turkiy kengash doirasida Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotni ta'sis qilish kabi ushbu takliflar sammit ishtirokchilari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

O'zining qadimgi madaniyati va islom sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasini inobatga olib, O'zbekiston Islom hamkorlik tashkiloti doirasida ham faol hamkorlik qilmoqda. 2017-yil 10-sentabr kuni Ostona (Nur-Sulton) shahrida o'tkazilgan IHTning fan va texnologiyalar bo'yicha birinchi sammitida a'zo davlatlar Prezidentimizning ilm-fan, ma'naviyat va ma'rifatni yanada rivojlantirish bo'yicha amaliy tashabbuslarini olqishladi.

Respublika rahbari tashabbusi bilan Toshkent shahrida dunyoda yagona Islom sivilizatsiyasi markazi barpo etildi.

So'nggi uch yilda O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligidagi integratsiya jarayonlaridagi ishtirokini faollashtirdi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston MDHning 84 organidan maqsad-vazifalari milliy manfaatlarga javob beradigan 40 dan ortig'ida ishtirok etmoqda. So'nggi uch yil davomida O'zbekiston MDH Iqtisodiy kengashi, Hamdo'stlik Parlamentlararo Assambleyasi va MDHning 18 ta sohaviy organiga qo'shildi.

2020-yilda O‘zbekiston MDH tashkil topganidan buyon birinchi marotaba Hamdo‘stlik raisligini qabul qilgani va uni muvaffaqiyatli amalga oshirayotgani ko‘p narsadan dalolat beradi.

Zamonaviy O‘zbekiston tashqi siyosati xalqaro aloqalarning to‘laqonli subyekt sifatidagi roli va o‘rnini kuchaytirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, respublika atrofida xavfsizlik, barqarorlik va do‘stona qo‘shnichilik doirasini shakllantirishga qaratilgan. Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqida ta’kidlaganidek, o‘z tashqi siyosatida O‘zbekiston Markaziy Osiyoga asosiy e’tiborini qaratadi.

Ta’kidlash lozimki, so‘nggi to‘rt yilda mintaqaning barcha mamlakatlari bilan oliy darajadagi tashriflar almashinuvi amalga oshirildi. Mintaqa davlatlari yetakchilari o‘rtasidagi siyosiy muloqot o‘zaro ishonchga asoslangan muntazamlik va doimiylik kasb etdi. Bunday muloqotlar davomida Markaziy Osiyo davlatlarini qiziqtiradigan xavfsizlik, iqtisodiyot, investitsiya, turizm, madaniyat, sog‘liqni saqlash va ekologiya sohalarida mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik muhim qo‘shma qarorlar qabul qilinmoqda.

Natijada tarixan qisqa vaqtda O‘zbekistonning mintaqadagi barcha davlatlar bilan munosabatlari tubdan yaxshilandi. Davlat rahbarlari o‘rtasida ochiq va ishonchli siyosiy muloqotning mustahkamlanishi natijasida mintaqadagi qo‘shnilar bilan munosabatlarda 2016-yilgacha mavjud bo‘lgan ko‘plab murakkab muammolarga yechim topildi. Prezidentlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch mustahkamlandi.

2018-yil 22-iyun kuni Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining «Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta’minlash bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash» rezolutsiyasi qabul qilindi.

2018-yil 15-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Ostonada Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining birinchi konsultativ uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Ushbu tashabbus an’anaga aylangan holda 2019-yil 29-noyabrda Toshkent shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Sammitda prezidentlar umumiy muammolarni hal etish va mintaqada hamkorlikka oid dolzarb masalalarni muhokama qilish uchun mintaqaga

viy muloqot maydoni sifatida keyinchalik ham maslahat uchrashuvlarini uyushtirishga kelishib olishdi.

Maslahat uchrashuvi arafasida Toshkentda muhim ko'p tomonlama tadbirlar bo'lib o'tdi: mintaqadagi beshta mamlakat bosh vazirlari va 200 dan ortiq davlat organlari hamda ishbilarmonlari ishtirokida Markaziy Osiyo iqtisodiy forumi, «Markaziy Osiyoda o'zaro mushtaraklik: yangi tahdid va imkoniyatlar» mavzusida xalqaro anjuman, unda 30 mamlakatdan siyosatshunoslar va rasmiy vakillar ishtirok etdi.

2019-yilda o'zbek diplomatiyasi BMT Bosh Assambleyasi tomonidan mintaqa uchun muhim bo'lgan ikkita yangi rezolutsiya qabul qilinishini ta'minladi: «Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish» hamda «Orolbo'yi hududini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi deb e'lon qilish».

Shuningdek, qo'shni mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy, sanoat ishlab chiqarishi sohasidagi aloqalarimiz izchil rivojlanib bormoqda. 2019-yil yakuniga ko'ra, ular bilan savdo aylanmasi hajmi 5,2 milliard dollarga ko'tarildi.

Pandemiya sharoitiga qaramay, 2020-yilning birinchi yarmida O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo aylanmasining umumiy hajmi 2,17 milliard dollarni tashkil etdi.

Qozog'iston bilan davlat chegarasi chiziqlarini delimitatsiya qilish ishlari yakunlangan bo'lsa, Qirg'iziston bilan chegaraning 95 foiz, Tojikiston bilan 99,9 foiz uchastkasi kelishilgan.

Butun dunyo 2020-yil koronavirus pandemiyasidan aziyat chekdi. Koronavirus pandemiyasi davrida ham hamkorlikni rivojlantirish davlat e'tiborida bo'ldi. Koronavirusga qarshi kurash, uning oldini olish hamda mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida 57 ta loyiha asosida O'zbekistonga boshqa mamlakatlardan (AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, XXR, Singapur, Ukraina) asbob-uskunalar keltirildi.

Shu bilan birga, 9 ta mamlakatga O'zbekistonning gumanitar yuklari yetkazildi (Ozarbayjon, Belarus, RF, XXR, Eron, Vengriya, Qirg'iziston, Tojikiston, Afg'oniston).

Xorijiy investitsiyalarning oqimi va o'zlashtirilishi 13 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. Bunda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar

va kreditlarning umumiy investitsiyadagi ulushi 37 % ga yetkazildi (2018-yilda bu ko'rsatkich 10,5 % ni tashkil etgan).

O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiya kiritadigan davlatlar soni 50 tadan ortdi. Hududiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar oqimining o'sish sur'ati 4,8 mlrd. AQSH dollarini (shundan asosiy kapitalda 4,2 mlrd. AQSH dollari) tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 4 baravar, 2017-yilga nisbatan 24 baravar ko'paydi. Faqat xorijiy kapital ishtirokida hududlarda umumiy qiymati 858,5 mln. AQSH dollariga teng 167 ta loyiha foydalanishga topshirildi.

Respublikaning tashqi savdo aylanmasi 42,2 mlrd. AQSH dollariga yetib, 2018-yilga nisbatan 8,7 mlrd. AQSH dollariga yoki 26,2% ga oshishi ta'minlandi. Ushbu natija mamlakat tarixida eng yuqori ko'rsatkich sifatida qayd etildi.

Bugungi kunda ham ushbu jarayon to'xtab qolgani yo'q. O'zbekiston Afg'onistondagi tinchlik jarayonini qo'llab-quvvatlash va ilgari surishda faol ishtirok etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan dunyo miqyosidagi ushbu o'tkir muammoni xalqaro hamjamiyat kun tartibiga qayta kiritishga erishildi.

2018-yil 26–27-mart kunlari Toshkentda Afg'oniston bo'yicha yuqori darajali xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Anjumanda Afg'oniston Prezidenti Ashraf G'ani, Yevropa Ittifoqining tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo'yicha oliy vakili Federika Mogerini, BMT Xavfsizlik kengashiga a'zo davlatlar vakillari ishtirok etdi. Afg'oniston muammosini hal qilishga bag'ishlangan bunday keng qamrovli forum birinchi marta ana shunday yuqori darajada o'tkazildi.

Toshkent konferensiyasi va, umuman, O'zbekistonning Afg'onistonga nisbatan siyosati afg'on mojarosini hal qilish bo'yicha xalqaro sa'y-harakatlarning faollashishiga, tinchlik jarayonini ilgari surishga qaratilgan mintaqaviy savdo-iqtisodiy va infratuzilmaviy loyihalarga ushbu mamlakatni jalb qilishga olib keldi.

Bugungi kunda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash borasida ham samarali ishlar qilinmoqda:

– «Xalqaro baxshichilik san’at festivali» (5–10-aprel, Termiz shahri), «Sharq taronalari» (20–26-avgust, Samarqand shahri) va «Birinchi xalqaro amaliy san’at» (10–15-sentabr, Qo‘qon shahri) festivallari o‘tkazildi;

– Milliy madaniyat markazlari va do‘stlik jamiyatlarining rolini, shuningdek, ularning jamoatchilik hayotidagi ishtirokini yanada oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi;

– Toshkent shahrida xorijiy mamlakatlar ekspertlari va olimlari ishtirokida «Markaziy Osiyo – umumiy uyimiz» mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi.

Anjumanda Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy hamkorligini mustahkamlash, madaniy-gumanitar sohada almashinuvni kengaytirish, ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlashda xalq diplomatiyasi rolini kuchaytirish, xalq diplomatiyasini amalga oshirishda milliy madaniy markazlar va do‘stlik jamiyatlarining ahamiyati hamda ular oldida turgan vazifalar va boshqa dolzarb masalalar muhokama qilindi.

– Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasida jami 2276 ta diniy tashkilot va 16 ta diniy konfessiya faoliyat yuritib kelmoqda. Shulardan, 2093 tasi musulmon tashkiloti, 166 tasi xristian tashkiloti, 8 tasi yahudiy jamoasi, 6 tasi Baxoiylik jamiyati, 1 ta krishnachilar jamiyati, 1 ta budda ibodatxonasi va O‘zbekiston konfessiyalararo Bibliya jamiyatidir.

– 2019-yildan e‘tiboran O‘zbekiston fuqarolari uchun «Umra» ziyoratlari kvotasi bekor qilindi. Bugungi kunga kelib «Umra» qiluvchi fuqarolar soni 30 000 ga yetdi, «Haj» esa 5000 dan 7,200 ga ko‘paydi.

– 2019-yilning noyabr oyida O‘zbekistonda «Bag‘rikenglik haftaligi» doirasida «Xalqaro bag‘rikenglik kuni»ga bag‘ishlangan tadbirlar majmuasi bo‘lib o‘tdi.

– So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ekstremizmga qarshi kurashish chora-tadbirlarini amalga oshirishdagi yondashuvlar konseptual jihatdan qayta ko‘rib chiqildi. Bunda asosiy e‘tibor aholi o‘rtasida profilaktika va tushuntirish ishlariga qaratildi. Ushbu sohada amalga oshirilayotgan barcha sa‘y-harakatlar “Jaholatga qarshi ma‘rifat” degan ezgu g‘oyaga asoslangan.

Mamlakatda «Jaholatga qarshi ma‘rifat» degan g‘oya asosida Islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do‘stlik maqsadlariga xizmat qilishini hamda yurtimiz allomalari hayoti, ilmiy merosini dunyo hamjamiyatiga yetkazish maqsadida 2020-yilning 3–5-mart kunlari Sa-

marqand shahrida Imom Abu Mansur Moturidiy shaxsi va aqidaviy qarashlari, moturidiylikning mafkuraviy asosi, ushbu ta'limotning bugungi kundagi ahamiyati muhokamasiga bag'ishlangan "Imom Moturidiy va moturidiya ta'limoti: o'tmish va bugun" mavzusida xalqaro konferensiya tashkil etildi.

Ushbu tadbirda 15 ta davlatdan 55 nafar taniqli ulamolar, muftiyalar, moturidiyshunos ekspertlar, 100 nafar mahalliy olim va tadqiqotchilar qatnashdi. Konferensiya yalpi majlisida 11 ta, sho'ba yig'ilishlarida 32 ta ma'ruza tinglandi.

Shu bilan birga, Imom Buxoriyning Samarqanddagi yodgorlik majmuasini yangi loyiha asosida qayta barpo etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining farmoyishi qabul qilindi.

Xalqaro diniy erkinlik bo'yicha AQSH komissiyasi (USCIRF) O'zbekistonni «Alohida xavotirga molik davlatlar» ro'yxatidan chiqardi. Komissiya hisobotida O'zbekiston tomonidan so'nggi yillarda diniy sohada amalga oshirilgan o'zgarishlar e'tirof etilib, ayniqsa «Jasliq» qamoqxonasining yopilgani alohida qayd etildi.

Mamlakatda inson huquqlarini ta'minlash sohasida esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi»ni tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni qabul qilindi.

Hujjat bilan, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi», BMTning inson huquqlari bo'yicha ustav organlari va shartnomaviy qo'mitalari xabarnomalari va qarorlarini ko'rib chiqish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi davlat organlarining o'zaro hamkorlik qilish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi.

2019-yilda mamlakat Prezidenti topshirig'iga ko'ra 2 ta – «Mehr» va «Mehr-2» insonparvarlik aksiyalari o'tkazilib, ular doirasida 261 nafar O'zbekiston fuqarosi – asosan xotin-qizlar va bolalar Yaqin Sharq va Afg'onistondagi qurolli mojarolar kechayotgan hududlardan o'z vataniga qaytarildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligida O'zbekistonning yangilangan tashqi siyosati natijasida:

– Markaziy Osiyo bilan muloqotimiz jadallashdi, munosabatlarimiz sifat nuqtayi nazaridan yangi pog‘onaga ko‘tarildi, yangi siyosiy muhit yaratildi;

– o‘zaro ishonch va hurmat sezilarli kuchaydi;

– iqtisodiy aloqalar misli ko‘rilmagan darajada o‘sdi;

– mamlakatlar hamkorligi yo‘lidagi to‘siqlar bartaraf etildi;

– mintaqa sokinlik, barqaror rivojlanish va yaxshi qo‘shnichilik hududiga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Parlamenti va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi. Unda Markaziy Osiyodagi qardosh xalqlar bilan o‘zaro aloqalarni yanada kuchaytirish birinchi galdagi bosh vazifa qilib belgilandi. Bu shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston bundan buyon ham mintaqadagi qardosh xalqlar bilan o‘zaro hamkorliklarni o‘zining tashqi siyosatining bosh yo‘li sifatida belgilaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi dunyoning 130 dan ortiq davlatlari bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan. Toshkentda 45 ta chet el elchixonalari, 8 ta faxriy konsullar, 19 ta xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari, 18 ta xorijiy xalqaro hukumatlararo va hukumat tashkilotlari vakolatxonalari, 1 ta diplomatik maqomga ega savdo vakolatxonasi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda va xalqaro tashkilotlarda O‘zbekiston Respublikasining 47 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalari mavjud. O‘zbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarning a‘zosi bo‘lib, mamlakatimiz turli xil ko‘p tomonlama hamkorlik tuzilmalari bilan o‘zaro sherikchilik aloqalarini rivojlantiradi.

Nazorat savollari:

1. O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi deganda nimani tushunasiz?

2. MDH qachon tuzildi?

3. Mustaqillik yillarida qaysi davlatlar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yildi?

4. Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarining yangi davrga o‘tishi deganda nimani tushunasiz?

5. O'zbekiston Prezidenti 2021-yil 31-martdagi Turkiy kengashning norasmiy sammitida qanday takliflar kiritdi?
6. Qaysi davlatlar bilan strategik sheriklik yangi bosqichga ko'tarildi?
7. Pandemiya sharoitida qardosh davlatlar o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalar rivojlandimi?
8. O'zbekistonning Afg'oniston bo'yicha tinchlik muzokaralariga munosabati qanday?

12. YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTON: MILLIY TIKLANISHDAN MILLIY YUKSALISH SARI

12. 1. 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining ishlab chiqilishi, uning ilmiy-nazariy asoslari va xususiyatlari

Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti va rivojlanish bosqichlariga e‘tibor bersak, har bir davrning o‘z taraqqiyot omillari, ehtiyojlari, talablari va hayotiy tamoyillari bo‘ladi. Tabiiyki, bularning barchasini shakllantirish va rivojlantirishga, ularga alohida ma‘no-mazmun bag‘ishlashga, bu davrda davlat, jamiyat hayoti, ijtimoiy-siyosiy institutlar faoliyatining aniq yo‘nalishlarini belgilab beradigan ulkan tarixiy voqealarning guvohi bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil amalga oshirilayotgan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning **beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi** mamlakatimiz hayotida taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayonning amaliy natijalari, belgi va xususiyatlari bugungi kunda hayotimizning barcha jabhalarida, eng muhimi, xalqimizning ong-u tafakkuri, intilish va harakatlarida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

Harakatlar strategiyasi odamlarni ochiqlik, oshkoralik, shaffoflik muhitida yashash va ishlashga da‘vat etmoqda. Har bir soha faoliyati ulkan ta‘sir kuchiga ega bo‘lgan, fuqarolik jamiyatining ajralmas qismi bo‘lgan jamoatchilik nazorati ostida rivojlanishi zarurligini kun tartibiga qo‘ymoqda. Bunday muhitda insonning davlat, jamiyat va o‘z oldida mas‘uliyatni to‘la his etib yashashi, so‘zi bilan ishi bir bo‘lishiga rioya etish fazilatlarini asosiy mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Harakatlar strategiyasi O‘zbekistonda huquqiy demokratik asosdagi xalq davlatini barpo etish yo‘lini har tomonlama asoslab beradigan hujjat hisoblanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlat rahbari sifatidagi dastlabki nutq va ma’ruzalaridayoq «**Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak**», «**Xalq boy bo’lsa, davlat ham boy va qudratli bo’ladi**» degan g’oyalarni o’rtaga tashladi. Bu g’oyalar mamlakatimiz Konstitutsiyasida belgilab qo’yilgan «**Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbayidir**» degan qoidaga har tomonlama mos bo’lib, uning mantiqiy rivoji, amaliy natijasini ifoda etadi. Ya’ni, xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbayi bo’lsa, bu hokimiyatni amalga oshiradigan davlat idoralari avvalo kinga xizmat qilishi kerak? Albatta, birinchi navbatda xalqqa xizmat qilishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, davlatimiz rahbarining yuqorida zikr etilgan g’oyalari ham mantiqiy jihatdan to’liq Konstitutsiyaviy mazmun va mohiyatga ega bo’lib, ular O’zbekistonda barpo etilayotgan davlat va jamiyat mazmunini yanada aniqlashtiradi. Ya’ni, biz barpo etayotgan huquqiy demokratik davlatning birinchi o’rinda turadigan qadriyati adolat, huquq va qonunlarni belgilaydi. Xalqning erkin, tinch, ozod va farovon yashashi, shu g’oyalarni himoya qilib, mustahkamlab, o’zaro tenglik asosida oldinga intilishi demokratiyadir.

Bir so’z bilan aytganda, bugungi kunda mamlakatimizda mazmunan yangi davlat, yangi jamiyat tarkib topayotgan ekan, unga mos yangi qadriyat va munosabatlar tizimi shakllanishi ham tabiiydir. Hozirgi vaqtda qabul qilinayotgan qonunlar, farmon va qarorlar ana shu ulkan o’zgarishlarga yangi turtki va yo’nalish bermoqda.

Bugungi kunda Prezidentimiz tomonidan «Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz» degan ezgu va hayotbaxsh shior asosida olib borilayotgan keng ko’lamli islohotlar tufayli har bir kunimiz inson manfaatlarini ta’minlash, fuqarolar haq-huquqlarini kafolatli himoya etish, odamlarni rozi, baxtli, saodatli qilishga qaratilgan yangi, qudratli o’zgarishlar ruhida kechmoqda. O’zbekiston jamiyati sifat jihatidan mutlaqo yangi davrga qadam qo’yimoqda.

Harakatlar strategiyasining ilmiy-nazariy asoslari va xususiyatlari

1. Harakatlar strategiyasi xalqchillik, insonparvarlik, bag’rikenglik va ezgulik g’oyalari tayanadi. Ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlarni baholash va ularga yondashishda milliy va umuminsoniy qadriyat-

lar uyg'unligining ustuvor ahamiyatga ega ekani haqidagi nazariyaga asoslanadi.

Ma'lumki, dunyoda azaldan ikki omil kurashi, ya'ni **kuchni hurmat qilish madaniyati** hamda **mehrni, yaxshilikni hurmat qilish madaniyati** o'rtasida tortishuv davom etib keladi.

2. Kuchni hurmat qiladigan madaniyat nazariyotchilari **«maqsadga erishish uchun har qanday vositadan foydalanish mumkin, chunki natija vositani oqlaydi»** degan tamoyil asosida ish tutsa, mehrni hurmat qilish madaniyati tarafdorlari esa **natijaga faqat to'g'rilik, haq-haqiqat va haqqoniylik orqali** erishishni talab etadi. O'zbekiston tazyiq o'tkazuvchi kuchni, zo'ravonlikni emas, o'zaro hurmat, mehr va do'stlikni hurmat qiladigan, qadrlaydigan mamlakatdir. Harakatlar strategiyasining asosiy nazariy asosi do'stlik, tinchlik va hamkorlikni, qo'shni davlatlar bilan raqobatga kirishish emas, balki yaqin do'st va hamkor bo'lib, umumiy muammolarni birgalikda samarali hal etishni tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishi etib belgilanganida namoyon bo'ladi.

3. Tarixni yaratuvchi kuch alohida aholi qatlami, ma'lum bir partiya yoki atoqli arboblardan, alohida shaxslar emas, balki xalq ekani Harakatlar strategiyasi uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Tarix xalq va uning faol, fidoyi vakillarining mehnati, sa'y-harakatlari, ularning shu yo'lga baxshida umri natijasida yaratiladi. Shu boisdan ham Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, jadid bobolarimiz, F.Xo'jayev, A.Ikromov, Sh.Rashidov, I.Karimov singari yurtimiz mustaqilligi va ravnaqi uchun kurashgan tarixiy shaxslar hamda mustaqillikni qo'lga kiritish va uni mustahkamlash yo'lida o'zini ayamadan mehnat qilgan minglab zahmatkash insonlar, ishlab chiqarish sohasi xodimlari, olimlar, yozuvchilar, rahbarlarning mehnatiga munosib hurmat va e'zoz ko'rsatilmoqda.

4. Harakatlar strategiyasi hayotga qat'iy ishonch va pozitiv qarash nazariyasini ham taqozo etadi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Richard Vaysman va boshqalar o'z asarlarida kelajakka yaxshilik nazari bilan qarash, hayotga shukronalik bilan yondashuv barqaror ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qilishini, odamlarning baxtli hayotini yuzaga keltirishi, ta'minlashi va kafolatlashini nazariy asoslab berishgan va ana shunday dorilamon zamon kelishini orzu qilishgan.

5. Harakatlar strategiyasi mantiqan puxta asoslangan hujjat sifatida

hayotga pragmatik yondashuv nazariyasiga tayanadi. Pragmatik yondashuv ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni aniq ijtimoiy manfaat va foydani koʻzlab, oqilona va natijadorlik tamoyillari negizida boshqarishning amaliyotga joriy etilishida namoyon boʻladi.

6. Maʼrifatning yaratuvchanlik kuchini har bir soha, kasb hamda shaxslar faoliyatida roʻyobga chiqarish amaliyoti va nazariyasi Harakatlar strategiyasining ustuvor yoʻnalishlarida asoslandi va hayotning deyarli barcha jabhalariga keng joriy etilmoqda va bu nazariya oʻzining real samarasini bermoqda.

7. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga previntiv yondashuv nazariyasi bugungi kunda boshqaruv jarayonida real amal qila boshladi. Bunday yondashuv yuz berishi mumkin boʻlgan xavf-xatarlarning oldini olishning maqbul yoʻli sifatida tinchlikni saqlash, aholi salomatligini muhofaza qilish, farzandlar tarbiyasida, ularning qalbi va ongini turli zararli taʼsirlardan asrashda hushyor va oqoh boʻlish sohalarida profilaktik yondashuv sifatida namoyon boʻlmoqda.

8. Barcha ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni adolat va faqat xalq manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirish nazariyasi Harakatlar strategiyasida ilk bor davlatning ustuvor va davomli, ochiq siyosati sifatida amal qila boshladi. Adolat tamoyili davlat va jamiyatning barcha sohalarida ustuvor ijtimoiy-maʼnaviy asos va harakatlantiruvchi kuch sifatida tobora koʻproq koʻzga tashlanmoqda.

9. Davlat manfaatlariga nisbatan xalq va inson manfaatlarining ustuvor ekani bilan bogʻliq nazariyaning «Xalq bilan muloqot va inson manfaatleri yili» davlat dasturining mohiyatini ifoda etadigan «Inson manfaatleri har har narsadan ulugʻ» degan gʻoya asosida amalda namoyon boʻlayotgani ahamiyatlidir.

10. Davlat va jamiyat boshqaruvida kompromiss emas, yaʼni yon bosish, balki konsensus, yaʼni kelishish nazariyasiga tayanilmoqda. Ijtimoiy munosabatlarda konsensus, yaʼni hamjihatlik, yakdillik nazariyasi odamlarning koʻtarinki ruhiyatini taʼminlaydigan ijtimoiy-maʼnaviy muhitni barcha oila, mahalla, korxon va tashkilotlarda shakllantirish talabi sifatida maydonga chiqmoqda va bu talab keng koʻlamli ijtimoiy harakatga aylanmoqda.

11. Harakatlar strategiyasini amalga oshirish faqat navqiron av-

lod kuchiga emas, balki o'rtta hamda katta avlod kuchi va salohiyatiga bab-barobar tayanish, avlodlararo yakdillikni ta'minlashni taqozo etadi. Aholi turli qatlamlari, xususan, katta avlod vakillari va yoshlar o'rtasida ma'naviyat, odob-axloq, ijtimoiy ideallar talqini, Vatanimiz taqdiri va istiqboli masalalarida o'zaro tushunish, avlodlararo vorisiylik munosabatlarining amal qilishi nazariyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

12. Ijtimoiy jarayonlarni o'zaro hamkorlik asosida maqsadli optimallashtirish, ya'ni sinergetik yondashuv nazariyasi keng qo'llanmoqda. Sinergetikani hamma sohaga nisbatan keng qo'llash amaliyoti yo'lga qo'yilmoqda. Masalan, jamiyatda sinergetika o'zini o'zi eng maqbul tashkil etish imkoniyati sifatida turli muassasa va sohalararo hamkorlik tarzida ham amal qilmoqda.

13. Harakatlar strategiyasining eng muhim jihatlaridan biri shuki, undagi besh asosiy ustuvor yo'nalishning hech biriga alohida nazar, ayri-cha ehtirom bilan qaralmaydi. Avval iqtisodiy jihatdan rivojlanib olaylik, huquqiy masalalarni keyin ko'ramiz qabilidagi nomutanosiblikka aslo o'rin yo'q bu hujjatda. Har beshta yo'nalish o'zaro uyg'un va hamohang tarzda, bir-birini qo'llab-quvvatlagan holda rivojlanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston o'zining boy tarixiga tayanib, porloq istiqbolini qurayotgan davlat, hamjihat xalq, eng tez rivojlanayotgan mamlakat sifatida dunyoga tanildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida boshlangan, hayotga tatbiq etilayotgan izchil islohotlar, amaliy sa'y-harakatlar yangi taraqqiyot marralarini egallash, zamon shiddatiga mos tarzda rivojlanish, xalqimiz manfaatlarini ta'minlashga qaratilgani bilan g'oyat ahamiyatlidir.

Toshkent shahrida 2016-yil 14-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishi tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisi bo'lib o'tdi. Tantanali marosimda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi. Davlatimiz rahbari yaqin va o'rtta istiqbolda mamlakatimiz oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifalarga atroficha to'xtalib o'tdi. Ma'lumki, bu vazifalarga Prezidentimizning saylovoldi dasturida alohida e'tibor qaratilgan edi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilar vakillari bilan o'tkazilgan uchrashuvlar jarayonida ular yanada boyitildi.

«Bizning vazifamiz – to‘plangan tajriba va ilg‘or xalqaro amaliyotga suyanganda, – dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish marosimiga bag‘ishlangan nutqida, – o‘zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat‘iy amalga oshirishdan iborat. Shu borada yaqin va o‘rta muddatga belgilangan marralarga erishish uchun qat‘iyat bilan harakat qilishimiz zarur.

Shu maqsadda 2017–2021-yillarda O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasini ishlab chiqish yaqin kunlarda yakunlanadi».

Haqiqatan ham, Prezidentimizning bevosita rahbarligi ostida «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili» Davlat dasturini ham o‘z ichiga oladigan mazkur keng ko‘lamli dasturiy hujjat har tomonlama puxta ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi 2017-yil 7-fevralda imzolangan Farmoniga muvofiq uni hayotga joriy etish bo‘yicha qonuniy tamoyil va mexanizmlar tasdiqlandi. Mazkur Farmonga berilgan sharhda Harakatlar strategiyasining ahamiyati alohida ta’kidlanib, bu boradagi loyihalarni tayyorlash davomida aholining keng qatlamlari orasida qizg‘in muhokamalar olib borilgani, ular turli axborot maydonlariga joylashtirilgani, buning natijasida ko‘plab taklif va mulohazalar kelib tushgani, xususan, «Qonun hujjatlari ta’sirini baholash tizimi» portalida yo‘lga qo‘yilgan muhokamalar tufayli kelib tushgan 1310 ta taklif-mulohaza asosida «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili» Davlat dasturining 41 ta bandi qayta ko‘rib chiqilgani qayd etiladi.

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi mamlakatimizda ham, chet el ijtimoiy-siyosiy doiralari tomonidan ham katta qiziqish va e’tibor bilan o‘rganildi. Bu borada atoqli olimlar, nufuzli ekspert va kuzatuvchilar, turli darajadagi ko‘zga ko‘ringan rahbarlar o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi. Harakatlar strategiyasining har bir ustuvor yo‘nalishi mamlakatimiz taraqqiyoti uchun g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

Birinchi yo‘nalishda davlat va jamiyat tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari alohida belgilab berildi. Unda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis va siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, shu orqali qonun ustuvorligiga erishish asnosida jamiyatda boshqaruvning erkin va xalq hokimiyatchiligi tamoyillarini chuqurlashtirishga erishiladi. Davlat boshqaruvi tizimini liberallashtirish, turli byurokratik to‘siqlarni kamaytirish, davlat boshqaruvida keng jamoatchilikning faol ishtirokini ta‘minlash choralarini ko‘rish bo‘yicha aniq g‘oyalar ilgari suriladi. Ochiq jamiyat qurish, davlat va fuqaro munosabatlarini mustahkamlash va natijada O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida muhrlab qo‘yilganidek, **davlatning yagona va birdan bir manbayi xalq ekani, davlat xalq manfaatlarini himoya qilishi, ayni paytda xalq o‘z maqsad va intilishlarini, orzu-umidlarini davlat timsolida ko‘rishi** kabi prinsip va qoidalarni to‘liq amalga oshirish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan.

Ikkinchi yo‘nalish qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan iborat. Bunda sud hokimiyatining chinakam samaradorligini ta‘minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish ustuvor vazifa qilib qo‘yildi.

Mazkur yo‘nalishda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta‘minlash, qonun ustuvorligiga erishish orqali inson manfaatlarini himoya qilish, qabul qilingan barcha qonunlarning to‘la va samarali ishlashi bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishga jiddiy e‘tibor beriladi. Oliy sud faoliyatini isloh qilish, uning zamonaviy, hozirgi kun talablari asosida ishlaydigan tizimini vujudga keltirish borasida yangi g‘oyalar ilgari surildi. Jumladan, ma‘muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiligini takomillashtirish orqali adolatli, xalqchil, fuqarolar manfaatlarini to‘la himoya qila oladigan, ularning muammolarini o‘z vaqtida hal qilib beradigan sud tizimini vujudga keltirish talab etiladi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish, eng muhimi, turli huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sodir etilmasligi choralarini ko‘rish, profilaktika tizimini yanada chuqurlashtirish va samaradorligini oshirish mexa-

nizmlarini takomillashtirish, sud-huquq tizimida qonuniyligni yanada mustahkamlash, qonunga rioya qilish va qonun ustuvorligiga erishish orqali sud va sudlovning yuksak madaniyatga erishish yo‘l-yo‘riqlari aniq-ravshan aks ettiriladi.

Yuridik yordam va xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish orqali sud-huquq organlarini «jazolovchi organdan fuqarolar manfaatini himoya qiladigan, ularning kundalik yumushlariga yordam beradigan, har qanday muammolarini qonun doirasida o‘ylash hal qilib beradigan xizmatlar organiga aylantirish» (Islom Karimov) mexanizmi xususan, yuqori saviyada ishlashini ta‘minlash bo‘yicha amaliy yechim va takliflar ilgari suriladi.

Uchinchi yo‘nalish iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini o‘zida ifoda etadi. Bunda makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘rnatilgan sur‘atlarini saqlab qolish, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, mamlakat eksport salohiyatini kuchaytirish bosh vazifa qilib qo‘yilgan.

Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, tuproq unumdorligini va ekinlar hosildorligini oshirish, yangi va xaridorgir mahsulotlar yetishtirish orqali jahon bozoriga chiqishning yangi yo‘nalishlarini joriy etish nazarda tutilgan.

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish, mulkka egalik qilish va uning hajmini oshirish orqali yuqori samaradorlikka erishish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, uni rag‘batlantirish mo‘ljallangan. Viloyat, tuman va shaharlarni ularning tabiiy-geografik imkoniyatlari, yer sharoiti va dehqonchilik madaniyatini nazarda tutgan holda, hududiy ehtiyoj va manfaatlar nuqtayi nazaridan iqtisodiy rivojlantirish choralarini ko‘rish belgilangan.

To‘rtinchi yo‘nalishda ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari o‘z ifodasini topgan. Bunda aholi bandligi va uning real daromadlarini izchil oshirish, jumladan, mehnatga layoqatli aholi qatlami uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, mehnat faoliyatining yangi shakl va turlarini joriy etish nazarda tutilgan edi. Aholining ijtimoiy himoya

qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali jamiyatda sog'lom turmush tarzini yanada chuqurlashtirish masalalariga alohida ahamiyat berilgan. Shuningdek, aholini arzon uy-joylar bilan ta'minlash, hayot sharoitlarini yaxshilash, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni modernizatsiya qilish orqali uzoq istiqbolga mo'ljallangan va munosib turmush darajasini ta'minlaydigan yuksak madaniyatli yashash sharoitiga erishish chora-tadbirlarini ko'rish eng muhim vazifa qilib belgilanganligi e'tiborga sazovordir.

Ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirishga, har tomonlama barkamol, yetuk inson – yuqori malakali mutaxassisni tarbiyalashga alohida e'tibor beriladi. Bu esa yoshlarga oid davlat siyosatini butun choralardan bilan takomillashtirishni taqozo etadi.

Beshinchi yo'nalish xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor vazifalar bilan bog'liq bo'lib, bunda dunyo qalqib turgan, turli mintaqalarda urush davom etayotgan, qon to'kilayotgan bir sharoitda milliy xavfsizlikni ta'minlashga jiddiy e'tibor berish eng muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. O'ndan ortiq diniy konfessiyalar, 130 dan ziyod millat va elat vakillari yashayotgan O'zbekistonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, o'zaro ishonch, bir-birini tushunish, turli e'tiqod va madaniyatlarni hurmat qilish singari bag'rikenglik fazilatlarini yanada chuqurlashtirishning ahamiyati beqiyos ekanligi ta'kidlanadi. O'zbekiston deb atalgan umumiy xonadonimiz, ko'p millionli oilamiz istiqboli uchun diniy e'tiqodi, milliy mansubligi, kasb-u kori va yoshidan qat'i nazar, har bir fuqaro mas'ul ekanini anglash, farzandlarimizni shu ruhda tarbiyalash asosiy vazifa etib belgilangan.

O'zbekistonning tashqi siyosatida, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilanganidek, davlatlarning suverenitetini, hududiy yaxlitligini hurmat qilish, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligini saqlash, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoida va normalariga asoslanib, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat olib borish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish muhim vazifa qilib qo'yilgan.

Aytish mumkinki, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi o‘tgan 25 yil davomida mamlakatimiz erishgan ulkan yutuqlar, tarixiy tajribalarni umumlashtirib, hozirgi kunda davrning o‘zi oldimizga qo‘yayotgan dolzarb masalalarni hisobga olib, keyingi besh yilga va undan keyingi davrga mo‘ljallangan tarixiy taraqqiyotning yangi ufqlarini ochib berishga qaratilgan bo‘lib, u o‘zining mohiyat e‘tibori bilan O‘zbekistonni yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarishni ta‘minlaydigan strategik dasturdir.

Albatta, xalqimiz o‘rtasida «Harakatlar strategiyasi» degan nom bilan tobora mashhur bo‘lib, uning hayotiga chuqur kirib borayotgan mazkur dasturning har bir yo‘nalishi va bandi, uning ajralmas qismi bo‘lgan «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili» Davlat dasturining samarali amalga oshirilishi har birimizning mazkur jarayonda ongli va vatanparvar fuqaro, shu yurtning fidoyi farzandi sifatida faol ishtirok etishimizga bevosita bog‘liqdir. Buning uchun esa eng avvalo, Harakatlar strategiyasining ma‘no-mazmunini, uning har bir yo‘nalish bo‘yicha qo‘yilayotgan amaliy va dolzarb vazifalarini chuqur tushunib olishimiz kerak.

Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarning amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi bilan 2017-yil 14-fevralda mamlakatimizda keng ko‘lamda amalga oshirilayotgan Harakatlar strategiyasi samaradorligini ta‘minlash maqsadida «Taraqqiyot strategiyasi» markazi** tashkil etildi. Ushbu markaz nohukumat va notijorat tashkiloti hisoblanadi.

«Taraqqiyot strategiyasi» markazining eng muhim vazifalaridan biri Harakatlar strategiyasida belgilangan eng muhim chora-tadbirlarning bajarilishini tizimli monitoring qilib borish hamda har bir yo‘nalish bo‘yicha guruhlariga asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat qilib belgilandi

2017-yilning mart-iyun oylarida Markaz qoshida tashkil etilgan maxsus media maydonda o‘ttizdan ortiq brifing, press-konferensiya va tok-shoular tashkil etildi.

Davlat dasturi ijrosi doirasida ishlab chiqiladigan barcha qonunlar va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalari Markaz qoshida dastlabki

ekspertlik muhokamasidan o'tkazilishi amaliyoti joriy etilmoqda. Jumladan, Markazda O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi va ekspertlar ishtirokida «Jamoatchilik nazorati to'g'risida» va «Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari to'g'risida»gi qonun loyihalarining keng muhokamasi o'tkazildi. Tashqi ishlar vazirligi va Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) tomonidan taqdim etilgan qonunlar loyihalari bo'yicha muhokamalarda Markaz vakillari ishtirok etishdi.

Shu bilan birga, Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid Davlat dasturida ko'zda tutilgan tadbirlarning amalga oshirilishida Markazning imkoniyatlaridan to'liq, samarali va tizimli foydalanish mexanizmlarini joriy qilish, jumladan, yuqori malakali mutaxassislar bilan taxdiliy va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish maqsadida Markaz huzurida Doimiy faoliyat yurituvchi ishchi maydon tashkil etildi va O'zbekiston Milliy kutubxonasi axborot-kutubxona fondiga va yetakchi xorijiy litsenziyaga ega axborot-kutubxona resurslari fondlariga elektron ulangan tizimdan foydalanish yo'lga qo'yildi.

12. 2. Harakatlar strategiyasining hayotga joriy etilishi

Bugun O'zbekistonda izchil amalga oshirilayotgan shiddatli islohotlar natijasida mamlakatni jahon tanimoqda va tan olmoqda. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyevning shaxsiy tashabbusi va hayotbaxsh g'oyalari asosida ishlab chiqilgan «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi» davlat va jamiyatni rivojlantirishning mutlaqo yangi bosqichini boshlab berganini alohida e'tirof etish lozim.

O'zbekistonning bosh strategik rivojlantirish hujjati hamda shu asosda qabul qilinayotgan Davlat dasturlarini amalga oshirishning uchinchi yili ham nihoyalandi. Prezidentimiz parlamentga yo'llagan Murojaatnomasida alohida qayd etganidek, shu uch yilda dastlabki, lekin o'ta muhim va salmoqli natjalarni qo'lga kiritdik. Xususan, o'tgan 2019-yil ham munosib yutuqlar va yuksak marralar yili bo'ldi.

Quvonarlisi, O'zbekistonning nomi xalqaro maydonda tez-tez yuqori darajada e'tirof etilmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyaning «The Economist»

haftalik jurnali o'tgan yili yurtimizni «Yil davlati» sifatida e'tirof etdi. Amerikaning «Harper's Bazaar» nashri esa, 2020-yilda albatta sayohat qilish lozim bo'lgan 20 ta eng yaxshi yo'nalish ro'yxatida O'zbekistonni birinchi o'ringa loyiq, CNN Travel sayti 2020- yilda sayohat uchun eng yaxshi joy, deb topdi.

Darhaqiqat, mamlakatimiz bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan jadal taraqqiy etayotgan, iqtisodiyotda barqaror o'sish sur'atlariga erishayotgan, eng asosiysi, aholining ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti tubdan yaxshilanayotgan, hayot darajasi izchil yuksalayotgan mamlakat sifatida e'tirof etilmoqda.

Shu ma'noda, o'tgan 2019-yil yakunlariga nazar tashlasak, Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturining birinchi yo'nalishi – Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish yuzasidan qator amaliy chora-tadbirlar hayotga joriy etildi.

Xususan, «Hukumatni shakllantirish tartibi demokratlashtirilishi va uning mas'uliyati kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonun qabul qilinib, unda Konstitutsiya va boshqa qonunlarga Bosh vazir o'rinbosarlari, vazirlar va davlat qo'mitalari raislari nomzodini Bosh vazir taqdimiga binoan Qonunchilik palatasi tomonidan ma'qullash va Prezident tomonidan tasdiqlash tartibi belgilab qo'yildi. Shuningdek, hukumat a'zoriga nomzodning endilikda sohani rivojlantirish bo'yicha yaqin muddatga va istiqbolga mo'ljallangan harakat dasturi bilan deputatlar oldida chiqish qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi. O'z navbatida, hukumat a'zosi bundan buyon o'z harakat dasturi ijrosi bo'yicha Oliy Majlis palatalari, ularning qo'mitalarida muntazam ravishda axborot berib boradi. Hududlar kesimida esa, viloyat, tuman va shahar davlat organlari rahbarlarini tegishli xalq deputatlari kengashlari tomonidan tasdiqlanadi.

Ma'lumki, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi keskin va murosasiz kurash olib borilmoqda. Eng avvalo, qisqa vaqt ichida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga oid beshta normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Oliy Majlis Senatida Sud-huquq

masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish, Qonunchilik palatasida esa Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitalari tashkil etildi.

Davlat rahbarining «O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»-gi Farmoni qabul qilinib, unga muvofiq, 2019–2020-yillarda Korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasining yangi tarkibi tasdiqlandi. Mazkur Farmon korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan izchil sa‘y-harakatlarning mantiqiy davomi bo‘lib, bundan ko‘zlangan asosiy maqsad korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini yanada oshirish, eng yuqori darajadagi qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy imijini oshirish va mustahkamlashga qaratilgan. Ana shu maqsadlar yo‘lida 2019-yil 1-avgustdan eksperiment tariqasida kapital qurilish va oliy ta‘lim sohalarida «Korrupsiyasiz soha» loyihasi amalga oshirilmoqda.

Eng muhim o‘zgarishlardan yana biri, bu shubhasiz, O‘zbekiston Respublikasi saylov kodeksining qabul qilinganidir. Mazkur kodeksda fuqarolarning saylov huquqlari bilan bog‘liq bir-birini takrorlovchi normalar aks etgan beshta Qonun birlashtirilib, bugungi kunga qadar tarqoq holda amal qilgan saylov to‘g‘risidagi qonunlar va qonunosti hujjatlari xalqaro norma va standartlar hamda ilg‘or xorijiy tajribadan kelib chiqib kodifikatsiya qilindi hamda saylov jarayoniga nisbatan yagona shaffof va samarali yondashuvlar nazarda tutildi. Natijada «Yangi O‘zbekiston – yangi saylovlar» shiori ostida yaqinda bo‘lib o‘tgan saylovlar barcha demokratik tamoyillarga tayangan holda, xalqaro standartlar talablariga mos darajada, ochiq va oshkor tashkil etilganini xalqaro missiyalar vakillari, xalqaro ekspertlardan iborat kuzatuvchilar, xorijning yetakchi ommaviy axborot vositalari vakillari ham e‘tirof etishdi.

Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, bu borada sudlarning ish yuklamasini kamaytirish hamda nizolarni sudgacha hal qilish maqsadida mediatorlarni tayyorlash tizimi yaratilgani, Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazida mediatorlarni

tayyorlash dasturi bo'yicha maxsus o'quv kurslari faoliyati yo'lga qo'yilganini alohida ta'kidlash joiz. Shu bilan birga, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatiga ruxsat etilib, ularga sud ekspertizalarining 44 ta turlarini o'tkazish huquqi berildi. Sudyalar oliy kengashi huzurida Sudyalar oliy maktabi tashkil etilgani esa, sud tizimida malakali kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha yuqori samaradorlik ta'minlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Aholini bepul huquqiy yordam bilan ta'minlash maqsadida «Advice.uz» bepul interaktiv axborot portali ochilib, unda fuqarolar hayoti davomida to'qnash keladigan mingdan ortiq holatlarning yuridik yechimlari aniq va sodda tilda savol-javob shaklida bayon etib borilmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iro't tumani, Jasliq qo'rg'onida joylashgan 19-son ixtisoslashtirilgan jazoni ijro etish koloniyasi yopilganini esa, butun jahon hamjamiyati olqishlaganiga barchamiz guvoh bo'ldik. Hukm qilingan shaxslarga pensiya to'lash tartibining joriy etilgani ham mamlakatimizda inson huquqlari va manfaatlarini olib borilayotgan islohotlarning ustuvor maqsadi ekanidan dalolatdir. 2020-yil dekabrda Prezidentimizning Parlament va O'zbekiston xalqiga taqdim etgan Murojaatnomasida bu boradagi islohotlarni yana davom ettirgan holda 2021-yilda yana 25 ta jazoni ijro etish koloniyasi yopilishini, birinchi bor jinoyat sodir etganlar yoki tasodif tufayli jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jazoni yengillashtirish yoki ularni probatsiya tizimiga o'tkazish, hamda mahalla nazoratida uyda jazoni o'tash tartibini joriy etish to'g'risidagi masalani o'rta tashladi.

Yurtimizda har bir hududda sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha kunlik tezkor ma'lumotlarni hokimliklarga taqdim etib borish amaliyoti yo'lga qo'yilgani, 1,5 mingdan ortiq profilaktika inspektori, xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha 301 nafar profilaktika katta inspektori, murojaatlar bilan ishlash bo'yicha 214 nafar ofitser, vaziyati og'ir hududlarda 89 nafar psixolog lavozimlari joriy etilgani, o'z navbatida, jinoyatchilikning keskin kamayishiga sabab bo'ldi. Misol uchun, o'tgan 2018-yilda respublikada 49011 ta jinoyat sodir etilgan bo'lsa, 2019-yilning mos davrida bu ko'rsatkich 46089 tani tashkil etdi yoki 2922 taga, salmoqli ravishda kamaydi.

Shuningdek, 2019-yilda davlat notarial idoralari bosqichma-bosqich xususiy notarial idoralarga aylantirila boshlanishi, qurilishi tugallanma-

gan uy-joylarni sotishda hokimliklardan ruxsat olish talablarining bekor qilinishi, bitimlarni videokonferensaloqa rejimida amalga oshirishga ruxsat etilish, mol-mulk lizingi va ipoteka shartnomalarini majburiy notarial tasdiqlash tartibi bekor qilinishi kabi yangiliklar yurt taraqqiyoti, xalq farovonligi yo'lidagi izchil islohotlar samarasidir.

Umuman, davlat dasturining qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha 2019-yilda 24 ta Qonun, 13 ta Prezident Farmon va qarorlari, 51 ta Hu-kumat qarorining qabul qilingani va hayotga tatbiq etilgani bu sohada naqadar keng va salmoqli sa'y-harakatlar amalga oshirilganini tasdiqlab turibdi.

Davlat dasturi doirasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilgan ishlar natijasida poraxo'rlik holatlari bo'yicha 2018-yilda 1202 ta jinoyat ro'yxatga olingan bo'lsa, 2019-yilning mos davrida bu ko'rsat-kich 1071 tani tashkil etib, 10,9 foizga qisqarishiga erishildi.

Jamiyatda kriminogen vaziyatni yaxshilash hamda huquqbuzarliklar-ni o'ldini olish maqsadida har payshanba kuni «Huquqbuzarliklar pro-filaktikasi kuni» deb belgilandi.

Jinoyat qonunchiligini yanada liberallashtirish va jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy ta'qib qilish muddatlari maqbullashtirildi.

Shuningdek, agar ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab o'n yil, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab yigirma besh yil o'tgan bo'lsa, shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin emasligi belgilab qo'yildi.

Surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlari himoyasini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha kafolatlar yaratish yuzasidan «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslari-ga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonun qabul qilindi. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan faktlar bo'yicha tadbirkorlik subyektiga nisbatan jinoyat ishini qo'zg'atishga faqat Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurorining, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlari-ni roziligi bilan yoxud O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinbosari roziligi bilan yo'l qo'yilishi belgilandi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va faol investitsiya jalb etishning ustuvor yo'nalishlari haqida to'xtaladigan bo'lsak, o'tgan qisqa davr mobaynida sohada xalqaro standartlarga mos tizimli yangilanishlarning amalga oshirilishi sohani yanada erkinlashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning yangi imkoniyatlarini ochib berdi. Ayniqsa, milliy valuta – so'mning erkin konvertatsiyasi joriy etilgani, soliq va budjet siyosatining yangi asosda shakllantirilgani, tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoyalash keskin kuchaytirilgani muhim o'zgarishlardan bo'ldi.

Ushbu o'zgarishlarning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish borasida ham salmoqli ishlar qilinmoqda. Jumladan, iqtisodiyotning mazkur yo'nalishlarini tartibga solish va takomillashtirish bo'yicha Prezidentning qator Farmon va qarorlari qabul qilindi. Shuningdek, «Hisob palatasi to'g'risida»gi yangi qonun kuchga kirdi, Soliq va Bojxona kodekslariga, Soliq va Bojxona xizmatlari to'g'risidagi qonunlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib, takomillashtirildi. «Valutani tartibga solish to'g'risida»gi, «Bank va bank faoliyati to'g'risida»gi, «Markaziy bank to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi.

Bularning bari milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga, tarmoqlarda jahon standartlariga mos, tashqi bozorlarda xaridorgir mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishda muhim omil bo'lmoqda. Shu va boshqa omillar evaziga 2019-yil yalpi ichki mahsulotning (YaIM) o'sish sur'ati 5,4 foiz belgilangan prognoz ko'rsatkichi o'rniga 5,5 foizni tashkil etdi hamda 2018-yilda erishilgan 5,1 foiz ko'rsatkichidan yuqori bo'lishi ta'minlandi. «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili» deb e'lon qilingan 2019-yilda barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalarni o'zlashtirish hajmi 220,7 trln. so'mga yetkazilib, tasdiqlangan yil prognoziga nisbatan 2 barobarga o'sishga erishildi. Shu o'rinda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 189,9 trln. so'mni, 2018-yil ko'rsatkichlariga nisbatan o'sish sur'ati esa 1,3 barobarni tashkil etganini ta'kidlash lozim.

Investitsiya faoliyatining sezilarli o'sishi 13,3 mlrd. dollarni tashkil etgan xorijiy investitsiyalarning oqimi va o'zlashtirilishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, unda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar – 9,3 mlrd. dollar, shundan asosiy kapitalga – 6,6 mlrd. dollar, davlat kafo-

lati ostidagi xorijiy investitsiyalar va kreditlar – 4,0 mlrd. dollar, shundan asosiy kapitalga – 3,2 mlrd. dollar o‘zlashtirildi. Bunda o‘zlashtirilgan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarning umumiy investitsiyadagi ulushi 37 foizga yetkazildi.

Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning yana bir o‘ta muhim jihati, ularning hududlarni kompleks va jadal rivojlantirishga qaratilganidir. Bu borada mahalliy budjetlarning yuqori budjetlarga bo‘lgan bog‘liqligini keskin kamaytirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet mablag‘larini boshqarishdagi mustaqilligi va mas‘uliyatini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar barcha bo‘g‘indagi budjetlarning barqarorligini ta‘minlovchi tizimni yaratibgina qolmay, Davlat budjetining mutanosibligini hamda samarali ijrosini ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

Mazkur chora-tadbirlarning hayotga joriy etilishi nihoyatda qisqa muddatda hududlarning resurs salohiyatidan unumli, samarali foydalanishga, mavjud imkoniyat va rezervlarni ishga solishga, mahalliy budjetlar daromadlarining ortishiga katta imkoniyat yaratib berdi.

To‘rtinchi ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga kelsak, bugun yakka-yolg‘iz nuroniylarga, kam ta‘minlangan, ko‘p bolali oilalarga hamda nogironlarga ko‘rsatilayotgan mehr-oqibat, diqqat-e‘tibor – ularning huquq va manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yish, uy-joy bilan ta‘minlash, davlat organlari va boshqa tashkilotlarning e‘tiborini kuchaytirish, moddiy ta‘minotini keskin yaxshilash borasida olib borilayotgan xayrli ishlar ham bugungi yangi bosqichdagi islohotlar mevasidir.

Zero, «2017–2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo‘yicha arzon uy-joylar qurish», «Obod qishloq» va «Obod mahalla», «Har bir oila – tadbirkor», «Yoshlar – kelajagimiz», «Besh ijobiy tashabbus» kabi Davlat dasturlari va rejaları doirasida olib borilayotgan ishlar bugun xalqning hayot darajasi hamda farovonligini oshirish yo‘lidagi g‘amxo‘rlikning yorqin namunasidir.

Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosatni amalga oshirish sohasidagi beshinchi ustuvor yo‘nalishlar borasida O‘zbekistonning tashqi siyosat sohasida olib borayotgan faol va samarali,

ochiq va kreativ faoliyati dunyoning barcha davlatlari, xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarning yanada kengayishi va rivojlanishida muhim omil bo'lmog'da. Bu o'rinda, birinchi navbatda, yon qo'shni – jon qo'shnilar bo'lgan Markaziy Osiyoning boshqa qardosh davlatlari bilan munosabatlar iliqlashgani, oradagi muzlar erigani, o'zaro manfaatli aloqalar izchil yo'lga qo'yilgani, minglab oddiy odamlarning chegaralardan bemalol o'tayotgani, mintaqa bo'ylab erkin harakatlanish, qarindosh-urug'lar bilan bordi-keldi qilish uchun barcha sharoitlarning yaratilgani muhim tarixiy qadam bo'ldi.

Davlat rahbarining qo'shni Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish nafaqat mintaqaviy, balki global xavfsizlikni ta'minlashning muhim sharti ekani to'g'risidagi fikrlari BMT hamda boshqa ko'plab xalqaro tashkilotlar, jahondagi yetakchi davlatlar e'tiborini ushbu murakkab muammoning yechimiga qaratdi. O'zbekiston Afg'onistonning iqtisodiy tiklanishiga, uning transport va energetika infratuzilmasini rivojlantirishga, milliy kadrlarini tayyorlashga o'zining salmoqli hissasini qo'shib kelmoqda.

Shu bilan birga, jahonning eng rivojlangan davlatlari bilan savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ta'lim, madaniyat va sport, sog'liqni saqlash, gumanitar sohalarida, shuningdek, terrorism, diniy ekstremizmga qarshi kurash, xavfsizlikni ta'minlash yuzasidan o'rnatilgan o'zaro teng manfaatli hamkorlik aloqalarining tobora kengayib va mustahkamlanib borayotgani diqqatga sazovor. Bularning barchasi mamlakatning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

O'zbekiston inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha mustaqil siyosatini qat'iy davom ettirmoqda va bu siyosat xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda. Mamlakatda mahbuslarni afv etish instituti joriy etilib, keyingi uch yilda yetti marta afv e'lon qilindi. Natijada qilmishidan chin dildan pushaymon bo'lib, tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan 4 ming nafarga yaqin mahbus jazoni o'tash joylaridan ozod etildi. Mustaqillik bayrami arafasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jasliq qo'rg'onidagi jazoni ijro etish koloniyasining yopilgani, 156 nafar fuqaro (asosan ayollar va bolalar) jangovar harakatlar davom etayotgan Suriyadan qaytarib olib kelinib, ularning fuqarolik huquqlari tiklangani

xalqaro jamoatchilik tomonidan olqishlanib, bu mamlakatda amalga oshirilayotgan insonparvar siyosatning yana bir hayotiy ifodasi ekani ta'kidlandi. Umuman, bugungi O'zbekiston o'z fuqarolarining haq-huquqlari, manfaatlari va erkinliklarini ular qayerda bo'lishidan qat'i nazar, himoya qilishga qodir davlat sifatida o'zini namoyon etmoqda.

Eng muhimi, bugun O'zbekistonda jamiyatdagi mavjud muammolarga ko'z yumish, uni xaspo'shlash emas, balki aholini qiynayotgan har qanday masalaga ijobiy yechim topishga bo'lgan intilish kuchaydi, qonunlar ijrosi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratining ta'siri ortib bormoqda. Ayniqsa, mansabdor shaxslarning va davlat organlarining mas'uliyati anchayin oshgani, «Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak», degan ezgu tamoyil hayotda o'z amaliy ifodasini topayotgani muvaffaqiyatlar omili bo'lmoqda.

Bularning barchasi, o'z navbatida, erkin va adolatli jamiyat shakllanishiga, unda sog'lom muhit qaror topishiga, odamlarning rozi bo'lishiga va amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissi kuchayishiga hamda yurt taraqqiyoti yo'lida astoydil, faol ishtirok etishiga zamin yaratmoqda. Bu hayotbaxsh islohot va yangilanishlar butun jamiyatni, uning a'zolari bo'lgan har bir insonni amaliy ishlarga safarbar etib, el-yurt manfaatlari, Vatan kelajagi yo'lida jipslashtirmoqda.

Darhaqiqat, mamlakatimiz tarixida o'chmas sahifa ochgan buyuk istiqlol tufayli O'zbekiston o'tgan davr mobaynida jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallab, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil ilgari lab bormoqda. Ayniqsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi bu o'zgarishlarni yanada teranroq anglashimiz, idrok etishimizda muhim ahamiyat kasb etdi. «Istiqlol yillarida erishgan yutuqlarimizga tayanib, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil qadam qo'ymoqdamiz», deb ta'kidlangan Davlatimiz rahbarining so'zlari xalqimiz qalbida iftixor tuyg'ularini yanada jo'sh urdirdi. Shubhasiz, bundan ruhlangan xalqimiz davlatimizning har qarich yerida yuksalish davri bo'lishi uchun azmu qaror qilmoqdalar.

Prezidentimiz nutqida ta'kidlaganidek, Milliy yuksalish deganda, biz mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimizning hayot darajasi va turmush sifatini har tomonlama yuqori bosqichga ko'tarishni tushunamiz. Ilm-fan,

ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport sohalarida bo'layotgan katta o'zgarishlar hayotimizda muhim voqelikka aylanmoqda.

Yurtimizda ijtimoiy rivojlanish bo'yicha o'ziga xos tizim shakllanmoqda. Bu borada 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar amalga oshirilayotgani, «**Obod qishloq**», «**Obod mahalla**», «**Yoshlar – kelajagimiz**», «**Besh ijobiy tashabbus**» kabi dasturlar aholini yangicha fikrlash va ishlashga safarbar etishda muhim rol o'ynamoqda. Buning natijasida, hatto mamlakatning eng chekka hududlari, markazlardan olisda joylashgan qishloqlarning ham me'moriy qiyofasi tubdan yangilanib, aholining turmush farovonligi yuksaltilmoqda.

Sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, ilm-fan, ayniqsa, ta'lim-tarbiya sohalarida bo'layotgan ulkan o'zgarishlarning barchamiz guvohi bo'lib turibmiz.

Shu o'rinda Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda umumta'lim maktablarida 11 yillik tizim tiklanganini, maktab ta'limini rivojlantirish masalasi buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanayotganini alohida ta'kidlash joiz. Ayniqsa, bugungi kunda mamlakatimizda oliy ta'lim sohasi ham jadal rivojlanmoqda. So'nggi uch yilda 35 ta yangi oliy o'quv yurti tashkil qilingani, ularning umumiy soni 112 taga yetgani, e'tiborlisi, bularning 13 tasi nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari ekani sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning yorqin isbotidir.

12. 3. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari: Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi, uning yo'nalishlari va maqsadlari

Ertangi kelajagimiz bo'lmish yoshlar kelgusida ana Shu ulug'vor ishlarning munosib davomchilaridir. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy-gumanitar fanlari darslarida istiqloq yillarida, ayniqsa, keyingi uch yilda amalga oshirilgan islohotlar, Harakatlar strategiyasida belgilangan «**Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari**» degan ustuvor g'oya, Prezidentimiz nutqi mazmun-mohiyati xususida talabalarga keng tushunchalar berish, ularning ham fikr-mulohazalarini tinglash lozim. Quvonarlisi, yoshlar

Yurtboshimiz nutqining har bir satrida hayot borligini, har bir soʻzida Oʻzbekistonimizning yuksak taraqqiyotiga qaratilgan aniq maqsad borligini teran anglab yetishmoqda.

Shu oʻrinda alohida taʼkidlash joizki, bundan keyin ham biz pedagoglar maʼnaviyat va maʼrifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz. «**Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari**» degan ustuvor gʻoya asosiy dasturilamalimizdir. Zero, Prezidentimiz taʼkidlaganlaridek, vijdoni, maʼnaviyati bor inson Vatanni albatta yaxshi koʻradi. Vijdon, maʼnaviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga yoʻllagan navbatdagi Murojaatnomasida 2020-yilda ham bundan uch yil oldin mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga koʻtarish maqsadida boshlagan buyuk ishlarimizni yangicha mazmun-mohiyat bilan boyitgan holda qatʼiy davom ettirishimiz, yutuqlarimizni mustahkamlab, yanada dadil va ulkan qadamlar tashlashimiz shartligi alohida taʼkidlandi. Eng muhimi, islohotlarimiz samarasini yurtimizda yashayotgan har bir inson, har bir oila bugun oʻz hayotida his etishi, buning uchun barcha boʻgʻindagi rahbarlar foizlar, raqamlar, qogʻozning ortidan quvmasdan, har bir fuqaro uchun, uning hayotiy manfaatlarini taʼminlash uchun ishlashi lozim, degan qoida har bir mutasaddi faoliyatining ustuvor yoʻnalishiga aylanmogʻi darkor.

Zero, Murojaatnomada eʼtirof etilganidek: «**Barchamiz bir tan-u bir jon boʻlib, yakdil va ahil boʻlib harakat qilsak, halol-pok boʻlib, yaxshi niyat bilan mehnat qilsak, har qanday marralarni egallashga, boshqacha aytganda, tarixning yangi sahifasini yaratishga qodirmiz**».

Yangi Oʻzbekiston «Inson qadri ustuvor boʻlgan jamiyat va xalqparvar davlat» degan muhim gʻoya nazdida barpo etilmoqda. Davlatimiz rahbari belgilab bergan bu ulugʻvor maqsad asosida xalqimiz yangidan yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanmoqda. Shu munosabat bilan, «Harakatlar strategiyasidan Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyili asosida keyingi besh yilda mamlakatimizda amalga oshiriladigan islohotlarning zarur siyosiy-huquqiy va ilmiy-maʼrifiy asoslarini yaratib berishga qaratilgan. Yangi Oʻzbekistonning 2022–2026-yillarga moʻljal-

langan Taraqqiyot strategiyasi loyihasi internetdagi (regulation.gov.uz, [2022-2026. strategy.uz](http://2022-2026.strategy.uz) va jamoatchilik.uz) portallarida keng jamoatchilik muhokamasi uchun joylashtirilgan edi.

Taraqqiyot strategiyasi: Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish, umumbashariy ma'lumotlarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish, mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borishga qaratilgan 7 ta ustuvor yo'nalishni qamrab oladi. Bu yo'nalishlar:

- inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash;
- adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish;
- umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish;
- mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borish.

Dastlab Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi va uni 2022-yilda amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi»ni tasdiqlashni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni loyihasi tayyorlandi. Loyihada mutlaqo yangi yondashuv qo'llanilib, rejalashtirilgan islohotlar natijadorligini taraqqiyotning maqsadlariga erishganlik darajasi asosida baholash tizimi joriy etilmoqda. Qabul qilingan Farmon loyihasi bo'yicha 16,7 mingdan ortiq takliflar kelib tushgan.

2022-yil 28-yanvarda Harakatlar strategiyasining uzviy davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni qabul qilindi. Kelgusi 5 yilga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi.

Farmonda O‘zbekistonni keyingi 5 yilda rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo‘nalishi doirasida 100 ta maqsadlarga erishishga qaratilgan va 2022-yilda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan 398 ta chora-tadbir nazarda tutilmoqda. Rejalashtirilayotgan chora-tadbirlarni moliyalashtirishga 2022-yilda umumiy qiymati 55 trillion so‘m va 11,7 milliard dollar miqdorida mablag‘ yo‘naltirildi.

Harakatlar strategiyasi doirasida 2021-yilda belgilangan davlat dasturini bajarish uchun 29 trln. 492,7 mlrd. so‘m va 2 mlrd. 60,4 mln. AQSH dollari, 2020-yildagi davit dasturini bajarish uchun esa 18 trin. 171,4 mlrd. so‘m va 10 mlrd. 301,5 mln. AQSH dollari ajratilgan edi.

Bunday muammolarni hal etishda kuch va imkoniyatlarni birlashtirish, bu boradagi barcha sa‘y-harakatlarni uyg‘unlashtirish lozim. Bu esa, o‘z navbatida, kelajagimiz qiyofasini belgilaydigan global muammolarning milliy va mintaqaviy darajadagi yechimlarini topish zarurligini anglatadi. Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonning «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi» inson qadrini ulug‘lashga xizmat qiladi.

Nazorat savollari:

1. Harakatlar strategiyasining «Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikkenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosatni amalga oshirish» nechanchi ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi?

2. «2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi» davlat va jamiyatni rivojlantirishning qanday bosqichini boshlab berdi?

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan besh tashabbus haqida nimalar bilasiz?

4. Taraqqiyot strategiyasi qaysi yillarni o‘z ichiga qamrab olib, nechta maqsaddan iborat?

13. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XALQARO REYTING VA INDEKSLARDAGI O‘RNI VA NUFUZINING ORTIB BORISHI.

13. 1. O‘zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmining joriy etilishi

Insoniyat taraqqiyoti, barcha sohalarda kechayotgan globalashuv jarayonlar, sifat va tarkibiy o‘zgarishlar xalqaro hamkorlik va aloqalarini yangi bosqichga ko‘tarish barobarida har bir mustaqil mamlakatning ushbu holatlarga yangicha qarashga, ular bilan birga odim tashlash vazifasini ko‘ndalang qo‘ymoqda. Bu esa, eng avvalo, o‘sha mamlakatning jahon miqyosidagi o‘rni, xalqaro reyting va ko‘rsatkichlarda tutgan mavqeyi bilan belgilanadi.

Bugun hayotning har bir jabhasida yangilik va bunyodkorlik ishlari jadal sur‘atlarda davom etmoqda. Tabiiyki, bunday yangilanishlar natijasi nafaqat xalqimiz hayotida, balki nufuzli xalqaro reyting va indekslar ko‘rsatkichlarida ham o‘z ifodasini topayotir.

Aytish kerakki, xalqaro reyting va indekslar har bir mamlakatning rivojlanish jarayonini o‘zida namoyon etib, davlat boshqaruvi sifati, aholining turmush darajasi, inson huquqlari muhofazasi, tadbirkorlik faoliyati va xorijiy investorlar uchun qulay muhit, barqaror iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshlik kabi muhim jihatlarning ko‘zgasidir. Bu jihatlarda mamlakatimizdagi islohotlar mohiyatida ham mujassam. Bularning barchasi inson qadrini ulug‘lashga, odamlarning hayotdan rozi va mamnun bo‘lib yashashini ta‘minlashga xizmat qilishi bilan yanada teran mazmun kasb etadi.

Prezidentimizning 2020-yil 2-iyunda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning

yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida"gi Farmoni yurtimizda bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim dasturilamal bo'ldi.

Mazkur Farmonga muvofiq, xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashi tuzilib, sohada parlament nazorati o'rnatildi.

Ilgari ustuvor xalqaro reyting va indekslar bo'yicha ishlarni hukumatning maxsus komissiyasi muvofiqlashtirib kelar edi. Prezidentimiz Farmoni bilan bu borada respublika kengashi tuzilishiga nima sabab bo'ldi?

Xalqaro reyting va indekslar dunyodagi institutsional muhitning sifatini baholashda iqtisodiy rivojlanishning asosiy sharti sifatida jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan vositadir. Ular nafaqat ekspertlar, balki davlatlar darajasida ham islohotlar va ijtimoiy-iqtisodiy siyosat mezonini sifatida qo'llanib kelinadi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz ko'pgina ustuvor reytinglarda yuqorilab borayotgani yurtimizda aholi turmush farovonligini oshirish, jamiyatimizda ochiqlik, oshkoralikni ta'minlash borasida qilinayotgan ezgu ishlarning muhim natijasidir.

Masalan, yaqinda BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkilotining (YuNIDO) "Raqobatbardosh sanoat unumdorligi indeksi" bo'yicha hisoboti chop etildi. Unda mamlakatimiz ilk marotaba aks ettirilib, 152 ta mamlakat orasida 92-o'rinni, MDHga a'zo davlatlar orasida 5-o'rinni, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida 2-o'rinni egalladi.

Aytish kerakki, bugun jamiyatimizdagi islohotlarning bosh maqsadi xalqimizni rozi qilishdek ezgu maqsadga yo'naltirilmoqda. Barcha sa'y-harakatlarimiz, islohotlarimiz, qabul qilayotgan qonun va qarorlarimiz zamirida ham ushbu maqsad mujassam. Aholi yuritilayotgan siyosatdan qanchalik rozi bo'lsa, turli reyting va indekslardagi o'rimiz o'z-o'zidan oshib boraveradi.

Xususan, iqtisodiyotda davlatning rolini kamaytirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sish istiqbollari yaxshilashga qaratilgan bosqichma-bosqich islohotlar 2020-yilda Jahon bankining "Biznes yuritish" indeksida 76-o'rindan 69-o'ringa ko'tarilishimizga, "Transparency International"ning Korrupsiyani qabul qilish indeksi

hamda “World Justice Project”ning Qonun ustuvorligi indeksida mamlakatimiz o‘rni yaxshilanishiga olib keldi.

Shu bilan birga, bu yo‘nalishda hali qilinishi kerak bo‘lgan vazifalar talaygina. Prezidentimiz farmoni asosida davlat organlari faoliyati natijadorligini oliy, ya‘ni parlament darajasida nazorat qilish belgilanganidan maqsad — bu borada vazirlik va idoralar rahbarlarining mas‘uliyatini oshirishdir. Shu bois, xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha respublika kengashi tashkil etildi. Oliy Majlis deputatlari va senatorlarining xalq tomonidan saylanishini inobatga oladigan bo‘lsak, mazkur mexanizm sohadagi chora-tadbirlar ijrosi ustidan xalq nazorati o‘rnatilganligini anglatadi.

Endilikda vazirlik va idoralar rahbarlari o‘zlari mas‘ul bo‘lgan reyting va indekslarda ko‘rsatkichlarni yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar va belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan respublika kengashida hisobot berib boradilar.

Xalqaro reyting va indekslardagi mamlakatimiz o‘rnining yaxshilanishi ko‘p jihatdan qabul qilayotgan qonunlarimizning joylardagi ijrosiga bog‘liq. Shuning uchun ham kengash tarkibiga mahalliy hokimlar kiritildi. Bu esa qonun talablarining joylardagi ijrosi yuzasidan muammolarni vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi.

Shu orqali bu yo‘nalishdagi ishlarda parlament, vazirlik va idoralar hamda mahalliy hokimliklarning o‘zaro hamkorligi ta‘minlanadi, sansalarlik holatlarining oldi olinadi, barcha ishlar muvofiqlashtirilgan holda tashkil etiladi.

Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash mamlakatimiz uchun butkul yangi yo‘nalish hisoblanadi. Shu ma‘noda vazirlik va idoralar, sud va prokuratura organlari, mahalliy hokimliklar bunga qay darajada tayyor?

Albatta, bu ko‘p vaqt sarflanadigan, progressiv bilimlarni talab etuvchi yangi jarayonlardan biri. Bu, shubhasiz, mas‘ul davlat organlarining o‘zlariga birlashtirilgan xalqaro reyting va indekslar metodologiyasini izchillik bilan o‘rganish, uni to‘g‘ri talqin qila olgan holda amaliyotga tatbiq eta olish, xalqaro reyting va indeksni beruvchi tashkilot bilan aloqalarni o‘rnata olish bilan bog‘liqdir.

Ochig‘i, barcha vazirlik va idoralar, ayniqsa, joylardagi hokimliklar yoki parlament a‘zolarining barchasi ham masalaning tub mohiyatini

to'la anglab yetdi, deb aytish mushkul. Yuqorida aytganimdek, reyting va indekslar joylardagi vaziyatga bog'liq, qonunlarning ijrosiga bog'liq. Ming afsuski, joylardagi hokimliklar yoki davlat organlari vakillarining ba'zida bilib-bilmay aytgan gap-so'zlari yoki xatti-harakatlari reyting va indekslardagi o'rnimizga salbiy ta'sir qiladi.

Shu o'rinda barcha rahbarlar, ular qaysi darajadagi rahbar bo'lishidan qat'i nazar, o'z harakatlarini qonunlarda belgilangan tartibda amalga oshirishlari zarur ekanini yana bir karra ta'kidlamochim. Odamlar bilan muloqotlarda esa inson sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishi shart.

Har bir tizimda ishlarimizni samarali tashkil etish maqsadida barcha vazirlik va idoralarda xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha tarkibiy bo'linmalar tashkil etilishiga erishdik. Bu esa ishlarimizni ancha osonlashtiradi. Ajratilgan alohida xodimlar doimiy ravishda o'zlarining vazirligi yoki idorasi mas'ul bo'lgan xalqaro reyting va indeks bo'yicha ish olib boradi.

Xalqaro reyting va indekslarning ahamiyati, oldimizda turgan ustuvor vazifalarni belgilash, reyting agentliklarining metodologiyalarini o'rganish maqsadida mahalliy hokimliklar hamda vazirlik va idoralar mas'ullari uchun maxsus treninglarni boshladik.

Shu bilan birga, eng asosiy ishlarimiz qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning amaldagi ijrosini, bir so'z bilan aytganda, qonun ustuvorligini ta'minlashdir. Bu borada biz parlament va jamoatchilik nazoratini qat'iy yo'lga qo'yishga kirishdik va, albatta, ijobiy natijalarga erishamiz.

Bugungi kunda xalqaro miqyosda ustuvor hisoblangan to'rtta xalqaro reyting va indeksda O'zbekiston hali e'tirof etilmagan. Buning sababi nimada? Ushbu reytinglarda mamlakatimiz o'rnini aks ettirish bo'yicha qanday choralar ko'rilmogda?

O'zbekistonning ushbu xalqaro indekslarda e'tirof etilmaganiga bir necha sabablar bor. Masalan, Jahon iqtisodiy forumining "Global raqobatbardoshlik indeksi"ga mamlakatimizni kiritish masalasi yuzasidan Moliya vazirligi olib borgan muzokaralar natijasida indeksga kirish jarayoni 2 yil muddatni talab etishi ma'lum bo'ldi.

Birinchi yilda tashkilot tomonidan O'zbekistonda rasmiy so'rovnomalar o'tkazish uchun hamkor, ya'ni nodavlat notijorat tashkilotlar, ilmiy-tad-

qiqot institutlari tanlab olinadi va so'rovnomaga o'tkaziladi. Ikkinchi yilda so'rovnomaga natijalaridan kelib chiqib, O'zbekistonning indeksdagi norasmiy o'rni belgilanadi hamda ularning O'zbekiston ko'rsatkichlarining haqiqiy tendensiyalari bilan qay darajada mos kelishi tekshirib ko'riladi.

Tendensiyalar maxsus ekspertlar tomonidan 2 yil mobaynida muntazam kuzatilib boriladi va tahlil qilinadi.

Xalqaro budget hamjamiyatining "Budget ochiqligi indeksi"ga kirish masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, indeks bo'yicha mamlakatda tadqiqot o'tkazish uchun zarur resurslar (jumladan, mablag'lar) faqatgina xalqaro nodavlat tashkilotlar va institutlar (donorlar) hisobidan amalga oshiriladi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining "To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni tartibga solish cheklolari indeksi"da O'zbekistonda e'tirof etish maqsadida tuzilma mas'ul rahbarlari bilan muzokaralar o'tkazildi. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti bilan birgalikda "Investitsion siyosat sharhi — O'zbekiston" nomli hisobotni ishlab chiqish va bu orqali indeksda mamlakat o'rnini aks ettirish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Kornell universiteti, Xalqaro intellektual mulk tashkilotining "Global innovatsiyalar indeksi"da mamlakatimiz o'rnini aks ettirish masalasida Innovatsion rivojlanish vazirligi muzokaralar o'tkazmoqda. Hozir ushbu indeksda talab etilgan zarur statistik ma'lumotlarni jamlash bo'yicha hamkorlikda ishlar yo'lga qo'yilgan.

Xalqaro reyting va indeksni yurituvchi tashkilotlarni mamlakatimizdagi islohotlar bo'yicha xolis va zarur ma'lumotlar bilan o'z vaqtida ta'minlash masalasi o'z yechimini topganmi?

Albatta, bunday ma'lumotlar turli axborotnomalar shaklida tegishli tashkilotlar, xususi investorlar hamda xalqaro ekspertlarga jo'natilmoqda. Shuningdek, ular vazirliklarning rasmiy veb-saytlari va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida ham keng jamoatchilik e'tiboriga havola etib borilmoqda.

Bundan tashqari, ayrim reyting va indekslarda talab etilgan statistik ma'lumotlar respublikamizning davlat idoralari va tashkilotlari tomonidan shakllantirilgan statistik ma'lumotlar bazasiga asoslanadi.

Masalan, BMTning "Barqaror rivojlanish maqsadlari"da jami 206 ta milliy indikator tasdiqlangan. Davlat statistika qo'mitasi tomonidan

yaratilgan maxsus saytga bu boradagi zarur ma'lumotlar doimiy ravishda joylashtiriladi. Shuningdek, xalqaro reyting va indekslar uchun kerakli ma'lumotlar davlat idoralari tomonidan muntazam yangilanib boriladi.

Misol uchun, hukumat portali doirasida "Ochiq ma'lumotlar portali" ishga tushirilgan. Mazkur portal Davlat statistika qo'mitasining davlat organlari va tashkilotlarining ochiq ma'lumotlar bazasi yuritilishi va yangilanishi, shuningdek, tegishli axborotlarning o'z vaqtida aks ettirilishi muvofiqlashtirib kelmoqda.

Umuman olganda, xalqaro reyting va indekslarni yurituvchi tashkilotlar tadbirkorlar va aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga, nodavlat notijorat tashkilotlar ma'lumotlariga hamda milliy va xorijiy ekspertlar xulosalariga tayanadi. Bu esa, o'z navbatida, respublika miqyosida iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohadagi islohotlar va ularning natijalaridan mahalliy aholi va tadbirkorlar qay darajada xabardor ekanini ko'rsatib beradi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz qaysi reyting va indekslarda quyi pog'onalarda qolmoqda va buning asosiy sabablari nimalardan iborat?

Asosan, siyosiy-huquqiy reyting va indekslarda mamlakatimiz o'rinlari nisbatan quyi pog'onalarda. Masalan, So'z erkinligi va hisobdorlik indeksida 191-o'rinda, Normativ sifat indeksida 184-o'rinda, Korrupsiyani nazorat qilish indeksida 183-o'rinda, Qonun ustuvorligi indeksida 182-o'rinda, Jahon matbuot erkinligi indeksida 156-o'rinda turibmiz. Albatta, so'nggi 3-4 yil mobaynida ushbu sohalarni tartibga soluvchi ko'plab qonun hujjatlari qabul qilindi, turli institutsional o'zgarishlar ro'y berdi.

Xususan, mamlakatimizda so'z erkinligi hamda ommaviy axborot vositalarining cheklov va to'siqlarsiz faoliyat yuritishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Ommaviy axborot vositalari uchun media bozorida teng sharoit yaratish va ularni yanada rivojlantirish hamda jurnalist va blogerlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Milliy mass-mediani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi tashkil etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohadagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Bu boradagi davlat dasturlarining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etish, turli organlar va tashkilotlarning faoliyatini

muvoqilashdirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi tashkil etildi. Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini yurituvchi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tuzildi.

Qator sohalardagi o'zgarishlar bilan bog'liq qonunchilikning jadal rivojlanishi ayrim hollarda amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lgan ko'plab normalarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham qonunchilikni tubdan qayta ko'rib chiqish, uni tizimlashtirish, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlari sifatini oshirish, ijrosi monitoringini takomillashtirish maqsadida Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Biroq shuncha ishlarga qaramay, indekslardagi ko'rsatkichlar bu borada hali kamchiliklarimiz borligini ko'rsatib turibdi. Shu bois, qator muhim vazifalarni belgilab olganmiz. Eng avvalo, O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqishimiz zarur bo'ladi.

Shuningdek, davlat organlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni majburiy baholash tartibini belgilash va davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha reytingini shakllantirishni yo'lga qo'ymoqchimiz.

Shu bilan birga, mamlakatimizning Korrupsiyaga qarshi davlatlar guruhi (GReKO) xalqaro tashkilotiga a'zo bo'lishi va bu tashkilotning korrupsiyaga qarshi tegishli konvensiyalari talablarini milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilish masalasini ham o'rganib chiqishimiz lozim.

Ommaviy axborot vositalari, fikrlar xilma-xilligi va so'z erkinligini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashimiz zarur. Ayniqsa, jurnalistning qonuniy professional faoliyatiga to'sqinlik qilishga oid huquqbuzarliklarga nisbatan javobgarlikni belgilashimiz kerak.

Respublikaning siyosiy-huquqiy reyting va indekslarda quyi pog'onalardan joy olganligining sabablaridan yana biri mazkur reyting va indekslar, asosan, jamoatchilik fikri va xalqaro ekspertlar xulosasi asosida shakllantirilishidir. Qolaversa, indeks yurituvchi tashkilotlar so'rovnomalari

faqatgina mustaqil fuqarolik jamiyati institutlari (nodavlat notijorat tashkilotlar) bilan hamkorlikda o'tkazilishini inobatga olib, respublika miqyosida bunday tashkilotlar kamligi, hamda ular tomonidan tadqiqot ishlarini amalga oshirish salohiyati cheklanganligi kabi omillar ham bunga sabab bo'lishi mumkin.

Shu o'rinda alohida qayd etishimiz zarur, har bir davlat organi, ayniqsa, respublika darajasidagi vazirlik, idora, tashkilotlar huzurida nodavlat notijorat tashkilotlar vakillaridan iborat jamoatchilik kengashlari tuzilib, ular bilan yaqin hamkorlik o'rnatilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yaqinda BMTning "Raqamli hukumatni barqaror rivojlanishi yo'lidagi o'n yillik harakat" nomli hisoboti e'lon qilindi. 2020-yil uchun dunyoda elektron hukumat rivojlanishi natijalari taqdim qilingan ushbu reytingda O'zbekiston 6 ta pog'onaga tushib, 87-o'rinni egalladi. Albatta, O'zbekiston umumiy reytingda 6 ta pog'onaga pasaydi. Lekin reytingni shakllantiruvchi komponentlar bo'yicha birmuncha o'sish kuzatilgan. Masalan, ushbu reytingning "Inson kapitali", "elektron ishtirok" va "Telekommunikatsiya infratuzilmasi" indeksleri bo'yicha ko'rsatkichlar 0,01 dan 0,14 punktga oshgan.

"Elektron ishtirok" indeksi bo'yicha respublikamiz o'zining ko'rsatkichini 0,80 punktga oshirib, umumiy reytingdagi o'rnini 13 pog'onaga ko'tardi va 46-o'rinni egallab, elektron ishtirok indeksining juda yuqori rivojlanish darajasiga ega mamlakatlar ro'yxatiga kirdi. Vaholanki, 2018-yilda ushbu indeks bo'yicha mamlakatimiz 59-o'rinda edi.

Bundan tashqari, O'zbekistonga ochiq ma'lumotlar bo'yicha eng yuqori ball berildi. Albatta, "elektron hukumatni rivojlantirish" reytingidagi o'rnimiz pasayishiga ayrim omillar ta'sir qildi. Eng avvalo, ta'kidlash joizki, 2018-yildan joriy yilning aprel oyiga qadar respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va "elektron hukumat" tizimini joriy etishda yagona muvofiqlashtiruvchi organ mavjud bo'lmagan. Natijada reytingni oshirish bo'yicha aniq belgilangan chora-tadbirlar rejasi qabul qilinmagan va tegishli ishlar yetarli darajada tashkil etilmagan. Hozir Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ushbu ishga mas'ul etib belgilangan.

Shuningdek, milliy elektron xizmatlar portali hamda ta'lim, mehnat, ijtimoiy xizmatlar, sog'liqni saqlash, moliya va atrof-muhit sohasida-

gi tegishli vazirlik va idoralarning veb-saytlari ham talabga to'liq javob beradi, deb ayta olmaymiz. Ushbu saytlar reytingning "elektron xizmatlar" komponentida 148 ta jihat bo'yicha baholab boriladi. Milliy onlayn xizmatlar portali va rasmiy veb-saytlarning mobil qurilmalardan foydalanish uchun moslashgan shakllari yetarli darajada joriy etilmagan.

Shuningdek, tranzaksiya xizmatlari darajasining pastligi, davlat bojlari, turli yig'imlar va jarimalarni to'liq elektron tarzda to'lash ham oxiriga yetmaganligi reytingdagi o'rnimizga salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Reytingning "Inson kapitali" komponenti bo'yicha ham ishlashimiz kerak bo'lgan ayrim kamchiliklar bor. Masalan, masofaviy o'qitish imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotgani, oliy ma'lumotga ega aholi qatlami bo'yicha aniq ma'lumotlar yetarli emasligi reytingdagi o'rnimizga ta'sir qilmoqda.

Mobil aloqa abonentlari, internet foydalanuvchilari ulushini begilaydigan "Telekommunikatsiya infratuzilmasi" komponentida esa respublikaning uzoq hududlariga yuqori tezlikdagi simli internet tarmog'i yetib bormaganligi ham reytingdagi o'rnimizga o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Bu kamchiliklarni to'g'rilash bo'yicha ustuvor vazifalarni belgilab olganmiz. Umid qilamizki, navbatdagi hisobotlarda ushbu yo'nalishda mamlakatimiz o'rni yanada yaxshilanishiga erishiladi.

Koronavirus pandemiyasi ko'p islohotlarimizga salbiy ta'sir qildi. Iqtisod deysizmi, sanoatmi, ta'lim va boshqa sohalar qiyin raqobat muhitida qoldi

Darhaqiqat, bugungi kunda koronavirus pandemiyasi global miqyosda butun insoniyatga xavf solayotganiga, barcha sohalarda turli qiyinchiliklarni keltirib chiqarayotganiga barchamiz guvoh bo'lib turibmiz.

Pandemiya sharoitida, albatta, birinchi zarba iqtisodiyotga tushadi, rejalashtirilgan ko'plab islohotlar ijrosi ortga suriladi, asosiy e'tibor sog'liqni saqlash tizimini qo'llab-quvvatlash, aholini ijtimoiy himoya qilish, uning turmush darajasini yaxshilashga qaratiladi.

Xalqaro reyting agentliklari indekslarni hisoblab chiqishda yoki reytinglarni tuzishda, asosan, mamlakatning turli statistik ko'rsatkichlariga tayanadi. Tan olish lozim, pandemiya sababli statistik ko'rsatkichlarning yaxshi tomonga o'zgarishiga nisbatan ularning yomonlashish ehtimoli yuqoriroq.

Shu sababli keyingi yillarda xalqaro reyting va indekslardagi o'rnimizning joriy holatida saqlab qolinishi yoki pastlashishi ehtimolini nazardan qochirib bo'lmaydi. Biroq unutmazlik kerakki, pandemiya bitta yoki bir nechta davlatda emas, balki butun dunyo mamlakatlariga bevosita salbiy ta'sirini o'tkazmoqda.

Shu bois, balki boshqa davlatlarning ham reytinglardagi o'rnini pastlashishi sabab mamlakatimizning o'rnini tom ma'noda ko'tarilishi yoki joriy holatda saqlanib qolishi ham ehtimoldan xoli emas.

Har qanday vaziyatda ham xalqimizning azaliy qadriyatlaridan kelib chiqib hamisha yaxshi niyat qilish, ertangi kunga umid bilan boqish tuyg'usi dilimizda yashamoqda. Ishonchimiz komilki, barchamiz, butun xalqimiz bir jon, bir tan bo'lib bahamjihatlikda harakat qilinsa, bu sinovlarni albatta yengib o'tish mumkin bo'ladi.

Jahon bankining «Biznes yuritish 2020» (Doing Business 2020) yillik reytingida O'zbekiston 2019-yil yakunlari bo'yicha 100 balldan 69,9 ball to'plab, 190 mamlakat orasida 69-o'rinni egalladi. O'tgan yilgi reytingga nisbatan mamlakat 76-o'rindan 7-o'ringa ko'tarildi.

Jahon bankining Toshkentdagi vakolatxonasi matbuot xizmatiga ko'ra, Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi boshqa to'rtta davlat, shu jumladan Tojikiston, Ozarbayjon, Qirg'iziston va Kosovo bilan birgalikda O'zbekiston ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda eng katta yutuqlarga erishgan 20 mamlakat qatoridan o'rin egalladi.

Jahon banki ekspertlarining fikriga ko'ra, O'zbekistonda ishbilarmonlik muhitini yaxshilashdagi asosiy islohotlar quyidagilar:

- eng muhim korporativ qarorlarda aksiyadorlar huquqlari va rolini kengaytirish, mulkchilik va boshqaruv tuzilmalarini aniqlashtirish, shuningdek, korporativ shaffoflikni oshirish orqali minoritar investorlar himoyasini kuchaytirish;
- ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soliqlarini daromad solig'i bilan birlashtirish orqali soliqqa tortishni soddalashtirish;
- xavfga asoslangan bojxona nazorati mexanizmini joriy etish orqali xalqaro savdoni soddalashtirish, shuningdek, import hujjatlariga talablarni yengillashtirish;
- ixtiyoriy mediatsiya to'g'risidagi qonunni qabul qilish orqali shartnomalar ijrosini soddalashtirish, shuningdek, taraflarni nizolarni

mediatsiya orqali hal qilishga undash uchun moliyaviy rag'batlar yaratish.

«Biznes yuritish» hisobotida 190 mamlakatdagi vaziyatni tahlil qilish asosida 10 ta sohadagi qonunchilikdagi o'zgarishlar qayd etilgan. U 2019-yil 1-mayda tugagan 12 oylik davr uchun o'zgarishlarni baholaydi.

Hisobot mamlakatda biznes yuritish qulayligini baholovchi quyidagi ko'rsatkichlarni tahlil qiladi: 1) korxonalar (biznes) tashkil etish, 2) qurilish uchun ruxsat olish, 3) elektr ta'minoti tizimiga ulanish, 4) mulkni ro'yxatga olish, 5) kredit olish, 6) minoritar investorlarni himoya qilish; 7) soliq solish, 8) xalqaro savdo, 9) shartnomalarning bajarilishi va 10) to'lovga qodir bo'lmaslik. Xodimlarni yollash baholashdagi yana bir qo'shimcha ko'rsatkich, ammo bu yilgi reytingga kiritilmadi.

O'zbekiston «To'lovga layoqatsizlikni hal qilish» indikatoridan tashqari reytingning deyarli barcha ko'rsatkichlari bo'yicha ko'rsatkichlarni yaxshiladi:

- korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish — 96,2 ball, + 0,2% (global reytingda 8-o'rin);
- qurilish uchun ruxsatnomalarni olish — 61,7, + 0,3% (132-o'rin);
- elektr ta'minoti tizimiga ulanish — 86,9, + 0,9% (36-o'rin);
- mulkni ro'yxatga olish — 67,9, + 0,9% (72-o'rin);
- kredit olish — 65, o'zgarishsiz (67-o'rin);
- minoritar investorlarini himoya qilish — 70, + 8% (37-o'rin);
- soliqqa tortish — 77,5%, + 0,6% (69-o'rin);
- xalqaro savdo — 58,2, + 8,4% (152-o'rin);
- shartnomalarning bajarilishini ta'minlash — 71,9, + 3,7% (22-o'rin);
- to'lov qobiliyatsizligiga ruxsat berish — 43,5, -1,7% (100-o'rin).

Bu yil biznes yuritish qulayligi bo'yicha yetakchi o'nlikka Yangi Zelandiya, Singapur, Gonkong (Xitoy), Daniya, Koreya Respublikasi, AQSH, Gruziya, Buyuk Britaniya, Norvegiya va Shvetsiya kirdi. Odatda reyting yetakchilari ro'yxatdan o'tkazish va mulkni topshirishda onlayn jarayonlarga, shuningdek, soliq deklaratsiyalarini topshirish uchun elektron platformalarga ega bo'ladi.

«Qulay ishbilarmonlik muhiti qashshoqlik darajasining pastligi bilan bog'liq bo'lib, normativ tartibga solish samaradorligining yaxshilanishi

esa tadbirkorlikni, startaplarni, innovatsiyalarni rivojlantirishga, shuningdek, kredit va investitsiyalarni jalb qilishga olib kelishi mumkin», – deb ta’kidlaydi Jahon banki.

O‘zbekiston Jahon bankingning LPI indeksi – logistika samaradorligi bo‘yicha reytingida 117-o‘rinni egalladi. Bu haqda Jahon banki rasmiy saytida e’lon qilingan ma’lumotda qayd qilingan.

LPI indeksi mahsulotlarni yetkazib berish osonligi va milliy hamda xalqaro darajadagi savdo logistikasining holatini aks ettiradi. U 6 omilga asosan tuzib chiqiladi: bojxona samaradorligi, infratuzilma sifati, xalqaro tashuvlarni amalga oshirishning soddaligi, logistika qamrovi, yuklarni kuzatish va yetkazib berish muddatiga rioya etish shular jumlasidan.

Reytingdan jami 168 ta mamlakat joy olgan bo‘lib, eng yuqori o‘rinlarini Germaniya, Niderlandiya, Shvetsiya, Belgiya, Singapur, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Avstriya, Gonkong va AQSH mamlakatlari egalladi.

O‘zbekiston 117-o‘rinda Armaniston (116) va Zambiya (118)ning o‘rtasida joylashgan. Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida eng yaxshi ko‘rsatkich Qozog‘istonga tegishli bo‘ldi – 77-o‘rin. Eng yomoni esa - Tojikistonda (147).

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yilgi “Iqtisodiy erkinlik” indeksidagi o‘rni ko‘tarildi

AQSHning Thye Hyeritage Foundation tashkiloti tomonidan yuritiladigan “Iqtisodiy erkinlik” indeksining 2020-yil uchun hisobotida O‘zbekiston 57,2 ball bilan 114-o‘rinni egalladi (2019-yilda 53,3 ball bilan 140-o‘rin).

Moliya vazirligi xabariga ko‘ra, mazkur indeks xorijiy investorlar tomonidan doimiy ravishda kuzatilib boriladi va respublikaning indeksdagi o‘rni yuqorilashi tadbirkorlik muhitiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarning oqimi oshishiga xizmat qiladi.

“Iqtisodiy erkinlik” indeksi to‘rtta asosiy yo‘nalish bo‘yicha 12 ta tarkibiy ko‘rsatkichdan tashkil topgan bo‘lib, mulkchilik huquqi, sud faoliyati samaradorligi, davlatning yaxlitligi, soliq yuki, davlat xarajatlari, fiskal salomatlik, biznes erkinligi, mehnat bozori erkinligi, monetar erkinlik, savdo erkinligi, investitsiyalar erkinligi va moliyaviy erkinlik kabi sohalarda jahon mamlakatlarini 0 dan (eng past) 100 gacha (eng yuqori) bo‘lgan shkalada baholaydi.

Gender tenglik indeksida O‘zbekiston 188 ta mamlakat orasida 57-o‘rinni egallab turibdi. Bu ko‘rsatkich xotin-qizlar ta‘lim olishi va iqtisodiy faolligi yuqori darajada ekanligi bilan izohlanadi. Amalga oshirilayotgan ishlar natijasida O‘zbekiston ta‘lim va sog‘liqni saqlashda gender tenglikka yaqinlashmoqda. Jumladan, me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish choralari belgilab berilgan.

13. 2. Jamiyatni demokratlashtirish, ilg‘or xalqaro tajribaga asoslangan davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish

2019-yilning mart oyida O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha respublika komissiyasi tashkil etildi. Uning asosiy vazifasi sifatida ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekistonning o‘rnini yaxshilashda mas‘ul davlat organlari ishini muvofiqlashtirishdan iborat edi. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligi va natijadorligini kuchaytirish hamda ma‘lumotlar olish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida «O‘zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda» portalini 2020-yil 1-oktabrdan ishga tushirish to‘g‘risida Moliya vazirligiga topshiriq berildi.

2020-yil 2-iyunda «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni imzolandi. Shu asosda Kengash tuzilib uning ishchi organi sifatida Moliya va Adliya vazirliklari belgilandi.

Yig‘ilishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida»gi Farmoni ijrosini tashkil qilish bilan bog‘liq masalalar muhokama qilindi.

Ustuvor xalqaro reyting va indekslar, mamlakat hayotida o‘ziga xos «kompas» vazifasini bajarib, shunga qarab amalga oshirilayotgan islohotlarning sifati va samaradorligini aniqlash, kelgusi qadamlarini prognozlashtirish imkoniyatini berishi ta‘kidlandi.

Shu munosabat bilan hozirda xalqaro reytinglar va indekslarda O'zbekiston Respublikasining o'rnini mustahkamlash masalasiga davlat darajasida e'tibor qaratilib, bu borada huquqiy va institutsional asoslar shakllantirilmoqda.

Jumladan, so'nggi 3 yilda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy sohalarga oid xalqaro reyting va indekslardagi mavqeyini oshirish bo'yicha Davlatimiz rahbarining 13 ta farmon va qarori qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash bo'yicha 7 ta chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanib, mutasaddi vazirlik va idoralar, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan birgalikda xalqaro reytinglarni hisoblash metodologiyalarining tahlili, ularda O'zbekistonga berilayotgan baholarga sabab bo'layotgan omillar o'rganib borilmoqda.

Xalqaro reyting va indekslarni yurituvchi xalqaro va xorijiy tashkilotlarning aksariyati bilan hamkorlik aloqalari o'rnatildi. Bugungi kunda O'zbekiston quyidagi Xalqaro reyting va indekslarda o'z ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan choralarni ishlab chiqdi:

Suveren kredit reytinglar (Sovereign Credit Ratings), «**Biznes yuridik**» **indeksi** (Doing Business Index), Boshqaruv sifati indikatorlari (Worldwide Governance Indicators), elektron hukumatni rivojlantirish reytingi (E-Government Survey), «**Korrupsiyani qabul qilish**» **indeksi** (Corruption Perception Index), «**Logistika samaradorligi**» **indeksi** (Logistics Performance Index), Jahon bankining Statistik salohiyat indeksi (Statistical Capacity Indicators of the World Bank), Iqtisodiy erkinlik indeksi (Economic Freedom Index), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) **mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash tizimi** (OECD Country risk classification), Inson kamoloti indeksi (Human Development Index), Huquq ustuvorligi indeksi (Rule of law, World Justice Project), Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi (Democracy Index), Matbuot erkinligi indeksi (World Press Freedom Index) va boshqalar.

Keyingi to'rt yil mobaynida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar O'zbekistonning xalqaro maydondagi o'rnini va nufuzining tobora ortib borishiga xizmat qilmoqda. Dunyo mamlakatlarining nufuzi, ularning xalqaro maydondagi ta'siri o'sha davlatning suveren indeks va

indikatorlar tizimida integratsiyalashuvi va ulardagi maqomiga bog'liq bo'ladi. Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslar bo'yicha samaradorlikning muhim ko'rsatkichlarini oshirish borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. «O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy etish» borasidagi davlat siyosati yuritilmogda. Shu ma'noda so'nggi yillarda mamlakatimizning iqtisodiy-ijtimoiy hamda siyosiy-huquqiy xalqaro reyting va indekslardagi mavqeyini oshirish bo'yicha bir qator Farmon va qarorlar qabul qilindi va sohada ijobiy o'zgarishlarga erishildi. Jumladan, 2016-yildan boshlab o'tgan davr mobaynida mamlakatimiz Jahon bankining «Logistika samaradorligi» indeksida 19 pog'ona, «Biznes yuritish» indeksida 18 pog'ona, «The Heritage Foundation» tashkilotining «Iqtisodiy erkinlik» indeksida 26 pog'onaga ko'tarildi va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) «Mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash» tizimida 6-guruhdan 5-guruhdagi mamlakatlar qatoriga kirdi.

Shu bilan birga, Jahon bankining «Boshqaruv sifati indikatorlari»dagi «So'z erkinligi va hisobdorlik», «Hukumat samaradorligi», «Normativ sifat», «Korrupsiyani nazorat qilish» va «Qonun ustuvorligi» indekslaridagi o'zgarishlar pastligicha qolayotgan bo'lsa, «Siyosiy barqarorlik va zo'rvonlik terrorizmning mavjud emasligi» indeksidagi o'zgarishlar salbiy baholangan.

Xalqaro reyting va indekslar ko'pgina davlat idoralari rahbarlari tomonidan oddiy statistika sifatida qaralmogda. Ammo, har bir reyting va indeks ma'lum bir ma'noga ega bo'lib, **davlat boshqaruvi sifati, aholining turmush darajasi, tadbirkorlik faoliyati** va xorijiy investorlar uchun qulay muhit, barqaror iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni baholaydi. Bularning barchasi esa aholini rozi qilishni anglatadi.

Yuqoridagilarga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi mavqeyini yanada yuksaltirish, **aholi farovonligiga erishish uchun** O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Bosh prokuraturasi, vazirlik va idoralar (keyingi o'rinlarda mutasaddi davlat organlari deb yuritiladi) faoliyatining sifat va samaradorligini oshirish maqsadida «O'zbekiston

Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy etish» borasidagi hujjat qabul qilindi.

O'zbekistonning nufuzli xalqaro reytinglar va indekslarda o'z pozitsiyalarini jiddiy ravishda oshirish uchun harakati boshlandi.

Hujjatni ishlab chiquvchilar mamlakatimiz o'z ko'rsatkichlarini yaxshilash niyatida bo'lgan xalqaro reytinglar va indekslarni tasnifladilar. Ularni shartli ravishda uchta: iqtisodiy, sud-huquq va ijtimoiy-siyosiy blokka ajratdilar.

Shundan kelib chiqqan holda ularning har biriga batafsil to'xtalib o'tamiz. Avvalo u yoki bu reyting (indeks) nimani ifodalashi, uni tuzish uslubiyati (ya'ni qanday mezonlar baholanishi), O'zbekistonning joriy pozitsiyasi va uni yaxshilash bo'yicha xatti-harakatlar rejasi ko'rib chiqiladi.

I. Iqtisodiy blok

a) Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) kredit reytingi. Ayni paytda 35 ta davlat IHTT a'zosi hisoblanadi. Tashkilot budjeti – 374 mln. yevro.

1997-yilda Rasman qo'llab-quvvatlanadigan eksport kreditlari bo'yicha kelishuv (The Arrangement on Officially Supported Export Credits) ishtirokchilari mamlakatlarning kredit xatarini baholash uslubiyatini ishlab chiqib, davlatlarni ushbu uslubiyat bo'yicha tasnifladilar. Uning xususiyati shundaki, ushbu tasnif faqat IHTT bilan kredit munosabatlari doirasida amalga oshiriladigan tranzaksiyalar uchun haqning eng kam stavkalarini aniqlash maqsadida qo'llaniladi.

Shu sababli ikkita guruhdagi davlatlar umuman hech qanday jihatdan tasniflanmaydi. Birinchisi – juda kichik, odatda orol davlatlari bo'lib, ular qoida tariqasida IHTTdan rasman moliyaviy ko'mak olmaydilar (*masalan, Kiribati, Mikroneziya, Nauru, Marshall orollari va h.k.*). Ikkinchisiga IHTTga a'zo mamlakatlar va yevrohududagi iqtisodiy rivojlangan, bunday yordamga muhtoj bo'lmay, balki aksincha, o'zlari moliyaviy donor bo'lib chiqadigan boshqa mamlakatlar kiradi.

Qolgan barcha mamlakatlar turli iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha baholanadi (odatda XVF indikatorlari asos sifatida olinadi) va sakkizta guruhdan biriga kiritiladi. «0» guruhida bo'lgan mamlakatlar – moliyaviy

jihattan eng farovon, oxirgi «7» guruhida esa iqtisodiy ko'rsatkichlari eng past bo'lgan davlatlar joylashgan.

So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, MDH mamlakatlari IHTT kredit reytingida quyidagicha joylashgan:

Davlat	Avvalgi pozitsiyasi	Joriy pozitsiyasi
Rossiya	4	4
Ozarbayjon	5	5
Belarus	6	5
Armaniston	6	6
Qozog'iston	6	6
Turkmaniston	6	6
O'zbekiston	6	6
Qirg'iziston	7	7
Moldaviya	7	7
Tojikiston	7	7
Ukraina	7	7

Ko'rinib turganidek, so'nggi yilda MDH mamlakatlari orasida faqat bittasi – Belarus reytingda ko'tarila olgan. Unga ergashish maqsadida reytingni hisoblash uchun statistik bazani tayyorlash – mamlakatimizga XVF missiyasi tashrifini uyushtirish hamda statistik axborotni to'plash, umumlashtirish, ishlov berish va e'lon qilish xalqaro tajribasini tahlil qilishni rejalashtirmoqdamiz. Shuningdek, reytingimizni qayta ko'rib chiqish uchun IHTTga a'zo mamlakatlarning eksport kredit agentliklari (EKA) bilan hamkorlikni faollashtirish zarur.

b) Jahon iqtisodiy forumining Global raqobatbardoshlik indeksi (Global Competitiveness Index) 2004-yildan buyon tuziladi, bugungi kunda dunyodagi turli mamlakatlar raqobatbardoshligi ko'rsatkichlarining eng to'liq majmuyi sanaladi. 113 ta o'zgaruvchan ko'rsatkichni o'z ichiga oladi, ularning 2/3 qismi kompaniyalar rahbarlarini global so'rovdan o'tkazish natijalarini, 1/3 qismi esa umumfoydalanishdagi manbalarini (statistik ma'lumotlar, tadqiqotlar natijalari va h.k.) aks ettiradi.

Bugungi kunda o'tkazilgan so'nggi tadqiqotlarga (The Global Competitiveness Report 2017–2018) ko'ra MDH mamlakatlari orasida reytingdagi o'rinlar quyidagicha taqsimlangan:

Davlat	Reyting	Indeks
Ozarbayjon	35	4,7
Rossiya	38	4,6
Qozog'iston	57	4,3
Armaniston	73	4,2
Tojikiston	79	4,1
Ukraina	81	4,1
Moldaviya	89	4,0
Qirg'iziston	102	3,9
Belarus	–	–
O'zbekiston	–	–
Turkmaniston	–	–

Bu O'zbekiston umuman o'rin olmagan, to'plamdagi yagona tadqiqotdir. Shu sababli avval indeksga kirishga tayyorgarlik ko'riladi – indikatorlarni baholash uslubiyati o'rganiladi, bizda quyi baho olishi mumkin bo'lganlari aniqlanib, tuzuvchilar bilan aloqa o'rnatiladi. Navbatdagi bosqichda mamlakatimiz Kompaniyalar rahbarlari global so'rovida qatnashib, o'z bahosini oladi.

d) Jahon banking «Biznes yuritish» (Doing Business) indeksi.

Doing Business indeksidagi ko'rsatkichlarimizni ko'tarish uchun to'rtta yo'nalish bo'yicha chora-tadbirlar majmuyini amalga oshirish taklif etilmoqda:

korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonini takomillashtirish;
kredit olish imkonini oshirish;

«Qurilish uchun ruxsatnoma olish», «Mol-mulkni ro'yxatdan o'tkazish», «Minoritar investorlarni himoya qilish» va «To'lovga noqobillikni hal etish» singari reytingning boshqa komponentlarini takomillashtirish;
Jahon banki bilan hamkorlik qilish.

e) Iqtisodiy erkinlik indeksi (Index of Economic Freedom) 1999-yildan buyon iqtisodiy jarayonlarni o'rganish yakunlari bo'yicha har yili tuziladi. The Wall Street Journal gazetasi bilan hamkorlikda Meros jamg'armasi (The Heritage Foundation) tomonidan nashr etiladi.

Tadqiqotlar 10 ta nazorat ko'rsatkichi: mulk huquqi, korrupsiyadan xolilik, fiskal erkinlik, hukumat ishtiroki, tadbirkorlik erkinligi, mehnat erkinligi, monetar erkinlik, savdo erkinligi, investitsiya erkinligi va moliyaviy erkinlikka asoslanadi. Har biri bo'yicha 0 dan 100 ballgacha baho qo'yilib, shundan so'ng o'rtacha qiymat hisoblab chiqariladi.

Davlat	Reyting	Indeks
Qozog'iston	41	69,1
Armaniston	44	68,7
Ozarbayjon	67	64,3
Qirg'iziston	78	62,8
Moldaviya	105	58,4
Tojikiston	106	58,3
Rossiya	107	58,2
Belarus	108	58,1
Ukraina	150	51,9
O'zbekiston	152	51,5
Turkmaniston	174	41,9

Shu tariqa, Iqtisodiy erkinlik indeksi bo'yicha MDH doirasidagi to'rtta mamlakat o'rtacha erkin iqtisodiyotga (*60 dan 70 ballgacha*), oltitasi – ko'p jihatdan erkin bo'lmagan iqtisodiyotga (*50 dan 60 ballgacha*) kiradi, ular orasida bizning mamlakat ham bor va iqtisodiyoti erkin bo'lmagan bitta davlat (*50 balldan past*) mavjud.

Loyiha mualliflarining fikricha, tashkiliy-uslubiy, statistik va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish vaziyatni anglash imkonini berishi kerak. Xususan, indeks tuzuvchilar bilan bevosita muzokaralar o'tkazish uchun O'zbekiston missiyasini yuborish, Iqtisodiy erkinlik indeksini oshirish maqsadida Xalqaro standartlarni implementatsiya qilish bo'yicha konsepsiya ishlab chiqish va uni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

II. Sud-huquq bloki

a) Qonun ustuvorligi indeksi (The Rule of Law Index) 2010-yildan buyon The World Justice Project xalqaro nohukumat tashkiloti uslubiyati bo'yicha muntazam (bir necha yilda bir marta) tuziladi.

Indeks kombinatsiyalangan ko'rsatkich bo'lib, ekspert manbalaridan va jamoatchilik fikrini so'rash orqali olingan ma'lumotlar asosida hisoblab chiqariladi. Jami 8 ta nazorat ko'rsatkichi: hokimiyat institutlari vakolatlarini cheklash, korrupsiyaning yo'qligi, tartib va xavfsizlik, asosiy huquqlar himoyasi, hokimiyat institutlarining shaffofligi, qonunlarga rioya etish, fuqarolik sohasidagi odil sudlov va jinoyat sohasidagi odil sudlov baholanadi.

Bugungi kunda o'tkazilgan so'nggi tadqiqotda (The World Justice Project: The Rule of Law Index 2017) MDH mamlakatlari quyidagicha taqsimlandi:

Davlat	Reyting	Indeks
Qozog'iston	64	0,51
Belarus	65	0,51
Ukraina	77	0,50
Moldaviya	78	0,49
Qirg'iziston	82	0,47
Rossiya	89	0,47
O'zbekiston	91	0,46
Ozarbayjon	–	–
Armaniston	–	–
Tojikiston	–	–
Turkmaniston	–	–

b) Korrupsiyaga munosabat indeksi (The Corruption Perceptions Index) 1996-yildan buyon Transparency International xalqaro nohukumat tashkiloti uslubiyati bo'yicha har yili tuziladi. U umumfoydalaniladigan statistik ma'lumotlar va global so'rov natijalari kombinatsiyasidan iborat. Tekshirilayotgan mamlakatlar davlat sektoridagi korrupsiya darajasiga munosabati asosida 0 dan (eng yuqori korrupsiya darajasi) 100 gacha (eng quyi korrupsiya darajasi) shkala bo'yicha ranjirovka qilinadi.

So'nggi e'lon qilingan tadqiqotda (Transparency International: The Corruption Perceptions Index 2017) MDHga a'zo davlatlar ko'rsatkichlari quyidagicha bo'ldi:

Davlat	Reyting	Indeks
Belarus	68	44
Armaniston	107	35
Qozog'iston	122	31
Moldaviya	122	31
Ozarbayjon	122	31
Ukraina	130	30
Qirg'iziston	135	29
Rossiya	135	29
O'zbekiston	157	22
Tojikiston	161	21
Turkmaniston	167	19

Sud-huquq blokining ikkala reytingida pozitsiyani oshirish bo'yicha umumiy xatti-harakatlar rejasi tuzilgan. Unda quyidagilar nazarda tutilgan:

- tashkiliy-uslubiy bazani takomillashtirish;
- hokimiyat institutlarini demokratlashtirish;
- korruptsiyaga qarshi kurashish;
- asosiy huquqlarni himoyalash, tartib va xavfsizlikni ta'minlash;
- sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash.

III. Ijtimoiy-siyosiy blok

a) Matbuot erkinligi jahon indeksi (Worldwide Press Freedom Index). U 2001-yildan buyon milliy mass-media faoliyatidagi 43 ta asosiy ko'rsatkichlarni tekshirish asosida har yili tuziladi. «Chegara bilmas reportyorlar» («Reportyori bez granits») xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan nashr qilinadi.

Ushbu tashkilotning 2017-yildagi tadqiqoti ma'lumotlariga ko'ra MDH mamlakatlarida quyidagi manzara kuzatilmoqda:

Davlat	Reyting	Dinamika
Armaniston	79	-5
Moldaviya	80	-4
Qirg'iziston	89	-4
Ukraina	102	+5
Rossiya	148	0
Tojikiston	149	+1
Belarus	153	+4
Qozog'iston	157	+3
Ozabayjon	162	+1
O'zbekiston	169	-3
Turkmaniston	178	0

Audio-, video- va bosma materiallarni tarqatish miqyosini yanada kengaytirish; qo'shma media-loyihalarni amalga oshirish; xorijiy tillarda qisqa axborot materiallarini tezkor tayyorlash tizimini yaratish; yuzaga kelgan vaziyatni o'zgartirishda yordam beradi. Xorijiy sotsiologik markazlar bilan hamkorlik o'rnatish, jurnalistikaga o'qitishning yangi dasturlarini joriy etishga ehtiyoj borligi ham qayd etildi.

b) Jahon mamlakatlarining demokratiya indeksi (The Democracy Index). Bu 2006-yildan buyon muntazam o'tkazilayotgan siyosiy jarayonlar global tadqiqotidir. Yakunlar bo'yicha reyting shakllantiriladi, uning uslubi muallif Britaniyadagi The Economist Intelligence Unit tadqiqot markazi (*Angliyadagi economist jurnalining tahlil bo'linmasi*) hisoblanadi.

Reyting qisman ekspert baholariga va tegishli mamlakatlar aholisi orasida o'tkazilgan jamoatchilik fikri so'rovi natijalariga asoslangan. Saylov jarayoni va plyuralizm, hukumat faoliyati, siyosiy ishtirok, siyosiy madaniyat, fuqarolik erkinliklari toifalariga birlashtirilgan 60 ta asosiy ko'rsatkichdan shakllantiriladi.

MDH mamlakatlarining joriy ko'rsatkichlari (Democracy Index 2017. Free speech under attack):

Davlat	Reytingdagi pozitsiyasi	O'rtacha qiymat
Moldaviya	78	5,74
Ukraina	83	5,69
Qirg'iziston	95	5,11
Armaniston	111	4,11
Rossiya	135	3,17
Belarus	138	3,13
Qozog'iston	141	3,06
Ozarbayjon	148	2,65
O'zbekiston	158	1,95
Tojikiston	159	1,93
Turkmaniston	162	1,72

MDH davlatlari bo'yicha demokratiyaning yuqori indeksi yaqin o'tmishda «rangli inqiloblar»ni boshidan kechirgan mamlakatlarga tegishlilik kishini bezovta qiladi. Ushbu dalil bilan mamlakatning reytingdagi o'rnini o'rtasida bog'liqlik bo'lsa, tadqiqot siyosiy tusga ega bo'lib, vaziyatni xolis baholamasligi ko'rinib qoladi.

Shunga qaramay, O'zbekiston demokratiyasi indeksini oshirish uchun reytingdagi barcha beshta toifa bo'yicha chora-tadbirlar «yo'l xaritasi» loyihasiga kiritilgan. Ular sirasiga, masalan, saylov to'g'risidagi qonunchilikka tuzatishlar kiritish, ayrim hujjatlar mohiyati va mazmunini jahon jamoatchiligiga ma'lum qilish va boshqalar kiradi.

d) BMT Rivojlanish dasturining Inson rivojlanishi indeksi 1990-yildan buyon belgilanadi (*2013-yilgacha – Inson salohiyati rivojlaniishi indeksi*). Uning doirasida uchta asosiy ijtimoiy omil: kutilayotgan yashash davomiyligi, ta’lim va yalpi milliy daromad bo’yicha ko’rsatkichlar baholanadi. So’nggi e’lon qilingan tadqiqotlarga ko’ra (United Nations Development Programme: Human Development Index 2016) MDH mamlakatlari quyidagi ko’rsatkichlarga ega:

Davlat	Reytingdagi pozitsiyasi	IRI
Belarus	50	0.798
Rossiya	50	0.798
Qozog’iston	56	0.788
Ozarbayjon	78	0.751
Ukraina	81	0.747
Armaniston	85	0.733
Moldaviya	107	0.693
Turkmaniston	109	0.688
O’zbekiston	114	0.675
Qirg’iziston	120	0.655
Tojikiston	129	0.624

IRIni oshirish bo’yicha ish rejasida – aholini ro’yxatga olishga tayyorgarlik (*avvalgisi 1989-yilda o’tkazilgan*) va multi-indikator klaster tadqiqoti o’tkazish bor.

Ijobiy o’zgarishlar o’zini namoyon etmoqda. Amaldorlar so’zlarini real xatti-harakatlar bilan tasdiqlab qolmay, balki ishlar miqyosini ham ancha kengaytirmoqdalar. Misol uchun, avvalgi loyihalardan birida ham faqatgina bitta xalqaro reyting doirasida ancha katta maqsadlar belgilangan edi. Hozir esa ularning soni to’qqiztaga yetdi.

Biroq taqdim etilgan «yo’l xaritasi» loyihasi biroz qo’shimcha ishlov berishni taqozo etadi. Muallifning fikricha, mamlakatimiz har bir xalqaro reyting/indeks bo’yicha qanday maqsadlarga erishmoqchi ekanligini aniq raqamlarda ko’rsatgan ma’qul. Shunda ayrim xatti-harakatlarning amalda bajarilishi bilan emas, balki ayni prognoz parametrlari bilan bog’langan muddatlarni ham ko’rsatish mumkin bo’ladi. *Masalan: «dastlabki bosqichda O’zbekistonning Iqtisodiy erkinligi indeksini 8,5 bandga oshirib, 2018–2019-yillar davomida o’rtacha erkin iqtisodiyotga ega mamlakatlar guruhiga kirish» va h.k.*

Bu, birinchidan, vazifalar va ularni ijro etish muddatlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lish, ikkinchidan esa, mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishni monitoring qilish samaradorligini yanada oshirish imkonini berar edi.

Jumladan, so'nggi to'rt yil mobaynida mamlakatimiz Meros jamg'ar-masining «Iqtisodiy erkinlik» indeksida 52 pog'onaga, Jahon bankining «Logistika samaradorligi» indeksida 19 pog'onaga, «Biznes yuritish» indeksida 18 pog'onaga ko'tarildi.

O'zbekiston Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining «Mam-lakatlarga xos xatarlarni tasniflash» tizimidagi 6-guruh mamlakatlari qa-toridan 5-guruh mamlakatlari qatoriga ko'tarildi.

Shu bilan birga, ayrim rahbarlar reytinglar bilan ishlashga yetarlicha e'tibor qaratmayotganligi va xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkazilayot-gan so'rovlarda aksariyat islohotlar o'z aksini topmayotganligi oqibatida ustuvor xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasi quyi pog'onalarda qolmoqda.

13. 3. O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslar bo'yicha samaradorlikning eng muhim ko'rsatkichlarini oshirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar

Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va xalqaro maydondagi imijini mustahkamlash, davlat organlari va tashkilotlarida xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashning yangi mexanizmlarini joriy qilish, shuning-dek, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida qabul qilingan 2020-yil 2- iyunda «O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rmini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida»gi Prezident Far-moni ijrosini ta'minlash maqsadida turli nufuzli xalqaro reytinglardagi ko'rsatkichlarga mas'ul bo'lgan mutassadi vazirlik va idoralarga aniq topshiriqlar belgilab berilgan edi. Berilgan topshiriqlar natijasi ko'p kut-

tirmadi va Davlat statistika qo‘mitasi, Markaziy bank, Moliya vazirligi va boshqa vazirlik hamda idoralar veb-saytlarida barcha asosiy moliyaviy, ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar e‘lon qilib borila boshlandi. Bugungi kunda qo‘mita veb-saytida 20 ta bo‘limda 279 ta jadval ko‘rinishida 2 milliondan ziyod statistik ko‘rsatkichlar to‘plami joylashtirilgan.

2018-yildan boshlab Xalqaro valuta jamg‘armasining kengaytirilgan Ma‘lumotlarni tarqatishning umumiy tizimidagi 24 ta yo‘nalish bo‘yicha 422 turdagi O‘zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy statistik ko‘rsatkichlar to‘plamlari e‘lon qilinib bormoqda.

Xalqaro valuta jamg‘armasi talablari asosida O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha mavjud bo‘lmagan to‘lov balansi, xalqaro investitsiya pozitsiyasi, ichki va tashqi qarzlar, hamda boshqa qator statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirish yo‘lga qo‘yildi.

Onalar va bolalar turmush tarziga oid dolzarb sotsial statistik ma‘lumotlarni shakllantirish hamda e‘lon qilish maqsadida YUNISEF tashkiloti bilan hamkorlikda 2020–2021-yillarda «Multiindikator klaster kuzatuvlari»ni o‘tkazish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-iyul «2020–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasida multiindikator klaster kuzatuvlarini o‘tkazish to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi. Bugungi kunda mazkur tadbirga tayyorgarlik jarayonlari amalga oshirilmoqda, asosiy tadbir shu yilning birinchi yarmida o‘tkazilishi rejalashtirilgan .

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2015-yilda qabul qilingan 2030-yilgacha bo‘lgan davrda Barqaror rivojlanish maqsadlariga qo‘shilgan. Bu borada Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabr qarori bilan 16 maqsad, 125 ta vazifa tasdiqlanib, ularning ijrosi doirasida 206 ta indikatorning shakllanishi va e‘lon qilib borilishi belgilangan.

Davlat statistika qo‘mitasi, vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda ishlab chiqilib tasdiqlangan, 206 ta indikator to‘liq xatlovdan o‘tkazildi, 110 ta indikator bo‘yicha metama‘lumotlar ishlab chiqildi va tegishli veb-saytga joylashtirildi. Tasdiqlangan 206 ta indikatorndan bugungi kunda mavjud bo‘lgan 117 tasi bo‘yicha statistik ma‘lumotlar shakllantirilib, veb-saytda e‘lon qilindi. Milliy barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo‘yicha yillik to‘plam o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etildi hamda BMT taraqqiyot dasturi, YUNISEF, Jahon bankining mamlakatimizda-

gi vakolatxonalariga, BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi, Yevropa Ittifoqi vakolatxonalariga taqdim etildi. Mazkur to'plam BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi veb-saytida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari orasida birinchi bo'lib e'lon qilindi.

Prezidentimizning 2019-yil 5-fevralda qabul qilingan Farmoni bilan mamlakatimizda aholini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish belgilandi. Ayni paytda bu boradagi huquqiy asoslar yaratilib o'tgan yilning 6-martidan «Aholini ro'yxatga olish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni kuchga kirdi. Bundan tashqari, xalqaro darajadagi ochiqlikning asosiy mezonlaridan biri – ochiq ma'lumotlar milliy portali faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ham tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Natijada 60 dan ortiq davlat organlarining takliflari asosida 1473 ta ma'lumotni o'z ichiga olgan «Ochiq ma'lumotlar to'plami ro'yxati» yangilanib, tasdiqlandi va shu ro'yxat asosida ma'lumotlar muntazam yangilanib borilayotir. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portalida jami 10 mingdan ortiq ma'lumotlar to'plamlari 3 tilda (o'zbek, rus va ingliz tillarida) joylashtirilgan.


Bunday natijalar xalqaro tashkilotlar tomonidan ham munosib baholanayotir. Masalan, «Open Data Inception» tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, O'zbekiston 70 ta ochiq ma'lumot manbalari bilan ularning soni bo'yicha dunyo mamlakatlari orasida 6-o'rinni egallab turibdi. Yoki Londondagi Ochiq ma'lumotlar instituti (ODI) baholash tizimi bo'yicha «Kumush» (SILVER), Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti (stat.uz) eng yuqori – «Platina» (PLATINUM) darajaga erishgan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining «Elektron hukumat kuzatuvini 2020»da Ochiq davlat ma'lumotlari indeksi bo'yicha O'zbekiston eng yuqori (Very High OGDI) ko'rsatkichga ega bo'lgan jahonning 41 ta mamlakati orasidan joy olgan. Jami ushbu indeksda 193 ta mamlakat baholangan hamda O'zbekiston eng yuqori ball to'plagan.

Shuningdek, Ochiq ma'lumotlar reytingida (Open Data Inventory-ODIN) O'zbekiston Respublikasi 63 ball to'pladi va reytingda 125 ta pozitsiyaga ko'tarilib, dunyoda 44-o'rinni, Markaziy Osiyoda esa 1-o'rinni egalladi.

Yuqorida e'tirof etilgan tadbirlar samarasi Jahon bankining «Statistika salohiyati indeksi»da o'z aksini topdi va bugungi kunda mazkur

indeks doirasida 3 ta yoʻnalishdagi 25 ta indikatorning 20 tasi boʻyicha milliy axborot makonida va xalqaro tashkilotlarning axborot resurslarida statistik maʼlumotlar va ularning metodologik asoslari eʼlon qilinishiga erishildi.



2020-yilning 3-avgustida «Oʻzbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi Prezident qarori qabul qilinishi bilan milliy statistika tizimini taraqqiy toptirishning yangi bosqichiga qadam qoʻyildi. Negaki, mazkur qaror bilan mamlakatimiz tarixida ilk bor statistika tizimini takomillashtirish boʻyicha ishlar uchun dasturilamal boʻlib xizmat qiluvchi 2020–2025-yillarda statistikani rivojlantirishning milliy strategiyasi tasdiqlandi. Strategiyada 6 ta yoʻnalish boʻyicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan boʻlib, uni amaliyotga joriy etish maqsadida 200 dan ziyod tadbirlarni oʻz ichiga oluvchi “Yoʻl xaritasi” qabul qilindi. Shuningdek, qaror bilan strategiyani amalga oshirish barobarida, Jahon bankining «Statistika salohiyati indeksi»da mamlakat pozitsiyalarini yaxshilab borish borasida aniq tadbirlar belgilangan va erishiladigan natijalar boʻyicha maqsadli koʻrsatkichlar tasdiqlangan.

Taʼkidlash joizki, soʻnggi uch yil davomida amalga oshirilgan ishlar oʻz samarasini koʻrsatdi. 2020-yil yakuni boʻyicha mamlakatimiz jahon bankining «Statistika salohiyati indeksi»da maksimal 100 balldan 67,8 ballni (reja ijrosi taʼminlandi) qoʻlga kiritib, reytingda 61-oʻrinni egalladi. Natijada reytingda 2016-yil hisobotiga nisbatan 62 pogʻonaga, 2019-yil hisobotiga nisbatan esa 16 pogʻonaga koʻtarilishga erishildi. Umuman 2021–2025-yillar davomida strategiya doirasida belgilangan chora-tad-

birlarni amalga oshirish orqali, O‘zbekiston Jahon bankining «Statistika salohiyati indeksi»dagi ko‘rsatkichlari bosqichma-bosqich yaxshilanib boriladi va 2025-yilga borib 94 ballni qo‘lga kiritgan holda reytingda birinchi 10 talikda joy olishga erishiladi.

Maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish uchun kelgusida quyidagi muhim yo‘nalishlarda tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

2021-yilda xalqaro tashkilotlar, shu jumladan, BMT va Yevropa iqtisodiy komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan «Rasmiy statistika to‘g‘risida»gi model qonuni talablari asosida «Rasmiy statistika to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini qabul qilish;

Xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda tizim faoliyatiga sifatni boshqarishning ilg‘or tizimlarini (GSIM, GSBPM, GAMS0 va NQAF) joriy etish;

2021-yil oxirigacha Multiindikator klaster kuzatuvlari (MIKS) natijalarini qo‘mitaning rasmiy sayti va YUNISEFning axborot bazasida e‘lon qilish;

MDH Davlatlararo statistika qo‘mitasi bilan hamkorlikda O‘zbekistonning 2021-yil ma‘lumotlari bo‘yicha xalqaro taqqoslashlar dasturida ishtirokini ta‘minlash natijalari asosida milliy valutaning xarid qobiliyati paritetini aniqlash va e‘lon qilish;

iste‘mol narxlari kuzatuvida qo‘llaniladigan tovar va xizmatlar tasniflagichini xalqaro standartlarga to‘liq muvofiqlashtirish maqsadida HVJ tomonidan tavsiya etilgan «Maqsadlar bo‘yicha shaxsiy iste‘mol tasniflagichi» talablarini joriy etish;

2022-yilda Xalqaro valuta jamg‘armasining kengaytirilgan Ma‘lumotlarni tarqatishning umumiy tizimidan (k-MTUT) Ma‘lumotlarni tarqatishning maxsus standartiga (MTMS) o‘tish;

ro‘yxatga olish tadbiri (aholi, qishloq xo‘jaligi va biznesni ro‘yxatga olish) natijalarini qo‘mitaning rasmiy saytida e‘lon qilish;

xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiya etiladigan maxsus kuzatuvlarni (YUNISEF-Multiindikator klaster kuzatuvlari, Xalqaro mehnat tashkiloti – ishchi kuchi kuzatuvlari, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti–Demografiya va sog‘liqni saqlash kuzatuvlari) muntazam ravishda o‘tkazish va natijalarini tegishli idoralar rasmiy saytlarida joylashtirib borish;

veb-texnologiyalarga asoslangan holda hisobotlarni elektron shaklda

onlayn tarzda qabul qilishning zamonaviy avtomatlashtirilgan axborot tizimi (Estat-4,0)ni barcha turdagi statistik hisobotlar bo'yicha to'liq ishga tushirish;

barcha turdagi tanlanma statistik kuzatuvlarni o'tkazish jarayonlariga CAPI, ya'ni maxsus qurilmalar – planshetlarni to'liq joriy etish;

o'zgarishlar va erishilayotgan natijalar xususida, Jahon banki mutasaddilarini xabardor qilib borish.

Yuqoridagi rejalashtirilgan tadbirlar ijrosi, shak-shubhasiz, mamlakatimizda zamonaviy talablar va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan, taraqqiy etgan ilg'or milliy statistika tizimini shakllantirishga va o'z navbatida, Jahon bankining "Statistika salohiyati indeksi"dagi ko'rsatkichlarimiz va shu asosda tuziladigan reytingdagi pozitsiyamiz yaxshilanib borishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, so'nggi yillarda «O'zbekiston Respublikasi-ning xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy etish» borasidagi davlat siyosati, huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi, mazkur yo'nalishdagi ishlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlar keng ko'lamli bo'lib, birinchi navbatda respublikada olib borilayotgan islohotlarning natijasini jahon miqyosida e'tirof etishga qaratilgan bo'lsa, eng asosiysi bu harakatlar xalqning farovonligi va turmush tarzining yaxshilanishi va haq-huquqlarini himoya qilinishi tizimining yanada yuqori saviyaga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

Bu jarayonda O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlar nafaqat ichki tartib-qoidalar, ya'ni tegishli hukumat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan, balki jahonda tan olingan xalqaro reyting va indekslarning (mustaqil) identifikatorlaridagi reytinglari asosida baholanib boriladi.

Bu esa o'z navbatida O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonini tezlashtirishga, dunyo miqyosida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalarda olib borilayotgan islohotlarning amaldagi natijalarini yaqqol ko'rsatishga xizmat qilib, rivojlangan davlatlarning respublikaga turli ko'rinishdagi investitsiyalar kiritish imkonini kuchaytiradi.

Nazorat savollari:

1. Xalqaro reyting va indekslar haqida ma'lumot bering.
2. O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash borasidagi davlat siyosati, qabul qilingan huquqiy-normativ hujjatlar haqida nimalarni bilasiz?
3. O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini oshirish uchun olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida qanday natijalarga erishish mumkin?
4. Nechanchi yilda «O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident qarori qabul qilindi?
5. Nechanchi yillarga mo'ljallangan statistika tizimini takomillashtirish bo'yicha ishlar uchun dasturilamal bo'lib xizmat qiluvchi statistikani rivojlantirishning milliy strategiyasi tasdiqlandi?

GLOSSARIY

AVTONOMIYA (yun. autos – o‘zim, nomos – qonun) – muxtoriyat –mamlakat tarkibidagi biror hududning konstitutsiya bilan kafolatlangan o‘z-o‘zini boshqarish huquqi.

AVTORITARIZM (lot. auctoritas – hokimiyat) – davlatni idora qilish usuli. Avtoritarizmda siyosiy hokimiyat hukmdor shaxsning yoki yetakchining siyosiy irodasi va qarorlari asosida amalga oshiriladi. Avtoritarizm siyosiy hokimiyat shakli sifatida avtokrariya va diktatura bilan uyg‘unlashib ketadi. Atama Frankfurt maktabi vakillari tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Avtoritarizm haqiqiy demokratiyaning yo‘qligini anglatadi.

AGRAR SIYOSAT – davlatning qishloq xo‘jalik sohasidagi faoliyati bo‘lib, u qishloq xo‘jaligini, yer mulkchiligini va h.k. rivojlantirish yo‘llari masalalarini hal qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosatning bir turi.

AGROSANOAT INFRATUZILMASI – bevosita qishloq xo‘jaligi va uning mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalariga xizmat ko‘rsatuvchi sohalar

AGRASANOAT MAJMUASI – qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va iste‘molchilarga yetkazish bilan shug‘ullanuvchi xo‘jaliklar yaxlitligi.

AN‘ANALAR – jamiyat hayoti turli sohalarining, moddiy va ma‘naviy faoliyat shakllarining, kishilar o‘rtasidagi aloqalar va munosabatlarning avloddan avlodga o‘tishi, ajdodlar hayoti, belgilari va xususiyatlarining takrorlanish tarzi. An‘analar xalqlarning tarixiy rivojlanishi jarayonida shakllanadi va sayqallanadi. Davr talabiga javob bergan an‘analar unutilmaydi, avlodlarga meros bo‘lib qoladi, xalq hayotining tarkibiy qismiga aylanadi.

BAYNALMILALCHILIK (internatsionalizm; arabcha «baynalmilal» – millatlararo) – jahondagi barcha millat va elatlarning tengligi, hamjihatligi nazariyasi va amaliyoti. Xalqlar, millatlar, elatlar, davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarning har bir inson, har bir ijtimoiy guruh yoki tabaqaning manfaatlariga monandligiga erishish – umumbashariy vazifalardan biridir.

BARQARORLIK (ijtimoiy jamiyatdagi) – tinchlik, osoyishtalik va ijti-

moiy mehnat muhiti qat'iy, uzil-kesil hamda mustahkam o'rnatilgan muhim sharoit. Barqarorlik har qanday bunyodkorlik faoliyatining zamini va zaruriy shartidir. Insoniyatning shu kunlargaacha kechirgan tarixi – barqarorlik va beqarorlikdan (ya'ni sinfiy, harbiy, qabilaviy va guruhiy qarashlar, to'qnashuvlar, shafqatsiz urushlar sahifalaridan) tarkib topgan.

BOZOR IQTISODIYOTI – jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar majmuyi. Bozor iqtisodiyotining mohiyati shundan iboratki, u barcha jamiyat a'zolarini ishlab chiqarish va iste'mol orqali doimiy hamda to'xtovsiz musobaqaning ishtirokchilariga aylantiradi, shu boisdan bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishning kun sayin takomillashuviga, mahsulot sifatining yaxshilanib borishiga, miqdorining esa ko'payishiga sababchi bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti xalqning, ommaning ijodiy va mehnat imkoniyatlarini yuzaga chiqarib, tadbirkorlik va ishbilarmonlikka yo'l ochadi, mulkka egalik qilish qoidalarini takomillashtiradi, unga turtki beradi. Bozor sharoitida talab va takliflarning miqdori va tarkibi bir-biriga muvofiq kelishi ta'minlanadi. Ishlab chiqarishning iste'molchi ustidan hukmronlik qilishiga chek qo'yiladi, buning uchun fan yutuqlari hayotga va ishlab chiqarishga tatbiq etiladi, texnikaviy va texnologik yangilanishning eng zamonaviy usullaridan foydalaniladi.

BOZOR IQTISODIYOTIGA BOSQICHMA-BOSQICH O'TISH – ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotini xo'jalik faoliyatining markazlashuvini yo'qotish, narxlar va tashqi iqtisodiy aloqalarni bosqichma-bosqich erkinlashtirish bilan bog'liq chora-tadbirlar asosida isloh qilish.

BOZOR INFRATUZILMASI – tovar va xizmatlarning ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazib berilishini ta'minlashga qaratilgan tarmoqlar va faoliyat sohalari yig'indisidan iborat. Bozor infrastrukturasi rivojlanishi mablag'larning iqtisodiyotda aylanishining tezlashuviga, yangidan yaratilgan mahsulotlar realizatsiyasini tezroq amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bozor infratuzilmasi vujudga kelishi bilan bozor munosabatlarining rivojlanishi, jamiyatda bozor iqtisodiyotining qaror topishiga qulay sharoit vujudga keladi.

VATAN (arabcha «vatan» – ona yurt) – inson yashab turgan, unib o'sgan joy, hudud, ijtimoiy muhit, mamlakat. Insonning kindik qoni to'kilgan tuproq, uni kamol toptiradigan, hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan tabarruk maskandir. U ajdodlardan avlodlarga qoladigan buyuk meros, eng aziz xotira.

VATANPARVARLIK – kishining o‘zi tug‘ilib o‘sgan, kamol topgan joy, zamin, o‘lkaga bo‘lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma‘naviy-axloqiy xislatlari, fazilatlaridir.

VILOYAT – 1. Mamlakatning poytaxtdan yiroqdagi chekka o‘lkasi. 2. Yirik ma‘muriy-hududiy bo‘linma.

VODIY – 1) daryo bo‘ylab cho‘zilgan yoki tog‘lar orasidagi keng tekislik; 2) umuman ekin ekiladigan, obod yer.

VOHA – sahro bilan o‘ralgan obod, suvli o‘lka.

GEOSIYOSAT – davlatlar tashqi siyosatni amalga oshirishga geografik omillar (davlat egallab turgan hududning qulayligi yoki noqulayligi, katta yoki kichik ekanligi, dengizga yaqinligi, tuproqining serhosilligi, tog‘ va dasht-cho‘llarning ko‘p-kamligi va hokazolar) alohida urg‘u berish. Geosiyosat nazariyasiga binoan, millat va davlatning tabiati, fe‘l-atvori ularning geografik joylashganligiga bog‘liq. Bu fikrlarni inkor etib bo‘lmaydi. Ammo geosiyosat g‘oyalardan foydalanib XVIII–XIX asrlarda mustamlakachi davlatlar o‘z bosqinchilik siyosatlarini amalga oshirdilar va geosiyosat nuqtayi nazaridan o‘zlariga eng qulay sharoitlarni yaratishga harakat qildilar.

GERB (pol. hyerb, nem. yerbe – meros so‘zidan) – biron-bir mamlakat yoki hududning siyosiy va tarixiy xarakterdagi g‘oyalari majmuasini, o‘ziga xos tabiiy va xo‘jalik xususiyatlari, tabaqaviy tafovutlarini, shaxs, urug‘ va b.ning shajaralarini ifodalovchi alohida ramziy belgi. Gerblar quyidagi tur va toifalarga bo‘linadi: davlat gerblari, shahar, viloyat, guberniya va boshqalarning gerblari va h.k.

GIMN (yunon. hymnos) – tantanavor qo‘shiq, she‘r. Yunonistonda davstlab afsonaviy xalq qahramonlari, xudolar sha‘niga maqtovlar (hamdlar) tarzida vujudga kelgan. Keyinchalik shaxslar, davlatlar, voqea va hodisalarga ham bag‘ishlangan Gimnlar paydo bo‘lgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Gimni.

DAVLAT – hokimiyat organlari va siyosiy tashkilotlar tizimiga ega bo‘lgan mamlakat. Jamiyatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalari, ulardagi jarayonlarni shakllantiradigan, rivojlantiradigan, boshqaradigan va millatni taraqqiyotning yuqori bosqichiga o‘tib o‘tishini ta‘minlaydigan siyosiy tashkilotidir.

DAVLATCHILIK – bosh siyosiy hokimiyat va unga bo‘ysunuvchi boshqaruv tizimi bo‘lib, bu tizim jamiyatning barcha, ya‘ni siyosiy, ijtimoiy,

iqtidosiy va madaniy sohalarini o'z ichiga oladi. Davlatchilik azaliy va abadiy mavjudlik emas.

DEMOKRATIYA – xalq «kratos» – hokimiyat, ya'ni «xalq hokimiyati» degan ma'noni anglatadi. Demokratiya shaxs bilan jamiyat, jamiyatda mavjud manfaatlar, munosabatlarning uyg'unligini, shaxs erkinligini ta'minlovchi va uni tartibga soluvchi omildir. Umuman, barchaning manfaatlari yo'lida ko'pchilikning hokimiyati va ozchilikning irodasini hurmat qilish.

DIN (arabcha «din» – e'tiqod, ishonch) – ijtimoiy hayotni, voqelikni, uning hodisalarini o'ziga xos tarzda in'ikos ettiruvchi ijtimoiy ong shakllaridan biri. Din ibtidoiy jamoa tuzumi davrida vujudga kelgan va o'sha davrda yashagan insonlarning dunyoqarashini aks ettirgan. Din dunyo, inson, mavjudotlarning kelib chiqishini, hayotning mazmuni va ma'nosi, insonning yashashdan maqsadlari kabi savollarga o'zicha javob beruvchi dunyoqarash shakli bo'lib kelgan. Hozirgi davrda ham insoniyatning talay qismi uchun din ushbu vazifani bajarib kelmoqda.

DIKTATURA – davlat hokimiyatini nodemokratik usullar bilan amalga oshirish tizimini ifodalovchi tushuncha, avtoritar yoki totalitar rejim. Diktaturaga asoslangan siyosiy rejimda hokimiyat bir shaxs – diktator yoki bir necha shaxslarning qo'lida markazlashadi, siyosatda zo'rvonlik va terror kuchayadi. diktatura o'rnatilganligi diktatorlik hokimiyatining cheklanmaganligi va nazoratsizligi, Konstitutsiya e'lon qilgan demokratik huquqlar va erkinliklar toptalishi, vakillik organlarining huquqlari cheklanishi bilan ajralib turadi. Hokimiyat to'g'ridan to'g'ri zo'rvonlikka tayanadi. Odatda, yirik ijtimoiy guruhlar diktaturani ifoda etuvchi kuch sifatida namoyon bo'lsada, u bir shaxs yoki bir guruh shaxslarda mujassamlashadi (qadimgi Rimda harbiy boshliqlar diktaturasi va triumviratlar, mutloq monarxlar, hozirgi avtoritar tuzumlar, xuntalar va h.k.). biron-bir davlatda diktatura o'rnatilishi, odatda, ichki o'zaro kurash g'oyat keskin tus olgan davrlar bilan bog'liq bo'lgan (mas., Ispaniyada Franko diktaturasi, natsistlar Germaniyasida fashistlar diktaturasi, sobiq sho'rolar davrida Stalin diktaturasi va b.).

JADID – jadidchilik tarafdori, jadidchilik harakatining qatnashchisi. Usuli jadid eski maktabdagi tartib va o'qitish usullari o'rniga jadidlar joriy qilgan yangi tartib va ta'lim-tarbiya usulini joriy qilgan; bu usul jumladan, xat-savod chiqarishda hijl tizimi o'rniga tovush tizimini kiritgan.

JADID MAKTABLARI – eski musulmon diniy maktablarini isloh qilib, yangicha usulda ta’lim bergan va jadidchilik g’oyalari ilgari surgan maktablar. Bu maktablarda diniy darslar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlar ham o’qitilar edi. Bunday maktablar dastlab 1893-yili Samarqandda, so’ng Farg’ona vodiysida, Toshkentda mahalliy o’zbek boylarining paxta zavdlari qoshida ochilgan.

ISLOM – dunyoda tarqalgan dinlardan biri bo’lib, unga e’tiqodda bo’lganlar musulmonlar deb ataladi. Islom dini yagona xudo – Allohga e’tiqod qiladi.

IJTIMOIIY SIYOSAT – 1) daromadlarni taqsimlashda iqtisodiyot qatnashuvchilari o’rtasida tengsizlik natijasida vujudga keladigan ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan davlatning chora-tadbirlaridan iborat; 2) bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni iqtisodiyot qatnashuvchilari o’rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo’naltirilgan siyosat; 3) davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni yumshatishga va bozor iqtisodiyoti qatnashuvchilari o’rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlari.

IJTIMOIIY TARAQQIIYOT – 1) jamiyat (individlari emas), balki barcha a’zolari ning taraqqiyoti; 2) jamiyat sohalaridan biri (ijtimoiy-iqtisodiy birlikning bir tomoni) taraqqiyoti.

IMPERIYA (lot. imperium – hokimiyat) – 1) imperator boshqargan monarxiya davlatning nomi; ba’zi qadimgi zamon (Rim imperiyasi), o’rta asr (“Muqaddas Rim imperiyasi”) yirik monarxiya davlatlari ham imperiya deb atalgan. Podsho Rossiyasi Pyotr I davri (1721) dan Romanovlar hokimiyati ag’darilguniga qadar (1917), Fransiya Napoleon I (1-imperiya) va Napoleon III (2-imperiya) davrida, Avstriya 1804–1914-yillarda (1868 yildan Avstriya-Vengriya), Germaniya (1871-yildan 1918-yil inqilobiga qadar) imperiya bo’lgan; 2) mustamlakalari bo’lgan yirik davlatlar. Masalan, Buyuk Britaniya dominion va mustamlakalari bilan birga Britaniya imperiyasini tashkil etgan.

INAUGURATSIYA (lot. inaugro – bag’ishlayman) – davlat boshlig’ining shu oliy lavozimni bajarishga kirishishi munosabati bilan o’tkaziladigan tantanali marosim.

INTEGRATSIYA (lot. integratio, integer – butun so’zidan olingan) – biror-bir qism va elementlarni bir butunga birlashtirish, iqtisodda xo’jalik hayotini internatsionalizatsiyalashning oliy formasi bo’lib, bunga xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashtirish obyektiv ravishda sabab bo’ladi. U

turli mamlakatlarning o‘zaro yaqinlashuvida va ularning korxonalari, tarmoqlari, hatto milliy iqtisodning yagona xo‘jalik organizmiga birlashuvida ifodalanadi hamda bu jarayonni tartibga solib turuvchi iqtisodiy siyosatdir.

INNOVATSIYA LOYIHALARI – bunday loyihalarning asosiy maqsadi, yangi texnologiyalar, nau-xay va korxonalarining rivojlanishini ta‘minlab beruvchi boshqa ishlab chiqish va boshqalardan iborat.

INNOVATSION SIYOSAT – mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish barqaror, iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash, aholining turmush sifati va darajasini oshirish, texnologik va ekologik xavfsizligini ta‘minlash uchun innovatsion faoliyat ustuvorliklarini tan olishdan kelib shakllantiriladi va amalga oshiriladi.

INSON OMILI – ishlab chiqarish, uni rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha mehnatkashlarning ko‘p qirrali faoliyati inson ishlab chiqarish vositalarini yaratadi va jonlantiradi, ularni ishlab chiqaruvchi kuchlarning elementiga aylantiradi, shu bilan bir qatorda jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir. Ayni paytda inson ishlab chiqaruvchi munosabatlarining va barcha ijtimoiy munosabatlarning subyektidir. Ko‘pgina omillar, ayniqsa, fan-texnika taraqqiyoti ta‘sirida insonning o‘zi ham takomillashib boradi va ishlab chiqarishning birdan bir maqsadi sifatida har doim bosh omil bo‘lib xizmat qiladi.

INSONPARVARLIK («inson» – arabcha; «parvar» – fors-tojikcha; «lik» – o‘zbekcha – kishiga g‘amxo‘rlik, gumanizm) – odamzodning qadri, uning erkinligi, qobiliyatlari har tomonlama namoyon bo‘lishi uchun kurashish, insonning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotini ta‘min etishga intilish, insoniylikning barcha tamoyillari yuzaga chiqishiga shart-sharoitlar yaratish ma‘nosini anglatadi.

IRODA – arabcha so‘z bo‘lib, lug‘aviy jihatdan xohish, istak, maqsad ma‘nolarini bildiradi. O‘zini tuta bilishlik, dadillik, qat‘iylik, chidam, toqat, izchillik va shu kabi fazilatlar irodaning muhim sifatlaridir.

INSON HUQUQLARI – har bir insonning huquqlar va imtiyozlarini ta‘minlash. BMT inson huquqlari Deklaratsiyasi 1948-yilda qabul qilingan. U insonlar yashash, erkinlik va o‘qish huquqiga ega ekanligini, barcha millatlar teng ekanligini va qonun oldida barcha barobar ekanligini e‘lon qildi.

IQTISODIY JARAYONLAR – kishilarning inson sifatida yashamoqlari uchun zarur bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish maqsadida yashash vositalarini, ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol qilish faoliyatlarining namoyon bo‘lishi.

IQTISODIY MANFAAT – 1) bu iqtisodiy ehtiyojlarning aks etish shakli; 2) bu iqtisodiy ehtiyojlarning namoyon etish shaklidir.

ISTIQLOL – o‘zaro hurmat, bir-birini tan olish, bir-birini qadrlash asosida mamlakat fuqarolari, o‘zaro munosabatida ham, jahon davlatlari o‘rtasidagi aloqalarda ham ana shu umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, ana shu umumiy mezonlar asosida yashash demakdir. Mustaqillik – jamiyatdan ajralmagan holda dunyo muammolari va o‘z taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan istiqbol haqida o‘ylashdir. Istiqlol – erkin dunyoqarash, erkin tafakkurga suyanib yashash salohiyatidir.

KADRLAR DESANTI – respublikaning o‘zida ko‘plab malakali va salohiyatli kadrlar bo‘lishiga qaramasdan, sobiq markaz 80-yillarda SSSRning turli mintaqalaridan O‘zbekistonga ishni bilmaydigan, faqat bu yerdagi imkoniyatlardan foydalanib, davr-u davron surishni o‘ylaydigan odamlarni yubordi. Ular xalqimiz o‘rtasida «desantchi»lar deb nom oldi.

KOMIL INSON – dunyoviy va diniy bilimlarning ilg‘or namoyandalari qarashlariga ko‘ra insondagi komillik aqliy, ma‘naviy, ruhiy, axloqiy yetuklik bo‘lib, komillikka erishishning yo‘li – ilm-u ma‘rifatga, fazl-u kamol kasb etishga, salbiy xislatlar, nuqsonlardan xalos bo‘lishga va o‘zgalarga yordam berishga intilishdir.

KOALITSIYA (lot. coalition – ittifoq) – 1) xalqaro munosabatlarning ayrim masalalarida birgalikda ish ko‘rish haqida o‘zaro ahdlashgan davlatlarning siyosiy yoki harbiy ittifoqi (mas., davlatlarning 2-jahon urushidagi gitlerchilarga qarshi koalitsiyasi); 2) bir necha siyosiy partiyalarning shu partiyalar vakillaridan iborat hukumat tuzish to‘g‘risidagi kelishuvi; 3) 2001-yil 11-sentabr voqealaridan keyin Afg‘onistondagi tolibonlarga qarshi AQSH boshchiligida tuzilgan koalitsiya, unda O‘zbekiston Respublikasi ham ishtirok etgan.

KONSTITUTSIYA (lot. constitutio – tuzilish, tuzuk) – davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradi. Konstitut-

siya barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanadi. Davlat faoliyatining turli sohalarida Konstitutsiyaga rioya qilinishini nazorat etish oliy sud yoki Konstitutsiyaviy sud zimmasiga yuklanadi. Konstitutsiya atamasi qad.Rim-dayoq bor edi (imperator Konstitutsiyasi deb atalgan qonun). Yevropadagi tarixiy taraqqiyot hozirgi kunda amalda bo'lgan Konstitutsiyalarning 2 guruhini vujudga keltirdi. 1-guruh – hozirgi zamon sharoitlaridan keskin farq qiluvchi sharoitlarda qabul qilingan eski Konstitutsiyalar. Bu xildagi Konstitutsiyalarga 1787-yilgi AQSH Konstitutsiyasi, 1831-yilgi Belgiya Konstitutsiyasi, 1874-yilgi Shveysariya Konstitutsiyasi misol bo'la oladi. 2-guruhga XX asrning 2-yarmida qabul qilingan “yangi avlod” Konstitutsiyalari kiradi. Ular dastlabki Konstitutsiyalardan huquq va erkinliklar institutining; Konstitutsiyaning himoya qilish mexanizmlari va ijtimoiy muammolariga murojaat etish mexanizmlarining kengayishi natijasida Konstitutsiyaviy tartibga solish hajmining ko'payishi bilan farq qiladi.

MADANIY MEROS – o'tmish davrlardan insoniyatga qolgan moddiy va ma'naviy madaniyat boyliklari mavjud.

MADANIYAT (arabcha «madina» – so'zidan olingan bo'lib, ma'nosi shahar degani. «Madaniyat» shahar turmush tarzini bildiradi. Shahar aholisining turmush tarzi patriarxal, qabilaviy hayot kechirayotgan badaviy arablar umrguzaronligidan yuqori bo'lgani bois madaniyat yuqori saviyadagi hayotni bildiradi. Madaniyatning yuqori darajasi “tamaddun” – sivilizatsiyani bildiradi.

MAFKURA (arabcha «mafkura) – fikrlar, nuqtayi nazarlar va e'tiqodlar tizimi, majmuyi), muayyan bir ijtimoiy guruh yoki millatning tub manfaatlarini nazariy asoslovchi va himoya qiluvchi falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, go'zallikka doir, badiiy qarashlarning butun bir tizimi.

MA'NAVIYAT (arabcha «ma'naviyat» – ma'nolar majmuyi) – kishilarning falsafiy, huquqiy, estetik, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmuyi. Ma'naviyat mafkura, tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir-birlarini taqozo etadi.

MILLAT (arabcha «millat» – xalq) – kishilarning yagona tilda so'zlashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo'lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birligi.

MILLIY ONG – har bir millat yoki elatning bevosita uzoq tarixiy etnogenez davri, turmush tarzi, iqtisodiy ishlab chiqarish usuli, diniy e'tiqodlari, madaniya-

ti, boshqa xalqlarning bevosita ta'siri tufayli shakllangan dunyoqarashi, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy sohalarida faollik darajasi.

MILLIY O'Z-O'ZINI ANGLASH – har bir millat (elat)ning o'zini haqiqiy mavjud subyekt, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarni ifodalovchi ekanligini, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiyligini tushunib yetishiga milliy o'z-o'zini anglash deyiladi.

MODERNIZATSIYALASH (fransuzcha «moderne» – eng yangi zamonaviy) – biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirish. Modernizatsiyalashda mashina apparat, turli texnologik qurilmalar, muhim kashfiyotlar texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq qayta ishlanadi.

MARKETING XIZMATI – marketing faoliyatini amalga oshiruvchi boshqarishning tuzilma shakli. Korxonani boshqarishdagi muhim funksional bo'g'in bo'lib, u boshqa xizmatlar bo'linmalar (ishlab chiqarish, moliyaviy, texnologik va h.k.) bilan hamkorlikda bozor talabini qondirish va shu asosda foyda olishga yo'naltirilgan yagona integratsion jarayonni tuzadi.

MASOFAVIY TA'LIM – 1) o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri, shaxsiy aloqasiz “masofadan o'qitish” imkonini yaratib beruvchi zamonaviy axborot telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanishga asoslangan o'qitish jarayonini amalga oshirishning yangi uslubi; 2) bu asosiy ishdan uzilmagan holda ta'lim muassasasidan masofada ta'lim va kasb-hunar dasturlarini o'zlashtirishdir. Masofaviy ta'lim zamonaviy axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya vositalaridan foydalanishga asoslanadi.

MUSTAQILLIK – davlatning ichki va tashqi ishlarida boshqa davlatlarga qaram bo'lmay faoliyat ko'rsatishi. Mustaqillik tamoyillariga rioya etish davlatlararo o'zaro munosabatlarda yetakchi, hukmron qoidadir. Har bir davlatning mustaqilligini tan olish – o'zaro tinch-totuv yashashning prinsiplaridan biri. U BMT Ustavi va xalqaro shartnoma va deklaratsiyalarda mustahkamlab qo'yilgan.

PALEOGRAFIYA – qadimgi qo'lyozmalar yozuvini va ularning tashqi ko'rinishini o'rganadigan fan.

PUL KREDITI SIYOSATI – davlat tomonidan iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida pul muomalasini tashkil etish barqarorligi uchun amalga oshiriladigan barcha chora-tadbirlar majmuyi.

PROGRESS (lotincha progressus – oldinga harakatlanish) – rivojlanishning quyidan yuqoriga boradigan yo‘nalishi. Progress tushunchasi butun bir sistemaga, uning ayrim elementlariga nisbatan ham qo‘llaniladi. Progress regresning aksi. “Progress” tushunchasi dastlab, asosan, jamiyat tarixiga nisbatan qo‘llanilgan. qadimgi dunyoda ko‘pchilik olimlar jamiyat tarixini voqealarning shunchaki oddiy takrorlanishi, davra bo‘ylab (Platon, Aristotel) hatto “oltin davr”dan quyiga qarab harakatdan iborat deb bilganlar. Uyg‘onish davrida ijtimoiy munosabatlar va fanning nisbatan tez rivojlanishi bilan progressning ilm sohasida mavjudligi haqida fikrlar mavjud bo‘la boshladi (F.Bekon, R.Dekart). Keyinchalik progress tushunchasi ijtimoiy munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etila boshlandi.

PROFILAKTIKA – turli xil xavflar, ya‘ni texnogen, epidemologik, tibbiy, diniy-ekstremistik tahdidlardan odamlarni muhofaza etish choralarini ko‘rish, ekstremistik, ya‘ni yot g‘oyalardan muhofazalanishning eng samarali choralaridan biri – bu odamlarning bandligini kafolatli ta‘minlash, dunyoqarashini boyitib o‘zgartirish, hamkorlik qilish, pozitiv baholovchilik fazilatini shakllantirish orqali ularni ijtimoiy foydali hayotga integratsiya qilishdir.

PORTAL – lotincha “eshik”, “darvoza” degan ma‘nolarni ifoda etadi. Yana bir ma‘nosi – yopiqlik emas, hamisha ochiqlik ma‘nosini, ya‘ni ochik turuvchi eshiklar ma‘nosini ham anglatadi. Shuningdek, “portal” so‘zi Vatanimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning hozirgi davrida aholining muammolari, ariza va shikoyatlari, taklif va murojaatlarini doimiy ravishda qabul qilib oluvchi hamda munosabat bildiruvchi muassasa ma‘nosini ham bildiradi. Portal so‘zi, xalqimiz ma‘naviyati, muloqot tizimida adolatni muqarrar o‘rnatishga qodir bo‘lgan qadrlil atamaga aylandi.

OMMAVIY MADANIYAT – hozirgi globallashuv davrida insoniyatga, ayniqsa yoshlarga ma‘naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o‘zida mujassamlashtirgan, axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik, individualizm, egosentrizm g‘oyalarini tarqatish va shuning hisobidan boylik orttirishga qaratilgan «ommaviy madaniyat» tahdid solmoqda. «Ommaviy madaniyat» xalqning o‘zligi va madaniyatini yo‘qotishga, uni xalqni xalq, millatni millat qilib turgan asoslardan, ya‘ni ming yilliklar mobaynida shakllanib, rivojlanib kelayotgan madaniy, ma‘naviy, ma‘rifiy, axloqiy va ruhiy an‘analar, qadriyatlar hamda tamoyillardan begonalashtirishga qaratilgan xurujdir.

RESPUBLIKA (lotincha “res” – ish va “publikus” – ijtimoiy: umum-xalq ishi) – davlatni boshqarishning asosiy shakllaridan biri. Boshqarishning respublika shakli oʻrnatilgan mamlakatlarda davlat hokimiyatining oliy organlari muayyan muddatga saylanib qoʻyiladi.

Tarixda respublikaning har xil turlari boʻlgan. Qadimgi Yunoniston va oʻrta asrlar davridayoq, ayrim davlatlar, boshqarish shakliga koʻra, aristokratik yoki demokratik respublika shaklida boʻlganlar. Hozirgi davrda respublikaning uchta asosiy turi mavjud. Prezidentlik respublikasi (AQSH, Argentina, Braziliya, Keniya, Venesuela, Gvatemala, Zambiya, Kolumbiya, Meksika, Paragvay, Peru, Salvador)ning oʻziga xos xususiyatlari: unchalik rivojlanmagan yoki rivojlanmagan koʻppartiyaviylik tizimining tarkib topganligi: prezident bir vaqtning oʻzida davlat va hukumat boshligʻi ekanligi: prezidentning bevosita xalq yoki maxsus tashkil etilgan kollegial organ tomonidan saylanishi: prezidentning parlamentdan mustaqilligi.

Parlamentar respublikasida (Germaniya, Italiya, Hindiston, Avstriya, Albaniya, Bangladesh, Isroil, Polsha, Ruminiya, Turkiya) koʻppartiyaviylik tizimi rivojlangan boʻlib, mamlakat aholisi davlat hokimiyatining oliy qonun chiqaruvchi organi – parlament deputatlarini muayyan muddatga saylaydi: parlament saylovlarida gʻalaba qozongan partiya rahbarlari hukumatni tuzadilar, agar hech bir partiya vakillari parlamentda koʻpchilik oʻrinlarni ololmasa, koalitsion (aralash) hukumat tashkil qilinadi: davlat boshligʻi prezident parlament tomonidan saylanadi: hukumat boshligʻi bosh vazir boʻlib, real hokimiyat uning qoʻlida toʻplanadi: hukumat parlament oldida javob beradi; hukumat tarkibini parlament belgilaydi, hukumat qarorlariga oʻz taʼsirini koʻrsatadi, butun hukumatini yoki uning ayrim aʼzolarini isteʼfoga joʻnatadi.

Aralash respublikada (Fransiya, Rossiya) prezidentlik va parlamentar respublikalarning asosiy xususiyatlari birgalashib oʻz aksini topadi. Uning xususiyatlaridan biri shundaki, prezident bilan hukumat oʻrtasida toʻgʻridan toʻgʻri yuridik aloqa zaifdir. Prezident bevosita xalq tomonidan muayyan muddatga saylanadi. U bevosita hukumatga rahbarlik qilmaydi. Hukumatni bosh vazir boshqaradi. Parlament va hukumat oʻrtasida kelishtirib boʻlmaydigan nizo kelib chiqqanda, prezident Konstitutsiyaga binoan, parlamentni yoki uning quyi palatasini tarqatib yuborish huquqiga ega. Qonun bilan belgilangan muddat oʻtgandan soʻng, xalq tomonidan saylangan hokimiyat organlarining vakolati tugatiladi va ularga qaytadan saylov oʻtkaziladi.

O‘zbekiston ijodiy ravishda respublikaviy boshqarishning shunday shakli tanlab olindiki, u Prezident respublikasi, parlamentar respublika va aralash respublikaga xos tomonlar va jihatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Bu mustaqil O‘zbekistonni hozirgi zamonning murakkab vaziyatida talab darajasida boshqarish imkoniyatini beradi.

REGISTON – O‘rta Sharq shaharlaridagi maydon. Samarqand va Buxorodagi registonlar shahar arxitekturasida tutgan o‘rni va tarixiy ahamiyati bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Samarqanddagi Registon ansambli yirik me‘morchilik inshooti sifatida hozirgi kungacha butun dunyoga mashhur.

SO‘M – O‘zbekistodagi pul birligi nomi

STRATEGIYA – ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning bosh yo‘nalishi, barcha sa‘y-harakatlarning poydevori, davlat va jamiyat hayotidagi tub burilish davri uchun xos bo‘lgan boshqaruv san‘ati mazmunini ifoda etadi. Strategiyaning bugungi kun uchun xos bo‘lgan ma‘nosi hozirgi murakkab davrda O‘zbekistonning erkin va farovon davlat bo‘lishiga erishish, odamlar hayotini tubdan yaxshilash, baxtli turmushini, kafolatli tinchligini ta‘minlash, har bir insonning ertangi kuniga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashdan iborat.

SUVERENITET (fransuzcha «souverainite» – mustaqillik; oliy hokimiyat) – quyidagi mazmunlarda ishlatiladi: 1. Davlat suvereniteti – hozirgi davlatshunoslik fanida davlatning ichki va tashqi siyosatdagi to‘la mustaqilligi sifatida talqin qilinadi. 2. Xalq suvereniteti xalqning to‘la hukmronligi, xalq hokimiyati, xalq boshqaruvi ma‘nolarini anglatadi.

TADBIRKORLIK – bu muayyan ijtimoiy-iqtisodiy natijaga erishish maqsadida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ayirboshlashni tashkil etish bo‘yicha mulkdorlarning yoki ular vakillarining ongli va maqsadli iqtisodiy faoliyatidir.

TADRIJIY – tadrijan (arab tilidan olingan) izchillik, asta-sekinlik bilan.

TARBIYA – ta‘lim tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, 1) yangi (yosh) avlodga katta avlodning ijtimoiy-tarixiy tajribasini singdirish orqali uning rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan ijtimoiy vazifa; 2) ijtimoiy institutlar ta‘siri ostida insonning shaxsiy va ma‘naviy dunyosini shakllantirish, rivojlantirish, boyitish va takomillashtirib borishning aniq maqsadga yo‘naltirilgan, tizimlashtirilgan ongli jarayoni.

TARIX – 1. Tabiat va jamiyatdagi har qanday rivojlanish jarayoni. Masalan, Koinot tarixi, yer tarixi, fanlar tarixi va boshqalar tushuniladi. 2. Insoniyatning o‘tmishi va taraqqiyoti, jamiyatlar, davlatlar, tuzumlar, sivilizatsiyalarning vujudga kelishi, rivojlanishi, hamda inqirozi jarayonini o‘rganuvchi fan.

TARIX FANI – xalqning o‘tmishdagi hayoti, qanday voqea-hodisalarni boshdan kechirganligi, insonlar hayoti qanday va nima uchun o‘zgarib borganligi, etnik shakllanishi, davlatchiligi, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayoti, turmush tarzi, hamda hozirgi rivojlanish darajasiga qanday erishganligini o‘rgatadi. Ya’ni, xalqning o‘tmishi, hoziri va kelajagiga yagona tarixiy jarayon sifatida yondashib, o‘tmish hozirgi zamoni, hozirgi davr esa kelajakni yaratadi, degan qarashni shakllantiruvchi fan.

TARIXIY XOTIRA – hozirgi kundagi mustaqillik, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyot, tinch-osuda hayotning tamal toshini qo‘ygan barcha insonlar, buyuk ajdodlarimizni yod etish, mustaqillikni saqlab qolish, asrab-avaylash va mustahkamlash, o‘zbek xalqining kim ekanligi, qanday zotlarning avlodi, qanday merosning vorisi ekanligini bilish, o‘zlikni anglash omili.

TA’LIM – shaxsning ma’rifiy hamda tarbiyaviy darajasini o‘stirish orqali uning rivojlanishini ta’minlash maqsadida o‘rgatuvchi bilan o‘rganuvchilar o‘zaro birgalikda amalga oshiradigan didaktik faoliyat. Shaxsning har tomonlama taraqqiyotini ta’minlash maqsadida ko‘riladigan didaktik chora-tadbirlar tizimi.

TOTALITARIZM (lotincha «totalitare» – yaxlit, to‘liq) – bir shaxs, ijtimoiy sinf yoki guruhning (masalan, harbiylar guruhi) yakkahokimligiga so‘zsiz bo‘ysunishga asoslangan, vaqtincha va o‘tkinchi siyosiy tartib, davlatni boshqarish shakllaridan biri. Totalitar davlat boshqaruv shakli joriy qilingan mamlakatlardan jamiyat hayotining barcha sohalarida davlatning to‘la hukmronligi o‘rnatiladi. Oshkora ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning faoliyati ustidan qattiq nazorat olib boriladi. Demokratik tashkilotlar faoliyati cheklab qo‘yiladi. Totalitarizm vakillari o‘ta markazlashgan hokimiyat tizimi o‘rnatilgan kuchli davlatni tashkil qilish, mamlakatni boshqarishda yakka-yu yagona partiyaning hukmronligini ta’minlash, davlat organlaridagi asosiy mansablarni shu partiya a‘zolari o‘rtasida taqsimlash, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va omma hayoti ustidan partiya nazoratini

oʻrnatish, davlat ichki va tashqi siyosatining asosiy yoʻnalishlarini partiya markaziy tashkiloti tomonidan belgilab berilishi davlat va partiyaga rahbarlik qilishni yakka shaxs – dohiy qoʻlida toʻplash kabi gʻoyalarni ilgari suradilar.

FUQAROLIK – shaxsning muayyan davlat qaramogʻida boʻlishi, shu davlatga, mamlakat ichida ham, uning tashqarisida ham mansub ekanligi, shu mansublikning huquqiy hujjatlar yordamida tasdiqlanganligi. Fuqarolik deganda, insonni huquqiy yoki siyosiy-huquqiy tomondan himoyalaniishi va qonuniy manfaatlarining ushbu davlat ichida va uning tashqarisida himoyalaniishi tushuniladi.

XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR – rezidentlar va norezidentlar oʻrtasidagi xoʻjalik munosabatlari

XALQARO IQTISODIYOT – turli mamlakatlarga tegishli xoʻjalik subyektlari oʻrtasidagi oʻzaro iqtisodiy aloqalar bilan bogʻliq qonuniyatlarni oʻrganuvchi bozor iqtisodiyoti nazariyasi.

XUSUSIY SEKTOR – mamlakatdagi uy xoʻjaliklari va firmalarining yigʻindisi.

HADISI SAHIH – toʻgʻri hadis.

HANDASA – geometriya.

HUDUD – chegara, had.

HUNARMANDCHILIK – yuridik shaxs boʻlmagan jismoniy shaxslarning hunarmandchilik buyurtmalari yoki tovarlari (ishlari, xizmatlari)ni ishlab chiqarish boʻyicha faoliyati.

EʼTIQOD ERKINLIGI – bu oʻz fikr va qarashlariga mahkam, sobitqadamlik bilan ishonish va oʻzgalarni ham oʻzidek hisoblab, ularning lafziga samimiyat bilan ishonishdir.

OʻZBEKISTON PREZIDENTI – Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasida qayd qilinganidek, «Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti davlat boshligʻidir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini taʼminlaydi», Konstitutsiyaning 90-moddasiga koʻra, Prezident «Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti lavozimiga oʻttiz besh yoshdan kichik boʻlmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil Oʻzbekiston hududida muqim yashayotgan Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti boʻlishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to‘g‘ridan to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan besh yil muddatga saylanadi. Prezidentni saylash tartibi O‘zbekiston Respublikasining qonuni bilan belgilanadi».

QADRIYATLAR – borliq, jamiyat, narsalar, voqealar, hodisalar, inson hayoti, moddiy va ma’naviy boyliklarning ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan tushuncha. Qadriyatlar tarixiy va zamonaviy bo‘lishi mumkin. Qadriyatlarning xilma-xil shakllari bor: moddiy, ma’naviy, umum-bashariy, mintaqaviy, umuminsoniy; jamiyat hayotining sohalari bo‘yicha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy qadriyatlar; ijtimoiy ong shakllariga mos keladigan axloqiy, diniy, huquqiy, ilmiy; hayotning ijtimoiy tuzilishiga mos keladigan, milliy, sinfiy, partiyaviy va boshqalar. Qadriyatlar dunyoni bilishning maqsadi, bilimlarimizning haqiqatga mos kelish darajasini aniqlash mezonini yoki biror ideal tarzida ham namoyon bo‘ladi.

QARAMLIK – mamlakat va hududlarni bosib olish yoki boshqa xil yo‘llar bilan ularning ustidan boshqa davlat va guruhlarining hukmronligi o‘rnatilishi oqibatida davlat hokimiyatining oliylik va suverenlik belgilaridan mahrum bo‘lishi. Qaram davlatlar metropoliya davlatlariga siyosiy, iqtisodiy va huquqiy jihatdan qaramlik zanjirlari bilan bog‘langan bo‘ladilar; qaramlikning huquqiy shakllari 2 asosiy guruhdan iborat: 1) xalqaro-huquqiy bog‘liqlik – prorektorat (homiylik), vasiylik, kondomium va mandatli hudud; 2) davlat huquqiy aloqalari.

QIZIL IMPERIYA – 1917–1991-yillarda mavjud bo‘lgan sobiq sho‘ro davlatiga nisbatan ishlatiladigan atama. «Imperiya» so‘zi lotincha bo‘lib, mutlaq hokimiyatga ega hokimni, mahkumlar, mazlumlar ustidan cheklanmagan huquqqa ega, jabr-zulm va ezishga asoslangan idora etish va boshqarish usulini, mustamlakalarga egalik qiluvchi va qaram xalqlarni asoratga solib shafqatsiz ekspluatatsiya qiluvchi yirik tajovuzkor davlatni bildiradi.

QAYTA QURISH – XX asrning 80-yillari o‘rtalarida keng iste‘molga kirgan tushuncha. SSSRda totalitar tizimni isloh yo‘li bilan o‘zgartirishga qaratilgan harakatni anglatgan. Qayta qurish siyosatining maqsadi va vazifasi mamlakatda to‘planib qolgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va mafkuraviy sohalardagi muammolarni «qayta qurish» yo‘li bilan hal etishdan iborat bo‘lgan. M.S. Gorbachyov boshchiligidagi KPSS rahbariyatining bir qismi tomonidan boshlangan bu siyosat mamlakat hayoti va umuman

jahonda ma'lum o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keldi (oshkoralik, siyosiy plyuralizm, «sovuq urush»ning tugashi va h.k.). Qayta qurishni amalga oshirishdagi qarama-qarshilik va noizchiliklar natijasida 80-yillarning oxiri 90-yillarning boshidan mamlakat hayotining barcha sohalarida bo'ronlar kuchayib ketdi. Bunga shu davrda turli respublikalarda bo'lib o'tgan siyosiy voqealar, milliy nizolarning ayrim joylarda ixtilofli tus olishi misol bo'ladi.

G'OYA (arabchada – o'y) – atrofdagi voqealarni fikran o'zlashtirish asosida shakllangan va amaliy harakatga chorlaydigan fikr, niyat, maqsad.

G'oyaning mazmuni insonlar o'z bilimlarini qaysi sohasi to'g'risida mulohaza olib borilayotganiga bog'liq. Masalan, g'oyalar siyosiy, iqtisodiy, diniy, tibbiy, texnikaviy, badiiy, axloqqa tegishli bo'lishi mumkin. Ular jamiyat taraqqiyotiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. G'oyalar jamiyat rivojlanishini jadallashtiradi yoki susaytiradi.

HURRIYAT – (arabcha) siyosiy va iqtisodiy zulmdan xalos bo'lganlik, erkinlik, ozodlik.

HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT – jamiyat taraqqiyoti va davlat shakllarining rivojlanishi jarayonida yuzaga kelgan, davlatni tashkil qilishning eng mukammal shakli va mazmuni. Huquqiy demokratik davlat uchun kurash bundan to'rt–besh asr muqaddam boshlanib, faqat XX asrning ikkinchi yarmida haqiqatga aylana boshladi.

ADABIYOTLAR

Rahbariy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan). <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

5. Mirziyoyev Sh. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.

6. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li // O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996.

7. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. T. 12. – Toshkent: O‘zbekiston, 2004.

8. Karimov I.A. Inson uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. T. 14. – Toshkent: O‘zbekiston, 2006.

9. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

10. Karimov I. O‘zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li. // Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo‘lida. Asarlar, 16-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. 34-35 b.

11. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. T.19. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.

12. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.

13. Karimov I.A. Bizning yo‘limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo‘lidir. Asarlar, 20-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012.

14. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.

Normativ huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yiligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma‘ruzasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

2. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola –Toshkent: Ma‘naviyat, 2017.

3. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. Risola. –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2017.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 2017-yil 7-fevral

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”-gi PF-4947-sonli Farmonida belgilangan vazifalarning ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kompleks o‘rganish natijalari bo‘yicha yig‘ma tahliliy material. –Toshkent: Sano-standart, 2017.

6. Mirziyoyev Sh.M. «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari dadil qadam qo‘ymoqdamiz». O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma yetti yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 01. 09. 2018 yil.

7. Shavkat Mirziyoyev. Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. 2021-01-20// (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi).

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 27-dekabrda PQ-4087-son «Paxta xomashyosini yetishtirishda tomchilatib sug'orish texnologiyalaridan keng foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-iyuldagi «Pillachilik tarmog'ida chuqur qayta ishlashni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 6-sentabrda 2020–2030-yillarda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan yig'ilishdagi ma'ruzasi.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma. –Toshkent: Ma'naviyat, 2019.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. 2022-yil 22-yanvar.

Adabiyotlar, gazeta va jurnallar

1. «Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. Sh. Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. Xalq so'zi, 2016-yil 15-dekabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 5-yanvar kuni sog'liqni saqlash sohasining bir guruh yetakchi mutaxassislari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2017-yil 12-yanvar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. Xalq so‘zi, 2018-yil 4-fevral.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi «Obod mahalla» dasturi to‘g‘risida»gi PF-5467-sonli Farmoni. Xalq so‘zi, 2018-yil 28-iyun.

5. Karimov I. Tinchlik va osoyishtalik – barcha yutuq va marralari-mizning asosidir. Xalq so‘zi, 2013, 10-may.

6. Karimov I.A. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimiz garovidir. Xalq so‘zi. 2012, 10-may.

7. Mustaqil O‘zbekiston tarixining dastlabki sahifalari. – Toshkent, 2000.

8. Erkayev A. O‘zbekiston yo‘li. – Toshkent: Ma’naviyat, 2011.

9. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at // M.Abdullayev va boshqalar: to‘ldirilgan uchinchi nashr. – Toshkent: Sharq, 2006.

10. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir A.Sabirov. – Toshkent: Akademiya, 2013.

11. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор М.А.Рахимов. – Тошкент: Адабиёт учкунлари, 2018.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Oblomurodov N., Tolipov F. O‘zbekiston tarixi. Darslik. –T., 2022.

2. Oblomurodov N., Tolipov F. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. Darslik. –T., 2022.

3. Туляков Э. Тараққиёт стратегияси маркази материаллари асосида. 2020 йил.

4. Усмонов М. Маънавий ва маданий меросни асрашнинг ҳуқуқий асослари. ЎзДСМИ хабарлари. 2018/1(5) —4 б.

5. Усмонов Қ. Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамиятига интеграциялашуви. –Ташкент: Молия, 2003.

6. Файзуллаев Т., Саримсоқов А. Мустақил Ўзбекистоннинг ижтимоий-иктисодий ривожланиши (ўқув-услубий қўлланма). – Наманган, 2013. –185 б.

7. Ўзбекистон мустақиллик йилларида. - Тошкент: Ўзбекистон, 1996.
8. Ўзбекистон тарихи. Р.Ҳ.Муртазаеванинг умумий таҳрири остида. – Тошкент, 2005.
9. Ўзбекистон халқининг дини, маданияти ва урф-одатлари: тарих ва ҳозирги ҳолат. – Тошкент: ТИУ, 2011.
10. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик: тарихий тажриба ва ҳозирги замон. Масъул муҳаррир Р.Ҳ.Муртазаева. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.
11. Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). 2 том. Масъул муҳаррирлар: Р.Абдуллаев, Қ.Ражабов, М.Раҳимов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019.
12. Муртазаева Р.Ҳ. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва толерантлик. Дарслик. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2019.
13. Юнусова Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва маънавий жараёнлар (XX аср 80-йиллари мисолида). – Тошкент: Абу матбуот-консалт, 2009.
14. Янги Ўзбекистоннинг истеъдодли ёшлари. Илмий ишлар тўплами, Иккинчи китоб. –Тошкент: Таълим нашриёти, 2021. 11 б.
15. Юсупов Д. Ўзбекистонда ижтимоий ишнинг ривожланиш жараёнлари. Қадрият. – Тошкент, 2012 йил 4 апрель. – №34. 3 б.
16. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Т.: Шарк, 2000.
17. Ўзбекистон Республикаси: Мустақил давлатнинг бунёд бўлиши. – Т.: Ўзбекистон, 1992.
18. Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар (70–80-йиллар мисолида). Қўлланма. – Тошкент: Шарк, 1999.
19. Қорақалпоғистон тарихи (1917–1994 йй.). – Нукус, 1995.
20. Ғуломов С., Убайдуллаева Р., Аҳмедов Э. Ўзбекистон. – Тошкент: Меҳнат, 2001.
21. Холиқулова Ҳ,Ю. Мустақиллик йилларида Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, маънавий-маданий тараққиёти. (Ўқув қўлланма). –Жиззах, 2020.

22. Xoliqova R.E O‘zbekiston tarixi. O‘quv qo‘llanma. –T., 2020.
23. Xoliqova R.E. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. O‘quv qo‘llanma. –T., 2021.

Elektron ta’lim resurslari:

1. www.gov.uz – Ўзбекистон Республикаси ҳукумат портали.
2. www.lex.uz– Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.
3. “Халқ сўзи” газетаси – [www info XS. Uz](http://www.infoXS.Uz).
4. “Туркистон” газетаси – [www turkiston sarkor. uz](http://www.turkiston.sarkor.uz).
5. “Маърифат” журнали – [www ma’rifat – inform](http://www.ma'rifat-inform).
6. “Жамият ва бошқарув” журнали – [www rzult academy freenet uz](http://www.rzult.academy.freenet.uz).
7. “Мозийдан садо” журнали – [www moziy dostlink. Net](http://www.moziy.dostlink.Net).
8. [www. Ziyo net.uz](http://www.Ziyo.net.uz).
9. https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/talim_tugrisidagi_yangi_qonun_asosiylari_haqida_qisqacha
10. [https://www. norma/uz/uz/](https://www.norma/uz/uz/).
11. Илм-фан – мамлакат тараққиётининг муҳим омилларида бири.<http://med.uz/ses/khorazm/uz/news/detail.php?ID=35778>
12. <http://www.biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/61221-qoraqalpogiston-rспублиkasi-iqtisodiyotini-rivojlanish-tndntsiyalari-va-tizimli-muammolari>
13. <https://uza.uz/uz/posts/korruptsiyaga-qarshi-kurashish-hamda-jamoatchilik-nazorati-ti-11-02-2020>.
14. [meros. uz/uzs/object/](http://meros.uz/uzs/object/).

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1. Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari	
1. 1. O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanining fan sifatida tutgan o‘rni, predmeti, maqsad va vazifalari, fanining metodologik, ilmiy-nazariy asoslari, usullari va tamoyillari.....	7
1. 2. O‘zbekiston tarixini davrlashtirish masalalari.....	10
1. 3. Intellektual salohiyatli, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazishda fanning tutgan o‘rni.....	15
2. Mustaqillik arafasida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlar	
2. 1. XX asr 80-yillari o‘rtalarida respublika ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy hayotidagi inqirozli holatlarning kuchayib borishi. “Paxta ishi”, “O‘zbeklar ishi”.....	25
2. 2. Aholi turmush darajasining og‘irlashuvi. Orol voqeasi, Farg‘ona fojiasi. Respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘zgarishlar. Milliy manfaatlar ustuvorligining o‘zgarishi.....	27
2. 3. Sovet davlatining tanazzulga yuz tutishi. Prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi va Mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilinishining tarixiy ahamiyati.....	36
3. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati	
3. 1. Mustaqillik arafasida O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy holati.....	44
3. 2. Mustaqillikning qo‘lga kiritilishi va uning huquqiy asoslarining yaratilishi	48
3. 3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, uning tarixiy ahamiyati. Davlat ramzlari.....	53
4. O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li	
4. 1. Mustaqil taraqqiyotning dastlabki bosqichidagi muammolar. O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini tanlashi.....	58
4. 2. Taraqqiyotning o‘zbek modeli va uning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy rivojlanish strategiyasi: yangilanish va taraqqiyot yo‘li.....	59
4. 3. O‘zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan strategiya asoslari.....	65

5. 1. Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi	
5. 1. 1. Mustaqil O‘zbekistonda amalga oshirilgan institutsional o‘zgarishlar.....	71
5. 1. 2. O‘zbekistonda ko‘p partiyaviylik tizimining shakllanishi, davlat hokimiyatining huquqiy demokratik asoslarining barpo etilishi.....	78
5. 1. 3. O‘zbekistondagi parlament tizimi va undagi islohotlar. Huquq tartibot organlari va sud tizimidagi o‘zgarishlar.....	82
5. 2. Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi	
5. 2. 1. Fuqarolik jamiyati tushunchasi va uning shakllanish tarixi.....	88
5. 2. 2. Fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi.....	92
5. 2. 3. Nodavlat notijorat tashkilotlari va o‘zini o‘zi boshqaruv organlarining faoliyati, ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o‘rni.....	98
6. Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi. O‘zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi	
6. 1. O‘zbekistonda bozor islohotlarini amalga oshirish va uning asosiy yo‘nalishlari.....	105
6. 2. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning tamoyillari va xususiyatlari.....	109
6. 3. O‘zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish: maqsad, yo‘llari va usullari.....	112
6. 4. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilgan tarkibiy o‘zgarishlar, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish. Soliq tizimidagi islohotlar.....	120
7. O‘zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy o‘zgarishlar	
7. 1. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat tizimini yaratishning zarurati, ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari.....	138
7. 2. Aholining real daromadlari va ularning ko‘rsatgichlari.....	149
7. 3. 2017–2021-yillarda O‘zbekistonni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida aholini ijtimoiy himoya qilish masalalarining asosiy yo‘nalishlari belgilanishi.....	155
7. 4. O‘zbekiston Respublikasi «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi Qonunning mazmun-mohiyati va uning hayotga tatbiq etilishi.....	164

8. 1. Mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi ma’naviy va madaniy taraqqiyot	
8. 1. 1. Ma’naviyat tushunchasi. Mustaqillik yillarida ma’naviy hayot, ma’naviy merosning tiklanishi.....	172
8. 1. 2. O‘zbekistonning milliy istiqlol g‘oyasi, uning mohiyati va ahamiyati.....	176
8. 1. 3. Mustaqillik yillarida adbiyot, san‘at, kino va sport sohasidagi yutuqlar.....	180
8. 2. Mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi ma’naviy va madaniy taraqqiyot	
8. 2. 1. Tarixiy haqiqat, tarixiy xotiraning tiklanishi.....	188
8. 2. 2. Milliy va diniy urf-odatlar, qadriyatlarining tiklanishi. Diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikning qaror topishi.....	193
8. 2. 3. O‘zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga ko‘tarish masalalari.....	199
9. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar	
9. 1. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining mazmun-mohiyati.....	204
9. 2. Maktabgacha ta’lim va umumiy ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar.....	206
9. 3. Oliy ta’lim tizimi va xalqaro hamkorlik.....	209
9. 4. Mustaqillik yillarida ilm-fan sohasida erishilgan yutuqlar.....	219
10. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi	
10.1. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida amalga oshirilgan islohotlar	226
10.2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishi, sanoat va qishloq xo‘jaligi sohasidagi o‘zgarishlar	228
10.3. Qoraqalpog‘istonda ma’naviy-madaniy sohadagi yangilanishlar....	240
10.4. Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik ahvol. Orol fojiasi. Ekologik holatni yaxshilash borasidagi davlat siyosati.	247
11. O‘zbekiston va jahon hamjamiyati	
11. 1. O‘zbekiston Respublikasining tinchliksevar tashqi siyosati asoslarining yaratilishi va uning tamoyillari.....	253
11. 2. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi va xalqaro nufuzining ortib borishi.....	258
11. 3. O‘zbekistonning MDH, Markaziy Osiyodagi qardosh davlatlar va jahonning turli mamlakatlari bilan hamkorlik munosabatlari.....	264
11. 4. O‘zbekiston Respublikasining faol tashqi siyosatining yangi bosqichi.....	286

12. Yangilanayotgan O‘zbekiston: milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari	
12. 1. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining ishlab chiqilishi, uning ilmiy-nazariy asoslari va uning xususiyatlari.....	297
12. 2. Harakatlar strategiyasining hayotga joriy etilishi.....	307
12. 3. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari: Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi, uning yo‘nalishlari va maqsadlari.....	316
13. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni va nufuzining ortib borishi	
13. 1. O‘zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmining joriy etilishi.....	320
13. 2. Jamiyatni demokratlashtirish, ilg‘or xalqaro tajribaga asoslangan davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish.....	332
13. 3. O‘zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslar bo‘yicha samaradorlikning eng muhim ko‘rsatkichlarini oshirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar.....	343
Glossariy.....	350
Adabiyotlar.....	366

R.E.XOLIQOVA, M.N.INATOV

O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI

Darslik

**(Toshkent davlat texnika universiteti
Kengashi tomonidan
darslik sifatida tavsiya etilgan)**

Muharrir	<i>H.Zakirova</i>
Musahhih	<i>S.Alimboyeva</i>
Dizayner	<i>B.Jontemirov</i>

Nashriyot tasdiqnomasi № 0901, 2020-08-07.
Bosishga 17.11. 2023 da ruxsat etildi. Bichimi 60x84^{1/16},
«Times New Roman» garniturasida. Ofset usulida bosildi.
Shartli b.t. 21,8. Nashr tabog‘i 21,6. Adadi 300 nusxa.
28-raqamli buyurtma.

«TURON-IQBOL» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet MFY,
Universitet ko‘chasi.